ANTON CHEXOV

Xameleon

HIKOYALAR

14+

821.161.1-32

CR 51 | 2020/13-126
A.P. Chekhov
Kameleon
I: 2012-378 k

2020/13-126

Anton Tschechow

A. P. Chexov

Xameleon

hikoyalar

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2018

UO'K: 821.161.1-32
KBK 84 (2Ros=Rus)
Ch 51

Chexov, Anton Pavlovich.
Ch 51 **Xameleon.** [Matn]: hikoyalar. / A.P. Chexov, tarjimonlar: A. Qahhor va b. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. – 376 b.

ISBN 978-9943-07-655-6

Dunyo adabiyotida A.P. Chexov o'z ovozi va o'z so'ziga ega bo'lgan noyob ijodkorlardan biri sifatida tan olingan. U hikoyalari orqali ushbu janrni yana bir taraqqiyot pog'onasiga ko'tarib berganligi ham bor gap. O'zbek adabiyotida realistik hikoyalarning paydo bo'lishiga ham ayni yozuvchining asarlari sabab bo'lib, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor hikoyalarining muvaffaqiyatida mazkur adibning maktabi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kitobda yozuvchining eng sara hikoyalari jamlangan.

UO'K: 821.161.1-32
KBK 84 (2Ros=Rus)

2020/13
126
Alisher Navoiy
O'zbekiston MK
N1 32403
391

ISBN 978-9943-07-655-6

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

Olam go'zal!.. Uning maftunkorligini qalbdan his etmoq uchun «insonning hamma narsasi: qiyofasi ham, kiyimi ham, ruhi ham, fikri ham go'zal bo'lmog'i lozim».

A. Chexov

NASHRIYOTDAN

Darhaqiqat, go'zallik oshuftasi bo'lgan Anton Pavlovich Chexov insonning ruh va qalb go'zalligini qo'shiqdek o'z asarlariga chuqur singdira olgan haqiqiy yozuvchi, rus adabiyotini dunyo badiiy tafakkuri maqomiga olib chiqqan mashhur san'atkordir. U umuminsoniy ma'naviy-ruhiy dard va malham haqida nafaqat so'zladi, balki uni kitobxonlar qalbiga jo qildi. Bu beqiyos yaratiqlar uning bebaho asarlarida bo'y ko'rsatib kelmoqda.

A. Chexov adabiy merosini o'rganish, ijod namunalarini tarjima qilishda yurtimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirildi. O'tgan asrning 30-yillarida Cho'lpon boshlab bergan chexovchilik harakati 40-yillarga kelib Abdulla Qahhor va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

Qo'lingizdagi to'plam ham 1947-yilda Abdulla Qahhor tahririda nashr etilgan kitob asosida tayyorlandi. Abdulla Qahhor, Odil Rahimiy, Zumrad, Nabi Alimuhamedov, Mirzakalon Ismoiliy kabi taniqli yozuvchi va tarjimonlarimizning tarjimalaridan tashkil topgan yuqorida qayd etilgan to'plamdagi hikoyalar 60-yillargacha bo'lgan qator nashrlarda birmuncha tahrirlarga uchragan. O'sha yillar, ya'ni Chexovning tarjima asarlari qayta chop etilgan (1956-, 1958- yillar) davrda, Abdulla Qahhor hayot bo'lgan, shu bois bu nashrlar uning e'tiboridan

chetda qolmaganligi aniq. Biz shu nashrlardan foydalanib, bugungi o'quvchilar ruhiyatiga mos tarzda kitobni qayta nashrga tayyorladik.

O'ylaymizki, ushbu to'plam siz aziz kitobxonlar uchun har jihatdan qadrli bo'ladi.

NIQOB

X. degan jamoat klubida ezgu bir niyat bilan bal-maskarad yoki shu yerlik nozaninlar ta'biri bilan aytganda bal-parey berildi.

Soat tungi o'n ikki. Tansa tushmaydigan niqobsiz ziyolilar (bular besh nafar edi) qiroatxonadagi kattakon stol atrofida o'tirib, burun va soqollarini gazetaga ishqab o'qishar, mudrashar, poytaxt gazetalarining mahalliy muxbiri o'taketgan liberal bir janobning ta'biri bilan aytganda «fikr» qilishar edi.

Umumiy zaldan «Vyushki» degan kadril sadosi eshitilardi. Eshik oldidan gurs-gurs qadam bosib, idish-tovoqlarni sharaqlatib damba-dam, lakeylar o'tib turishar edi.

– Mana shu yer tuzukka o'xshaydi, – dedi kimdir bosinqi, bo'g'iq tovush bilan. – Kiraberinglar! Bu yoqqa kiringlar!

Eshik ochilib, yo'g'on gavdali, pakana, kuchercha ust-bosh kiygan, shlyapasiga tovus pati taqqan niqobli bir kishi kirdi. Uning ketidan niqob kiygan ikki xonim va patnis ko'targan lakey ham kirdi. Patnisda bir ko'zacha likyor, uch shisha qizil vino va bir necha stakan bor edi.

– Bu yoqqa! Bu yer salqinroq ham, – dedi u kishi. – Patnisni stolga qo'y. O'tiringlar, xonimlar! Je vu pri a lya trimontran[1]. Sizlar, janoblar, nariroq siljinglar... Nima bu yerda...

U qalqib, stuldagi bir necha jurnalni qo'li bilan surib tashladi.

– Bu yerga qo'y! Sizlar, kitobxon janoblar, nariroq siljinglar; bu yerda gazeta-yu, siyosatga balo bormi... Tashlanglar!

– Mumkinmi, sekinroq gapirsangiz, – dedi ziyolilardan biri niqob kiygan kishiga ko'zoynak orqali qarab. – Bu yer bufet emas, qiroatxona... Bu yer ichkilik ichiladigan joy emas.

– Nega ichkilik ichiladigan joy emas ekan? Nima stol qimirlab to'kiladimi, yo ship o'pirilib tushish ehtimoli bormi?

[1] *Fransuzcha* – marhamat qiling.

Ajab! Ammo... Gapni cho'zmang! Tashlang gazetani... Shusiz ham juda aqllisizlar... Biroz o'qibsizlar bas, ko'z ham ishdan chiqadi. Hammadan ham muhimi menga yoqmayapti, hamma gap shunda.

Lakey patnisni stolga qo'ydi, sochiqni bilagiga tashlab, eshik yoniga borib turdi. Xonimlar shu ondayoq vino ichishga kirishishdi.

– Gazetani shunday ichkiliklardan ortiq ko'radigan aqlli odamlar ham bo'lar ekan-da, deyman, – dedi tovus pati taqqan kishi, o'ziga likyor quyayotib. – Menimcha, muhtaram zotlar, ichgani pullaring bo'lmagani uchun gazetani yaxshi ko'rasizlar. Shunday emasmi? Xo-xo!.. O'qiyaptilar! Xo'sh, nima deb yozipti? Hoy, ko'zoynakli zot! Qanaqa faktlar to'g'risida o'qiyotibsiz? Ho? E, qo'ysangizchi-ya! Oliftagarchilik ham evi bilan-da! Undan ko'ra iching-chi!

Tovus pati taqqan kishi o'rnidan turib, ko'zoynakli janobning qo'lidagi gazetani tortib oldi. U kishining rangi oqardi, keyin qizardi va hayron bo'lib, goh boshqa ziyolilarga qaradi – ular ham bunga qarab turishar edi.

– Siz taltayib ketayotirsiz, muhtaram janob! – dedi u jahli chiqib. – Siz qiroatxonani mayxonaga aylantirayotirsiz, tartibsizlik qilishga, mening qo'limdagi gazetani tortib olishga haqingiz yo'q! Men siz aytgan odamlardan emasman! Siz meni bilasizmi, kimman! Men bank direktori Jestyakov bo'laman.

– Sendaqa Jestyakovlar menga pisand emas! Gazetingni esa mana-mana...

U gazetani yerdan olib mayda-mayda qilib tashladi.

– Janoblar, bu nima degan gap? – dedi Jestyakov. – Bu qanday bo'ldi... Bu hech aqlga sig'maydigan ish-ku...

– Achchig'lari keldi, – dedi u kishi kulib. – hay-hay, juda qo'rqib ketdim-ku! A'zoyi badanim titrab ketayotipti! Menga qaranglar: muhtaram zotlar! Hazil harom, mening sizlar bilan gaplashgani hushim yo'q... Men mana bu xonimlar bilan yakka o'zim aysh-ishrat qilmoqchiman, shuning uchun ko'p xira bo'lmasdan, bu yerni bo'shatib qo'yinglar... Bo'la qolinglar!

Janob Belebuxin, qani tuyog'ingni shiqillat! Nega tumshug'ingni jiyirasan? Chiq degandan keyin chiq! Chiq tezroq deyman, bo'lmasa bo'yningga tushiraman!

– Bu qanday bo'ldi? – dedi sud xazinachisi Belebuxin qizarib, yelkalarini qisib. – Tushunolmadim. Bir surbet bu yerga kirsa-yu... shunaqa qilib o'tirsa.

– «Surbet»ing nimasi? – dedi tovus pati taqqan kishi g'azabi kelib qichqirdi va stolga shunday mushtladiki, patnisdagi stakanlar sakrab ketdi. – Kimga aytayotirsan? Bu niqob kiyib olgan, nima desam bo'laveradi, deb o'ylaysanmi? He xotin taloq! Chiq deganimdan keyin chiq! Hoy, bank direktori, yaxshilikcha chiqib ket. Yo'qol hammang, muttahamlar! Tuyog'ingni shiqillat.

– Ko'ramiz kim chiqib ketarkan! – dedi Jestyakov hayajondan ko'zoynagigacha terlab. – Ko'rsatib qo'yaman! Hoy, oqsoqolni chaqir bu yoqqa!

Bir daqiqadan keyin tansadan hansirab qolgan ko'kragiga ko'k tasma toqqan, kichkinagina, mallarang oqsoqol kirdi.

– Chiqing bu yerdan! – dedi u. – Bu yer ichkilik ichiladigan joy emas. Marhamat qilib bufetga chiqing!

– Sen nega kelding, – dedi niqobli kishi. – Men seni chaqirdimmi?

– Qo'lingizni paxsa qilmang! Chiqing deyman.

– Menga qara, senga bir daqiqa muhlat beraman... Sen bu yerning oqsoqolisan, ulug'isan, shuning uchun mana bu masxarabozlarni sekin, izzati bilan bu yerdan olib chiqib ket. Mening xonimlarim bu yerda begona odam bo'lishini xushlamaydi... Uyalishadi. Men pul sarf qilganman. Bularning yechinib, yayrab o'tirishini istayman.

– Bu sho'rtumshuq bu yer og'il emasligini bilmaydi, shekilli, – dedi Jestyakov qichqirib. – Evstrat Spiridonichni chaqiringlar!

– Evstrat Spiridonich! – deb qichqirdi zalda kimdir. – Evstrat Spiridonich qanilar?

Politsiya mundiri kiygan chol – Evstrat Spiridonich darrov keldi.

– Marhamat qilib, chiqing bu yerdan! – dedi u bo'g'iq tovush bilan va baqrayib, bo'yalgan mo'ylovlarini qimirlatdi.

– Obbo, juda qo'rqitib yubording! – dedi niqobli kishi xaxolab kulib. – Voy, voy, qo'rqitding-ku! Buni qaranglar-a! Mo'ylovi mushukning mo'yloviga o'xshaydi. Baqrayganini ko'r... Ha-ha-ha!

– Gapni cho'zma! – dedi Evstrat Spiridonich bor tovushi bilan baqirib titrab. – Chiq bu yerdan! Hozir buyuraman, olib chiqib tashlaydi!

Qiroatxona g'ala-g'ovur bo'lib ketdi, qisqichbaqaday qizargan Evstrat Spiridonich yer tepinib qichqirar edi. Jestyakov qichqirardi. Belebuxin qichqirardi. Hamma ziyolilar qichqirardi, ammo hammasining tovushini niqobli kishining yo'g'on tovushi bosib ketar edi. Bu to'polon natijasida tansa to'xtadi, hamma qiroatxonaga yopirilib kirdi.

Evstrat Spiridonich, dag'dag'a uchun klubda bo'lgan hamma mirshablarni chaqirdi, o'zi bayonnoma yozgani o'tirdi.

– Yoz, yoz, – dedi niqobli kishi uning qog'oziga barmog'i bilan niqtab. – Endi men sho'rlikning boshimga nimalar kelar ekan-a? Sho'rginam qursin! Men g'aribni nega endi xarob qilasiz? Ha, ha! Xo'sh? Bayonnoma tayyor bo'ldimi? Hamma qo'l qo'ydimi? Xo'p, endi qaranglar!.. Bir... ikki... uch!..

Niqobli kishi o'rnidan turdi, qomatini rostlab yuzidan niqobini oldi. Mast basharasini ochib, hammaga qaradi va qilmishi qattiq ta'sir etganidan zavqlanib, o'zini kresloga tashladi va qahqaha urib kuldi.

Haqiqatdan uning bu qilmishi hammani hang-u mang qilib qo'ydi. Hamma ziyolilar gangib – oqarib-bo'zarib bir-biriga qaradi, ba'zisi bo'ynini qashladi. – Evstrat Spiridonich bilmasdan ko'p ahmoqona bir ish qilganday tomog'ini qirib qo'ydi.

Ma'lum bo'ldiki, to'polon qilgan kishi shu yerlik millioner, fabrikant, faxriy grajdanin[1], o'zining janjalkashligi, ezgu ish-

[1] *Faxriy grajdanin* – podsho hukumati zamonida turli xizmatlari (aksari cherkov, monastir, kasalxona foydasiga iona qilganliklari) uchun ko'proq savdogarlarga beriladigan unvon.

larga himmatli ekani va mahalliy matbuotda ko'p martalab zikr qilingan, maorifparvarligi bilan tanilgan Pyatigorov ekan.

– Xo'sh, chiqib ketasizlarmi, yo'qmi? – dedi Pyatigorov birpasdan keyin.

Ziyolilar indamasdan, oyoq uchida yurib, chiqib ketishdi va Pyatigorov eshikni qulflab oldi.

– Buning Pyatigorov ekanini sen bilar eding-ku, axir! – dedi sekin xirillab Evstrat Spiridonich, qiroatxonaga vino olib kirgan lakeyning yelkasidan ushlab, silkib. – Nega indamading?

– Aytmagin degan edilar!

– «Aytmagin» degan emishlar... Bir oy qamab qo'ysam, ana undan keyin «Aytmagin dedilar!» deyishni bilib olasan. Yo'qol!! Sizlar ham chakki emas, janoblar, – dedi u ziyolilarga qarab, – birpas chiqib tursalaring nima bo'lar edi! Mana endi o'zlaring pishirgan oshni o'zlaring ichinglar! E janoblar, janoblar... Yomon ko'rganim shunaqa ish, xudo haqi!

Ziyolilar xuddi bir kor-hol bo'lishini oldindan sezganday bir-birlari bilan pichirlashib, bo'yinlarini qisib, xomush va xafa holda klubda yurar edilar... Ularning xotinlari, qizlari Pyatigorovning «koyigani»ni va jahli chiqqanini bilib, asta-sekin uylariga tarqaldilar. Tansa to'xtab qoldi.

Soat ikkida Pyatigorov qiroatxonadan chiqdi. U mast, gandiraklar edi. Zalga kirib, orkestrga yaqin bir yerga o'tirdi va musiqa eshitib, pinakka ketdi, keyin bir yoqqa qiyshayib, xurrak otdi.

– Chalma! – dedi oqsoqol musiqachilarga. – Jim!.. Yegor Nilich uyquga ketdilar.

– Uyingizga eltib qo'yaymi, Yegor Nilich? – dedi Belebuxin engashib, millionerning qulog'iga.

Pyatigorov xuddi yuziga qo'ngan pashshani uchirmoqchi bo'lganday labini qimirlatdi.

– Uyingizga eltib qo'yaymi, – dedi Belebuxin yana. – Yo izvoshingizni chaqirtirib beraymi?

– A? Kimni? Sen... nima deysan?

– Uyingizga eltib qo'yay... Alla qiling.

– Uyga ketaman... Eltib qo'y!

Belebuxinning joni kirdi va Pyatigorovni ko'tara boshladi. Boshqa ziyolilar ham chopib kelishdi va iyib ketishib, faxriy grajdaninni ko'tarishdi, avaylab izvoshga olib chiqishdi.

– Faqat artist, talant egasigina shuncha odamni laqillatib ketishi mumkin, – dedi Jestyakov kulib, uni izvoshga o'tqazayotib. – Juda-juda qoyil qoldim, Yegor Nilich! Hali-hali kulaman-a... Ha, ha... Biz bo'lsak yugurib, jon kuydirib yuribmiz! Ha, ha. Ishonasizmi? Teatrda ham bunchalik kulgan emasman... Ko'p qiziq ish qildingiz-da! Bu kecha – umr bo'yi esimdan chiqmaydi.

Pyatigorovni kuzatib, ziyolilar xursand bo'lishdi, tasalli topishdi.

– Menga qo'lini berib xayrlashdi, – dedi Jestyakov mamnuniyat bilan. – Demak, tuzuk, xafa bo'lmapti...

– Iloyim shunday bo'lsin, – dedi Evstrat Spiridonich uf tortib.

– O'zi ko'p rasvo, yaramas odam, lekin xayrli ishlarga himmatli-da, shunisi bor!.. Xafa qilish yaramaydi!..

YOVUZ NIYATLI KISHI

Sud tergovchisi huzurida tik ko'ylak, seryamog' lozim kiygan kichkinagina, nihoyat darajada ozg'in bir mujik turipti. Uning mo'y bosgan bujur yuzlarida, qalin va uzun qoshlari ostidan zo'rg'a ko'rinib turgan ko'zlarida tund bir shiddat ifodasi bor. Qanchadan beri taroq tegmagan chigal sochlari boshini shapkadek qoplab olib, u chehraga yana ko'proq shiddat, o'rgimchak shiddati berardi. U yalangoyoq.

– Denis Grigoryev! – deb unga xitob qilib so'z boshlaydi tergovchi. – Yaqinroq kelib mening savollarimga javob ber. Ushbu iyul oyining yettinchi kuni temir yo'l qorovuli Ivan Semyon o'g'li Akinfov erta bilan yo'lni aylanib yurib, 141- chaqirımda seni ko'ripti, sen – relsni[1] shpalga[2] bog'layturgan gaykani[3] burab, chiqarib turgan ekansan. Mana o'sha gayka!.. U seni shu gayka bilan ushlapti. Shunday bo'lgan edimi?

– Labbay?

– Butun voqea shu Akinfov aytgandek bo'lganmidi?

– Ha, shunday bo'lgandi.

– Yaxshi; xo'sh, endi aytib ber-chi: gaykani nega burab chiqarding?

– Labbay?

– Sen u «labbay» laringni qo'yib, savolga javob ber; gaykani nima uchun burab chiqarding?

Denis shipga qaragan holda xirqirab javob beradi:

– Bir keragi bo'lmasa burab chiqararmidim?

– Bu gayka senga nima uchun kerak bo'ldi, axir?

– Gaykami? Biz bu gaykadan cho'kdirgich[4] yasaymiz...

– Kim u, «biz» deganing?

---

[1] Temir iz.

[2] Temir iz ostida ko'ndalang yotqiziladigan yog'och.

[3] Burma mixlarni bir-biriga bog'laydigan qalpoq.

[4] Qarmoq yoki to'rni suvga botirish uchun ularga osiladigan og'irlik.

– Biz, aholi... Klimov qishlog'ining mujiklari.

– Menga qara, og'ayni, sen unaqa o'zingni telbalikka solmasdan, durustroq gapirsang-chi. Bo'lmag'ur cho'kdirgichlar bilan boshni aylantirib yolg'on gapirma.

Denis ko'zlarini pilpillatib turib, so'zlaydi:

Umrimda yolg'on gapirgan odam emasman. Endi kelib, mana yolg'onchi bo'lib o'tiribman... Cho'kdirgich bo'lmasa ish bitadimi, taqsir? Qarmoqqa chuvalchang yo bo'lmasa mayda baliqni o'tkazganingminan, u o'lgurda cho'kdirgich bo'lmasa, suvga botadimi? Yolg'onchi emishman... – iljaydi Denis. – Suv betida qalqib yuraveradigan bo'lsa, undan nima foyda? Olabug'ani oling, cho'rtanni oling, shirin baliqni oling – hammasi chuqurdagi imlamaga[1] keladi; suv betida turgan imlamani shilishper[2] cho'qisa cho'qiydi, uyam bo'lsa yilda bir... Bizning soyda shilishper o'zi yo'g'am... U baliq keng joyni yoqtiradi.

– Sen menga shilishperdan gapirib nima qilasan?

– Labbay? O'zingiz so'rab yotibsiz-ku! Biz tomonda katta-katta boylar ham baliqni shunaqa qilib tutadi. Eng yaramas bir bolani olgan vaqtingizdayam: cho'kdirgich bo'lmasa baliq ovlamaydi. Albatta, tushunmagan odam bo'lsa boshqa gap: – u, cho'kdirgich bo'lmasayam ovga chiqaveradi. Ahmoqqa zakon yo'q degan gap bor emasmi, axir?..

– Demak, sen o'sha gaykani cho'kdirgich yasash uchun burab chiqargan ekansan-da?

– Bo'lmasam-chi? Nima, uni soqqa qilib o'ynardimmi?

– Cho'kdirgich uchun yo qo'rg'oshin, yo miltiq o'qi... yo bironta mix topib ishlatsang bo'lardi-ku...

– Qo'rg'oshin ko'chada tushib yotgani yo'q, u pulga keladi, mix bo'lsa yaramaydi. Gaykadan boshqasi qo'l kelmaydi... U ham og'ir, ham tayyorgina teshigi bor.

– Jinnilikka soladi-ya o'zini! Go'yo kechagina dunyoga kelgan-u, yo bo'lmasa osmondan tushgan. Bu gayka burashning oqibati qanday bo'lishini bilmaysanmi, hoy esi past? Agar qo-

---

[1] Xo'rak.

[2] Baliq.

rovul ko'rib qolmasa, poyezd izidan chiqib ketib, qancha odam o'ladi! Sen odam o'ldirgan bo'larding, odam!

– E, Xudo saqlasin, taqsir! Nega odam o'ldiray? Nima, biz chulchutmidik, yo yo'lbarsmidik? Xudoga shukur, taqsir, yoshimiz shunchaga yetib odam o'ldirish tugul, unday narsalarni o'ylaganimizam yo'q... O'zing saqla, Parvardigorim, rahming kelsin... Gapingizni qarang-a?

– Xo'sh, seningcha, poyezdlarning ag'anashi nimadan bo'ladi? Bir-ikkita gaykani burab chiqardingmi, ag'anaydi-ketadi!

Denis iljayadi, ishonmagandek bo'lib, baqrayib tergovchiga qaraydi.

– Yo'g'-e! Necha yildan beri butun qishloq gayka burash bilan tirikchilik qilsak ham, shu kungacha xudo o'zi saqlab keldi, mana endi ag'anash, odam o'ldirish degan gaplar chiqib turipti... Men uning relsini olib ketsam, yo bo'lmasa, aytaylik, yo'lga bitta-yarimta xodani ko'ndalang qilib qo'ygan bo'lsam, ana unda poyezd, ehtimol, ag'anardi, bu bo'lsa... nihoyati bir gayka, xolos... Gayka-ya!

– Sen, axir, tushunsang-chi, relsni shpallarga o'sha gaykalar bilan bog'laydilar!

– E, uni biz yaxshi bilamiz... Biz, unaqa, hammasini burab olmaymiz-da... jindak qoldiramiz... Telbalarning ishini qilmaymiz... tushunamiz...

Denis esnaydi va og'zini cho'qintiradi[1].

– O'tgan yili shu yerda bir poyezd ag'anab edi, – deydi tergovchi. – Sababi endi ma'lum bo'ldi...

– Nima dedingiz?

– O'tgan yili deyman, bir poyezd izidan chiqqan edi. Shuning sababi mana endi ma'lum bo'ldi... Ha-a, bildim!

– Siz mehribonlarimiz, shunaqa narsalarni bilish uchun bilimdon bo'lgansizlar-da. Xudo fahm berganda kimga berishini yaxshi bilgan... Siz, mana, bu unday, bu munday deb darrov gapning fahmiga yetdingiz, ammo anovi qorovulingiz bir mujik

[1] Esnaganda og'iz ochiladi, shunda shayton kirib qolmasin, deb og'zini cho'qintirish xristianlarda bor.

emasmi, hech narsaning fahmiga bormasdan, odamning yoqasiga osilib, sudray beradi... Ilgari bir narsaning fahmiga borgin, undan keyin sudra-da! Mujik bo'ldimi, miyasi ham mujikka yarasha bo'ladi... Taqsir, muni ham daftaringizga yozib qo'ying, u meni ikki marta lunjimga, yana tag'in ko'kragimga mushtladi.

– Sening uyingni axtargan vaqtda yana bitta gayka topiptilar... Munisini qachon va qayerda burab olgan eding!

– E, siz anovi qizil sandiq ostida yotgan gaykani aytasizmi?

– Qayerda yotganini bilmayman, ishqilib senikidan topganlar. Qachon burab olgansan?

– Uni men burab olganim yo'q. Uni menga ana u Semyon qiyshiqning o'g'li Ignashka bergan. Men haligi qizil sandiq ostidagisini aytayotibman, ammo tashqarida, chanadan topilganini Mitrofan ikkovimiz burab chiqarganmiz...

– Qaysi Mitrofan u?

– Petrov Mitrofan... Eshitmaganmisiz? O'zi to'r qilib, boylarga sotadi. Unga haligi gayka o'lgurdan juda ko'p kerak bo'ladi. Har bir to'rga, men sizga aytsam, o'ntadan ketadi...

– Menga qara... Jazo qonuni majmuasining 1081-moddasida aytilganki, basharti biror kimsa yomon niyat bilan temir yo'lga biron zarar yetkizsa, agarda mazkur zarar natijasida o'sha yo'lda ketayotgan transport xavf ostida qoladigan bo'lsa va u ishning natijasida falokat ro'y berishini ul kimsa o'zi bilsa... tushundingmi? Bilsa!.. Bu burab olishning oqibati qanday bo'lishini sen bilgansan, albatta... Ul kimsa katorga ishlariga yuborilmoqqa hukm etiladi.

– Siz yaxshi bilasiz, albatta... Biz nodon odamlarmiz... biz nimani bilardik?

– Sen hamma narsani bilasan! Hozir sen yolg'on aytayotibsan, o'zingni telbalikka solasan!

– Nega yolg'on aytay? Ishonmasangiz qishloqqa borib so'rang... Cho'kdirgich bo'lmasa yelim baliqdan boshqa narsa tutib bo'lmaydi; toshboshi baliqdan bemaza baliq bormi dunyoda, o'shayam cho'kdirgich bo'lmasa ilinmaydi.

Tergovchi kuladi:

– Ha-a, shilishperdan gapir tag'in!

– Bizning soyda shilishper bo'lmaydi. Qarmoqqa kapalakni o'tkazib, cho'kdirgichsiz tashlasak qo'shboshi baliq ilinadi, xolos, uyam onda-sonda.

– Bo'ldi, jim...

Jimlik cho'kdi. Denis og'irligini goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga solib, ko'k movut yopilgan stolga qaradi va zo'r berib kiprik qoqdi, qarshisida go'yo movut emas, quyosh ko'rinayotganday. Tergovchi shoshilib yozadi.

Biroz jimlikdan so'ng:

– Men endi ketaveraymi? – deydi Denis.

– Yo'q. Men seni mirshablarga qo'shib, qamoqxonaga jo'nataman.

Denis kiprik qoqishdan to'xtab qalin qoshlarini ko'tarib, to'raga savol nazari bilan qaradi:

– Bu nimasi? Nega qamoqxonaga yuborasiz, janob? Sira vaqtim yo'q, hozir katta bozorga jo'nashim kerak; Yegorda yog' pulidan uch so'm qoluvdi, o'shani olmasam bo'lmaydi...

– Jim tur, xalaqit berma.

– Qamoqxonaga emish... biron gunohim bo'lsa, mayliydi, borardim, yo'qsa bekordan bekorga... quruq tuhmatka-ya... Bo'lmasa, nimaga, axir? O'g'rilik qilgan bo'lmasam, mushtlashgan bo'lmasam... Oliq-soliqdan boqimanda qolgan, deb o'ylasangiz, janob, xotirjam bo'ling, oqsoqolning gaplariga ishonmang... Siz ana u to'radan so'rang, taqsir... U oqsoqolda imon degan narsa yo'q o'zi...

– Jim tur!

Denis:

– Haliyam jim turibman... – deb g'udullaydi. – Xatlash vaqtida oqsoqol juda orttirib yozgan, munga men qasam ichib tasdiqlayman. Biz o'zimiz – uch og'aynimiz: Kuzma Grigoryevich, chunonchi, Yegor Grigoryevich, undan keyin mana men, Denis Grigoryevich...

– Sen menga xalaqit berayotibsan... – deydi tergovchi, so'ngra qichqiradi. Hoy Semyon! Olib bor mani!

2020/13
126

Ikkita haybatli soldat kelib, uni mahkamadan olib chiqib ketarkan, Denis yana so'zlaydi:

– Biz o'zimiz uch og'aynimiz. Birining gunohiga biri javobgar emas... Soliqni Kuzma to'lamasin-u, javobini men, Denis beray emish... Sudyalar! Attang, burungi xo'jayinim katta general o'lib ketdi-da, xudo rahmat qilgur, yo'qsa, siz sudyalarning toza adabingizni berardi... Adashmasdan, yaxshi bilib hukm qilish kerak. Ursang ham mayli, lekin gunohim bo'lsa ur, insof bilan ur...

LOZIM CHORALAR

Mahalliy qamoqxona nazoratchisining ifodasicha, geografiya xaritasida ismini teleskop bilan ham ko'rib bo'lmaydigan kichkina va uyezdsiz bir shaharcha, quyoshning nurlari bilan porlamoqda. Jimjitlik. Shahar idorasidan chiqib savdo rastalari tomon sekin-sekin sanitariya komissiyasi ketib bormoqda, bu komissiya shahar doktori, politsiya nazoratchisi, shahar idorasining ikki vakili hamda bir savdo vakilidan iborat. Orqada kamoli hurmat bilan mirshablar ketmoqda... Komissiyaning yo'li ham, do'zax yo'li singari, yaxshi niyatlar bilan to'shalgan. Bu sanitarlar, ketib borarkan qo'llarini to'lg'ay-to'lg'ay iflosliklar, badbo'yliklar, lozim choralar va boshqa, shuningdek, o'latga tegishli narsalar to'g'risida so'zlashadilar. Ularning gaplari shu qadar mazalik bo'ladiki, hammadan oldinda ketib boruvchi politsiya nazoratchisini birdaniga zavq olib ketadi-da, orqasiga qayrilib, deydi:

– Mana shu tariqada tez-tez yig'ilishib, muzokaralar qilishib tursak edi, taqsirlar! Ham ko'ngil ochilardi, ham kishi o'zini binoyi sezardi, yo'qsa biz g'ajishganimiz-g'ajishgan. Azbaroyi xudo!

Savdo vakili xuddi o'ziga qurbon tanlab turgan bir jallod singari, doktorga yuzlanadi:

– Kimdan boshlasak ekan? Osheynikovning do'konidan boshlasak qanday bo'lar ekan, Anikita Nikolaich? Avvalo u o'zi muttaham odam, va... ikkinchidan, uni ham tekshirishga vaqt keldi. Bir kun uning do'konidan biznikiga grechixa yormasi olib kelgan edilar, qarasam ichida kalamush tezagi yuripti... Xotinim og'ziga ham olmadi!

Doktor loqayd javob berdi:

– Nimasi bor? Osheynikovdan bo'lsa, Osheynikovdan boshlayveramiz-da.

Sanitarlar, viveskasiga – «A.M. Osheynikovning qand, qahva va boshqa kolonial mollar magazini», deb yozilgan bir do'konga kirdilar-da, uzundan uzoq muqaddimalarga kirishmasdan darhol tekshira boshladilar.

Qozon sovunlaridan chiroylik qilib uyulgan ehromga qararkan:

– Joyida... – deydi doktor. – Sovunlardan qanday Babil qal'alari yasab yuboribsan! Hunar bu, qarang-a! Iyi, iyi! Bu qanday gap bo'ldi? Buni qarang, taqsirlar! Demyan Gavriloyich sovunni ham, nonni ham bir pichoqda kesar ekanlar!

Do'kon egasi bunga qarshi, xuddi haqli javob qaytarganday bo'lib, dedi:

– Bundan hech bir vaqt vabo paydo bo'lmaydi, Anikita Nikolaich!

– U-ku rost-a, lekin yaxshi emas, axir! Men ham, axir, nonni sendan olaman.

– Yaxshi odamlarga alohida pichog'imiz bor. E, xotirja.n bo'ling... Nima deb o'tiribsiz...

Politsiya nazoratchisi ko'zlarini suzib cho'chqa soniga qaraydi, anchagacha uni tirnog'i bilan timdalab ko'radi, qattiq iskaydi, so'ngra cho'chqa sonini chertib turib so'raydi:

– Buning ichida strixnin[1] ham bo'ladimi?

– Yo'g'-e... Unday demasinlar-e... Unday qilarmidik!

Nazoratchi xijolat bo'lib, u yerdan ketadi, undan keyin yana ko'zlarini suzib, Asmolov va sheriklarining preyskurantiga[2] tikiladi. Savdo vakili qo'lini grechixa yormasi turgan bochkaga solsa, qo'li yumshoq, barqut singari bir narsaga urinadi... Bochkani ichiga qaraydi va so'ngra yuzida mehr alomati paydo bo'ladi.

– Mushukcha... mushukcha! Yumshoq maxluqcha! – deb g'ujurlaydi u, – yormaning ustiga uzalib, boshlarini ko'tariptilar... – Erkalik qilayotirlar... Sen, Demyan Gavrilich, mushukchadan birontasini biznikiga berib yuborsang bo'lardi!

---

[1] O'tkir zahar.

[2] Narxlarning ro'yxati.

– Mumkin... Ammo taqsirlar, gazaklarni ko'rmakchi bo'lsangiz agar... mana selyodka, pishloq... qizil baliq, marhamat qilib ko'ring... Bu baliqni payshanba kuni tushirdim, eng yaxshi baliq... Mishka, pichoqni ber!

Sanitarlar baliqni pichoq bilan to'g'ragach, ilgari bir qur iskab olib, so'ngra tatib ko'rmoq uchun og'izlariga soldilar.

Do'kon egasi Demyan Gavrilich, xuddi o'z-o'ziga gapirganday deydi:

– Shu bahonada men o'zim ham jindak ovqatlanib olay. Allaqanday bir shisha dori yotib edi. Baliqdan oldin jindak urib olsammi... Unda, baliqning ta'mi ham o'zgacha bo'ladi... Mishka, o'sha shishani bu yoqqa ber!

Mishka, lunjini shishirib va ko'zini baqraytirib shishani og'zini ochadi-da, «taqq!» etib prilavka ustiga qo'yadi. Politsiya noziri, chuchmallanib, gardanini qashigani holda deydi:

– Nahorda ichish... – deydi. Ammo birgina stakan bo'lsa, balki... Demyan Gavrilich, beradigan bo'lsang, tezroq bo'l, yo'qsa sening arag'ingga sira vaqtimiz yo'q!

Chorak soatdan keyin sanitarlar lablarini arta-arta va gugurt cho'pi bilan tishlarini kovlagan holda, Golorubenko deganning do'koni tomon ketib boradilar. O'chakishganday, o'tadigan yo'l ham yo'q... Besh nafar polvon kishi yuzlari qip-qizargan va terlagan holda, do'kondan tashqariga yog'liq bochkalarni g'ildiratmoqdalar.

O'ngga o't... Chekkasidan tort... tort, tort deyman! Tagiga yog'och qo'y... e, padaringga la'nat! Chetroqqa o'tib turing, to'ra, bosib ketadi!

Bochka eshikka tiqilib qolib, o'rnidan sira jilmaydi. Polvonlar butun kuchlari bilan zo'r berib, uni itaradilar va qattiq-qattiq pishillashib, baland ovoz bilan so'kinadilar. Juda zo'r berib itarish natijasida, shuncha ko'p pishillash bilan havoning sofligi ham yaxshigina buzilgach, nihoyat, bochka o'rnidan jiladi, ammo tabiat qonunining aksi o'laroq orqaga qarab g'ildiraydi-da, yana eshikka tiqilib qoladi. Yana pishillash boshlanadi.

– Tfu! – deydi nazoratchi. – Shibukinnikiga o'ta qolaylik. Bu la'natilar kechgacha pishillashadiganga o'xshaydi.

Ammo Shibukinning do'koni bu vaqtda qulflangan edi.

Sanitarlar, bir-birlariga qarashib, taajjublanadilar:

– Hozirgina ochiq edi-ku! – deydilar. – Biz Qsheynikovnikiga kirgan vaqtimizda, u eshik oldida mis choynakni yuvib turgan edi. – So'ngra yopiq do'kon oldida turgan gadoydan so'raydilar: – qani bu?

Gadoy xirqiroq ovoz bilan deydi:

– Iso yo'liga bir narsa beringlar. Bir mayib bechoraman, xayr-u saxovat qiling, to'ralar. Ilohim, bola-chaqalaringizning...

Sanitarlar qo'l siltab, nari ketdilar. Shahar idorasi vakili Plyuninging ulardan ajralib qolib, gadoyga yonidan bir tiyin olib beradi-da, xuddi bir narsadan qo'rqqanday apil-tapil cho'qinib, sheriklarining orqasidan yuguradi.

Ikki soatcha o'tgandan keyin, komissiya endi qaytib boradi. Sanitarlar charchagan va ezilgan ko'rinadilar. Ularning bu safarlari bekor ketgani yo'q, chunki mirshablardan biri, tantana bilan qadam bosarkan, bir savat to'la sasigan olma ko'tarib boradi.

Nazoratchi «Araq savdosi. Araqlar va vinolar» deb yozilgan viveskaga qaragan holda, deydi:

– Shuncha halol mehnatdan keyin, endi jindakkina tomoqni ho'llab olsak yomon bo'lmas edi.

– Ha, albatta. Yomon bo'lmas edi. Istasalaring kiraylik.

Sanitarlar yerto'la – mayxonaga tushadilar-da, oyog'i qiyshiq stol tegrasida davra olishib o'tiradilar. Nazoratchi xo'jayin tomonga imo qiladi, shundan keyin stol ustida darhol shishalar paydo bo'ladi.

Savdo vakili ichkilikni icharkan yuzini burishtirib:

– Afsuski, gazagi yo'q, – deydi. – Tuzlangan bodringdan bersakmikan... Unday desam...

U kishi darhol haligi mirshab tomonga burilib, olmaning yaxshi-yaxshisini tanlaydi-da, gazak qiladi.

Nazoratchi, ajablangandek bo'lib, deydi:

– Oh... buning uncha buzilmaganlari ham bor ekan. Qani ber-chi, men ham bir-ikkita tanlab olay! E, sen idishning o'zini shu yerga qo'y... Yaxshi-yaxshilarini tanlab olamiz-da, archib

yeymiz, qolganini tashlab yuborsang ham bo'ladi. Anikita Nikolaich, qo'ying! Mana shunaqa tez-tez yig'ilishib, muzokara qilishib tursak. Yo'qsa, bu pastqam joyda hech narsani ko'rmay umring o'tadi: na ma'rifat, na klub, na ulfatchilik – Avstraliyaning xuddi o'zginasi! Quyib ichinglar, taqsirlar! Doktor, olmadan oling! Siz uchun o'zim, o'z qo'lim bilan archdim!

Mirshab, yerto'ladan chiqib kelayotgan nazoratchidan:

– Taqsir, to'ra, bu savatni nima qildim endi? – deb so'raydi.

– I... savat? Qanday savat? Ha-a! Olmasi bilan birga yo'q qil darrov!.. Yuqumli kasalning uyasi u!

– Olmasini yeb bo'ldilar-da!

– Ha-a... juda soz! Me-enga q-qara... mening uyimga borib, bolalarimga ayt, xafa bo'lmasin... Men faqat birgina soat... Plyuninnikida uxlab kelaman... Uqdingmi? Uxlab kelaman. Uyqu tangrisiga salom berib kelaman. Sprexen zi deych[1], Ivan Andreich.

Shundan keyin, u ko'zini yuqori ko'tarib, allaqanday bir alam bilan bosh chayqaydi-da, qo'llarini kerib turib:

– Butun umrimiz shunday o'tadi! – deydi.

[1] Olmoncha «olmoncha bilasizmi?»

SEMIZ VA ORIQ

Nikolayev temir yo'lining vokzalida ikki oshna uchrashib qolishdi. Biri semiz, biri oriq. Semiz hozirgina vokzalda ovqat yegan – yog'liq labi pishgan olchaday yaltirab turipti. Undan xeres vinosi va fierdoranje degan atirning hidi kelar edi. Oriq esa vagondan hozirgina tushgan va chemodan, tugun, kartonlar ko'tarib olgan edi. Undan vetchina va qahva hidi kelar edi. Uning orqasida oriq, cho'ziq yuzli xotini, qisiq ko'zli novcha gimnazist – o'g'li turishipti.

– Porfiriy! – dedi semiz, oriqni ko'rib. – Senmisan! Bo'talog'im! Necha-necha yoz, necha-necha qishlar o'tib ketdi!

– E! – dedi oriq hayron qolib. – Misha! Birodarim! Qadrdonim. Xo'p eson-omon bormisan?

Oshnalar qayta-qayta uch marotaba og'iz-burun o'pishgandan keyin, yoshli ko'z bilan bir-birlariga tikilishdi. Ikkovi ham o'zida yo'q xursand bo'lib dovdirab qoldi.

– Azizim! – dedi oriq og'iz-burun o'pishgandan keyin. – Buni qara-ya! Xo'p uchrashib qoldik-da! Qani menga tuzukroq qara-chi! Hali ham o'sha ilgarigidek, chiroyliksan-a! Hamon o'shanday jonon, olifta! Obbo, sen-ey! Xo'sh, qalaysan? Boyidingmi? Xotin oldingmi? Men uylandim, mana... Bu xotinim, Luiza Vansenbax... Lyuteran mazhabida... Bu esa o'g'lim Nafanail, uchinchi sinfda o'qiydi... Nafanail, bu kishi mening qadrdon do'stim! Gimnaziyada birga o'qiganmiz!

Nafanail bir oz o'ylab turib, shapkasini boshidan oldi.

– Gimnaziyada birga o'qiganmiz, – dedi oriq davom etib. – Esingda bormi, seni nima deb kalaka qilishar edi? Hukumat kitobini papiros bilan kuydirganing uchun seni Gerostrat[1] deb kalaka qilishar edi. Men chaqimchi bo'lganim uchun Efialt[2]

---

[1] Yunon afsonasining qahramoni. Nom chiqarish uchun ma'buda Diananing ibodatxonasiga o't qo'ygan.

[2] Bu ham afsona qahramoni. U Eron qo'shiniga tog'dan o'tgani yo'l ko'rsatib, vatandoshlariga xiyonat qilgan.

deb kalaka qilishar edi. Ha-ha... Bola edik! Tortinma, Nafanya! Yaqinroq kel... Bu mening xotinim Vansenbax... O'zi lyuteran...

Nafanail biroz o'ylab turib, o'zini otasining orqasiga oldi.

– Xo'sh, ishlar qalay, do'stim? – dedi semiz, do'stiga sevinchli nazar tashlab. – Biron joyda xizmat qilasanmi? Kattaroq amalga mindingmi?

– Xizmat qilaman! Ikki yildan beri kollejskiy assesorman, Stanislav[1] oldim. Maosh yaxshi emas... Sadaqayi sarku-ya! Xotinim musiqa darsi beradi, men uyda yog'ochdan portsigar qilib sotaman. Juda g'alati portsigarlar yasayman! Bittasi bir so'm. Ulgurji oladigan odamga arzonroq qilib beraman. Sababi tirikchilik-da. Departamentda xizmat qilar edim, shu mahkama bo'yicha bu yoqqa ishlar mudiri bo'lib keldim... Shu yerda xizmat qilaman. Xo'sh, sen-chi? Statskiy sovetnik bo'lgandirsan, deyman? A?

– Yo'q, azizim, yuqoriroqdan kelaver, – dedi semiz. – Men tayniy sovetnik bo'lib qoldim... Ikkita Yulduzim[2] bor.

Birdaniga oriqning rangi oqarib ketdi, toshday qotib qoldi, lekin hayal o'tmay yuzi tarvayib, kuydirilgan kalladay irjaydi; xuddi yuz-ko'zidan uchqunlar yog'ilayotganga o'xshar edi. O'zi qo'nishdi, bukchaydi .. Xotinining cho'ziq yuzi yana ham cho'zildi; Nafanail g'oz turib, mundirining hamma tugmalarini soldi...

– Men, janobi oliyiari... Ko'p yaxshi!.. Bolaligingdan beri do'st bo'lib yurgan kishing shunday martabaga yetsa! Hi-hi!

– Qo'ysang-chi! – dedi semiz aftini burishtirib. – Bu gaplarning nima keragi bor? Birga, ko'rpa tepishib katta bo'lgan odamlarmiz, muncha ehtirom-u qo'l qovushtirishning nima keragi bor!

– Qo'l qovushtirmasdan bo'lar ekanmi... Nainki... – dedi oriq yana ham qo'nishib, – janoblarining nazari marhamatlari... Go'yoki obi hayot... Bu janobi oliyiari, o'g'lim Nafanail... xotinim Luiza lyuteran, bir daraja...

---

[1] Orden.
[2] Orden.

Semiz unga qarshi nimadir demakchi edi, uning yuzidagi ortiq darajada bo'lgan mutelik, xokisorlik alomatlari ensasini qotirib yubordi. U o'girilib, xayrlashganı qo'l uzatdi.

Oriq butun vujudi bilan ta'zım qilib xayrlashdi va xitoyday hihiladi. Xotini iljaydi. Nafanail tavoze bilan qadam tashlayman deb, shapkasini qo'lidan tushirib yubordi. Uchovi ham o'zida yo'q xursand edi.

XAMELEON[1]

Ustiga yangi shinel kiygan, qo'lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o'rtasidan yurib kelmoqda. Uning orqasidan qo'lida musodara qilingan krijovnik[2] to'la g'alvir ko'tarib aft-angori sap-sariq gorodovoy[3] qadam tashlab kelayotir. Tevarak jimjit... Bozor maydonida qimirlagan jon ko'rinmaydi... Do'kon va qovoqxonalarning eshiklari och yirtqichning og'ziday ochilib, huvullab turar edi; ularning oldida hatto gadoy ham yo'q.

Ochumelovning qulog'iga birdan:

– Sen hali odamni tishlaysanmi, mal'un! Birodarlar, qochirib yubormanglar! Hozir birovni tishlashga ruxsat yo'q! Ushla! A... e! – degan tovush eshitildi. Kuchuk vangilladi. Ochumelov atrofiga qarab, savdogar Pichuginning o'tinxonasidan bir it uch oyoqlab, orqa-o'ngiga qarab, chopib chiqib kelayotganini ko'rib qoldi. Kuchukni chit ko'ylak kiygan va nimchasining tugmalari yechilgan bir kishi quvlab kelmoqda edi. U kuchukning ketidan choparkan, o'zini yerga tashlab, kuchukning keyingi oyog'idan ushlab oldi. Kuchuk yana vangilladi va «qochirib yubormang», degan ovoz eshitildi. Do'konlardan mudroq bosib o'tirgan kishilar kallalarini chiqarib qarashdi va bir dam o'tinxonaning oldiga, xuddi yer ostidan chiqqandek, haloyiq yig'ildi.

– Muhtaram afandim, bu tartibsizlik... – dedi gorodovoy.

Ochumelov so'lga burilib, odamlar yig'ilgan joyga qarab yurdi. O'tinxona darvozasi oldida, yuqorida tasvir qilingan, nimchasining tugmalari yechilgan kishi o'ng qo'lini yuqoriga ko'tarib, qonga bo'yalgan barmog'ini odamlarga ko'rsatib turardi. Uning shirakayf basharasi go'yo: «Senimi, qarab tur, la'nati!»

---

[1] *Xameleon* – kaltakesakning bir xili. U o'z terisining rangini tez o'zgartirib, o'zi yashab turgan sharoitdagi rangga kira oladi.

[2] *Krijovnik* – rezavor.

[3] *Gorodovoy* – mirshab.

deb turar va barmog'i ham g'alaba tug'iga o'xshardi. Ochumelov bu kishini tanidi: u zargar Xryukin edi. O'rtada oldingi oyoqlarini kerib, vujudi titrab, to'polonning sababchisi – tumshug'i uzun ola tozi turardi. Uning yoshlangan ko'zlari javdirardi.

Ochumelov odamlar orasiga yorib kirarkan:

– Nimaga yig'ildilaring, nima gap? Barmog'ingga nima qildi? Kim qichqirdi? – deb so'radi.

Xryukin mushtumini og'ziga tutib, yo'talib qo'yib so'z boshladi.

– Men, muhtaram afandim, o'z yo'limda ketayotgan edim... Mitriy Mitrich bilan o'tin to'g'risida gaplashmoqchi edim. Siz meni kechiring, men ish qiladigan odamman. Mening ishim mayda ish, menga tovon to'lasinlar, chunki kim biladi, balki, men bu barmog'imni bir hafta qimirlatolmasman. Muhtaram afandim, qonunda mundaqa maxluq kishiga ozor bersin deyilgan emas... Agar har narsa tishlayversa, u vaqtda dunyoda turmaslik yaxshiroq...

– Hm... yaxshi... – dedi Ochumelov jiddiyat bilan yo'talib va qoshlarini qimirlatib, – yaxshi... Kimning kuchugi? Men buni shunday qo'ymayman! Men sizlarga kuchuklarni bo'sh qo'yib yuborish nima ekanini ko'rsatib qo'yaman! Qarorlarga bo'ysunishni xohlamagan afandilarga ahamiyat berish vaqti keldi. Bu ablahga jarima solinsa, u vaqtda kuchuk va boshqa tentirab yuradigan hayvon nima ekanini biladi. Men unga ko'rsatib qo'yaman! Eldirin, – dedi nazoratchi gorodovoyga qarab, – sen bu kuchukning egasini topib, bayonnoma yoz! Kuchukni yo'qotish kerak. Tezda! Quturgan kuchukka o'xshaydi... Bu kimning kuchugi o'zi!

– General Jigalovniki shekilli, – dedi kimdir.

– General Jigalovniki? Hm... Eldirin, qani meni paltomni yechib ol: juda ham kun isib ketdi! Yomg'ir yog'sa kerak!.. Lekin men bir narsaga tushunolmadim, u seni qanday qilib tishlab oldi? – deb Ochumelov Xryukinga murojaat qildi. – Qanday qilib barmog'ingga bo'yi yetdi? U kichkina, sen bo'lsang kap-katta odamsan! Sen, balki, barmog'ingni mix bilan teshgandirsan, undan keyin kuchukni bahona qilib tovon olish fikri boshingga

kelgandir. Sening kim ekaning hammaga ma'lum. Men sen la'natilarni bilaman.

– Bu, muhtaram afandim, kulgi bo'lsin uchun yonib turgan papirosini kuchukning tumshug'iga tutdi, kuchuk ham ahmoq emas, g'irch etib tishlab oldi... Bu odamning o'zi tentak ekan, muhtaram afandim.

– Yolg'on aytasan, qiyshiq! Ko'rmaganingdan keyin nimaga yolg'on gapirasan? Janoblari aqlli odamlar, kim yolg'on gapirganini, kim xudo oldida turgandek, rost aytganini – hammasini biladilar... Agarda men yolg'on gapirgan bo'lsam, sud hukm qilsin... Hozir hamma barobar... Mening birodarim jandarmada ishlaydi. Agar bilgingiz kelsa...

– Tilingni tiy!

– Yo'q, bu generalning kuchugi emas. Generalning bundaqa iti yo'q: uning itlari ovchi itlar, – dedi gorodovoy ma'nolik qilib.

– Sen buni aniq bilasanmi?

– Aniq bilaman, afandim.

– O'zim ham bilaman. Generalning itlari qimmatbaho, zotli itlar, shu ham itmi? Buning aftini qara... Rasvo bir narsa... Shuni ham it deb saqlaydimi kishi?! Sizda aql bormi o'zi? Bundaqa it Peterburg yoki Moskvada ko'rinib qolsa, bilasizlarmi, nima bo'lar edi? U yerda qonunga qarab o'tirmasdan, o'ldirib qo'ya qolar edilar. Sen Xryukin, qancha azob ko'ribsan, bu ishni shunday qo'yib ketaverma!.. Adabini berish kerak! Vaqt keldi...

– Ehtimol, generalnikidir... – deb gorodovoy ovozini chiqarib qo'ydi. – Uning tumshug'iga yozib qo'yilmagan-ku... Bir kun generalning hovlisida shunday itni ko'rgan edim.

– Albatta, generalniki bo'lsa kerak, – dedi kimdir.

– Hm... Yeldirin, birodar, paltoni yelkamga tashla... Shamol turgandek bo'ldi... Badanim uvushib ketdi... Sen itni generalning oldiga oborib so'ra. Itni men topib yuborganligimni ayt... Ko'chaga chiqarmasinlar. Aytib qo'y. Balki, u qimmatbahodir, har bir to'ng'iz uning tumshug'iga papiros tekizaversa, it aynib qoladi. Kuchuk degan narsa nozik maxluq bo'ladi. Ahmoqlik qilib, barmog'ingni ko'rsatib turishga hech hojat yo'q! Ayb o'zingda!..

– Generalning oshpazi kelyapti, o'shandan so'raymiz... Hay, Proxor! Azizim, qani bu yoqqa kel! Itni ko'r-chi... Sizlarnikimi?

- Shu ham gap bo'ldimi?! Biz hech qachon bunaqa it tutganimiz yo'q.

– Bu yerda so'rab o'tirishning hech hojati yo'q, – dedi Ochumelov. – Bu o'zi sayoq it! Nima keragi bor gapni cho'zishni? O'zim sayoq it deb aytdim-ku. Sayoq-da! O'ldirish kerak, vassalom!

– Bu biznikı emas, – dedi oshpaz, – bu generalning yaqinda kelgan ukasiniki. Bizda bunaqa itni yoqtirishmaydi. U kishining ukalari bunaqa itni yaxshi ko'radi...

– U kishining birodarlari kelditarmi? Vladimir Ivanovich-a? – deb Ochumelov so'radi, iyib ketib og'zi qulog'iga yetdi. – Uni qara-ya. – Men bilganim yo'q, mehmon bo'lib keldilar degin?

– Mehmon bo'lib keldilar.

– Uni qarang, yo Xudo... Akalarini sog'inib qoliptilar-da... Men bilganim yo'q edi. Bu o'sha kishining itlari degin? Juda xursandman... Ol, mana buning barmog'ini tishla, xa-xa-xa... Nega titraysan? Ol, kish-kish! Ko'rdingmi... jahli chiqadi-ya...

Oshpaz Proxor itni chaqirib olib ketadi... To'planib turgan odamlar Xryukinni masxara qilib, qahqaha uradilar.

– Shoshmay tur, men senga ko'rsatib qo'yaman! – deb Ochumelov Xryukinga do'q qiladi va shineliga o'ranib, bozor maydonidan yo'lda davom etadi.

UNTER PRISHIBEYEV

– Unter-ofitser[1] Prishibeyev! Siz shuning uchun ayblanasizki, 3-sentyabr kuni so'z va harakatingiz bilan uryadnik Jiginni, volost boshlig'i Alyapovni, yuzboshi Yefimovni, guvohlar qatorida o'tiruvchi Ivanov va Gavrilovni, yana olti nafar dehqonni haqorat qilgansiz. Shuni ham aytish kerakki, uryadnik, volost boshlig'i va yuzboshini xizmat vazifalarini o'tab turgan chog'da haqorat etgansiz. Aybingizga iqrormisiz?

Yuzi burishgan, basharasini jun bosgan Prishibeyev g'oz turib, hirqiroq va bo'g'ilgan ovoz bilan, xuddi buyruq berganday, har so'zini bitta-bitta aytib javob qaytaradi:

– Janobi oliylari, sud hazratlari! Demak, qonunning butun moddalariga qaraganda, ishning sababini har yoqlama tekshiruv lozim edi. Ayb menda emas, boshqalarda. Bu ish hammasi xudo rahmat qilgur bir murda ustida kelib chiqdi. Shu oyning uchinchi kuni xotinim Anfisa bilan sekin, oliyjanoblik bilan ketayotgan edim, qarasam – suv bo'yida bir to'da har xil odam turipti. Xalqning to'planishga qanday haqqi bor, dedim. Nechun? Qonunda xalq poda singari to'planib yursin, deb aytilganmi? «Tarqalingiz!» deb qichqirdim. Uylariga tarqalsin, deb odamlarni nari-beri itara boshladim, yuz-boshiga, bo'yniga urib haydashni buyurdim...

– Shoshmang, siz axir, uryadnik ham, oqsoqol ham emassiz-a, xalqni haydash sizning ishingiz emas-ku?

Har burchakdan:

– Uning ishi emas! Uning ishi emas! – degan ovozlar eshitildi. – Taqsir, u bizga kun bermay qo'ydi! O'n besh yildan beri undan ko'rmagan ko'rgiligimiz qolmadi, u xizmatdan qaytgandan buyon qishloqni tashlab ketguday holdamiz. Hammani joniдan bezdirdi.

---

[1] *Unter-ofitser* – kichik ofitser.

– Xuddi shunday, taqsir! – dedi guvohlik beruvchi oqsoqol. – Butun yurt bir bo'lib, shikoyat qilamiz. Uning bilan murosa qilish qiyin bo'lib qoldi... Ma'rakalarda ham, to'y-tomoshalarda ham yoki boshqa bir marosimda bo'lsa ham, xullas, har qachon qichqiradi, shovqin soladi, o'zicha tartib o'rnatgan bo'ladi. Bolalarning qulog'idan cho'zadi, bir gap chiqib qolmasmikin, deb xotinlarga sekin nazar solib yuradi, go'yo qaynataga o'xshaydi. Bir kuni, ashula aytmang, chiroq yoqmang, deb uyma-uy buyruq qilib yurdi. Qonunda ashula aytsin demagan, deb qichqirdi.

– Shoshmanglar, hali guvohlik berishga ulgurasiz, – dedi sudya, – Prishibeyevning o'zi gapirsin-chi. Qani, Prishibeyev, gapingizni davom ettiring.

– Xo'p taqsir! – deb xirilladi unter. – Siz janobi oliy, xalqni tarqatish mening ishim emasligini gapirdingiz... Yaxshi... Xo'sh, axir, tartibsizlik qiluviga yo'l qo'yib berish kerakmi? Qaysi qonunda xalqni o'z erkiga qo'yib berilsin deyilgan? Men bunga yo'l qo'ya olmayman. Men ularni haydamasam, jazo bermasam, buni kim qiladi? Chinakam tartibni hech kim bilmaydi. Aytish mumkinki, taqsir, oddiy fuqaro bilan qanday muomala qilishni, butun qishloqda faqat men o'zim bilaman, o'zim, taqsir, hamma narsani tushunolaman. Men mujik emas, unter-ofitserman, xizmatdan bo'shab kelgan kaptenarmusman. Men Varshavada, shtabda ishlaganman... Agar bilishni istasangiz, undan so'ng o't o'chiruvchilik xizmatiga kirdim. Shundan keyin notobligim, zaifligim sababli o't o'chiruvchilikdan bo'shab ketib, ikki yilgacha erlar klassik progimnaziyasida shveysar bo'lib xizmat qildim... Men butun tartibni bilaman. Mujik esa sodda odam, u hech narsani tushunmaydi, mening aytganlarimga quloq solishi lozim, chunki o'ziga foyda bo'ladi. Misol uchun shu ishni olaylik... Men odamlarni hayday boshladim. Suv bo'yidagi qum ustida bo'lsa o'lgan kishining gavdasi yotipti. Xo'sh, qaysi asosga binoan bu kishi bu yerda o'lib yotadi, dedim. Shu ham tartib bo'ldimi? Nimaga uryadnik indamay qarab turadi. Sen, uryadnik, nimaga bu to'g'rida

kattalarga xabar qilmading, dedim. Balki, bu odam o'zi suvga cho'kib o'lgandir. Balki, birov qilgan jinoyat bo'lib, jinoyatchini Sibir kutayotgandir. Jinoyatkor qotil bo'lsa ham ajab emasdir... Uryadnik Jigin bo'lsa parvo qilmay, papiros chekib o'tiribdi. «Bu qanaqa buyruqchi o'zi? Uning o'zi qayerdan paydo bo'lib qoldi? – deydi. – Usiz biz qiladigan ishimizni bilmaymizmi?» – deydi. Demak, dedim men, sen ahmoq, bu yerda hech narsaga e'tibor bermasdan g'o'dayib turibsan, hech narsani bilmaysan, «Men, – dedi u, – kecha kechqurunoq daha politsiyasi boshlig'iga xabar qilganman». Daha politsiyasi boshlig'iga nima uchun xabar qilasan, deb so'radim. Qonunlar majmuasining qaysi moddasiga asosan? Axir, chunonchi birov suvga botganda yoki o'zini bo'g'ib o'ldirganda va shuning singari hodisalarda, xullas bunday ishlarda daha politsiyasi boshlig'ining qo'lidan bir narsa keladimi? Bu jinoiy ish, grajdan ishi... Tezlik bilan tergovchi va sudya janoblariga, chopar yubormoq kerak. Hammadan avval sen dalolatnoma tuzib mirovoy sudya janoblariga yuborishing lozim, dedim. Uryadnik bo'lsa mening gapimni eshitib kulaberdi, mujiklar ham kuldilar. Hamma kuldi, taqsir. Qasamyod qilib bularni ko'rsatolaman. Mana bu ham kuldi, anavi ham kuldi. Jigin ham kuldi. Nega iljayasiz. Uryadnik: «Mirovoy sudya, bunday ishlarni qaray olmaydi», dedi. Bunday so'zlarni eshitib, juda qizishib ketdim. Uryadnik, sen shunday deb aytmadingmi? – dedi unter, uryadnik Jiginga qarab.

– Ha, aytdim.

– Oddiy xalq oldida: «Bunday ishlarni mirovoy sudya qaray olmaydi», deb aytganingni hamma eshitdi. Bu gapni hamma eshitgandan so'ng, desangiz, taqsir, men qizishib ketdim. Jon-ponim chiqib ketdi. «Nima deding, qani qaytarib ayt!» dedim. U menga tag'in o'sha so'zlarni takrorladi. Men unga o'shqirdim. Qanday qilib, dedim, sen mirovoy sudya janoblari to'g'risida shunday so'zlarni aytolasan... Sen politsiya uryadnigi bo'la turib, hukumatga qarshimisan, a? Bilasanmi, dedim, agar mirovoy sudya janoblari istasalar, bunday so'zlaring uchun seni ishonchsiz deb ayblab, guberna jandarmi idorasiga yuborishlari mumkin? Axir,

bunday siyosiy so'zlar uchun mirovoy sudya janoblari seni qayerlarga haydab yuborishini bilasanmi, dedim... Oqsoqol bo'lsa: «Sudya o'z haddidan tashqari hech narsaga qo'l urolmaydi. U faqat mayda ishlarnigina qaraydi», dedi. Xuddi shunday deb aytdi, hamma eshitdi... Axir, qanday qilib sen ma'muriyatning obro'yini tushirasan, dedim. Hazilingni bir chekkaga yig'ishtirib qo'y, dedim, bo'lmasa ishing yomon bo'ladi, birodar, Varshavada yoki erlar progimnaziyasida xizmat qilganimda birorta noqulay so'zni eshitsam, jandarm ko'rinmasmikin, deb darrov ko'chaga qarar edim, ko'rinib qolsa: «Bu yoqqa kel, yigit», der edim-da, eshitgan hamma gapimni aytardim. Bu yerda bo'lsa, qishloqda bunday gaplarni kimga aytasan?.. Jonim chiqib, yuragim tars yorilib ketdi. Hozirgi xalq o'zboshimcha va itoatsiz bo'lib, o'zini unutib qo'yganidan juda koyindim, aylantirib bir soldim... Albatta, uncha qattiq urganim yo'q, siz janobi oliyning sha'niga ikkinchi bunday qattiq so'z aytmasligi uchun urdim. Uryadnik bo'lsa oqsoqolning tarafini olib qoldi. Shundan so'ng, albatta, men uryadnikka ham tarsaki tortib yubordim. Shu bilan boshlanib ketdi... Qizishib ketgandan keyin, taqsir, axir, urmasdan bo'lmaydi-da. Agar ahmoq kishini urmasang o'zing gunohiga qolasan. Ayniqsa, ish ustida, tartibsizlik ustida.

– To'xtang-chi! Tartibsizlikni tekshiradigan kishi bor, buning uchun uryadnik, oqsoqol, yuzboshi bor...

– Uryadnik hamma narsani ko'rib ulgura olmaydi, axir, uryadnik men tushungan narsani tushunmaydi...

– Axir, bu sizning ishingiz emasligini tushunsangiz-chi!

– Nega? Qanday qilib bu mening ishim bo'lmasin! Ajab... Odamlar tartibsizlik qilsin-u, mening ishim bo'lmasin. Nima qilay, ularni shu qilig'i uchun maqtaymi? Anavilar bo'lsa, meni ashula aytirmaydi, deb sizga chaqadi... Xo'sh, ashulaning nima yaxshi joyi bor? Ish o'rniga ular ashula aytadilar... Bu ham yetmaganday, kechasi chiroq yoqib o'tirish odat bo'lib qolipti; yotib uxlash payti kelgan, ular bo'lsa gap sotishib, hiring-hiring kuladilar. Bu narsalarning hammasini yozib qo'yganman.

– Nimani yozib qo'ygansiz?

– Chiroq yoqib o'tirgan kishilarni yozib qo'yganman, – Prishibeyev cho'ntagidan yog' bosgan qog'oz chiqarib, ko'zoynagini taqib o'qidi: – Chiroq yoqib o'tiradigan dehqonlar Ivan Proxorov, Savva Mikiforov, Pyotr Petrov, soldat xotini Shustrova, o'zi tul, Semyon Kislovni o'ynash tutgan. Ignat Sverchok jodugarlik qiladi, uning xotini Mavra bo'lsa, kechalari birovlarning sigirlarini sog'ib oladi.

– Bas! – dedi sudya va guvohlardan so'ray boshladi.

Unter Prishibeyev ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib ajablangan holda, sudyaga qaraydi. Sudya uning tarafini olmaydiganga o'xshaydi. Uning shohsoqqaday irg'ib chiqqan ko'zlari yaltiraydi, burni qip-qizarib ketadi. U dam sudyaga, dam guvohlarga qaraydi. Sudya nega bunchalik hayajonlanganini, nima uchun burchaklardan, goho norozilik bayon qilingan, goho sekingina kulgan ovozlar eshitilganini anglolmaydi. Bir oy qamalsin, deb chiqarilgan hukmni ham u anglolmadi.

– Nima uchun! – deydi unter, hayron bo'lib. – Qaysi qonunga asosan?

Va shu onda unga ma'lum bo'ldiki, dunyo o'zgargan, endi yorug' jahonda yashash sira mumkin emas. U ko'ngilsiz va g'ussali fikrlar ichida qoldi. Biroq sudya oldidan chiqib mujiklarning to'planib allanimalarni gapirib turganini ko'rgach, tark etolmaydigan odati bo'yicha, Prishibeyev yana g'oz turib, hirqiroq va g'azabli tovush bilan qichqiradi:

– Haloyiq, tarqal! To'planma! Uy-uyingga jo'na!

CHIQDI

Tushgı ovqatni yeb bo'lishdi. Qorinlar to'yib, dimog'lar chog'; esnab, shirin uyqu bosıb, ko'zlar bıyo-bıyo. Er sıgara chekdi, kerıshdi va kushetkaga o'zini tashladi. Xotin uning bosh tomonıga o'tirıb, mushukka o'xshab xirilladı... Er-xotın baxtiyor edı.

– Gapirsang-chi, – dedi er esnab.

– Nima deyayin? Hm... Ha, aytganday! Eshitdingmi? Sofiya Okurkova haligi... oti nima edi-ya... Fon-Trambga tegipti! Buni qara-ya!

– Tegsa, tegipti-da, nima qipti?

– Tramb razil odam-ku, axir! Shunday ham yaramas. . Shunday ham vijdonsiz odamki! Bunaqa tuturiqsiz, betamiz maxluq doriga ham topilmaydi. Axloqini ham asti qo'yaver! Grafning ish boshqaruvchisi edi, shuning orqasidan ko'p dunyo orttirdi, endi temir yo'lda ishlab, o'g'ırlik qiladi... Singlisini g'orat qildi... Qisqasi ko'p yaramas va o'g'rı... Shunaqa odamga tegadimi kishi?! Shu bilan umr qiladimi kıshi! Hayronman! Shunday binoyi qiz bo'lsa-yu... Shunaqa qilib o'tirsa-ya! Bunaqa maxluqqa o'lsam ham tegmas edim! Millioner bo'lsa ham baribir tegmas edim! Dunyoda yakka-yu yagona chiroyli bo'lsa ham aftiga tuflar edim. Toqatim bormi razil erga!

Xotin irg'ib o'rnidan turdi va qip-qizargan, g'azablangan holda uyda nari-beri yurdi. Uning ko'zlari g'azabdan yonar, so'zlari samimiy ekanligi ochiq ko'rinib turar edi...

– Bu Tramb shunaqa maxluq. Shunaqa odamlarga tegadigan xotinlar o'larday ahmoq, o'larday sharmanda xotinlar!

– Hm... Sen, albatta, tegmas eding... Hm... Bordi-yu men ham razil odam bo'lsam-chi? Nima qilar eding?

– Menmi? Sendan chiqar edim! Bir soniya ham sen bilan umr qilmas edim! Men faqat pok kishini yaxshi ko'rolaman,

xolos. Agar Tramb qilgan ishlarning yuzdan birini qilganingni bilib qolsam, bormi... Tamom!

– Hm... Hali shunaqaman degin... Men bilmagan ekanman. Ha-ha-ha... Baqrayib turib yolg'on gapiradi-ya!

– Men umrimda yolg'on gapirgan emasman! Qani, razillik qilib ko'r-chi, nima qilar ekanman!

– Nima hojati bor? O'zing bilasan... Men o'sha sening Fon-Trambingni bir cho'qishda qochiraman!.. Trambni menga qaraganda kisavur desa bo'ladi. Nega ko'zingni lo'q qilasan? Ajab... (Pauza). Men necha pul oylik olaman?

– Bir yilda uch ming so'm.

– Bundan bir hafta burun olib berganim marvarid necha pulga keldi? Ikki ming... Shunday emasmi? Kecha olib bergan ko'ylagim besh yuz... Dacha ikki ming... Ha-ha-ha... Kecha otaxoning bir mingni o'marib ketdi...

– Axir, Pyer, boshqa daromadlar ham...

– Otlar... Shaxsiy doktor... Mashinachilarning shyotlari. Bundan uch kun burun yuz so'mni o'zing kartaga boy berding...

Er boshini ko'tardi, chakkasiga mushtini tirab, butun boshlik bir aybnoma o'qib berdi; yozuv stolining yoniga borib bir necha dalil va hujjatlar ko'rsatdi.

– Mana, ko'rdingmi, jonim, Fon-Trambing mening oldimda chakana o'g'ri, kisavur! Minba'd birov to'g'risida bunaqa dema!

Men hikoyani tamom qildim. Ehtimol, kitobxon:

– Xotin chiqdimi? – deb so'rar.

– Ha... chiqdi. Lekin eridan emas, narigi uyga chiqdi.

CHINOVNIKNING O'LIMI

So'lim oqshomlarning birida xuddi shunday so'lim ekzekutor Ivan Dmitrich Chervyakov kreslolarning ikkinchi qatorida o'tirib, durbin orqali «Karnevilskie kolokola» degan spektaklni tomosha qilardi. U sahnaga qarab, o'zini eng rohatda o'tirgan his qilardi. Lekin birdaniga... Hikoyalarda «lekin birdaniga» so'zi tez-tez uchrab turadi. Mualliflar shunday deyishga haqli, chunki hayotda tasodifiy hodisalar juda ko'p! Lekin, birdaniga uning yuzi burishdi, ko'zlari olaydi, nafasi to'xtadi... U ko'zidan durbinni oldi, engashdi va... apishu!!! Ko'rib turibsizki, u aksirdi. Aksirishning aybi yo'q. Mujiklar ham aksiradi, polismeystrlar, ba'zan, hatto taynıy sovetniklar ham aksiradi. Hamma aksiradi. Chervyakov hech qancha xijolat bo'lmadi, ro'molchasi bilan og'zi burnini artdi va odobli odam bo'lgani uchun aksirganim birovga malol kelmadimikan, deb atrofiga qaradi. Mana shunda xijolat bo'lib qoldi. Qarasa, oldida o'tirgan chol qo'lqopi bilan tepakal boshini, bo'ynini artib, allanima deb javrayotipti. Chervyakov cholni tanidi: bu chol statskiy general Brizjalov bo'lib, temir yo'l mahkamasida xizmat qilardi.

«Men unga tupuk sachratdim, deb o'yladi Chervyakov. Mening boshlig'im emas, begona, shunday bo'lsa ham yaxshi emas, afv so'rash kerak».

Chervyakov yo'taldi, biroz oldinga engashib generalning qulog'iga pichirladi:

– Kechiring, janobi oliyalari, beadabchilik bo'ldi... Men bilmasdan...

– Mayli, mayli...

– Xudo haqi, kechiring. Axir, men... Qandoq qilay...

– Obbo, o'tirsangiz-chi, azbaroyi Xudo! Qo'ying, eshitaylik!

Chervyakov xijolat bo'ldi, tirjaydi va sahnaga qaray boshladi. U sahnaga qararkan, endi hech qanday rohat his qilmasdi. U tash-

vishlana boshladi. Tanaffus vaqtida Brizjalovning yoniga keldi, atrofida aylanib yurdi va o'zini dadil tutib, sekin dedi:

– Men sizga tupuk sachratdim, janobi oliylari... Kechiring... Axir, men... men...

– E, qo'ysangiz-chi... Men allaqachon esimdan chiqarib yubordim-u, siz hali ham o'sha gapni gapirib yuribsiz! – dedi general va toqati toq bo'lib, pastki labini qimirlatdi.

«Jahli chiqib ketgani ko'zlaridan ham ko'rinib turipti-yu, esidan chiqqan emish, – deb o'yladi Chervyakov generalga shubhali qarab olgach. – Gaplashgisi ham kelmaydi. Axir, men o'zimga qolsa... Bu tabiatning qonuni ekanini bunga tushuntirish kerak. Bo'lmasa menga tupurdi deb o'ylaydi. Hozir o'ylamasa ham keyin o'ylaydi!»

Chervyakov uyga kelib, qilgan beodobligini xotiniga gapirib berdi. Chervyakovning nazarida xotini bu so'zga juda yengiltaklik bilan qaradi, u faqat qo'rqdi, so'ngra Brizjalovning «begona» ekanligini bilib tinchlandi.

– Shunday bo'lsa ham borib, afv so'ra, – dedi u. – Bo'lmasa seni, xalq orasida o'zini tutolmas ekan, deb o'ylaydi!

– Hammadan shunisi bor-da! Men afv so'radim, u g'alati odam ekan... Biror og'iz durust so'z aytmadi. Gaplashgani vaqt ham bo'lmadi.

Ertasi kuni Chervyakov yangi kostyumini kiydi, sochini tekislatdi va uzr so'rash uchun Brizjalovning oldiga ketdi... Generalning qabulxonasida arzga kelgan bir qancha odamlarni ko'rdi, bu odamlar orasida general ham bo'lib arz so'ramoqda edi. General bir necha odamdan arz so'rab bo'lib, Chervyakovga qaradi.

– Agar eslarida bo'lsa, janobi oliylari, kecha men «Arkadiy»da, – deb ekzekutor so'z boshladi, – aksirib, bilmasdan tupuk sachratdim... Kechir...

– Hechqisi yo'q... Shu ham gap bo'ldimi... Sizning nima arzingiz bor? – dedi general navbatdagi shikoyatchiga.

«Gaplashgisi ham kelmadi! – deb o'yladi Chervyakov, bo'zarib ketib, – demak, achchig'lanayapti... Yo'q, buni shunday qoldirib bo'lmaydi... Men unga tushuntiraman...»

General oxirgi shikoyatchi bilan suhbatini tugatib endigina ichkari uyga qadam qo'ygan ediki, Chervyakov uning ketidan borib:

– Janobi oliylari! – dedi. – Agar haddim sig'sa, sizga samimiyat arz qilib, uzr so'ramoqchi edim, o'zingiz bilasiz, jo'rttaga qilganim yo'q!

General yuzini burishtirib qo'l siltadi.

– Siz meni kalaka qilayotibsiz shekilli, muhtaram afandi, – dedi u, eshikni yopaturib.

«Kalaka nimasi! – deb o'yladi Chervyakov. – Hech unday niyatim yo'q! General bo'laturib shuni ham tushunolmaydi! Bunday bo'lsa men bu kekkaygandan afv so'rab o'tirmayman! Afti qursin! Xat yozaman, qo'yaman, kelib yurmayman. Xudo ursin, kelmayman!»

Chervyakov uyga ketarkan shunday o'yladi. U generalga xat yozmadi. O'ylab-o'ylab nima deb xat yozishini bilmadi. Ikkinchi kuni yana uzr so'ragani borishga to'g'ri keldi.

– Men kecha kelib sizni bezovta qilgan edim, janobi oliylari, – dedi u, general boshini ko'tarib unga qaraganda, – siz aytganingizday, men kalaka qilish uchun kelgan emasman. Men aksirib tupuk sachratganim uchun afv so'radim... Kalaka qilish mening xayolimga ham kelgan emas. Axir, kalaka qilgani mening haddim bormi? Agar biz kalaka qilsak, hurmat qilgan bo'lmaymiz.

– Yo'qol! – deb baqirdi birdaniga, general ko'karib va qaltirab.

Qo'rqqanidan ikki bukilib qolgan Chervyakov:

– Nima? – deb sekingina so'radi.

– Yo'qol!!! – deb general yana qichqirdi va yer tepindi.

Chervyakovning qornida nimadir uzilib ketdi. U hech nima ko'rmay, hech nima eshitmay eshikkacha tisarilib bordi, ko'chaga chiqib, jo'nab qoldi... O'zini bilmay uyga kelib, ustidagi yangi kostyumini ham yechmay divanga yotdi va... o'lib qoldi.

OYNI ETAK BILAN YOPIB BO'LMAYDI

Pyotr Pavlovich Posudin kirakash izvoshga tushib, hech kim bilmasin uchun allaqanday pastqam yo'llardan yurib, N. degan shaharga shoshilmoqda. U yaqinda o'sha shahardan imzosiz bir xat olgan, uning shoshilganining sababi ham xatda aytilgan gaplarni tezroq tekshirib chiqish edi.

«Tomdan tarasha tushganday bostirib boraman... – deb shirin xayol surib borardi u, yuzini mo'ynali yoqasiga berkitib. – Ablahlar qilg'ilikni qilib, endi hech zot bilmaydi, deb suyunib yurishgandir... Xe-xe-xe... Ularning ustiga bostirib borib, «Qani, gunohkor Tyapkin-Lyapkin bu yoqqa chaqirilsin!» deyman. Ana tomosha-yu, mana tomosha! He-he-he!

Shirin xayollarga to'ygach, Posudin izvoshchi bilan suhbatlashdi. Shuhratparast odam bo'lganidan u eng avval o'zi to'g'risida gap so'radi:

– Sen Posudinni taniysanmi?

– Nega tanimaylik, – dedi izvoshchi kulib, – taniymiz!

– Nega kulasan bo'lmasa?

– Ajab gaplarni gapirasiz-a! Shahardagi hamma mirzalarni taniymiz-ku, Posudinni tanimaylikmi? Uni hamma tanisin, deb shu ishga qo'yilgan-da!

– Rost aytasan... Xo'sh, qalay? Seningcha qanaqa odam u? Tuzuk odammi?

– Yomon emas... – dedi izvoshchi, esnab. – U kishi yaxshi, o'z ishini biladigan odam... Bu yerga kelganiga hali ikki yil ham bo'lgani yo'q, ammo ko'p ish qilib qo'ydi.

– Nima ish ekan u?

– Ko'p yaxshi ishlarni qildi, otasiga rahmat. Temiryo'l qurdirdi, bizning uyezdimizdagi Xoxryukovni ishdan bo'shattirdi... Xoxryukov juda haddan oshib ketgan edi... O'ziyam juda muttaham, ig'vogar odam edi, hamma kattalar uni qo'llar

edi. Posudin keldi-yu Xoxryukovning uyi kuydi, daf bo'ldi, ko'rmaganday bo'ldik... Mana shunaqa, og'ayni! Posudinni ming pora bersang ham ilintirolmaysan, unaqa odammas. Xoh yuz so'm pora ber, xoh ming so'm ber, baribir olmaydi, haromga yurmaydi. Sira!

«Xayriyat-e, mening ham yaxshi tomonlarimni bilishar ekan, – deb o'yladi Posudin xursand bo'lib. – Yomon emas».

– Juda bilimdon odam u kishi... – deb davom etdi izvoshchi. – Kamtarin odam... Bir kuni biznikilar unga arz qilib borishgan edi, u xuddi boobro' odamlarni kutganday kutipti, qo'llarini siqib ko'rishib, «Qani, qani, o'tiringlar...» depti... Juda o'tkir odam-da. Gapiga tushunmaysan, bidir-bidir qilaveradi! Yurishi ham shunaqa: odamlarga o'xshab asta-sekin yurish yo'q, yugurgani yugurgan. Biznikilarga og'iz ham ochirmapti, darrov: «Izvoshni qo'sh!» – deb buyuripti-da, dam o'tmay bu yerga yetib kepti... Kelgan zahotiyoq butun ishni bitqizdi-qo'ydi... bir tiyin ham olgani yo'q. Ilgarigisidan o'lsa o'ligi ortiq! Bir tomondan qaraganda oldingisi ham yomon emas edi. Basavlat, ulug'vor odam edi. Butun guberniyada uning ovozidan o'tkir ovoz yo'q edi... Agar biron yoqqa ketayotgan bo'lsa, o'n chaqirim naridan ovozi eshitilib turardi. Tashqi tomoni yoki ichki ishlarini surushtirsangiz – bunisi epchil. Yangisining miyasi ming marta o'tkir. Ammo bitta yomon tomoni bor... O'zi juda yaxshi odam-u, biroq juda ko'p ichadi, araqxo'r!

«Ana xolos!» – deb o'yladi Posudin.

– Mening... uning ko'p ichishini qayerdan bilasan? – deb so'radi u.

– Men-ku uning ichib mast bo'lib yurganini o'z ko'zim bilan ko'rganim yo'q, yolg'on aytishning nima keragi bor? Odamlar aytishadi-da! Odamlar ham uning mastligini ko'rishmagan, ammo araqxo'r degani rost... Odamlar oldida yoki mehmonga borsa, yo bazmda bo'lsa, jamoat o'rtasida bir qultum ham og'ziga olmaydi. Ammo uyida suvdek ichadi... Ertalab uyqudan ko'zini ochar-ochmas araq buyuradi, xizmatchi bir stakan araq keltirsa, yana keltir deydi... Ertadan kechgacha ichgani

ichgan. Hayronman, shuncha ichadi-yu, hech mast bo'lmaydi! O'zini tutolsa kerak-da. Ilgarilar Xoxryukov araq icha boshlasa odamlar u yoqda tursin, hatto itlar uvullardi. Posudin-chi? Posudinning burni ham qizarmaydi! Kabinetini berkitib oladi-da, araqdan bosh ko'tarmaydi! Birov ko'rib qolmasin, deb stolning ichiga bir yashik yasattiripti, u yashikdan kichkina naycha chiqib turar ekan. Qachon kerak bo'lsa yashikda araq... Engashib naychani so'rdimi, bo'ldi, kayfi taraq... Izvoshda ham olib yurarkan, portfelida ham...

«Qayerdan bilishadi bu narsalarni? – deb qo'rqib ketdi Posudin. – Hatto bunisi ham oshkor bo'pti-ya! Shunchalik bemazalik!»

– Xotinlarga pashshaxo'rda bo'lishini aytmaysizmi? Voy bachchag'ar-ey! (Izvoshchi kulib, bosh chayqaydi). Gunohdan qo'rqmaydi-ya... O'zining ham o'ntacha o'ynashi bordir... Ikkitasini o'z uyida olib turadi. Nastasya Ivanovna degani butun uy ichini boshqaradi, ikkinchisi... xax oti ham nimaydi, ha Lyudmila Semyonovnasini kotib qilib qo'ygan... Ammo hammasidan Nastasyaning so'zi o'tadi. Aytganini qildiradi, hukmi balandda. Hamma Posudindan emas, o'shandan qo'rqadi... Voy tavba-ey! Yana bir o'ynashi bo'lsa Kachalnaya degan ko'chada turadi... Uyatsiz ablah!

«Hatto ularni nomma-nom biladi-ya! – deb o'yladi Posudin, – qizarib-bo'zarib. – Tag'in, kim deng, bir umr shaharga bormaydigan mujik, aravakash-a!.. Qanday pastlik bu! Ablahlik!».

– Bu gaplarni qayerdan bilasan? – deb so'radi u jahl bilan.

– Odamlardan-da, kimdan bo'lardi... O'zim-ku, ko'rganim yo'q. Odamlardan eshitganman... Bilish qiyin deysizmi? Xizmatchining yoki kucherning tilini qirqib bo'lmaydi. Nastasyasi ham ko'cha-kuylarda maqtanib yuradi. El og'ziga elak tutib bo'ladimi... Posudin yaqinda yangi qiliq chiqaripti: hech kimga bildirmasdan tekshirishga boradigan bo'pti. Ilgarigisi bir yerga bormoqchi bo'lsa, bir oy oldin xabar berib qo'yardi. Yo'lga chiqsa – shuncha shovqin, shuncha to'polon, g'avg'o solardiki, aslo qo'yavering! Oldida, ketida, atrofida choparlar ot qo'yib borishardi. Manziliga yetib borib, rosa uxlab olardi, o'lgudek ichardi,

yerdi-da, keyin baqirgani baqirgan edi. Tomog'i bo'g'ilguncha baqirib, yer tepinib bo'lib, uyquga to'yib olib, yana tantana-yu dabdaba bilan qaytib kelardi... Bunisi bo'lsa biron gap eshitib qolsa hech kimga bildirmay, eshittirmay asta-sekin boradi... Qiz-ziq-da! Amaldorlarga bildirmay uydan chiqadi-da, poyezdga o'tiradi. O'ziga kerak joyga borib tushadi-da, kirakash izvosh yoki tuzukroq arava kira qilish qayoqda! Mujik aravasiga tushib oladi. Xotinlarga o'xshab, aft-basharasini o'rab, bora borguncha qari it singari, xirillab gapiradi, chunki ovozini qo'yib gapirsa odamlar bilib qolar emish. Odamlar gapirib bersa kula-kula ichaging uziladi. U ahmoq meni hech kim taniy olmaydi, deb bemalol ketaveradi. Biladigan odamga uni tanib olish birpaslik ish.

– Qanday qilib tanib olish mumkin?

– Bundan osoni yo'q! Ilgarilari Xoxryukovning hech kimga bildirmay safar qilishini uning qo'li og'irligidan bilar edik; aravaga o'tirgan odam izvoshchining lunjiga tushurdimi, Xoxryukov deyabering. Posudinni darrov tanib olish mumkin. Sodda yo'lovchi – o'zini sodda tutadi. Posudin hech soddalikka rioya qiladigan odam emas. Pochta bekatiga yetib kelishidanoq qiladiganini qiladi!.. Uy ichi sassiq emish, dim emish, sovuq emish... Jo'ja qovurib keltir deydi, meva keltir, turli murabbolar keltir deydi... Kimki qish faslida jo'ja bilan meva talab qilsa – Posudin bo'ladi, buni bekatda hamma bilishadi. Kimda kim bekat nazoratchisini «azizim» desa va odamlarga bo'lgan-bo'lmagan ishlarni buyuraversa – Posudin deyavering. Uning hidi ham odamlarnikiga o'xshamaydi, uyquga yotishi ham boshqacha... Bekatga kelib divanga yotadi-da, atrofiga atir sepadi, yostig'ining yoniga uchta sham yoqib qo'yishni buyuradi. Har xil qog'ozlarni o'qib yotadi... Uning Posudinligini nazoratchi u yoqda tursin, hatto mujik ham fahmlamaydi...

«Rost, rost... – deb o'yladi Posudin. – Nega buni oldin bilmagan ekanman!»

– Biladigan odam jo'jasiz ham, mevasiz ham uning kimligini bilib oladi. Telegraf aytadi... Aft-basharangni xoh berkit, xoh berkitma, baribir, kimligingni bilishadi. Kelishingni kutishadi.

Posudin hali uyidan yo'lga chiqmasidan, bu yerda hamma narsa tappa-taxt turadi. U bostirib boraman, sudga bergizaman, amaldan bekor qilaman, deb yelib-yugurib keladi-yu, ammo jinoyatchilar uni masxara qilib kulishadi. Hech kimga bildirmay keldim, deysan janobi oliylari, qani, top-chi gunohimizni, deyishadi. U quruqdan quruq qaytib ketaveradi... Tag'in maqtab ham qo'yadi, qo'llarini siqadi, bezovta qilgani uchun afv so'raydi... Shunaqa, og'ayni! Sen nima deb o'ylarding? Ish shunaqa, janobi oliylari! Bu yerning odamlari shunaqa ayyor bo'ladiki, biri-biridan o'tkir. Havasing keladi! Hech bo'lmasa mana shu bugungi voqeani oling... Erta bilan izvosh haydab ketayotsam, stansiya tomonidan juhud bufetchi izvosh choptirib kelmoqda. «Yo'l bo'lsin, juhud afandim?» deb so'radim, u «N. shahriga vino bilan gazak olib ketayotirman. U yerga bugun Posudin kelarmish», deb javob berdi. Mana, ko'rdingizmi? Posudinning o'zi shaharga endi otlanayotgandir, hech kim tanimasin, deb yuz-ko'zlarini o'rab turgan bo'lsa-yu, ketayotganligimni hech kim bilmaydi, deb o'ylasa-yu, unga atab vino, baliq, har xil gazaklar tayyor tursa... u bo'lsa «Kuningiz bitdi, ablahlar!» deb yo'lda ketmoqda. Ablahlar esa pinaklarini buzishmaydi. Kelsa kelaversin! Ularning butun jinoyatlari allaqachonlar berkitilgan!

– Qayt orqangga! – deb baqirdi Posudin bo'g'ilib, – aravani bur, hayvon!

Hayron qolgan izvoshchi aravasini orqaga qaytardi.

HASRAT

Kimga aytay dardimni?

Shom payti. Yog'ayotgan laylak qor yangi yoqilgan fonarlar atrofida aylanar, erinibgina otlarning ustiga, odamlarning yelkalariga va telpaklariga qo'nib oqartirar edi. Izvoshning kursisida bukchayib qimir etmay o'tirgan Iona Potapovning hamma yog'i oppoq, xuddi arvohga o'xshaydi. Agar ustiga katta qor uyumi bosib tushganida ham qoqib tashlamaydigan ko'rinar edi... Uning oti ham qordan oppoq oqarib tek turar edi. Ot o'zining harakatsizligi, oriq gavdasi va ingichka chillakday oyoqlari bilan yaqindan kelib qaraganda ham qant-nondan yasalgan «toychoq»qa o'xshab ko'rinadi. Har holda u ham xayolga botgan bo'lsa kerak. Chunki o'rgangan dalasidan, omochidan ayrilib, alomat chiroqlar yongan, to'xtovsiz taraq-turuq, yugurib yurgan odamlardan iborat bir joyga kelib qolganidan keyin xayol surmay iloji yo'q.

Iona bilan oti anchadan beri shu yerdan qo'zg'almay turib qoldi. Garchi saroydan peshindan ilgari chiqqan bo'lsa ham haligacha hech bir kira qiluvchi odam topilmadi. Mana, kech kirib, shaharni qorong'ulik ham bosmoqda. Oqarishib turgan fonarlar endi charaqlab, porlab ketdi. Ko'chaning g'ovur-g'uvuri borgan sari avj oldi. Ionaning qulog'iga:

– Izvoshchi, Viborgskiyga – degan ovoz eshitildi.

Iona seskanib qor bilan chaplashib qolgan kipriklari orasidan qarab shinel va quloqchin kiygan bir harbiy odamni ko'rdi.

– Viborgskiyga! – deb takrorladi harbiy, – nima balo, uxlayapsanmi? Viborgskiyga deyapman!

Iona rozi bo'lib, otning tizginini tortgan edi, uning ustini va o'zining yelkasini qoplagan qor to'kildi... Harbiy kishi chanaga o'tirdi. Izvoshchi chuh deb o'rnidan sal ko'tarildi-da, g'ozga o'xshab bo'ynini cho'zib, kerak bo'lmasa ham, odati bo'yicha

qamchini aylantirdi. Ot ham bo'ynini cho'zdi va chillakday oyoqlarini maymashtirib arang joyidan qo'zg'aldi...

Iona endi yurishi bilanoq, qorong'uda u yoq-bu yoqqa o'tib turgan odamlar orasidan birovning:

– Qayoqqa yurayotibsan! O'ngdan yursang-chi! – degan tovushi eshitildi.

– Izvosh minishni bilasanmi o'zing. O'ngdan yur! – deb koyib berdi izvoshdagi harbiy ham.

Bir faytonning kucheri ham uni so'kib ketdi. Ko'chaning u yuzidan bu yuziga o'tayotib otning tumshug'iga o'zini urib olgan qandaydir kishi xo'mrayib, yengidagi qorni qoqdi. Iona igna ustida o'tirganday betoqat, go'yo bu yerga nima uchun, qanday qilib kelib qolganini o'zi ham tushunolmayotganday atrofga alanglab qarar edi.

– Muncha ham ablah odamlar ekan! – deya hazil qildi harbiy. – Hammasi ham xuddi maslahatlashib qo'yganday kelib, sening otingga yo aravangga urilishadi-ya.

Iona orqasiga qayrilib qaradi-da, lablarini qimirlatdi... U bir narsa aytmoqchi bo'ldi-yu, ovozi chiqmadi, xirilladi.

– Nima? – dedi harbiy.

Iona lablarini qiyshaytirib kulimsiradi va butun kuchini to'plab tovushi boricha gapirdi:

– Afandim, men sizga aytsam... shu hafta ichi o'g'lim o'ldi.

– Him... nimadan o'ldi?

Iona butun gavdasi bilan o'girilib, o'tirgan odamga qaradi-da:

– Kim biladi deysiz! Isitmadan bo'lsa kerak... Uch kungina kasalxonada yotdi-yu, o'ldi... Xudoning xohishi-da.

– Otingni bur, iblis! – dedi qorong'ulikdan birov, – esingni yedingmi! Ko'zingga qarasang o'lasanmi!

– Hayda-hayda... – dedi harbiy, – bu ahvolda ertaga ham yetolmaymiz. Tezroq hayda!

Izvoshchi yana bo'ynini cho'zib o'rnidan sal ko'tarildi-da, yana qamchini aylantirdi. So'ngra bir necha marotaba orqasiga o'girilib qaradi, lekin o'tirib borayotgan odam uning so'zlarini eshitgisi kelmadi shekilli, ko'zlarini yumib olgan edi.

Viborgskiyda bir mayxona yonida to'xtab uni tushirdi. O'zi yana bukchaydi, jim o'tirib qoldi... Yog'ayotgan laylak qordan uning va otining usti yana oppoq tusga kirdi. Oradan bir-ikki soat vaqt o'tdi...

Qattiq-qattiq qadam tashlab, so'kishib yo'lakchadan uch nafar yosh yigit kelmoqda, ularning ikkitasi oriq va novcha, uchinchisi bukur va pakana edi.

– Izvoshchi, bizni Poliseyskiy ko'prigiga eltib qo'y! – dedi bukur xirillagan tovush bilan, – uch kishi... Bittangaga!

Iona chuh deb tizginni silkitdi. Bittanga, albatta, arziydigan narx emas, lekin unga hozir narxning ahamiyati yo'q edi... Bir so'mmi, besh tiyinmi – baribir, ishqilib odam bo'lsa bas... Yigitchalar itarishib, so'kishib uning yoniga keldilar-da, so'ng uchalovi birdan chanaga tashlandilar. So'ngra kim o'tirib bora-di-yu, qaysi bittasi tikka turib ketadi, degan masala ustida tortishish boshlandi... Uzoq vaqt janjallashganlardan keyin bukurning bo'yi pakana bo'lgani uchun uning turib ketishi kerak degan qarorga keldilar.

Bukur Ionaning orqasida tik turarkan, xirillagan tovush bilan:

– Qani, hayda! – dedi, uning nafasi Ionaning bo'yniga urib turardi. – Voy-buy, telpagingni qara, og'ayni! Butun Peterburgni axtarsang ham bunaqa rasvo telpakni topolmaysan...

– Hi-hi-hi... – kuldi Iona – bori-da...

– Qani bo'lmasa, tezroq hayda-chi! Yo bo'lganing shumi? A? Gardaningga solsam-chi!

– Boshim yorilib ketguday bo'lib og'riyapti... – dedi o'tirgan novchaning biri – kecha Dukmasovnikida to'rt shisha konyakni Vaska ikkalamiz ichib qo'yibmiz.

– Hech tushunolmayman-da. Yolg'on gapning nima keragi bor! – deb koyidi ikkinchi novcha. – O'lguday yolg'onchisan-da.

– Xudo ursin rost aytayapman...

– Bu rost gaping ham xuddi bit yo'taladi deganga o'xshagan rostlardan-da.

– He! – deb yana kuldi Iona – juda xushchaqchaq yigitlar ekansizlar-ku.

– Ming la'nat!.. – deb qo'ydi bukur. – Chol o'lgir, tuzukroq haydaysanmi yo yo'qmi? Shu ham yurishmi? Qamchi ursang-chi! Ur, la'natini! – Iona orqasida tipirchilab turgan bukurning gavdasini sezib, xirillab chiqayotgan tovushini eshitdi. O'ziga xitoban aytilayotgan so'kinishlarni eshitadi va yaqinida odamlarni ko'rib yuragidagi yolg'izlik sezgisi biroz yo'qolganday bo'ladi. Bukur tutaqib, zo'r berib kurakda turmaydirgan so'zlar bilan so'kar va to yo'tali tutib qolguncha so'kinardi. O'tirgan yigitlar qandaydir bir Nadejda Petrovna degan xotin haqida so'zlashib borardilar. Iona ularga qarab qo'ydi. Ularning qisqagina sukut qilgan vaqtlarini poylab turib yana o'girilib qaradi-da, sekingina:

– Shu hafta ichi, haligi... o'g'lim o'ldi, – deb g'uldurab qo'ydi.

– Hammamiz ham o'lamiz-da... – dedi bukur yo'taldan so'ng, lablarini arta turib – qani, tezroq yur, hayda! Afandilar, men ortiq toqat qilolmayman, bu ahvolda qachon yetamiz?

– Ha, sen yelkasiga turtib, madad berib tur-da!

– O'lat tekkan chol eshitayapsanmi? Bo'yning uziladi-ya! – dedi bukur. – Senlarni ayagan kishi piyoda qoladi!.. Eshitayapsanmi? Yo bizlarning so'zimizni pisand qilmayapsanmi?

Iona bularning noroziligini yaxshi bilsa ham:

– Hi... juda ham xushchaqchaq ekansizlar, xudoyim umrlaringizni uzun qilsin! – deb kuldi.

– Xotining bormi? – deb so'radi o'tirgan novchaning biri izvoshchidan.

– Menimi? Hi-hi... Xushchaqchaq afandilar... Endi mening bittagina xotinim bor – qora yer... Hi-hi... Go'r! Mana, o'g'lim o'lib, men qoldim... Ajal menga kelib yanglishib o'g'limni olib ketdi.

Iona o'g'lining qanday qilib vafot etganini so'zlab bermoqchi bo'lib orqasiga o'girilgan edi hamki, bukur yengil nafas olib «Xudoga shukur, yetdik», deb qoldi. Iona bittangani olib sayoq yigitlar kirib ketgan qorong'i yo'lakka uzoq vaqt tikilib turdi. Yana u tanho, yana sukunat... Salgina ko'nglidan ko'tarilgan yolg'izlik alami qayta boshdan kuch olib uning yuragini siqa boshladi. Iona hayajonli va alamli ko'zlari bilan ko'chaning

ikki tomonida oqayotgan xaloyiqqa boqdi. U yoq-bu yoqqa o'tib turgan shu minglarcha odamdan uning dard-hasratiga quloq soladigan biron kishi topilmasmikin? Lekin o'tkinchilar na uning o'zini, na ko'nglidagi alamini payqamay o'tib ketmoqdalar. Hasrat shunday zo'r va cheksiz. Agar Ionaning yuragi yorilsa-yu, ichidagi cheksiz, poyonsiz dard-hasrati oqib chiqsa bormi, yer yuzini tutib ketardi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, u ko'zga ko'rinmaydi, shunday kichkinagina joyga o'rnashib olgankı, agar kunduz chiroq yoqib izlasang ham topolmaysan...

Iona chipta xalta ko'tarib borayotgan bir qorovulni ko'rib qolib, u bilan gaplashishga jazm qildi.

– Azizim, soat necha bo'ldi?

– To'qqizdan oshdi. Nega bu yerda to'xtading? Jo'na!

Iona izvoshini bir necha qadam narıroq oldi va endi odamlarga murojaat qilishni behuda deb bilib, yana bukchayganicha xayolga botdı... Lekın oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas qattiq sanchiq turgan odamday qaddini rostlab boshini ko'tardi va otning jilovini tortdi... Uning toqati toq bo'lgan edi:

«Saroyga borayın, – dedi u, – saroyga!»

Oti ham xuddi uning maqsadiga tushunganday yo'rg'alab ketdi. Bir yarım soatlardan keyın Iona kattakon iflos pechka yonida o'tirardi. Pechka ustida, polda, skameykalarda odamlar xurrak otib uxlamoqdalar. Uy dim... Iona uxlab yotganlarga qarab qashindi va bunchalik erta qaytganiga achindi...

«Yem puli ham ishlolmadim – deb o'yladi Iona – shuning uchun ham ko'nglim g'ash. Uddaburo odamning o'zi ham, oti ham to'q, hamma vaqt xotirjam bo'ladi...»

Bir burchakda uxlab yotgan yosh izvoshchi o'rnidan turib, uyquli ko'zlari bilan suvli chelakka yopishdı.

– Cho'lladingmi? – dedi Iona.

– Ha, suv ichgim keldi!

– Hım... Osh bo'lsin... Mening o'g'lim o'ldi uka... Eshitdingmi? Shu hafta ichi, kasalxonada...

Iona o'zining so'zlari yigitga ta'sir qilganini bilmoqchi bo'lib unga qaradi, lekin hech nima ko'rolmadi. Yigit burkanib

allaqachon uyquga ketgan edi. Chol og'ir xo'rsinib, qashindi... Yosh yigit qanchalik chanqagan bo'lsa, buning xuddi shunchalik so'zlagisi kelardi. O'g'lining o'lganiga bir hafta bo'lib qolgan bo'lsa ham, hali biron odamga yorilib ichidagi dardini, hasratini aytolgani yo'q... Ipidan ignasigacha so'zlasa. O'g'lining qanday kasal bo'lganini, dard tortib qanday azoblanganini, o'lim oldida aytgan so'zlarini va qanday jon berganini so'zlab bergisi bor... Undan keyin uning janozasi, ko'mish marosimi qanday o'tganini, marhumning kiyimi uchun kasalxonaga borilganini batafsil so'zlab bergisi keladi. Undan tashqari qishloqda Anisiya degan qizi qolgan... Uning to'g'risida ham so'zlamoq kerak... Xullas u gapiraman desa gap ko'p; tinglovchi oh-voh qilib achinib eshitishi kerak. Bu haqda xotinlar bilan hasratlashish yaxshiroq bo'ladi. Ular esi pastroq bo'lsa ham, bu to'g'rida ikki og'iz so'zlasang darrov ko'zyoshi qiladilar.

«Otdan xabar olay-chi, – deb o'yladi Iona, – uyqu bir gap bo'lar... Hali xo'b uxlarmiz ham...»

U kiyimini kiyib otxonaga qarab ketarkan, beda, yem, ob-havo haqida o'yladi. U yolg'iz qolgan chog'larida o'g'lini o'ylolmaydi... Uning haqida birov bilangina so'zlashsa tuzuk. O'zi yolg'iz o'ylashi, uni ko'z oldiga keltirish juda og'ir.

– Kavshayapsanmi? – dedi otini yonib turgan ko'zlariga qarab, – chayna-chayna... Yemga yetarlik pul ishlayolmaganimizdan keyin pichan yeb turamiz-da... Ha... Endi izvosh haydashga keksayib qolibman... O'rnimga... O'g'lim haydasa... U haqiqiy izvoshchi edi... O'sha o'lmasa bo'lar edi...

Iona uzoq jim qolib, so'ng davom etdi:

– Shunaqa ekan, uka!.. Kuzma Ionichdan ham ayrilib qoldik... Bizlarni tashlab... o'ldi-ketdi, chakki qildi... Mana, chunonchi sening quluning bor, sen uning tug'gan onasisan... Chunonchi, o'sha quluning birdaniga seni dog'-u hasratga qo'yib o'lsa-yu, ketsa... kishi achinadi-da?

Ot quloq solganday uning qo'llarini hidlab kurt-kurt xashak chaynaydi... Iona berilib ketib, ko'nglidagi butun hasratini unga aytib beradi...

NODONLIK

Yanoq suyaklari chiqqan, sariqdan kelgan, egnida yirtiq po'stin, oyog'iga katta qora piyma kiygan yoshgina bir yigit zemstvo doktorining qabul vaqti tugab kasalxonadan uyga qaytishini poylab turgan edi, tortinibroq uning yoniga bordi-da:

– Taqsir, janoblariga kelgan edim, – dedi.

– Nima ishing bor?

Yigitcha kafti bilan pastdan yuqoriga qarata, burnini artib osmonga bir qarab oldi-da, javob berdi:

– Taqsir, janoblariga keluvdim... Shu yerda, sizning qo'l ostingizda, haligi bandilar yotadigan xonada Vaska degan mening akam yotipti. O'zi varvarinalik temirchi...

– Xo'sh, nima bo'pti?

– Meni so'rasangiz, o'sha Vaskaning ukasi bo'laman... Otadan ikki o'g'ilmiz: o'sha Vaska-yu, men – Kirilla. Bizlardan boshqa yana uch qizi ham bor. Vaska uylangan, farzand ko'rgan... Juda ko'pchilikmiz-ku, ishlovchi yo'q. O'ylab ko'ring, temirchilik do'koniga o't solmaganimizga ham ikki yildan oshib qoldi. Men o'zim chit zavodda ishlayman, temirchilikni bilmayman. Otamning qo'lidan nima ish keladi deysiz! Ishlash u yoqda tursin, ovqatini eplab icholmaydi.

– Ha, men nima qilay?

– Baraka topkur, Vaskani qo'yib yuboring!

Doktor hayron bo'lib Kirillaga qaradi-da, indamasdan yo'lda davom etdi. Yigitcha yugurib borib doktorning oyog'iga o'zini tashladi.

– Doktor, baraka topkur! – deb ko'zlarini pir-pir yumdi va yana kafti bilan burnini artdi. – Xudo xayr bersin, Vaskani qo'yib yuboring, umrbod duo qilamiz! Bo'shatib yuboring! Uydagilar hammasi ochdan o'ladi-ya! Onam kecha-yu kunduz yig'laydi, Vaskaning xotini yig'laydi... Toqatim qolmadi! Yorug' dunyo

ko'zimga tor bo'ldi. Rahm qiling, xudoyo baraka toping. Bo'-shatib yuboring!

– Hoy, esing joyidami, yo jinni bo'lib qoldingmi? – dedi doktor jahl aralash, – qamoqdagi odamni men qanday bo'shata olaman? Axir, u qamoqda-ku!

Kirilla yig'lab yubordi.

– Bo'shatib yuboring!

– Tentak! Uni bo'shatishlikka mening qanday haqim bor, axir. Men turma nozirimi? Uni kasalxonaga davolashga olib kelishgan, davolayapman. Mening birovni qamatishlikka ham haddim sig'maydi, bo'shatishga ham. Voy xom kalla-ey!

– Axir, uni hech arzimaydirgan narsa uchun qamashdi-ku! Hisoblab ko'ring, sudgacha bir yil to'la turmada yotdi. Endi yana, nega qamashadi? Odam o'ldirgan, ot o'g'irlagan bo'lsa ekan.

– To'g'ri, men nima qilay?

– Bir bechorani tekshirmay, netmay oborib qamashdi. Ichib juda qattiq mast bo'lib esini yo'qotipti, hatto otamning ham chakkasiga qo'yib yuboripti, mastlik bilan butoqqa urilib yuzini tilib yuboripti. Shu o'rtada, o'zimizning bolalardan ikkitasi turk tamakisi chekamiz, deb uni kechasi armanning do'koniga o'g'rilikka olib tushiptilar. Bu ahmoq ham mastlik bilan shunga ko'nipti. Keyin, bilsangiz, qulfni sindirib do'konga kirishipti. Hamma yoqni bulg'atib, oynalarni sindirib, unlarni to'kib ostin-ustin qilishipti. Mast-da, nimasini aytasiz! Albatta, darrov politsiya kelib, u deb, bu deb tergovchiga yuboripti. Bir yil to'la turmada yotishdi. Bir hafta bo'ldi – chorshanba kuni uchalovini ham shaharda sud qilishdi. Orqasida miltiq ko'targan soldatlar turdi. Vaskaning gunohi kam bo'lsa ham ulug'lar butun og'irlikni shunga yuklashdi. Anu ikkitasini turmaga yuborishdilar. Vaskani uch yilga bandilar rotasiga jo'natishga qaror qilishdi. Nimaga deng? Xudo haqi o'zingiz o'ylang!

– Har qalay mening qo'limdan hech ish kelmaydi, to'ralarga bor.

– To'ralarga bordim. Sudga ham bordim, ariza bersam olishmaydi. Stanovoyga bordim – tergovchida ham bo'ldim. Hammasi ham: mening ishim emas, deydi. Kimning ishi, axir, bu? Endi,

baraka topkur, kasalxonada sizdan katta odam yo'q, nima xohlasangiz shuni qilasiz.

– Ahmoq! – dedi doktor uh tortib. – Hakamlar sud qilgan bo'lsa stanovoy emas gubernator, hatto ministrning ham qo'lidan hech ish kelmaydi, bekorga ovora bo'lmay qo'ya qol.

– Kimlar sud qildi deng?

– Hakamlar sud qilgandir-da.

– Qayoqda deysiz, o'zimizning mujiklar! Andrey Kuryev, Aleshka Xuklar edi-da.

– Qo'y, senga gap tushuntiraman, deb sovqotib ketdim... – deb doktor qo'lini siltab, tez-tez yurib uyga kirib ketdi. Kirilla uning orqasidan bormoqchi edi, eshikning qattiq yopilganini ko'rib to'xtadi. Kasalxona hovlisida doktorning uyiga qarab o'n daqiqacha jim turgandan keyin, qattiq xo'rsindi-da, boshini qashib darvozaga qarab yurdi; yo'lga chiqarkan:

– Endi kimga borsam ekan? – dedi o'ziga o'zi sekin. – Unisiga borsang, mening ishimmas deydi, bunisiga borsang, mening ishimmas deydi. Kimning ishi, axir, bu? Yo'q, haqiqatda ham biron narsa uzatmaguncha bir ish chiqarish qiyinga o'xshab qoldi. Doktor gaplashayotib tez-tez qo'limga qaraydi. Besh so'lkavoyni uzatib qolarmikin – deb o'yladi shekilli. Xo'b, omon bo'lsam, gubernatorgacha boraman.

Alang-jalang qilib og'irligini dam bu oyog'iga, dam u oyog'iga solib, qayoqqa borishini bilmay, erinibgina qadam tashlardi... Sovuqning zahri ancha qaytgan, qor ham oyoq tagida eshitilar-eshitilmas g'irchillaydi. Yarim chaqirim naridagi tepada yaqinda akasi hukm qilingan shaharcha yoyilib yotipti. O'ng tomonda to'rt burchida qorovulxonalari bo'lgan qizil tomli turma qorayib ko'rinadi. Chapda qirovga ko'milgan shahar o'rmoni. Hamma yoq jimjit, faqat oldinroqda xotinlarnikiday paxtalik va katta shapka kiygan qandaydir bir cholning yo'talishi va shaharga haydab borayotgan sigirga hayqirib qo'yishi eshitiladi. Kirilla cholga yetib olgandan so'ng:

– Assalom alaykum, bobo! – dedi.

– Va alaykum assalom...

– Sotkanimi?

– Yo'q shunday... – dedi chol erinibgina.

– Meshchanin bo'lsangiz kerak?

So'zlashib ketishdi. Kirilla nima uchun kasalxonaga borganini va doktor bilan nima to'g'rida gaplashganini aytib berdi.

Ikkovi shaharga yetib borganlarida, chol:

– O'zi oliyjanoblardan bo'lsa ham, doktor, albatta, bu ishlarni bilmaydi, u faqat turli dorilar bilan davolash yo'lini o'qigan. Senga yaxshi maslahat berish yoki aytaylik, bayonnoma yozishga o'xshagan ishlarni bilmaydi. Bunday ishlarni tekshirish uchun alohida to'ralar bor. Mana mirovoyga ham, – stanovoyga ham boribsan. Ular ham sening ishingni bir yoqli qilolmaydi.

– Bo'lmasa kimga boray?

– Sen dehqonlarning ishiga qaragani Siniukov degan kishini katta qilib qo'yishgan, ana o'sha kishiga bor.

– Haligi, Zolotovo qishlog'idagimi?

– Ha, o'sha Zolotovoda. Sizlarning kattalaring o'sha kishi. U kishi bir nima degandan keyin ispravnik ham indayolmay qoladi.

– Borsam uzoqmi... O'n besh chaqirim kelarmikin, balki, ko'proqdir.

– Kerak bo'lgandan keyin yuz chaqirim bo'lsa ham borasan-da.

– Shunday-ku... Unga ariza beriladimi?

– Borganda ko'rasan-da, agar ariza kerak bo'lsa, mirzasi bir zumda yozib beradi. O'zining mirzasi bor.

Chol bilan xayrlashgach, Kirilla yo'lda biroz to'xtab, o'ylanib qoldi va shaharga yetgan joyida yana orqasiga qaytib Zolotovo qishlog'iga ketdi.

Besh kuncha o'tgandan keyin doktor kasallarni qarab bo'lib uyga ketarkan, kasalxona hovlisida yana haligi Kirillani uchratdi. U bir o'zigina emas, yonida qandaydir juda oriq, ranglari somonday, boshi qaltiroq bir chol ham bor edi.

– Janobi oliylari, yana sizning oldingizga keldim! – deb so'z boshladi Kirilla – mana, otam bilan birga keldik, baraka toping,

Vaskani bo'shatib yuboring! To'raga arzga borgan edim, so'zlagisi ham kelmadi; «Yo'qol!» dedi.

– Janobi oliylari! – deb xirillab so'zga kirdi chol qaltirayotgan qoshlarini ko'tarib, – rahmingiz kelsin! Biron narsa berish qo'limizdan kelmaydi. Agar siz xo'b desangiz, Kiryusha yoki Vaska qancha xizmatingiz bo'lsa qilib berishadi. Mayli ishlasin...

– Ishlab beramiz! – dedi Kirilla va xuddi fotiha qilayotgan odamday qo'llarini yuqori ko'tarib, – Janobi oliylari bo'shatsinlar! Hammasi ochdan o'ladi-ya! Kecha-yu kunduz yig'lashyapti.

Yigitcha tezgina otasiga qarab oldi-da, uning yengidan tortib qo'ydi, so'ng ikkalasi baravariga doktorning oyog'iga yiqilishdi. Doktor qo'lini siltaganicha, orqasiga qaramasdan, uyiga kirib ketdi.

IKKI MUXBIR

(Bo'lmagan voqea)

«Aftingga chuchkiray» degan gazetaning xodimi Ribkin, lattadek bo'sh va lapashang bir odam, musofirxonadan ijaraga olgan nomerning o'rtasida turib, shipdagi ilmoqdan ko'zini uzmasdi. Qo'lida arqon.

«Ko'tararmikan, yo ko'tarolmasmikin? – deb o'yladi u. – Tag'in sug'urilib, boshimga kelib tushsa-ya?! Shuyam turmush bo'ptimi! O'zingni osay desang, tuzukroq joy ham topolmaysan!»

Eshik birdan ochilib, nomerga Ribkinning do'sti, «Xoin» gazetasining xodimi xushchaqchaq, qip-qizil betli, epchil Shlyopkin kirib kelmaganda, u tentakning fikri-xayoli qanday oqibat keltirishini bilmayman.

– Salom, Vasya! – deb gap boshladi kirgan odam stulga o'tirib. – Men seni olib ketgani keldim. Yur! Viborg dahasida bir kishi o'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'pti, o'ttiz yo'lcha xabar chiqadi... Qandaydir bir muttaham o'zini o'zi so'yaman, deb chala so'yib qo'yipti. Birato'lasi yuz o'ttiz yo'lga moslab so'ymaysanmi, muttaham! Mening miyamga bir fikr keldi, men hatto shu to'g'rida maqola ham yozmoqchiman: agar insoniyat insofli bo'lsaydi, doim qornimiz och yurganini bilsaydi, bundan yuz chandon ko'proq osilar, o'zini o'tga tashlar, sudlarga tushar edi. Iye! Bu nimasi? – deb hayron bo'ldi u, arqonni ko'rib. – O'zingni osmoqchimisan?

Shunday, og'ayni... – deb uh tortdi Ribkin. – Bo'ldi endi... Alvido! Turmush jonimga tegdi! Yetar!

– Toza ahmoq ekansan-da! Ne sababdan turmushdan bezding?

– Sababi ko'p... Butun atrofing qorong'u, seni nimalar kutishini bilmaysan... Seni hech kim tanimaydi... Nimani yozishingni bilmaysan... Atrofingdagilar bir-birlarining etini yeyi-

shadi, bir-biriga xiyonat qiladi, bir-birini g'arq etadi, bir-birini haqorat qiladi, betiga tupuradi... Ammo yozadigan narsa yo'q. Shuning o'zi ham o'n marta dorga osilishga kifoya. Atrofda hayot qaynaydi, barq uradi, hayajonlanadi, hayqiradi, ammo yozadigan narsa yo'q! La'nati dualizm...

– Nega endi yozadigan narsa yo'q ekan? O'nta qo'ling bo'lganda ham ish yetib ortadi.

– Yo'q, yozadigan hech narsa qolmadi! Qani, nimalarni yozgin deysan! Kassirlar haqida yozilgan, dorixonalar haqida yozilgan, Sharq masalasi ham yozilgan... Shu qadar ko'p va haddan ortiq yozilganki, hamma narsa chalkash bo'lib ketgan. Dindan qaytish haqida yozilgan, qaynanalar haqida, yubileylar, yong'inlar, xotinlarning shlyapalari, axloqning buzilishi yozilgan, ukki ham yozilgan... Butun dunyoyi-olamdagi hamma voqealar yozilib bo'lingan, hech narsa qolmadi. Sen bo'lsang odamni so'yib ketishipti, deb hovliqasan... Shu ham hodisa bo'pti-yu! Men bir odamni bir vaqtning o'zida ham dorga osib, ham so'yib, ham ustidan kerosin quyib kuydirib o'ldirgan odamni bilaman, shunday voqeani bilsam ham yozmayman! Menga nima! Bunaqangi voqealar ko'p bo'lgan, hech qanday yangiligi yo'q. Deyaylik, masalan, sen ikki yuz ming so'm pul o'g'irlading yoki Nevskiy ko'chasining ikki boshidan o't qo'yib yondirib yuborganlar, bundan menga nima? Bularning barisi oddiy bir narsa, bular xususida ko'p yozilgan. Alvido!

– Ajabo! Masaladan ko'pi yo'q, turli-tuman voqealar to'lib yotipti. Hatto biron narsaga tosh otsang ham biron masala yoxud voqeaga borib tegadi...

– Na sen aytgan masala, na voqea uch pulga arzimaydi... Masalan, mana men hozir o'zimni o'zim osib o'ldirmoqchiman... Seningcha bu bir voqea, bir masaladir. Menimcha bu petitdan terilgan besh yo'llik xabar, undan ortiqligi yo'q: yozishga hech narsa qolmadi. Odamlar ilgari ham o'lib kelgan, bundan buyon ham o'laberadi, buning hech yangiligi yo'q... Sen aytgan turli-tuman voqealar, barq urgan hayot va boshqalarning hech qizig'i qolmadi, og'ayni... Bularni yozishdan o'zimning ham

ko'nglim ayniydi, o'quvchiga ham achinasan kishi. O'quvchi bechoraning kayfini buzish nima hojat?

Ribkin bir uh tortdi, boshini chayqab, achchiq iljaydi.

– Agar bir balo bo'lib, haddan ortiq g'ayri oddiy, dunyoni ostin-ustin qiladigan mudhish, razil bir voqea ro'y bersa, unda boshqa gap, unda menga ham jon kirgan bo'lardi. Masalan, yer kurrasi uchar yulduzning dumini kesib o'tsa, yoxud Bismark islom diniga kirsa, yoxud turklar Kaluga shahrini shturm qilib olgan bo'lsalar, yoxud Notovich maxfiy maslahatchi etib tayinlanib qolsa... xullas, kishini qizdirib yuboruvchi, o'taketgan bir voqea bo'lsaydi, unda boshqa gap, men ham hayotdan mamnun bo'lardim!

– Sen masalalarga keng qaraysan, bu yaramaydi, oldin sayoz yerda suzib ko'r. Tuproqning bir donasiga, chumoliga, hatto qum donasiga bir boq, – hamma yerda hayot, hamma yerda drama, fojia! Har bir cho'pning, har bir cho'chqaning ham boshida – fojia bor!

– Sening fe'ling boshqacha, sen tuxumning po'chog'i haqida ham yozaverasan. Men esa... yozolmayman!

– Nima qipti tuxumning po'chog'iga? – xafa bo'ldi Shlyopkin. – Bunda qancha masala bor, bilasanmi? Birinchidan, tuxumning po'chog'ini ko'riboq g'azablanasan kishi! Bir jonivorni dunyoga keltirish uchun tabiat yaratgan tuxumni kimsa yeb qo'ygan! Bilasanki, bir tuxumdan bir hayot paydo bo'ladi, bir hayotdan o'n hayot kelib chiqadi, o'ndan butun bir avlod paydo bo'ladi. Shunday bir tuxum yeb yuborilgan, bir nafsga qurbon bo'lgan! O'sha tuxumdan tovuq chiqqan bo'lardi, tovuq esa to o'lgunicha mingdan ortiq tuxum qilardi... Mana, iqtisodiy tuzumga putur yetkazish, kelajakka xiyonat! Ikkinchidan, tuxum po'chog'ini ko'rib xursand bo'lasan: yeyilgan tuxum Rusiyaning farovonligini ko'rsatadi... Uchinchidan, tuxum po'chog'ini go'ngga aralashtirib yerga solinishi kerak, degan fikr keladi, tuxum po'choqlarini to'plash haqida o'quvchiga maslahat berasan... To'rtinchidan, tuxum po'chog'ini ko'rib, bu dunyoda umrning kaltaligini o'ylaysan: bir jonivor birdan yo'q bo'lib qoladi, bu dunyodan o'tadi! Beshinchidan... Sanab o'tirishning nima keragi bor? Yuzgacha sanasang ham yetadi!

– Yo'q, og'ayni, ortiq toqatim qolmadi! Men o'zimga ham ishonmay qo'ydim, tabiatim ham xira... Bo'ldi, bas!

– Bekor qilasan, do'stim, xudo ursin, bekor qilasan, – deb qaytarardi Shlyopkin, do'stini. – O'zing bir o'ylab ko'r: yigirmadan ortiq gazeta chiqadi, hammasi maqolaga to'la! Demak, yozishga arziydigan gap ko'p ekan-da! Uzoq viloyatlarda chiqadigan gazetalarni olib qara: ular ham materialga liq to'la!

– Yo'q, bo'ldi... Uyqudagi amaldorlar, kassirlar... – deb po'ng'illay boshladi Ribkin, boshqa ilmoq izlab. – Dvoryanlar banki, pasport tizimi, amaldorlarni tugatish, Rumeliya!.. Jonga tegdi!

– Bilganingni qil!..

Ribkin arqonni bo'yniga soldi-da, huzur qilib o'zini osdi va o'ldi. Shlyopkin stol yoniga o'tirib, birpasning ichida o'z-o'zini o'ldirgan do'sti haqida bir xabar, Ribkinga ta'ziya, o'z-o'zini o'ldirish voqealarining ko'payishi haqida felyeton va shu mavzuda yana bir necha maqola yozib tashladi. Yozib bo'lib, cho'ntagiga tiqdi-da, vaqti xush bo'lib, redaksiyaga yugurdi. U yerda uni qalam haqi, shon-sharaf va o'quvchilar kutmoqda edi.

MUJIKLAR

I

Moskvadagi «Slavyan bozori» musofirxonasining malayi Nikolay Chikildeyev kasal bo'ldi. Uning oyog'i tortishib, siltanglanib yuradigan bo'lib qoldi. Bir kuni patnisda yaxna go'sht, no'xat qo'yib borayotganda yo'lakda qoqilib, yiqilib tushdi. Xizmatdan chiqib ketishga to'g'ri keldi. O'zining va xotinining pullarini dori-darmonga sarf qilib, ovqatga ham pul qolmadi, ishsizlikdan zerikdi, so'ngra o'z qishlog'imga borsam yaxshi bo'lar, deb o'yladi. O'z uyingda kasallik ham bilinmaydi, xarajat ham kam; uyda bo'lsang har bir devor suyaydi, degan gap bejiz emas, axir.

Nikolay kech paytda o'z qishlog'i Jukovoga kirib keldi. Bolalik chog'lari esiga tushganda, tug'ilib o'sgan uyi xayolida yorug', dildor, bag'ri kengdek ko'ringan edi; endi uyga kirarkan, hatto qo'rqib ketdi: yorug' deb o'ylagan joyi nihoyatda qorong'i, tor va iflos edi. Nikolay bilan kelgan xotini Olga, qizi Sasha, uyning salkam yarmisini egallagan, is va pashshadan qorayib ketgan beso'naqay pechga qarab hayron bo'lardi. Pashshaning son-sanog'i yo'q! Pech qiyshaygan, devorlarning yog'ochlari egri-bugri, uy xuddi hozir qulab tushadigandek. Ikonalar turadigan burchakda shisha yorliqlari, gazet parchalari yopishtirilgan – bular go'yo surat o'rniga qo'yilgan. Kambag'allik, qashshoqlik! Uyda kattalardan hech kim yo'q, hamma o'roqda. Pech ustida yoshi sakkizlarga borgan malla soch, aft-boshi kir bir qiz beparvogina o'tiribdi. U kelganlarga aqalli qaramadi. Pastda oq mushuk kosovga surkalib turardi. Sasha:

– Ma, pish-pish-pish, – deb mushukni chaqirdi.

Pech ustidagi qiz:

– Mushugimiz kar bo'lib qolgan, eshitmaydi, – dedi.

– Nega?

– Shunday. Urib kar qilishgan.

Nikolay bilan Olga bir qarashdayoq bundagi turmushning qanday ekanini fahmladilar, ammo tugunlarini yerga qo'yib, indamay ko'chaga chiqdilar. Ularning uyi bir chekkadan uchinchi bo'lib, ko'rinishi eng xarob, eng eski edi; ikkinchi uy ham ularnikidan yaxshi emas, lekin uchinchisi tunuka tomli, oynalariga parda tutilgan edi. Bu uyning oldi to'silmagan, o'zi alohida turibdi. Uylar bir qator tizilgan, butun qishloq jimjit, xomush, hovlilardan ko'rinib turgan tol, qarag'ay, chetan daraxtlari qishloq manzarasini chiroyli va yoqimli qilib turibdi.

Dehqon uylarining narigi tomonida soy bo'yiga qarab tushgan jarlik bor edi, bu jarlik baland va tikka bo'lib, goh joylarda tuproq tagidan kattakon toshlar chiqib turibdi. Bu toshlar, kulollar kovlagan chuqurlar yonida, jar bag'rida aylanma yolg'izoyoq yo'llar bor; siniq idishlarning qora, qizil parchalari to'p-to'p bo'lib uyilib yotibdi, pastdagi keng yalanglik ko'm-ko'k o'lanzor; o'lanzorning o'ti o'rilgan, hozir dehqonlarning mollari o'tlab yuribdi. Qishloqdan bir chaqirimcha narida buralib-buralib oqqan soy bo'yida barradek sabzalar yashnaydi, soyning narigi yog'ida yana keng o'lanzor, mollar o'tlab qator-qator oppoq g'ozlar yuribdi, so'ngra u yoqda ham bu tomondagidek baland qir, qir tepasida qishloq, qishloqda besh gumbazli cherkov, nariroqda pomeshchikning uyi.

Olga cherkovga qarab cho'qingach:

– Sizlarning joylaringiz yaxshi ekan, yayraydigan yer ekan, ey Xudo! – deb qo'ydi.

Xuddi shu paytda kechgi ibodatga qo'ng'iroq chalindi (shanba oqshomi edi). Pastda chelakda suv olib kelayotgan ikki kichkina qiz qo'ng'iroq ovozini eshitish uchun, cherkovga qayrilib qaradilar.

Nikolay xayol surib:

– «Slavyan bozori»da ovqat vaqti bo'ldi... deb qo'ydi.

Nikolay bilan Olga jar bo'yida o'tirib kunning botishini, suvda, cherkovning oynalarida tip-tiniq, sof va salqin, muloyim

havoda qip-qizil osmonning tovlanib tovish urushini – Moskvada hech qachon bo'lmaydigan bu manzarani tomosha qildilar. Quyosh botgach poda ma'rab, bo'kirib o'tdi. Narigi tomondagi g'ozlar uchib keldi, hamma yoq jim bo'ldi, havodagi sokit shu'la so'ndi, qorong'i tusha boshladi.

Bu orada Nikolayning otasi bilan onasi, chol-kampir qaytib keldilar. Ikkovining bo'yi baravar, munkaygan, tishlari tushgan, ikkovi ham ozg'in. Soyning narigi yog'ida pomeshchiknikida ishlagan kelinlar – Marya bilan Fekla ham keldi. Kiryak degan o'g'illarining xotini Maryaning olti bolasi bor, soldatga olingan Denis degan o'g'illarining xotini Feklaning ikki nafar bolasi bor edi. Nikolay uyga kirib bola-chaqalarni, so'ri ustida, belanchakda, uyning har yog'ida, burchak-burchaklarda uymalashib yurgan katta-kichik gavdalarni, chol bilan kampirning qora nonni suvga botirib qanday ishtaha bilan yeyayotganlarini ko'rganidan keyin kasal holda, pulsiz, buning ustiga bola-chaqasi bilan bu yerga chakki kelganini fahmladi – bekor qilibdi!

So'rashib bo'lganidan keyin:

– Kiryak og'am qayoqda, – deb so'radi.

– Savdogarnikida, o'rmonda qorovullik qiladi, o'zi yomon mujik emas-u, biroq juda yomon ichadi, – deb javob berdi otasi.

Kampir ko'ziga yosh olib dedi:

– Uddaburo chiqmadi, mujiklarimizning peshonasi sho'r, uyga tashib kelmasdan, uydan tashib ketadilar. Aybimizni bekitib nima qilamiz, Kiryak ham xo'p ichadi, chol ham ichadi, qovoqxonadan beri kelmaydi. Xudoning qahriga qoldik.

Mehmonlar kelgani uchun samovar qo'ydilar. Choydan baliq isi kelardi, qand mijilgan va sarg'aygan, non va idishoyoqlar ustida suvaraklar yurishibdi. Ichishga odam jirkanadi, gaplar kishini ranjitadi – muhtojlik, kasallik to'g'risidagina so'zlashadi. Bir piyoladan choy ichilgani ham yo'q ediki, bir mahal, hovlidan mastning bo'kirgani eshitildi:

– Ma-arya!

– Kiryakka o'xshaydi, – dedi chol, – ana o'zi ham kelib qoldi.

Hamma jim bo'ldi. Birozdan keyin xuddi yer tagidan kelganday haligi dag'al bo'kirik yana eshitildi:

– Ma-arya!

Katta kelin Maryaning rangi o'chdi, pech yoniga borib tiqildi. Keng yag'rinli, durkun, kuchli va xunuk xotinning qo'rqishi g'alati ko'rindi. Uning qizi, pech ustida beparvo o'tirgan haligi qiz to'satdan baqirib yig'lab yubordi.

Chiroyli, keng yag'rinli, baquvvat Fekla qizni jerkib:

– Vabo tekkur, sen nega yig'laysan? Joning chiqmasin, o'ldirmas! – deb baqirdi.

Nikolay choldan surishtirib bilsa: Marya o'rmonda Kiryak bilan birga turishga qo'rqar, eri har gal ichib mast bo'lganda Maryani yo'qlab kelib, shovqin-suron ko'tarib, xotinini hech ayamasdan urar ekan.

Xuddi eshik tagida yana:

– Ma-arya! – degan bo'kiriq eshitildi.

Marya birov uni muzdek suvga sho'ng'itib olgandek, entika-entika:

– Xudo xayr bersin, jigarlarim, qutqarib oling, mehribonlarim, unga topshirib qo'ymang... – deb g'ulduradi.

Uydagi bolalarning hammasi, ularga qarab Sasha ham yig'lab yubordi. Mast kishining yo'talgani eshitilib, baland bo'y, qora soqol, quloqchin kiygan kishi kirib keldi; chiroq xira yonganidan yuzi ko'rinmagani uchun dahshatli tuyuldi. Bu Kiryak edi. U xotiniga yaqin kelib uning yuziga qulochkashlab bir musht urdi. Xotini esa kaltakdan gandiraklab, churq etmay o'tirib qoldi, shu ondayoq burnidan qon keldi.

Chol pechga chiqar ekan:

– Ana sharmandalik, uyat, nomus. Mehmonlar oldida-ya. Qanday battollik! – deb g'ulduradi.

Kampir bukchayganicha nimanidir o'ylab, indamay turadi. Fekla belanchak tebratardi... Kiryak chamasi o'zining bunday dahshatli ekanligini bilib va bundan quvonib Maryani qo'lidan ushlab eshikka sudradi, badtarroq qo'rqitmoq uchun hayvondek bo'kirdi, ammo shu chog' mehmonlarga ko'zi tushib to'xtadi.

Kıryak xotinini qo'yib yuborib, dedi:

– Ha, kelibsizlar... Tug'ishgan og'am bola-chaqasi bilan kelibdi... – dedi.

Gandıraklab turib qip-qizil mast ko'zlarini yirib ikonaga cho'qindi-da, yana gap ochdi:

– Og'am ota uyiga bola-chaqasi bilan kelibdi... Moskvadan kelibsizlar-da. Poytaxtdan, shaharlar onasi Moskvadan keldim deng... Aybga qo'shmaysizlar...

Samovarga yaqin joyda skameykaga o'tirib idishdan ho'p-lab-ho'plab choy ichdi. Boshqalar indamay o'tirardi... O'n piyolaga yaqin choy ichdi, so'ngra skameykaga suyanganicha xurrak ota boshladi.

Yotar vaqt bo'ldi. Nikolay kasal bo'lganidan unga chol yoniga pech ustiga joy solib berdilar; Sasha yerda yotdi. Olga ayollar bilan yotgani saroyga kirib, Marya yoniga yotar ekan:

– Ey, o'rgilay, ko'zyoshi qayg'uni yuvmaydi! Sabrdan o'zga chorang yo'q. Aziz kitoblarda, agar birov o'ng betingga ursa, chap betingni ham tutib ber... deyilgan, ey o'rgilay, – dedi.

So'ngra Moskvada, musofirxonada cho'ri bo'lganini sal-moqlab gapirib berdi.

– Moskvaning uylari katta, bir ming olti yuzta cherkov bor, o'rgilay; uylarda badavlat odamlar turadi, hammalari chiroyli, kelishgan, boadab!

Marya Moskva u yoqda tursin loaqal o'zining uyezd sha-hariga ham bormaganligini gapirib berdi. Marya o'qimagan, duolarning hech qaysisini, hatto «Ey bor Xudoyo»ni ham bilmas edi. Marya ham, nariroqda bular gapiga quloq solib o'tirgan ikkinchi kelin Fekla ham nihoyatda nodon bo'lganlaridan hech narsaga tushunmasdi. Ikkovi ham erini yoqtirmas edi. Marya Kıryakdan qo'rqar, uning oldida turganda qo'rqqanidan qaltirar va qachonki uning bilan birga tursa, undan araq va tamaki hidi buruqsib turganidan boshi karaxt bo'lar edi. Fekladan eringni sog'inmaysanmi, deb so'raganda:

– Qo'ying o'shani! – deb javob berardi.

Gaplari tugab jim bo'ldilar...

Kun salqin, bostirma oldida xo'roz qichqirib uxlatmas edi. Tongning ko'kimtil nuri har teshikdan ko'rinib turgan chog'da Fekla asta-sekin o'rnidan turib eshikka chiqdi, so'ngra yalang-oyoq shipillab qayoqqadir ketdi.

II

Olga cherkovga borarkan Maryani ham birga olib ketdi. Ular so'qmoqdan borib o'lanzorga qarab tushayotganlarida xursand edilar. Olgaga bu yerning kengligi yoqar edi. Marya bo'lsa ovsinini yaqin qarindoshdek bilardi. Kun chiqdi. Uyqudan karaxt bo'lgan qirg'iy o'lanzor tepasidan pastlab uchmoqda, soy usti xira, unda-bunda tuman tentirab yurardi, ammo soyning narigi tomonidagi quyosh shu'la tashladi, cherkov yarqirab turibdi, pomeshchikning bog'ida zag'chalar chag'illardi.

– Chol tuzuk, lekin kampir serjahl, urishaveradi. O'z bug'doyimiz hayitgacha yetib berdi, endi qovoqxonadan un sotib olib yeb turibmiz, shuning uchun kampirning jig'ibiyroni chiqayotibdi, ko'p non yeysizlar, deb jahl qiladi, – dedi Marya.

– Ey, o'rgilay. Sabr qil, boshqa chora yo'q. Kitobda, barcha ojiza va bechoralar, g'am-g'ussada qolganlar sabr qilinglar, deyilgan.

Olga salmoqlab so'zlar, yurganda tipirchilab, tez yurar edi. Har kuni otinoylardek qiroat bilan injil o'qir, o'qiganining ko'piga tushunmasa ham aziz so'zlarga kelganda ko'ngli buzilib yig'lab, «ashche»[1] «dondeje»[2] kabi so'zlarni yuragi ezilib, hazin tovush bilan aytar edi. U Xudoga, bibi Maryamga, aziz-avliyolarga ishonar, dunyoda na oddiy odamlarga, na nemislarga, na lo'lilarga va na yahudiylarga, xullas hech kimga ozor berib bo'lmaydi, hatto hayvonlarga ham ozor yetkazgan kishining sho'ri quriydi, deb bilar edi, muqaddas kitoblarda shunday yozilgan deb va shuning uchun bu muqaddas kitoblarni o'qiganda, garchi so'zlariga tushunmasa ham, ko'ngli buzilib, yuzi yorishib, rahm-shafqat alomatlari paydo bo'lardi.

---

[1] *«Ashche»* – agar.

[2] *«Dondeje»* – qachonki; har ikkisi ham eski slavyancha diniy so'z.

– Sen qayerliksan? – deb so'radi Marya.

Men vladimerlikman. Moskvaga borib qolganimga ancha bo'lgan, sakkiz yoshimda.

Soyga yaqinlashdilar. Soyning narigi bo'yida suv yoqasida qandaydir bir xotin yechinmoqda edi.

Marya u xotinni tanib:

– Bizning Fekla-ku, – dedi, – soyning narigi bo'yidagi boyning hovlisiga borib kelayotgandir. Unda boyning gumashtalari bor. Shunday sho'x, qaqajonki, aslo qo'ya ber!

Qora qosh, sochlari yoyilgan, yosh, durkun, qizdek Fekla soy bo'yidan o'zini suvga tashlab, oyoqlari bilan suvni shaloplatib ketdi, to'lqinlar har tomonga yoyildi.

Marya yana:

– Benihoyat sho'x, – dedi.

Soy ustida lapanglab turgan yolg'izoyoq yog'och ko'prik bo'lib, ko'prik tagida zog'ora baliqlar galalashib yurar edi. Suvga engashib turgan mayda butalar bargida shudring tomchilari yarqiraydi. Havo ilidi, ko'ngil quvonadi. Naqadar go'zal tong! Agar muhtojlik, qochib qutulib bo'lmaydigan, dahshatli qashshoqlik bo'lmasa bu dunyoda turmush nechog'lik go'zal bo'lardi! Agar orqaga qayrilib qishloqqa bir qaralsa, kechagi hodisalar darhol esga tushadi, bu yerning afsonaviy go'zalligi, xursandlik nash'asi bir lahzada yo'qoladi.

Cherkovga kelishdi. Marya ichkari kirgani botinolmay eshik oldida to'xtab qoldi. Garchi ibodatga chaqirgan qo'ng'iroq soat sakkizdan oshganda chalingan bo'lsa-da, tik turaverdi va shu turganicha sira o'tirmadi.

Injil o'qilayotganda butun xaloyiq alg'oq-dalg'oq bo'lib, cherkovga kirib kelgan pomeshchiklar oilasiga yo'l berdi; oq ko'ylak, soyaboni keng shlyapa kiygan ikki qiz bilan matros kiyim kiygan qizil yuzli, semizgina bir bola kirib keldi. Ularning kelishi Olgaga ta'sir qildi. U bir qarashdayoq bular odamshavanda, o'qimishli, ko'hlik kishilar ekan, deb qo'ydi. Marya bo'lsa, kelganlar odam emas, yo'l bermaguday bo'lsa uni bosib-yanchib ketadigan balo-qazodek, ularga zimdan xo'mrayib, ma'yuslanib qaradi.

Dyakon yo'g'on tovush bilan bir so'zni o'qisa Maryaning nazarida eri «Ma-arya» deb bo'kirganday bo'lardi va cho'chib tushardi.

III

Mehmonlarning kelgani qishloqqa yoyildi, shuning uchun ibodatdan keyin ularni ko'rgani ancha odam keldi. Leonichevlar ham, Matveyevichlar va Ilichovlar ham Moskvada xizmat qilgan qarindoshlarini ko'rgani keldi. Jukovo qishlog'idan chiqqan savodli bolalarning hammasini Moskvaga eltib, oshxona va musofirxonalarga xizmatkorlikka berardilar (soyning narigi tomonidagi qishloq bolalarini esa faqat bulkaxonaga berardilar); bu narsa qadimdan, krepostnoylik zamonidan beri rasm bo'lib qolgan, u zamonda Jukovo qishlog'ida bo'lgan Luka Ivanovich degan bir dehqon nuqul o'z hamqishloqlarini xizmatga olar ekan. Qilgan ishlari hozir cho'pchakka aylanib qolgan bu odam Moskvadagi klublarning birida bufetchilik qilardi. Uning keltirgan odamlari o'rnashib olganlaridan keyin o'z qarindoshlarini chaqirib olib, ularni qovoqxona va restoranlarga joylashtirar ekanlar. Shu sababdan shu vaqtdan beri atrofdagi qishloqlarning odamlari Jukovo qishlog'ini «Malayobod» yoki «Yundixo'r» derdi. Nikolayni o'n bir yoshida Moskvaga eltib, u vaqtda «Ermitaj» bog'ida kapeldinerlik[1] qiluvchi va Matveyevichlar oilasidan bo'lgan Ivan Makarich o'rniga joylashtirib qo'ygandilar. Endi Nikolay Matveyevichlarga minnatdorlik bilan der edi:

– Ivan Makarich mening valiyne'matim bo'lgan, uni kecha-yu kunduz duo qilish mening vazifam, chunki men uning orqasida odam bo'ldim.

– Ey, bolam, – dedi ko'zyoshi aralash Ivan Makarichning opasi, novcha, oriq kampir, – ulardan hech xat, xabar yo'q.

– Qishda Omonda[2] xizmat qilgan edi. Hozir shahardan tashqarida allaqanday bir bog'da emish, keksayib qoldi! Burun

---

[1] *Kapeldiner* – teatr, sirk kabi tomoshaxonalarda chipta tekshirib turuvchi odam.

[2] *Omon* – 90-yillar Moskvada bo'lgan bir restoran egasining familiyasi.

yozda kuniga o'n so'm ishlagan kunlari bo'lar edi. Hozir har yerda ham ishning mazasi yo'q, qariganda azobga qoldi.

Kampirlar va xotinlar Nikolayning piyma kiygan oyog'iga, oppoq rangiga qarab, xafalanib dedilar:

– Uddaburo emassan, Nikolay Osipich, topishingda maza yo'q! Na chora!

Hamma Sashani erkalatar edi. Sasha o'n birga qadam qo'ygan bo'lsa-da, bo'yi yoshiga yarasha emas, pakana, o'zi oriq, ko'rgan kishi uni yettiga kirgan deydi. Oftobda qoraygan, sochlari pala-partish qirqilgan, uzun va keng etakli ko'ylak kiygan, boshqa qizlar orasida oppoqqina, shahlo ko'z, sochining uchiga qizil tasma bog'lagan Sasha bir turfa qiziq ko'rinar, xuddi daladan tutib, uyga olib kelingan jonivorga o'xshar edi.

– Qizim o'qishni ham biladi! deb maqtandi Olga, qiziga muloyimgina qarab, – qani, o'qi-chi, qizim! – dedi unga burchakda turgan Injilni olib berib, – sen o'qi, mo'minlar eshitsinlar.

Injil eski, og'ir charm muqovasining chetlari to'zigan edi. Undan shunday bir hid keldiki, uyga monaxlar kirganday bo'ldi. Sasha qoshlarini chimirib qiroat bilan boshladi:

– «Onalar chiqib ketganlaridan keyin Yusuf tushida Jabroilni ko'rdi, Jabroil unga aytdiki, tur o'rningdan, bolani onasi bilan Misrga olib qoch... va mendan xabar bo'lguncha unda tur...»

– Bolani onasi bilan... – degan iborani Olga yana qaytardi va hayajonidan qip-qizarib ketdi.

«Dondeje» iborasini eshitganda Olga o'zini tutolmay yig'lab yubordi. Unga qarab avval Marya, so'ngra Ivan Makarichning opasi ham yig'lab yubordi. Chol yo'taldi va nevarasiga dasturxondan biror narsa olib bermoqchi bo'lib, jovdiradi: hech narsa topolmay, qo'l siltadi. Shundan so'ng Injil o'qish tamom bo'lib, ta'sirlanib, ko'ngli buzilgan qo'shnilar Olga va Sashadan mamnun bo'lib tarqaldilar.

Bayram munosabati bilan hammalari kun bo'yi uyda qolishdi. Eri ham, kelinlari ham, nevaralari ham acha, deb atagan kampir butun ishni o'zi qilishga tirishar edi. Pechni ham o'zi yoqdi, samovarni ham o'zi qo'ydi. Hatto yerto'laga ham o'zi

tushar, keyin «ishlayverib o'lib bo'ldim», deb shikoyat qilardi. Biron kishi bekor qolmasligi, birovning ortiqcha emasligi, chol va kelinlar bekor o'tirmasligining g'ami ham uning ustida. Qo'shni qovoqxona egasining g'ozlari nazarida chorvoqqa kelayotganday bo'ladi. Kampir darhol uzun tayoq olib yugurib chiqdi-da, o'zi singari burishgan va nimjon karami yonida yarim soatcha chinqirib vaysaydi. Nazarida jo'jalarga sor tegayotganday bo'lib, urishib-qarg'ab sorni haydashga tutinadi. U ertadan kechgacha achchiqlanar hamda vaysardi, ko'pincha shunday shovqin ko'tarar ediki, ko'chadan o'tib borayotgan kishilar to'xtab qarashar edi.

O'z choliga ham yaxshi muomala qilmasdi. Uni goh yalqov, goh baloga uchragur, derdi. Chol ham epchilgina, inobatli odam emasdi, agar kampir shunday qilib turmasa, u hech ishlamas, pechkaning ustiga chiqib, gaplashib o'tiraverar edi. U o'g'liga o'zining allaqanday dushmanlaridan, qo'shnilaridan yetgan alamlardan hasrat qilib, ezmalik bilan uni zeriktirar edi.

U biqinini ushlab turib dedi:

– Shunaqa... Bayramdan so'ng oradan bir hafta o'tib, pudini o'n uch tiyindan pichan sotdim. O'z ixtiyorim bilan... shunday qilib... xo'p, demak, men pichanni o'z ixtiyorim bilan olib boraman, hech kim bilan ishim yo'q. Shu vaqtda qarasam yo'ldagi qovoqxonadan oqsoqol Antip Sedelnikov chiqib qoldi. «Qayoqqa olib borayotirsan, bu xashak-pashakni», – deb qulog'imning tagiga bir tarsaki tushirdi.

Kayfi tarqalgan Kiryakning boshi qattiq og'rir va akasidan xijolat bo'lar edi.

Kiryak karaxt boshini qimirlatib:

– Araqning oqibati shu. Ey, Xudo-ey! Akalar, opalar gunohimni kechiring, Iso haqi, o'zim ham pushaymonman – derdi.

Bayram munosabati bilan qovoqxonadan sho'r baliq sotib olib, uning kallasidan sho'rva qaynatildi. Qiyom vaqtida hamma choy ichgani o'tirib, choyni uzoq, to terlaguncha ichishdi. Hamma choy icha-icha xuddi shishib ketganday ko'rinar edi. Shundan so'ng sho'rvani katta bir tog'oraga quyib o'rtaga qo'ydilar.

Hammalari shu bir tog'oradan ichdilar. Sho'r baliqni esa kampir yashirib qo'ydi.

Kechqurun kulol jar bo'yida o't yoqib, quvachalarni xumdonga soldi. Pastdagi o'tloqda qizlar qo'shiq aytishdi. Garmon chalishdi. Soyning narigi yuzidagi xumdonga ham o't yoqilgan. Unda ham qizlar qo'shiq aytdilar. Qo'shiq uzoqdan ohangdor va mungli eshitilar edi. Qovoqxonada va uning atrofida mujiklar g'ovur ko'tarardi. Badmastlik bilan poyma-poy ashula qilar va shunday so'kishar ediki, uni eshitganda Olga bir irg'ib tushib:

– Voy, sho'rim qursin! – derdi.

So'kishlarning hech tinmaganligi, bir oyog'i go'rda bo'lgan chollarning hammadan ko'ra qattiqroq va uzoqroq so'kinishlari Olgani hayratda qoldirdi. Bolalar va qizlar esa bu so'kinishlarni eshitib, hech uyalmas, aftidan, yoshlikdanoq bunga o'rganib qolgan edi.

Vaqt yarim kechadan o'tdi. Soyning bu va narigi yuzidagi xumdonlarda o't o'chdi. Pastdagi o'tloqda va qovoqxonada hamon o'yin-kulgi davom etar edi. Chol bilan Kiryak mast – bir-birini suyab, bir-birini turtkilab, Olga bilan Marya yotgan omborning oldiga kelishdi.

– Qo'y, – derdi chol yolborib, – qo'y... yaxshi, mo'min xotin... Gunoh bo'ladi..

– Ma-arya! – deb qichqirdi Kiryak.

– Qo'y... gunoh... bu yomon xotin emas.

Ikkovi saroy yonida biroz turib, so'ngra ketishdi.

– Sevaman men dala gullarini, chamanzorda gullar terishni, – deb chol chinqirib birdaniga ashula boshladi.

So'ngra tupurdi. Yomon bir so'kindi-da, uyga kirib ketdi.

IV

Kampir Sashani polizni qo'riqlagali qo'yib, g'ozlarni kirgizma, deb buyurdi. Issiq avgust kuni edi. Qovoqxona egasining g'ozlari galalashib narigi yoqdan polizga kirsalar bo'lardi-ku, ammo hozir qovoqxona yonida to'kilib yotgan sulini terib yeyish

bilan ovora edi. Faqat bir erkak g'oz, kampir tayog'ini ko'tarib kelmayotibdimi, deganday bo'ynini cho'zib qarab qo'ydi. Boshqa g'ozlar past tomondan kelishi mumkin edi, ammo bular hozir soyning narigi yog'idagi o'tloqda qator-qator tizilishib, o'tlab yurar edi. Sasha biroz turdi-da, zerikdi. G'ozlar kelmaganidan keyin jar bo'yiga qarab ketdi.

Sasha u yerda Maryaning katta qizi Motkani ko'rdi. Motka katta bir toshning ustida turib, cherkovga qarar edi. Marya o'n uch bola tug'gan, ammo bulardan faqat olti nafari qolgan. Bularning hammasi qiz, eng katta qizi sakkiz yoshda edi. Motka yalangoyoq, uzun ko'ylak kiyib, oftob qizig'ida turar edi. Oftob uning miyasini qaynatar, ammo buni sezmay, toshday qotib turardi. Sasha uning yoniga borib, cherkovga qarab dedi:

– Cherkov Xudoning uyi. Odamlar chiroq, sham yoqadilar, Xudoning esa qizil, ko'k, zangor ko'zga o'xshagan shamchirog'i bor. Kechasi cherkovda xudo yuradi: uning yonida bibi Maryam bilan xudo sevgan Nikolay duk, duk, duk qadam tashlaydi... Qorovul qo'rqadi, vahima bosadi! Sasha onasining gapiga o'xshatib, – so'ngra-chi, o'rgilay, qiyomat bo'lganda hamma cherkovlar osmonga ko'tarilib ketadi.

– Qo'n-g'i-roq bi-lan-mi? – dedi Motka yo'g'on ovoz bilan, har bir hijoni bo'lib.

– Qo'ng'iroq bilan. Qiyomat bo'lganda yaxshi odamlar jannatga kiradi, yomonlar, badjahllar, o'rgilay, do'zaxga tushadi. O'tda yonadi. Doim yonadi, o'rgilay. Mening onamga, Maryaga ham Xudo: «Sizlar hech kimni xafa qilmagan edingiz, shuning uchun o'ng yoqqa, jannatga boringlar», deydi, Kiryak bilan kampirga esa: «Sizlar chapdagi do'zaxga boringlar», deydi. Ro'za tutmay, go'shtlik ovqat yeganlar ham do'zaxga tushadi.

U ko'zlarini katta-katta ochib yuqoriga – osmonga qaradi-da, dedi:

– Kiprik qoqmay osmonga qara, farishtalarni ko'rasan.

Motka ham osmonga qaradi. – Oraga bir lahza jimlik cho'kdi.

– Ko'rayotirsanmi, – dedi Sasha:

– Ko'rinmaydi, – dedi Motka do'rillab.

Men ko'rayotirman. Kichkina farishtachalar uchib yuribdi, qanotlari kichkinagina: xuddi chivinning qanotiday lip-lip qiladi.

Motka yerga qarab biroz o'ylandi-da, so'ngra dedi:

– Kampir o'tda yonadimi?

– Yonadi, o'rgilay.

Katta toshdan to pastgacha bir tekisda qiyalanib tushgan jarlikning yonbag'rida barra o'tlar o'sgan, bu o't shuncha mayinki, ushlaging yoki ustida yotging keladi. Sasha yotib, pastga qarab dumaladi. Motka ham tuntayib turib, yerga yotdi va pastga qarab dumalagan edi, etagi yelkasigacha ko'tarildi.

– Kulgim qistaydi! – dedi Sasha sevinib.

Yana yumalash uchun ikkovi yuqoriga chiqdi. Shu vaqtda chiyillagan tanish bir tovush eshitildi. Ana endi qo'rqishni qarang! Tishsiz, qoqsuyak bukchaygan kampir uzun tayog'ini ko'tarib polizdan g'ozlarni quvar va qichqirar edi:

– Hamma karamlarni rasvo qildi! Qurub ketkurlar, qirilgurlar, xudoning qahriga uchragurlar, yaramaslar, joning chiqqurlar!

U qizchalarni ko'rib qolib tayog'ini tashladi, so'ngra yerdan xipchin oldi-da, qoqsuyak, tayoqdek qattiq va dag'al qo'llari bilan Sashaning bo'ynidan ushlab ura ketdi. Sasha kaltak zarbidan va qo'rqqanidan yig'ladi. Shu vaqtda bir g'oz lapanglab, bo'ynini cho'zib kampirning oldiga keldi-da, g'oq-g'oq dedi. So'ngra g'ozlar oldiga qaytib borganda go'yo kampirga g'oq-g'oq deganini ma'qullaganday, ular ham g'ag'illashdi. So'ngra kampir Motkani tutib olib urdi. Motkaning etagi yana yelkasigacha ko'tarildi. Sashaning xo'rligi kelib, kampirni chaqqani uyga kirdi. Uning ketidan Motka ham kirdi, u arillab yig'lar, ko'zyoshini artmas, yuzi suv sepilganday shalobbo edi.

– Voy o'lay! Meni xudo urdi, – dedi Olga hayron bo'lib, ular uyga kirganda.

Sasha bo'lgan voqeani ayta boshladi. Shu vaqtda qarg'ayqarg'ay shovqin solib kampir keldi. Feklaning achchig'i chiqdi, uyda g'ovur-g'uvur ko'tarildi.

– Zarari yo'q, zarari yo'q! U buving, unga jahl qilsang gunohkor bo'lasan. Hechqisi yo'q, qizim – dedi Olga oppoq oqarib, avzoyi buzilib, Sashaning boshini siladi.

Bu doimiy shovqin-suron, ochlik va badbo'y hidlar joniga tekkan hamda ota-onasi tufayli xotini bilan qizi oldida xijolatga qolgan Nikolay, pechdan oyog'ini osiltirib, titrab-qaqshab yig'lamsirab onasiga dedi:

– Uni urishga haddingiz sig'maydi! Uni urishga hech haqqingiz yo'q!

– Pech ustidan tushmay harom o'l, san iltozi, sen tekinxo'rlarni bu yerga qaysi ofat keltirdi, – deb baqirdi Fekla g'azab bilan.

Sasha, Motka va boshqa hamma qizlar pechning burchagiga o'tib Nikolayning orqasiga g'uj bo'lishib, indamay, gapga quloq solishar va qo'rquvdan yuraklarining dukullashi eshitilib turar edi. Oilada kasali uzoqqa cho'zilgan va tuzalish umidi bo'lmagan kishi bo'lsa, shunday daqiqalar bo'ladiki, yaqinlari dillarida unga o'lim tilaydilar va faqat bolalargina yaqin kishilarining o'limidan qo'rqib, shu haqda o'ylaganda vahimaga tushadilar. Qizlarning nafaslari ichiga tushib Nikolayga ma'yus qarashdi va ichlarida: bu yaqin kunlarda o'ladi, deb unga ko'ngil ko'taradigan, rahm-shafqatli biron so'z aytgilari va yig'lagilari keldi.

Nikolay xuddi himoya kutganday Olganing pinjiga kirdi va sekin, titroq tovush bilan dedi:

– Jonim Olga, bunda turishga toqatim qolmadi, xudo haqi, opang Klavdiya Abramovnaga xat yoz, bor bisotini sotsin, garovga qo'ysin va bizga pul yuborsin. Bu yerdan ketamiz. E Xudo!.. Yana bir Moskvani ko'rsam armonim yo'q, tushimda ko'rinsa ham mayli!

Kech bo'lib, uyga qorong'i tushgach, shunday diqqinafas bo'ldiki, gapirish ham qiyin edi. Badjahl kampir qora nonning qobig'ini suvga botirib bir soatcha so'rib o'tirdi. Marya sigirini sog'ib, paqirda sut olib kelib skameykaga qo'ydi. Kampir sutni shoshilmasdan, ro'za bo'lgani uchun hech kim ichmaydi, deb xotirjam bo'lsa kerak, paqirdan kuvachaga quydi. Faqat kichkina tarelkaga Feklaning bolasiga ozgina quyib berdi. Kampir bilan

Marya kuvachani yerto'laga olib tushib ketganda, Motka birdan qo'zg'alib, pechning ustidan osilib tushdi-da, qoq non to'g'ragan yog'och kosa turgan skameykaning oldiga kelib, tarelkadagi sutdan kosaga jinday quydi.

Kampir uyga qaytib kelib, yana o'sha qattiq nonning qobig'ini kemira boshladi. Sasha bilan Motka esa pechning ustida o'tirib unga qarashar va uning ro'zasi buzilganidan, endi do'zaxga tushadi, deb xursand bo'lardi. Ikkovi tinchlanib, uxlagani yotdi. Sasha tushida qiyomatni ko'rdi: xumdonday katta pech yoqilgan, sigirga o'xshash qop-qora dev, kampir boya g'ozlarni haydaganiday, uzun tayoq ushlab, kampirni o'tga haydar edi.

V

Hayit kechasi soat o'n birdan oshganda pastdagi o'tloqda o'ynab yurgan qiz va yigitlar to'satdan qiy-chuv ko'tarib qishloqqa qarab yugurishdi: jar tepasida o'tirganlar avval nima bo'lganini payqamadilar.

– O't tushdi! O't tushdi! Yondik! – deb baqirgan ovozlar eshitildi.

Yuqorida turganlar qayrilib qarab, dahshatli, juda g'alati bir manzara ko'rishdi. Eng chetdagi uylarning poxol tomi ustida odam bo'yi alanga buralib yonib turibdi, undan xuddi fontanday har tomonga uchqunlar sochilmoqda. Olov lovullab bir lahzada butun tomga tutashdi va o'tning charsillagan ovozi eshitildi.

Oyning yuzi xiralandi, lopillab turgan qip-qizil shu'la butun qishloqni bosdi, yerda tutunning qora ko'lankasi yuradi, har yoqdan qurum hidi keladi. Pastda yugurishib yurganlarning nafasi bo'g'ildi, qaltirashib, bir-birlarini turtishib yig'lashib, gaplashishga tillari kelmas, o'tning ravshan nuridan yaxshi ko'rolmay, bir-birlarini tanimas edi. Hamma yoq vahima ichida edi. Tutun aralash o't ichida kaptarlar uchib yurishi, qovoqxonadagilar yong'indan bexabar, bemalol garmon chalib, ashulani baralla qo'yib o'tirishi, ayniqsa, vahimali edi.

Birov bo'kirib:

– Semyon akaning uyi kuydi, – dedi.

Garchi yong'in qishloqning narigi tomonida bo'lsa-da, Marya uyning oldida betoqatlik bilan yig'lab, titrab-qahshab qo'llarini ishqab yuribdi. Nikolay ham oyog'iga piyma kiyib chiqdi, go'daklar ham ko'ylakchan yugurishib chiqdilar. O'nboshining uyi oldidagi cho'yanni chaladilar. Dong, dong, dong... ovozi ko'kka yoyildi, tinmay dong'illash yurakni orziqtirar, badanni jimillatar edi. Qari kampirlar ikonalarni ko'tarib chiqadilar. Hovlilardagi qo'y, sigir va buzoqlarni darvozadan ko'chaga haydab yubordilar, sandiq, po'stak, bochkalarni tashqariga olib chiqdilar. Uyurda otlarni tepib zarar yetkazganidan yilqiga qo'shmay qo'yilgan qora ayg'ir yechib yuborilgach, tepinib, kishnab bir-ikki marta qishloqning u boshidan bu boshiga chopib o'tdi, birdan arava oldida to'xtab, orqa oyog'i bilan aravani tepa boshladi.

Soyning narigi tomondagi cherkovda qo'ng'iroq ham chalindi.

Yongan uy oldi issiq va shunday yorug' edik, yerdagi o't-o'lanlarning har biri ko'rinardi. Tashqariga chiqarilgan sandiqlarning biri ustida cho'michburun, shapkasini qulog'igacha bostirib kiygan, egnida nimcha Semyon o'tirardi. Semyonning xotini mukka tushib hushsiz, ingrab yotar edi. Saksonlarga borib qolgan, bo'yi bir qarich, soqoli ikki qarich degandek, uzun soqolli pakana bir chol qo'lida oq tugun bilan boshyalang shu orada yuribdi, chol bu yerlik bo'lmasa-da, yong'inga sabab bo'lganga o'xshaydi. Uning tepakal boshida o'tning shu'lasi aks etadi. O'zi va sochlari lo'lidek qop-qora oqsoqol Antip Sedelnikov bolta bilan uy oldiga kelib darchalarni urib tushirdi, so'ngra negadir uyning eshigi oldidagi ayvonchani buza boshladi. U:

– Xotinlar, suv! Mashinani keltir! Aylantir! – deb qichqirardi.

Yaqindagina qovoqxonada kayf surib o'tirgan kishilar suv sepadigan mashinani sudrab kelardilar. Bularning barchasi mast, gandiraklab yiqilar, hammalarining yuzlarida ojizlik ifodasi bor, ko'zlari yosh edi.

Oqsoqol ham mast, u:

– Qizlar, suv! Bu yoqqa bur! – deb qichqirardi.

Xotin-qizlar pastdagi buloqqa tushib chelak va bochkalarni to'ldirib suv keltiradilar, suvni mashinaga quyib yana yugurgan-

cha suvga ketadilar. Olga ham, Marya ham, Sasha ham, Motka ham suv tashidilar. Xotinlar ham, bolalar ham mashinani bosmoqdalar, mashinaning ichagi pishillab, suv sepib turibdi. Oqsoqol suvni hali eshikka, hali derazaga qaratib, ba'zida barmog'i bilan to'sadi va bu sababdan suv battarroq pishillaydi.

Har tomondan:

– Qandingni ur, Antip! Barakalla! – degan ovozlar chiqadi.

Antip bo'lsa uyning dahliziga, o't ichida kirib, undan qichqiradi.

– Mashinani bos! Mo'minlar, g'ayrat qiling, bunday balodan saqlasin!

Mujiklar g'uj-g'uj bo'lib, angrayib, o'tga qarab turadilar. Nima qilishni hech kim bilmas, hamma hayron, atrofda esa poxol, bug'doy bog'lari g'aram-g'aram. Kiryak bilan otasi chol Osip ham shundalar, ikkovlarining ham kayfi taraq. Chol bunday bemalol kayf surib yurganidan xijolat tortganday yerda yotgan xotinga qarab:

– Onaxon, muncha o'zingni qiynaysan! Uying bo'lsa xatga olingan. Hukumat puli. Qayg'urib nima qilasan! – dedi.

Semyon har kimga bir gapirib, o'tning nimadan chiqqanini so'zlar edi:

– Tugun ko'tarib yurgan haligi mo'ysafid general Jukovning xizmatkori... Xudo rahmati generalimizning oshpazi edi. Kechqurun kelib: «Bir kecha qo'nib ketay...» deb so'radi... Ma'lumki, bir stakandan araq ichishdik, o'zingiz bilasiz-ku... xotinim samovar qo'ymoqchi bo'ldi, mo'ysafidga choy berish kerak edi. Bemahalda falokat bosib, samovarni dahlizga qo'ygan ekan, karnayidan chiqqan olov shipdagi poxolga urib, shu falokat bo'ldi, o'zimizning yonib ketishimizga sal qoldi. Mo'ysafidning shapkasi ham o'tda qoldi, falokat bosdi.

Cho'yanni tinmay chalyaptilar, soyning narigi yog'idagi cherkovning qo'ng'irog'i ham har damda chalinib turibdi. Olga o'tda yarqillab, olov alangasidan qizargan qo'ylarga va tutun ichida uchib yurgan qizg'ish kaptarlarga vahima bilan qarab, hali pastga, hali yuqoriga harsillab chopar edi. Uning nazarida qo'ng'iroqning ovozi tig'parrondek yuragiga qadalayotganday,

yong'in sira tugamaydiganday, Sashasi yo'qolib qolganday edi... Uyning shipi gumburlab qulab tushganda, endi butun qishloq yonib tushadi, degan fikr uning tinkasini quritdi, suv tashishga darmoni qolmay, chelagini yoniga qo'yib, jar bo'yida o'tirib qoldi. Uning yonida pastroqda bir talay xotinlar o'tirib, azaga kelganday yig'lashardi.

Shu paytda narigi tomondagi pomeshchikning gumashta va xizmatkorlari ikki aravada o't o'chiradigan mashina keltirdilar. Tugmalari ochiq oq kiyim kiygan yoshgina bir talaba ham keldi. Boltalar bilan uyni buza ketdilar. Yonib turgan yog'och devorga narvon qo'yib, birdaniga besh kishi chiqdi. Hammadan avval haligi talaba chiqdi. U qip-qizargan, bo'g'ilib baqirar, o't o'chirishning mashqini olgan odamga o'xshar edi. Uyning yog'ochlarini, og'ilxona va chetan devorni buzib tashladilar, g'aram qilib qo'yilgan yaqindagi pichanni tashib ketdilar.

To'plangan xalq orasidan:

– Buzdirmang! Buzgani qo'yma! – degan tovushlar chiqdi.

Kiryak g'ayratga kirib, narigi tomondan kelganlarning uyni buzishlariga yo'l qo'ymaslik uchun, dadillik bilan uyga qarab yurdi. Lekin pomeshchikning xizmatkorlaridan biri uni qaytarib, bo'yniga bir soldi. Boshqalar kulishdi. Xizmatkor yana bir urdi, Kiryak yiqilib tushdi, so'ngra emaklab orqasiga qaytdi va odamlar orasiga kirib ketdi.

Narigi tomondan shlyapa kiygan chiroyli ikki qiz keldi, – haligi talabaning singillari bo'lsalar kerak. Qizlar nariroqda turib, o'tni tomosha qiladilar, uydan buzib chiqarilgan yog'ochlar yonmasalar ham tutab yotardilar, talaba suv sepadigan ichakni goh bu yog'ochlarga, goh turgan odamlarga, goh suv tashiyotgan xotinlarga qaratib suv sochar edi.

Qizlar xavotir olib, yigitdan koyigandek:

– Jorj! Jorj! – deb qichqirardilar. O't o'chdi. Odamlar tarqala boshlaganlarida tong yorishib qolgan edi, hammaning rangi o'chib, so'rraygan... Osmonda yulduzlar so'nib, tong endi yorishib kelayotgan chog'ida hamisha shunday ko'rinadi. Mujiklar tarqalib ketayotganda hazillashib kular, general Jukovning

oshpazini mazax qilib, uning kuygan shapkasini askiyaga olardi. Ular yong'in chiqarib o'ynashgilari bor, yong'inning bunday tez tugaganidan hatto achinganday ko'rinadilar.

Olga talabaga qarab:

– Boyvachcha, siz o't o'chirishga usta ekansiz. Bizning Moskvaga boradigan ekansiz, unda har kuni o't tushib turadi, – dedi.

Qizlardan biri:

– Siz moskvalimisiz, – deb so'radi.

– Balli. Erim «Slavyan bozori»da ishlardi. – Sovuqdan qaltirab, onasi pinjiga tiqilib turgan Sashani ko'rsatib, – bu qizim, u ham moskvalik, – dedi.

Qizlar talabaga fransuzchalab bir narsa dedilar, u Sashaga bir tanga berdi. Chol Osip buni ko'rgach iljayib, yuzida tamagirchilik alomati ko'rindi.

– Boyvachcha, xudoga shukurki, shamol bo'lmadi, shamol turganda bir soatga qolmay yonib tushardik, – dedi u talabaga qarab. So'ngra ovozini andak pasaytirib, uyalinqirab yana dedi, – martabangiz ulug' bo'lsin, saxiy janoblar, ertalab sovuq, andak ilinqirab olsak yaxshi bo'lardi. Iltifot qilib yarim shisha araqqa yetadigan xayr qilsangiz.

Unga hech narsa berishmadi, u g'uldurab koyindi-da, uyiga qarab ketdi. Olga jar bo'yida turib, haligi ikki aravaning kechuvdan o'tishini, boyvachchalarning o'lanzordan borishlarini tomosha qilib turdi. Narigi yoqda ularning faytunlari turibdi. Olga uyga qaytib kelgach, shodlik bilan eriga aytar edi:

– Shunday yaxshi, shunday chiroylikki, aslo qo'yaverasiz! Qizlar hurga o'xshaydi.

Uyqusirab turgan Fekla jahl bilan:

– Yer yutsin ularni! – dedi.

VI

Marya o'zini baxtsiz hisoblar va o'ziga o'lim tilar edi. Fekla esa bu turmushdan rozi, qashshoqlik, ifloslik, tinimsiz so'kish unga yoqar edi. Nima bersalar surishtirmasdan yer, to'g'ri kelgan joyda yotib ketaverar edi. Yuvundini shundoqqina ostonaga to'kib,

to'kkan yuvundisini yalangoyoq bosib ketaverar edi. U Olga bilan Nikolayni birinchi kundanoq yomon ko'rib qoldi, buning sababi shu ediki, Fekla yaxshi ko'rgan bu turmushni ular yomon ko'rardilar.

Ko'raman, bu yerga kelib nima yerkinsiz, moskvalik aslzodalar! Ko'raman! – derdi Fekla ular holiga kulib.

Sentyabr oyining boshida, bir kun ertalab, Fekla birdaniga ikki chelak suv ko'tarib keldi, sovuqdan qip-qizarib, husnigahusn qo'shilgandi. Shu paytda Marya bilan Olga o'tirib, choy ichmoqda edi.

Buni ko'rgan Fekla ularga tekkizib:

– Ha, qand-choy ichinglar! – deb qo'ydi. So'ngra chelaklarni yerga qo'yarkan, zarda bilan Olgaga yana gap otib, – boyvachchalarni qarang! Har kuni choy ichishni xo'p odat qilib olishibdi! Choy icha berib tag'in qorinlaring yorilmasin! Moskvada xo'p yayrab, semirib yurganda, semiz, baqaloq!

So'ngra obkash bilan Olganing yelkasiga shunday tushirdi, ikki ovsin chapak urib:

– Voy, sho'rim qursin, – deb qoldi.

So'ngra Fekla soy bo'yiga ketayotib shunday baland ovoz bilan qarg'ab ketdiki, uyda o'tirganlarga aniq eshitilar edi.

Kech kirdi. Uzun kuz kechasi boshlandi. Uyda ipak o'rardilar. Fekladan boshqa hamma ipak o'rash bilan mashg'ul. Fekla soyning narigi tomoniga ketgan. Ipakni yaqindagi fabrikadan olardilar. Hammalari bir bo'lib haftada yigirma tiyindan ortiq pul ishlamas edi.

– Janoblar qo'lida ekanimizda yaxshi edi, – dedi chol ipak o'rarkan. – Vaqtida ishlab, vaqtida uxlab, vaqtida ovqat yerdik. Tushda karam sho'rva bilan bo'tqa, kechqurun yana shu ovqat. Bodring bilan karam mo'l, xohlaganingcha yeyaver. Qattiqqo'llik ham baravj edi. Har kim o'z ishini bilar edi.

Faqat bitta chiroq tutab, xira yonib turar edi. Birov chiroq oldini to'sib, oynaga soya tushsa oydin ravshan ko'rinardi. Chol Osip salmoqlab, ozodlikdan ilgari[1] dehqonlarning qanday

[1] Bu o'rinda 1861-yilda, Aleksandr II zamonida dehqonlarni krepostnoy huquqdan ozod qilmasdan ilgarigi ahvol gapiriladi.

yashaganlarini, hozir bunday muhtojlik, bunday qashshoqlik ichida qolgan joylarda, bir zamonlar tozi itlar bilan ov qilinib, ov vaqtida mujiklarga araq ichirganlarini, ovda ushlangan parrandalarni aravalarga solib Moskvadagi boyvachchalar uchun olib ketganlarini, yomonlarni darra bilan urib, Tver muzofotiga badarg'a qilinganini, yaxshi odamlar ko'p in'omlar qilinganini gapirib ketdi. Kampir ham undan bundan gapirib berdi. Kampir hech narsani unutmabdi, ko'rganlari hammasi esida. Kampir, eri buzuq, fohishaboz bo'lsa-da, o'zi juda taqvodor bo'lgan bekasi to'g'risida so'zlab berdi. Uning hamma qizlari nojo'ya odamlarga tekkan. Biri araqxo'rga, biri meshchanga tekkan ekan, yana bittasini olib qochib ketganlar (u mahalda yosh bo'lgan kampir qizni olib qochishga yordam bergan ekan), qizlarining hammasi, onalari singari dog'-hasrat bilan tez kun ichida o'lib ketgan ekan. Kampir bularni esga olib, hatto o'pkasi to'lib, ko'z yosh ham qilib qo'ydi.

To'satdan birov eshikni qoqishi bilan hammalari cho'chib tushdilar.

– Osip amaki, bir kecha uyingda qo'ndir!

General Jukovning oshpazi, shapkasi yong'inda kuygan, pakana, tepakal mo'ysafid kirib keldi. U o'tirib gap tingladi-da, bo'lib o'tgan har xil voqealarni eslab, gapga kirishdi. Nikolay pech ustida oyog'ini osiltirib o'tirib, mo'ysafidning so'zlarini tinglar va nuqul janoblar zamonida qanday ovqatlar pishirilganini so'rardi. Bitki, kotletka, har xil sho'rvalar, qovurmalardan gaplashdilar, hamma narsa esida yaxshi turgan oshpaz bu vaqtda pishirilmaydigan ovqatlar nomini aytar edi. Chununchi buqa ko'zidan pishiriladigan «nahori» degan ovqat bor ekan.

– Mareshal degan kotletka u mahalda ham bo'larmidi? – deb so'radi Nikolay.

– Yo'q.

Nikolay nazarga ilmaganday boshini chayqab:

– Ey, sizlar ham oshpazmi! – deb qo'ydi.

Qizlar pech ustida turib, baqrayganicha pastga boqar, ular bulutli osmondagi yulduzlardek uymalashib, juda ko'pday

ko'rinardi. Aytilayotgan gaplar ularga yoqar, ular uh tortib, hayajonlanib turar, quvonchdan va qo'rqqandan ranglari o'char edi. Hammadan ham qiziq voqeani gapirgan kampirning so'zini ular nafaslarini ichga yutib, qimirlagani ham qo'rqib, jim tinglardilar.

Hamma hech narsa demay, jimgina uxlashga yotdi; xotinlardan ko'ngillari bezovta bo'lib, hayajonga kelgan keksalar yoshlikning yaxshiligi to'g'risida xayol surib ketdilar, nima bo'lsa-da, yoshlikdan unutilmas shodlik, dildor xotira qoladi, keksalik qanday sovuq, qanday mash'um, o'lim yaqinlashib kelmoqda, uni hatto o'ylamagan yaxshi! Chiroq o'chdi... Qorong'ilik, oyning yorug'ida yarqirab turgan ikki darcha, jimlik, belanchakning g'irchillashi negadir umrning o'tkanini, o'tgan umrni aslo qaytarib bo'lmasligini eslatardi... Odam mudrab, andak o'zini unutishi bilan birov yelkasiga tegib, yuziga dam urib uyg'otadi-yu, shu bilan uyqu qochadi, butun badani uvushgan, o'lim xayoli miyadan sira chiqmaydi. U yonboshga aylansa o'lim esidan chiqadi, lekin muhtojlik, ovqat g'ami, uning qimmatlangani to'g'risidagi eski fikrlar boshidan ketmaydi, ammo birozdan keyin umrning o'tgani, uni qaytarib bo'lmasligi yana esga tushadi...

Oshpaz uh tortib:

– Ey Parvardigor! – deb qo'ydi.

Birov sekin-sekin oynani chertdi. Fekla qaytib kelgan bo'lsa kerak. Olga o'rnidan turib, esnab, shivirlab duo o'qidi va eshikni ochdi, so'ngra dahliz eshigining tambasini tortib chiqardi. Lekin hech kim kirmadi, faqat ko'chadan gurullab sovuq kirdi va oyning yorug'i tushdi. Ochiq eshikdan jimjit bo'sh ko'cha, osmonda suzib ketayotgan oy ko'rindi.

– Kim? – dedi Olga.

– Men, – degan javob eshitildi.

Eshik oldida qip-yalang'och Fekla devorga suyanib turardi. Sovuqdan qaltirab, tishi tishiga tegmas, oy yorug'ida oppoq, chiroyli va g'alatiroq ko'rindi. Badanidagi soyalar, terisidagi oyning jilvasi, ayniqsa, qora qoshlari va dirkillab turgan ko'kragi aniq, ravshan ko'rinardi.

– Anav tomondagi battollar kiyimlarimni yechib olib, shu holimda qo'yib yubordilar... Qip-yalang'och keldim. Biror kiyim keltir, – dedi Fekla.

Olga ham qaltirab, sekingina:

– Uyga kirsangiz-chi! – dedi.

– Chol-kampir bilib qolmasinlar.

Darvoqe, kampir bezovtalanib, valdiray boshlagach, chol ham: «Kim undagi», deb so'radi. Olga o'z yupkasi bilan ko'ylagini keltirib Feklaga kiydirdi, so'ngra ikkovlari eshikni tiqirlatmasdan, sekingina uyga kirdilar.

Kampir kim kelganini fahmlab jahl bilan:

– Senmisan barno? Ha, sayoq yurmay juvanmarg bo'lgur! – deb qarg'adi.

Olga Feklani o'rarkan:

– O'rgilay, mayli, mayli xafa bo'lma – deb shivirladi.

Yana jimlik boshlandi. Uyda hammaning uyqusida halovat yo'q, har kimni bir balo bezovta qilardi. Cholning beli og'rir, kampir tashvish va jahldan, Marya qo'rquvdan, bolalar qo'tir va ochlikdan uxlayolmas edi. Bu kun ham ularning uyqusida halovat bo'lmadi. Hamma bezovta bo'lib, ag'anashar, uyqusirar, suv ichgani turardi.

Fekla to'satdan dag'al ovoz chiqarib, ho'ngrab yubordi, ammo darhol o'zini bosib oldi, faqat piqillab yig'lagani tobora pasayib, bora-bora o'chdi. Goh-goh soyning narigi yog'idagi soatning jaranglagani eshitildi; ammo soat g'alati: avval beshga, keyin uchga jom uradi.

Oshpaz uh tortib:

– Ey Parvardigor! – deb qo'ydi.

Derazadan qaraganda oydinmi yoki tong otib qoldimi, bilish qiyin edi. Marya turib tashqari chiqdi, hovlida sigir sog'arkan: – «xo'-o'sh, xo'-o'sh» degani eshitilib turibdi. Kampir ham tashqari chiqdi. Uy ichi qorong'i bo'lsa-da, buyumlar ko'rinar edi.

Kechasi bilan uxlagan Nikolay pechdan tushdi. Ko'k sandiqchasidan xizmatda kiyadigan to'nini olib kiydi, so'ngra

deraza oldiga kelib yenglarini rostlab, etagini ushlab boqqach, iljaydi. So'ngra to'nini avaylab yechdi-da, sandiqqa solib qo'ygach, yana yotdi.

Marya qaytib kelib pechga o't yoqdi. Aftidan uyqusi chala bo'lsa kerak, yurgan yo'lida esnar edi. Tushida biror narsa ko'rganmi yoki kechagi xotiralar esiga tushdimi, pech oldida huzur qilib bir kerishdi-da:

– Yo'q, harqalay, erkinlik yaxshi, – deb qo'ydi.

VII

Ulug' keldilar, – pristavni qishloqda ulug' deb atardilar. Uning qachon va nega kelishi bir hafta ilgari qishloqqa ma'lum bo'lardi. Jukovoda atigi qirq xonadon bo'lsa-da, podsholik xazinasi va zemstvoga to'lanadigan boqimanda ikki ming so'mdan oshib ketgan edi.

Pristav qovoqxonaga kelib tushdi. Bunda u ikki stakan choy «shimirgach», oqsoqol uyiga piyoda jo'nadi. Oqsoqolning uyi oldida boqimandasi bor bir talay odam to'planib turardi. Oqsoqol Antip Sedelnikov yosh, o'ttizdan sal oshgan, serjahl bo'lib, kambag'al, soliqlarni vaqtida to'lamasa ham, doim ulug'lar tarafini olar edi. Oqsoqolligi o'zini yupantirib, qo'lida hukumati borligi yoqsa kerakki, buni qattiqqo'llik bilan namoyish qilar edi. Yig'inlarda undan hamma qo'rqar, uning aytganidan chiqmas edi. Ba'zida ko'chada yoki qovoqxona oldida bironta mastni ko'rib qolsa, qo'l-oyog'ini bog'lab avaxtaga qamar edi, bir kun, hatto Osip o'rniga – yig'inga kelib qarg'ayvergan kampirni ham avaxtaga bir kecha-kunduz qamab qo'ygan edi. U shaharda turmagan, hech kitob o'qimagan bo'lsa-da, allaqayerlardan har xil purim so'zlarni bilib olib, bu so'zlarni gapirganda takrorlashni yaxshi ko'rardi, bularni odamlar yaxshi tushunmasa ham, oqsoqolni hurmat qiladi.

Osip soliq daftarini ko'tarib, oqsoqolning uyiga kirib kelganda, ikki chekkasidan uzun bakn qo'ygan, kulrang kamzul kiygan, ozg'in mo'ysafid uyning to'rida stolda o'tirib bir narsa yozar edi. Uy ozoda, devorlarga turli jurnallardan qirqib olingan

har xil suratlar yopishtirilgan, ikonalar osilgan, ko'zga ko'rinarli joyda eski bulg'or podshosi Battenbergning[1] surati osilgan. Stol oldida Antip Sedelnikov qo'llarini qovushtirib turibdi.

Gal Osipga kelganda Antip pristavga qarab:

– Janobi oliylari, bu kishining bir yuz o'n to'qqiz so'm qarzi bor. Hayit oldida bir so'm berganicha, boshqa bir chaqa bergani yo'q, – dedi.

Pristav Osipga qarab so'radi:

– Jigarim, nega bunday qilding?

Osip hovliqib gap boshladi:

– Rahm-shafqat qiling, janobi oliylari, o'tgan yil Lutoretskiylik boy «Pichaningni menga sot», deb juda qistab qo'ymadi. Sotsam sotay dedim. Yuz putcha pichanni bola-chaqam to'qayda o'rib qo'ygan edi, sotish uchun. Shunday qilib bitishdik... Hammasi joyida, o'z xohishim bilan bitishdik...

Osip oqsoqol ustidan arz qilmoqchi bo'lib, boshqa mujiklarni guvohga chaqirgan tarzda gapirib, bir ularga qarar, terlab-pishib, ko'zlari javdirar, g'azablanar edi.

Pristav Osipga qarab:

– Nima deyayotganingni tushunmayman, – dedi. – Men sendan nega boqimandani to'lamading, deb so'rayman... Hech qaysingiz to'lamaysiz, sizlar uchun men javobgar bo'laymi?

– Qurbim kelmaydi!

Oqsoqol gap qotib:

– Janobi oliylari, bu gaplar tagsiz, Chikildeyevlar bechoralar toifasidan, bu to'g'ri, lekin marhamat qilib boshqalardan so'rasangiz hammasining sababi bor – araqxo'rlar, so'ngra hammalari juda havoyi bo'lib ketganlar. Hech narsaga tushunmaydilar, nodonlar, – dedi.

Pristav allanarsalar yozdi-da, so'ngra Osipga qarab, xuddi suv so'rayotganday ohistagina, koyimasdan:

– Bor yo'qol, – dedi.

---

[1] Aleksandr Battenberg 1879-yil rus podshosi Bulg'oriya taxtiga o'tqazgan olmon to'rasi. 1886-yilda Aleksandr III g'azabiga duchor bo'lib, taxtdan kechib Bulg'oriyani tashlab ketishga majbur bo'lgan.

Birozdan keyin pristav ketdi. U yo'tala-yo'tala jo'ngina shaldiroq aravasiga chiqayotganda, hatto uning cho'zinchoq qoqsuyak orqasiga qaraganda ham, Osip, oqsoqol, Jukovo qishlog'idagi boqimandalar ham allaqachon esidan chiqqanligi, faqat o'zining yumushlari bilan mashg'ulligi ko'rinib turardi. Pristav bir chaqirim joyga ham bormasdan, bir mahal Antip Sedelnikov Chikildeyevlar uyidan samovar ko'tarib chiqib qoldi, uning ketidan kampir chinqirib, harsillab kelardi.

– Bermayman! Qurib ketkur, bermayman dedim, bermayman!

Antip qadamini katta-katta tashlab, ildam kelayotibdi, munkaygan kampir bo'lsa entikib, yiqilib-surilib g'azab bilan uning ketidan borardi. Kampirning ro'moli yelkasiga tushgan, ko'kish sochlarini shamol uchirardi. Kampir birdaniga to'xtadi-da, xuddi qo'zg'olon ko'targan xotindek ko'kragiga mushtlab, dod-voy ko'tarib, baqira boshladi:

– Mo'minlar, xudodan qo'rqqanlar! Sho'rim qursin, poymol bo'ldim! Do'stlar, bular dastidan dod! Voy, voy... bolalarim, dodimga yeting.

Oqsoqol kampirga jiddiy tusda:

– Hoy kampir, aqlingni yo'qotma! – dedi.

Chikildeyevlar uyi samovarsiz butunlay befayz bo'lib qoldi. Samovardan ajralish uyning or-nomusini tahqir etish va haqorat qilishday tuyuldi. Oqsoqol stol, hamma skameyka, hamma xurmachalarni olib ketganda bunchalik huvullab qolmas edi. Kampir shovqin solar, Marya yig'lar, unga qarab qizlar ham yig'lar edi. Chol o'zini aybdor bilib, bir burchakda g'amgin va xomush o'tirardi. Nikolay ham jim. Kampir Nikolayni yaxshi ko'rar va unga rahmi kelar edi, lekin endi rahm-shafqatini ham unutib, to'satdan uning ustiga o'dag'aylab bordi va mushtini basharasiga niqtab, ta'na qila boshladi:

– Hamma balo senda, yozgan xatlaringda «Slavyan bozori»da oyiga ellik so'mdan pul topaman, deb maqtanar eding, nega bizga ko'proq pul yubormading! Nega kelding, yana bola-chaqang bilan kelibsan? O'lib qolsang ko'mishga pul qani?..

Nikolay, Olga va Sashaga qaragan odam achinar edi.

Chol yo'talib shapkasini qo'liga oldi-da, oqsoqolnikiga qarab ketdi. Qorong'i tushib qolgan edi. Antip Sedelnikov pech oldida o'tirib lunjini shishirib, bir narsani payvand qilardi. Is-tutun burqsardi. Chikildeyevlarning bolalariga o'xshagan ozg'in, irkit bolalari yerda uymalashib yuribdi. Sepkil yuzli, qorni chiqqan xunukkina xotini ipak o'rayapti. Bu oila qashshoq va bechora, yolg'iz Antipgina chiroyli, azamat yigitdek edi. Kursi ustida qatorasiga beshta samovar turibdi. Chol, Battenberg suratiga qarab cho'qingach, aytdi:

– Antip, rahming kelsin, samovarni ber! Iso payg'ambar haqi, ber!

– Uch so'm olib kelsang, olasan.

– Qurbim kelmaydi!

Antip lunjini shishirib o'tni puflab, o't lovullab yonar va samovarlarda shu'lasi ko'rinar edi. Chol qo'lidagi shapkasini g'ijimlar, biroz o'ylab keyin yana:

- Ber! – dedi.

Qorachadan kelgan oqsoqol bu onda qop-qorayib jodugarga o'xshab ketdi. Oqsoqol Osipga jahl bilan qarab, bidirlab aytdi:

– Har narsa qilsa, zemstvo boshlig'i qiladi. Yigirma oltinchida bo'ladigan katta majlisda og'zakimi yoki ariza yozibmi shikoyat qila qol.

Osip hech narsaga tushunmadi, lekin shu bilan qanoat hosil qilib, uyga qaytib ketdi.

Oradan o'n kuncha o'tgandan keyin, pristav yana kelib, bir soatcha turdi-da, qaytib ketdi. Bu kunlarda izg'irinli qora sovuq edi. Soyning suvi muzlagan bo'lsa ham, qor yog'gani yo'q, odamlar yo'lsizlikdan juda qiynalib qolgan edi. Bir kun hayit arafasida kechqurun Osipning qo'shnilari gaplashib o'tirishgani keldilar. Hayit oqshomida yumush qilish gunoh bo'lganidan chiroq yoqmasdan qorong'ida o'tirdilar. Anchagina noxush xabarlar bor edi. Chunonchi boqimanda uchun ikki-uch xonadonning tovuqlarini tortib olib, volost mahkamasiga yuborgan ekanlar, ularga qaraydigan odam bo'lmaganidan harom o'lib qoliptı. Bir necha qo'yning oyoqlarini bog'lab aravaga solib

yuborgan ekanlar, har qishloqda aravadan aravaga solib bir qo'yni o'ldirib qo'yibdilar. Endi ayb kimda, deb mojaro qilib o'tirishipti.

– Kimda bo'lardi, zemstvoda, – derdi.

– Albatta, zemstvoda!

Zemstvoning nimaligini hech qaysilari bilmasalar-da, butun aybni zemstvoga yuklardilar, boqimandalar mojarosida ham, jabr-zulmlarda, hosilsizlikda ham zemstvoni ayblardilar. Fabrika, do'kon va karvon saroylari bo'lgan badavlat mujiklar zemstvoga vakil bo'lib[1], qaytib kelganlaridan keyin norozi bo'lib, fabrika va qovoqxonalarda zemstvoni so'ka boshladilar va shundan beri zemstvoni so'kish odat bo'lib qoldi.

Xudo qor bermayapti, o'tin ketiray desak, qatqaloqdan na piyoda yurib bo'ladi, na otliq deyishar edi. Burun, bundan 15–20 yil avval Jukovo qishlog'ida bo'ladigan suhbatlar ancha mazali bo'lar edi. U vaqtda har bir keksa kishining qiyofasida allaqanday sir borday, qandaydir bir narsani biladiganday, allanarsalarni kutganday ko'rinardi. Oltin muhrli yorliqlar, yer tarkanasi, yangi yerlar, yombilar to'g'risida allaqanday kinoya bilan so'zlashar edi. Endi jukovoliklarning hech qanday sirli so'zlari yo'q, butun turmushlari ro'yobda, kaft ustida: muhtojlik, ochlik, qor yog'maganligi haqida so'zlashadi, xolos...

Gap sop bo'lib, jim bo'ldilar. So'ngra yana tovuqlar, qo'ylar eslariga tushib, aybdor kimligi to'g'risida mojaro qila boshladilar.

Osip xafalanib:

– Zemstvo aybli-da, boshqa kim bo'lardi, – deb qo'ydi.

VIII

Qishloqning katta cherkovi olti chaqirim naridagi Kosogorovda bo'lib, odamlar bu joyga faqat ishi tushganda, ya'ni bolalariga nom qo'yish, nikoh qilish, janoza o'qish lozim bo'lganda borar edi. Ibodat qilishga soyning narigi betidagi

[1] *Zemstvo vakili* – zemstvo mahkamasiga dehqonlardan saylangan vakil. Bu saylovda qatnashmoq uchun ancha davlatmand bo'lmoq kerak bo'lganidan nuqul boylar, ya'ni quloqlar saylanardir.

cherkovga borardi. Bayram kunlarida, so'ngra havo ochiq kunlarda qizlar yasanib, gala-gala bo'lib kunduzi ibodatga borardi. Qizlar rang-barang – qizil, ko'k, sariq ko'ylak kiyib, o'lanzordan o'tib borayotganlarida ularga qarasangiz ko'ngil shodlanardi. Havo bulut bo'lgan kunlari hammalari uyda o'tirar edi. Fitr ro'zani cherkovning jilovxonasida berardilar. Fitrni vaqtida bermagan kishilar bo'lsa, hayit kuni pop xoch ko'tarib uyma-uy yurib, o'n besh tiyindan yig'ib olar edi.

– Chol xudoga ishonmas va shu sababdan aslo uni esiga olmas edi. G'ayritabiiy hodisalarga ishonar va lekin buni yolg'iz xotinlarga tegishli deb bilardi. Uning oldida dindan yoki mo'jizadan gapirsalar va unga bironta savol berilsa, xushyoqmaslik bilan chakkasini qashib:

– Kim biladi deysan-a! – deb qo'yardi.

Kampir xudoga ishonardi-yu, lekin undagi bu ishonch aniq va ravshan emas edi. Uning xayoli alg'ov-dalg'ov, gunohlar, o'lim, imonni saqlash esiga tushdi deguncha, muhtojlik tashvishlar darrov xayolini olib qochardi-da, hozirgina o'ylab turgan narsalarni esdan chiqarardi. Duolarni esdan chiqarib qo'ygan, kechqurunlari yotar oldida ikonalar oldiga kelib, shivirlab:

– Qozon shahridagi aziz avliyolarga, Smolensk shahridagi aziz avliyolarga, bibi Maryamga sig'inaman... – derdi.

Marya bilan Fekla cho'qinar, har yil ro'za tutar, ammo hech narsaga tushunmasdilar. Bolalariga ibodatni o'rgatmas, xudo to'g'risida hech narsa demas, hech qanday odob-qoida o'rgatmas, faqat ro'zada go'shtli va moyli ovqat yedirtirmasdilar. Boshqa oilalarda ham shundaqa, xudoga ishongan, tushungan odam kam edi. Lekin shunday bo'lsa-da, hamma muqaddas kitoblarni hurmat qilar, sevar edi, biroq kitob yo'q, o'qib tushuntirib beradigan odam topilmas edi, shuning uchun ham Olga ba'zida Injil o'qiganidan uni izzat va hurmat qilib, u bilan Sashani sizlab gapirishardi.

Olga qo'shni qishloqlar va ikki monastir, yigirma yetti cherkovi bo'lgan uyezd shahridagi jomelarda bo'ladigan ibodat va tantanaga ko'p borar edi. Olga merovroq edi, shu sababdan

toat-ibodatga ketganida, bola-chaqasini butunlay unutar, so'ngra uyiga qaytayotganida eri bilan qizi borligi esiga tushib, shodlanar va xursandlikdan iljayib:

– Xudo marhamat qildi! – derdi.

Qishloqda bo'lgan har bir ish uning nazdida qabohat edi va diqqatini oshirardi. Bayramlarning hammasida Aziz Ilya, Uspene, Vozdvijenya kunlari ichishardi. Pokrov kuni Jukovo qishlog'ida bayram qilinib, erkaklar uch kun muttasil ichishdi. Jamoa pulidan ellik so'mni ichkilikka sarf qildilar, so'ngra har xonadondan araq puli yig'ib oldilar. Bayramning birinchi kunida Chikildeyevlarning qo'yi so'yildi, ertalab ham, tushda ham, oqshom ham bearmon yedilar, so'ngra bolalar kechasi uyg'onib ham yedilar. Kiryak uch kungacha xo'p ichdi, hatto shapkasi bilan etigini ham sotib ichdi. Maryani shunday do'pposladiki, bechoraga suv sepib zo'rg'a o'ziga keltirdilar. Keyin hamma xijolat tortib, o'z qilmishidan o'zi jirkandi.

Malayobod, deb nom chiqargan Jukovo qishlog'ida ham ozib-yozib bir kuni katta diniy bayram bo'ldi. Avgust oyi edi, xoch, tug' va alamlarni ko'tarib, qishloqma-qishloq aylantirib chiqdilar. Bu marosim Jukovoga keladigan kuni havoni bulut bosdi; qizlar ertalab rang-barang kiyim kiyib, yasanib, peshvoz chiqishdi. Kechga yaqin xoch ko'tarib, boshlab kelishdi, bu chog' soyning narigi betidagi cherkov qo'ng'irog'i chalindi. Qishloqning o'z odamlari va begonalar to'planib, ko'cha to'ldi. Shovqin-suron, to'polon, qiy-chuv... Chol, kampir, Kiryak hammalari xochga qo'l cho'zib, unga iltijo qilar, ko'zlarini javdiratib, yig'lab:

– Madadgohimiz! Volidayi mehribonimiz! – dedilar.

Xuddi hammaning qulfi dili ochilib, yer bilan osmon o'rtasi bo'sh emasligini birdaniga anglagandek, boylar va zolimlar egallamay qolgan narsalar ham borday, xo'rlik va haqoratlardan, qullik iskanjasidan, toqat qilib bo'lmaydigan haddan tashqari muhtojlikdan, dahshatli araqdan himoya qiluvchi mehribon borday tuyulardi.

Marya ho'ngrab:

– Pushti panohimiz! Volidayi mehribonimiz! – deb yig'lar edi.

Toat-ibodat tugadı, xochlarni olib ketdilar, barcha ishlar yana eski izige tushdi, qovoqxonadan yana haqorat va mastlarning g'alvaları eshitilaverdi.

O'limdan faqat badavlat mujiklar qo'rqardilar. Ular boyigan sarı dilları susayib, xudoga, oxıratga ishonmasdılar. Yolg'ız, qiyomatda nima qilaman, degan xayolda, qo'rqqanlarıdan cherkovga chiroq yoqar, goho ibodatga borib qo'yardılar. Kambag'alroq mujiklar o'limdan qo'rqmas edi. Chol bilan kampirning yuziga: yoshingni yashading, u dunyo safariga otlanaver, derdilar, bunga ular xafa ham bo'lmasdi. Nikolaydan hech andisha qilmay, uning oldida Feklaga, Nikolay o'lsa ering Denisga ijozat bo'lur, askarlikdan bo'shab keladi, degan gaplarni aytardılar. Marya bo'lsa o'limdan qo'rqish u yon tursın, o'lim tez kelmayapti, deb afsuslanar, bolaları o'lsa suyunar edi.

O'limdan qo'rqmasalar ham, lekin har xil og'riqlardan juda qattiq qo'rqardilar. Kampirning qorni og'rib, eti uvushib qolguday bo'lsa, darhol pechga chiqib, o'ralib yotib olardi-da: «O'ldim, o'ldim!» deb voy-voylashga tushardi. Chol darrov popnikiga yugurar, pop kampirning boshida kalima aytib, kampirga o'limlik kıyım kıydirardilar. Tumov, chipqon, qursoq og'rig'i va qornidan yurakka o'tib ketadigan gijjalar to'g'risida ko'p gapirishardi. Tumovdan juda yomon qo'rqishar, shuning uchun hatto yozda ham qalin kıyimlar kıyar va pechga chiqib isinardilar. Kampir o'zini boqizishni yaxshi ko'rardi, shu sababdan kasalxonaga ko'p qatnar va bunda doim – yoshim yetmishda emas, ellik sakkizda derdi. Kampir o'z xayolida doktor yoshimni bilib qolsa, kasalimni boqmay, o'ladigan vaqting bo'lib qolipti, qaratib nima qilasan, der, deb qo'rqar edi. Kasalxonaga borganida, odatda, ikki-uch qiz bolani yoniga olib erta bilan ketib, kechqurun ochiqib va achchig'lanib, o'ziga tomizg'i dori, qizlariga surtadigan dori olib qaytardi. Bir borganida Nikolayni ham olib bordi, so'ngra Nikolay ikki haftagacha tomizg'i dorini ichib ancha yengillashdim, deb yurdi.

Kampir o'ttiz chaqirım atrofidagi doktor, feldsher va tabiblarning hammasini tanir va lekin ularning bittasini ham yoqtirmas edi. Bayram kuni, pop xoch ko'tarib uyma-uy yurib,

fitr ro'za yig'ib yurganda, pop bilan birga kelgan dyachok kampirga, shaharda avaxta oldida, burun harbiy feldsher bo'lgan bir mo'ysafid bor, juda yaxshi davolaydi, shu kishiga boqizib ko'ring, deb maslahat berdi. Kampir dyachokning aytganini qilib, dastlabki qor yog'ishi bilan, shaharga borib, sersoqol, uzun kiyim kiygan, yuzining ko'k tomirlari chiqqan, cho'qingan[1] bir mo'ysafidni olib keldi. Xuddi shu kezda uyda xalfalar ishlar edi. Vahimali ko'zoynak taqqan chol mashinachi latta-puttalardan, yamab-yasqab nimcha tikmoqda, ikki yigitcha kigiz etik bosmoqda edi. Araqxo'rligi uchun ishdan bo'shatilib, uyga kelib qolgan Kiryak mashinachi yonida o'tirib xomut yamar edi. Uy tiqilinch, havosi buzuq, rutubatli. Cho'qingan Nikolayni ko'rib, banka qo'yishni buyurdi.

Cho'qingan Nikolayga banka qo'ydi, chol mashinachi bilan Kiryak va qizlar tomosha qilib turibdi, nazarlarida kasalning chiqib ketayotganini ko'rganday bo'lishdi. Ko'kragiga qo'yilgan bankalarning etini so'rib, sekin-sekin qora qonga to'lib borayotganini Nikolay ham ko'rdi va badanidan darhaqiqat allanarsa chiqib ketayotganini sezib, suyunganidan iljaydi.

– Yaxshi ekan, xudo shifo bersin, – dedi mashinachi, cho'qingan tabib o'n ikkita banka qo'ygach, so'ngra yana o'n ikkita qo'ydi-da, choy ichib jo'nab ketdi. Nikolayni qaltiroq bosdi, xotinlar aytganday, bujmayib, yuzi bir burda bo'lib qoldi. Barmoqlari ko'kardi. Ko'rpaga o'ralib, po'stinini ustiga tashlasa ham isimadi.

U kechga tomon o'sal tortdi, yerga yotqizing, mashinachi tamaki chekmasin, deb injiqlik qildi, so'ngra jim bo'ldi, ertalab o'ldi.

IX

Evoh, qanday uzun, qanday qahraton qish!

Yil boshida o'z bug'doylari sop bo'lib, shundan beri unni sotib olardilar. Endi uyiga kelib qolgan Kiryak kechqurunlari shovqin-suron ko'tarib, hammani qo'rqitar, ertalab bosh

[1] Xristian diniga kirgan yahudiy, tatar va boshqalarni «cho'qingan» der edilar.

og'rig'i va xijolatdan qiynalardi. Uni ko'rgan kishining rahmi kelardi. Og'ilxonada och qolgan sigir kecha-kunduz ma'rab, kampir bilan Maryaning yuragini ezardi. Aksiga olib, sovuq hech yumshamadi, qor ko'p yog'ib tepa-tepa bo'lib ketdi, qish cho'zildi. Hayit arafasida qattiq izg'irin turib, qor yog'ib berdi.

Ammo harqalay qish o'tdi. Aprel boshida kunduzi havo isib, kechalari sovuq bo'lib turdi. Qish bo'sh kelmay turibdi. Lekin bir kun issiq bo'lib, qish yengildi, ariqlarga suv keldi, qushlar sayradi. O'lanzorni, soy bo'yidagi butalarni bahor suvi bosdi. Jukovo qishlog'i bilan soyning narigi tomoni o'rtasidagi joylarning hammasini suv bosib, katta ko'l hosil bo'ldi, ko'lda gala-gala yovvoyi o'rdaklar paydo bo'ldi. Ko'klamda kunning qizarib botishi, barra bulutlar har kun kechqurun kutilmagan bir hodisa ko'rsatardi. Kunning botishidagi shu rang va shu bulutlarning suratda ko'rganda kishi ishonmaydigan ajoyib hodisalar ro'y berdi.

Turnalar birga yur deb chaqirganday, mungli ovoz bilan qichqirib, tez uchib bormoqda. Olga jar bo'yida turib, toshqin suvga, kunga, go'yo yasharganday yaraqlab turgan cherkovga anchagacha qarab qolardi, ko'zlaridan yosh oqar, qayoqqa boshi og'sa shu yoqqa, hatto dunyoning narigi chekkasigacha ketgisi kelganidan, yuragi siqilib shoshardi. Moskvaga qaytib ketib, oqsoch bo'lishga, Kiryak ham u bilan birga borib qorovullikka kirishga jazm qilib qo'ygan. Koshki, tezroq ketishning iloji bo'lsa.

Yo'llar qurib, havo andak ilishi bilan yo'lga tushdilar. Olga va Sasha orqalarida to'rvalari, oyoqlariga chipta kavush kiyib, tong g'ira-shira otishi bilan uydan chiqdilar. Marya ham chiqib ularni kuzatib qo'ydi. Kiryak kasal bo'lganidan bir hafta keyinroq jo'namoqchi bo'ldi. Olga erini esiga olib so'nggi marta cherkovga qarab cho'qindi; yig'lab yubormasa ham, yuzi burishib, kampirlarnikidek xunuklashdi. Qish ichi Olga ozib, xunuklashib, sochlari biroz oqardi, chehrasidagi avvalgi muloyim, yoqimli tabassum o'rnida, tortgan qayg'u-alamlar dog'i ko'rinar, qarashlari so'niq, ojiz, harakatsiz, o'zi merov bo'lib qoldi. Qishloq va mujiklardan ajragisi kelmasdi. Nikolayning jasadini ko'tarib ketayotganlarida, har uy oldida to'xtab, duo-fotiha qilganlari, uning qayg'isiga qo'shilib, hammaning yig'lashgani yodiga

tushdi. Yoz va qish ichi shunday og'ir damlar, shunday qiyin kunlar bo'ldiki, bundagi odamlar hayvonlardan battar yashagandek, ular bilan birga yashamoq dahshatli ko'ringan edi. Ular dag'al, insofsiz, iflos, doim mast, bir-birlarini hurmat qilmaganlaridan doim urishardilar, bir-birlaridan qo'rqadilar va shubhalanadilar. Qovoqxona ochib xalqni araqxo'rlikka o'rgatgan kim? Mujik. Jamoa pulini, maktab va cherkov pulini ichkilikka sarf qilib qo'ygan kim? Mujik. Qo'shnisining molini o'g'irlagan, birovlarnikiga o't qo'ygan, bir shisha araq uchun sudda yolg'on guvohlik bergan kim? Zemstvo yig'inlarida, boshqa majlislarda mujiklarga qarshi gapirgan kim? Mujik. Shundaqa, ular bilan birga turmoq dahshat, biroq har holda ular ham odam, ular ham qayg'u-hasratlar tortadilar, ular ham odam bolalaridek yig'laydilar. Ular turmushida besabab hech narsa yo'q. Kechalari a'zoyi badanlarini og'ir mehnat og'ritadi, shiddatli qahraton qishlar, barakasiz hosil, tor-tanqislik ularni qiynaydi, lekin ularga hech qayerdan yordam, najot yo'q. Boyroq va zo'rroqlari ularga yordam qilolmaydi, chunki bularning o'zlari dag'al, insofsiz, araqxo'r, bular ham jirkanch so'zlar bilan so'kishadi. Eng kichik amaldor yoki har bir boyning gumashtasi mujiklarga bexonumon, darbadarlardek muomila qiladi, hatto oqsoqollarni, ruhoniy boshliqlarni ham sansirab gapiradi va bunga haqim bor, deb o'ylaydi. Zotan, yulib-yulqamoq, haqorat qilmoq, do'q qilib qo'rqitmoq uchun qishloqqa kelib ketadigan manfaatparast, ochko'z, buzuq va dangasa odamlardan yordam yoki yaxshilik kutib bo'ladimi? Qishda Kiryakni savalagani olib ketayotganlarida chol bilan kampirning qanday bechora va ojiz holda turganlari Olganing esiga tushdi. Endi Olganing bu kishilarga rahmi kelib, yuragi ezilib, yo'lda borarkan, qishloq uylariga qayta-qayta qaradi.

Marya uch chaqirim joygacha kuzatib borgandan keyin, xayrlashdi, cho'kka tushib, yuzini tuproqqa urib, faryod ko'tardi:

– Yana yolg'iz qoldim, bechora, sho'rlik boshim, yana yakka qoldim...

Marya anchagacha shu holda yig'lab qoldi. Olga va Sasha, Maryaning tiz cho'kib, ikki qo'li bilan boshini ushlab, kimgadir

ta'zim qilganini, uning boshi ustida zag'chalar uchib yurganini anchagacha ko'rib bordilar.

Kun ko'tarilib, havo isidi. Jukovo qishlog'i uzoqda qoldi. Yo'l yurishning nash'asi bor. Olga bilan Sasha qishloqni, Maryani unutdilar, vaqtlari chog', har narsa bahrlarini ochar edi. Goh eski qo'rg'onlar uchraydi, qator-qator simyog'ochlar ufqda g'oyib bo'lib, allaqayoqlarga ketadi, simlarning guvullashida ham sir bor. Gohida uzoqda, ko'm-ko'k daraxtlar ichida qo'rg'onchalar ko'rinadi, u yoqda nam havo, kunjut isi keladi va negadir unda baxtli kishilar turgandek tuyuladi. Goh dalada tanho oqarib yotgan ot suyagi uchraydi. To'rg'aylar tinmasdan sayraydi, bedanalar bir-birini chaqiradi. Qiziloyoq birov zang bosgan mixni sug'urayotganday chig'illaydi.

Tush paytida Olga bilan Sasha katta qishloqqa keldilar. Bundagi katta ko'chada general Jukovning oshpazi bo'lmish chol uchrab qoldi. Chol issiqdan terga botgan, qip-qizil tepakal boshi oftobdan yaltiraydi. U ham, Olga ham bir-birlarini tanimadilar, so'ngra ikkovlari birdaniga qayrilib qarab, bir-birlarini tanisalar ham so'zlashmasdan har qaysisi o'z yo'liga ketaverdi. Olga boyroq, yangiroq ko'ringan uyning ochiq derazasi tagida to'xtab ta'zim qilgach, ingichka ovozini xonish qilganday baland ko'tarib, tilandi:

– Mo'minlar, xudo yo'liga xayr-ehson qilinglar, rahmingiz kelsin, ota-bobolaringizni xudo rahmat qilsin, tan-joningiz sog' bo'lsin.

Sasha ham onasini aytganini takrorladi:

– Mo'minlar, xudo yo'liga xayr-ehson qilinglar, rahmingiz kelsin, ota-bobolaringizni xudo rahmat qilsin...

SOYLIKDA

I

Ukleyevo qishlog'ı soylikda bo'lib, tosh yo'ldan va temır yo'l stansiyasidan qaraganda chit fabrikalarining mo'risi va cherkovning qo'ng'iroqxonasigina ko'rinar edi. O'tgan-ketgan yo'lovchilar, qaysi qishloq deb so'raganlarida:

– Ma'rakaga kelgan dyachok ikraning hammasini yeb qo'ygan qishloq, – deb javob berardilar.

Bir kun fabrikachi Kostyukov ma'raka qilganda dyachok chol dasturxonga qo'yilgan ovqatlar orasida donador ikraga ko'zi tushib qolib, to'rt qadoqcha keladigan bir banka ikrani paqqos yeb qo'yıbdı. Yon-veridagilar shuncha turtsalar, yengidan tortsalar ham huzur qilganidan o'zini unutib, pinagini buzmay yeyaveribdi. Bu voqeaga ko'p zamon bo'lib, dyachok allaqachon o'lib ketgan bo'lsa ham ikra voqeasi haligacha esdan chiqmaydi. Bu yerdagilarning tirikchiligi shunchalik qashshoqligidanmi yoki odamlari bu o'n yilgi anchayin voqeadan boshqa hech narsani bilmaganlaridanmi, Ukleyevo qishlog'ı to'g'risida bundan boshqa tuzukkina gap aytolmas edilar.

Ukleyevo qishlog'idan bezgak sira arimas, hatto yozda ham loyi qurımas, xususan, qarib qolgan katta tol daraxtlari soyasidagi devor tagi hamisha loy edi. Fabrikadan chiqarıb tashlangan axlatlar bilan chitga naqsh bosganda ishlatiladigan tezob dorilarning sassig'i sira ketmasdi. Uchta chit fabrikasi bilan bitta ko'n zavodi qishloqdan bir chekkaroq, narida bo'lib, hammasidagi ishchilarning soni to'rt yuzdan oshmas edi. Ko'n zavodining axlatlaridan soyning suvi sasib, o'tloq yerlar ham zavod axlatlaridan iflos bo'lib, bu o'tlarni yegan mollarga kuydirgi kasali yuqıb, dehqonlarning mollari qirilardi; shu boisdan fabrikani yopmoqqa buyruq bo'ldi. Ammo, fabrika otiga yopilgan hisoblanıb, qishloq pristavi va uyezd doktoriga

egasi har oyi o'n so'mdan berib, fabrikani yashirin ishlataverdi. Qishloqda ikkitagina tunuka tomli tuzukkina g'isht uy bo'lib, birida volost mahkamasi, ikkinchisida, cherkov ro'baro'sidagi boloxonalik uyda, Epifan meshchanlaridan Grigoriy Petrov Sibukin joylashgan edi.

Grigoriyning baqqollik do'koni bor edi, ammo bu nomiga baqqollik bo'lib, araq, teri, bug'doy va har balo sotilardi. Grigoriy shu do'kon orqali hatto mol jalloblik va cho'chqa jalloblik ham qilar edi. Chet eldagi xonimlar qalpoqlariga zag'izg'on pati kerak bo'lib qolsa, har juft zag'izg'ondan o'ttiz tiyindan foydalanib qolardi. U daraxtlarni sotib olib, kesib sotar, ijaraga pul qarz berar, xullas, uddaburo chol edi.

Grigoriyning ikki o'g'li bo'lib, Anisim degan katta o'g'li politsiya qidiruv bo'limida ishlar, uyga ahyon-ahyonda kelardi. Stepan degan kenja o'g'li do'konda otasiga qarashardi, ammo undan tuzukkina yordam umid qilib bo'lmas edi, chunki u nimjon va kar edi. Xotini Aksinya, qomati kelishgan, xushbichim, chiroyli ayol, hayit kunlari yasanib, boshiga shlyapa kiyib, soyabon ko'tarib savlat to'kib chiqar, tong otishi bilan, barvaqt turar, kechasi allamahalda yotar, kunduzi tinmay, etagini ko'tarib, kalitlarni shiqirlatib, hali omborxonaga, hali do'konga, hali yer-to'laga yugurar edi. Chol Sibukin kelinga tikilib turib, ich-ichidan quvonar, ko'zlari o'tdek yonib ketar va ayni vaqtda, bu kelin katta o'g'liga tushmay, aftidan, chiroyli xotinning nimaligini yaxshi bilmaydigan kar o'g'liga tushganiga achinardi.

Bola-chaqaga, uy-ro'zg'orga cholning mehri baland, dunyoda bola-chaqasidan ortiq ko'rgan narsasi yo'q, izquvar katta o'g'li va haligi kelinini, ayniqsa, yaxshi ko'radi. Kar o'g'liga tushgan kelini Aksinya juda ishbilarmon, chaqqon, epchil chiqdi; uyga kelgan kunidan boshlaboq, darrov hamma ishni tasarruf qilib oldi. Kimga nasiyaga mol berish, kimga bermaslikni ham bilib oldi. Kalitlarni hech kimga bermas, hatto eriga ham ishonmas edi. Cho't qoqishga ham juda usta. Xuddi erkaklardek otlarning tishini ko'rar, yuzi doim kulib tirjayib turar, baqirgan-chaqirgan edi. Chol ham uning deganidan chiqmas, nima desa zavqi kelib:

– Barakalla, xo'b kelinim bor-da! Husningga balli, barakalla... – derdi, xolos.

Chol beva edi, ammo o'g'li uylangandan keyin chidolmasdan, bir yildan so'ng, o'zi ham uylandi. Ukleyevo qishlog'idan o'ttiz chaqirim naridan Varvara Nikolayevna nomli tag-tugli bir qari qizni topdilar. Qizning yoshi anchaga borib qolgan bo'lsa ham, ko'hlik va barvasta edi. Boloxonadagi uyga yangi kelin tushishi bilan uyga fayz kirib, derazalarga yangi toza oyna solingandek, hamma yoq yaraqlab qoldi. Shamchiroqlar yoqildi, stollarga qordek oppoq dasturxonlar yozildi, darchalar tagi gulzor bo'lib, qip-qizil tugmacha gullar ochildi, ovqatni hamma bir idishdan yemay, har bir kishi alohida tarelkada yeyadigan bo'ldi. Varvara Nikolayevna doim yoqimtoygina jilmayib turar, uydagi hamma narsa jilmayib turgandek ko'rinardi. Ilgari bu hovliga gadoylar, musofir-mujovir, xudojo'ylar hech yo'lamas edi. Endi darcha tagida Ukleyevo qishlog'idagi beva-bechora xotinlarning tilangani, araqxo'rligi uchun fabrikadan bo'shatib yuborilgan, ichkilik xarob qilgan kishilarning yo'talishi eshitiladigan bo'ldi. Varvara ularga pul, non, eski kiyim-kechak xayr-ehson qilar edi. Keyin o'rganib qolib, do'kondan ham uncha-muncha olib chiqib beradigan bo'ldi. Bir kun nimchoraklik choydan ikki dumalog'ini olib chiqib ketayotganini ko'rib qolgan kar, hijolat tortib yerga qaradi. Keyin:

– Oyim nimchorakdan ikki dumaloq choy olib ketdilar, pulini kimga yozib qo'yay? – deb otasidan so'radi.

Chol hech narsa demasdan birpas o'yladi va qoshlarini chimirib, boloxonadagi xotinining oldiga chiqib ketdi.

– Jonim, agar do'kondan biron narsa kerak bo'lsa tortinib o'tirma, xijolat ham bo'lma, olaver, – dedi muloyimlik bilan.

Ertasiga kar hovlidan yugurganicha o'tib ketayotganida Varvaraga qarab:

– Oyi, nimaiki kerak bo'lsa olavering! – deb qichqirib o'tib ketdi.

Shamchiroqlar va qizil tugmacha gullar bu uyda bir yangilik bo'lganidek, Varvaraning beva-bechoralarga xayr-ehson qilishi ham bir yangilik, fayz va xursandlik edi. Shak kuni va uch kunlab

davom etadigan katta bayram kunlarida sassig'idan odam oldida turib bo'lmaydigan go'shtlarni qishloq odamlariga sotganlarida, mast qishloq odamlari o'roq, shapka, xotinlarining durrachalari va nima bo'lsa shuni garovga olib qolayotganlarida, yaramas araqni ichgan fabrika ishchilari loylarga bulanib dumalab yotganlarida, ro'yi zaminni gunoh bosib ketgandek ko'ringan vaqtlarda, qo'lansa, tuzlangan go'sht bilan ham, araq bilan ham hech ishi bo'lmagan yuvoshgina, ozodagina pokiza xotin uyda o'tirganligi eslariga tushib, bu gunohlar azobidan ko'ngillari biroz tasalli topar edi; bunday og'ir, vazmin kunlarda uning qilgan xayr-ehson va sadaqalari go'yo ularga bir raddi balodek tuyulardi.

Sibukinning uyida hech tinim yo'q, ertalab kun chiqarchiqmas Aksinya dahlizda pishqirib yuz-qo'lini yuvayotgani eshitilib turar, oshxonada samovar go'yo bir noxush xabardan darak berganday baqir-buqur qaynab turar edi. Chol Grigoriy Petrov uzun qora to'nini, chit shimini, baland qo'nji yaraqlagan etigini kiyib olib, mashhur qo'shiqdagidek, qaynatalikni o'rniga qo'yib, poshnasini g'irchillatib oliftalik bilan uydan uyga yurar edi. Do'kon ochilib, kun yoyilgandan keyin otlarni xipcha poyga aravaga qo'shib, darvozaxonaga keltirishardi. Chol katta shapkasini qulog'igacha bosib kiyib, oliftalik bilan aravaga o'tirib olardi, ko'rgan kishi uni hech ellik oltiga kirgan demasdi. Xotini bilan kelini uni kuzatgani chiqardilar. Chol top-toza yangi chakmonni kiyib, uch yuz so'mga olgan katta qora ot qo'shilgan poyga aravaga o'tirganda qishloq odamlarining eshikka kelib iltimos va shikoyat qilishlarini yoqtirmas edi. Qishloq odamlaridan hazar qilar, ularni yomon ko'rar, bironta qishloq odami kelib darvozaxonada uni kutib turganini bilsa, koyib:

– Nima qilib turibsan, yo'lingdan qolma, ketaver! – deb baqirar edi. Yoki kutib turgan odam gadoy bo'lsa:

– Xudo bersin! – deb jo'natib yuborar edi.

Chol ish yuzasidan safarga chiqqanda xotini kirchimol kiyimlar ustidan qora fartuk kiyib olib uylarni yig'ishtirar yoki oshxona ishlariga qarashar edi. Aksinya do'konda mol sotar, do'konda shishalarning chaqir-chuquri, tanga-chaqalarning jaranglashi,

Aksinyaning kulgan va qichqirgani, xaridorlarning koyib achchig'langanlari hovlida eshitilganda bilingki, do'konda yashirin araq sotish qizib ketibdi. Kar ham do'konda o'tirar, ba'zan ko'chada boshyalang, ikki qo'lini cho'ntagiga solib, uylarga va osmonga angrayib qarab yurardi. Uyidagilar kuniga olti marta choy ichar, to'rt marta ovqat yer, kechqurun savdodan tushgan pulni sanab, daftarga yozgandan keyin miriqib uxlar edi.

Ukleyevo qishlog'idagi chit fabrikasining uchtasida ham, fabrika egalari birodaron Xriminlarning kattasinikida ham, kichiginikida ham, Kostyukov va sheriklarining uylarida ham telefon bor edi. Volost mahkamasiga ham telefon o'tkazilgan edi-ku, lekin ko'p fursat o'tmay, buzilib qoldi, chunki telefonning ichi kanaxona, suvarakxona bo'lib qoldi. Volost boshlig'i savodsiz odam edi va har bir so'zni bosh harfdan yozar, ammo telefon buzilib qolganda u:

– Ha, endi telefonsiz ishimiz qiyin bo'ladi, – deb qo'ydi.

Birodaron Xriminlarning kattasi kichigi bilan doim sudlash'b umr o'tkazar edi. Goho kichik Xriminlar ham bir-birlari bilan urishib qolib, sudlashar, yarashgunlaricha oradan bir-ikki oy o'tib ketar va bu muddat ichida fabrikalari yotib qolib, bu voqea Ukleyevo qishlog'ining odamlariga ancha ermak bo'lardi, chunki Xriminlar har urishganlarida allaqancha gap-so'z, mish-mishlar yoyilardi. Bayram kunlarida kichik Xriminlar bilan Kostyukov arava poyga qilar va har gal qishloqdan bir necha buzoqni bosib o'ldirar edi. Aksinya ohorlik ko'ylaklar kiyib, yasanib do'koni oldida tomosha qilib yurganda kichik Xriminlardan bittasi kelib, xuddi uni olib qochgandek, aravaga solib olib ketardi. Bunday bayram kunlarida chol Sibukin ham yangi sotib olgan otini ko'rsatmoq uchun aravasini qo'shib, xotini Varvarani ham yonida olib chiqardi.

Sayildan keyin, kechasi yotar paytida, kichik Xriminlarning hovlisida qimmatbaho yaxshi garmon chalinib, o'yin boshlanardi, oydin kecha bo'lganda, garmon ovozidan hamma hayajonlanib va dimog'i chog' bo'lib, bunday kezlarda Ukleyevo qishlog'i soylikdagi pastqam joyga o'xshamay ketardi.

II

Cholning katta o'g'li Anisim uyiga ahyon-ahyonda, katta bayramlarda kelardi, ammo hamqishloqlaridan tez-tez sovg'a, xat yuborib turardi. Xatni o'zi yozmay, boshqa bir xushxat odamga ariza yozgandek bir taxta qog'ozga yozdirardi. Xatida Anisimning o'zi birov bilan gaplashganida hech bir aytmaydigan gaplari ko'p bo'lardi. Chunonchi: «Hurmatli otamiz bilan onamizga o'z iste'molingiz uchun bir qadoq gulchoy yubordim», kabi iboralar bilan yozar edi.

Har bir xatning oxirida xit pero bilan yozilgandek, tirnab: «Anisim Sibukin» deb qo'l qo'yilar edi. Bu imzodan keyin yana haligi xushxat odamning qo'li bilan: «Agent» degan so'z yozilar edi.

Anisimdan kelgan xatni qayta-qayta baland ovoz bilan o'qirdilar. Ko'ngli buzilib, o'pkasi to'lgan chol hayajonidan qip-qizarib derdi:

– Otasining uyida turmoqni xohlamadi, mullalik ko'chasiga kirib ketdi. Mayli, o'z ta'bi! Har kimning hunari!

Bir kun katta bayram oldida, jala quyib, yomg'ir aralash qor yog'ib turganda, chol xotini Varvara bilan deraza oldiga kelib hovliga qarab turar edi, stansiya tomondan chanaga tushib kelayotgan katta o'g'li – Anisimni ko'rib qoldi. Hech kim uni kelib qolar, deb o'ylamagan edi. Anisimning dili g'ash, ahvoli parishonroq ko'rindi; uyga kirgandan keyin ham mudom chiroyi ochilmay yuraverdi. Qaytib ketadigan avzoyi ham yo'q, ahvoli xizmatdan bo'shaganga o'xshardi. Varvara uning kelganiga xursand bo'lib, kulimsirab tikilib-tikilib qarab turdi, keyin uh tortib, boshini chayqadi.

– Bu nima degan gap, yigitning yoshi yigirma sakkizga borgan bo'lsa-ku, hali ham uylanmasdan bo'ydoq yuraversa-ya. Voybo'...

Varvaraning nariqi uydan turib ohista voybo'laganı eshitilib turardi. U chol bilan Aksinyaga shivirlab bir narsalar dedi, bularning chehralari bir narsaga qasd qilgan isyonchilardek, allaqanday sirli tusga kirdi.

Xullas Anisimni uylantirishga qaror qildilar.

– Voybo'... sendan kichik ukang allaqachon uylansa-yu, sen hali ham bozordagi xo'rozdek toq yursang. Shu ham ishmi? Voybo', xotin olib uy-joy qilganingdan keyin xudo xohlasa bilganingni qilasan, agar xizmatingga jo'nasang, xotining bu yerda bizga qanot-quyrug' bo'lib qoladi. Yigit kishiga bu yurish yaramaydi. Qarab tursam, tartib-qoidadan juda chiqib ketibsan. Sho'rim qursin, shaharlik bo'lgandan keyin qiyin ekan-da, voybo', – dedi Varvara...

Sibukinning o'g'illari boyvachcha bo'lganidan ularga chiroyli qizlarni qidirib topardilar. Anisimga ham chiroyli bir qizni topdilar. Anisimning o'zi xunuk, ko'rimsiz, zaif, bo'yi past, yuzlari shishgan, xomsemiz, ko'zlari o'qraygan, qarashi xunuk, soqoli yakkam-dukkam, sap-sariq, ko'sa edi. Xayol surib, fikrga cho'mganida, soqolini og'ziga tiqib chaynar, xunukligi ustiga araqxo'r edi, uning bu qilig'i aft-basharasidan ham bilinib turardi. Ammo unga juda xushro'y qalliq topilganini aytganlarida:

– Men ham chakana odam emasman. Bizning urug'imizning hammasi chiroyli, – deb qo'ydi.

Shaharning shundoqqina yonida Torguyevo qishlog'i bor edi. Bu qishloqning yarmisi yaqinda shaharga qo'shilib, yarmisi qishloqligicha qolgan, shaharga qo'shilgan qismida bir beva xotin bor edi. Bu beva xotinning mardikor ishlab kun ko'rib yurgan bechorahol bir singlisi bor edi, uning Lipa degan bir qizi bo'lib, bu qiz ham mardikor ishlardi. Lipaning husni hammaning og'ziga tushgan bo'lsa ham, juda qashshoqligi ko'plarni andishaga solib qo'yardi. Bironta xotini o'lgan yoki xotinini qo'ygan, qari odam topilib qolsa, qizning kambag'alligiga qaramay olsa ajab emas, juda xotin qilib, nikohlab olmaganda, «shunchaki» olar, qizni olsa, onasi ham qiznikida qorni to'yib qoladi, deyishar edi. Varvara sovchi xotindan Lipaning ta'rifini eshitib, Torguyevo qishlog'iga borib uni ko'rib keldi.

Bundan keyin boyagi xolasining uyida qizko'rar bo'lib, bunda ichkilik bilan ziyofat berildi. Lipa ham qizko'rar uchun atayin tikilgan pushti ko'ylagini kiyib keldi, sochiga taqilgan qip-qizil

tasma cho'g'dek lovullab yonib turardi. Qiz nozikkina, nimjon, rangpar, aft-basharasi bejirim, oftobdan yuzi qoraygan edi. Dardli, ma'yus tabassum yuzidan arimas, go'dakona ma'sum ko'zlari javdirab turar edi.

Qiz hali yosh, ko'kraklari ham bilinar-bilinmas, lekin bo'yi yetib qolganidan nikoh ravo hisoblanar edi. Qiz darhaqiqat chiroyli, faqat bir aybi bor, u ham bo'lsa shuki, qo'llari erkaklarnikidek katta va ikkita katta changakdek osilib turar edi.

Chol qizning xolasiga qarab, qizingiz sepsiz ekan, lekin bunga hech narsa demaymiz, kichik o'g'lim Stepanga ham shunday kambag'al bolasini olib berdik, lekin hozir kelinimizdan nihoyatda xursandmiz, ishga epchil, chevar, qo'lidan har bir ish keladi, – dedi.

Lipa eshik yonida: «Nima qilsangiz bilganingizni qiling, ixtiyorim sizda», degandek mo'ltayib turar edi. Mardikor onasi Proskovya ham qo'rqqanidan nafasi ichiga tushib, ovozini chiqarmay, oshxonada o'tirar edi. Bir vaqtlarda yoshlik chog'ida, u bir boyning polini yuvib yurganida: boyning jahli chiqib, tepinib, uni qattiq koyib bergan ekan, shundan beri yuragini oldirib qo'ygan ekan. Qachon sal qo'rqsa qo'l-oyog'i, hatto yuzlari ham titrab ketar edi. Oshxonada o'tirib mehmonlarning gapiga quloq solar ekan, burchakdagi ikonalarga qarab cho'qinib qo'yar edi. Andak ichib olgan Anisim kayf bilan oshxona eshigini ochib:

– Onajon, nega bu yerda o'tiribsiz? Siz yo'g'ingiz uchun bizga tatimayapti, – dedi.

Proskovya bo'lsa yuragi yorilib, ozg'inligidan suyaklari chiqib qolgan ko'kragiga qo'llarini qo'yib:

– Qulliq, rahmat... juda-juda minnatdormiz... – dedi.

Qizko'rardan keyin to'y kuni tayinlandi. Anisim uyga kelgach, hushtak chalib, uydan uyga kirib yurdi, goh to'satdan bir narsa esiga tushib, ko'zi bilan yerni teshmoqchi bo'lgandek tikilgancha xayol surib qoladi. Yaqinda to'y, uylanishiga xursand bo'lgani ham, qallig'ini ko'rgisi kelgani ham ma'lum emas, hushtak chalib yuradi, xolos. Uylanishga ham otasi bilan o'gay onasi xohlagani uchun rozi bo'lgani, so'ngra qishloqda odat shunaqa bo'lib o'g'il otaning uyiga bir xizmatkor keltirib be-

rish uchun uylanishi rasm, uylanishi shu sababdan ekani bilinib turadi. Anisim qaytib ketayotganda ham hech shoshmadi, xullas bu gal yurish-turish butunlay boshqa, mahmadonaroq, gapleri poyintar-soyintar edi.

III

Shikalova qishlog'ida egachi-singil ikki xudojo'y mashinachi bor edi. To'ning sarpolarini tikishni shularga buyurdilar, bular kiyim bichgani kelib bemalol o'tirib, choy ichib ketardilar. Varvaraga qora uqa tutilgan, mayda marjon taqilgan jigarrang ko'ylak tikdilar, Aksinyaga och-ko'kdan, ko'kragiga sariq uqa tutgan keng etakli ko'ylak tikdilar. Mashinachilar sarpolarni tikib bo'lganlaridan keyin Sibukin ularga pul bermasdan, do'konidan mol berdi. Shuning uchun ular mo'm, sham, tuzlab qutiga tiqilgan baliqlarni tugib, juda xafa bo'lib chiqib ketdilar. Bu narsalar ularga sira kerak bo'lmaganidan qishloqdan dalaga chiqqach, bir tepa ustiga o'tirib, yig'i boshladilar.

Anisim yangi sarpo kiyib to'yga uch kun qolganda yetib keldi. Oyog'ida yaltirab turgan yangi kalish, yoqasida galstuk o'rniga ikki uchiga dumaloq soqqa taqilgan qizil bog'ich, yengini kiymasdan yelkasiga tashlab olgan yangi palto.

Anisim uyga kelib ulug'vorlik bilan ibodat qilgandan keyin, otasi bilan ko'rishdi va unga bir so'lkavoylikdan o'nta, yarim so'lkavoylikdan o'nta, onasi Varvaraga ham shunchadan pul berdi. Aksinyaga chorak so'mlikdan yigirma dona berdi. Bu sovg'aning chiroyi shu ediki, so'lkavoylarning hammasi yap-yangi, oftobga tutsa yaltirar edi. Anisim o'zini ulug'vor va odmi ko'rsatmoq uchun tumtayib, lunjlarini shishirar, undan doim vino isi kelib turardi; kelayotganda har stansiyada bufetdan vino ichib turgan bo'lsa kerak. Bu gal ham uning gap-so'zida allaqanday bema'nilik, harakatlarida odamga yarashmagan qiliqlar bor edi. Keyin Anisim bilan chol choy ichib, ovqatlanib o'tirdi. Varvara yap-yangi so'lkavoylarni qo'lida o'ynab turib, shahardagi hamqishloqlarini surishtirar edi.

Anisim uning savollariga javob berib, dedi:

– Xudoga shukur, yaxshi, omon-eson yurishibdi. Faqat Ivan Yegorovning uyidagi hodisa shuki, uning kampiri Sofiya Nikiforovna o'lib qoldi. Sil kasal ekan. Ma'rakasi har kishi boshiga bir so'm yigirma besh tiyindan to'lab bulkachinikida o'tkazildi. Uzumdan qilingan vinolar quyildi. Bizning qishlog'imizdan bo'lganlarga ham bir so'm-bir so'm yigirma besh tiyindan to'landi, ammo ular hech narsa yemadilar. Qishloq odamlari ovqat mazasini biladimi?

– Bir so'm yigirma besh tiyin! – dedi chol, boshini chayqab.

– Ha, nima bo'pti? U yoq qishloq emas, bironta restoranga kirib ozroq ovqat yemoqchi bo'lsang, bitta-ikkita odam bilan o'tirishib qolasan; ichkilik boshlanib ketadi, bir mahal qarasang tong otib qopti. Kishi boshiga uch-to'rt so'mdan tushaverdi. Samorodov bilan o'tirishib qolsak, u ovqatdan keyin konyak solingan qahva ichishni yaxshi ko'radi, konyakning bir ryumkasi oltmish tiyindan.

Cholning havasi kelib:

– Hamma gaping yolg'on, hamma gaping yolg'on! – dedi.

– Men endi faqat shu Samorodov bilan ulfatchilik qiladigan bo'ldim. Samorodov degan odamim sizga yuborgan xatlarimni yozgan kishi. Xati juda yaxshi.

Anisimning xursandligi oshib, Varvaraga qarab dedi:

– Ona, agar bu Samorodov degan odamning qanaqaligini aytib beraversam ishonmaysiz. Hammamiz unga Muxtor deb ot qo'yganmiz, chunki o'zi armaniga o'xshagan qop-qora. Men uning butun ikir-chikiridan xabardorman, hamma sirlarini bilaman, u ham buni payqab hech mening ketimdan qolmaydi. Hozir oramizdan qil o'tmaydi. Mendan hadiksiraydi-yu, lekin mensiz bir lahza ham turolmaydi, qayerga borsam ketimdan qolmaydi. Oyi, sizga aytay, mening ko'zim darrov har narsani iladi. Bironta qishloq odamining bozorda ko'ylak sotib turganini ko'rsam, darrov fahmlayman, shoshma, albatta o'g'irlik ko'ylak deyman, keyin surishtirib qarasam, darvoqe o'g'irlik chiqadi.

– Qanday qilib bilasan? – deb so'raydi Varvara.

– Qanday qilib bilardim, ko'zim pishib qolgan-da. Men ko'ylakning qandayligini ham bilmayman-u, lekin ko'nglim hadeb shunga chopaveradi, o'g'irlikka o'xshayveradi. Qidiruv bo'limidagilarning hammasi meni bilib qolganlar. O'g'irlik mollarni qidirgani bozorga chiqqanimda «ovga» chiqdi deydilar. O'g'irlikni hamma ham biladi, lekin gap o'g'irlangan molni bekitishda, yerning bag'ri keng-u, lekin o'g'irlik molni bekitishga joy topolmaydi.

– Bizning qishlog'imizda o'tgan hafta Guntorovlarning bitta qo'chqori bilan ikkita sovlig'ini o'g'irlab ketdilar, lekin buning payiga tushib qidiradigan odam yo'q, – dedi Varvara uh tortib.

– Qidirib ko'rsak bo'ladi. Buning qiyinligi yo'q, mumkin.

To'y kuni ham kelib qoldi. Havo salqin, lekin osmon ochiq, ravshan aprel havosi edi. Ertalabdan boshlab Ukleyevo qishlog'ida aravaning do'g'asiga, otlarning yoliga rang-barang shokildalar taqilgan uch otlik, ikki otlik aravalar qo'ng'iroqlarini jing'illatib o'taverdilar. Tollardagi qo'ng'izlar va chug'urchuqlar aravalarning to'polonidan bezovtalanib, Sibukinlarning to'yiga xursandlik qilayotgandek, tinmay sayrar edi.

Dasturxonga uzun-uzun baliqlar, yaxna go'shtlar, tuxum to'ldirib pishirilgan parrandalar, tunuka qutidagi tuzlangan baliqlar va boshqa har xil laziz ovqatlar, bir talay shishalarda arag'-u vinolar, dudlangan kolbasalar va achigan qisqichbaqalar qo'yildi. Chol qo'lidagi pichoqlarni bir-biriga qayrab, poshnasini do'qillatib dasturxon atrofida yurar edi. Varvarani u yoqqa-bu yoqqa chaqirib, hali uni, hali buni so'rashar edi. Varvara ham hovliqib, harsillab mehmonxonadan oshxonaga, oshxonadan mehmonxonaga chopar edi. Oshxonada tong otardan beri Kostyukovlardan bir oshpaz, kichik birodaron Xriminlar tomonidan yuborilgan bir oshpaz xotin ovqat tayyorlamoqda edi. Aksinya sochlarini jingalak qilib, g'archillama yangi botinkani kiyib, belini sirib olib, ich ko'ylak bilan hovlida u yoqdan bu yoqqa chopar, yalang'och sonlari bilan ko'kraklari har zamonda bir ko'rinib qolar edi. Shovqin-suron, koyishgan-so'kishgan, xudoni o'rtaga solib qasam ichgan, o'tgan-ketganlar lang ochiq darvoza oldida

to'xtab tomosha qilardi. Bundagi harakatlardan, favqulodda bir ishga tayyorgarlik borligi sezilib turardi.

– Kelinga arava ketdi! – dedi birov.

Aravaning qo'ng'iroqlari qishloqdan chiqqandan keyin ham uzoqdan eshitilib turdi. keyin qo'ng'iroq ovozi tindi... Soat ikkidan o'tganda odamlar yana chuvalashib qoldilar. Yana qo'ng'iroq ovozi chiqdi. Hamma har tarafdan:

– Kelin kelayapti, kelin kelayapti – deb qolishdi. Cherkov odamga liq to'ldi, shamchiroqlar yoqildi, chol Sibukinning ra'yiga qarab hofizlar nota o'qidilar. Chiroqlarning shu'lasi, rango-rang kiyimlarning jilvasi Lipaning ko'zini qamashtirdi, hofizlarning qattiq ovozi nazarida boshiga bolg'adek tegar edi. Umrida birinchi marta kiygan korseti[1] belini, tor botinkasi oyog'ini siqar edi. U behushlikdan uyg'ongandek karaxt, hayron bo'lib, angrayib turardi. Qora kamzul kiygan, galstuk o'rniga qizil bog'ich taqqan Anisim ham bir nuqtaga tikilib, hushi qochib turar, hofizlar avjga chiqqanlarida shoshib-pishib cho'qinib olardi; ko'ngli buzilib, o'pkasi to'lib, yig'lagisi kelardi. Bu cherkovni Anisim yoshlik chog'laridan biladi. Bir vaqtlarda, bolalik chog'ida marhuma onasi uni shu cherkovga keltirib cho'qintirgan, sal katta bo'lganida bolalar bilan bunda hofizlik qilgan edi. Shuning uchun cherkovning har yerini, undagi ikonalarning har birini juda yaxshi biladi. Bu kun nikoh, rasm-odat shu ekan, uylanmoq kerak ekan, lekin bu onda uylanish to'g'risida hech bir o'ylamas, to'y esidan tamomila chiqib ketgan edi. Ko'ziga jiq-jiq yosh to'lib, ikonalarni yaxshi ko'rolmas, yuragi siqilar edi. Ko'nglida xudoga yolborib, qurg'oqchilik vaqtida osmonda paydo bo'lgan qora bulutlar qishloq tepasidan tomchilamay o'tib ketganidek, bugun bo'lmasa ertaga uning boshiga tushay deb turgan balo-qazolarning ham ziyon-zahmatsiz o'tib ketishini so'rar edi. Gunohi to'la, gunoh loyiga botgan, najotdan hech bir umid yo'q, shuning uchun xudodan marhamat so'rashga ham tili bormaydi, lekin shunday bo'lsa hamki, xudoga iltijo qilib yolbordi, hatto piq-piq yig'lab yubordi, ammo uning bu holiga hech kim parvo qilmadi, chunki

[1] *Korset* – xotinlar bellariga bog'laydigan, belni siqib turadigan belbog'.

hamma uni ichib olgan deb o'ylar edi. O'pkasi shishib yig'lagan bolaning ovozi eshitildi:

– Oyijon, meni bu yerdan tezroq olib ket! O'rgilay oyi!

– Shovqinlama, hoy! – deb baqirdi pop.

Cherkovdan qaytib kelayotganlarida allaqancha odam orqalaridan ergashdi; do'konning oldini, darvozaxonani, hovlini, darcha tagini odam bosib ketdi. Maqtovchi xotinlar keldilar. Kelin bilan kuyov darvozadan kirishi bilan, eshik tagida nota ushlab tayyor turgan hofizlar birdan qo'shiq boshladilar; atayin shahardan keltirilgan musiqa chalib yubordi. Baland bo'yli qadahlarda donning vijillab turgan vinolari keltirildi. Qalin qoshlari orasidan ko'zlari zo'rg'a ko'rinib turgan, baland bo'yli, qotmadan kelgan pudratchi usta Yelizarov kelin bilan kuyovga nasihat qilib, dedi:

– O'g'lim Anisim, qizim sen ham bir-biringizga ozor bermang, xafa qilmang, xudoning amridan chiqmasangiz, hech mahal xor bo'lmaysiz. – Bu so'zlarni aytib pudratchi chol boshini Grigoriyning yelkasiga qo'yib, yig'lab yubordi. – Grigoriy Petrov xursandlikdan yig'laylik! – dedi ingichka tovush bilan, so'ngra xaxolab kuldi. – Bu kelining ham ma'qul. Bekam-u ko'st, hech qayerda nuqsoni yo'q, hammasi joyida, chakki emas.

Bu mo'ysafid ustaning asli Yegorev uyezdidan edi, ammo yoshligidan beri Ukleyevo qishlog'idagi fabrikalarda ishlab, shu yerlik bo'lib qolgan qadimgi chol edi. Hamma vaqt uning aft-basharasi shunaqa, bo'yi novcha, qotma edi, shuning uchun ham uni yog'ochoyoq derdilar. Qirq yildan ortiqroq fabrikalarda faqat ustachilik ishi bilan shug'ullanganidanmi, har holda, birov to'g'risida gapirganda, biron narsa ustida so'zlaganda faqat uning mustahkamligini yoki bepandligini surishtirar edi. Stol oldiga o'tirayotganda ham avval birinchi stulni qimirlatib ko'rar, dasturxondagi baliqni ham ushlab qo'yardi.

Keltirilgan qadahni bir sidra ichib bo'lgandan keyin mehmonlar dasturxonga o'tirishdi. Stullarni surib, bir-birlari bilan gaplashar, ichkarida hofizlar ashula aytishar, musiqa chalar, hovlida xotin-xalajlar otinlik qilardi. Birov chinqirgan, birov baqirgan, xullas shovqin-suron g'alvadan bosh og'rir edi.

Boyagi yog'ochoyoq chol jim o'tirmay, stulini hali u yoqqa, hali bu yoqqa surar, yonidagilarni tirsagi bilan turtkilab gaplashgani qo'ymas, hali yig'lar, hali xaxolab kular.

– Chirog'larim, bo'talarim... Bo'tam Aksinya, Varvara, jigarlarim, hamjihat bo'laylik, ittifoq bo'laylik... – derdi g'uldurab.

Bu mo'ysafid ichkilikni kam ichardi, hozir bir ryumka ingliz arag'i ichishi bilan mast bo'lib qoldi. Nimadan qilingani noma'lum bo'lgan bu zahardek achchiq araq ichgan kishini darrov yumalatar edi. Hamma mast bo'lib, g'uldurab qoldi.

Mehmonlarning ichida ruhoniylar ham, xotini bilan kelgan gumashtalar ham, boshqa qishloqlardan kelgan savdogar va qovoqxonachilar ham bor edi. O'n to'rt yildan beri birga xizmat qilib kelayotgan va lekin bu muddatda bir qog'ozga ham qo'l qo'ymagan, mahkamalariga kelgan kishini aldamasdan, ranjitmasdan chiqazmagan volost boshlig'i va uning mirzasi yonma-yon o'tirar edi. Ikkovi ham bir-biridan semiz, to'q, ikkovining ham aft-basharasi shunday ediki, yolg'onchilik badanlariga juda singib ketganidan yuzlarining terisi ham allanechuk dog'ulilikla-ridan shahodat berib turardi. Volost mirzasining ozib, qotib ketgan g'ilay xotini bola-chaqalarining hammasini ergashtirib kelgan, xuddi olg'ir lochindek dasturxonga qing'ayib qarar, qo'liga tushgan narsani o'zining va bolalarining cho'ntagiga tiqar edi.

Lipa cherkovda qay holda o'tirgan bo'lsa, hali ham shu holda behushdek o'tirar edi. Anisim Lipa bilan tanishgandan beri haligacha u bilan gaplashgani yo'q, shuning uchun uning tovushi qanaqa ekanini ham bilmaydi. Hozir u yonida o'tirgan bo'lsa ham ingliz arag'ini indamay ichib o'tiribdi, xo'b ichib mast bo'lgandan keyin ro'baro'sida o'tirgan xolasiga so'z qotib dedi:

– Samorodov degan bir oshnam bor, ko'p ishbilarmon odam, obro'si baland, martabasi ulug' kishi, gapni ham o'rniga qo'yadi, ammo sizga aytsam xola, men uning hamma siridan voqifman. Bundan uning o'zi ham bexabar emas. Endi ikkovimiz Samorodovning sog'ligi uchun ichsak nima deysiz?

Varvara dasturxon atrofida yugurib-yelib yurar, mehmonlarga oling-oling qilar, lekin o'zi horigan, charchagan, parishonroq,

ammo dasturxondagi turli-tuman ovqatlarga qarab xursand bo'lar edi, chunki hech kim uning mehmondorchiligini ta'na qilib, aybsitolmaydi. Kun botib kech kirsa ham ziyofat davom etdi. Mehmonlar nima yegan – nima ichganlarini, gapirgan gaplarini bilmas darajaga yetdilar. Hech kimning gapi eshitilmas, faqat onda-sonda musiqa to'xtaganda hovlida baqirayotgan bir xotinning ovozi eshitilib qolar edi:

– Qonimizni xo'b ichdinglar, juvonmarglar, nega sizlarga qiron kelmaydi! – deb baqirar edi xotin.

– Kechqurun musiqa bilan o'yin boshlandi. Kichik Xriminlar o'z vinolarini ko'tarib keldilar. Ularning biri ikki qo'lida ikki shisha, og'zida ryumka bilan kadril o'yiniga tushib hammani kuldirdi. Kadrilga tushib turib, birdan boshqa o'yinni boshlab yuborardilar. Boshidan oyog'igacha ko'm-ko'k kiygan Aksinya hali u yoqqa, hali bu yoqqa lip-lip o'tib turar va uning uzun etagidan shamol ko'tarilar edi. Birov uning etak burmasini bosib olgan edi, buni ko'rib, boyagi yog'ochoyoq mo'ysafid usta baqirib:

– Hoy, etagingdagi shokildangni yulib oldi! Ey jigarlarim! – deb qo'ydi.

Aksinyaning baqrayib turgan soddagina ko'k ko'zlari hech yumilmas, og'zi doim iljayib turardi. Uning hech yumilmay baqrayib turgan ko'zlari, uzun bo'yni, kichkinagina boshi, tippa-tik g'oz turgan bo'yi ilonga o'xshabroq ketar edi. Ko'k kiyimi, ko'kragidagi sariq uqasi, tanobi qochib doim iljayib turgan og'zi – bahorda ko'karib yotgan bug'doy ichidan boshini chiqarib turgan ilonga o'xshardi. Birodaron Xriminlar Aksinya bilan juda opoq-chapoq edilar va shu sababdan Xriminlarning kattasi bilan allaqachondan beri orasi juda yaqin bo'lib ketganligi oshkor bo'lib turardi. Kar eri hech narsani payqamas, xotiniga boqmas ham edi. U ikki oyog'ini chalishtirib olib, to'pponcha otgandek qarsillatib yong'oq chaqish bilan ovora edi.

Bir mahal chol Sibukinning o'zi ham davra o'rtasiga tushib o'yin tushmoqchi bo'lganini bildirib, ro'molchasini bir-ikki silkitgan edi, ichkari va tashqaridagi odamlar qiy-chuv ko'tarib:

– O'zi chiqdi! O'zi! – deb qichqirishdi.

O'yinga Varvara tushdi. Chol eri qo'lidagi ro'molchasini silkitib, poshnasini dukullatar edi, xolos, hovlida gavjum bo'lib darchadan tomosha qilib turganlar, shu payt xursandlikdan uning boyligini, undan ko'rgan jabr-jafolarini unutdilar.

Tomoshabinlar orasidan:

– Qoyilman, barakalla, Grigoriy Petrov! Qandingni ur! Hali ham joyida ekansan, bor bo'l, barakalla! – degan ovozlar chiqdi.

Bu o'yin-kulgi allamahalgacha cho'zilib, soat birdan oshganda tamom bo'ldi. Anisim gandiraklab hofiz va sozandalar bilan xayrlasharkan, har qaysisiga yangi yarim so'mlikdan in'om qildi. Chol gandiraklamasdan sal siltanglanib, mehmonlarni kuzatarkan, hammaga:

– To'y ikki mingga tushdi, – derdi.

Mehmonlar tarqalayotganda Shikalova qishlog'idagi qovoqxona egasining yangi to'nini birov kiyib, eskisini tashlab ketibdi, degan ovoza tarqaldi. Bundan voqif bo'lgan Anisim tutaqib ketib:

– To'xta! Topmasdan qo'ymayman! O'g'rining kimligini bilaman! To'xta! – deb shovqin soldi.

Ko'chaga chiqib birovning orqasidan yugurganicha ketdi; keyin uni ushlab olib, qo'ltig'idan sudrab, hovliga olib keldilar. Mast, jahlidan qip-qizarib, terlab ketgan Anisimni orqasidan itarib, xolasi Lipani yechintirayotgan uyga kirgizib, eshikni yopdilar.

IV

Oradan besh kun o'tdi. Ketmoqchi bo'lib otlangan Anisim Varvara bilan xayrlashgani boloxonaga chiqdi. Varvara o'tirgan uydagi shamchiroqlarning hammasi yoqig'lik, hamma yoqdan xushbo'y hid kelar, Varvaraning o'zi deraza tagida o'tirib, qizil tivitdan paypoq to'qir edi. Varvara dedi:

– Nega buncha tez otlanib qolding, zerikdingmi? Voybo'... Hech narsadan kamchiligimiz, muhtojligimiz yo'q, yeganimiz oldimizda, yemaganimiz orqamizda, to'yingni ham xo'b yaxshi o'tkazdik, rasm-odatni bajo keltirdik. Otang to'yga ikki ming so'm sarf bo'ldi deydi. Qisqasi hech bir savdogar boydan kamligimiz yo'q, faqat zerikamiz, shunisi bor. Xalqqa ko'p ozor

beramiz. Bo'tam, xalqqa yomon jabr qilamiz, shunga yuragim siqiladi. Xudo o'zi kechirsin! Otimizni alishtirsak ham, sotsak-olsak ham, bironta xizmatkor olsak ham aldamasdan qo'ymaymiz. Do'konda sotilayotgan oqlama moyimiz achchiq, bo'rsigan, boshqalarning aravaga surtadigan qora moyi ham biznikidan yaxshi. Axir, insof qilib o'zing aytsang-chi, yog'ning yaxshisini sotsak bo'lmaydimi?

– Oyi, har kimning hunari!

– Axir, o'lim bor-ku orada! Qandoq qilay, voy-voy, axir, otangga aytsang-chi!

Siz aytganingiz ma'qul.

– E-e! Men aytganim bilan nima derdi, sendaqa har kimning hunari, – deydi qo'yadi. Axir, oxiratda har kimning hunari, deb qo'ya qolinmas, xudo odil.

– Albatta, oxiratda buni hech kim surishtirib o'tirmaydi, oyi, baribir, xudo yo'q-ku, surishtirish nimasi! – dedi Anisim, keyin bir uh tortib qo'ydi.

Varvara uning basharasiga hayron bo'lib qarab, kulib yubordi, keyin qo'lini siltab qo'ya qoldi. Onasining nihoyatda ajablanib, unga tentak degandek qaraganiga Anisim izza bo'lib, dedi:

– Ehtimol, xudo bordir, lekin din yo'q. Nikoh vaqtida men o'z fikrim bilan ovora edim. Tuxum bosib yotgan tovuqning tagidan tuxumini olganda tuxumdan chiqmagan jo'ja chiyillagandek nikoh o'qiyotgan vaqtda mening ham vijdonim birdan chiyillab ketdi, xudo bormikin, degan fikr xayolimdan ketmaydi. Lekin cherkovdan chiqishim bilan sal yozildim. Xudoning bor-yo'qligini men qayerdan bilay. Bizlarni bolalik chog'imizdan boshlab bu xil narsalarga o'rgatmadilar. Emchakdan ayrilmagan bolaga ham faqat har kimning hunari degan gapni o'rgatdilar, xolos. Otam ham haqiqatda Xudoga ishonmaydi. Bir kun siz menga Guntorevning qo'yi o'g'irlanibdi, degan edingiz. Men topdim, Shikalova qishlog'idagi bir kishi o'g'irlagan ekan. O'g'irlagan birov-ku, terilari dadamning do'koniga kelib qopti... Din-insof ana shu!

Anisim ko'zini qisib qo'yib, boshini chayqadi.

– Qishlog'imizning kattasi ham, mirzasi ham, dyachogi ham xudoga ishonmaydi. Cherkovga borib cho'qinishlari, ro'za tutishlari hammasi xo'jako'rsinga, riyokorlik, mabodo qiyomat qoyim bo'lib qolsa, rasvo bo'lmaylik, deb qo'rqqanlaridan qilgan ishlari. Oxirzamon bo'ldi, xalqning dili susaydi, bolalar ota-onalarini, kichiklar kattalarni hurmat qilmaydilar, shundaqa shumliklardan qiyomat yaqin kelib qoldi, deydilar. Bu gaplarning barisi yolg'on. Oyi, mening tushunganim shunchalikki, bu shumliklar hammasi odamlarda insof qolmaganidan. Men hammasidan voqifman, aqlim yetadi. Agar birovning egnidagi ko'ylagi o'g'irlik bo'lsa ko'zim darrov ko'radi. Birov qovoqxonada o'tirgan bo'lsa sizdaqa odam ko'rganda: choy ichib o'tiripti, deydi qo'yadi, lekin men bo'lsam uning vijdoni ham yo'qligini bilaman. Ertadan kechgacha izg'ib yurib, bitta ham vijdonli odamni ko'rmayman. Bu ishlarning hammasi shundanki, bu vijdonsizlar xudoning bor-yo'qligini bilmaydilar... Xo'sh, endi xayr, oyi, sog'-salomat bo'ling, yomon-yaxshi gapirgan bo'lsam rozi bo'ling.

Anisim Varvaraning oyog'iga ta'zim qilib, minnatdorlik bildirdi.

– Oyi, qilgan yaxshiliklaringiz uchun minnatdorman. Bizning urug'imiz sizdan ko'p manfaat ko'rdi. Ko'p yaxshi xotinsiz, men sizdan juda xursandman.

Anisim ko'ngli buzilib, o'pkasi to'lib tashqariga chiqdi, ammo birozdan keyin qaytib kelib, oyisiga dedi:

– Samorodov meni bir chatoq ishga tiqib qo'ydi, bu ishdan yoki boy bo'lib ketaman yoki rasvo bo'laman. Mabodo bu ish tufayli biror hodisa bo'lsa oyijon, siz otamning ko'ngliga tasalli bering.

– Yomon niyat qilma, qo'y! Sho'rim qursin.... Xudoning dargohi keng. Sen, Anisim, xotiningga sal yaxshiroq qarab silab-siypa, erkalat, ikkovingiz ham bir-biringizga tumshayganingiz-tumshaygan, sal chiroyingizni ochib kulsangiz nima qiladi.

– Xotinim juda g'alati... – dedi Anisim uh tortib. – Hech uquvi yo'q, indamasdan o'tiraveradi. Juda g'o'r, yosh. Mayli, biroz o'ssin.

Baland bo'yli semiz jiyron ot qo'shilgan arava eshik tagida tayyor turar edi.

Chol Sibukin yugurib kelib oliftalik bilan aravaga chiqib, tizginni ushladi. Varvara, Aksinya va ukasi bilan Anisim o'pishib xayrlashdi. Lipa ham eshik tagidagi zina ustida turar edi. U erini kuzatgani emas, o'zi shunchaki chiqqan odamdek har tarafga alanglab turar edi. Anisim uning oldiga kelib, lablarini yuziga sal tekizib o'pgach:

– Xayr, – dedi.

Lipa eriga qaramasdan turib allanechuk iljaydi. Yuzlari titradi. Buni ko'rganlarning negadir uning holiga rahmi keldi. Anisim ham irg'ib aravaga chiqib, biqinini ushlab o'tirib oldi, chunki u ham o'zini xushro'y deb bilardi.

Soylikdan yuqoriga chiqqach Anisim dam-badam orqasiga qarab qishloqni tomosha qilardi. Havo iliq, osmon ochiq, bugun birinchi kun poda dalaga chiqqan, mollarning atrofida yasangan qiz-juvonlar, xotin-xalajlar aylanishib yurishardi. Qoramtir targ'il buqa yaylovda yayrab bo'kirar, oldingi oyog'i bilan yer qazirdi. Yer va ko'kda to'rg'aylar sayrar. Anisim yaqindagina bo'yalgan baland cherkovga qarab, bundan besh kun avval u yerda ibodat qilgani esiga tushdi. Ko'k tomli maktabga, bir vaqtlarda o'zi qarmoq solib baliq tutgan, cho'milgan soyga qaradi. Ko'nglida allaqanday shodlik tug'ildi va bu chog'da ko'nglida: oldimda bir baland devor paydo bo'lib, yo'limni to'ssa-yu, boshqa hech narsa ko'rmasam, shu ko'rganlarim bas bo'lsa, o'tmishim bilan qola qolsam, dedi.

Stansiyaga kelgach bufetga kirib bir ryumkadan xeres vino ichdilar. Chol pul to'lamoq uchun kissasiga qo'l solgan edi, Anisim:

– Yo'q, men to'layman! – dedi.

Cholning ko'ngli ko'tarilib, Anisimning yelkasiga qoqib qo'ygach, bufetchiga qarab, qanday o'g'lim bor-a, degandek ko'zini qisib qo'ydi.

– O'g'lim, ketmasdan uyda qolsang, ishimizni qo'lga olsang yaxshi bo'lardi, juda bebaho odam bo'larding! Seni men boshingdan oyog'inggacha zar quyardim.

– Dada, hech iloji yo'q.

Xeres biroz nordonroq, surg'ich hidi kelar edi, ammo shunday bo'lsa ham yana bir ryumkadan ichdilar.

Chol o'g'lini kuzatib stansiyadan qaytib kelgach, kichik kelinini taniyolmay qoldi. Eri hovlidan chiqib ketishi bilan Lipaning chehrasi ochilib ketibdi. Eski yubkasini kiyib olib, yengini kiftigacha shimarib, yalangoyoq, dahlizni yuvib turgan ekan. Mayin ovoz bilan qo'shiq aytib, katta tog'orani loyqa suv bilan ko'tarib chiqayotganda, ma'sum go'daklardek oftobga qarab iljayganda, osmonda yurgan to'rg'aylarga o'xshab ketdi.

Eshik oldidan o'tib ketayotgan keksa xizmatkor boshini chayqadi va g'o'ldirab:

– Grigoriy Petrov, xudo sanga xo'b yaxshi kelin berdi-da. Xotin emas, yombi! – dedi.

V

Yog'ochoyoq Yelizarov va Lipa sakkizinchi iyul, juma kuni Kazanskoye qishlog'idagi cherkov bayrami munosabati bilan ibodatga borib, uyga qaytayotgan edi. Ularning orqasidan ancha narida Lipaning onasi Praskovya ham kelar, u betob bo'lib, harsillab, keyinroqda qolgan edi. Vaqt ham kech bo'lib qolgan edi.

Yog'ochoyoq Lipaning gapini eshitganda taajjublanib.

– A-a-a!.. Shunaqami... Xo'sh, xo'sh, qani gapir, – deb qo'yar edi.

– Ilya Makarich, men o'zim murabboni juda yaxshi ko'raman. Bir burchakka o'tirib olib murabbo bilan choy ichganim-ichgan. Gohida Varvara Nikolayevna bilan birga o'tirib choyxo'rlik qilamiz. U kishi har xil ertaklar so'zlab beradilar. U kishining murabbosi ko'p, to'rt banka. «Lipa, tortinmasdan yeyaver», deydilar.

– A-a-aa!.. To'rt banka!

– Davlatlari joyida, choyni oq bulka bilan ichishadi, mol go'shti ham mo'l, ro'zg'orlari bikir, faqat, sizga aytsam Ilya Makarich, bu uyda doim vahimadaman, juda qo'rqaman!

– Bolam, nimadan qo'rqasan! – deb so'radi mo'ysafid, keyin Proskovya qayerda qoldiykin, deb orqasiga qayrilib qaradi.

– Avvali shuki, to'ydan keyin Anisim Grigorichdan yuragim cho'chib qoldi. U kishi-ku meni hech narsa qilib ranjitganlari yo'q, lekin qachonki menga yaqinlashsa badanim uvushib, suyak-suyaklarim zirqirab ketadi. Bir kecha ham uxlaganim yo'q. Qo'rqqanimdan qaltirab, xudo dedim, xolos. Endi Ilya Makarich, sizga aytsam, Aksinyadan qo'rqaman. U-ku o'zi yomon emas, hamma vaqt kulib turadi, biroq gohida oynadan o'qrayib qarab qo'ysa, ko'zlari og'ilxonadagi qo'ynikidek ko'm-ko'k yonib ketadi. Kichik Xriminlar uni yo'ldan ozdirishayapti. «Qaynatangning Butyokinoda qirq botmoncha yeri bor, yer deganda ham qanday yerki, suvlik, qumlik yer. Sen, Aksinya, o'z nomingdan shu yerga xumdon sol, bizlarni o'zingga sherik qilib ol», deydilar. Hozir g'ishtning mingi yigirma so'm, omadi yurishgan ish. Kecha ovqat yeb o'tirganimizda Aksinya qaynatamizga, «Butyokinoga men xumdon solaman o'zim yurgizaman», deb kulib qo'ydi... Grigoriy Petrovichning rangi o'chib ketdi. Uning gapi yoqmadi shekilli: «Men tirik borman, hech qaysingni ayirmayman, hammang bir uylik bo'lib turaverasan», dedilar. Aksinyaning ko'zlari chaqchayib, tishlari g'ijirlab ketdi... Quymoq keltirib berdilar, yemadi!

Chol ajablanib:

– A-a-aa! Yemadi degin! – deb qo'ydi.

Lipa so'zida davom qildi:

– U qurg'urning uxlaganini ham bilib bo'lmaydi. Yarim soat o'tar-o'tmas, darrov turib, izg'iy boshlaydi. Bitta-yarimta o't qo'yib ketmadimi, bir narsani o'g'irlamadimi, deb tashvish qilaveradi... Ilya Makarich, sizga aytsam, men undan juda qo'rqaman! Kichik Xriminlar to'ydan keyin, uxlamasdan ham, to'ppa-to'g'ri shaharga sudlashgani ketdilar. Odamlar bu gaplarning hammasini Aksinyadan ko'radilar. Ikki og'a-ini unga xumdon qurib bermoqchi bo'pti, uchinchisi bundan xafa bo'lib, o'rtada bir oydan beri fabrika to'xtab qoldi. Buning orqasida Proxor amakim ishsiz qolib, eshikma-eshik gadoychilik qilib yuribdi. Men amakimga: bekor yurmasdan ekin-tikin qilsang bo'lmaydimi, tirikchilikning aybi yo'q! – dedim. U menga «Halol ishdan chiqib qolibman,

hech ishga bo'ynim yor bermaydi, Lipinka!» deydi. Yosh butalar o'sgan chakalakzorga kelganda dam olgan va Proskovyani kutgani o'tirdilar. Yelizarov ko'p zamonlardan beri pudratchilik qilsa ham mingani oti yo'q, hamisha yayov yurar, bitta xaltaga non bilan piyoz solib, yelkasiga tashlab ketaverar; yurganda ham qadamini uzun tashlab, qo'llarini kerib yurar, shuning uchun unga hamroh bo'lgan odam yetib yurolmas edi.

Chakalakzor oldida yerga qadalgan bir yog'och bor edi, Yelizarov yog'ochning mahkamligini bilmoq uchun uni qimirlatib ko'rdi. Shu paytda harsillab Proskovya ham yetib keldi. Uning bujmaygan va hamisha xavf-xatarda turgan chehrasida shodlik alomati bor edi. Chunki bugun ham odam bo'lib u ham cherkovga kirdi, bozor aylanib, nok suvidan qilingan kvas ichdi. Bunday baxtli kunlar uning umrida nihoyatda kam bo'lardi. Hatto bugun uning nazarida endi birinchi marta rohat qilib yashagandek edi. Biroz dam olgandan keyin uchovlari birga yo'lga tushdilar. Kun botib, oftob shu'lasi daraxtlarga tushib turar edi. Oldinda odamlarning shovqinlashgani eshitildi. Ukleyevo qishlog'idan kelgan qizlar allaqachon o'tib ketgan edi, lekin chakalakzorda yurgan ekanlar, qo'ziqorin tergan bo'lsalar kerak.

Yelizarov:

— Hoy, qizlar! Hoy, nozaninlar! – deb baqirdi. Qizlar xaxolashib kulishib:

– Yog'ochoyoq kelayapti! Betovfiq chol kelayapti! – dedi.

Qizlarning kulgisi aks sado berdi. Birozdan keyin chakalakzor ham orqada qoldi. Fabrikalarning mo'risi, cherkov qo'ng'iroqxonasi tepasidagi xochlar yarqirab ko'rindi. Bu esa – «ma'rakaga kelgan dyachok ikraning hammasini yeb qo'ygan qishloq»ning o'zi edi. Bora-bora uylarning tomi ham ko'rindi, qishloq juda yaqin qoldi, soyning ichiga tushilsa qishloqqa kirilardi. Yalangoyoq bo'lib kelayotgan Lipa bilan onasi Praskovya oyoqlariga kiyib olmoq uchun o't ustiga o'tirdilar, pudratchi chol ham ular yoniga borib o'tirdi. Soy tepasidan turib qaralsa qishloqning katta-katta tollari, oppoq cherkovi, soyi juda chiroyli ko'rinar edi. Xasislikdan qoraga bo'yalgan fabrika tomlari xunuk qilib turmasa, qishloq ham chiroyli

edi. Soyning narigi bag'riga ekilgan qora bug'doy bo'ron sochib yuborgandek to'p-to'p bo'lib, har qayerda yotar, yaqindagina o'rilib, hali bog'lanmagan bug'doylar ko'rinib turar, suli ham allaqachon pishib, kunning shu'lasidan sadafdek tovlanar edi. O'roq qistov vaqti edi. Bugun bayram, ertaga shanba kuni bug'doy o'rmoq, poxol tashimoq, indinga yakshanba, yana bayram. Har kun uzoqda chaqmoq chaqib, momaqaldiroq bo'lib turar, havo dim, osmonning yomg'ir yog'adigan vajohati bor edi. Har kim ekinlarga qarab, xudo havoni bersa, don-dunlarni yig'ishtirib olsak, derdi. Hammaning dimog'i chog', ko'ngli xursand, yuragida tezroq yig'ishtirib olsak, degan tashvish.

– Bu yil o'roqchilar qimmat, kuniga yetti tangadan, – dedi Praskovya.

Kazanskoye qishlog'idagi bozordan qaytgan odamlar hali ham to'xtamasdan kelmoqda. Yasangan xotin-xalajlar, yangi shapka kiygan fabrika ishchilari, beva-bechora gadoylar, bola-chaqalar kelar edi... Goho ko'chaning changini ko'tarib aravalar o'tib qolardi, aravaning orqasida bozordan qaytgan ot, sotilmasdan qolganiga quvongandek o'ynab kelar edi. Yurgani unamay, tixirlik qilayotgan sigirni birov shoxidan sudrab kelayapti, birov oyog'ini osiltirib o'tirib olgan mastlarni solib olgan aravasini choptirib kelayapti. Bir kampir boshiga kattakon shapka, oyog'iga katta etik kiyib olgan o'g'il bolani qo'lidan ushlab yetaklab kelayapti; bola kunning issig'idan, etigining kattaligidan va og'irligidan tizzasini bukolmay oyog'ini zo'rg'a ko'tarib qo'yayotgan bo'lsa ham, surnayini og'zidan qo'ymay chalar edi. Soylikdan pastga tushib ko'chaga burilganda ham surnayining ovozi kelar edi.

– Bizning xo'jayinlarimizga bir balo bo'ldi... – dedi Yelizarov, – ish chatoq! Kostyukov mendan xafa. «Karnizga taxtani ko'p ishlatib yuboribsan», deydi. Men nega ko'p bo'lsin, Vasiliy Danilich, kerakligidan ortiq ishlatganim yo'q, deb edim, shundan mojaro boshlanib ketdi. Men, axir taxtani pishirib yemagandirman, deb edim, «Ablah, menga shunday gaplar aytgani qanday tiling bordi. Sen haddingdan oshma! Seni pudratchi qilgan men bo'laman!» deb koyib ketdi. Men ham, ana xolos, pudratchi bo'lib

ham har kuni ichishim choy edi, hali ham shu, dedim. «Hammangiz bir-biringizdan besh battar muttahamsiz...» degan so'zlarni ham qildi. Lekin men bir gapdan qola qolay dedim. Ko'nglimda, bizlar-ku bu dunyoda muttahammiz-a, lekin sizlar u dunyoda muttaham bo'lasiz, dedim. Ertasiga dabdabasidan tushibdi. «Sen, Makarich, mendan xafa bo'lma, aytgan so'zlarimga ranjima. Agar men bir-ikki kalima ortiqcha so'zni aytib yuborgan bo'lsam, yoshim sendan ulug', o'zim pervoy geldi savdogarman, sen bir so'zdan qolishing kerak edi», dedi. Men, albatta, siz pervoy geldi boysiz, men anchayin bir ustaman, bunisi to'g'ri, ammo Yusuf payg'ambar ham duradgor usta edi. Bizning kasbimiz tabarruk, halol kasb, lekin sendan kattaman desangiz, Vasiliy Danilich, bu gapingizga iqrorman, dedim. Ikkovimiz o'rtamizda bo'lib o'tib ketgan bu gaplardan keyin men tanamga o'ylab ko'rdim, kim katta? Birinchi geldiya savdogari kattami yoki duradgor ustami? Chirog'larim, albatta, usta katta bo'lsa kerak!

Yog'ochoyoq biroz o'ylab turib, yana dedi:

– Chirog'larim, gap shu, kim mehnat qilsa, kimki jabr-jafoni ko'p tortsa o'sha katta.

Kun botdi, soy tepasida cherkovning devorlari va fabrikalar oldidagi yalangliklarni sutdek oppoq tuman bosdi... Bir lahzada qorong'ilik tushib, soylikda chiroqlar miltillay boshladi. Hamma yoqni bosgan tuman endi tagsiz jarlikni bekitib turgandek ko'rinardi. Qashshoqlikda tug'ilib, qo'rqib, yurak oldirib qo'ygan, vayron dillaridan boshqa hamma bor-yo'qlarini boshqalarga berib, umr bo'yi bechoragarchilikda qolishga rozi bo'lgan Lipa bilan onasi, bu chog'da sirlar ichiga botgan bepoyon olamdagi son-sanoqsiz jonivorlar qatorida «bizlar ham bir maxluqmiz», degan xayolni ko'ngillaridan kechirgan bo'lsalar kerak; soy tepasida o'tirishning ularga gashti bor edi, bu chog'da o'zlarini baxtiyor bilib quvonar, hatto soylikka tushmasdan ilojlari yo'qligini ham unutdilar.

Axiri uylariga qaytib keldilar. Darvozaxonada, do'kon oldida o'roqchilar o'tirardi. Ukleyevo qishlog'ining o'zidagi o'roqchilar, odatda, Sibukinning ishini qilmasdilar va shu sababdan boshqa qishloqdan o'roqchi olardi. O'tirgan o'roqchilar qorong'ida

uzun-uzun qora soqolli odamlarga o'xshab ko'rinardi. Do'kon ochiq, ichkarida bir bola bilan kar damka o'ynayotgani ko'rinib turardi. O'roqchilar sekin-sekin ovoz chiqarib, ohista-ohista qo'shiq aytar; dam-badam shovqinlab, kechagi mardikor pulini qistardilar, ammo ularni ertaga ham ketkizmasdan ishlatmoq uchun haqlarini bermay turardilar. Chol Sibukin faqat nimcha kiyib Aksinya bilan eshik oldidagi daraxt tagida choy ichib o'tirar, stolda chiroq yonib turardi.

Darvoza orqasidan bir o'roqchi Sibukinni mazax qilgandek:

– Hoy, buva, hech bo'lmasa pulimizning yarim-yortisini berib tur! Hoy, buva! – derdi.

Bu gapdan keyin darrov xaxolab kulishardi, keyin yana sekin-sekin qo'shiq aytardilar... Yog'ochoyoq choy ichmoqchi bo'lib ular yoniga borib o'tirdi va so'z boshladi:

– Bozorga bordik, chirog'larim, xudoga shukur, juda yaxshi sayl qilib qaytdik. Biroq bir xunuk gap bo'ldi. Temirchi Sashka ozroq tamaki olib do'kondorga yarim so'm berib edi, bergan yarim so'lkavoyi qalbaki chiqib qoldi, – dedi. Bu so'zni aytib Yog'ochoyoq u yon, bu yoniga alanglab qo'ydi. Ovozini chiqarmasdan ohista gapirmoqchi bo'ldi-yu, lekin xirillab qolib, gapini hamma eshitdi.

– Bergan yarim so'lkavoyi qalbaki ekanligi bilinib qolib, darrov qayerdan olding, deb surishtirib ketdilar. Menga Anisim Sibukin berib edi, to'yga borganimda bergan edi... dedi. Darrov mirshabni chaqirib, dakanglatib olib ketdilar... Petrovich, ehtiyot bo'l, yana biron gap chiqib qolmasin...

Darvoza orqasidan haligi masxara qilib gapirayotgan o'roqchining ovozi yana chiqdi:

– Hoy, buva! Hoy, buva!

U jim bo'ldi. Yog'ochoyoq yana tilga kirdi:

– Ey, chirog'larim, chirog'larim... – deb g'ulduraganicha o'rnidan turdi. Uni uyqu yengib, mudroq bosdi.

– Chirog'larim, choyingiz va qantingiz uchun rahmat, endi borib uxlay. Qarib shartim ketib partim qolibdi, hech sog' joyim yo'q, voy, voy! – deb qo'zg'aldi.

– O'lim ham yaqinlashib qolganga o'xshaydi! – deb qo'ydi ketayotib.

Cholning ko'ngli buzilib, o'pkasi to'ldi. Keksa Sibukin quyilgan choyini ichib tamom qilmay, xayol surib o'rnidan turmay o'tiraverdi. Uning basharasi allaqachon ko'chaga chiqib ketgan Yog'ochoyoqning oyoq tovushiga quloq solib turganga o'xshardi.

Aksinya qaynatasining nima xayolda ekanini fahmlab:

– Temirchi Sashka yolg'on aytgan bo'lsa ham ajab emas, – dedi.

Sibukin uyiga kirib ketib, birozdan keyin bir tugunchani ko'tarib chiqdi; tugunni ochib edi, yiltirab turgan yap-yangi so'lkavoylar ko'rindi. U so'lkavoyning bittasini tishlab, keyin patnisga tashlab ko'rdi, so'ngra yana birini olib, haligiday patnisga tashlab ko'rdi...

Hayron bo'lib, taajjubda qolgandek Aksinyaga qarab turib:

– So'lkavoylar darvoqe qalbaki ekan... Anisim sovg'aga keltirgan so'lkavoylari shu-da... Qizim, bularni sen olib qo'y, – deb shivirlab tugunchani Aksinyaga tutqazdi. – Olib borib quduqqa tashla, qurib ketsin! Ehtiyot bo'l, damingni chiqarma, yana bir balo bo'lmasin... Samovarni ol, chiroqni o'chir...

Omborxonada o'tirgan Lipa bilan Praskovya chiroqlarning birin-ketin o'chganini ko'rdilar, faqat Varvaraning boloxonasida ko'k, qizil shamchiroqlar yonib turardi, u yerda osoyishtalik, farovonlik va bexabarlik alomati aks etardi. Praskovya qizi Lipaning boylarga tushganiga hech ko'nikolmas va qizinikiga kelganda tortinib, ichkariga kirmasdan, g'arib kishidek dahlizda o'tirar, iltimos qilganday jilmayar edi. Choy-qandni dahlizga olib chiqib berardilar. Lipa ham yangi uyiga ko'nikolmadi, eri jo'nab ketgandan keyin o'z o'rnida yotmasdan, oshxonadami, omborxonadami, duch kelgan yerda yotib yuraverdi. Har kuni kir yuvar, uylarni tozalar, nazarida hali ham mardikor ishlayotganday edi. Ibodatdan qaytib kelgach, oshxonaga kirib, oqsoch xotin bilan birga choy ichgandan keyin bostirmadagi chana bilan devor orasiga kirib yerga joy solib yotdilar. Chiroq yo'q, qorong'i, xomut hidi kelib turardi. Uning oldidagi chiroq ham o'chdi. Karning do'konni bekitgani, o'roqchilarning hovliga yotgani eshitildi. Kichik

Xriminlarnikidan qimmatbaho garmonning ovozi eshitilardi... Praskovya bilan Lipa uyquga kirdilar.

Birovning oyoq tovushi ularni bezovta qilib uyg'otganda oy to'lib qolgan edi. Bostirmaning eshigi oldida qo'lida ko'rpa-yostiq bilan Aksinya turibdi.

– Bu yer salqinroqqa o'xshaydi... – dedi-da, shundoqqina ostona tagiga joy solib yotdi, unga oy nuri tushib turardi.

Aksinya issig'lab, uxlolmay, ustidagi ko'rpalarni olib tashladi, dam-badam uh tortib qo'yardi. Oydin kechaning yorug'ida allaqanday chiroyli, basavlat bir hayvondek ko'rinardi. Bir muddat o'tar-o'tmas yana oyoq tovushi eshitilib, oppoq oqarib eshikdan kirib kelgan chol ko'rindi.

Aksinya! Shu yerdamisan?

Aksinya jahl bilan:

– Nimaydi! – dedi.

– Men senga kecha pullarni quduqqa tashla, deb edim, tashladingmi?

– Nega endi dunyoni quduqqa tashlayman? O'roqchilarga berdim...

Chol vahimaga tushib, hayron bo'lib:

– Ey, Xudoyim! Juda battol xotinsan-da... Ey, Xudoyim! – deb qo'ydi.

Qo'lini siltab, o'z-o'zi bilan gaplashib chiqib ketdi. Birpasdan keyin Aksinya o'tirib, afsus va nadomat bilan, qattiq-qattiq uh tortib qo'ydi. Keyin o'rnidan turib, ko'rpa-yostig'ini quchoqlab, chiqib ketdi.

– Onajon, nega meni shu uyga berding! – dedi onasiga qarab Lipa.

– Qizim, erga tegish qizlarning peshonasida bor. Buni men rasm qilganim yo'q.

Behad va bepoyon qayg'u-hasrat ikkovining ham ko'nglini vayron qilgudek edi. Lekin yuqoridan, yulduzlar makoni bo'lgan ko'm-ko'k osmondan birov ularni ko'rib, Ukleyevo qishlog'ida bo'layotgan har bir ishdan xabardor bo'lib poylab turganga o'xshardi. Yorug' dunyoda yomonlik har qancha ko'p

bo'lsa ham, haqqoniyat ham bor, bu haqqoniyat ham kechaning go'zalligidek go'zal va kechaning sokinligidek sokin. Oy nuri kechaning qorong'isi bilan qo'shilib ketgandek, yer yuzida bor narsalar ham haqqoniyat va adolat bilan qo'shilmoq fursatini kutadi. Ikkovining ham ko'ngli orom topib, bir-birining pinjiga kirib uxladilar.

VI

Anisimni, qalbaki pullar yasagani va ularni tarqatgani uchun turmaga tiqib qo'yganliklari to'g'risida xabar kelganiga ancha bo'ldi. Bir oy o'tdi, yarim yildan ham oshib ketdi, uzoq qish o'tib bahor keldi. Anisimning allaqachondan beri turmada yotganiga uning uyidagilari ham, qishloqdagilar ham ko'nikib qoldilar. Birov kechasi ularning uyi yoki do'koni oldidan o'tib ketayotgan bo'lsa, Anisimning qamoqda yotgani esiga tushardi. Qo'ng'iroq chalinganda ham negadir Anisimning qamoqda yotgani va yaqinda sud bo'lishi esga tushardi.

Hammaning nazarida bu uyni qora bosgandek ko'rinardi. Uydan fayz ketdi, tomini zang bosdi, do'konning tunuka qoplangan, ko'kka bo'yalgan eshigi eskib, kar aytgandek «tob tashlab», baqavli, keksa Sibukin kabi qorayib qoldi, u ham qorayib ketganga o'xshardi. Necha vaqtlardan beri soch-soqolini oldirmas, mo'ylovlari o'sib ketgan, aravaga o'tirganda eski oliftachiligini qilmas, sakrab chiqmas, eshigidagi gadoylarga: «Xudo bersin!» demas edi. Kuch-quvvati ketib, munkayib, bedarmon bo'lib qolganligi har bir ishidan ko'rinib turar edi. Odamlar ham avvalgidek izzat qilmaydigan, tap tortmaydigan bo'lib qoldilar. Mirshab ham avvalgidek porani haligacha olib turgan bo'lsa ham, do'konni bayonnoma qildi, yashirincha araq sotgani uchun sud qilmoqchi bo'lib uni uch marta shaharga chaqirdilar; ammo har gal guvohlar kelmaganidan sud qolib, chol ko'p sarson bo'ldi.

Sibukin o'g'lining oldiga ko'p qatnadi, birovni yollab kimgadir ariza berdi, nazr-niyozlar, xayr-ehsonlar qildi. Anisim qamalgan turma boshlig'iga «ko'ngil o'z haddini biladi», degan ibora yozilgan kumush stakan bilan uzun kumush qoshiq tuhfa qildi.

Varvara uyda o'tirib, dedi:

– Tuzukkina harakat qiladigan odam yo'q, sho'rim qursin... Bironta amaldor odamdan iltimos qilinsa, tepamizdagi ulug'larga ariza berilsa yaxshi bo'lardi. Hech bo'lmasa sudgacha kafilga berardilar! Bola faqir juda ezilib ketdi!

Anisimning qamalganiga Varvara juda xafa bo'lsa ham ancha semirib, oppoq oqarib ketdi, hali ham uyida shamchiroqlar yoqar, uyini pokiza tutar, kelgan mehmonlar oldiga murabbolar, olma, halvolar qo'yar edi. Kar bilan Aksinya do'kondorlik qilardi. Aksinya Butyokinoda yangi xumdon solmoq harakatiga tushib, har kuni tarantasda xumdon tepasiga borib kelar, tarantasni o'zi minardi. Yo'lda bironta tanishni ko'rib qolsa, barra bug'doy ichidan boshini chiqarib turgan ilondek bo'ynini cho'zib, ko'nglida bir sirni bilgandek iljayib kulib qo'yardi. Lipa bo'lsa ro'zaga yaqin tug'ib olib, ermagi bola bo'lib qoldi. Bolasi ozg'in, zaif, yig'lashi ham, qarashi ham, hatto odam qatoriga sanab Nikifor ot qo'yganlari ham kishiga g'alati ko'rinardi. Lipa bolani belanchakka yotqizib qo'yib, o'zi eshik yoniga borar va:

– Salomalaykum, Nikifor Anisimich! – deb salom berar edi.

Keyin yugurib kelib o'pardi, yana eshik tagiga qaytib borib haligidek:

– Salomalaykum, Nikifor Anisimovich! – derdi.

Bola qip-qizil oyoqlarini ko'tarib yig'lar, usta Yelizarovnikiga o'xshab uning yig'isi bilan kulgisi bir edi.

Oqibat sud kuni tayin bo'ldi. Chol suddan besh kun ilgari jo'nab ketdi. Keyin qishloqdagilardan bir necha kishini guvohlikka olib ketganliklari ovoza bo'ldi. Sibukinning eski xizmatkoriga ham chaqiriq qog'ozi kelib, u ham jo'nab ketdi.

Sud payshanba kuni bo'ldi, lekin oradan bir necha kun o'tib, dushanba kelib qolgan bo'lsa ham, chol qaytib kelmadi va hech bir daragi yo'q edi. Seshanba kuni kechqurun Varvara derazalarni ochib, chol kelib qolarmikin, degan umid bilan ko'chaga quloq solib o'tirib edi, narigi uyda bo'lsa, Lipa bolasi bilan o'ynab, uni irg'itib-irg'itib xursandligidan derdi:

– Kattakon kishi bo'lasan, ikkovimiz birga mardikor ishlaymiz!

Buni eshitgan Varvara koyib:

– Hoy, bu nima deganing, mardikoring nimasi, ahmoq? Katta savdogar bo'ladi!... – derdi.

Lipa sekin-sekin qo'shiq aytib turdi-da, birozdan keyin Varvaraning gapi esidan chiqib:

– Kattakon bo'lasan, birga-birga mardikor ishlaymiz! – degan gapini yana takror qildi.

– Hoy, hoy tag'in nima deb javrayapsan?

Lipa qo'lida bolasi bilan eshik oldida turib so'radi:

– Oyi, nega bola muncha shirin-a? Muncha unga mehrim baland? – deb ovozi tutilib, ko'ziga jiq-jiq yosh to'ldi. – Kim bu, qanaqa bola, osmonda uchib yurgan patdek yengil, o'zi bir burdagina, lekin biram yaxshi ko'raman-ey, nazarimda tuppa-tuzuk odamga o'xshaydi. Tili yo'q, hech narsa gapirmaydi-yu, ammo ko'zlarini javdiratib turganda nima deganini tushunib turaman.

Stansiyaga yaqinlashib qolgan kechqurungi poyezdning ovozi eshitilib qoldi. Varvara erim kelarmikin, deb quloq solib turdi. Lipaning gapi uning qulog'iga kirmas, uning nima deyayotganiga e'tibor ham bermas edi. Vaqtning o'tib ketganini ham fahmlamas, a'zoyi badani titrar, qo'rqqanidan yoki vahimasidan emas, voqeaning nima bo'lganini bilmoqchi bo'lib juda ajabsinganidan titrardi. Liq to'la odam tushgan aravaning taqir-tuqir qilib tez o'tib ketganini ko'rdi, bular stansiyadan qaytib kelayotgan guvohlar edi. Arava do'kon oldidan o'tib ketayotganida Sibukinning eski xizmatkori irg'ib tushib, hovliga kirib ketdi. Hovlida undan gap so'rayotganlari, u bilan so'rashayotganliklari eshitilib turar edi...

– Huquqdan mahrum qilinib, mol-mulki tortib olinsin, o'zi olti yil Sibirga katorga ishiga yuborilsin, deb hukm bo'ldi, – dedi u shovqinlab.

Birovga kerosin sotayotgan Aksinya do'konning orqasidagi eshikdan bir qo'lida shisha, bir qo'lida cho'mich bilan, og'zida bir tanga pulni tishlab chiqib keldi.

– Dadam qani? – deb so'radi labini shipillatib.

– Stansiyada qoldi. «Qorong'i tushgandan keyin boraman», dedi, – deb javob berdi xizmatkor.

Anisimning katorga ishiga hukm qilingani hovlidagilarga ma'lum bo'lgach, oshxonadagi oqsoch xotin bunday gapni eshitgandan keyin yig'lamasdan baqrayib turish uyat degan kabi, xuddi birov urgandek shovqin ko'tarib yig'lab yubordi.

– Anisim Grigorich, lochinim, bizlarni kimga tashlab ketding...

Yig'i ovozini eshitib kuchuklar ham vovullashdi. Varvara yugurganicha deraza oldiga kelib, betoqatlikdan yuragi siqilib, shovqinlab oqsoch xotinni koyimoqqa tutindi.

– Bas qil, Stepanida, bas qil! Xudo osin seni, yuragimni ezma!

Samovar qo'yish ham eslarida yo'q, hammaning boshi gangigan edi. Faqat Lipa nima voqea bo'lganini bilmaydi, chaqalog'i bilan ovora edi.

Chol stansiyadan kelgach, undan hech kim hech narsa so'rab ham o'tirmadi. Hamma bilan bir-bir so'rashgandan keyin indamasdan uylarning hammasiga bir-bir kirib chiqdi, ovqat ham yemadi.

Er-xotin xoli qolganlaridan keyin, Varvara so'z boshlab:

– Harakat qiladigan odam bo'lmadi... Bitta-yarimta obro'liroq kishidan iltimos qilaylik demadimmi, mening gapimga quloq solmadinglar... Ariza tashlash kerak edi... – dedi.

Chol qo'lini siltab:

– Xo'b harakat qildim! Anisim kesilgandan keyin darrov uni himoya qilgan kattamiz oldiga bordim. «Endi hech narsa qilib bo'lmaydi, vaqt o'tdi», dedi. Anisimning o'zi ham vaqt o'tdi, dedi. Ammo men suddan chiqishim bilan darrov bir advokat bilan gaplashib, unga zaklat ham berdim... Biron hafta o'tkazib yana boraman, xudo o'ngiga olsa, ajab emas, – dedi.

Chol yana xomush bo'lib indamasdan uylarni aylanib chiqdi, keyin qaytib yana Varvara oldiga kelganda dedi:

– Betobga o'xshayman. Boshim allaqanday karaxt, xayolim parishon.

Chol, gapimni Lipa eshitib qolmasin, deb eshikni bekitib kelgach ohista yana so'z boshladi.

– Pullarimda biroz chatoqlik bor. Esingda bormi, to'ydan avval Anisim menga bir so'mlik, yarim so'mlik yangi pullar keltirgan edi? Shu pullarning birmunchasini tugib bekitib qo'ygan edim, lekin qolganini o'z pulimga qo'shib yuborgan edim... Bir zamonlarda xudo rahmati amakim Dmitriy Filatich Moskva bilan Qrimga qatnar edi. Amakimning bir xotini bor edi, bu xotin eri savdogarchilik bilan yurtma-yurt yurganda o'ynash qilardi. Olti nafar bolasi bor edi, ana shu amakim ichib mast bo'lganda, «Bu bolalarning qaysi biri meniki-yu, qaysi biri meniki emasligini hech ajratib ololmayman», derdi. Shunaqa yengil tabiat kishi edi. Shuning singari men ham hozir pulimning qaysi biri toza-yu, qaysi biri qalbakiligini bilolmay qoldim. Nazarimda hammasi qalbakiga o'xshaydi.

– Qo'ysangiz-chi, xudo xayringizni bersin!

– Vokzalda chipta olganimda uch so'm berib edim, nazarimda u ham qalbakidek ko'rinib, vahimaga tushdim. Tobim yo'qqa o'xshaydi.

– Nimasini aytasan, hammamiz ham Xudoning bandasimiz... Sho'rim qursin... – deb boshini chayqab qo'ydi Varvara. Keyin so'z qotib dedi:

– Petrovich, buning andishasini qilib qo'ymoq kerak... Zamon nozik, sen ham yosh emassan, o'lib ketsang nevarangni xor qilmasinlar. Shu bechora Nikiforni xafa qiladilar, deb qo'rqaman-da! Otasini endi yo'qqa chiqarib qo'yaver, onasi yosh, aqli past... Hech bo'lmasa Petrovich shu Butyokinodagi yerni nevarang nomiga yozdirib qo'ysang-chi, yana o'z tanangga o'ylab ko'r! Bolasi qurg'ur shiringina, odamning yuragi achiydi! Sustlik qilma, ertagayoq borib vasiqa qilib ber!

– Nevaram esimdan ham chiqib ketibdi-ya... Borib ko'rib kelay. Bolani tuzuk deysanmi? Unday bo'lsa o'ssin, katta bo'lsin, xudo umr bersin!

Sibukin eshikni ochib, barmog'i bilan Lipani chaqirib ishora qildi. Lipa bolasini ko'tarib qaynatasining oldiga keldi.

– Sen, bolam Lipa, muhtojliging bo'lsa qarab o'tirmasdan aytaver. Ko'ngling nimani xohlasa yeyaver, biz sendan qizg'an-

maymiz. Ishqilib o'zing sog' bo'l. Bolangni asra, endi, o'g'limiz yo'q, uning o'rnini bossin.

Cholning ikki yuzidan ko'z yoshlari sharillab oqib, o'pkasi to'lib, piqillab o'rnidan turib ketdi. Birozdan keyin yotdi, yetti kundan beri ko'zi uyqu ko'rmaganidan qattiq uxladi.

VII

Chol andak muddatga shaharga ketdi. Kimdir, uning vasiyatnoma yozgani shahar notariusiga ketganini, xumdon solingan yerni nevarasi Nikiforga vasiyat qilib qoldirmoqchi bo'lganini Aksinyaga aytib qo'yibdi. Chol bilan Varvara ikkovi daraxt tagida o'tirib, choy ichayotganda bu xabar Aksinya qulog'iga yetib, darrov do'konini ko'cha tomondan ham, hovli tomondan ham bekita solib kalitlarning hammasini qaynatasining oyog'i tagiga tashladi.

– Bo'ldi, endi men sizlarga mardikor bo'lmayman! Endi bilsam men sizlarga kelin emas, malay ekanman. Hamma meni masxara qilayapti, kimni ko'rsang «Sibukinlar xo'b yaxshi malay topib oldilar-da!» deydi. Men sizga xizmatkor tushmagandim. Men ota-onasi yo'q yetim emasman, xudoga shukur otam ham, onam ham bor, – deb ayyuhannos solib birdan yig'lab yubordi.

Aksinya sharillab oqib turgan ko'z yoshini artmasdan jahli chiqqanidan g'ilay tortib, darg'azab bo'lib, ko'zlarini cholga tikkanicha turaverdi. Kuchining boricha baqirib shovqin solayotganidan yuz-ko'zi, bo'yinlari qip-qizarib ketdi.

– Endi sizga xizmatkorlik qilib bo'ldim. Shuncha azob tortganim bas! Ish bo'lsa, ertadan kechgacha do'konda o'tirib, kechasi ham tinmay araqqa yugurish bo'lsa men ekanman-ku, yerni kesilganning xotini bilan ajinaga o'xshagan bolasi olar ekan-da. Uyning egasi u ekan-u, men unga oqsoch ekanman-da! Nimangiz bo'lsa hammasini o'sha kesilgan o'g'lingizning xotiniga bering, o'shaning boshida qolsin, men o'z uyimga ketay! Endi boshqa bir ahmoqni qidirib, topib olarsiz!

Chol umrida, bolalarini so'kmagan. urmagan edi, bola-chaqalaridan bitta-yarimtasi unga bunday dag'dag'a bilan so'zlar, uni behurmat qilar, deb xayoliga ham kelmagan edi. Shuning uchun kelinining qilig'idan qo'rqib ketib, uyidagi javon orqasiga kirib, bekinib oldi. Varvara bo'lsa esankirab, o'tirgan joyidan turolmay qoldi, ari talagan kishidek nuqul ikki qo'lini siltar edi, xolos.

– Voy, sho'rim qursin, voy, o'la qolay, bu qanday gap? Nega shovqin solayapti bu? Voy, sho'rim qursin, axir qo'ni-qo'shnilar eshitadi! Sekinroq, axir sekinroq gapirsang nima qiladi! – derdi yuragi yorilib.

Aksinya shovqinini qo'ymas edi:

– Yerni kesilganning xotiniga beribsiz-ku, hammasini o'shanga bering, menga hech narsa kerak emas. Hammang qora yerga kir, hammangiz bir go'rsiz. Jabr-u jafongizni xo'b tortdim, endi bas! Muttaham o'g'rilar, o'tkanning o'rog'ini, ketganning ketmonini oldingiz, yosh-u qari demadingiz. Ijozat olmasdan yashirincha araq sotgan kim? Qalbaki pullaringiz-chi? Qalbaki pullar bilan sandiqlaringizni xo'b to'latib oldingiz, endi men kerak bo'lmay qoldimmi?

Lang ochiq turgan darvoza oldida allaqancha odam tomosha qilib turardi.

– Odamlar qarasa qarasin, xaloyiq ichida sharmandangizni chiqaraman, rasvoyi olam qilaman, oyog'im tagida dumalab yotarsiz!

Xo'p shovqin solgandan keyin:

– Hoy, Stepan! – deb kar erini chaqirdi. – Yur, darrov, uyimizga ketamiz! Ota-onamnikiga ketaman. Jinoyatchilar bilan turmayman. Yig'ishtir, hamma narsangni!

Hovliga tortilgan arqonga yoyilgan kir ichida Aksinyaning ham kiyimlari bor edi. Borib ho'l kiyimlarini yig'ishtirib, hammasini karning qo'liga tashlayverdi, keyin alamiga chidolmay, u yoqdan bu yoqqa yugurib, boshqa ho'l kirlarni ham yerga tashlab, oyog'i bilan tepkiladi.

– Voy, sho'rim qursin, axir uni tiysanglar-chi! Nima balo bo'ldi unga. Bera qoling o'sha yerni, ola qolsin, xudo urdi ketdi, ola qolsin! – derdi Varvara.

Darvozaxonada tomosha qilib turganlar Aksinyaning qilayotgan shallaqiligini ko'rib:

– Ana xolos, xotin boshi bilan qilayotgan shallaqiligini qara, barakalla, sharmandalikni xo'b bo'yniga olibdi-a! – derdi.

Aksinya kir yuvilayotgan oshxonaga yugurib kirdi. Oqsoch xotin soyga kir chaygani ketgan. Lipa yolg'iz kir yuvmoqda edi. O'choq tepasidagi qozondan, kir tog'oradan chiqqan bo'g'ga oshxona to'lgan, hech narsa ko'rinmas edi. Yerda yuvilmagan bir to'da kir turar, bu kirlar oldidagi skameykada qip-qizil oyoqlarini osmonga ko'tarib Nikifor yotardi, yerda yuvilmagan kir bor, bola skameykadan yiqilib tushsa hech qayeri mayib bo'lmasdi. Aksinya oshxonaga kirgan paytda Lipa kirlar ichidan uning ko'ylagini olib, tog'oraga solib, endi stol ustida turgan katta cho'michdagi qaynoq suvga qo'l uzatib edi.

– Bu yoqqa ber! Bu yoqqa ber! Mening kirimni yuvish senga qolgani yo'q! Sen jinoyatchining xotinisan, martabangni, kimligingni bilib qo'y, – deb baqirib, ko'ylakni Lipaning qo'lidan tortib oldi.

Lipa esankirab angraygancha qoldi; hayron bo'lib turgan paytda, Aksinyaning yotgan chaqaloqqa olayib qaraganini ko'rib qolib, uning niyati yomon ekaniga tushundi va yuragi yorilganday bo'ldi...

– Yerimni olganning jazosi mana!

Aksinya bu so'zni aytib cho'michdagi qaynoq suvni Nikiforning ustiga sochib yubordi.

Bundan keyin bir qattiq ovoz chiqdiki, Ukleyevo qishlog'ida haligacha bunday qattiq tovushni hech kim eshitmagan va Lipadek kichkinagina, nimjongina odamning bunday qattiq baqirishiga hech kim ishonmas edi. Bu qattiq ovozdan keyin hovli jim bo'lib qoldi. Aksinya o'sha eski iljayishini qilib indamasdan, bemalol uyga kirib ketdi... Kar qo'lida kir bilan hali ham hovlida yurar edi, keyin yana indamasdan, shoshmasdan kirlarni yoya boshladi. Oqsoch xotin soy bo'yidan kelmaguncha oshxonaga kirib, unda nima bo'lganini bilib chiqishga hech kim yurak botinolmadi.

VIII

Nikiforni zemstvo kasalxonasiga eltdilar. Kechqurun bola kasalxonada o'ldi. Lipa uni olib ketgani odam kelishini kutmay, bolasining o'ligini ko'rpachaga o'rab, yo'lga tushdi.

Yaqinda solingan yangi, derazalari katta-katta kasalxonaning turgan joyi balandlikda edi. Endi botayotgan kunning shu'lasi tushib, kasalxonaning ichiga o't ketgandek lovullab turardi. Lipa yo'ldan pastga tushib borib, qishloqqa yetmasdan, kichkina hovuz oldida to'xtadi. Bir xotin ot sug'organi keldi, lekin oti suv ichmadi, xotin sekin-sekin gapirib:

– Nega ichmaysan? Nima bo'ldi? – der edi taajjub bilan.

Qizil ko'ylakli bir bola hovuz bo'yida o'tirib otasining etigini yuvardi. Qishloqda ham, yuqorida ham bulardan boshqa hech bir maxluq ko'rinmasdi. Lipa otga qarab turib:

– Ichmayapti... – dedi.

Xotin kishi ham, etik yuvgani kelgan bola ham jo'nab ketdi. Boshqa hech kim yo'q edi. Oftob ham qip-qizil zarhal alvonini yoyib botdi. Shafaqdan qizargan uzun-uzun bulutlar osmon yuziga yoyilib, go'yo oftobga posbonlik qilar edi. Qayerdadir uzoqda og'ilxonaga qamalib qolgan sigir ma'ragandek mushgir qichqirardi. Noma'lum bir qushning ovozini ko'klamda eshitmagan odam yo'q, lekin uning qanday qushligini va qayerdaligini hech kim bilmaydi. Yuqoridagi kasalxonada, hovuz yonidagi mayda daraxtlar ichida, qishloqning narigi tarafida, atrofdagi o'lanzor, chamanzor manzaralar ichida bulbullar sayraydi. Kakku qush go'yo birovning yoshini sanar, har gal sanoqdan yanglishib, yana qaytadan boshlardi. Hovuzda qurbaqalar bir-birlarini chaqirishib vaqillashar, hatto ularning vaqirlashib nima deyayotganini uqib olsa ham bo'lardi: «Qurbaqa, qurbaqa, sen ham bo'lgil shundaqa!» Hovuzda shunday vaqir-vuqur shovqin ediki, undagi maxluqlar xuddi bu bahor kechasida hech kim uxlamasin degandek, hatto badjahl qurbaqalar ham har nafasni g'animat bilib rohat va farog'at qilsinlar, dunyoga har kim bir keladi, deb g'avg'o ko'tarib sayrashayotgandek edi.

Osmonda yangi tug'ilgan oy kumushdek yaltirar, yulduzlar charaqlar edi. Lipa hovuz bo'yida uzoq o'tirib qolganini payqamadi, lekin o'rnidan turib yo'lga tushganda qishloqdagilar hammasi uyquga yotgan, chirog'lar o'chgan edi. Uyiga yana o'n ikki chaqirimcha yo'l bor, lekin yurmoqqa madori, yo'lni topib yurishga es-hushi yo'q edi. Oy hali oldidan, hali yonidan yaltirab ko'rinar, kakku qush hali ham tinmasdan sayrar, Lipaga, «hoy, ehtiyot bo'l, yo'ldan adashasan», deb uni masxara qilgandek, kulgandek tuyulardi. Lipa jadallab kelayotganda boshidagi ro'moli tushib qolibdi. Osmonga qarab bolasining arvohini izlardi: onasidan bexabar orqamdan kelayotganmikin yoki osmonda yulduzlar orasida uchib yurganmikin? Kishi kechalari sayroqi qushlar orasida o'zi sayray olmay sayr qilib yurganda, o'zi xursandlik qilolmay, shodlik-xursandlik tovushlari har tarafdan to'xtamay kelib turgan joylarda yurganida, o'zini qanday g'arib sezadi. Yer yuzida ko'klammi, zimiston qishmi, undagi insonlar o'likmi-tirikmi, bunga hech parvo qilmay osmondan qarab turgan oy ham sendek tanho, sendek g'arib ko'ringan kezlarda odam o'zini nechog'lik g'arib his qiladi... Ko'nglida g'am-g'ussalar, dard-u alamlar to'lib toshgan vaqtlarda yolg'izlik, g'aribliik og'ir. Koshki Lipaning yonida onasi yoki mo'ysafid usta bo'l-sa yoki oqsoch xotin, hech bo'lmaganda bironta erkak bo'lsa!

Mushgirning bu-bulagani eshitildi.

Shu paytda to'satdan:

– Vavila, aravani qo'sh! – degan ovoz eshitildi.

Old tomondagi yo'l ustida gulxan yonib turardi. O'tning alangasi o'chgan, faqat cho'g'lari qolgan. Otlarning pichan chaynashi eshitilardi. G'ira-shira qorong'ida ikki aravaning qorasi ko'rindi, biriga bochka yuklangan, ikkinchisi pastroq, qop ortilgan. Yana ikki kishining qorasi ham ko'rindi, biri arava qo'shmoqchi bo'lib ot yetaklab kelar, ikkinchisi qo'lini orqasiga qilib jim turardi. Arava oldidagi it irilladi. Ot yetaklab kelayotgan to'xtab:

– Birov kelayotganga o'xshaydi, – dedi.

Qimirlamasdan jim turgan odam:

– Sharik, jim tur! – deb qichqirdi. Bu odamning tovushidan mo'ysafid ekanligi bilinib turardi. Lipa to'xtab:

– Hormanglar! – dedi.

Mo'ysafid Lipaga yaqin keldi, lekin darrov javob bermasdan, birozdan keyin:

– Esonmisan! – dedi.

– Buva, itingiz qopmaydimi?

– Yo'q, o'tib ketaver, tegmaydi.

Lipa birpas indamay turgach:

– Men kasalxonaga borgan edim, o'g'lim kasalxonada o'ldi, o'ligini uyga olib ketyapman, – dedi.

Lipaning bu gapi mo'ysafidga yoqinqiramadi shekilli, u nariroq turib, shoshib-pishib dedi:

– Chirog'im xafa bo'lma, xudoning xohishi, – keyin yonidagi hamrohiga qarab. – Bolam muncha ivirsiysan, tezroq bo'lsangchi! – dedi.

– Sening do'g'ang yo'q-ku, ko'rinmaydi, – dedi bola.

– Vavila, hech shuding yo'q-da.

Mo'ysafid cho'g' olib puflab yondirdi, cho'g'ning yorug'ida uning ko'zi bilan burni ko'rindi, xolos. Keyin do'g'a topilgach, qo'lida o't bilan Lipaning oldiga kelib, uning yuziga qaradi. Uning bu qarashida shafqat va mehribonlik bor edi.

– Bola-da, onaga bola shirin.

Bu so'zni aytib mo'ysafid uh tortdi va boshini chayqab qo'ydi. Vavila o'tga bir narsa tashlab tepkilab edi, qop-qorong'i bo'lib qoldi. Ko'rinib turgan narsalar g'oyib bo'ldi, yana o'sha-o'sha dala, yulduzlari charaqlab turgan osmon, bir-birlarini bezovta qilib, uxlagani qo'ymay, chirqillashib turgan qushlarning g'avg'osigina qoldi. Qiziloyoq qush ham o't yoqilgan joyning xuddi o'zida sayrab turgandek edi.

Ammo bir lahzadan keyin aravalar, mo'ysafid, uzun bo'yli Vavila yana ko'rindi. Aravalar g'ijirlab katta yo'lga chiqdi.

Lipa mo'ysafiddan:

– Sizlar buzruklardanmisizlar? – deb so'radi.

– Yo'q, biz Firsanov qishlog'idanmiz.

– Sen hali menga bir nazar qilib eding, yuragimdagi hasratim biroz yozilgandek bo'ldi. Yoningdagi bola ham yuvoshgina ekan, shuning uchun men sizlarni buzruklarmisiz, deb gumon qildim.

– Qayerga borasan?

– Ukleyevo qishlog'iga.

– Aravaga chiqib ol. Kuzminko qishlog'igacha eltib qo'yamiz, u yerga borgach sen to'g'riga qarab ketasan, bizlar chapga burilamiz.

Vavila bochka ortgan aravaga chiqib oldi, mo'ysafid bilan Lipa boshqa aravaga chiqdilar. Vavila oldinda, sekin-sekin ketaverdilar.

– O'g'lim kuni bo'yi qiynaldi, ko'zlarini mo'ltillatib bir narsa demoqchi bo'ladi-ku, lekin aytolmadi. Parvardigorim! Men dardimga chidolmay hadeganda o'zimni ko'tarib-ko'tarib uraverdim. Bolamning kravati oldida turolmasdan yiqilib tushaverdim. Buva, axir sen bilarsan, yosh go'dakning ham jon berishi shuncha qiyin bo'ladimi? Erkakmi, xotinmi katta odam qiynalib jon bersa, gunohini xudo kechiradi, lekin go'dakning nima gunohi bor, nega go'dak ham qiynalib jon beradi?

– Kim biladi! – deb javob qildi chol.

Yarim soatcha indamasdan ketaverdilar.

Keyin chol so'z boshlab:

– Har narsani bilaverish yaxshi emas, parrandaga Xudo to'rt emas, ikki qanot beribdi, ikki qanot bilan uchsa ham bo'ladi. Shuningdek, odamzod ham hamma narsani bilavermaydi, yarmisini yoki choragini biladi. Dunyoda yashamoq uchun qancha bilmoq kerak bo'lsa shunchasini biladi, – dedi.

– Buva, piyoda yurganim osonroq, aravada yuragim o'ynab ketayapti.

– Mayli, o'tiraver.

Mo'ysafid esnab og'zini cho'qintirdi. Keyin yana.

– Mayli, o'tiraver... – deb qo'ydi. – Sening hasrating hasratmi. Hali ko'p yashaysan, yaxshini ham, yomonni ham ko'rasan. Yurtimizning bag'ri keng, Rossiya ulkan! – shunday deb chol ikki tomonga qarab qo'ydi. – Men Rossiyaning hamma yerini

ko'rdim, har yerga bordim, har narsa ko'rdim, chirog'im, mening so'zimga bovar qil. Hali yaxshi-yomonni ko'p ko'rasan. Piyoda Sibirga bordim. Amurga bordim. Oltoyga bordim, keyin Sibirga ko'chib ketib u yerda dehqonchilik qildim. Ammo Rossiyani sog'inib, yana o'z qishlog'imga qaytib keldim. Rossiyaga qaytib kelganimizda ham piyoda keldik... Qayiqqa tushib kelganimiz hali ham esimda bor. Men juda ozib abgor bo'lib qolgan edim. Egni-boshim yirtiq, oyoqyalang, sovuqda junjikib bir burda qattiq nonni shimib kelayotgan edim, qayiqda bir boy ham kelayotgan ekan, agar o'lib ketgan bo'lsa xudo rahmat qilsin, bu boy meni ko'rib juda rahmi keldi, ko'zidan yoshi oqib ketdi. «Bechora, yegan noning ham qora, ko'rgan kuning ham qora ekan...» dedi. Qishloqqa kelganimda na bosh tiqqunday uy bor, na hovli. Xotinim bor edi, Sibirda o'ldi, o'sha yerga ko'mdim. Endi batraklik qilib ishlab yuribman. Nima qilay, men senga aytsam, bundan beshbattar ham bo'lganman, lekin yaxshi kunlarni ham ko'rdim. Ammo, chirog'im, nima bo'lsa ham o'lishni xohlamayman. Yana yigirma yil bo'lsa ham yashasam deyman, demak, umrimda yaxshi kunlar ko'p bo'lganidan-da. Ammo yurtimiz Rossiyaning bag'ri keng! – Bu so'zni aytib to'rt tarafga qarab, yana alanglab qo'ydi.

– Buva, odam o'lgandan keyin uning joni yer yuzida qancha vaqtgacha yuradi? – deb so'radi Lipa.

– Kim bilsin! Qani, Vaviladan so'raylik-chi, u maktab ko'rgan. Zamona maktabida har bir narsani o'qitadi. Vavila!

– Ha!

– Odam o'lgandan keyin uning joni yer yuzida qanchagacha yuradi?

Vavila avval otini to'xtatib, keyin javob berdi:

– To'qqiz kun. Amakim Kirilla o'lganda joni o'n uch kungacha uyimizdan ketmagan edi.

– Qayerdan bilasan?

– O'n uch kungacha pechni dukullatdi.

– Xo'b, yaxshi, yur – dedi mo'ysafid. Bu so'zlarning hech biriga ishonmagani avzoyidan ma'lum edi.

Kuzmenkoga yaqinlashganda aravalar tosh yo'lga burildi. Lipa aravadan tushib piyoda ketdi. Tong yorishib qoldi, Lipa soylikka tushganda qishloqdagi uylar, cherkovlar hali ham tuman ichida edi. Havo sovuq, Lipaning nazarida kakku qush hali ham tinmasdan kukkulab turgandek edi.

Lipa uyga qaytib kelganda hali poda chiqqani yo'q edi. Uydagilarning hammasi uxlab yotardi. Eshik oldidagi pillapoyaga chiqib, kutib o'tirdi. Hammadan avval chol tashqari chiqdi. Chol Lipaga ko'zi tushishi bilan darrov voqeani fahmladi. Anchagacha hech narsa deyolmasdan, lablarini qimirlatib turdi. Birpasdan keyin:

– Ey, sho'rlik Lipa, nevaramni asrolmading... – dedi.

Varvarani uyg'otdilar. U yig'lab bolani saranjomlashga tutundi va dedi:

– Ey, Xudoyim, sho'rim qursin, bola faqir yaxshigina edi... Bittagina bolani ham eplolmading, tentak...

Ertalab va kechqurun motam tutdilar. Ertasiga bolani ko'mdilar. Go'ristondan qaytib kelgach qishloq ruhoniylari va yana allaqancha mehmonlar kelib ovqat ko'rmagan kishilardek xo'b edilar. Lipa xizmat qilib turdi. Pop tuzlangan qo'ziqorinni sanchqiga ilib, uni yupatar edi:

– Bolangga ko'p achinma, xudoning xohishi shu ekan.

Hamma tarqab ketgandan keyin Lipa bolasining yo'qligi, undan ajraganligini bilib, ho'ngrab yig'lab yubordi. Qaysi uyga kirib, yig'lab yuragini bo'shatishini bilmas, chunki bola o'lgandan keyin, bu uyda begona va hech kimga keragi yo'q, ortiqcha kishi ekanini fahmladi, bunga boshqalarning ham aqli yetib turardi.

Bir mahal Aksinya eshik oldiga kelib:

– Ovozingni o'chir, ko'p bo'kiraverma, – deb baqirdi. Aza munosabati bilan Aksinya bosh-oyoq yangi kiyimlar kiyib, yuziga upa-eliklar surtib olgan edi.

Lipa yig'isini bas qilmoqchi bo'lsa ham, o'zini to'xtatolmay, yana battarroq ho'ngrab yig'ladi.

– Kimga aytyapman? Bas qil! Chiqib ket hovlidan, yo'qol! Qadam bosma, bu yerga! Jinoyatchining xotini! Yo'qol!

Chol kalovlanib:

– Hoy, hoy!.. Bolam, shovqinlama, chirog'im... Bolasi o'lgandan keyin nima qilsin... – dedi.

Aksinya cholni masxara qilib:

– Nima qilsin deydi-ya... Mayli buguncha yotsin-ku, ertaga yo'qolsin! – Cholning gapini masxara qilib yana, – nima qilsin deydi-ya, – deb kulganicha do'konga kirib ketdi.

Lipa ertasiga tong otishi bilan onasi turgan Torguyevo qishlog'iga jo'nab ketdi.

IX

Endi do'konning tomi, eshigi sirlangan, yangidek yaltiraydi. Uyning darchalarida avvalgidek ochilib turgan gullar. Sibukinning uyida bundan uch yil avval bo'lgan voqealarni hamma unutgan.

Hali ham avvalgidek uyning egasi va oila boshlig'i Grigoriy Petrovich hisoblanadi-ku, lekin hamma ishni Aksinya o'z tasarrufiga olgan. Sotgan ham u, olgan ham u. Uning roziligi bo'lmasa hech kim hech narsa qilolmaydi. Xumdonning ishlari rivojga minib ketdi. Temir yo'lga g'isht ko'p kerak bo'lganidan, g'ishtning mingi yigirma to'rt so'mga chiqdi. Xotinlar, qiz-juvonlar stansiyaga g'isht tashiydilar, vagonlarga ortadilar, kuniga tanga miridan pul ishlaydilar.

Aksinya Xriminlarga sherik bo'ldi, endi ularning fabrikasi «Kichik Xriminlar va sheriklari» deb ataladi. Stansiyaga yaqin joyda qovoqxona ochdilar, qimmatbaho garmonni endi fabrikada emas, qovoqxonada chaladilar. Pochtaxona boshlig'i bilan stansiya boshlig'i qovoqxonaga tez-tez kirib turadigan bo'ldi. Pochta va stansiya boshliqlari ham savdogarchilikka aylanishadigan bo'ldi. Kichik Xriminlar kar Stepanga oltin soat in'om qildilar. Kar soatini dam-badam cho'ntagidan olib qulog'iga tutib ko'radi.

Qishloqdagilar, Aksinya har narsaga qurbi yetadi deydilar. Darvoqe ertalab turib o'ziga oro berib, iljayib zavodga ketayotganida, keyin, zavodga borib, uni qil, buni qil, deb xo'jayinlik qilganida hamma ish uning qo'lida ekani, nima qilsa qo'lidan

kelishi, har narsaga qurbi yetishi ko'rinib turardi. Undan uydagilar ham, qishloqdagilar ham, zavoddagilar ham qo'rqardi. Pochtaxonaga kelganda pochta boshlig'i darrov o'rnidan sakrab turib, takalluf bilan:

– Kseniya Abramovna, marhamat qilib, o'tirsinlar! – deb turadi.

Nafis movutdan tikilgan beli burma kamzul, qo'nji baland amirkon etik kiygan, yoshi qaytib qolgan bo'lsa ham oliftachiligini qo'ymagan bir pomeshchik, bir kun Aksinyaga ot sotganida uning gapiga mahliyo bo'lib, otni uning so'raganiga sotib ketgan edi. Pomeshchik Aksinyaning qo'lini qo'yib yubormasdan, uning o'ynab-kulgan ko'zlariga tikilib turib:

– Kseniya Abramovna, sizdek xotinga jonim fido bo'lsin, faqat ayting, qachon ikkimiz xoli o'tirib suhbatlasha olamiz?

Kseniya esa:

– Qachon desangiz shu chog', – deb javob bergan.

Bundan keyin olifta chol har kuni pivo ichgani Aksinyaning do'koniga kelib turadigan bo'ldi. Pivosi kakra o'tdan achchiq bo'lsa ham, pomeshchik kallasini chayqab-chayqab ichaverdi.

Chol Sibukin endi ishga aralashmay qo'ydi, qo'liga pul ushlamaydigan bo'ldi, chunki rostakam pulni qalbakisidan ajratolmas va lekin dami ichida, bu sirni hech kimga aytmas edi. Cholning esi kirdi-chiqdi, parishonroq bo'lib qoldi, ovqatni ham bersalar yeb, bermasalar so'ramas edi. Uydagilar avval cholsiz ovqat yemas edi, endi u bo'lmasa ham yeyaveradigan bo'lib qoldilar. Varvara bo'lsa ko'pincha:

– Kecha chol yana ovqat yemay yotib qoldi, – derdi.

Bu gapni ham juda beg'amlik, beparvolik bilan aytardi, chunki bu holga odatlanib qoldi. Sibukin negadir yozda ham, qishda ham po'stin kiyib yurar, faqat haddan tashqari issiq bo'lganda uydan eshikka chiqmay o'tirardi. Aksari po'stinining yoqasini ko'tarib, oldini o'rab olib qishloq ko'chasida, stansiya yo'lida sayr qilib yurardi yoki ba'zida erta-yu kech cherkovning darvozasi oldidagi skameykada o'tirardi. Bir o'tirganicha qimir etmasdan kechgacha o'tirardi. O'tgan-ketganlar salom bersalar

javob bermas, chunki hali ham qishloq odamlarini yoqtirmas edi. Undan biron narsa so'rasalar juda yaxshi, ma'qul deb javob berar edi-ku, lekin gapni cho'zmasdan, qisqa qilib qo'ya qolardi.

Qishloqda Sibukinni kelini uyidan haydab yuboribdi, ovqat bermasmish, gadoychilik qilib yurganmish, degan gaplar yoyildi. Bunga ba'zilar suyundi, ba'zilar xafa bo'ldi.

Varvara battarroq semirib, badani toza bo'lib, oqarib ketdi, hali ham xayr-ehsonini qo'ymas, Aksinya ham uning bu ishiga indamas edi. Murabbosi ko'pligidan bu yil qaynatilgani kelasi yilgacha yeyilmasdan shakar boylab qolardi. Varvara bo'lsa murabbosini nima qilishini bilmay, yig'lagudek bo'lardi.

Anisimni eslaridan chiqara boshladilar. Bir kun undan xat kelib qoldi. Bu xat ham avvalgi xatlaridek arizaga o'xshagan katta, bir taxta qog'ozga bayt bilan chiroyli qilib yozilgan edi. Do'sti Samorodov ham uning bilan birga qamoqda bo'lsa kerak. Baytning oxirida zo'rg'a o'qib bo'ladigan badxat bilan: «Men bu yerda kasaldan chiqmay qoldim, ahvolim yomon, xudo haqi menga ozroq yordam bering», degan bir yo'lgina xat yozilgan edi.

Havo ochiq, kuz kunlaridan birida kech payti, chol Sibukin po'stinining yoqasini ko'tarib olib, cherkov eshigi tagida o'tirib edi, burkanib olganidan shapkasining soyaboni bilan burnidan boshqa hech joyi ko'rinmas edi. Uzun skameykaning narigi boshida pudratchi Yelizarov, uning yonida yoshi yetmishlarga borib qolgan, tishi to'kilib ketgan maktab qorovuli Yakov o'tirar edi. Yog'ochoyoq bilan qorovul gaplashar edi:

– Ota-ona keksarib qolganda ularni boqish bolalarning bo'ynida... Ota-onani hurmat qilish ham bolaning bo'ynida. Kelini buni o'z uyidan haydab qo'yibdi. Bechora cholga ovqat bermaydi, qayoqqa borsin? Uch kundan beri ovqat yemasmish, – derdi Yakov jahl bilan.

– Uch kundan beri-ya! – dedi Yog'ochoyoq ajablanib.

– Shu holda o'tiraveradi, birov bilan gaplashmaydi, xarob bo'lib qoldi, indamasdan yuraveradi. Bilmadim nega indamaskin. Sudga bersa-ku, keliniga yaxshi bo'lmaydi.

Yelizarov uning so'zini eshitmasdan:

– Kim sudga beribdi? – deb so'radi.

– Nimadi?

–Kelini-ku epchil xotin-a. Ularning uyida u bo'lmasa bo'lmaydi.... Ya'ni koribadsiz ularning uyi uy emas demoqchiman...

Yakov hamon jahl qilib:

– O'z uyidan-a, avval xudo bersa o'zing uy qil, keyin birovni uyidan hayda. Seni qara-yu, bachchag'ar, yaramas, – derdi.

Sibukin bu gaplarni eshitib qimir etmasdan o'tiraverdi.

– O'zingning uyingmi yoki begonanikimi, mayli ishqilib iliqqina bo'lsa, xotining urishavermasa bo'lgani... – dedi Yog'ochoyoq va kulib yubordi. – Yoshligimda xotinim Nastasyaga juda mehribon edim, o'zi juda yuvosh edi. «Makarich, uy olsang-chi, uy olsang-chi! Makarich, ot olsang-chi, bitta ot olsang-chi!» deb javragani-javragan edi. O'lib ketayotganida ham «Makarich, axir o'zingga chopqir ot bilan bitta arava olsang-ku, piyoda yurmaysan-a», deb o'lib ketdi. Men bo'lsam unga shirin-shirin nondan boshqa hech narsa olib bermadim.

Yakov Yog'ochoyoqning gapiga quloq solmay yana gapini ma'qullaydi:

– Eri kar, tentak, ahmoqligi shunchaki, g'ozdan ham battar, nimaga aqli yetardi? G'ozni kallasiga ursang ham tushunmaydi.

Yog'ochoyoq uyiga ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi. Yakov ham turdi, ikkovlari gaplashib ketdilar. Ular ellik qadamcha nari ketganlaridan keyin chol Sibukin ham o'rnidan turib, xuddi sirpanchiq yerdan zo'rg'a yurib ketayotgandek, sekin-sekin, imillab, ular orqasidan ketaverdi.

Pastlikdagi qishloqqa allaqachon qorong'i tushib, faqat pastdan yuqoriga ilonizi bo'lib ketgan yo'lning tepasigina yorug' edi. Kampirlar va ular bilan bolalar o'rmondan kelardi. Stansiyada vagonga g'isht yuklagan qiz-juvonlar yuz-ko'zlarini qip-qizil turpoqqa bulab, galalashib, qo'shiq aytib stansiya tomondan kelardi. Lipa ham xuddi kun botib, kech kirib rohat vaqti kelganiga suyungandek, osmonga qarab, ingichka tovush bilan chinqirib, qo'shiq aytib, hammaning oldiga tushib kelardi. Kelayotgan xotinlar ichida Lipaning onasi mardikor Praskovya ham bor, u qo'lida tugun bilan harsillab kelar edi.

Lipa Yog'ochoyoqni ko'rib:

– Salom, Makarich! Qalaysiz! – deb so'rashdi.

Yog'ochoyoq quvonib:

– Yaxshimisan, bolam! Yaxshi qizlar, yaxshi juvonlar, boy buvalaringga ham qarab qo'yinglar, qo'zilarim, bo'talarim, chirog'larim!

Yog'ochoyoqning xo'rligi kelib, o'pkasi to'ldi.

Yog'ochoyoq bilan Yakov ikkovi gaplasha-gaplasha o'tib ketdi, ancha nari ketganlaridan keyin ham ularning g'ovur-g'uvur gaplari eshitilib turardi. Birozdan keyin chol Sibukin ham kelib qoldi. Xotinlar uni ko'rgandan keyin hammalari jim bo'lib qoldilar. Lipa bilan Praskovya xotinlardan keyinroqda qolib, qarab turdilar. Chol ular oldiga kelganda Lipa engashib salom berdi:

– Assalom, Grigoriy Petrovich!

Onasi ham engashib salom berdi. Chol to'xtab indamasdan ularga tikilganicha qarab turdi; lablari qaltirab, ko'zlariga jiq-jiq yosh to'ldi. Lipa onasining tugunidagi guruchli somsadan bir burda ushatib cholga berdi, chol somsani olib edi.

Kun botib oftobning balanddagi yo'lga tushib turgan yorug'i ham o'chdi. Qorong'i tushib havo sovidi. Lipa bilan Praskovya ancha yergacha cho'qina-cho'qina ketdilar.

VANKA

Uch oy avval Alyoxin degan etikdo'zga shogirdlikka berilgan to'qqiz yashar bola Vanka Jukov rojdestvoga o'tar kuni kechasi yotmadi. Xo'jayinlari va boshqa shogirdlar ertalabki ibodatga ketishgandan keyin u, xo'jayinining javonidan siyohdon bilan zang bosib ketgan ruchka oldi-da, g'ijimlangan bir varaq qog'ozni oldiga yozib, xat bitishga kirishdi. Xatni boshlashdan oldin eshikka va derazalarga bir necha marta qo'rqa-pisa qarab qo'ydi, ikki tomoniga etik qoliplari tizib qo'yilgan sanamga ham ko'z qirini tashlab qo'ydi, keyin bir uf tortdi. Qog'ozni skameyka ustiga yozib, uning oldiga tiz cho'kib o'tirdi.

«Bobojonim Konstantin Makarich! - deb yoza boshladi u xatni. – Men sizga duoyi salom yozmoqdaman. Sizni rojdestvo bayrami bilan qutlab, u tomonlarda eson-omon yurishingizni xudodan tilab qolaman. Mening otam ham, onam ham yo'q. Sizdan boshqa hech kimim yo'q».

Vanka sham shu'lasi aks etib turgan qorong'i derazaga qaradi, Jivarev degan boynikida kechasi qorovullik qiladigan bobosi Konstantin Makarich darrov ko'z oldiga keldi. Bobosi oltmish besh yoshlar chamasida kichkinagina, qotmadan kelgan, ammo nihoyatda epchil va serharakat, yuzlari doim kulib turadigan, ko'zlari suzuk bir chol edi. Kunduzlari u xizmatkorlar turadigan uyda uxlaydi yoki oshpaz xotinlarga tegishib o'tiradi, kechalari esa keng po'stinni kiyib, qo'rg'on atrofida shaqildog'ini chalib yuradi. Uning ketidan Kashtanka degan qari it va uzun bo'yi, qora juni uchun Vyun deb atalgan yana bir it boshlarini osiltirib ergashib yuradi. Vyun juda itoatkor va yuvosh it, o'z odamlarini ham, begonani ham baravar hurmat qiladi, ammo unga hech kim ishonmaydi. Uning itoatkorligi va yuvoshligida ayyorlik bor. Bildirmasdan kelib turib oyoqni uzib olishda, muzxonaga kirib, u yerdagi go'sht-yog'larni urishda, dehqonning tovug'ini qiyratishda undan o'tkiri yo'q. Odamlar bir necha marta uning

keyingi oyoqini urib mayib qilishgan, ikki marta dorga ham osishgan, chala o'lik qilib ham urishgan, biroq har safar o'limdan omon qolgan.

Bobosi shu topda darvoza oldida qishloq butxonasining charog'on yongan derazalariga ko'zini suzib qarab turgandir, yo bo'lmasa sovqotganidan piymasi bilan yer tepinib, qarollar bilan o'ynashayotgandir. Shaqildog'ini belbog'iga osib olgani aniq. Qo'llarini bir-biriga ishqab, sovuqdan seskana-seskana, hiringlaydi va yo beka oqsochini, yo oshpaz xotinning biqinini chimchilaydi.

– Qani, tamakidan hidlaylik, tamakidan, – deydi-da, xotinlarga tamaki tutadi.

Xotinlar tamaki hidlab, aksirishadi. Chol bundan nihoyatda xursand bo'lib ketadi-da, qah-qah urib kuladi va:

– Burningni art, yaxlab qopti! – deb qichqiradi.

Keyin itlarga ham tamaki hidlatishadi. Kashtanka aksiradi, xafa bo'lganidan boshini chayqab-chayqab chetga chiqib o'tiradi. Vyun odob saqlab, aksirmaydi, dumini silkitib turadi. Havo shinam, jimjit, musaffo. Tun qorong'i, ammo butun qishloq, uning oppoq tomlari, mo'rilardan buralib-buralib chiqqan tutunlari, kumushday qirov bosgan daraxtlar, qor bosgan tepaliklar ravshan ko'rinib turadi. Osmon jilvali charaqlab turgan yulduzlar bilan to'la, somon yo'li ham oydindek yorug', hayit oldidan uni yuvib, qor bilan ishqalaganday...

Vanka xo'rsindi-da, peroni siyohga botirib, yana xatni davom ettirdi:

«Kecha bo'lsa meni o'lgudek qiynashdi. Xo'jayinlarning belanchakdagi bolasini tebratib o'tirib, bilmasdan uxlab qolipman. Xo'jayin sochimdan sudrab hovliga olib chiqib, tasma bilan rosa savaladi. O'tgan hafta beka menga selyodka tozalashni buyurdi, men uni dumidan tozalay boshlagan edim, beka baliqni qo'limdan tortib olib, uning kallasini basharamga ishqadi. Xalfalar meni masxara qilishadi, qovoqxonaga araqqa yuborishadi, xo'jayinlarnikidan bodring o'g'irlattirishadi, xo'jayin bo'lsa qo'liga tushgan narsa bilan uradi. Ovqatdan hech narsa yo'q. Erta bilan non beriladi, tushda bo'tqa, kechqurun ham quruq nonning o'zi:

choyni, karam sho'rvalarni nuqul o'zlari tushirishadi. Kechasi yotadigan joyim – yo'lak, xo'jayinning bolasi yig'lasa, mijja qoqmay kechasi bilan belanchakni tebratib chiqaman. Jon bobom, xudo xayr bersin, meni bu yerdan uyga, qishloqqa olib keting, hech sabr-toqatim qolmadi... Oyoqlaringizga boshimni qo'yib yalinaman, o'lgunimcha duo qilay, meni bu yerdan olib keting, bo'lmasa o'lib qolaman...»

Vankaning lablari burishdi, qop-qora mushti bilan ko'zlarini artdi-da, piqilladi.

«Men sizga tamakilaringizni maydalab beraman, – deb davom etdi bola, – ibodat qilaman, biron ayb qilsam itday savalang. Agar menga ish topilmaydi desangiz, yalinib-yolvorib gumashtaga etik tozalovchi bo'lib kiraman, yo bo'lmasa Fedkaning o'rniga podachiga shogird bo'laman. Bobojon, sira toqatim qolmadi, jonimdan to'ydim. Qishloqqa piyoda jo'nay desam etigim yo'q, sovuqdan qo'rqaman. Bu qilgan yaxshiligingizga katta bo'lganimda sizni boqaman, hech kimga xo'rlatmayman, o'lganingizda onam Pelageyaga qilinganday, sizga ham duoyi fotiha qilaman.

«Moskva katta shahar. Hamma uylar boylarga qaraydi, ot ko'p, qo'ydan sira yo'q, itlari yuvosh. Bu yerning bolalari ramazon aytishmas ekan. Cherkovlarda ham hech kimga qo'shiq ayttirishmaydi, bir kuni bir do'konda ipi va yog'ochi bilan sotiladigan qarmoq ko'rdim, bunaqa qarmoqqa har qanaqa baliq ilinadi, hatto bir pud keladigan laqqa baliq ilinadigan qarmoq ham bor. Shunaqangi do'konlar ham borki, u yerda badavlat kishilarning kuchi yetadigan miltiqlar bor, har bittasi yuz so'mdan turar deyman... Go'sht do'konlarida esa qirg'ovullar, kakliklar, quyonlar to'lib yotipti, ularni qayerda otilganini qassoblar sira aytishmaydi.

Bobojonim, xo'jayiningiznikida archa bayrami bo'lganda menga usti yaltiroq yong'oqdan olib, ko'k sandiqqa solib, yashirib qo'ying. Vankaga desangiz oyimqiz Olga Ignatyevna beradi».

Vanka yana bir xo'rsindi-da, derazaga tikilib xayolga cho'mdi. Xo'jayinga archa olib kelish uchun bobosining o'r-

monga borishini va o'zi bilan birga Vankani ham olib borganlarini esladi. Qanday yaxshi zamonlar ekan! Bobosi zo'r berardi, sovuq ham zo'r berardi, ularga qarab Vanka ham zo'r berardi. Bobosi ba'zan archa kesishdan oldin trubka chekib olardi, tamaki hidlardi, sovqotgan Vankani masxara qilardi. Qirovga o'ralgan yosh archalar qaysi birlarining kuni bitganini bilmasdan tik turardi. Bir yoqdan lip etib quyon chiqib qolar va qor uyumlari ustidan o'qday uchib o'tib ketardi... Bobosi esa:

– Ushla! Ushla uni!.. Ushla! Ha, shayton, – deb ketidan qichqirib qolardi.

Kesilgan archani bobosi xo'jayinlar uyiga sudrab olib kelardi, keyin uni bezatishardi. Vankani yaxshi ko'rgan oyimqiz Olga Ignatyevna hammadan ko'p jon kuydirardi. Vankaning onasi Pelageya tirikligida xo'jayinlarnikida oqsoch edi, Vankaga Olga Ignatyevna popuklar berardi, zerikkanidan uni o'qishga, yozishga, yuzgacha sanashga va hatto raqs tushishga o'rgatgan edi. Pelageya o'lgandan keyin yetim qolgan Vankani qarollar turadigan oshxonaga chiqarib, bobosiga qo'shib qo'yishdi, u yerdan Moskvaga, Alyoxin etikdo'znikiga jo'natishdi.

«Tezroq keling, bobojon, – deb xatni davom ettirdi Vanka, – xudo xayr bersin, meni bu yerdan olib keting. Mendek bechora yetimga rahmingiz kelsin, bu yerda meni uzzukun savalaydilar, o'lardek och yuraman. Shunday zerikdimki, yig'laganim yig'lagan. Qaysi kuni xo'jayin qolip bilan boshimga shunday urdiki, yiqilib tushdim, zo'rg'a o'zimga keldim. Turmushim har qanday itnikidan ham battar... Alyonaga ham salom ayting, g'ilay Yegorkaga ham, kucherga ham, mening garmonimni hech kimga bermang, deb nevarangiz Ivan Jukov, jon bobo, tezroq keling».

Vanka xatni to'rt bukladi-da, bir kun oldin bir tiyinga sotib olgan konvertga soldi... Biroz o'ylab turib keyin peroni siyohga botirdi-da:

Bobom qishlog'iga

deb manzilini yozdi.

Keyin yelkasini qashib, biroz o'ylanib «Konstantin Makarichga tegsin», deb qo'shib qo'ydi. Hech kim xalaqit bermasdan xat

yozganidan xursand bo'lib, boshiga shapkasini kiydi va ko'ylakchan yugurganicha ko'chaga chiqib ketdi...

Kunduz kuni so'raganida qassoblar «xat pochta qutisiga solinadi, qutilardan olinib, mast yamshchiklar mingan, uch otli qo'ng'iroqlar osilgan aravalarda butun yer yuziga tarqatiladi», deb aytishgan edi. Vanka eng yaqin pochta qutisiga chopib bordi-da, qimmatbaho xatni qutiga soldi.

Bir soatlardan keyin umidlar allasi ostida qattiq uyquga ketdi... Tushiga pech kirdi. Pechda bobosi yalang oyoqlarini pastga osiltirib, oshpaz xotinlarga xat o'qib berayotgan emish... Pech yonida Vyun dumini likillatib aylanib yurganmish...

UYQU ISTAGI

Tun. O'n uch yashar dastyor qiz Varka bola yotgan beshikni tebratadi va eshitilar-eshitilmas ming'irlaydi.

Alla aytay senga-yo,
Alla qo'zim, alla-yo...

Sanam oldiga shamchiroq yoqilgan, uyning u burchagidan bu burchagiga tortilgan arg'amchiga yo'rgak latta va katta qora shimlar osilgan. Chiroq shu'lasidan shipga katta doira shaklidagi ko'kimtir dog' tushib turipti. Shim va lattalar pechga, belanchakka, Varkaga uzun-uzun soya solgan... Chiroq lipillaganda shipdagi dog' bilan soyalarga jon kirib, shamoldan silkinayotganday qimirlaydi. Uy dim. Hamma yoqni karam sho'rva, charm va mum tutib ketgan.

Bola yig'layapti. U allaqachonlar holdan ketib tovushi bo'g'ilib qolgan bo'lsa ham, big'illamoqda, hali-beri ovunadiganga o'xshamaydi. Varkani uyqu bosib, ko'zlari yumilmoqda. Bo'yni tolib, boshi yerga og'ib boradi. Na qovog'ini qimirlata oladi, na lablarini. Nazarida yuzi qovjirab, tarashaday qotgan, boshi to'g'nag'ichning boshiday kichkina bo'lib qolganga o'xshaydi.

Alla qo'zim, alla-yo,
Senga oshlar pishira-yo... ,

deb mig'irlaydi u.

Pechkada chigirtka chirillaydi, narigi uyda xo'jayini va uning shogirdi. Afanasiy xurrak tortadi. Belanchak noliganday g'ijirlaydi. Varka ming'irlaydi. Bularning hammasi qo'shilib allalovchi tun musiqasiga aylanadiki, bu musiqani o'ringa yotib eshitganda huzur qiladi kishi. Bu musiqa Varkaning g'ashiga tegadi, chunki uyqusini keltiradi, uxlash esa mumkin emas. Xudo ko'rsatmasin, agar uxlab qolsa bormi, xo'jayini urib o'ldiradi.

Chiroq lipillaydi, shipdagi dog', soyalarga jon kirib, Varkaning yarim ochiq harakatsiz ko'ziga suqilganday bo'ladi...

Uning mudrayotgan miyasida alaq-chalaq tushga aylanadi. Varka osmonda bir-birini quvlashib, boladay yig'layotgan qora bulutlarni ko'radi. Birdan yel esib, bulutlar g'oyib bo'ldi va suyuq loy bilan qoplangan keng tosh yo'l paydo bo'ldi, yo'ldan aravalar o'tmoqda, uning orqasidan tugun ko'targan odamlar bormoqda, notayin ko'lankalar yelib yurmoqda: yo'lning ikki tomonida sovuq tuman qoplagan o'rmon zo'rg'a ko'zga chalinadi. Birdan haligi odamlar tugunlari va soyalar bilan o'zlarini yerga tashlab suyuq loyga yotishadi. – «Nega bunday qildinglar?» – deb so'raydi Varka. – «Uxlaymiz, uxlaymiz», – deyishadi ular. Mast va shirin uyquga ketishadi. Qarg'alar, zag'izg'onlar telegraf simlariga qo'nib, xuddi yig'layotgan boladay qichqirishib haligilarni uyg'otishga urinishadi.

– Alla aytay senga-yo, alla qo'zim, alla-yo... – deb ming'irlaydi Varka va o'zini qorong'i dim uyda ko'radi.

Yerda uning otasi rahmatlik Yefim Stepanov to'lg'anayotir, qiz uni ko'rmaydi-yu, lekin og'riqqa chidolmay, ag'anayotganini va ingrashini eshitadi. Unda, uning o'z ta'biri bilan aytganda, «grija kasali avj qilayapti». Og'riq shu qadar kuchliki, bir og'iz so'z aytishning ilojini qilolmay entikadi, ingraydi.

Onasi Pelageya yugurganicha xo'jayinning hovlisiga, Yefim o'lay deyapti, deb aytgani ketgan. Uning ketganiga xiyla vaqt bo'lib qoldi, kela qolsa ham bo'lar edi. Varka pech ustida uyg'oq yotib, otasining «oh-vohiga» quloq soladi. Mana, aravada kimningdir kelib to'xtagani eshitildi, xo'jayin uyiga shahardan mehmon bo'lib kelgan yosh doktorni yuboripti. Doktor uyga kirdi, uni qorong'ida ko'rib bo'lmasa ham yo'talgani va eshikni yopgani eshitildi.

– Chiroq yoqing, – dedi u.

– Uh-uh-uh, – deb javob qildi Yefim.

Pelageya irg'ib pechka yoniga kelib gugurt qutisini izladi. Bir daqiqa jim qolishdi. Doktor cho'ntagini kovlab, o'z gugurtini yoqdi.

– Hozir, taqsir, hozir, – deb Pelageya yugurganicha uydan chiqib ketdi-da, birozdan so'ng sham qoldig'ini yondirib kirdi.

Yefimning ikki yuzi yallig'lab, ko'zlari yaraqlab turibdi. Ayniqsa, ko'z qarashi shunday o'tkirki, uyni va doktorni teshib yubormoqchi bo'lgandek tikiladi.

– Xo'sh, nima bo'ldi? – dedi doktor engashib. – Ehe! Qachondan beri shunday bo'lib qoldi?

– Nima dedingiz? O'lay deyapman, janobi oliylari, kunim bitgan... tuzalmayman...

– Qo'y, qo'y bemaza gapingni... davolaymiz!

– Bilganingizni qiling, janobi oliylari, qulliq, faqat biz shuni bilamiz... ajal tikilib kelsa, chora yo'q.

Doktor chorak soatcha Yefimning u yoq-bu yog'ini ko'rdi, so'ng o'rnidan turib:

– Qo'limdan hech narsa kelmaydi... Kasalxonaga borishingiz kerak, u yerda operatsiya qilishadi. Hozirning o'zida bor... Albatta, bor! Vaqt biroz kech, kasalxonadagilarning hammasi uxlab qolishgandir. Lekin mayli, men to'rt enlik xat yozib beraman. Uqdingmi?

– Taqsir, nimada boradi? Bizda arava yo'q, – dedi Pelageya.

– Hechqisi yo'q, men xo'jayinlarga aytib ko'raman, arava berishadi.

Doktor ketdi. Chiroq o'chib, yana haligi «oh-voh...» eshitiladi. Yarim soatdan keyin ko'cha eshigi oldiga arava yuborishipti, Yefim o'rnidan turib, kiyinib, kasalxonaga jo'nadi...

Tong otdi, musaffo ertalabki payt. Pelageya uyida yo'q; u Yefimning holini bilgani kasalxonaga ketgan. Qayerdadir yig'layotgan bolaning ovozi keladi. Varkaning qulog'iga kimningdir uning tovushi bilan bolani allalayotgani eshitiladi.

– Alla qo'zim, alla-yo, alla aytay senga-yo...

Pelageya qaytib keldi; cho'qindi va pichirlab:

– Kechasi operatsiya qilishgan ekan, ertalab jon beripti... Joyi jannatda bo'lsin... Kechroq harakat qilibsizlar deyishdi... Ertaroq olib borganda bo'lar ekan.

Varka o'rmonga borib o'sha yerda yig'lab o'tirdi, birdan birov uning bo'yniga shunday musht urdiki, qizning peshonasi borib qayinga tegdi: ko'zini ochib, oldida xo'jayinni – etikdo'zni ko'rdi.

– Bu nimasi, la'nati? – dedi u, – bola yig'lasin-u, sen uxlagin!

U yaxshilab qizning qulog'idan cho'zdi. Qiz boshini silkiganicha belanchak tebratib, ming'irlab allani aytadi. Shipdagi dog' va yoyig'lik shim, yo'rgak lattalaridan tushib turgan soyalar tebranib, lipillab yana uning miyasini ishg'ol qildi, u yana haligi suyuq loy bilan qoplangan yo'lni ko'rdi. Tugun ko'targan odamlar va soyalar yotib, qattiq uyquga ketgan. Ularni ko'rib Varkaning ham juda uyqusi keladi. O'ziga qolsa-ku, jon deb yotardi-ya, lekin onasi Pelageya yonida ketmoqda, u tezroq yur deb shoshirmoqda. Ikkovi ham jadallab shaharga ketishyapti, ishga kirishmoqchi:

– Xudo yo'liga biroz xayr qilinglar! – deb onasi yo'lovchilardan sadaqa so'raydi. – Xudo xayringizni bersin, yaxshilar!

– Ber, bolani bu yoqqa! – deb qichqiradi unga javoban tanish bir ovoz, – ber bolani bu yoqqa! – deydi yana haligi ovoz, qattiqroq va jahl bilan, – uxlayapsanmi, kasofat?

Varka cho'chib ketadi, u yoq-bu yog'iga qaraydi, na tosh yo'l bor, na Pelageya va na yo'lovchilar: bolasini emizgani kirgan bekasi uyning o'rtasida turipti, bu barvasta xotin bolani ovutib, emizib bo'lguncha Varka kutib turadi. Deraza g'ira-shira yorishib, shipdagi dog' va soyalar xiralashib boradi. Birozdan keyin tong otadi.

– Ol! – dedi beka, ko'ylagining tugmasini sola turib, – yig'layapti, ko'z tekkanga o'xshaydi.

Varka bolani olib belanchakka yotqizib yana tebratadi. Soyalar, shipdagi dog' asta-asta yo'qoladi va qizning ko'zini tindirib, miyasini gangitadigan narsa ham qolmaydi. Lekin hali ham avvalgicha uyqu bosib kelmoqda, hamon uyqusi keladi! Varka boshini belanchakning bir chetiga qo'yib, uyqusini qochirish uchun butun gavdasi bilan tebranadi. Ko'zi yumilib, boshi og'irlashadi.

– Varka, pechkaga olov yoq! – deydi xo'jayini narigi uydan turib.

Demak, o'rnidan turib, ish boshlaydigan vaqt bo'lipti. Varka belanchakni qo'yib o'tin keltirish uchun saroyga qarab yuguradi. U xursand, chunki yugurib ish qilib yurganda bir joyda o'tirgan-

day uyqu kelmaydi. U o'tin keltirib, olov yoqarkan, qotib qolgan yuzlari yumshab, ruhi yengillashganday bo'ladi.

– Varka, samovar qo'y! – deb qichqiradi bekasi.

Varka tutantiriq qilib, to uni yondirib samovarga tashlaguncha bekasi yana:

– Varka, xo'jayinning kalishini yuvib qo'y, – deb buyruq beradi.

U yerga o'tirib, kalishni yuvar ekan, shu katta va chuqur kalishga boshingni tiqib, birpasgina mizg'ib olsang qanday yaxshi bo'lardi, deb o'ylaydi. Birdan kalish shishib-kengayib uyday katta bo'lib qoldi. Varkaning qo'lidagi cho'tkasi yerga tushib ketdi. Varka darhol boshini silkib, ko'z oldidagi narsalar kattalashib, harakatlanmasin deb ko'zlarini kattaroq ochishga tirishdi.

– Varka zinani yuvib qo'y, mijozlar kelsa uyat qiladi.

Varka zinani yuvadi, uylarni yig'ishtiradi, so'ng ikkinchi pechkani yoqadi va baqqollik do'koniga qarab yuguradi. Ish ko'p, biron daqiqa bo'sh vaqt yo'q.

Lekin hammasidan ham oshxonadagi katta stol yonida turib, bir joyda qimirlamay kartoshka artishdan og'ir ish yo'q. Boshi stolga og'ib boradi, kartoshka jimirlashib, pichoq qo'ldan tushadi, yenglarini shimargan, semiz, badjahl beka bo'lsa atrofda shang'illab yuradi. U shunday qattiq so'zlaydiki, uning ovozi qulog'ingda jaranglab turadi. Yana kir yuvish, ish tikish, ovqat vaqtida xizmat qilib turish ham o'lguday mashaqqat, shunday vaqtlar bo'ladiki, hech narsaga qaramay polga yotib uxlaging keladi.

Kech kiradi, Varka derazadan qorong'i tushayotganini ko'rib, qotib borayotgan chekkalarini ikki qo'li bilan qisadi va nimaga xursand bo'layotganini o'zi ham bilmay kulimsiraydi. Qorong'i uning mudroq ko'zlariga xush yoqib, uyqudan darak berayotganday bo'ladi. Kechqurun uyga mehmon keladi.

– Varka, samovar qo'y! – deydi bekasi.

Samovar kichkina bo'lganidan mehmonlar choyga qonguncha uni besh marta qaynatishga to'g'ri keladi. Choydan keyin Varka soatlab bir joydan qo'zg'almay mehmonlarga qaraydi va xo'jayinning amrini kutadi.

– Varka, yugur, uch shisha pivo olib kel.

U joyidan sakrab turadi va uyqusini o'chirish uchun ildamroq yuguradi.

– Varka bor, araq olib kel! Varka, parma qayerda? Varka, baliqni tozala!

Nihoyat, mehmonlar ketishadi, chiroqlarni o'chirib, xo'jayinlar yotishadi.

– Varka, bolani tebrat! – degan so'nggi buyruq eshitiladi.

Pechda chigirtka chirillaydi; shipdagi dog', yoyig'lik shim va yo'rgak lattalardan tushib turgan soyalar lip-lip qilib yana Varkaning ochiq ko'ziga suqiladi. uni gangitadi.

– Alla aytay senga-yo, – deb ming'illaydi u, – alla qo'zim, alla-yo...

Bola yig'lab, qotib-qotib qoladi, Varka yana haligi katta loy tosh yo'lni, tugun ko'targan odamlarni, Pelageyani, otasi Yefimni ko'radi. U hammasini taniydi, hammasini tushunadi-yu, lekin karaxt qilib, uning qo'l-oyog'ini bog'lab qo'ygan, yashashga monelik qilayotgan bu kuch qanaqa ekanligiga chala uyqu ichida sira tushunolmaydi. U ana shu kuchdan qutulish uchun u yoq-bu yog'iga qaraydi. Lekin uni topolmaydi. U nihoyat, charchagan holda o'zining butun kuchini, sezgisini to'plab shipdagi lipillayotgan dog'ga tikiladi va quloq solib, yashashga monelik qilayotgan dushmanini topadi.

U dushman – bola ekan.

Qiz kulib yubordi, nega shuncha kundan buyon shu arzimagan narsani tushunolmay yurgan ekan? Shipdagi dog', soyalar va chigirtka ham hayron bo'lib unga qo'shilib kulayotganday tuyuldi.

Shu xayol Varkani butunlay chulg'ab oladi, u o'rnidan turib, iljayganicha ko'zlarini yummasdan, uyning u boshidan bu boshiga yuguradi. Qo'l-oyog'iga kishan bo'lib turgan boladan hozir qutulaman, degan xayol uni qitiqlaydi, xursand qiladi. Bolani o'ldiradi-yu, keyin huzur qilib uxlaydi.

U kulib, ko'zlarini qisib, shipdagi dog'ga qarab, barmog'i bilan tahdid qiladi, asta belanchak yoniga boradi va engashib bolani bo'g'adi; keyin darhol polga yotib uxlashning iloji topilganidan behad sevinadi va bir daqiqadan so'ng o'likday uxlab qoladi.

TEGIRMONDA

Tegirmonchi Aleksey Biryukov o'rta yoshlardagi norg'ul bir odam, kulbasining ostonasida o'chib qolgan trubkasini erinchoqlik bilan so'rib o'tirardi. Uning afti uyqudan oldin Jyul Vern kitobini o'qigan yosh bolalarning tushiga kirib chiqadigan, xuddi bolta bilan yo'nilganda qo'pol, terisi qalin, zalvori bilan yuruvchi matroslarga o'xshardi. Bu safar uning egnida soldatlar kiyadigan kulrang movut shim, oyog'ida katta va og'ir etik bo'lib, ko'cha nim va izg'irin kuz bo'lsa ham boshyalang va ko'ylakchan edi. Nam tuman tugmalari yechilgan nimchasidan kirib, badanida bemalol kezib yurar, ammo tegirmonchining qadoq bo'lib ketgan g'adir-budir badani sovuqni sezmagandek edi. Uning qip-qizil go'shtdor yuzi endi uxlab turganday lanj, shishib ketgan qovoqlari ostidagi kichik ko'zlari atrofga – goh to'g'onga, goh bostirmali eski saroyga, goh qari va beso'naqay tollarga xo'mrayib qarardi.

Saroy oldida endigina monastirdan kelib turgan ikki monax ivirsib yurardi. Ularning biri oppoq soqqalli novcha Kleopa bo'lib, loy sachragan kamzul bilan yamoq solingan nimcha kiygan, ikkinchisi – qoradan kelgan, qora soqol-mo'ylovli, egniga oddiy dehqonlar kamzuli kiygan Diodor edi, aftidan, gruzin bo'lsa kerak. Ular tegirmonga keltirgan javdarni aravadan tushirmoqdalar. Ulardan sal narida ezilgan va iflos ajriqda Yevsey degan qarol g'irt mast o'tirardi. Yevsey hali mo'ylovi chiqmagan yosh o'smir, egnida yirtilib ketgan kalta chopon. U qo'lidagi baliq to'rini zo'r berib g'ijimlar va o'zini to'rni yamash bilan mashg'ul odamday ko'rsatishga tirishardi.

Tegirmonchi uzoq vaqt atrofga qarab o'tirdi, keyin ko'zlarini qop tashib turgan monaxlarga tikdi-da, yo'g'on ovozi bilan:

– Hoy, monaxlar, nega daryodan baliq tutasizlar? Kim ruxsat berdi sizlarga, – dedi.

Monaxlar indashmadi, hatto tegirmonchiga qayrilib ham qarashmadi.

Tegirmonchi indamay turubkasini chekdi va so'zida davom etdi:

– O'zingiz tutganingiz tutgan, yana shaharlilarga ham nega tuttirasizlar. Men bu daryoni shahardan va sizlardan ijaraga olganman. o'z vaqtida ijarasini to'lab turaman, demak, baliq meniki, uni ovlashga hech kimning haqi yo'q. Xudoga sig'inasizlar-u, o'g'irlik qilishdan qo'rqmaysizlar.

Tegirmonchi esnadi, birpas jim turib, yana vaysashga kirishdi:

– Topgan qiliqlarini qara-ya! Monax bo'ldim, avliyo bo'ldim, hech kim tegmaydi, deb o'ylarsizlar. Sudga ariza bersam nima qilarkinsizlar? Sud monaxligingga qarab o'tirmaydi, qamab qo'yadi. Sudsiz o'zim ham biryoqli qilishga qudratim yetadi. Daryoda ushlab olib bir do'pposlayki, qiyomatgacha ham baliq yeging kelmasin!

– Bekor shunaqa gaplarni gapirasan-da, Aliksey Dorofeich, – dedi Kliopa, ingichka ovoz bilan. – Xudodan qo'rqqan saxiy odamlar bunday gaplarni, biz-ku monaxlar-a, itga ham aytmaydi!

– Monax emish – dedi tegirmonchi masxara qilib! – Senga baliq kerakmi? Kerak bo'lsa mendan sotib ol, o'g'irlama!

– Voy, tavba-ey! Qani o'g'irlaganimiz? – dedi Kliopa, xunob bo'lib. – Nega bunday deysan, axir? Monaxlarning baliq tutgani rost, axir, bunga arximandrit hazratlari ruxsat berganlar-da! Arximandrit sizni butun daryo uchun emas, faqat bizning qirg'oqqa to'r solish uchun pul to'lagan deb aytadilar. Daryoning hammasi sizga berilgan emas... U siznikі ham emas, biznikі ham, xudoniki...

– Arximandrit ham senga o'xshagan odam, – dedi tegirmonchi, trubkasini etigining poshnasiga urib, – u ham muttaham odam! Men uning kimligini surishtirib o'tirmayman. Menga sen ham, arximandriting ham, anovi Yevsey ham bir. Agar daryoda ushlab olsam, uni ham do'pposlayman...

– Monaxlarni tutib olib urmoqchi bo'lsangiz, ixtiyor o'zingizda. U dunyoda azobini o'zingiz tortasiz. Vissarion bilan Antipiyni urdingiz, boshqalarni ham ura bering.

Diodor Kliopaning yengidan tortib:

– Qo'y, tegma unga, – dedi.

Kliopa birdan o'ziga kelib, jim bo'ldi-da, yana qopini tashishga kirishdi. Tegirmonchi hamon vaysar edi. U har kalima so'zdan keyin trubkasini so'rib, yerga tupurib, istar-istamas vaysardi. Baliq ustidagi gap tamom bo'lgach, bir vaqtlar monaxlar muttahamlik qilib olib ketgan ikkita qopi esiga tushdi-da, yana vaysay ketdi: keyin Yevseyning mast va bekor o'tirganini ko'rib, monaxlar bir yoqda qolib ketdi-da, xizmatkoriga yopishdi. U hech og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan haqorat qilar edi.

Monaxlar oldiniga ancha chidab turib, faqat uh tortibgina qo'yardilar, biroq oxirida Kliopaning toqati toq bo'ldi... Qo'lini qo'liga urib, jig'ibiyroni chiqib, dedi:

– E, Parvardigor, tegirmonga kelishdan boshqa jazo yo'qmidi! Bu yerdan do'zax yaxshiroq!

– Kelma, nega kelasan? – deb po'ng'illadi tegirmonchi.

– Jon deb kelmasdig-u, ammo boshqa tegirmonni qayerdan oladi! O'zing bilasan-ku, bu atrofda senikidan boshqa biroita tegirmon yo'q! Yo donning o'zini yeyish, yo ochdan o'lish qoldi, boshqa iloj yo'q.

Tegirmonchi gapdan qolmas, hamon so'kinardi. Trubka so'rish unga qanchalik odat bo'lib qolgan bo'lsa, vaysash va so'kinish ham shuncha odat bo'lib qolganligi ravshan edi.

Kliopa shoshib qolganidan kipriklarini pirpiratib:

– Juda bo'lmasa shaytonni tilingga olma! Birpas jim o'tir, rahming kelsin, axir! – deb o'tinardi.

Tegirmonchi jim bo'ldi, ammo Kliopaning yolvorishidan emas. To'g'on boshida kichkina, dumaloqqina, ochiq yuzli, xuddi qo'ng'izning orqasiga o'xshagan yo'l-yo'l ko'ylak kiygan bir kampir ko'rindi. Kampir bir qo'lida tuguncha ko'tarib, bir qo'li bilan hassa tayanib kelar edi... Tegirmonga yaqinlashib kelib:

– Assalomu alaykum, taqsirlar! – dedi, monaxlarga ta'zim qilib. – Xudo madad bersin! Salom, Alyoshenka! Salom, Evseyushka!..

Tegirmonchi kampirga boshini ko'tarib qaramadi, qovog'ini solib:

– Keling, ona, – deb po'ng'illadi qo'ydi.

Kampir tegirmonchining yuziga jilmayib va yoqimtoygina qarab:

– Senga mehmon bo'lib keldim, o'g'lim! Ko'pdan beri ko'rmaganim uchun sog'indim. Ko'rishganimizga xiyla bo'ldi o'ziyam... Senga yoqsayam keldim, yoqmasayam! Sen ham o'zingni ancha oldirib qo'yibsanmi, nazarimda... – dedi.

Kampir tegirmonchining yoniga kelib o'tirdi, tegirmonchining bahaybat gavdasi yonida uning egnidagi mursagi yana ham qo'ng'iznikiga o'xshab ketdi.

– Xiyla bo'ldi ko'rishmaganimizga!.. – davom etdi kampir. – Sog'indim, bolam, yuraklarim ezilib ketdi, seni ko'raman deb. Endi bu yoqqa otlanay desam, yo yomg'ir yog'adi, yo tobim qochib qoladi...

– To'g'ri shahardan kelishingizmi? – deb so'radi tegirmonchi, xo'mrayib.

– Shahardan kelishim, bolam, shahardan... to'g'ri uydan chiqib kelishim...

– Bemor odamsiz, qarib qolgansiz, mehmondorchilikka yurgandan ko'ra uyda o'tiring. Xo'sh, nega keldingiz? Kovushingizni ayamaysiz!..

– Seni bir ko'ray deb keldim-da, bolam... – dedi kampir. Keyin monaxlarga qaradi. – Ikki o'g'lim bor, bittasi bu, yana biri – Vasiliy. U shaharda turadi. Nihoyati ikkitagina. Tirikmanmi, o'lib ketdimmi, ularning parvoyiga kelmaydi, men bechora bo'lsam bolalarim, ovunchog'im deb o'laman... Mensiz bularning kuni o'taveradi, men ularsiz bir kun ham turolmayman... Qarib qolganman, shahardan yurib kelish menga og'irlik qiladi.

Oraga jimlik cho'kdi. Monaxlar javdar solingan qoplarni saroyga tashib bo'lib, dam olgani aravaga chiqib o'tirishdi... Kayfi taraq Yevsey hamon to'rini g'ijimlar va mudrar edi.

– Bevaqt kepsiz, ona, – dedi tegirmonchi. – Shu topda Karyajinoga jo'namoqchi bo'lib turuvdim.

– Keta ber! Yo'ldan qolma! – dedi kampir, xo'rsinib. – Meni deb ishingdan qolasanmi... Birpas damimni olib, qaytib ketaman... Senga, Alyoshenka, Vasya bola-chaqasi bilan salom deb yubordi...

Hali ham araq ichgani ichganmi?

Ko'p ichmaydi, har zamonda... Ichganni ichmagan deydimi, ichadi... Ko'p ichay desa, o'zing bilasan, puli yo'q, saxiy odamlar ichirsa... Uning turmushi nochor, Alyoshenka, uning hol-ahvolini ko'rib juda qiynalib ketdim... Yey desa, ovqati yo'q, bolalari yalang'och, o'zi ko'chaga chiqay desa, uyaladi, oyog'ida etigi yo'q, ishtonlari yirtiq... Oltovimiz bir uyga tiqilganmiz. Qashshoqlik ham shunchalik bo'lar, bundan ortiq bo'lmas... Men ham yordam berarmikinsan, deb keldim. Onangni hurmat qil, o'g'lim, Vasiliyga qarash... Ukang-ku, axir!

Tegirmonchi teskari qarab, indamay o'tirardi.

– U qashshoq, sen bo'lsang xudoga shukur, o'zingga tuzuksan! Tegirmoning yurib turipti, ekin ekkansan, baliq tutib sotasan... Xudo seni aql-hushli qilib yaratipti... boshqalardan baland ko'rib, davlatli qilipti... O'zing ham yolg'izsan... Vasyaning to'rtta bolasi bo'lsa, uning ustiga men o'lgur ham uning qo'lidaman, oladigan oyligi nihoyati yetti so'm. Nimasiga yetqizsin? Yordam qil...

Tegirmonchi trubkasiga tamaki tiqib hamon jim o'tirardi.

– Berasanmi? – deb so'radi kampir.

Tegirmonchi og'ziga talqon solganday jim o'tiraverdi. O'g'lidan hech qanday javob olmagach, kampir monaxlarga, Yevseyga bir-bir qarab chiqdi-da, o'rnidan turdi.

– Xo'b, mayli, bermasang berma, – dedi. – Bermasligingni o'zim ham bilardim. Nazar Andreich deb kelgan edim oldingga... Yig'layverib qo'ymadi meni, Alyoshenka! Qo'llarimni o'pib, sening oldingga yubordi...

– Nima kerak ekan unga?

– Qarzini uzsin deydi. Tortib bersin, deb jovdari eltgan edim, qaytarib bergani yo'q deydi.

– Birovning ishiga aralashmang, ona, sizning ishingiz emas bu, – deb po'ng'illadi tegirmonchi. – Ibodatingizni qilib yuravering.

– Ibodat qilaman-u, bilmadim, xudo dargohiga qabul qilmayapti. Vasiliy qashshoq, o'zim ham gadoychilik qilaman, ustimdagi mursak ham birovniki, sen bo'lsang badavlatsan, bilmadim yuraging qanaqa ekan! Qizg'anchiqlik seni odamgarchilikdan

chiqardi, bolam! O'zing tuppa-tuzuk odamsan: aql-hushing joyida, chiroylikkina yigitsan, ko'paslarning ko'pasisan, ammo haqiqiy odamga o'xshamaysan! Keling oyi demaysan, chiroyingni ochib gapirmaysan, xuddi yovvoyiday, xasis, berahmsan... Aftingga qaragan kishi qo'rqadi... Odamlar orasida duv-duv gap... Ana, monaxlardan ham so'rab ko'r! Odamlarning qonini so'rarmishsan, jabr qilarmishsan, qaroqchi-xizmatkoring bilan birga kechalari yo'lovchilarni talarmishsan, o'g'irlarmishsan... Tegirmoning xuddi balo-qazoning makoni... Qizlar bilan yigitlar qo'rqib, yaqin yo'lashmaydi, sendan hamma o'zini chetga tortib yuradi. Kain bilan Iroddan farqing qolmapti...

Nodonsiz ona!

– Sen qadam bosgan yerda o't ko'karmas, nafas olgan joyingdan pashsha uchmas odamsan. «Qani endi, tezroq uni birov bo'g'ib o'ldirsa yoki sud qilib kesdirib yuborsa!» deb hamma orzu qiladi. Ona bo'lib shunday gaplarga men qanday chiday? Sen meni o'z o'g'limsan, mening qonimsan...

– Men ketay endi, – dedi tegirmonchi o'rnidan turib. – Xayr, ona, yaxshi boring!

Tegirmonchi bostirmadan arava g'ildiratib chiqdi, keyin ot yetaklab chiqdi-da, xuddi itni qo'shganday aravaga qo'shdi. Kampir uning atrofida yurib, namli ko'zlari bilan o'g'lining yuziga termilib qarar edi.

O'g'li, ustiga kamzulini jadal kiyayotganda:

– Xayr, bolam! Yaxshi qol, bizlarni eslab tur, – dedi kampir, ovozini pastlatib. – Shoshma, senga atab sovg'a olib keluvdim. – Kampir tugunchani yechdi.

– Kecha dyachoknikiga borib edim, – dasturxonga qo'yishgan ekan... Bittasini senga deb olib berkitib qo'ygan edim...

Kampir o'g'liga uzatgan narsa bitta kichkina shirin kulcha edi...

– Nari tursangiz-chi! – deb o'shqirdi tegirmonchi, kampirning qo'lini siltab tashlab.

Kampir xijolat bo'lib, qo'lidagi kulchasini yerga tushirib yubordi va sekin-sekin yurib to'g'on tomonga ketdi... Bu voqea hammaga qattiq ta'sir qildi. Nihoyatda hayratda qolib, g'azab-

langan monaxlar u yoqda tursin, hatto g'ırt mast Yevsey ham bu voqeani ko'rib toshday qotib qolgan va xo'jayinidan ko'zini uzmay o'tirardi. Monaxlarning va o'z xizmatkorlarining vajohatlarini payqadimi, yo ko'kragida allaqachonlar so'ngan o'g'illik hissi uyg'ondimi, har holda tegirmonchining yuzida ham qo'rquvga o'xshash bir narsa aks etdi...

– Ona! – deb chaqirdi u.

Kampir bir seskanib, qayrilib qaradi. Tegirmonchi shoshib-pishib cho'ntagidan katta charm hamyonini chiqardi... Hamyonidan bir siqim qog'oz va tanga pul olib, kampirga uzatdi va:

– Mana, bu sizga, oling! – dedi.

U qo'lidagi pullarni g'ijimlab ko'rdi, nima uchundir monaxlarga bir qarab qo'ydi, keyin yana g'ijimladi. Qog'oz pullar va kumush tangalar barmoq oralaridan birin-ketin yana hamyonga tushib ketdi, qo'lida faqat bir tanga qoldi... Tegirmonchi chaqaga bir qaradi, barmoqlari bilan artdi-da, yuzi qip-qizargani holda, onasiga uzatdi.

YOVUZ NIYATLI KISHILAR

(Ko'rganlar hikoyasi)

Traktir polovoyi[1] unga bir-ikki xil bor taomlarning nomini aytib bergach, u biroz o'ylab turib:

– Bo'lmasa bizga yangi karam solingan ikkita borsh bilan jo'ja keltir. Xo'jayiningdan so'ra, vinosi bormikin... – dedi.

Keyin traktir shipiga qarab: – Biram pashshalaring ko'p ekan-ey, deganini hamma eshitdi.

Mazkur kishini «u» deb aytishimizning sababi shuki, na polovoylar, na traktir egasi va na u traktirda o'tirgan mijozlar uning kimligini, bizning shahrimizga qayerdan va nima ish bilan kelib qolganini bilishmas edi. U savlatli, yoshi anchaga borib qolgan, ust-boshi yangi va aftidan ko'ngli oq, oliyjanob kishi edi. Uning ust-boshiga qarab aristokrat desa ham bo'lardi. Ko'krak cho'ntagidagi oltin soatga, bo'ynidagi gavhartosh qadalgan galstugiga ko'zimiz tushdi. Uning jigarrang shlyapasi ichida tugmali qo'lqoplari yotardi, bunday fason qo'lqopni ilgari faqat vitse-gubernatorning qo'lida ko'rgan edik. Ovqat ustida bizga nuqul odobli va oliyjanobligini ko'rsatmoqchi bo'lib, vilkani chap qo'li bilan ushlar, dam o'tmay sochiq bilan lablarini artar, oldidagi ryumkaga pashsha tushib qolguday bo'lsa aftini burishtirar edi. Pashsha bor joyda idish-tovoqning toza bo'lmasligi aniq; oddiy mijozlar u yoqda tursin, hattoki ispravnik, stanovoy yoki yo'lovchi pomeshchiklar ham traktirga tushlik qilgani kirganda pashsha o'tirib ketgan tovoq yoki ryumka berilsa sira shikoyat qilishmaydi, u bo'lsa polovoy idishlarni issiq suv bilan yuvib keltirmaguncha ovqatga qo'l tekizmadi. Oliftalik qilib o'zida yo'q oliyjanoblikni ko'rsatmoqchi bo'lsa kerak.

---

[1] Ilgarilari Rossiyada restoran, oshxona va traktirlarda yollanib ishlovchi qarollarni shunday deb atardilar. Polovoylar ham ovqat pishirar, ham pollarni yuvar, umuman u yerdagi hamma qora ishlarni bajarar edilar *(tarj.)*.

Uning oldiga endi borsh keltirilgan ediki, stol yoniga yana bir noma'lum shaxs kelib o'tirdi, bu kishi tepakal, soqol-mo'ylovi qirilgan, ko'zida tilla ko'zoynak, egnida shohi kostyum bo'lib, uning ham oltin soati bor edi. Ovqat ustida u nuqul fransuzcha gapirar, taomlarni va atrofdagi odamlarni qiziqib tomosha qilardi, bundan uning ajnabiy ekanligi bilinib turar edi. Uning o'zi kim, qayerlik, shahrimizga nima ish bilan kelgan – bu ham bizga noma'lum.

Bir qoshiq sho'rvani og'ziga olib, boyagisi, ya'ni gavhartosh taqqani, aftini burishtirdi-da, zaharxanda bilan:

– Bu haftafahmlarning qo'liga tushgan yangi karamdan ham sasigan hid keladi. Sira yeb bo'lmaydi. Menga qara, hoy azizim, bu shaharning hamma odamlari ham xuddi shunday cho'chqaday iflos turishadimi? Butun shaharda bir kosa mazzalik borsh topilmasa-ya! Tavba!

Keyin o'zining ajnabiy o'rtog'iga fransuzchalab nimalarnidir gapirdi. Uning gapidan faqat «koshon» degan bir so'z esimizda. Oldidagi borshdan sassiq qo'ng'izni olib tashlab, polovoyga qarab:

– Men senga suvarak solingan borsh keltir deganim yo'q, ahmoq! – dedi.

– Borshga uni men solganim yo'q, taqsir, o'zi tushgandir. Xotiringiz jam bo'lsin, suvarak chiqmaydi, – deb javob berdi polovoy.

Jo'ja yeyilib bo'lgandan keyin boyagi kishi bir varaq qog'oz bilan qalam chaqirtirib, qandaydir doira va raqamlar chizishga kirishdi. Ajnabiy kishi u bilan anchagina kelishmay, boshini chayqab, bahslashib o'tirdi. Doira va raqamlar chizilgan qog'oz hali ham traktirning egasida turipti; traktirning egasi u qog'ozni maktablarning nazoratchisiga ko'rsatgan edi, u doiralarga uzoq tikilib qarab turdi-da, bir uh tortib, «Hech narsa tushunib bo'lmaydi» deb qaytib berdi. Boyagi kishi, ya'ni galstugiga gavhartosh taqqani, ovqat pulini to'lab, polovoyga yap-yangi besh so'mlik uzatdi, u pulning haqiqiy yoki qalbaki pulligi noma'lum, chunki uni tekshirib ko'rish esimizga kelmapti.

– Menga qara, traktir erta bilan soat nechada ochiladi? – deb so'radi, boyagi kishi polovoydan.

– Kun chiqishi bilan.

– Juda soz. Erta bilan soat beshda biz choy ichgani kelamiz. Ovqat tayyorlab qo'y, lekin pashshasi bo'lmasin. Ertaga erta bilan qanday voqea ro'y berishidan xabaring bormi? – deb so'radi u, ko'zini qisib.

– Yo'g'-a.

– Undog' bo'lsa, ertaga erta bilan hayron qolarkansanlar!

Bu gap bilan odamlarni qo'rqitib, o'zining ajnabiysiga kulib bir nima dedi-da, ikkovi traktirdan chiqdi. Ular Marfa Yegorovna degan es-hushli bir bevanikida qo'nishgan edi, ammo u ayolning sira gunohi yo'q; ular bilan til biriktirmagan ham. Endi u qamalarkanman deb, xum bo'lib yig'lab yuripti. Uning to'g'ri fikrli ayol ekanligiga, uning gunohsizligiga biz guvoh. O'zingiz o'ylab ko'ring, uyiga ijrachilarni qo'yganda, ularning kimligini va ularning fikrini qaydan bilardi, deysiz?

Ertasi kuni ertalab naq soat beshda boyagi kishilar traktirda hozir edilar. Bu safar ularning qo'llarida portfel, kitoblar, g'alati-g'alati qutilar bor edi. Ularning gaplaridan, yurish-turishlaridan qandaydir hayajonlanish va shoshqaloqlik sezilardi. Unisi, ya'ni ajnabiydan boshqasi, bunday dedi:

– Shimol-sharq tomondan bulut bosib kelmoqda. Ishimizni buzmasaydi.

Bir stakan choy ichib, traktir egasini o'z oldiga chaqirtirdi-da, traktir oldidagi sahnga bir stol bilan ikki kursi chiqarib qo'yishni buyurdi. Traktirning egasi nodon odam, ammo bironta noto'g'ri ish bo'lishidan gumondor bo'lsa-da, bu buyruqni bajardi. Boyagi kishilar, keltirgan narsalarini ko'tarib, traktirdan chiqib, stol yonidagi kursiga o'tirishdi. Butun xaloyiqning ko'zi oldida, ochiq maydonda bemalol joylashib olishdi. Tentaklikni qarang! Ikkovi bir-biri bilan gaplashib, stol ustiga qog'ozlarini, chizmalarini, qop-qora oynalar va qandaydir trubkalarni yoyib qo'yishdi. Traktir egasi botinar-botinmas stol yoniga borib engashib qaragan edi, boyagi kishi, ya'ni gavhartosh taqqani, uni qo'li bilan itarib:

– Nari tur, o'zing bilmagan ishga burningni suqma, – deb berdi.

Keyin soatiga qaradi, ajnabiyga bir nimalar dedi-da, qop-qora oynadan kunga qaradi. Ajnabiy ham qo'liga bir trubkani olib, u ham osmonga qaradi... Ana shundan keyin shu mahalgacha olamda bo'lmagan dahshatli baxtsizlik boshlanib ketdi. Birdan osmon va yerni qorong'ilik bosayotganini fahmlab qoldik, go'yo birdan momaqaldiroq bo'ladiganday edi. Ajnabiy qo'lidagi trubkasini stolga endi qo'yib, qog'ozga shosha-pisha bir narsa yozib, qo'liga qora oyna olgan edi, bir kishi:

– Xaloyiq, kun kuya boshladi! – deb baqirib qoldi.

Darhaqiqat, yog'log'iga o'xshash qop-qora bir narsa oftobning ustiga bosib kelib, uni berkita boshladi. Kunning yarmi ko'rinmay qolganini va boyagi noma'lum kishilarning g'alati harakatlarini davom ettirishlarini ko'rgan kishilar, Vlasov degan gorodovoyga murojaat qilishib:

– Gorodovoy, nega bunday tartibsizliklarga yo'l qo'yasan? – deyishgan edi, u:

– Oftob mening dahamga qaramaydi, – deb javob berdi.

Shahar ma'murlarining mana shunday beg'amliklari orqasida ko'p o'tmay oftob butunlay yo'qoldi. Birdan tun kirdi, kunduzning qayoqqa yo'qolgani hech kimga ma'lum bo'lmay qoldi. Osmonda yulduzlar ko'rindi. Tunning bevaqt boshlanishidan shahrimizda quyidagi hodisalar yuz berdi. Hammamiz juda qo'rqib, dovdirab qoldik. Nima qilishimizni bilmay, hammamiz maydonning u boshidan bu boshiga yugurishib, bir-birimizni turtib, «Gorodovoy! Hoy gorodovoy!» deb qichqiraverdik. Otlar, sigirlar va ho'kizlar (shu kunlarda shaharda qoramol yarmarkasi ochilgan edi) dumlarini xoda qilib, ma'raganlaricha shaharda yugurib, aholini qo'rqitar edi. Itlar uvilladi. Musofirxonaning nomerlaridagi barcha qandalalar endi tun kirdi, jon kirdi deb sevinib, uya-uyalaridan chiqib, uxlab yotganlarni zo'r berib chaqdi. Shu paytda o'z polizidan bodring ortib kelayotgan dyakon Fantasmagorskiyning yuragi chiqib ketganidan, aravadan o'zini tashlab, ko'prik tagiga berkinib oldi, oti esa aravani birovning qo'rasiga sudrab kirgan edi, aravadagi hamma bodringlarni cho'chqalar yeb

qo'ydi. Lstesov degan bir amaldor shu kecha uyida emas, qo'shni hovlidagi bir xotinnikida yotgan edi (haqiqat ozor topmasligi uchun bu tafsilotni berkitib ketolmaymiz), ko'chaga ko'ylakchan yugurib chiqib, xaloyiq orasiga kirib, dahshatli tovush bilan:

– Qochganing qochib qol! – deb qichqirdi.

Shovqin-surondan uyg'ongan ko'p xonimlar hatto boshmoqlarini kiymay ko'chaga oyoqyalang qochib chiqishdi. Yana ko'p voqealar ro'y berdiki, ularni faqat yashrincha aytish mumkin. Faqat o't o'chiruvchilar qo'rqmasdan bemalol yotishdi, chunki ular qotib uxlar edilar, biz bunga guvohmiz. Bu voqealarning hammasi 7-avgust kuni erta bilan bo'lib o'tdi.

Noma'lum kishilar esa, qiladiganini qilib, qog'oz-daftarlarini yig'ishtirib, yana kun chiqishi bilan, izvoshga o'tirib, noma'lum tomonga jo'nab ketishdi. Ularning kimligini biz ham bilmaymiz. Ularning alomatlarini bildiramiz: ana unisi, ya'ni ko'kragiga gavhartosh taqqani – o'rta bo'yli, toza yuzli, peshonasi tirishgan, ajnabiysi – o'rta bo'yli, gavdasi to'ladan kelgan, soqol-mo'ylovi qirilgan, yuzi top-toza, engahi o'rtacha; uzoqdan qaralsa, pomeshchik Karasevichga o'xshaydi; ko'zlari ojiz bo'lsa kerak, ko'zoynak taqib yuradi.

Avstriyadan kelgan josuslar emasmikin?

OQSOQOL
(Ko'rinish)

N. degan bir uyezd shaharidagi iflos qovoqxonalardan birida oqsoqol Shelma yog'liq bo'tqa yeb o'tiradi. U bo'tqadan uch qoshiq yegandan keyin bir ryumka araq ichdi-da, «bo'ldi, endi boshqa ichmayman» deb qo'ydi.

– Shunday, azizim, dehqonlarning mojarolarini biryoqlik qilish nihoyatda mushkul ish, – deydi u qovoqxona egasiga murojaat qilib. U tugmalari hadeb yechilib ketaverganidan qadab qo'yish uchun stol tagiga engashadi. – Shunaqa, do'stim! Dehqonlarning ishi butun bir siyosat, bunga Bismark ham ojizlik qilgan. Bunaqa ishlarni olib borish uchun o'ta aqlli va epchil bo'lmoq kerak. Mana, nega meni mujiklar hurmat qilishadi? Ne sababdan ular menga pashshadek yopishaveradilar? Nega? Nega men yog'li bo'tqa yeb o'tiribman-ku, boshqa advokatlarning yegan bo'tqasi yog'siz bo'ladi? Buning sababi nimada? Sababi shundaki, mening miyamda talant, idrok bor.

Shelma pishqirib yana bir ryumka ichdi-da, kirlanib ketgan bo'ynini cho'zib, kekkayib o'tirdi. Bu odamning bo'ynigina emas, balki qo'llarini, ko'ylagini, shimini, qo'lidagi ro'molchasini, quloqlarini kir bosib saxtiyon bo'lib ketgandi.

– Men donishmand emasman. Yolg'onning nima keragi bor? Advokatlar kursida o'qimaganman, bilimdonlar singari oliyjanob liboslar kiymayman, ammo maqtanchog'lik bo'lsa ham, deymanki, million so'm bersang ham mendek advokatni bir umr topolmaysan. Albatta, Skopinning ishini biryoqlik qilish qo'limdan kelmaydi, Sarra Bekker ishini ham epolmayman, ammo dehqonlarning ishiga kelganda hech qanaqa o'tkir himoyachi, prokuror... hech kim menga bas kelolmaydi. Rost aytaman! Dehqonlarning ishini mendan bo'lak hech kim biryoqlik qilolmaydi. Xoh Lomonosov bo'l, xoh Betxoven bo'l, mendagi talant senda

bo'lmasa bu ishga urina ko'rma ham! Mana, Replovodagi oqsoqolning ishini misol qilib ol. Replovo oqsoqolining mojarosini eshitgandirsan?

– Yo'q, eshitganim yo'q.

– Juda yaxshi mojaro, siyosiy ish! Plevakovning ham tishi sinar edi, faqat mening kuchim yetdi bu ishga. Mana shunaqa. Men senga aytsam, birodari aziz, Moskvadan sal narida qo'ng'iroq zavodi bor. O'sha zavodda, men senga aytsam, bizning replovolik Yevdokim Petrov degan bir mujik katta master bo'lib ishlaydi. Yigirma yildan buyon o'sha zavodda ishlaydi. Posportiga qarasang mujikning o'zginasi, yalangoyoq, ammo aftiga qarasang sira mujikka o'xshamaydi. Yigirma yil ichida siyqalanipti, odamga o'xshab qolgan-da. Xoh inon, xoh inonma, egnida trinka kostyum, qo'llarida uzuk, ko'kragida tilla zanjir, xullas, oliyjanobday! Hech mujikka o'xshamaydi. Oyligi bir yarim ming bo'lsa, uy-joy bergan bo'lsa, yegani oldida, yemagani ketida bo'lsa, zavod egasi bilan inoq bo'lsa, shunday darajaga ham yetmasinmi. O'zingdan o'zing oliyjanob bo'lib ketasan kishi... Aft-basharasi ham, men senga aytsam, mana bundoq (u yana bir ryumka ko'taradi)... Kunlardan bir kun o'sha Yevdokim Petrov, men senga aytsam, o'z vataniga, bizning Replovo qishlog'imizga kelmoqchi bo'pti. O'sha zavodda turaverib, o'z qishlog'ini sog'inib qopti. Qo'ng'iroq zavodida-ku katta masterning turmushi yaxshi-ya, zerikib nima qilasan, tinch turavermaysanmi? Ammo, men senga aytsam, Amerikaga borsang ham yuz so'mliging ko'p bo'lsa, baribir qovoqxonani sog'inasan, ko'ngling ketadi. Har holda sog'inganidan, bir kelgisi kelipti. Xo'-o'sh! Xo'jayinidan bir haftaga javob opti-da, Replovoga jo'napti. Eng oldin tug'ilib o'sgan uyiga qo'nipti. «Men yoshligimda shu yerda turgan edim, hov anovi yerda otamning podasini boqardim, mana bu yer – yotadigan joyim edi» depti. Xullas yoshligi esiga tushib shunga o'xshash gaplarni qilipti. Tag'in maqtanib ham qo'yipti: «Mana, ko'rdilaringmi birodarlar! Men ham sizlarga o'xshash yalangoyoq edim, mehnat qilib, ter to'kib martabaga yetdim, badavlat bo'ldim. Sizlar ham mehnat qilsalaring...» deb vaysapti.

Yalangoyoqlar oldiniga uning nasihatlarini eshitib, hurmat qilib yurishipti, keyin o'ylab qolishipti. «Gapirgan gaplaring joyida, rost, hammamizga ham yoqadi, ammo sendan bizga qanday foyda tegadi? Kelganingga bir hafta bo'pti-yu, hanuz bir qultim araq ichirmading» deyishipti, uyiga yuzboshini yuborib.

– Yevdokim, yuz so'm pul ber!

– Ha, nega endi?

– Yurtga, araq uchun... yurt sening sog'liging uchun ichmoqchi...

Yevdokimning o'zi bama'ni, odobli, xudojo'y odam, araq ham ichmaydi, tamaki ham chekmaydi, boshqalarga ham ichirmaydi.

– Araq uchun sariq chaqa ham bermayman.

– Nega endi bermas ekansan? Nima haqing bor bermaslikka? Sen bizning odamimiz emasmi?

– Sizning odam bo'lsam nima qipti? Sizlardan qarzim yo'q... Oramiz ochiq. Shunday bo'lgandan keyin, nega pul beray?

– Ana gap-u, mana gap! Yevdokim o'z aytganida turib oldi, yurt esa o'z aytganida. Keyin yurtning g'azabi qo'zg'ab ketdi. Ahmoqlarni bilasan-ku o'zing! Ming gapir – baribir tushunmaydi. Yurtning ichgisi kelgandan keyin o'n ikki xil tilda gapir, zambarakka solib ot, baribir tushunmaydi. Ichgimiz keldi deb turib olishadi. To'g'ri-da! O'zi hamqishloq bo'lsa-yu, himmati bo'lmasa! Bu nima degan gap? Shundan keyin Yevdokimdan har qanday yo'l bilan bo'lsa ham yuz so'm olish uchun har xil ig'vo to'qishga kirishdi. Shuncha tirishsalar ham to'qiy olmadi hech kim. Eshigi yoniga kelib, «senimi, shoshmay tur!» deb qo'rqitishadi. Yevdokim bo'lsa uyida bemalol o'tiraveradi. «Xudoning oldida ham, bandaning oldida ham, qonun oldida ham sofman, nimadan qo'rqay? Erkin qushman, qayoqqa uchsam – uchaveraman!» depti. Xo'sh. Mujiklar puldan umidlarini uzadilar, ammo ularning hurmatini qilmagan o'sha erkin qushning qanotlarini yulib olish chorasini izlay boshladilar. Kallalarida zig'ircha aql yo'qligidan, menga odam yuborishdi. Darhol men Replovogo bordim. «Ishlar xurjin Denis Semyonich, pul bermayotir. O'zing buning chorasini ko'r!» deb arz qilishdi menga. Qanday chora topib bo'lardi deysan? Chora topishning sira iloji yo'q, hamma

gap ravshan: barcha qonun Yevdokim tomonida. Manaman degan prokuroring ham ming yil bosh qotirsin, – chorasini topolmaydi... Bunga shaytonning ham aqli yetmaydi-da.

Shelma yana bir ryumkani ko'tarib, ko'zini qisib qo'ydi.

– Chorasini men topdim, mening aqlim yetdi! – dedi kulib u. – Men topdim! Qanday qilganimni o'ylab top-chi, qani! Ming o'ylasang ham topolmaysan! Men mujiklarga, «Xaloyiq, uni o'z qishloqlaringga oqsoqol qilib saylanglar» dedim. Ular darhol gapning tagiga yetib, uni o'zlariga oqsoqol qilib saylashdi. Bu yog'ini eshit. Yevdokimga oqsoqollik muhrini keltirib berishdi. U bo'lsa kulib-qotib yotipti. «Hazilni qo'yinglar, men sizlarga oqsoqol bo'lishni istamayman!» deb javob berdi.

– Sen istamasang, biz istaymiz!

– Istamayman dedim, istamayman! Ertagayoq qishloqni tashlab ketaman!

– Ketolmaysan! Haqqing yo'q ketishga. Qonun bo'yicha oqsoqol oqsoqollikni tashlab ketolmaydi.

Bunga Yevdokim:

– Bu lavozimni ustimdan soqit qilaman, – deb javob qipti.

– Haqqing yo'q. Oqsoqol kamida uch yil oqsoqollik qilishi kerak, o'shanda ham sud hukm chiqarsa soqit qilinadi. Biz seni oqsoqol qilib sayladikmi, bo'ldi, na o'zing, na biz o'rindan tushirolmaymiz!

Yevdokim dod soldi, faryod ko'tardi, darrov volostnoy oqsoqolga yugurdi. Volostnoy va uning mirzasi hamma qonunlarni olib unga ko'rsatishdi.

Falon-falon moddalarga binoan uch yilgacha oqsoqollik qilishing kerak. Uch yil xizmatni bajar, keyin ketaver.

– Qanaqa uch yil? Bu yerda bir oy turishimning ham iloji yo'q! Xo'jayinning mensiz uyi kuyadi-ku! Necha minglab zarar ko'radi! Zavoddan tashqari uy-joyim, bola-chaqalarim ham o'sha yerda!

– Hech iloji bo'lmadi. Oradan bir oy o'tib ketdi, Yevdokim yurtga yuz so'm emas, uch yuz ham berishga rozi bo'ldi. Ular-ku pulni jon deb olardilar, faqat vaqti o'tgan edi. Yevdokim, janobi hazrat huzuriga borib unga arz qildi.

– Sizga arzim bor, janobi oliylari. Oilaviy sabablar vajidan xizmat qilolmayman. Meni bo'shattiring, xudo xayringizni bersin!

– Haqqim yo'q. Seni bo'shatishga qonuniy asos yo'q. Avvalo, o'zing soppa-sog' odamsan, ikkinchidan seni qoralaydigan material yo'q. Xizmat qilishga majbursan.

Senga shuni ham aytib qo'yayki, u yerda kim bo'lmasin hammani sansirab gapirishadi. Volostnoy oqsoqollar, qishloq oqsoqollari poshsholikning martabali odamlari hisoblanadi, mahkama chinovniklaridan ham baland turadi, shunday bo'lsa-da, ularni qarol singari sansirashadi. Trinko kostyum kiygan Yevdokimning bunday sansirashni eshitishga toqati bor deysanmi? Janobi hazratga yalindi, yolbordi.

– Haqqim yo'q, – dedi u. – Inonmasang uyezd mahkamasidan borib so'ra. Hamma ham senga shunday deydi. Faqat men emas, gubernator ham seni bo'shatolmaydi. Xalqning hukmi, agar qoida asosida chiqarilgan bo'lsa, uni hech kim bekor qilolmaydi.

– Yevdokim to'raga arz qilib bordi. To'radan ispravnikka yugurdi. Butun uyezdni kezib chiqdi, hamma yerda – haqqimiz yo'q, xizmat qil, degan javobni qildilar. Ahvoli tang. Zavoddan bo'lsa ketma-ket xat kelib turipti. Yevdokimning qavm-qarindoshlari meni chaqirtirishga maslahat berishipti. Xoh inon, xoh inonma, odam yubormasdan, o'zi ot qo'yib keldi. Kelasolib, gap-so'z yo'q, qo'limga yuztalikni tutqizdi, «umidim sizdan» deb yalindi.

– Xo'p, mayli, yuz so'lkavoyga sizni bo'shattirishim mumkin, – dedim.

Yuz so'lkavoyni olib, uning ishini darrov to'g'riladim.

– Qanday qilib? – deb so'radi qovoqxona egasi.

– Topkin-chi! Oppo-oson. Butun gap – qonunning o'zida.

Shelma, uning yoniga kelib, qahqahlab kula-kula, qulog'iga shivirladi:

– Biron narsani o'g'irlab, qo'lga tushib, ishining sudga oshirilishini maslahat berdim. Qalay? Joyidami? Men senga aytsam, oldiniga u shoshib qoldi. Qanday qilib o'g'irlay, deydi. Mana shunday o'g'irlayverasan-da, – dedim. – Mana, mening ichi bo'sh hamyonim, shuni o'g'irla, bir yarim oy avaxtada yotib chiqasan, vassalom. Oldiniga u nomim bulg'anadi deb, ko'nmadi. Pokiza

nomning senga nima keragi bor, dedim. Nima, sening bitilgan nomayi a'moling bormidi? Bir yarim oy avaxtada yotib chiqasan, vassalom, ish bitadi ketadi. Seni qoralovchi material ham tayyor, oqsoqollik medalini ham sendan tortib olishadi! O'ylab turib-turib, rozi bo'ldi-da, mening quruq hamyonimni o'g'irlab ketdi. Bir yarim oy avaxtada yotib chiqdi, meni haligacha duo qiladi. Mana, aqlni ko'rdingmi endi, og'ayni! Butun dunyoni axtarib chiqsang ham, dehqonlar mojarosiday siyosatni topolmaysan, bundaqa ishlarni mendan bo'lak hech kim yecholmaydi. Hech kim bekor qilolmaydi, faqat mening qo'limdan keladi. Shunaqa.

Shelma yana bir butilka araq chaqirdi-da, boshqa bir hikoya, Replovo mujiklarining birovning o'rilmagan bug'doyini sotib, ichib yuborganlari haqida hikoya boshladi.

QISHLOQ LUQMONLARI

Qishloq kasalxonasi. Ertalab.

Doktor daha politsiyasi boshlig'i bilan ovga ketgani uchun kasallarni Kuzma Yegorov va Gleb Glebich degan feldsherlar qabul qilmoqda edi. Kasallar o'ttiz nafarcha bor. Kuzma Yegorov ularning ro'yxatdan o'tishini kutib kabinetda kofe ichib o'ltiripti. Tug'ilgandan buyon yuz-qo'liga suv, sochiga taroq tegmagan Gleb Glebich bo'lsa katta stolga ko'kragini berib, kuyib-pishib kasallarni yozmoqda. Ro'yxat statistika uchungina olinadi. Unda kasallarning oti, otasining oti, familiyasi, qayerlik, qaysi tabaqadan, yoshi, savodi borni-yo'qligi haqida yozilib, qabul tamom bo'lganidan keyin kasalning nima ekanligi va berilgan dorining nomi yozib qo'yiladi.

– Shunaqa ham rasvo pero bo'ladimi! – deb achchig'landi Gleb Glebich katta kitobga o'xshagan daftarning mayda varaqlariga alomat harflarni yoza turib. – Shu ham siyohmi? Xuddi qora moy-a! Bu zemstvoga hayronman, kasallar ro'yxati olinsin deb buyruq beradi-yu, siyoh olish uchun yiliga ellik tiyin pul chiqaradi. – Beriroq kel! – deb baqirdi u.

Yuz-ko'zini o'ragan bir mujik bilan «hofiz» Mixaylo unga yaqinroq keldi.

– Oting nima?

– Ivan Mikulov.

– A, nima deding? Ruscha gapir!

– Ivan Mikulov.

– Ivan Mikulov! Sendan so'rayotganim yo'q. Nariroq tur! Sen! Oting nima?

Mixaylov kulimsirab:

– Nima, o'zing bilmaysanmi? – dedi.

– Nega kulasan? Jin urganmi buni! Vaqt tang, o'zim shoshib turibman-ku, bu hazil qiladi! Oting nima?

– O'zing bilmaysanmi? Lanjmisan, nima balo!

– Bilaman, lekin so'rashim kerak, chunki so'rovnomada shu savol bor... Biz unaqa lanj bo'lmaymiz... Sizga o'xshab yotib ichadigan odatimiz yo'q... Oting nima? Otangning otichi?

– O'zing bilgandan keyin aytishimning nima hojati bor? Besh yildan beri bilgan odam, oltinchi yilga kelib esingdan chiqarib qo'ydingmi?

– Esimdan chiqarganim yo'q, lekin so'rovnomada shunaqa! Tushunyapsanmi? Yo rus tilini bilmaysanmi? So'rovnoma shunaqa deyapman-ku.

– Jin ursin so'rovnoma shunaqa bo'lsa! Yoz! Mixaylo Fedotich Izmuchenko...

– Izmuchenko emas, Izmuchenkov.

– Ha mayli Izmuchenkov bo'laqolsin... Bilganingni yoz... Ishqilib tuzatsang bas... Bir balo Ivanovich desang ham bo'laveradi... Menga baribir.

– Qaysi tabaqadan?

– Hofiz.

– Yoshing nechada?

– Kim biladi deysan, beshik to'yimga borgan emasman, bilmayman.

– Qirqqa borgandirsan?

– Balki borgandirman, balki bormagandirman... Bilganingcha yozaber.

Gleb Glebich biroz Mixayloga qarab turgandan keyin o'ttiz yetti deb, yozib qo'ydi, so'ng biroz o'ylanib turdi-da, uni o'chirib qirq bir deb tuzatib qo'ydi.

– Savoding bormi?

– Iye, butxonada hofizlik qilguvchining ham savodi bo'lmaydimi? Miyang joyidami o'zi!

– Odamlarning oldida menga baqirmasdan, sizlab gapirmog'ing lozim, yana kim bor? Kimsan? Oting nima?

– Mikifor Pugalov, xoplovolikman.

– Xoplovoliklarni qaramaymiz! Yana kim bor?

– Xudo xayringizni bersin... Janobi oliylari, yigirma chaqirimdan piyoda keldim.

– Xoplovoliklarni qaramaymiz! Nariroq tur! Yana kim bor? Tamaki chekma!

– Men chekayotganim yo'q, Gleb Glebich!

– Qo'lingdagi nima?

– Bumi, barmog'imni bog'lab qo'yibman Gleb Glebich.

– Papiros emasmi? Xoplovoliklarni qaramaymiz. Yana kim!..

Gleb Glebich kasallarni yozishni tamomladi. Kuzma Yegorov kofeni ichib bo'lgach, qabul boshlandi. Gleb Glebich dori-darmon tayyorlash uchun aptekaga ketdi. Ikkinchisi esa kasal ko'rish uchun kleyonkadan qilingan fartukni tutib oldi va:

– Marya Zaplaksina, – deb chaqirdi haligi katta kitobga qarab.

– Shu yerdaman, taqsir!

Kabinetga taqdirning rahmsiz zarbalaridan qaddi bukilgan va bujmayib qolgan kichkinagina kampir kirib, cho'qindi va luqmonga hurmat saqlab salom berdi.

– Him... Eshikni yop!.. Qayering og'riydi?

– Boshim, taqsir.

– Xo'sh... Hammasimi yo bir yog'imi?

– Hammasi, taqsir... Hammasi!

– Boshingni buncha o'rama... Bu lattangni yech! Bosh deganni salqin tutish kerak, oyoqni issiq, gavda o'rtacha bo'lsin... Qorning ham og'riydimi?

– Og'riydi, taqsir...

– Qani, barmog'ing bilan pastki qovog'ingni och-chi! Yaxshi, bas. Qoning kamayib ketipti... Tomizib ichadigan dori beraman... O'n tomchidan uch mahal – ertalab, peshinda ham kechqurun ichasan.

Kuzma Yegorov o'tirib resept yoza boshladi: «Rp: Liquor ferri[1] 3 gr. derazada turganidan, tokchadagisini Ivan Yakovlevich men yo'g'imda ochmanglar deb ketgan. O'n tomchidan kunda uch mahal. Marya Zaplaksinaga berilsin».

[1] Temir eritmasi.

Kampir tomchini nimaga tomizib ichishni so'radi-da, ta'zim qilib chiqib ketdi. Kuzma Yegorovich reseptni devorni teshib qilingan tuynukchadan dorixonaga tashladi va navbat kutib o'tirgan kasallardan birini chaqirdi.

– Timofey Stukotey!

– Labbay!

Kabinetga novcha va oriq, boshi katta, uzoqdan qaraganda xuddi boshi baldoqli hassaga o'xshab ko'rinadigan Stukotey kirdi.

– Qayering og'riydi?

– Yurak kasalim bor, Kuzma Yegorovich.

– Qaysi yeringda?

Stukotey ko'kraging tagini ko'rsatadi.

– Xo'p... Qachondan beri?

– Haytdan buyon... Hali buyoqqa piyoda kela turib xuddi o'n marta dam oldim... Dam etim uvishadi, Kuzma Yegorich... dam alanga-yu otash bo'lib yonaman, Kuzma Yegorich.

– Hm... Yana qayering og'riydi?

– To'g'risini aytsam, Kuzma Yegorich, og'rimagan joyim yo'q. Siz faqat yuragimgagina dori bersangiz bo'ldi, boshqasini qo'yabering... Qolganini xotinlar davolashar... Siz menga spirtga o'xshash biron narsa bersangiz-u, yuragimni changallashini qoldirsa. Shu bir narsa dumalab-dumalab tiqilib kelaberadi, keyin shunday changallaydi, asti qo'ying. Xuddi mana shu joyiga, shunday tutganda orqam, bellarim qaqshab ketadi... Boshimni ko'tarolmayman, xuddi tosh osib qo'yganday. Uning ustiga yo'tal.

– Ishtahang bormi?

– Hech, xudo saqlasin...

Kuzma Yegorov Stukoteyning qornini ochib, mushtumi bilan oshqozoniga bosib ko'rdi.

– Shundoq qilsa og'riydimi?

– Voy... voy... og'riydi!

– Bundoq qilsam-chi?

– Voy... o'laman!!

Kuzma Yegorov unga bir necha savol beradi va biroz o'ylab, so'ng Gleb Glebichni yordamga chaqiradi. Maslahat boshlandi.

– Tilingni chiqar! – dedi kasalga Gleb Glebich.

Kasal og'zini katta ochib tilini chiqaradi.

– Yana ko'proq chiqar.

– Bundan ortiq chiqarib bo'lmaydi, Gleb Glebich.

– Bu dunyoda qilib bo'lmaydigan ish yo'q.

Gleb Glebich bir qancha vaqt kasalga qarab, nimanidir qattiq o'ylab turgandan keyin, yelkalarini qisib qo'yadi-da, churq etmay chiqib ketadi va dorixonadan turib:

– Oshqozon kasali bo'lsa kerak! – deb qichqirdi.

– Bo'lmasam unga olei ricini[1] ammonii edustici[2] berib yuboring, – dedi Kuzma Yegorov, – ertalab va kechqurun qorniga sursin!.. Qani, kimning navbati!

Kasal qabulxonadan chiqib koridor bo'ylab aptekaning derazasiga boradi. Gleb Glebich chorakam bir stakan surgini Stukoteyga uzatdi, Stukotey zo'rg'a ichib lablarini yaladi va ko'zini chirt yumib barmoqlarini bir-biriga ishqab qo'l cho'zdi; ustidan yeb yuborishga biror narsa so'raydi.

– Bu spirt, – deb o'shqirdi Gleb Glebich, shishada nashatirniy spirt uzatar ekan, – ertalab va kechqurun movut latta bilan qorningga surasan... Idishni qaytarib yubor! Bu yerga suyalmanglar! Nariroq tur!

Grigoriy hazratlarining oqsochi Pelageya ro'molining uchi bilan og'zini bekitib, darcha yoniga iljayib kelgan edi, Gleb Glebich unga:

– Xo'sh, xizmat? – dedi.

– Lizaveta Grigorevna sizga salom aytdilar. Gleb Glebich, ozroq nordon doringizdan berib yuborishingizni so'radilar.

– Jonim bilan... Unday nozaninlardan nimani ayardim!

Gleb Glebich tokchadagi bankada turgan nordon dorini olib, yarmini Pelageyaning ro'moliga solib berdi.

– Borganingizda u kishiga aytingki: Gleb Glebichning nihoyatda vaqtlari chog' bo'ldi, juda xursand bo'ldilar deng. Maktubimni oldilarmi?

---

[1] Kanakunjut yog'i.

[2] Nashatir spirt.

– Oldilar-ku, yirtib tashladilar. Lizaveta Grigorevna unaqangi muhabbat ishlariga aralashmaydilar.

– Xo'p satang xotin-da! Borib shunaqa deng!

– Mixaylo Izmuchenkov, – deb chaqirdi Kuzma Yegorov.

Qabulxonaga «hofiz» Mixaylo kirib keldi.

– Mixaylo Fedotich, eshitaylik, qayeringiz og'riydi qadrdonim.

– Tomog'im, Kuzma Yegorich! Huzurlariga kelganmanki, ruxsatingiz bilan aytsam, mening bu tomoq og'rig'im jon koyitishdan ham ko'ra hamyonga ziyon bo'layotipti. Kasallik orqasida hofizlik qilolmayapman, boshlig'imiz peshin namoziga tushgan puldan qirq tiyin ushlab qolayotir, kecha namozgarga tushgan puldan yarim so'm olib qoldi. Janobning uyida bo'lgan janozada salavot aytuvchilarga uch so'm berilgan edi, kasallig'im tufayli menga bir tiyin ham tegmadi. Ruxsatingiz bilan aytsam, tomog'im xususida arz qilsam shuki, tomog'im qirilib, xirillab qolyapman, xuddi halqumimda bir mushuk o'tirib tirnayotganday bo'layotipti.

– Ichkilikdandir-da?

– Bilmadim, nimadan bo'lganini aytolmayman. Ruxsatingiz bilan aytsam, ichkilik bizdaqa ovozi yo'g'on hofizlarga ziyon qilmaydi, qaytaga foyda qiladi, Kuzma Yegorich, yo'g'on tovushni ko'proq shamollash buzadi.

– Kampirga nima beray? – deb so'radi Gleb Glebich teshikdan boshini chiqarib, – derazada turgan dori tamom bo'lgan, tokchadagisini ochaqolaman-da.

– Yo'q-yo'q! Ivan Yakovlevich tegmanglar deb ketgan! Xafa bo'ladi.

– Nima beraman bo'lmasa?

– Biron narsa berib yubor!

Gleb Glebichning tilida «biron narsa» «soda» degani edi.

– Ichkilik ichish yaramaydi.

– Hali ham uch kundan buyon ichganim yo'q... Bu shamollashdan bo'lsa kerak... Haqiqatdan ham araq tovushni bo'g'adi-ku, Kuzma Yegorich, lekin yo'g'on tovushning biroz bo'g'iq bo'lishi o'zingizga ham ma'lum, ovozni quyuqlashtiradi... Menga

o'xshaganlarning kuni araqsiz o'tmaydi. Araq ichmagan hofiz hofizmi! Ruxsatingiz bilan aytsam, hofiz emas, hammaga kulgi bo'ladi, xolos... Kasbim hofizlik bo'lmaganda bu la'nati araqni og'zimga olmasdim. Araq xarom...

– Menga qarang... Sizga dori beraman. Shu bilan ertalab-u, kechqurun tomog'ingizni chayqaysiz.

– Yutsam maylimi?

– Mayli.

– Juda soz... Og'zingni chayqaysan-u, yutmasang alam qiladi kishiga. Tuflab tashlash uvol! Yana sizdan bir narsani so'ramoqchi edim... Tez-tez ichim buzilib turadi, ana shu sababdan, ruxsatingiz bilan aytsam, har oyda qon oldirib, dori ichib turaman. Shunday bo'lgandan keyin xotin olsam mumkinmi, yo'qmi?

Kuzma Yegorov biroz o'ylangandan keyin:

– Yo'q, maslahat bermayman, – dedi.

– Ko'p minnatdorman... Bahosi yo'q hakimsiz-da, Kuzma Yegorich. Har qanday doktordan yaxshisiz, Xudo haqi! Qancha-qancha odamlar haqingizga duo qiladi! Hay-hay!

Kuzma Yegorov uyalgansimon yerga boqdi. U tetik ruh bilan "Natri bicarbonici", ya'ni soda yozib berdi...

POCHTA MUDIRI BILAN SUHBATIM

Pochtmeysterdan bir so'm solingan paketni olaturib:

– Aytingchi, Semyon Alekseich, nima uchun pul paketlarga birdaniga beshta muhr bosiladi? – deb so'radim.

– Busiz mumkin emas... – deb javob berdi Semyon Alekseich, qoshlarini chimirib.

– Ha nega endi?

– Shuning uchun... Mumkin emas!

– Tushunishimcha, bu muhrlar aholiga ham, poshsholikka ham malol kelsa kerak. Muhr paketlarni vazminlashtiradi, aholining hamyoniga ziyon, og'irlik keltiradi; amaldorlar muhr bosaman deb ko'p vaqtlarini sarf qilishib, podsholikka zarar keltiradi. Bundan faqat surg'uch ishlab chiqaradigan fabrika egalari foyda ko'radi.

– Fabrika egalari ham kun ko'rishi kerakmi, axir... – dedi chuqur ma'noli qilib Semyon Alekseich.

– Bu gapingiz to'g'ri-ku, ammo fabrika egalari vatanga boshqa sohalarda foyda keltirishlari mumkin emasmi?.. Yo'q, menga to'g'risini ayting, Semyon Alekseich, beshta muhr bosishning ma'nosi nima? Bekorga bosilmasa kerak, axir? Biron ramziy mohiyati, biron karomati bordir, yo bo'lmasa yana biron boshqa ma'nisi bordir? Davlat siri bo'lmasa, menga shuni tushuntiring, azizim!

Semyon Alekseich biroz o'ylab o'tirdi, keyin og'ir uh tortdi-da:

– Himm... – dedi. – Kerak bo'lgani uchun bosilgandir-da!

– Ha nimaga bosishadi, axir? Ilgarilari konvertlar yelimsiz bo'lmagan vaqtlarda, shuncha muhr bosish zarur bo'lgandir, chunki konvertlarni yovuz kishilar ochishi mumkin edi, endilikda-chi...

– Ha balli! – dedi pochta mudiri, suyunib. – Hozir ham yovuz odamlar yo'q deysizmi?

– Endilikda, – deb davom etdim, – endilikda konvertlarni yopishtirish uchun ularga yelim surtiladi, bu yelim – surg'uchdan ham yaxshi. Uning ustiga paketlarni qog'oz bilan shuncha qalin o'raysizlarki, uning ichiga o'g'ri u yoqda tursin, hatto mikrob ham kira olmaydi. Kimdan ham berkitasizlar konvertlarni, hayronman! Begona odamlar-ku o'g'irlamaydi-ya, agarda o'zingizga qarashli kichik amaldorlardan biri yovuzlik qilmoqchi bo'lsa muhrga ham qaramaydi. O'zingizga ham ma'lum, muhrni ko'chirib olish va yana o'rniga yopishtirib qo'yish birpaslik ish!

– Bu to'g'ri... – deb uh tortdi Semyon Alekseich. – O'z ichingdagi o'g'ridan qochib qutulolmaysan...

– Ha, barakalla! Undoq bo'lsa, muhrning nima kerakligi bor?

– Hamma ikir-chikirlarini surishtiradigan bo'lsang, bunisi nimaga-yu, unisi nimaga deyman desang, miyang aynib ketadi, yaxshisi – qoidada ko'rsatilganini qilaverish kerak... To'g'risi shu!

– To'g'ri aytasiz... – dedim, – lekin yana bir savolim bor sizga... Siz pochta ishlarida mutaxassissiz. Kishi tug'ilgan vaqtda yoki uylanganida nega bunchalik bordi-keldi bo'lmaydi-yu, ammo pul yuborish yoki pul olish vaqtida kishi shuncha sarson bo'ladi? Menga shuni tushuntirib bering! Masalan, mana shu bir so'mni yuborgan mushtipar onamni misol qilib olaylik. Bu ish unga oson bo'lganmikin? Yo'q, kechirasiz. Bir so'm pul yuborishdan ko'ra, yana beshta bola tug'ish osonroq... O'zingiz o'ylab ko'ring... Eng oldin u, uch chaqirim yo'l yurib pochtaxonaga kelishi kerak... Pochtaxonada uzoq vaqt tikka turib navbat kutishi kerak. Madaniyat pochtaxonalarga skameyka yoki kursi qo'yish darajasiga hali yetgani yo'q! Tippa-tik turgan kampirga har yoqdan: «Shoshilmang! Tiqilinch qilmasangizchi! Bu yoqqa suyanmang!» degan tanbeh yog'iladi.

– Busiz mumkin emas-da!

– Mumkin emas, endi buyog'ini eshiting: navbat kelib yetdi, qabulchi paketni oldi, qovog'ini solib, «paketning ustiga «pullik» deb yozmabsiz» deydi-da, kampirning oldiga tashlaydi... Mushtipar onam, «pullik» degan so'zni yozdirish

uchun pochtaxonadan bironta do'konga boradi, u yerdan yana pochtaga kelib, yana navbat kutadi... Xo'-o'sh, nihoyat, paket yana qabulchining qo'liga tegadi. Qabulchi, paket ichidagi pulni sanaydi-da, keyin: «Surg'uchingiz qani?» deydi. Onam bechoraning esiga surg'uch kelarmidi? Uyda surg'uch ishlatilmaydi, bir dona surg'uch baqqolda yarim tanga turadi. Qabulchining jahli chiqadi, ammo poshsholik surg'uchni eritib, surta boshlaydi. Bosgan surg'uchi shu qadar kichkinaki, uni durbindan qarab ham o'qiy olmaysan. «Muhringizni bering!» deydi yana pochtachi. Kampirda muhr nima qilsin? Angishvona bilan temir ko'zoynakdan boshqa uning hech qanday bisoti yo'q...

– Muhrsiz ham bo'laberadi...

– Buyog'ini eshiting... Keyin tarozi haqi, surg'uch haqi, sug'urta haqi to'lash kerak, imzo chekkaniga ham haq to'lash kerak, yana bir balolarga to'lash kerak... bir so'm yubormoqchi bo'lsang, yoningga ikki so'm solib kelishing kerak... Xo'sh, keyin bir so'm pulni 20 ta daftardan o'tkazishadi, shundan keyingina pulni yuboradilar... Endi u pulni siz bu yerdan, o'z pochtaxonangizdan olishingiz kerak... Eng oldin uni siz 20 ta daftardan o'tkazasiz, besh yeriga raqam qo'yib chiqasiz, xuddi o'g'rini qamagandek, sandiqqa solib ustidan o'nta qulf solasiz. Keyin pochtachi menga bir so'm pul kelgani to'g'risida sizdan qog'oz keltiradi, bu qog'ozni falon kunda oldim, deb qo'l qo'yishim kerak. Pochtachi chiqib ketgach, men uyning u boshidan bu boshiga yurib, onamdan o'pkalanaman: «Eh, ona, men sizni qachon xafa qiluvdim? Nima gunohim bor ediki, menga shu bir so'mni yubordingiz? Endi sarsonlikdan boshim qutulmaydi!».

– Ota-onadan nolish gunoh bo'ladi! – deb uh tortdi Semyon Alekseich.

– Ha barakalla, otangizga rahmat! Gunoh bo'lsayam nolimasdan iloji yo'q-da! Ishing boshingdan oshib yotgan bir chog'da politsiyaga yugurishing, o'z shaxsingni, imzongni tasdiqlatib kelishing kerak... Yana shunga shukurki, tasdiqlatish 10–15 tiyin turadi, agar besh so'mdan olganda-chi? Tasdiqlatishning ham nima keragi bor? Siz-ku, Semyon Alekseich, meni otning

qashqasıday tanıysiz. Hammomga ham birga tushıb yurganmız, birgalashıb choy ham ichishganmiz, uzun-uzun suhbat ham qurıb yurganmiz... Shaxsımnı tasdiqlatıshning nima keragı bor?

– Busiz mumkin emas, qoidasi shunday!.. Qoida shunday narsakı, yaxshısı u bilan hazıllashmang... Qoidabozlik, vassalom!

– Axir, meni yaxshi bilasiz-ku!

– Bilsam ham-da. Men sizni bilaman, ammo bordı-yu birdan sız bo'lmasdan, boshqa odam chiqıb qolsangiz nima bo'ladi? Balki noma'lum kishidirsiz!

– O'zingiz o'ylab ko'ring: bir so'm pulnı o'g'ırlash uchun boshqa kishining imzosini qo'yıshdan menga qanday foyda? Bu qalloblik bo'ladi! To'ppa-to'g'rı sizning oldıngızga kelib, sandıqdagı hamma paketlarni changallab olsam qaytangga gunohim ozroq bo'lmaydimi? Men sizga aytsam, Semyon Alekseich, xorijda bu ishlar boshqacha yo'lga qo'yılgan. U yerlarda pochtachi uyingizga keladi-da: «Siz falonchimisiz? Mana, pulingizni oling!» deydi.

– Yo'q, undoq bo'lmasa kerak... – dedi pochta mudiri, boshini chayqab.

– Xuddi shunday-da! U yerlarda hamma ish kishilarning bir-birıga ishonchi asosiga qurılgan... Men sizga, sız menga ishonasiz. Qaysi kuni uyimga mahalla mırshabi mendan sud xarajatlarini undirgani kepti... Men undan shaxsini tasdıqlovchi hech qanaqa hujjat so'ramadim, pulni sanab beraverdim... Bız fuqarolar sızlardan hech qanaqa hujjat talab qilmaymiz-ku, sizlar...

Semyon Alekseich g'amgin suratda iljaydi-da, gapimni og'zımdan oldı:

– Hamma ıkır-chikirini surushtırıb, bunisi nimaga-yu, unisi nimaga degandan ko'ra, yaxshisi...

Pochta mudiri gapini tugatmadi, qo'lini siltadi-da, biroz o'ylab, keyin:

– Bular bizning aqlimiz bilan bitadigan ishlar emas! – dedi.

OLTINCHI PALATA

I

Kasalxona hovlisida kichikroq bir imorat turipti, atrofini o'rmon singari qirqqiz, qichitqon, yovvoyi nasha bosib ketgan. Tomning tunukasi zanglagan, mo'risining yarmi qulab tushgan, kiraverishdagi zinapoya taxtalari chirib, o't bosib ketgan, suvog'ining izigina qolgan. Imoratning oldi kasalxonaga, orqasi dalaga qaragan, daladan uni kasalxonaning ustiga mix qoqilgan kulrang devori ayrib turadi. O'tkir uchlari yuqoriga qarab turgan shu mixlar va shu devor, shu imoratning o'zi ham, – bizda faqat kasalxona va turma binolariga xos bo'lib, – juda befayz va xunuk ko'rinardi.

Agar qichitqon lovullatishidan qo'rqmasangiz, bu imoratga tor so'qmoq yo'ldan borib, ichidagi ahvolni ko'raylik. Birinchi eshikni ochib, dahlizga kiramiz. Devor ostida, pechka yonida kasalxonaning eski-tuskilari uyulib yotipti. To'shaklar, ilma-teshik eski choponlar, ishtonlar, ko'k yo'lli ko'ylaklar, hech narsaga yaramaydigan eski poyafzallar, – bu churuk-choriqlar bir-biriga qorishgani holda chirib, nafasni bo'g'adigan sassiq hid chiqarib yotadi.

Eski-tuskilarning ustida esa doim trubkasini tishlab, harbiy xizmatdan bo'shagan, formasiga yopishtirilgan belgilarning rangi o'chib ketgan keksa soldat Nikita yotadi. Uning yuzi ozg'in, qovog'i soliq, o'siq qoshlari va qizil burni chehrasiga yovvoyi ovcharka qiyofasini berib turadi; o'rta bo'yli, ko'rinishda qotma va chayir; lekin jussasi bahaybat, mushtlari ham juda baquvvat. Uning o'zi dunyoda hamma narsadan ko'ra ko'proq intizomga berilgan, shuning uchun ham, odamlarni urish kerak degan fikrga qattiq ishonadigan, nima buyurilsa darhol bajaradigan, soddadil va befahm kishilardan biri. U

odamlarni ko'kragi, yelkasi, yuz-ko'zi demay duch kelgan joyiga uradi va shusiz bu yerda intizom bo'lmaydi deb ishonadi.

Agar dahliz hisobga olinmasa undan keyin, haligi binoga, katta keng uyga kirasiz. Uyning devori xira ko'k rangga bo'yalgan, mo'risiz uydagidek shipini qurum bosgan – bu yerda qishda pechkalardan tutun qaytishi va is chiqishi shubhasiz. Ichki tomonidan temir panjara o'rnatilib derazalar rasvo qilingan. Pol bo'yalmagan, zirapchalari chiqib yotipti. Uydan achigan karam, qora chiroq, qandala va shiptir hidi keladi. Bu hid dimog'iga urilgan kishi dastlab yirtqich hayvonlar katagiga kirgandek bo'ladi.

Uyda polga mixlab qo'yilgan krovatlar turipti. Krovatlarda egnilariga ko'k xalat, boshlariga qadimgi qalpoq kiygan odamlar yotipti, ba'zilari o'tiripti. Bular jinnilar.

Hammasi bo'lib ular besh kishi. Faqat bittasi kiborlardan, qolganlari meshchanlar. Eshikdan kiraverishdagi birinchi kishi novcha bo'yli, ozg'in, yiltillab turgan sariq mo'ylovlik meshchanin boshini qo'llariga tirab, yig'idan qizargan ko'zlarini bir nuqtaga tikib o'tiripti. U kecha-yu kunduz g'amgin xo'rsinadi va boshini chayqab-chayqab qo'yadi, alam bilan jilmayadi; suhbatga kam qatnashadi va odatda savolga javob bermaydi. Ovqat berilsa, beixtiyor yeydi. Tinmasdan qiynalib qisqa-qisqa yo'talishiga, ozg'inligiga va yanog'larining yallig'lab turishiga qaraganda, unda sil kasali endi boshlanganga o'xshaydi.

Uning naryog'ida cho'qqi soqol, zanjilarga o'xshash qop-qora jingalak sochlik, juda pitirak chol joylashgan. Kunduzlari u, palatada derazalar orasida qatnaydi yoki to'shagida chordona qurib o'tirib, tinmasdan to'rg'ayga o'xshab hushtak chaladi, xirgoyi qiladi va qiqir-qiqir kuladi. U kechalari xudoga sig'ingani, ya'ni mushtumi bilan ko'kragiga urgani va barmog'i bilan eshikni kovlagani turganida ham bolalarcha quvnoq va pitirak bo'ladi. Bu Moiseyka degan juhud, shapka tikadigan ishxonasiga yigirma yilcha avval o't tushgach, es-hushidan ayrilib qolgan tentak.

Oltinchi raqamli palatadagilardan yolg'iz shungagina hovliga, hatto kasalxona hovlisidan ko'chaga chiqishga ruxsat berilgan. U kasalxonaning qadrdon kishisi va beozor, beziyon tentagi. Allaqa-

chonlardan buyon ko'chalarda uni bolalar va itlar bilan qurshalgan holda ko'rishga odatlanilgan shaharning masxarabozi bo'lgani uchun bunday huquqdan ko'p vaqtdan buyon foydalansa kerak. U ko'chalarda egniga chopon, boshiga g'alati qalpoq, oyog'iga tufli kiyib, ba'zan yalangoyoq, hatto ishtonsiz ham yuraveradi. Eshik va do'konlar oldida to'xtab, bir tiyin so'raydi. Bir yerda unga kvas, ikkinchi yerda non, uchinchi yerda bir tiyin berishadi. Shunday qilib, u odatda, xonasiga qorni to'yib va boyib qaytadi. Olib kelgan narsasining hammasini Nikita tortib oladi. Bu qiliqni soldat dag'allik bilan astoydil cho'ntaklarini ag'darib va xudoni o'rtaga solib, bundan so'ng juhudni aslo ko'chaga chiqarmay qo'yishini va dunyoda tartibsizlikdan ko'ra yomon ko'rgan ishi yo'qligini aytib, qiladi.

Moiseyka sermanzirat. O'rtoqlariga suv beradi, uxlab yotgan bo'lsalar ustlarini yopib qo'yadi, ko'chadan ularga bir tiyindan pul keltirishni, yana hammasiga bittadan yangi shapka tikib berishni va'da qiladi; so'l tomonda yotgan falaj qo'shnisiga qoshiq bilan ovqat yedirib qo'yadi. Bu ishlarni u ichi achiganidan yo biror odamgarchilik yuzasidan emas, o'ng tomonidagi qo'shnisi Gromovga taqlid etib, beixtiyor, unga bo'ysunganidan qiladi.

Ivan Dmitrich Gromov o'ttiz uch yoshga kirgan kishi; o'zi kiborlardan, ilgari sud pristavi va guberna kotibi bo'lgan, hozir birov ta'qib qilayotir degan dardga mubtalo. U g'ujanak bo'lib o'rnida yotadi yo sayr qilayotgan odamdek uyning u boshidan bu boshiga qatnaydi, juda kam o'tiradi. U qandaydir bir noma'lum narsani kutib, doim hayajon ichida, vahima changalida, diqqat qilib turadi. Agar dahlizda biron sharpa sezsa, yo hovlida biron tovush eshitsa bas, darrov boshini ko'taradi va: meni olib ketgani kelayotgan bo'lmasinlar, meni izlayotgan bo'lmasinlar, deb quloq soladi. Shunday paytda uning yuzida qattiq bezovtalik va nafrat aks etadi.

Menga uning yanoqlari chiqqan, keng, hamisha xomush va zahil, ko'p vaqtlardan buyon vahima bilan kurashib, azob chekib kelayotgan qalbini oyna kabi o'zida aks ettirib turgan yuzi juda yoqadi. Uning yuz burishtirishlari g'alati, biron og'riqning

natijasiga o'xshaydi; lekin chuqur va haqiqiy iztirob iz tashlagan latif chehrasida idrok va zakkiylik alomati bor. Ko'zlarida yoqimtoylik, salomatlik jilvasi ko'rinadi. Uning o'zi menga ma'qul, yoqimli, sermulozamat va Nikitadan boshqa hammaga juda odob bilan muomala qiladi. Biror kishining qoshig'i yoki tugmasi tushib ketsa, sakrab turib olib beradi. Har kuni ertalab o'rtoqlariga salom beradi. O'rniga yotarkan, ularga xayrli kech tilaydi.

Diqqati doimo qattiq ishlab turishi va yuz burishtirishlaridan tashqari, uning jinniligi yana shundan iboratki, ba'zan u, kechqurunlar choponga o'ralib, a'zoyi badani qaltirab, tishi-tishiga tegib takillab, uyning u boshidan bu boshiga va krovatlar orasida tez-tez yura boshlaydi. Go'yo uni qattiq bezgak tutayotganga o'xshaydi. To'satdan to'xtab o'rtoqlariga qarab qolishidan qandaydir juda muhim gap aytmoqchi bo'lganligi bilinadi, lekin so'zimga quloq solishmaydi yoki tushunishmaydi, degan xayolga boradi shekillik, chidamsizlik bilan bosh silkitadi-yu, yana yuraveradi. Lekin tezda so'zlash istagi barcha mulohazalardan g'olib keladi-da, u o'zini qo'yib yuborib, qizg'in va ehtiros bilan so'zlaydi. Uning so'zlari tartibsiz, xuddi alahlashga o'xshash qisqa-qisqa, shiddatli, ba'zan tushunib bo'lmaydi. Shunisi borki, so'zlarida ham, tovushida ham qandaydir g'oyat yaxshi bir ohang bor. So'zlayotganda uning jinniligi va insonligi namoyon bo'lib turadi. Uning telbalik so'zlarini yozib anglatish qiyin. U inson razilligi, haqiqatni bo'g'uvchi jabr-zulm, yana vaqti kelib yer yuzida bo'ladigan go'zal hayot va har daqiqa zolimlarning ahmoqligi va berahmligini uning yodiga solib turgan derazalardagi temir panjaralar haqida so'zlaydi. Uning so'zlaridan hali zamoni o'tmagan eski, tartibsiz va qovushmagan ashulalardan tuzilgan qurama pyesa hosil bo'ladi.

II

Bundan 12–15 yil avval, shaharning eng katta ko'chalaridan birida, o'z hovlisida Gromov degan o'ziga to'q, obro'yli bir mansabdor bo'lib, uning Sergey va Ivan degan ikkita o'g'li bor edi. Sergey to'rtinchi kurs talabasi ekan, sil bo'ldi-yu, to'satdan

o'lib qoldi. Bu o'lim esa Gromov oilasi ustiga to'satdan tusha boshlagan bir qancha baxtsizliklarning boshlanishi bo'ldi. Sergeyning vafotidan bir hafta keyin keksa otasi qalbaki hujjatlar yasagani va hukumatning pulini yeb qo'ygani uchun sudga berildi va shu orada tif bo'lib, turma kasalxonasida o'ldi. Uyi va butun mollari kimoshdi savdosi bilan sotilib, Ivan Dmitrich bilan onasi hech narsasiz qoldi.

Ilgari, otasi bor mahalda, Ivan Dmitrich Peterburgda yashab, universitetda o'qiyotgan chog'ida har oyda uyidan kelgan 60 – 70 so'mni olib turar, muhtojlik nimaligini bilmas edi. Endi esa hayotini qat'iy ravishda o'zgatirishga to'g'ri keldi. Arzimagan pul uchun ertadan kechgacha dars berish, xat ko'chirish kerak, shunga qaramay ochin-to'qin qoldi. Chunki topgan pulining hammasini onasiga yuboradi. Ivan Dmitrich bunday turmushga dosh berolmadi, ruhi tushib, ko'ngli sinib, o'qishni yig'ishtirdi-da, uyiga ketdi. Bu yerda, o'z shaharchasida tanishlari orqali uyezd maktabiga o'qituvchi bo'lib kirdi. Lekin o'rtoqlari bilan chiqisholmadi, o'quvchilarga yoqmadi, tez kunda ishdan bo'shadi. Onasi o'ldi. U yarim yilcha ishsiz yurdi, kuni faqat non-suv bilan o'tdi, so'ng sud pristavi bo'lib o'rnashdi, kasalligi uchun ishdan bo'shatilguncha shu joyda xizmat qildi.

U hech qachon, hatto yigitlik, talabalik chog'ida ham sog'lom ko'rinmas edi. Doim rangi ketgan, nimjon, salga shamollaydigan, chipxo'r, kam uyqu edi. Bir ryumka vino ichsa, darrov boshi aylanib, esini yo'qotib qo'yar edi. Unda odamga aralashish mayli zo'r bo'lsa-da, o'zining tezligi va badgumonligi tufayli hech kim bilan oshna bo'lolmas, do'sti ham yo'q edi. Shahar xalqi haqida tahqir bilan so'zlab, ularning qo'pol nodonligi va g'aflat bosib, hayvonlarcha yashashi menga qabih va jirkanch tuyuladi, deyardi. U ingichka ovoz bilan qichqirib, qizishib, doim astoydil yo nafratlanib va jahli chiqib, yo zavq bilan va taajjublanib so'zlar edi. U bilan nima haqida so'zlashmang, gapni shu tomonga aylantirardi: shahar dim, kishi zerikadi, jamiyatda yuksak maqsad yo'q, hayotni jabr-zulm, fahsh, olchoqlik bilan turli shaklga kirgizib bema'ni kun kechiradi, muttahamlarning egni butun, qorni to'q,

vijdonli odamlar ochin-to'qin yashaydi; jamiyatga maktab, to'g'ri yo'lga boshlovchi mahalliy gazeta, teatr, ommaviy kitobxonlik, ilmiy kuchlarning bir o'ringa to'planishlari zarur; jamiyatning ongi shunchalik oshirilmog'i kerak-ki, o'z nuqsini ko'rib, kayfi uchib ketsin, deyardi. U odamlar haqida fikr yuritganda quyuq bo'yoqlarni beradi, boshqa ranglarni inkor qilib, faqat oq bilan qoradan foydalanadi; uning fikricha insoniyat muttahamlarga va to'g'ri odamlarga bo'linadi; o'rta xili bo'lmaydi. Xotin-qizlar va muhabbat haqida doim ehtiros va zavq bilan so'zlaydi-ku, ammo o'zi biron marta oshiq bo'lmagan.

Fikrlarining keskinligi va o'zining asabiyligiga qaramay shaharliklar uni sevishadi, erkalatib, orqasidan Vanya deb atashadi. Uning nazokati, sermulozamatligi, serandishaligi, go'zal axloqi, nimdoshgina kamzuli, zaif ko'rinishi va oilaviy baxtsizligi hammasi bir bo'lib kishida unga nisbatan qandaydir rahmdillik uyg'otadi: uning ustiga o'zi ko'p kitob ko'rgan, yaxshigina ma'lumotli va shaharliklarning fikricha hamma narsadan xabardor, go'yo jonlik lug'at edi.

U juda ko'p kitob o'qigan. Hamisha klubda o'tirar, asabiy holda kichkina soqolini o'ynab kitobmi, jurnalmi varaqlardi; yuziga qarab turilsa kitob o'qiyotganga emas, bir narsani chala chaynab yutayotganga o'xshardi. O'qish ham uning nosog'lom odatlarining biri deyish mumkin, chunki qo'liga nima tushsa – bulturgi gazetami, kalendarmi – bir zayilda ishtiyoq bilan darhol o'qishga tutinardi. Uyida bo'lsa, kitobni doim yotib o'qirdi.

III

Kuz kunlarining birida ertalab, palto yoqasini ko'tarib qo'yib, tor ko'cha, pastqam joylarda loyda shaloplab Ivan Dmitrich ijro varaqa bo'yicha qandaydir meshchandan pul undirgani ketayotgan edi. Bugun ertalab ham odatdagicha uning ta'bi xira edi. Tor ko'chalarning birida oyoqlariga kishan urilgan ikki mahbus bilan miltiq ko'targan to'rt soldat uchradi. Ilgari ham Ivan Dmitrich shu singari mahbuslarni tez-tez uchratardi va har gal ular buning ko'nglini g'ash qilib, yuragini ezar edi. Lekin bu

galgi uchratish unda qandaydir alohida, ajoyib bir ta'sir qoldirdi. Nimagadir to'satdan uning ko'ngliga meni ham shularga o'xshatib, oyog'imga kishan urib, xuddi shu taxlitda loyda turmaga haydab ketishlari mumkin degan gap keldi. Meshchanning uyida biroz o'tirgach, uyga qaytarkan, pochtaxona oldida o'ziga tanish politsiya nozirini uchratdi, nozir salomlashdi-da, birgalashib bir necha qadam yurdi, negadir bu voqea unga shubhali tuyuldi. Uyga kelib kechgacha haligi mahbuslar, miltiqli soldatlar xayolidan nari ketmadi va anglab bo'lmaydigan bir vasvasa o'qishga va fikrni bir joyga to'plashga xalaqit berdi. Kechqurun uyiga chiroq yoqmadi, tunni uxlamay, meni qamoqqa olib, kishanga solishlari va turmaga qamashlari mumkin, degan xayol bilan o'tkazdi. U hech qanday gunohi yo'qligini biladi va bundan so'ng ham hech kimni o'ldirmasligi, o't qo'ymasligi va o'g'irlik qilmasligiga ishonchi komil; lekin kishi o'zi bilmay turib yoki g'ayri ixtiyoriy ravishda gunoh qilishi qiyinmi, tuhmatga qolish, qolaversa sud xatosi-chi? Axir, xalqning asriy tajribasi: turmaga tushmayman, devona to'rvasini ilmayman dema, degani bejiz emas-ku. Ayniqsa, sudyalarning hozirgicha ish olib borishida xato qilishlari juda mumkin, yana bunda hayron bo'larlik hech gap yo'q. Boshqalarning azobiga ish, xizmat yuzasidangina qaraydigan odamlar, masalan: sudyalar, politsiyalar, doktorlar, bora-bora shu qadar siyqa bo'lib ketishadiki, ishi tushgan odamga, harchand rasmiy muomala qilmayman desalar ham qo'llaridan kelmaydi: bu jihatdan ular uy orqasida qo'y va buzoq so'yib qonga parvo qilmaydigan dehqondan farq qilmaydi. Shaxsga rasmiyatchilik, beparvolik bilan munosabatda bo'linar ekan, bugunoq bir odamni barcha huquqlaridan, bor-yo'g'idan mahrum qilib, surgunga yuborishlik uchun sudyaga faqat bitta narsa kerak, u ham bo'lsa vaqtdir. Ishning ba'zi rasmiy jihatlariga rioya qilishga ketadigan vaqt (o'sha rasmiyatlar uchun sudyaga oylik to'lanadi), so'ng – ish tamom. Qani undan keyin temir yo'ldan ikki yuz chaqirim uzoqdagi bu kichkina, iflos shaharchada adolat va himoyatni izlab ko'rchi! Turli jabr-zulm, jamiyat tomonidan go'yo shunday qilinishi lozim bo'lgan bir ezgulikday qarshi olinib, har bir

insof yuzasidan qilingan ish, masalan, birovni oqlash haqidagi hukm ularni qanoatlantirmay, intiqom uyg'otgan yerda, haqiqat to'g'risida o'ylashning o'zi kishi kularlik bir hol emasmi?

Ertalab Ivan Dmitrichning yuragi vahm olib, peshonasini sovuq ter bosgan va har daqiqada kelib, qamoqqa olib ketishlariga qattiq ishongani holda o'rnidan turdi. Kechagi qora xayollar bu kungacha nari ketmagan ekan, – deb o'ylardi u, – demak, bir gap bor-da. Axir, bekordan bekorga kishining boshiga bunday xayol kelmaydi-ku.

Mana mirshabning sekin-sekin yurib deraza yonidan o'tishi bejiz emas. Ikki kishi uy oldida to'xtab, jim turipti. Nega ular indamaydi?

Shu zayilda, Ivan Dmitrich uchun mudhish kechalar va kunduzlar boshlandi. Deraza yonidan o'tuvchilar va hovliga kiruvchilarning hammasi josus va izquvar bo'lib ko'rinaverdi. Odatda, choshgoh paytida ispravnik ikki otlik izvoshda ko'chadan o'tardi; o'zining shahar yonidagi bog'idan mirshabxonaga borardi, lekin har gal Ivan Dmitrichning nazarida u odatdagidan qattiqroq ot choptirayotgandek, ayrim bir tarzda: xuddi shaharda bir yangi xavfli gunohkor paydo bo'lganini aytishga shoshilayotgandek ko'rinardi. Ivan Dmitrich har qo'ng'iroq tovushidan, har darvoza taqillashidan cho'chib tushadi, bekanikida har bir yangi odamni ko'rganda ko'ngli qattiq g'ash bo'ladi; agar jandarm yoki politsiyaga duch kelib qolsa, kulimsiraydi va beparvo bo'lib ko'rinish uchun hushtak chala boshlaydi. U butun-butun kechalarni qamoqqa olib ketishlarini kutib, mijja qoqmay o'tkazadi, lekin uy bekasining nazarida uxlayotgandek ko'rinish uchun qattiq xurrak tortib, og'ir nafas olib chiqadi; modomiki ko'ziga uyqu kelmas ekan, vijdon azobi qiynayotgan bo'ladi-da, gunohkor hisoblanishi uchun naqadar kuchli dalil, faktlar va sog'lom mantiq uni bu vahimalarning hammasi – bo'lmag'ur gap va savdoyilik, agar masalaga chuqurroq qaralsa qamoqqa olinishidan, turmaga qamalishdan qo'rqarlik hech gap yo'q, – ko'ngil xotirjam bo'lsa bas, deb ishontirar edi-ku, lekin qanchalik chuqurroq, mantiqliroq fikr yuritsa, vasvasa shunchalik kuchayib, battarroq qiynar edi.

Bu esa bir darvishning qo'l urilmagan o'rmon daraxtlarini kesib, o'ziga joy hozirlamoqchi bo'lganiga o'xshardi: darvish qanchalik jon otib bolta ursa, o'rmon shunchalik tez o'sib, quyuqlasha beripti. Nihoyat, Ivan Dmitrich buning befoydaligini ko'rib, o'ylashga butunlay xotima berdi, o'zini birato'la vahima va umidsizlik changaliga tashladi.

U yakkalikka berilib, o'zini odamlardan chetga torta boshladi. Ilgari ham aslo didiga o'tirishmaydigan xizmati, endi butunlay joniga tegdi. Negakim, qanday qilib bo'lmasin, qo'lga tushirishadi, bildirmasdan cho'ntagimga pul solib qo'yib, keyin topib, pora oldi deyishadi yoki o'zim bilmay qolib hukumat qog'ozlarida yasama hujjatga teng keladigan xatoga yo'l qo'yaman, yo birovning pulini yo'qotib qo'yaman deb qo'rqar edi. Qiziq bir hol: boshqa vaqtda hech qachon uning zehni bunchalik o'tkir va ijodkor bo'lmagan edi, endi esa, o'z ozodligi va nomusiga bo'ladigan tahdiddan jiddiy xavfsirab har kun minglab turli-tuman vajlar o'ylab chiqaradi. Lekin shunisi borki, undagi tashqi olamga, jumladan, kitobga qiziqish ancha susaydi va yaxshigina ovsar bo'lib qoldi.

Bahorda yerdan qor ketgach qabriston yonidagi jardan bir o'g'il bola va bir kampirning chala irigan o'ligi chiqdi. Belgilarga ko'ra ularni birov o'ldirgan edi. Butun shaharda haligi o'liklar va ularning noma'lum qotillari haqida gap tarqaldi. Ivan Dmitrich meni o'ldirgan demasinlar, deb ko'chaga chiqib iljayib yurdi, tanishlari bilan uchrashib qolguday bo'lsa qizarib-bo'zarib, zaif va himoyasiz odamlarni o'ldirishdan ko'ra qabihroq gunoh yo'qligiga ishontirishga urinardi. Lekin bu xomxayol ham tinkasini quritdi va biroz o'yladi-da, u: mening ahvolimda eng yaxshisi – bekaning yerto'lasida bekinib yotish deb bildi. Yerto'lada kechgacha o'tirdi, kechani ham o'tkazib, ertasiga kun bo'yi chiqmadi, juda sovuq edi, qorong'i tushishini poylab, xuddi o'g'riga o'xshab, asta chiqib uyga kirdi. Tong otguncha uy o'rtasida qimir etmasdan tik turib, quloq solib chiqdi. Ertalab kun chiqmasdan bekaning uyiga pech tuzatadigan ustalar kelishdi. Ivan Dmitrich ularning oshxonadagi pechni tuzatgani kelganini yaxshi biladi,

lekin vasvasa unga: bular usta kiyimida kelgan politsiyalar, deydi. U sekin-asta uyidan chiqdi-yu, vahima ichida, boshyalang, kamzulsiz ko'cha bo'ylab chopib ketdi. Orqasidan itlar vovullab quvladi, qayerdadir orqadan birov qichqirdi, yel vizillab qulog'ini bitirdi va Ivan Dmitrichga butun dunyodagi jabr-zulm bir bo'lib, orqasidan quvlayotganday tuyildi.

Uni ushlab olishdi, uyga olib kelishdi va bekasini doktor chaqirishga yuborishdi. Doktor Andrey Yefimich, – bu kishi to'g'risida keyin gapiramiz, – Ivan Dmitrichni boshiga latta ho'llab yopishni buyurdi va lavr-olcha suvini yozib berdi, qayg'uli holda bosh chayqab, bekaga, bundan so'ng kelmayman, chunki aqldan ozayotgan odamlarga xalaqit berib bo'lmaydi, deb ketdi. Uyda yotishga va davolanishga hech narsasi yo'qligidan, tezgina uni kasalxonaga yuborishdi, u yerda, venerik kasallar palatasiga yotqizildi. U tun bo'yi uxlamas, xarxasha qilar, kasallarni bezovta etardi, Andrey Yefimichning buyrug'i bilan tezda oltinchi raqamli palataga ko'chirildi.

Bir yildan so'ng Ivan Dmitrich shaharda hammaning esidan butunday chiqdi va bekasi bostirma tagidagi chanaga olib borib tashlagan kitoblarini bolalar tashib ketdi.

IV

Ivan Dmitrichning chap tomondagi hamxonasi aytib o'tganim, juhud Moiseyka, o'ng tomondagisi esa juda semiz, dumaloq bo'lib qolgan, yuzida hech qanday fikr ifodasi yo'q, zehndan mahrum bir kishi. Bu – ko'p vaqtdan buyon fikr etish, sezish xususiyatlarini yo'qotib qo'ygan kam harakat, xo'ra va iflos bir hayvon. Undan hamisha ko'ngil ozdiradigan qo'lansa hid kelib turadi.

Uning joyini tozalaydigan Nikita mushtumini ayamay, kuchining boricha juda qattiq uradi, bu yerda kishining vahmini keltiradigan narsa uni urishlari emas, bunga odatlanish mumkin, – haligi befahm hayvonning tayoqqa qarshi na tovush, na harakat, na ko'zlarida biror ifoda aks ettirish bilan javob qaytarmay, bezrayib, faqat og'ir bochkadek sal-pal qo'zg'alib qo'yishidir.

Oltinchi raqamli palatada istiqomat qiluvchilarning beshinchisi va so'nggisi – bir vaqtlar pochtada xat saralovchi bo'lib ishlagan ushoqqina, ozg'in, yoqimli, lekin yuzida makkorlik aks etib turgan sariq sochli meshchanin. Uning xushnudlik bilan boqayotgan ma'noli, xotirjam ko'zlariga qaraganda ko'nglida qandaydir juda muhim va yoqimli maxfiy siri bordek ko'rinadi. Uning yostig'i va to'shagi tagida bir narsasi borki, uni hech kimga ko'rsatmaydi. O'g'irlab yoki tortib olishadi deb qo'rqqanidan emas, uyalganidan ko'rsatmaydi. Ba'zan deraza yoniga boradi-da, o'rtoqlariga orqasini o'girib, ko'kragiga nimadir taqadi, keyin boshini egib qaraydi, agar o'sha topda uning yoniga borilsa, xijolat tortib ko'kragidan haligi narsani yulib oladi. Lekin uning sirini bilish qiyin emas.

– Tabriklang, – deydi u, ko'pincha Ivan Dmitrichga qarab, – men ikkinchi daraja yulduzlik Stanislav ordeni bilan mukofotlanishga tavsiya etilibman. Ikkinchi daraja yulduzlik faqat chet ellilarga berilguvchi edi, lekin men uchun negadir istisnoga yo'l qo'yishmoqchi, – deb hayron bo'lib, yelkalarini uchirib kulimsiraydi, – buni qarang, to'g'risini aytsam, hech kutmagan edim!

– Men bu narsalarga tushunmayman, – dedi Ivan Dmitrich xomushgina.

– Lekin bilasizmi, men ertami-kechmi, axir nimaga muvaffaq bo'laman? – deb davom etadi sobiq xat saralovchi, ayyorlik bilan ko'zlarini qisib. – Men, albatta, Shvesiyaning «Polyarnaya zvezda»sini olaman. Shunday ordenki, kiroyi ovora bo'lganingga arziydi. Oq krest, qora tasmali juda chiroyli orden.

Ehtimol boshqa hech yerda hayot shu joydagidek bir zaylda o'tmasa kerak. Falaj bilan semiz kishidan boshqa kasallar ertalab turib, dahlizga chiqib, katta chelakda yuz-qo'l yuvishadi va choponlarining bariga artishadi; undan keyin Nikita katta korpusdan keltirgan choydan qo'rg'oshin krujkada ichishadi. Bir kishiga bir krujkadan ortiq choy berilmaydi. Tush paytida nordon karam sho'rva bilan bo'tqa yeyishadi, kechqurun kunduzgidan qolgan bo'tqani yeyishadi. Ovqat orasidagi vaqtda yotishadi, uxlashadi,

derazadan qarashadı va uyning u burchıdan bu burchiga yurıshadi. Har kun ahvol shu. Haligı sobıq xat saralovchı ham faqat bır xıl orden haqida so'zlaydi.

Oltinchı raqamlı palatadagılar yangı odamnı kamdan kam ko'radı. Yangı jınnı bo'lganlarnı doktor ko'pdan berı qabul qılmay qo'ygan, borıb jinnıxonalarnı ko'radigan havaskorlar esa bu dunyoda juda oz. Bu yerga har ikkı oyda bir marta sartarosh Semyon Lozarich keladi. Uning qanday qılib jinnılarning sochini olishi va Nikitaning qay taxlitda unga yordam berishi, har gal mast bo'lib, kulimsirab kelayotgan sartaroshni ko'rganda kasallarning qanchalik jon titrog'iga tushishları haqida so'z ochmaymız.

Bu yerga sartaroshdan o'zga hech kım kelmaydı. Kasallar har kunı faqat Nikitani ko'rıshga mahkum.

Aytmoqchı, yaqında butun kasalxonaga ancha ajıb xabar tarqaldi.

Oltinchı raqamlı palataga doktor kelib turadigan bo'lıptı, degan ovoza tarqaldi.

V

Ajıb xabar!

Doktor Andrey Yefimich Ragın – o'zıga yarasha ko'p yaxshı odam. Aytıshlaricha, u yoshligida ancha xudojo'y bo'lib, ruhonıy mansablardan bırıda xızmat qılıshga tayyorlanıb yurgan ekan. 1863-yılda gimnazıyanı tamomlagandan keyın, dınıy akademıyaga kırmoqchı bo'lıptı, lekın jarroh va tıb olimi bo'lmısh otasi zaharxandalik bılan undan kulib, agar pop bo'lsang aslo o'g'lım demasman, deptı. Bu gapnıng qanchalik to'g'rı ekanını bılmayman, lekın Andrey Yefimichning o'zı necha bor tıb ılmıga va umuman maxsus fanlarga mayli hech qachon bo'lmaganını necha bor aytgan edi.

Harqalay tıbbıy fakultetnı bıtırgandan keyın pop bo'lmadı. Xudojo'ylik ham qılmadı, hozırgı qıyofatı ruhonıylarga qancha kam o'xshasa, doktorlıkni boshlagan chog'larıda ham xuddi shunday edi.

Uning ko'rınıshi qo'pol, dag'al, dehqonlarga o'xshaydi, yuzi, soqolı, yassı sochi, mustahkam hamda beo'xshov jussasi,

katta yo'llardagi badnafs va o'jar davangirdek mayxonachini eslatadi. Badjahl ko'rinadigan yuzi mayda-mayda ko'k tomirlar bilan qoplangan, ko'zlari kichik-kichik, burni qip-qizil. Baland bo'ylik, keng yag'rinlik bo'lish bilan birga oyoq-qo'llari ham bahaybat, katta: agar bir musht ursa chilparchin qiladiganga o'xshaydi. Ammo ko'p ehtiyot va ohistalik bilan sekin-sekin qadam qo'yadi; agar tor yo'lakda duch kelib qolsangiz u, albatta, sizdan oldin to'xtab yo'l beradi va kutganingizcha yo'g'on tovush bilan emas, ingichka ovoz bilan «kechiring!» deydi. Uning bo'yniga kichikroq shish kelgan, o'sha shish ohorlangan qattiq yoqa taqishga xalaqit beradi, shu sababdan doim chitdanmi, oq surupdanmi yumshoqqina ko'ylak kiyib yuradi. Umuman doktorchasiga kiyinmaydi. Bitta kostyumni o'n yillab egnidan tushirmaydi, juhud do'konidan olingan yangisi ham uning egnida xuddi eski va g'ijim bo'lgan kiyimga o'xshab ko'rinadi; bitta kostyumda kasal ham qaraydi, ovqat ham yeydi, mehmonga ham boraveradi; lekin bu pishiqligidan emas, ust-boshiga butunlay ahamiyat bermasligidan.

Andrey Yefimich bu shaharga, ish qabul qilmoqchi bo'lib kelganida bu «xayriya mahkamasi» juda yomon ahvolda edi. Palatalardagi, yo'laklardagi, hovlidagi qo'lansa hiddan kishining ko'ngli ozar edi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar, kasallarga qarovchi ayollar va ularning bolalari kechasi palatalarda kasallar bilan birga yotishardi. Qandala, suvarak, sichqonlarning ko'pligidan dod deyishardi. Jarrohlik bo'limidan saramas kasali arimasdi. Butun boshliq kasalxonada ikkitagina skalpel bo'lib, bitta ham termometr yo'q, vannalarga kartoshka solib qo'yilgandi. Kasalxona noziri, kastelyansha va feldsher kasallarning narsalarini o'g'irlardi. Andrey Yefimichdan oldingi doktor haqida bo'lsa, kasalxonaning spirtini o'g'irlab sotardi, kasal ayollar va kasallarga qarovchi ayollardan o'ziga butun boshlik haramxona qilib olgan edi, deyishadi. Shaharda bu tartibsizliklarni juda yaxshi bilishadi, hatto mubolag'a qilib so'zlashadi-ku, lekin sovuqqonlik bilan qarashadi; ba'zilar kasalxonada faqat meshchanlar bilan dehqonlar yotishadi, ular norozi bo'lishmaydi,

chunki uylarida kasalxonadagidan yomonroq sharoitda turishadi; ularni qush eti berib boqsinmi, deyishadi. Yana bir xillar zemstvo yordam bermasa shaharning o'z kuchi bilan yaxshi kasalxona tutish qiyin gap; xudoga shukur, yomon bo'lsa ham kasalxona bor-ku, deyishadi. Yaqinda dunyoga kelgan zemstvo shaharning o'z kasalxonasi bor-ku, deb shaharda ham, shaharga yaqin joyda ham shifoxona ochmadi.

Andrey Yefimich kasalxonani ko'zdan kechirib chiqqandan keyin bu muassasa axloqsizlik o'chog'i va shu yerda yashovchilarning sog'ligiga haddan tashqari zararli degan xulosaga keldi. Uning fikricha amalga oshirish mumkin bo'lgan ishning eng yaxshisi, – kasallarni erkinlikka chiqarib yuborib, kasalxonani yopib qo'yish edi. Lekin u shunday xayolga bordi: bu narsa yolg'iz mening ixtiyorimda emas, yana bunday qilishning foydasi ham bo'lmaydi; agar ma'naviy va moddiy ifloslikni bir joydan chiqarib tashlasangiz ikkinchi joyga borib tushadi; o'zi yemirilib bitishini kutish kerak. Buning ustiga hamon odamlar shunday kasalxona ochib, chidab kelishayotgan ekan, demak, o'zlariga kerakdir-da; turmushdagi xurofotlar va shuning singari yaramas va qabih ishlar ham kerak, chunki bora-bora go'ngdan qora tuproq hosil bo'lgandek bulardan ham bir ezgulik paydo bo'ladi. Yer yuzida biron yaxshi narsa yo'qki, u o'zining yaralishida ifloslikdan kelib chiqmasin. Ishni qabul qilib olgach, Andrey Yefimich haligi tartibsizliklarga ko'rinishidan ancha beparvolik bilan qaradi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar va kasallarga qarovchi ayollardan bundan so'ng palatalarda yotmasliklarinigina iltimos qildi, yana kasalxonaga instrumentlar solingan ikkita shkaf qo'ydi; ammo nozir, kastelyansha, feldsher, jarrohlik bo'limidagi saramas kasali o'z joylarida qolishdi.

Andrey Yefimich idrok va halollikni g'oyat sevadi, lekin atrofida halol va ongli turmush yaratishga irodasi yetmaydi, o'z huquqiga ishonmaydi. Buyurish, man qilish va majbur qilishning mutlaqo uddasidan chiqolmaydi. Go'yo asti qattiq gapirmaslik va buyruq fe'lini butunlay ishlatmaslik uchun og'ziga so'z olganga o'xshaydi. «Ber» yoki «Olib kel» deyishlik uning uchun

mashaqqat; qorni ochgan chog'larida botinolmasdan bir yo'talib qo'yadi-da, so'ng oshpaz xotinga, «choy ichib olsammikin-a»... yoki «ovqatlanib olsammikan-a» deydi. Kasalxona noziriga o'g'irlikni to'xtat deyish, yo uni haydab yuborish, bo'lmasa haligi tekinxo'rlik vazifani butunlay yo'qotib qo'yaqolishlik asti qo'lidan keladigan ish emas. Andrey Yefimichni aldayotganlarida, munofiqlik bilan maqtayotganlarida yoki qo'l qo'ydirish uchun yasama hujjat tutganlarida qisqichbaqa singari qip-qizarib ketadi va o'zini aybli his etadi, shunday bo'lsa ham hujjatga qo'l qo'yadi; agar kasallar unga ochlikdan yoki kasallarga qarovchi ayollarning qo'pol muomalasidan shikoyat qilishsa, u xijolat bo'ladi va gunohkor odamday:

– Yaxshi, yaxshi, hali surishtirib ko'raman... ehtimol biron anglashilmovchilik o'tgandir... – deb qo'yadi.

Yangi kelgan chog'larida Andrey Yefimich jon kuydirib ishladi. Har kun tush paytigacha kasal qabul qildi, operatsiyalar qildi, hatto akusherlik tajribasi bilan ham shug'ullandi. Xotinlar uning to'g'risida: juda diqqat bilan qaraydi, kasalni, ayniqsa bolalar va xotinlar kasalini yaxshi biladi deyishardi. Lekin vaqt o'tishi bilan ishning bir xildaligi va chamasi natijasizligi uni zeriktirdi. Bugun o'ttizta kasalni qabul qilsang, ertaga qarabsanki, o'ttiz beshtasi tayyor, uning ertasiga qirqtasi, shu tahlitda kundan kunga, yildan yilga, shaharda esa, o'layotganlarning soni kamaymaydi, kasallar kelishini qo'ymaydi. Ertadan tushgacha qabul qilinadigan qirq nafar kasalga jiddiy yordam berishning hech imkoni yo'q, demak, g'ayriixtiyoriy ravishda aldash bo'lib chiqadi. Hisobot yili o'n ikki ming qatnab boqizuvchi kasal qaralipti, demak, oddiy qilib aytganda, o'n ikki ming kishi aldanipti. Og'ir kasallarni palataga yotqizib, ularni fan qoidasi bilan davolashning yana iloji yo'q, chunki qoida bo'lgani bilan, fan yo'q; agar falsafa sotishni qo'yib, boshqa doktorlar singari ezmalik bilan qoida bo'yicha ish olib bormoqchi bo'linganda ham, buning uchun ifloslik emas, avvalo ozodalik va sof havoli joy, sassiq, achigan karam sho'rva emas, yaxshi ovqat, o'g'rilar emas, haqiqiy yordamchilar kerak.

Hamon o'lim har kimning boshida bor ekan, nega endi ularning o'lishiga xalaqit berish kerak? Bironta savdogar yoki amaldor dunyoda besh-o'n yil ortiqroq turdi nima-yu, turmadi nima? Agar tabobatning maqsadi dori-darmon berib chekayotgan azobni yengillashtirish deb o'ylansa, unda o'z-o'zidan shunday savol kelib chiqadiki, xo'sh, nega yengillashtirish kerak? Birinchidan azob chekish kishini kamolga yetkazadi deydilar, ikkinchidan agar insoniyat chindan ham o'zi chekayotgan azoblarini hab va tomchilar bilan yengillashtirishga o'rgansa din va falsafadan voz kechadi, shu kungacha turli falokatlardan saqlanishnigina emas, hatto baxt-saodatni ham ulardan topib yuradi-ku. Pushkindek odam o'lim oldidan qattiq azob chekkanda, sho'rlik Geynedek odam yillab falaj bo'lib yotganda; hayoti har qanday mazmundan xorij bo'lgan qandaydir Andrey Yefimich yo Matryona Savishna dard tortsa nima bo'pti? Ular dard tortmaganda hayotlari tamomila bekorchi va amyobalar[1] hayotiga o'xshab qolmaydimi?

Mana shunday muhokamalar bilan ezilib, Andrey Yefimichning hafsalasi pir bo'ldi va kasalxonaga kunda kelmaydigan bo'lib qoldi.

VI

Uning hayoti shunday o'tadi: ertalab soat sakkizda o'rnidan turadi, kiyinadi va choy ichadi. Undan keyin kabinetiga kirib kitob o'qiydi yo kasalxonaga ketadi. Bu yerda, tor va qorong'i yo'lakda, qatnab boqizuvchi kasallar qabul vaqtini kutib o'tirishadi. Ularning oldilaridan g'isht to'shalgan polni etiklari bilan to'qillatib, kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar va kasallarga qarovchi ayollar u yoqdan bu yoqqa yurishadi, ozg'in kasallar choponga o'ralib o'tib turadi, o'liklarni va iflos idishlarini olib o'tishadi, bolalar yig'laydi, shamol g'irillab u yoqdan bu yoqqa urib turadi. Andrey Yefimich, isitmasi baland, sil, umuman ko'ngli nozik kasallar uchun bunday joyda turish g'oyat og'irligini yaxshi biladi, lekin nima qilsin? Qabulxonada uni, baqaloq, soqol-mo'ylovlarini taqir qirdirgan, toza va to'la yuzli, harakatlari salmoqli, yangi kengroq kostyum

[1] Bir hujayrali, mikroskop bilan ko'rinadigan jonivor.

kiygan, feldsherlardan ko'ra ko'proq senatorga o'xshaydigan Sergey Sergeich kutib oladi. Bu kishi shaharda keng miqyosda tajriba qiladi, oq galstuk taqadi va o'zini mutlaqo tajribasiz doktorlardan a'loroq deb hisoblaydi. Qabulxonada, burchakda kiot[1] ichida sanam osig'lik, tagida og'ir shamchiroqlar. Uning yonida muqaddas kitobni qo'yish uchun qiya qilib ishlangan oq jildlik kursicha; devorlarida aziz avliyolarning rasmi va Svyatogorskiy monastirining manzarasi, ularning atrofiga qurib qolgan bo'tako'zdan gulchambarlar taqilgan. Sergey Sergevich dindor, shuning uchun ham zeb-ziynatni yaxshi ko'radi. Haligi sanam ham uning harakati bilan qo'yilgan; har yakshanba kuni kasallardan biri uning buyrug'i bilan qabulxonada tovush chiqarib akafist[2] o'qiydi, o'qish tugagach, Sergey Sergeich o'z qo'li bilan isiriq solib, hamma palatalarga tutatib chiqadi. Kasallar ko'p, vaqt oz, shuning uchun butun ish, qisqa-qisqa savol berish, biron surtadigan dori yoki surgi berish bilan chegaralanadi. Andrey Yefimich engahini mushtiga tirab xayol surib o'tiradi va beixtiyor savol beradi. Sergey Sergeich ham shu yerda bo'ladi, qo'llarini bir-biriga ishqab har zamonda so'z qistirib qo'yadi:

– Kasal bo'layapmiz, yo'qchilik tortayapmiz, – deydi u, – xudoga yaxshi sig'inmaganimizdan bo'layapti. Shunday!

Qabul vaqtida Andrey Yefimich hech qanday operasiya qilmaydi; u ko'pdan beri bu ishni tark qilgan, qonni ko'rsa ko'ngli behuzur bo'ladi. Agar bolaning og'zini ochib tomog'ini ko'rmoqchi bo'lganda bola chirqirab qo'llari bilan o'zini himoya qilsa, quloqlari bitib, boshi aylanib ketadi va ko'zlarida yosh paydo bo'ladi. U nari-beri dori yozib berib, xotinga bolani tezroq olib ket deb qo'l siltaydi.

Qabul qilarkan kasallarning tortinchoqligi, merovligi, yonidagi olifta Sergey Sergeich, devordagi rasmlar va o'zining yigirma yildan beri berib kelayotgan bir xildagi savoli darrov ko'ngliga tegadi. Besht-olti nafar kasalni ko'radi-yu ketadi: qolganlarini feldsherning o'zi qabul qiladi.

---

[1] *Kiot* – chang o'tirmasligi uchun sanam olib qo'yiladigan oynalik quti.

[2] *Akafist* – o'qilayotganda hamma tik turadigan duo.

Ko'p vaqtlardan beri uyda kasal qabul qilmaydigan bo'lib ketgani va hech kim bezovta qilmasligini o'ylab, xudoga shukur qiladi va uyiga kelish bilan Andrey Yefimich kabinetiga kirib, stol yoniga o'tirib, kitob o'qishga tushadi. U juda ko'p va doim zavq bilan o'qiydi. Oyligining yarmisi kitob olishga ketadi. Olti xonalik uyning uchtasi kitob va eski jurnallar bilan to'la. U ko'proq falsafa va tarix asarlarini sevadi: tibbiy asarlardan faqat «Vrach»nigina oladi, o'shani ham hamisha oxiridan boshlab o'qiydi. Bir necha soatlab, dam olmay o'qisa ham charchamaydi. U bir vaqtlar Ivan Dmitrich o'qigani singari tez va shiddat bilan o'qimaydi, shoshmasdan u yoq-bu yog'ini o'ylab, tushunmagan yo ko'ngliga yoqqan joylarida to'xtab-to'xtab o'qiydi. Kitobning yonida doim bir grafinchada araq va tuzlangan bodringmi, olmami, tarelkasiz, stolga yozilgan movut ustida yotadi. Har yarim soatda u, ko'zini kitobdan uzmay turib bir ryumka araq quyib ichadi, so'ng, timiskilab haligi bodringni topib, undan tishlab qo'yadi.

Soat uchda sekingina oshxona eshigiga yaqinlashadi va bir yo'talib qo'yib:

– Daryushka, ovqat yeb olsammikin-a... – deydi.

Tozalik tomoniga ahamiyat berilmay pishirilgan, jo'ngina ovqatdan keyin Andrey Yefimich ikki qo'lini ko'kragiga qovushtirib xonadan xonaga o'tib va xayol surib yuradi. Soat to'rtga jom uradi, keyin beshga chaladi, u hamon yuradi va xayol suradi. Goh-gohda oshxonaning eshigi g'ichirlaydi va undan Daryushkaning uyqudan bo'rtgan qip-qizil basharasi ko'rinadi.

– Andrey Yefimich pivo ichadigan vaqtingiz bo'lmadimi? – deydi u xavotir olib.

– Yo'q, hali vaqt bor... – deydi u, - sal turib ichay... sal turib...

Odatda, kechga tomon pochta mudiri Mixail Averyanich keladi. Butun shaharda yolg'iz shu kishining ulfatchiligi Andrey Yefimichga yoqadi. Mixail Averyanich bir zamonlar juda boy pomeshchik bo'lgan va otliq askarda xizmat qilgan edi. Lekin bor-yo'g'ini barbod berib, keksayganida muhtojlik orqasida pochta idorasida ishlashga majbur bo'ladi. Uning ko'rinishi

sog'lom va tetik, chiroyli oppoq bakeni[1], go'zal xulqi va jarang-lagan yoqimli ovozi bor. U rahmdil va ziyrak, lekin tajang. Agar pochtaga kelganlardan birontasi norozi bo'lsa, ko'nmasa yoki muhokama qila boshlasa Mixail Averyanich bo'g'ilib, titrab, qaqshab, tovushining boricha «Bas qil!» deb qichqiradi. Shuning uchun ham allaqachonlardan beri pochta bo'limi kishi borishga qo'rqadigan idora deb nom chiqargan. U Andrey Yefimichni ma'lumotli va oliyjanob bo'lgani uchun sevadi hamda hurmat qiladi, boshqa fuqarolarga esa juda yuqoridan, qo'li ostidagi odamlardek qaraydi.

– Mana men ham keldim! – deydi u, Andrey Yefimichning oldiga kirarkan. – Salom azizim! Joningizga ham tekkandirman, a?

– Aksincha, juda xursandman, – deydi doktor. – Siz kelsangiz, doim xursand bo'laman.

Do'stlar kabinetda divanga o'tirishadi va bir qancha vaqt jim qolishib, papiros chekishadi.

– Daryushka, bizga pivo bo'lsa edi! – deydi Andrey Yefimich.

Birinchi butilkani ham jim o'tirib: doktor – xayolga botib, Mixail Averyanich esa, xuddi ko'nglida aytadigan qiziq gapi bor odamday xushnudlik bilan, ichishadi. Suhbatni hamisha doktor boshlaydi.

– Qanday achinarlik hol, – deydi u boshini qimirlatib, shoshmasdan sekingina va hamsuhbatining ko'zlariga qaramay. U hech qachon birovning ko'ziga qaramaydi, – juda-juda achi-narlik hol, hurmatli Mixail Averyanich, bizning shaharimizda aql yurgizadigan, qiziqarli suhbatni sevadigan va shunga qobili-yatli odamlar yo'q. Bu bizlar uchun g'oyat katta mahrumiyat. Hatto ziyolilar ham razillikdan ustun turolmaydilar; ulardagi tushuncha, siz ishonishingiz mumkinki, past tabaqa odamlar tushunchasidan yuqori emas.

– Haq gap. To'g'ri aytasiz.

– O'zingizga ma'lumki, – deb davom etadi doktor sekin-gina, salmoqlab, – dunyoda inson aqlining yuksak ma'naviy na-moyandalaridan boshqa hammasi arzimas, qizig'i yo'q narsalar. Aql – inson bilan hayvon o'rtasiga qat'iy chegara qo'yadi hamda

[1] *Bakeni* – ikki chakkasiga qo'yilgan soqoli.

insonni ilohiyligiga ishora qiladi va unga aslida bo'lmagan bir qadar abadiylik baxsh etadi. Bundan chiqdi, huzur-halovat beradigan, yagona manba aql ekan. Modomiki, atrofimizda aqlni ko'rmas va eshitmas ekanmiz, – demak, biz huzur-halovatdan mahrummiz. To'g'ri, bizda kitoblar bor, lekin kitob jonli suhbat va aloqaning o'rnini bosolmaydi. Agar ruxsat etsangiz, uncha muvofiq o'xshatish bo'lmasa ham, shunday deyish mumkin: kitoblar nota-yu, suhbat – ashula.

– Haq gap.

Jim qolishadi. Oshxonadan Daryushka chiqadi, eshik oldiga keladi-da, siymosida hech qanday ma'no aks etmagan holda, mushtini yuziga tirab quloq soladi.

– Oh! – deb chuqur nafas oladi Mixail Averyanich. – Hozirgilarda aql bor deysizmi!

So'ngra u qadim zamonda odamlar qanday yaxshi, qiziq va shodiyona hayot kechirganini, Rossiyada aqlli ziyolilar bo'lganini, ularning nomus va do'stlik tushunchasini qanchalik yuksak darajaga ko'targanlarini so'zlab beradi. Vekselsiz qarz berishar edi va muhtojlikda qolgan o'rtoqqa yordam qo'li cho'zmaslik ayb hisoblanar edi. Qanday harbiy safarlar, hodisalar, to'qinishlar, qanday o'rtoqlar, qanday xotinlar bo'lardi! Kavkaz-chi – naqadar ajoyib o'lka! Batalyon komandirining xotini-chi, alomat xotin edi, kechqurunlari ofitsercha kiyinib olib, otga minib, yolg'iz o'zi toqqa chiqib ketar edi. Uning qishloqda qandaydir bir knyaz bilan ishq-muhabbat mojaroларi bor deyishardi.

– Voy Xudo, – deydi Daryushka chuqur nafas olib.

– Ichishlarimizni aying! Yegan ovqatlarimizni aying! Qanday jasur liberallar edik!

Andrey Yefimich quloq soladi-yu, eshitmaydi; pivoni xo'plab qo'yib, allanima to'g'risida o'ylaydi.

– Aqlli odamlar va ularning suhbati tez-tez tushimga kirib turadi, – deydi u to'satdan Mixail Averyanichning so'zini bo'lib. – Otam meni xo'p o'qitdi-yu, lekin oltmishinchi yillardagi oqim ta'siri ostida doktor bo'lishlikka majbur qildi. Agar o'sha vaqtlarda uning so'ziga quloq solmaganimda, hozir fikr o'chog'ining

xuddi markazida bo'lardim, deb o'ylayman. Ehtimol biron fakultetning a'zosi bo'lar edim. Albatta, aql ham abadiy emas, o'tkinchi-ku, lekin siz mening nima uchun unga moyilligimni bilasiz. Hayot – alamli bir dom. Fikrlovchi inson ulg'ayib, aqli kamolga yetganda, beixtiyor o'zini qutulishning iloji bo'lmagan bir domga ilinganday his qiladi. Haqiqatan, uning ixtiyoridan tashqari, qandaydir tasodiflar orqasida yo'qdan bor bo'lib, olamga keladi... Nega? U nega mavjudligining ma'nosini va maqsadini bilishni istaydi – unga aytilmaydi, yoki aql bovar qilmaydigan so'zlarni aytishadi; taqillatadi, – unga eshik ochmaydilar; o'lim ham uning ixtiyoridan tashqari keladi. Mana, turmadagi kishilar, umumiy baxtsizlik tufayli kishilar bir joyga to'planganlaridan ancha yengil tortganday bo'ladilar, hayotda ham analiz va umumiy xulosa chiqarishga moyil odamlar bir yerga yig'ilishib, erkin va sharafli g'oyalarini o'rtoqlashish bilan vaqt o'tkazganlarida haligi dom sezilmaydi. Bu jihatdan aql hech qiyossiz huzur-halovatdir...

– Haq gap.

Andrey Yefimich hamsuhbatining ko'zlariga qaramay asta va to'xtab-to'xtab aqlli odamlar va ularning suhbati haqida so'zlaydi, Mixail Averyanich bo'lsa diqqat bilan quloq soladi va uning fikriga qo'shilib, «haq gap» deb o'tiradi.

– Siz ruhning abadiyligiga ishonasizmi? – deydi to'satdan pochta mudiri.

– Yo'q, hurmatli Mixail Averyanich, ishonmayman va ishonishimga asos ham yo'q.

– To'g'risini aytsam, men ham shubha qilaman. Unday desam, men sira o'lmaydiganga o'xshayman. O'zimga o'zim, hoy chol, o'lim yaqin! desam, ko'nglimda qandaydir, boshqa bir ovoz ishonma, o'lmaysan!.. deydi.

Soat to'qqizdan o'tgach, Mixail Averyanich ketadi. Dahlizda po'stinini kiya turib, chuqur nafas olib:

– Buni qarang, taqdir bizlarni qanday qorong'i burchakka keltirib tashladi! Hammasidan ham kishiga alam qiladigani shuki, hali shu yerda o'lamiz ham. Oh!.. – deydi.

VII

Do'stini jo'natgach, Andrey Yefimich stol yoniga o'tiradi, yana o'qishga kirishadi. Kechqurungi va undan keyin tungi sukunatni tiq etgan tovush buzmaydi. Vaqt ham doktor bilan birga kitob ustida to'xtab, qotib qolganday, shu kitobdan, yashil qalpoqli lampadan o'zga hech narsa yo'qdek tuyiladi. Inson aqlining harakatini ko'rib mehri tovlangani va zavq qilganidan doktorning qo'pol va beo'xshov yuzlarida asta-asta tabassum paydo bo'ladi. Oh! Nechun inson abadiy yashamaydi? – deb o'ylaydi u. – Miyaning markazlari, miyaning egri-bugri burmachalari nechun, ko'rish quvvati, so'zlash qobiliyati, ko'ngil, daho nechun? Modomiki bularning hammasi tuproqqa aylanishga va nihoyat, yer kurrasining qobig'i bilan birlikda sovunishga, so'ng million yillar davomida ma'nosiz, maqsadsiz bir tarzda quyosh atrofida aylanishga mahkum ekan, u holda hamon sovunib, undan keyin yer bilan birga aylanib yurish uchun insonni buyuk va deyarli ilohiy aqli bilan yo'qdan bor qilishning, so'ng uni masxara qilgandek, loyga aylantirishning mutlaqo keragi yo'q edi.

Modda almashishi! Bu soxta abadiylik bilan o'z-o'zini ovutish qanday qo'rqoqlik! Tabiatda ro'y berayotgan g'ayri shuuriy jarayonlar inson qiladigan ahmoqchiliklardan ham tuban, chunki ahmoqchilikda oz bo'lsa ham tushuncha va iroda bor, bu jarayonlarda-chi, mutlaqo hech narsa yo'q. Faqat o'z fazilatini bilishdan ko'ra o'lim oldida qo'rqish hissi ko'proq bo'lgan qo'rqoqlar: mening jasadim vaqti bilan ko'katda, toshda, baqada... qaytadan yashaydi deb o'zini yupatadi. O'zining abadiyligini modda almashishida ko'rishlik xuddi qimmatbaho skripka sinib, ishdan chiqqanda, qutisining endi istiqboli baland bo'ladi deyishlikday, bo'lmag'ur g'alati gap.

Soat jom chalganda Andrey Yefimich biroz o'ylash uchun kresloga suyanib, ko'zlarini yumadi. Kitobdan o'qilgan yaxshi fikrlar ta'siri ostida beixtiyor o'zining o'tmishiga va hozirgi hayotiga nazar tashlaydi. O'tmishi jirkanch, yaxshisi uni esla-

maslik. Hozirgisi ham o'shaning o'zi. U yaxshi biladiki, uning fikri so'ngan yer kurrasi bilan birga quyosh atrofida aylanayotganda, doktorning uyi bilan yonma-yon katta korpusda, odamlar darddan va jismoniy ifloslikdan siqilib, zorlanib yotishadi: balki birov uxlamay hasharotlar bilan kurashayotgandir, birovga saramas kasali yuqa boshlagandir yo bo'lmasa qattiq bog'langan yaraning og'rig'iga chidolmay oh-voh qilayotgandir; balki kasallar, kasallarga qarovchi ayollar bilan karta o'ynab araq ichishayotgandir. Hisobot yilida o'n ikki ming kishi aldangan edi; kasalxonaning butun ishi bundan yigirma yil oldin qanday bo'lsa, hozir ham o'shanday, o'g'rilik, razillik, ig'vogarlik, quda-andalik, ochiq muttahamlik asosiga qurilgan, kasalxona hali ham buzuq axloqli va yashovchilarining sog'lig'i uchun g'oyat zararli bir joy. U temir panjara o'rnatilgan oltinchi raqamli palatadagi kasallarni Nikita do'pposlashini va Moiseykaning har kun shaharga borib gadoylik qilishini yaxshi biladi.

Ikkinchi tomondan, so'nggi yigirma besh yil ichida tabobat ilmida katta o'zgarish bo'lganini u juda yaxshi biladi. U oliy maktabda o'qib yurgan chog'larida tibbiy ilm ham tez kundayoq alximiya va metafizikaning kuniga uchraydi deb o'ylar edi, endi kechalari kitob o'qir ekan, tabobat uning ko'nglini iydiradi va hayron qoldiradi, hatto zavqini keltiradi. Haqiqatan, qanday kutilmagan porloq hodisa, qanday inqilob! Antiseptika yordami bilan hatto buyuk Pirogov umid ham etolmagan operasiyalar qilinayotir. Oddiy zemstvo[1] doktorlari tizza bo'g'imini kesishga jur'at qilishadi, ko'r ichak kasali operatsiyasidan, yuz kishidan bittasigina o'ladi, tosh kelish kasalini tuzatish shunchalik oddiy gap bo'lib qolganki, u haqda hatto yozilmaydi. Zaxm tag-tugi bilan davolanmoqda. Nasldan o'tish nazariyasi, gipnotizm, Paster va Koxlarning kashfiyotlari, sog'liqni saqlash va hisobot olib borilishi, bizning rus zemstvo tabobati-chi? Psixiatriya va uning kasallarni hozirgacha guruhlarga bo'lishi, kasalni aniqlash usullari hamda davolashi – avvalgiga nisbatan butun boshlik

[1] Zemstvo – chor Rossiyada 1864-yilda dvoryan-burjua vakillaridan tashkil etilgan va sog'liqni saqlash, obodonlik va hokazo mahalliy ishlarni boshqarib turgan muassasalar tizimi, Guberna yoki uyezdaggi shu xildagi ayrim muassasa.

Elborus-a. Hozir jinnilarning boshiga sovuq suv quyilmaydi va maxsus ko'ylaklar ham kiygizilmaydi; ularni tuppa-tuzuk sharoitda tutishadi, hatto gazetalarning xabar berishiga qaraganda ularga tomoshalar va bazmlar qilib berisharmish. Andrey Yefimich biladiki, hozirgi nuqtayi nazarlar va talablarga qaraganda oltinchi raqamli palata singari qabih joy faqat temir yo'ldan ikki yuz chaqirim narida, shahar boshlig'i va butun kattalaridan tortib doktorni avliyo biladigan, og'izlariga eritilgan qo'rg'oshin quyib yuborganda ham unga hech tanqidsiz ishonish kerak deydigan – chalasavod meshchanlardan iborat yerda bo'lmasa, boshqa joyda-chi, odamlar va gazetalar allaqachon bu kichkina Bastiliyaning[1] titig'ini chiqarib yuborgan bo'lardi.

«Xo'sh nima bo'pti? – deb o'ziga savol beradi Andrey Yefimich ko'zlarini ochib. – Shulardan nima chiqdi? Antiseptika-yu, Kox, Pasterlar deylik, ishning asli hech o'zgargani yo'q. O'sha kasallik, o'sha o'lim, hammasi eski holicha turipti. Jinnilarga bazmlar va tomoshalar qo'yib berishgani bilan ozod qilib yuborishmapti-ku. Demak, hammasi ovoragarchilik va bo'lmag'ur gap. Venaning eng yaxshi kasalxonasi bilan mening kasalxonam orasida aslida hech qanday farq yo'q».

Lekin achinish va hasadga o'xshash bir his uni beparvo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bu charchaganlikdan bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Boshi og'irlashib kitob sari egiladi, yumshoq bo'lsin deb yuzini qo'llariga qo'yadi va o'ylaydi:

«Men zararli ishga xizmat qilmoqdaman va o'zim aldayotgan odamlardan oylik olmoqdaman; men vijdonsizman. Lekin mening o'zimni olinsa, hech gap emas, faqat zarur bo'lgan ijtimoiy yovuzlikning bir bo'lakchasiman: uyezd boshliqlarining hammasi zararli kishilar, bekorga oylik olishadi... Demak, halol mehnat qilmaganim uchun men emas, davr aybli... Bundan ikki yuz yil keyin tug'ilganimda boshqa odam bo'lar edim».

Soat uchga jom urganda, u chiroqni o'chiradi va yotog'iga kiradi, uning uxlagisi kelmaydi.

---

[1] *Bastiliya* – Parijdagi qal'a va davlat turmasi. XVIII asr oxirida fransuz burjua inqilobi vaqtida vayron qilingan.

VIII

Bundan ikki yilcha oldin zemstvoning saxiyligi tutib ketdi va zemstvoning o'z kasalxonasi ochilguncha shahar kasalxonasida tibbiyot xodimlari kuchaytirilsin deb qaror chiqarib, yordam tarzida yiliga uch yuz so'mdan pul tayin qildi hamda Andrey Yefimichga yordamchi qilib uyezd doktori Yevgeniy Fedorich Xobotov chaqirtirildi. U hali juda yosh yigit – o'ttizga ham bormagan, – baland bo'yli, qorachadan kelgan, yanoqlari chiqqan va ko'zlari kichik; ehtimol ota-bobolari boshqa xalqdan bo'lsa. U shaharga bir tiyin pulsiz, kichkinagina chemodan ko'tarib, yosh va xunuk juvon bilan birga keldi, uni xizmatchim deb yuradi. Xotinning qo'lida emizikli bolasi ham bor. Yevgeniy Fedorich kozerekli furajka, qo'nji uzun etik kiyib yurar, qishda bo'lsa, qisqa paxtalik kiyardi. U feldsher Sergey Sergeich va xazinachi bilan inoq bo'lib ketdi. Boshqa mansabdorlarni oqsuyaklar deb, negadir ulardan o'zini tortib yuradi. Uning butun boshli uyida faqat bitta «Vena kasalxonasining 1881-yilgi yangi reseptlari» degan kitobi bor. Kasal ko'rgani borganida hamisha o'sha kitobni ola boradi. Kechqurunlar klubda billiard o'ynaydi, kartani bo'lsa yoqtirmaydi. So'z orasiga «g'alva», «sirkali mantifoliya», «vahima qilma» singari gaplarni qistirishni juda yaxshi ko'radi.

U haftada ikki marta kasalxonaga boradi, palatadagi kasallarni qaraydi, uncha-muncha kasal ham qabul qiladi. Antiseptika va qonso'rg'ich bankalarning butunlay yo'qligi uni juda ham fe'lini aynitadi-yu, lekin Andrey Yefimichni tahqirlash bo'lib tushishidan qo'rqib, yangi tartib kirgizmaydi. O'zining hamkasbi Andrey Yefimichni keksa firibgar hisoblaydi, juda dunyosi ko'p bo'lsa kerak deb o'ylaydi va unga hasadi kelib yuradi. Jon deb uning o'rniga o'tirar edi-da.

IX

Bahor kunlaridan birida, kechqurun, mart oyining oxirlarida, yerdan qor ketib kasalxona bog'ida maynalar sayragan chog'da, doktor do'sti pochta mudirini darvozagacha kuzatib qo'ygani

chiqdi. Gadoylik qilib kelayotgan juhud Moiseyka xuddi shu paytda hovliga kirib keldi. U boshyalang, sarpoychan oyog'ining uchiga kalish ilgan, qo'lida sadaqalar solingan to'rvasi bor edi.

– Bir tiyin ber! – dedi u doktorga, sovuqdan titragan holda kulimsirab.

Yo'q deyishga odatlanmagan Andrey Yefimich o'n tiyin berdi.

«Bu yaxshi emas, – dedi doktor uning to'piqlari qizarib ketgan oriq oyog'iga qarab, – loygarchilik».

Achinishga ham, jirkanishga ham o'xshash bir his uyg'ondi-da, Andrey Yefimich dam uning tepakal boshiga, dam to'piqlariga qaraganicha yahudiyning orqasidan palataga kirdi. Doktor kirishi bilan churuk-choriq ustida yotgan Nikita irg'ib turib, qomatini rostladi.

– Salom, Nikita, – dedi Andrey Yefimich muloyimlik bilan. – Bir iloj qilib shu yahudiyga etik-petik berilsa edi, bo'lmasa – shamollab qolar.

– Xo'p bo'ladi, janobi oliylari. Nozirga aytaman.

– Shunday qilgin. Mening nomimdan so'ragin. Meni aytdi degin.

Dahlizdan palataga kiradigan eshik ochiq edi. Ivan Dmitrich karovatda yotgan joyda, yonboshladi va hayajon ichida begona tovushga quloq soldi, birdan doktorni tanib qoldi. G'azabiga chidolmay bor vujudi larzaga keldi, irg'ib turdi va qipqizarib, tutaqqanicha ko'zlari olaygan holda yugurib palataning o'rtasiga keldi.

– Doktor keldi! – deb qichqirdi va qah-qah urib kuldi. – Nihoyat! Afandilar, tabriklayman, doktor bizlarni kelib ko'rishni loyiq topipti! La'nati gazanda! – dedi chinqirib, palatadagilar hech qachon ko'rmagan g'azab ichida yer tepib. – O'ldirish kerak bu gazandani! Yo'q, o'ldirish kamlik qiladi! Hojatxonaga cho'ktirib yuborish kerak!

Bu so'zlarni eshitgan Andrey Yefimich dahlizdan palataga qaradi va muloyimlik bilan:

– Nima uchun? – dedi.

– Nima uchun, – deb qichqirdi Ivan Dmitrich, titrab choponiga o'ralganicha o'dag'aylab va xezlanib unga yaqin bordi. – Nima

uchun? O'g'ri! – dedi nafrat bilan lablarini xuddi tupurmakchi bo'lganday qilib. – Muttaham! Jallod!

– Tinchlaning, – dedi Andrey Yefimich aybi bor odamdek kulimsirab. – Ishoning, men hech qachon hech narsa o'g'irlagan emasman, boshqa jihatlarni bo'lsa, juda oshirib yubordingiz deyman. Mendan qattiq xafa bo'lganga o'xshaysiz. Sizdan o'tinib so'rayman, tinchlaning, iloji bo'lsa qizishmasdan ayting, nega mendan xafasiz?

– Nima uchun meni bu yerda tutib o'tiribsiz?

– Kasalligingiz uchun.

– Ha, kasalman. Lekin o'nlab, yuzlab jinnilar ozodlikda yurishibdi-ku, axir, chunki janoblari nodonliklari orqasida ularni sog'lardan ayirolmaydilar. Nega endi men va mana bu sho'rliklargina hamma uchun bu yerda o'tirishimiz kerak? Siz, feldsher, nozir va kasalxona xodimidan deb yurgan ablahlarning hammasi axloq jihatidan bizlarning har birimizdan qiyos qilib bo'lmas darajada tubansiz, nega biz o'tiramiz-u, sizlar o'tirmaysiz? Qani mantiq?

– Bu yerda gap axloq yoki mantiqda emas. Hammasi tasodifga bog'liq. Kim o'tirg'izilgan bo'lsa o'sha o'tiripti, kim o'tirg'izilmagan bo'lsa, yuripti, mana shu mening doktorligim va sizning ruhiy xastaligingizda axloq ham, mantiq ham yo'q, faqat tasodif, xolos...

– Bunday bema'ni gaplarga tushunmayman... – dedi to'ng'illab Ivan Dmitrich va karavotga o'tirdi.

Nikita doktorning yonida tintishdan uyalib o'z holiga qo'ygan Moiseyka o'rniga burda nonlar, danaklar, qog'ozlarni yoydi va hali ham sovuqdan titragan holda tez-tez cho'ziq ohang bilan yahudiy tilida nimalarnidir so'zlay boshladi. Ehtimol, o'zicha do'kon ochdim deb o'ylagandir.

– Meni bo'shatib yuboring, – dedi Ivan Dmitrich, uning tovushi qaltirab ketdi.

– Iloji yo'q.

– Xo'sh, nima uchun? Nega?

– Chunki bu mening ixtiyorimda emas. O'ylab ko'ring, bo'shatib yuborishimning sizga nima foydasi bor? Boring. Yo

politsiya, yo shahar ahlidan birontasi sizni ushlab yana shu yerga olib keladi.

– Ha, ha, bu to'g'ri gap... – dedi Ivan Dmitrich va peshonasini ishqadi. – Bu dahshatli! Endi men nima qilay axir? Nima?

Ivan Dmitrichning tovushi, uning yuz burishtirishlarida, idrok aks etib turgan chehrasi Andrey Yefimichga yoqib qoldi. Uni erkalatgisi, yupatgisi keldi. Ivan Dmitrichning yoniga, karavotiga o'tirdi, biroz o'ylab turib:

– Siz nima qilay deyapsiz? – dedi. – Siz uchun yaxshisi – bu yerdan qochish. Lekin, afsuski, foydasi yo'q. Tutib olishadi. Qachonki jamiyat ruhiy kasallardan, jinoyatchilardan va umuman birga bo'lish o'ng'aysiz deb hisoblanadigan odamlardan o'zini chetga tortsa, unga chora yo'q. Endi sizga bitta yo'l: shu yerda turishim zarur, deb o'zingizga tasalli berasiz.

– Bu yerda turishimning hech kimga keragi yo'q-ku.

– Modomiki turma, jinnixona degan joylar bor ekan, axir kimdir o'tirishi kerak-da. Siz bo'lmasangiz – men bo'lmasam – yana birov. Shoshmang, bir zamonlar kelib turma, jinnixona degan narsalar yo'q bo'lib ketadi, o'shanda derazalardagi temir panjaralar ham, bu choponlar ham bo'lmaydi. Albatta, ertami-kechmi shunday vaqt keladi.

Ivan Dmitrich istehzo bilan jilmaydi.

– Hazillashayapsiz, – dedi u ko'zlarini qisib. – Siz singari va yordamchingiz Nikita singari janoblarning kelajak zamon bilan mutlaqo ishi yo'q, lekin xotiringiz jam bo'lsin, muhtaram afandim, yaxshi zamonlar, albatta keladi! Mayli, mening og'zimdan yaramas so'zlar chiqayotgandir, kula qoling, lekin yangi hayot tongi otadi, haqiqat yuzaga chiqadi va bizning ko'chada ham bayram bo'ladi! Men ko'rolmayman, o'lib ketaman, lekin kimlarningdir evara, chevarasi ko'radi. Joni-dilim bilan ularni tabriklayman, shodlanaman, ular uchun shodlanaman! Olg'a! Xudo yor bo'lsin, do'stlar!

Ivan Dmitrich ko'zlarida alanga chaqnab o'rnidan turdi va qo'llarini deraza tomon cho'zganicha tovushida hayajon aks ettirib davom etdi:

– Mana shu panjaralar orqasidan turib fotiha beraman! Yashasin haqiqat! Shodlanaman!

– Men shodlangudek bir sabab ko'rayotganim yo'q, – dedi Andrey Yefimich, garchi Ivan Dmitrichning harakatlari unga artistlarga o'xshab ko'ringan bo'lsa ham juda yoqadi. – Turma va jinnixonalar yo'qoladi, to'g'ri, siz aytganingizdek haqiqat ham yuzaga chiqadi-yu, lekin narsalarning asli o'zgarmaydi-da, tabiat qonunlari shu holicha qolaveradi. O'shanda ham odamlar kasal bo'ladi, qariydi, hozirgiga o'xshab o'laveradi. Hayotingizni har qanday porloq yog'du yoritmasin, axir bir kun sizni tobutga solib, og'zini mixlab, chuqurga tashlaydilar.

– Abadiylik-chi?

– Be, qo'ysangiz-chi!

– Siz ishonmaysiz-ku, mayli, men ishonaman. Yo Dostoyevskiyda yo Volterda, kimdir bittasi: agar xudo bo'lmaganida uni odamlarning o'zi o'ylab chiqarar edi, deydi. Agar abadiylik yo'q bo'lsa ertami-kechmi insonning buyuk aqli uni o'ylab topadi, men shunga qattiq ishonaman.

– Ma'qul gap, – dedi Andrey Yefimich, kayfi chog' bo'lganidan kulimsirab. – Sizning ishonganingiz yaxshi. Bunday ishonchi bo'lgan odam devor orasiga shuvab tashlanganda ham yashashi mumkin. Siz biron yerda bilim olgan edingizmi?

– Ha, men oliy maktabda o'qir edim, lekin tamomlagan emasman.

– Siz fikr qiladigan chuqur mulohazalik odamsiz. Har qanday sharoitda yashasangiz ham o'zingizni yupata olasiz. Hayotni yaxshi anglashga intiladigan chuqur va ozod fikr hamda dunyoning bo'lmag'ur ikir-chikiriga butunlay nafrat bilan qarashlik – mana shu ikki ne'matdirki, inson bundan buyuk narsani ko'rgan emas. Garchi siz uch qavat temir panjara ichida pinhon bo'lsangiz ham unga erisha olasiz. Diogen bochkada yashagan, shunda ham yer yuzidagi hamma podsholardan baxtli bo'lgan.

– Diogeningiz ahmoq edi, – dedi Ivan Dmitrich qayg'uli ohang bilan. – Nega menga Diogen, yana qandaydir hayotni yaxshi anglashlar haqida so'zlayapsiz? – dedi u to'satdan ensasi qotib

va irg'ib turdi. – Men hayotni sevaman, ehtiros bilan sevaman! Meni birov ta'qib qilayotir degan dardga mubtaloman, mudom qattiq qiynaydigan qo'rquv changalidaman, lekin shunday daqiqalar ham bo'ladiki, hayotga tashna bo'laman, ana shunda jinni bo'lib qolishdan qo'rqaman. Juda yashagim keladi, juda!

U hayajon ichida bir yo'l palataning u boshiga borib keldi-da, tovushini pasaytirib:

– Xayol surganimda ko'zimga allanimalar ko'rinadi. Oldimga qandaydir odamlar keladi, qulog'imga cholg'u ovozlari eshitiladi, nazarimda qandaydir o'rmonlarda, dengiz bo'ylarida yurgandek sezaman va hayotning ikir-chikirlari, harakatlari bilan juda band bo'lgim keladi... Aytib beringchi, qani, u yoqda qanday yangiliklar bor?.. – deb so'radi Ivan Dmitrich. – Nima gaplar?

– Siz shahar to'g'risida so'rayotirsizmi? Yo umumanmi?

– Mayli, avval shahar to'g'risida so'zlab bering, so'ng umuman.

– Nima bo'lardi? Shaharda kishi benihoyat zerikadi... bir og'iz so'z qotguday, yo so'zga quloq solguday odam yo'q. Yangi kelgan odamlar ham yo'q. Aytmoqchi, yaqinda Xobotov degan yosh doktor keldi.

– U men borligimda kelgan edi. Qalay, bitta ablahdir-da?

– Ha, madaniyatsiz odam. Bilasizmi, shunisi qiziq-ki... Umuman qarab tursangiz, poytaxtimizda aql-idrokda turg'unlik yo'q, harakat bor, – demak, u yerda haqiqiy odamlar ham bo'lishi kerak, lekin negadir bu yerga har gal shunday odamlarni yuborishadiki, ko'rmasam deysan kishi. Baxtsiz shahar!

– To'g'ri, baxtsiz shahar! – deb chuqur nafas oldi Ivan Dmitrich va kulib yubordi. – Umuman-chi? Gazeta, jurnallarda nimalar yozilayapti?

Palata qorong'ulashib qolgan edi. Doktor o'rnidan turib chet ellarda va Rossiyada nimalar yozayotganlari, hozir qanday fikriy oqimlar borligini so'zlay boshladi. Ivan Dmitrich g'oyat diqqat bilan tinglab va savollar berayotgandi, lekin to'satdan bir mudhish ish yodiga tushganday boshini ushladi va doktorga orqasini o'girib yotib oldi.

– Nima bo'ldi sizga? – dedi Andrey Yefimich.

– Endi siz mendan biron og'iz ham so'z eshitmaysiz! – dedi Ivan Dmitrich qo'rslik qilib. – Qo'ying meni?

– Sabab?

– Aytdim-ku; qo'ying! Muncha endi?

Andrey Yefimich kiftlarini uchirdi, uh tortib, chiqib ketdi. Dahlizdan o'tarkan:

– Shu yer bir tozalansaydi, Nikita... Juda sasib ketipti! – dedi.

– Xo'p bo'ladi, janobi oliylari.

«Qanday yoqimli yigit! – deb o'yladi Andrey Yefimich uyiga kela turib. – Shu yerda turganimdan buyon gap-so'zga tushunadigan odamni uchratganim shu bo'lsa kerak. U muhokama qila oladi va zarur narsalarga qiziqadi».

Kitob o'qiyotganda va yotar vaqtida ham Ivan Dmitrich haqida o'yladi, ertasiga ertalab uyg'onib, kecha aqlli va ajoyib yigit bilan tanishgani yodiga tushdi, ilojini topsa yana uning yoniga bir kirib chiqishga jazm qildi.

X

Ivan Dmitrich xuddi kechagidek vaziyatda, boshini qo'llari orasiga olib, oyoqlarini g'ujanak qilib yotgandi. Yuzi ko'rinmas edi.

– Salom do'stim, – dedi Andrey Yefimich. – Uxlayotganingiz yo'qmi?

– Avvalo men sizning do'stingiz emasman, – dedi Ivan Dmitrich yostiqqa yuzini bosib yotganicha, – ikkinchidan behuda urinayotirsiz: mendan biron og'iz ham so'z eshitolmaysiz.

– Qiziq... – dedi Andrey Yefimich xijolat tortib. – Kecha bir yaxshi, totuvlik bilan so'zlashayotgan edik, lekin nimagadir to'satdan xafa bo'ldingiz va suhbatni to'xtatib qo'ydingiz... Ehtimol, og'zimdan biron noshoyon so'z chiqdimi yo bo'lmasa, sizning aqidangizga to'g'ri kelmaydigan fikrni aytib qo'ydimmi...

– Shunaqa deng, ishondim qo'ydim-da, a, sizga? – dedi Ivan Dmitrich boshini ko'tarib, hayajon ichida istehzo bilan doktorga qarab; uning ko'zlari qizargan edi. – Josuslikni, sir olishni boshqa joyga borib qiling, bu yerda ketmaydi. Nima uchun kelganingizni kechayoq bilgan edim.

– Qiziq xayol! – dedi doktor jilmayib, – demak, sizning bilishingizcha men josus ekanmanda?

– Ha bo'lmasa-chi... men uning qo'liga sinash uchun topshirilganimdan keyin doktormi – josusmi – baribir.

– E-ha, hali haqiqatan afv etingiz... Tentak ekansiz-ku!

Doktor uning karavoti yonidagi kursichaga o'tirdi-da, uni aybsitib bosh chayqadi.

– Xo'p, aytaylik, siz haqli bo'ling, – dedi u, – aytaylik, men munofiqlik qilib sizni so'zdan tutib politsiyaga bermoqchiman. Sizni qamoqqa olishsin, so'ng sud ham qilishsin. Xo'sh, o'sha sudda va turmada sizga shu yerdagidan yomon bo'ladimi? Agar boshqa shaharga, hatto surgunga yuborsalar shu hujrada o'tirishingizdan yomonmi? Menimcha, yomon emas... Demak, nimadan qo'rqasiz?

Aftidan, bu so'zlar Ivan Dmitrichga ta'sir qildi shekilli, sekin turib o'tirdi.

Soat kechki besh edi, – bu Andrey Yefimich odati bo'yicha o'z uyida xonadan xonaga o'tib yuradigan va Daryushka undan, pivo ichadigan vaqtingiz bo'lmadimi, deb so'raydigan kez edi. Eshikda havo sof, sokin edi.

– Men ovqatdan so'ng aylanib kelish uchun chiqqan edim, huzuringizga kirgim keldi, – dedi doktor. – Bahor bo'lib qoldi.

– Hozir qaysi oy? Martmi? – deb so'radi Ivan Dmitrich.

– Ha, martning oxiri.

– Hovli loydir?

– Yo'q, uncha loy emas. Bog' yo'llari selgib qolgan.

– Endi aravaga tushib biron yerga, shahardan tashqariga chiqsam, – dedi Ivan Dmitrich qizargan ko'zlarini uyqudan turgan odamday ishqab, – so'ng uyim, issiqqina, saranjom-sarishta kabinetimga qaytib kelib... keyin tuzukroq doktorga boshog'riqni davolatsam... ko'pdan beri insonlarcha yashaganim yo'q. Bu yer juda yomon! Chidab bo'lmaslik darajada yomon!

Kechagi vasvasadan keyin charchagan, lanj va ancha xafsalasizlik bilan so'zlar edi. Barmoqlari titrar va yuzidan boshining qattiq og'riyotgani bilinib turardi.

– Issiqqina, saranjom-sarishta kabinet bilan shu palataning o'rtasida hech qanday farq yo'q, – dedi Andrey Yefimich. – Kishining huzur-halovati tashqi sharoitda emas, uning o'zida bo'ladi.

– Ya'ni?

– Oddiy odamlar rohatni yoki azobni tashqi sharoitdan, masalan, aravadan, kabinetdan, fikr etuvchi kishi esa o'zidan kutadi.

– Boring, bu falsafani Gretsiyada targ'ib qiling, u yer issiq va pomerans hidiga to'la, bu yerning bod-havosi to'g'ri kelmaydi. Kim bilan Diogen haqida so'zlashgan edim? Siz bilan bo'lsa kerak?

– Ha, kecha men bilan.

– Diogen kabinet va issiq uyga muhtoj bo'lgan emas; u yerda bularsiz ham issiq. Bochkaga tush-da, apelsin va zaytun mevasi yeb yotaver. Agar Rossiyada turishga to'g'ri kelganda bormi, dekabrda emas, may oyida ham uy talab bo'lib qolardi-ku. Sovuq bundoq ham asar qilsinki...

– Yo'q. Sovuqni va umuman barcha ogriqlarni ham sezmaslik mumkin. Mark Avreley «og'riq – odamning og'riq haqidagi tushunchasi, irodangni kuchaytirib, mana shu tushunchani o'zgartir, orqaga tashla, nolishni to'xtat, og'riq yo'qoladi» deydi. Haq gap. Donishmand yoki umuman fikr qiluvchi, mulohazali odam, faqat azobdan nafratlanishi bilan boshqalardan farq qiladi; u doim mamnun va hech narsaga taajjublanmaydi.

– Demak, men azob chekkanim, norozilik bildirganim va inson razilligiga taajjublanganim uchun ahmoq ekanman-da.

– Bu gaplaringiz ortiqcha. Agar siz durustroq o'ylab ko'rsangiz, bizlarni tahlikaga soladigan sirtqi narsalarning qanchalik arzimasligini anglab olasiz. Hayotni anglab olishga intilish kerak, – hamma baxt – ana o'shanda.

– Anglash... – deb yuzlarini burishtirdi Ivan Dmitrich. – Sirtqi, ichki... Kechiring, men buni tushunolmayman. Faqat shuni bilamanki, – dedi u o'rnidan turarkan, g'azab bilan doktorga qarab, – shuni bilamanki, xudo meni issiq qon va asablardan yaratgan, shunday! Organik to'qima agar yashashga qobili-

yatli bo'lsa, sirtdan bo'ladigan har bir ta'sirga e'tibor berishi kerak. Men e'tibor qilaman! Og'riqqa – dodlash va yig'lash bilan razillikka – nafrat, qabihlikka – g'azablanish bilan javob qilaman. Menimcha, hayot deb asli o'zi mana shularni aytilsa kerak. Organizm naqadar taraqqiy topmagan bo'lsa, shu qadar sezgirligi oz va tashqi ta'sirga shunchalik sust javob qiladi, qanchalik taraqqiylashgan bo'lsa, shunchalik sezgir bo'lib, voqelikka tez va g'ayrat bilan e'tibor qiladi. Shuni ham bilmay bo'ladimi? Doktor-ku, shunaqangi oddiy narsalarni bilmaydi! Azob chekishga nafrat bilan qaramaslik uchun, doim mamnun bo'lishlik uchun, hech narsaga hayron qolmaslik uchun mana shunday holga tushmoq kerak, – dedi Ivan Dmitrich, vujudini yog' bosib, semirib ketgan mujikni ko'rsatib, – yoki kishi o'zini azob bilan shunday pishitishi kerakki, har qanday sezish qobiliyati yo'qolsin, ya'ni boshqacha qilib aytganda, yashamay qo'yishi kerak. Kechiring, men na mutafakkirman, na faylasuf, – deb davom etdi Ivan Dmitrich tutaqib. Bu to'g'rida hech narsa tushunmayman. Fikr yuritguday holim yo'q.

– Aksincha, fikr yuritishingiz juda soz.

– Siz kulgili ravishda taqlid qilayotgan stoiklar[1] ancha durust odamlar edi, lekin ularning ta'limoti bundan ikki ming yil oldin bir joyda qotib qoldi, bir qadam ham oldinga siljigani yo'q va siljimaydi, chunki hayotga tatbiq qilib bo'ladigan qulay ta'limot emas. U faqat butun umrini o'lib-tolib turli ta'limotlarni o'rganish, totib ko'rish bilan o'tkazadigan ozchilik o'rtasida shuhrat qozona oldi, ko'pchilik unga tushunolmadi. Boylikka, hayotdagi qulayliklarga loqaydlik va azobga, o'limga nafrat bilan qaramaslikni targ'ib qiluvchi ta'limotga ko'pchilik mutlaqo tushunmaydi, chunki bu ko'pchilik o'z hayotida boylik nima, turmushdagi qulaylik nimaligini hech qachon bilgan emas; azob chekishga nafrat bilan qaramaslik ular uchun hayotga nafrat bilan qarash degan gap, chunki insonning vujudi ochlik, yalang'ochlik, alam, ayriliqni sezishdan va gamletchasiga o'limdan qo'rqishdan

[1] *Stoitsizm falsafasi muhiblari* – hayot qiyinchiliklarini mardlik bilan yenguvchilar.

iborat. Hayot mana shu sezgilarda: uni og'ir ko'rishlik, yoqtirmaslik mumkin, lekin undan nafratlanib bo'lmaydi. Mana shundoq, takror aytamanki, stoiklarning ta'limoti hech qachon yuzaga chiqmaydi. Axir ko'rib turibsizki, dunyo paydo bo'lgandan to shu kungacha kurash, og'riqqa sezgirlik, chetdan bo'lgan ta'sirga javob qaytarish qobiliyati o'sib bormoqda...

Ivan Dmitrich birdan fikrining arqog'ini yo'qotib qo'ydi-da, xunob bo'lib, peshonasini ishqadi.

– Bir muhim narsa aytmoqchi edim, adashib ketdim, – dedi u. – Nima edi? Ha! Shuni aytmoqchi edim; stoiklardan bittasi o'zining yaqin bir odamini ajratib olishlik uchun qul bo'lib sotilgan. Buni qarang, demak stoik ham sirtdan bo'lgan ta'sirga e'tibor qilipti, yaqin kishing uchun jondan kechishlikdek oliyjanob ishni qilish uchun azobga qarshi qo'zg'aluvchan, rahmdil bo'lmoq kerak. Bu turmada o'qib bilganlarimni ham esimdan chiqarib qo'ydim. Bo'lmasa yana biron narsani xotirlar edim. Isoni olsak-chi? Iso voqilikka yig'lash, kulish, qayg'urish, achchig'lanish, hatto g'ussa chekish bilan javob qilgan; u azobga qarshi kulib borgan emas va o'limga ham nafrat bilan qaragan emas, Gefsiman bog'ida meni bu balo-qazodan saqla deb ibodat qilgan-ku.

Ivan Dmitrich kulib yubordi-da, o'tirdi.

– Faraz qilaylik, insonning huzur-halovati chetda emas, uning o'zida bo'lsin, – dedi u. – Faraz qilaylik, azob chekishga nafrat bilan qaraylik-da, hech narsaga hayron qolmaylik. Xo'sh, siz nimaga asoslanib buni targ'ib qilayotirsiz? Siz donishmandmisiz? Faylasufmisiz?

– Yo'q, faylasuf emasman, ammo bu narsani har bir kishi targ'ib qilishi lozim. Chunki bu oqilona gap.

– Yo'q, men shuni bilmoqchimanki, nega siz anglab olish, azob chekishga nafrat bilan qarash singari masalalarda o'zingizni bilimdon hisoblaysiz? Siz azob chekib ko'rganmisiz? Azob nimaligini bilasizmi? Kechirasiz, bolaligingizda sizni savalashganmi?

– Yo'q, mening ota-onam urib jazolashni yomon ko'rardi.

– Otam meni ayamay urar edi. Mening otam badjahl, bo'ynigacha sarg'ayib ketgan, so'rraygan, qirra burun, bavosil bir mansabdor edi. Qani, sizning to'g'ringizda so'zlashaylik. Umringizda sizni birov chertgan emas, hech kim qo'rqitib, yuragingizni olib qo'ygan emas, buqadek sog'lomsiz. Otangizning bag'rida katta bo'lgansiz va uning puliga o'qigansiz, so'ng darhol ishi oz, daromadi zo'r o'ringa o'tirib olgansiz. Yigirma yildan ortiq tayyor xizmatchisi o'tin-cho'pi, chirog'igacha tekin uyda yashagansiz. Buning ustiga qancha va qanday ishlash yoki hech ish qilmaslik o'z ixtiyoringizda bo'lgan. O'zingiz tabiatan yalqov, po'k odamsiz, shuning uchun ham turmushingizni hech narsa bezovta qilmaydigan va joyidan qo'zg'atmaydigan qilib tuzgansiz. Ishni feldsher va o'shanga o'xshash ablahlarga topshirib, o'zingiz issiqqina tinch uyda o'tirib, pul yig'ib, kitob o'qigan bo'lib, har xil bo'lmag'ur yuksak fikrlarning va (Ivan Dmitrich doktorning qip-qizil burniga qarab oldi) ichkilikning kayfini surgansiz. Qisqasi, siz hayotni ko'rmagansiz va mutlaqo bilmaysiz ham, voqelikni bo'lsa faqat nazariy ravishda bilasiz. Azob chekishga nafrat bilan qarashingiz va hech narsaga taajjublanmasligingiz sababi juda oddiy: hayotning ikir-chikirlari ichki va tashqi hayotga, azob chekishga va o'limga nafrat bilan qarash, anglab olish, haqiqiy saodat – bularning hammasi rossiyalik yalqov uchun juda mos falsafa. Masalan, bir mujik xotinini urmoqda, siz unga qarab turaverasiz. O'rtasiga tushishning nima keragi bor? Qo'yaver, uraversin, ertami-kechmi ikkovi ham o'ladi, buning ustiga urayotgan kishi urish bilan u odamni emas, o'zini haqorat qiladi, deysiz. Ichib mast bo'lib yurish ahmoqlik, beodoblik, lekin ichsang ham – o'lasan, ichmasang ham – o'lasan emish. Xotin kishi keladi, tishim og'riyapti... deydi. Xo'sh, nima bo'pti? Og'riq – og'riq haqidagi tushuncha, uning ustiga bu dunyoda kasal bo'lmay o'tmaydi kishi, hammamiz ham o'lamiz, shuning uchun xotin, yo'lingdan qolma, mening o'ylashimga va ichkilik ichishimga xalaqit berma, deyiladi-da. Yosh yigit, nima qilish va qanday yashash haqida maslahat so'raydi, boshqa kishi bo'lsa javob berishdan oldin o'ylab ko'rardi, sizning javobingiz

tayyor: anglab olishga yoki haqiqiy saodatga intil. Bu xayoliy «haqiqiy saodat» nima? Bunga, albatta, javob yo'q. Bizlarni bu yerda, panjara ichiga qamab chiritishmoqda, holdan ketguncha azob berishmoqda, bu juda yaxshi va oqilona ish, chunki shu palata bilan yaxshi va issiq kabinetning orasida hech qanday farq yo'q emish, qulay falsafa: ish ham yo'q, vijdon ham sof, ham o'zingni dono odamday sezasan... Yo'q, afandim; bu na fikr, na falsafa, na dunyoga keng qarashlik. Bu – yalqovlik, afsungarlik, alahlash... To'g'ri! – dedi-da, Ivan Dmitrich yana achchig'landi. – Azob chekishga nafrat bilan qaramaysiz, agar barmog'ingizni eshik qisib olgunday bo'lsa, tovushingizning boricha dodlar edingiz!

– Bordi-yu, dodlamasam-chi! – dedi Andrey Yefimich salgina jilmayib.

– Shundaymi, dodlamassiz-a! Mana, agar birdan falaj bo'lib qolsangiz yoki bironta ahmoq, surbet o'zining mansabi va amalidan foydalanib, xalq o'rtasida sezni haqorat qilsa va unga hech qanday jazo berilmasligiga ko'zingiz yetsa, – ana unda boshqalarni hayotni anglab olishga va haqiqiy baxtga yo'llash nimaligini bilib qo'yar edingiz.

– Bu qiziq gap, – dedi Andrey Yefimich zavq bilan kulib va qo'llarini bir-biriga ishqadi. – Sizning shu zayl xulosa chiqarishlaringiz menga juda yoqadi, haligina menga juda qoyil qoldiradigan baho berdingiz. To'g'risini aytsam, siz bilan suhbatlashish menga g'oyat katta rohat baxsh etadi. Xo'b, men sizning so'zlaringizni tingladim, endi siz ham mening so'zlarimga quloq soling...

XI

Bu suhbat yana bir soatcha cho'zildi va aftidan, Andrey Yefimichga qattiq ta'sir qilgan bo'lsa kerakki, har kuni shu yerga keladigan bo'lib qoldi. U ertalab va ovqatdan keyin kelar, ko'pincha qorong'i tushguncha ham Ivan Dmitrich bilan suhbatlashib o'tirardi. Dastlabki kunlarda Ivan Dmitrich undan o'zini tortar va yomon niyat bilan kelib yuripti, deb shubhalanib, uni

yoqtirmasligini ochiqdan ochiq aytar edi, keyinchalik o'rganib qoldi va qo'rs so'zlikning o'rniga sal ayab, istehzo aralash muomala qiladigan bo'ldi.

Tez kundayoq kasalxonaga doktor Andrey Yefimich oltinchi raqamli palataga kirib yurar emish, degan ovoza tarqaldi. Na feldsher, na Nikita, na kasallarga qarovchi ayollar – hech kim, uning nima uchun u yerga kirishining, necha soatlab u yerda qolib ketishining, nima haqida so'zlashishining va nega dori yozib bermay chiqib ketishining tagiga yetolmasdi. Uning bu qilig'i juda ajib tuyular edi. Mixail Averyanich ham, ko'pincha uni uyidan topolmaydigan bo'lib qoldi, ilgari hech bunday bo'lmasdi; doktorning ma'lum soatda pivo ichmayotganligidan, ba'zan hatto ovqatga ham kechikib kelishidan Daryushka ham dovdirab qolgandi.

Bir kun, iyunning oxirlarida doktor Xobotov qandaydir bir ish bilan Andrey Yefimichning oldiga keldi; uydan topolmagach, hovlidan izlay boshladi; keksa doktor ruhiy kasallarning yoniga kirib ketganini o'sha yerdagilar aytishdi. Xobotov u yerga bordi va dahlizda turib, shu so'zlarni eshitdi:

– Bizlar bir-birimizni hech qachon anglay olmaymiz va meni o'z maslagingizga tortish qo'lingizdan kelmaydi, – derdi Ivan Dmitrich qizishib, – voqelik bilan mutlaqo tanish emassiz, hech qachon azob ham chekmagansiz, faqat zuluk singari, boshqalar azob chekayotgan joyda turib, to'ygansiz. Men bo'lsam tug'ilganimdan to shu damgacha muttasil azob chekib kelaman. Shuning uchun ochig'ini aytaman: men o'zimni sizdan ustun va har to'g'rida mo'tabarroq deb hisoblayman. Menga o'rgatmay qo'ya qoling.

– Menda sizni o'z maslagimga tortay degan xayol mutlaqo yo'q, – dedi sekingina Andrey Yefimich, uning anglashni istamagani uchun og'ringanday bo'lib. – Gap bunda ham emas, do'stim. Gap siz azob chekib, men chekmaganimda emas. Azob chekishlar, xursandchiliklar o'tib ketadigan narsa; qo'ying, xudo ularga yor bo'lsin... Gap shundaki, bizlar fikr yurgizamiz va bir-birimizda muhokama qilishga, fikr yurgizishga qobiliyatli odamlarni ko'rmoqdamiz, ana shuning o'zi, maslagimizning

turli bo'lishiga qaramay, bizlarni fikrdosh qiladi. Koshki, siz umumiy ahmoqchilik, qobiliyatsizlik, befahmlikning jonimga qanday tekkanini va har gal siz bilan qanday shodlanib suhbatlashishimni bilsangiz edi, do'stim! Siz aqlli odamsiz, sizning yoningizda rohat qilaman.

Xobotov eshikni sal qiya ochdi-da, palataga qaradi; qalpoq kiygan Ivan Dmitrich bilan doktor Andrey Yefimich to'shakda yonma-yon o'tirardi. Jinni yuzlarini burishtirar, seskanar va beixtiyor xalatga o'ralardi, doktor bo'lsa jimgina, boshini quyi solib o'tirardi, uning yuzi qip-qizil, umidsiz va g'amgin edi. Xobotov yelkalarini uchirdi, kuldi va Nikita bilan ko'z urishtirdi. Nikita ham yelkalarini uchirdi.

Ertasiga Xobotov feldsher bilan birga keldi, ikkalasi ham dahlizda turib quloq solishdi.

– Cholimiz butunlay aynib qolganga o'xshaydi-ku! – dedi Xobotov, u yerdan chiqarkan.

– Yo rabbiy, biz gunohkorlarni o'zing kechir! – dedi chuqur nafas olib olifta Sergey Sergeich, yaltiraguncha pardozlangan etiklariga loy tegizmaslik uchun ko'lmak suvdan ehtiyot bilan o'tarkan, – to'g'risini aytsam, hurmatli Yevgeniy Fedorich, men ko'pdan beri shunday bo'lishni kutgan edim! – dedi.

XII

Shundan keyin Andrey Yefimich atrofida qandaydir sirli bir hol seza boshladi. Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar, kasallarga qarovchi ayollar va kasallar uning bilan uchrashganda savol nazari bilan boqishar, so'ng ivir-shivir so'zlashardi. Nozirning qizi Masha ham kasalxona bog'ida uchrab qolganda, Andrey Yefimich odatdagicha uning boshidan silamoqchi bo'lib, kulimsirab yoniga borsa, negadir qochadigan bo'lib qoldi. Pochta mudiri Mixail Averyanich uning so'zlariga quloq solarkan ortiq: «haq gap» demasdan, anglab bo'lmaydigan bir xijolat ichida, «Ha, ha, ha...» der edi, o'ychanlik va qayg'u bilan unga boqardi; nima uchundir u do'stiga ichkilikni tashlash kerak, degan maslahatni bera boshladi, lekin odobli odam bo'lgani uchun

ochiq aytolmasdan goh bir batalyon komandiri bo'lgan yaxshi odam to'g'risida, goh polk popi bo'lgan durust yigit to'g'risida gap keltirib, ularning ham ichib kasal bo'lganliklari, lekin ichkilikni tashlash bilan butunlay tuzalib ketganlari to'g'risida shama qilib so'zlar edi. Ikki-uch marta Andrey Yefimichning uyiga hamkasbi Xobotov ham kelib ketdi; u ham ichkilikni tashlashni va hech qanday sabab yo'qligiga qaramay, bromli kaliy ichishni buyurardi.

Avgust oyida Andrey Yefimich shahar boshlig'idan juda zarur ish yuzasidan kelib-ketishni iltimos qilib yozilgan xat oldi. Andrey Yefimich tayinlangan vaqtda mahkamaga borsa, u yerda harbiy ishlar boshlig'i, uyezd o'quv yurtining noziri, shahar mahkamasi a'zosi bo'lmish bir kishi, Xobotov va yana to'ladan kelgan sarg'ish sochlik qandaydir bir odam ham bor ekan, bu kishini unga doktor deb tanitishdi. Bu aytilishi qiyin polyakcha familiyali doktor, shahardan o'ttiz chaqirim narida ot zavodida turarkan va shaharga yo'lakay tushgan ekan.

– Sizlarning ishingizga tegishli bir ariza bor, – dedi mahkama a'zosi Andrey Yefimichga, hamma ko'rishib bo'lib, stol atrofiga o'tirgandan keyin. – Mana, Yevgeniy Fedorich aytadilarki, katta korpusda aptekaga joy torlik qilayotir, shuni uylardan bittasiga ko'chirsak deydilar. Bu, albatta, hech gap emas, ko'chirish mumkin, lekin asosiy masala – uyni ta'mir qilish.

– Ha, ta'mir qilinmasa iloji yo'q, – dedi Andrey Yefimich o'ylab ko'rib. – Agar, masalan, burchakdagi uyni aptekaga muvofiqlashtirsak, mening bilishimcha unga kamida besh yuz so'm kerak, samarasiz chiqim.

Biroz jim qolishdi.

– Men bundan o'n yil muqaddam, – deb davom qildi Andrey Yefimich, ohista ovoz bilan, – bu kasalxonani haqiqiy holida asrashga shaharning kuchi yetmaydi deb aytgan edim. O'zi qirqinchi yillarda solingan, axir u vaqtdagi sarmoya boshqa edi. Shahar befoyda imoratlar va ortiqcha mansablar uchun juda ko'p pul sarf qiladi. Mening o'ylashimcha, tartib boshqacharoq bo'lganda edi, shu pullarga ikkita namunali kasalxona qilib qo'yish mumkin edi.

– Qani, bo'lmasa o'sha boshqacha tartibni qilaylik! – dedi tezlik bilan mahkama a'zosi.

– Men allaqachonlar aytgan edim: tibbiy bo'limni zemstvo ixtiyoriga topshiring.

– Shundaymi, pulni zemstvo ixtiyoriga topshiring, u o'g'irlasa-chi, – deb kuldi sarg'ish sochli doktor...

– Bu aniq, – deb haligining fikriga qo'shildi mahkama a'zosi, u ham kuldi.

Andrey Yefimich sarg'ish sochli doktorga erinchoqlik bilan ma'nosiz bir nazar tashladi va:

– Insof kerak, – dedi.

Yana jim qolishdi. Choy keltirildi. Nimagadir juda xijolat tortgan harbiy ishlar boshlig'i, stol ustidan qo'lini cho'zib, Andrey Yefimichning qo'lini ushlab qo'ydi va kulib:

– Bizlarni juda unutib yubordingiz, doktor, – dedi. – Shunisi borki, taqvadorsiz: karta o'ynamaysiz, xotinlarni yoqtirmaysiz, bizlarning oramizda zerikib ham qolasiz-da.

Hammalari birdan, durust odam uchun bu shaharda turish og'irligi haqida so'zlab ketdilar. Na teatr bor va na musiqa bor, so'nggi marta bo'lgan tansa kechasida yigirmaga yaqin dama va ikkitagina kavaler bo'ldi. Yoshlar tansa tushmaydi, hamisha bufetda uymalashadi yoki karta o'ynaydi, deyishdi. Andrey Yefimich hech kimga qaramay, shoshilmasdan sekingina so'z boshlab, shahar xalqi o'z quvvati, yuragi va aqlini kartaga va g'iybatga sarf qilishi juda-juda achinarlik hol ekanini, vaqtini qiziq suhbatlar va o'qish bilan o'tkazishni bilmasligini va buni istamasligini, yana aql orqasida keladigan lazzatlardan foydalanishni istamasligini gapirdi. Yolg'iz aqlgina go'zal va yaxshi narsa, boshqa hammasi mayda va tuban narsalar, dedi. Xobotov hamkasbining so'zlarini diqqat bilan tinglab turib, to'satdan:

– Andrey Yefimich, bugun nechanchi kun? – deb so'radi. Javob olgach, u bilan birga sarg'ish soch doktor, o'z no'noqligini bilib turgan imtihon oluvchilardek, Andrey Yefimichdan bugun qaysi kun, bir yilda necha kun bor va oltinchi raqamli palatada ajoyib payg'ambar borligi rostmi deb so'radi.

So'nggi savolga javob berayotganda Andrey Yefimich qizarib ketdi va:

– Ha, u kasal, lekin ajoyib yigit, – dedi.

Unga boshqa hech qanday savol berishmadi.

U dahlizda paltosini kiyarkan, harbiy ishlar boshlig'i Andrey Yefimichning yelkasiga qo'lini tashladi va uh tortib:

– Biz, keksalar endi dam olsak ham bo'ladi! – dedi.

Mahkamadan chiqa turib Andrey Yefimich bular uning es-hushini tekshirgani tuzilgan komissiya ekanligini angladi. U o'ziga berilgan savollarni esladi va qizarib ketdi, negadir hayotida birinchi marta tabobat ilmining ahvoliga qattiq achindi.

«Yo rabbiy, – deb o'yladi u, vrachlarning hozirgina uni qanday tekshirganlarini eslab, – axir ular yaqindagina ruhiy xastaliklarni o'qib, imtihon berishgan-ku, bu qadar nodonlik qayerdan keldi? Ruhiy xastalik nima ekanligini bilmaydilar-ku, axir!»

U hayotida birinchi marotaba o'zini haqoratlangan va g'azablangan holda ko'rdi.

O'sha kuniyoq kechqurun uning uyiga Mixail Averyanich keldi. Pochta mudiri salomlashmasdanoq uning yoniga bordi-da, ikki qo'lidan ushlab, qaltiroq tovush bilan:

– Azizim, do'stim, mening ko'nglim yaqinligiga ishonishingizni va o'zingiz ham meni do'st deb hisoblashingizni isbot qiling... Do'stim! – U Andrey Yefimichga so'z bermasdan, hayajonlanib davom qildi: – men sizni ilmli va sofdil bo'lganingiz uchun sevaman. So'zlarimga quloq soling, azizim. Fan qoidalari doktorlarni sizdan haqiqatni yashirishga majbur qiladi, lekin men harbiychasiga to'g'risini shartta aytib qo'ya qolaman: siz salomat emassiz! Kechiring meni, do'stim, to'g'risi shu, buni allaqachonlardan beri atrofingizdagilarning hammasi sezgan. Hozirgina doktor Yevgeniy Fedorich menga, sizning sog'lig'ingiz uchun yaxshisi dam olish va ko'ngil ochish zarurligini aytdi. Juda to'g'ri! Juda soz! Tez kun ichida men ta'til olaman va biroz boshqa havoni hidlab kelgani ketaman. Do'stim ekanligingizni ko'rsating, birga ketaylik! Boraylik, yoshlik davrini esga solib, aylanib kelaylik.

– Men o'zimni juda sog'lom sezaman, – dedi Andrey Yefimich o'ylab turib. – Borishimning iloji yo'q. Ruxsat etsangiz do'stligimni qanday bo'lmasin boshqacha qilib bildira qolay.

Nima uchun ketayotganini bilmasdan, qayoqlargadir ketish, kitobsiz, Daryushkasiz, pivosiz, 20 yildan buyon o'rnashib qolgan hayot tartibini birdan buzish, – bunday fikr birinchi daqiqada unga ajib va xayoliy bir gapday tuyuldi. Lekin mahkamada bo'lib o'tgan gaplarni, u yerdan kelayotganida kechirgan og'ir holatini esladi va uni jinniga chiqarib qo'ygan ahmoq odamlar yashayotgan shahardan biroz vaqt uzoqlashish kerak degan fikr yoqqanday bo'ldi.

– Qani, o'zingiz qayoqqa bormoqchisiz? – dedi.

– Moskvaga, Peterburgga, Varshavaga... Varshavada hayotimning baxtli besh yilini o'tkazganman. Qanday ajoyib shahar! Ketaylik, azizim!

XIII

Bir haftadan keyin Andrey Yefimichga dam olishni, to'g'risi ishdan bo'shab ketishni taklif qilishdi, bunga u ancha beparvo qaradi, yana bir haftadan keyin Mixail Averyanich bilan ikkovi shaldiroq aravaga tushib, yaqinroqdagi temir yo'l stansiyasiga qarab yo'l ham olishdi. Kunlar salqin, havo ochiq, ko'k yuzi zangori bo'lib, uzoq joylar ko'rinar edi. Stansiyagacha bo'lgan ikki yuz chaqirim yo'lni ikki kunda bosishdi va yo'lda ikki marta qo'nishdi. Bekatlarda choy ichgani yaxshi yuvilmagan stakan berilsa yoki tarantasga imillab ot qo'shilsa, Mixail Averyanich qip-qizarib ketar va butun vujudini qaltiroq bosib: «Tovushingni o'chir!», «Mahmadonalik qilma! deb qichqirardi. Tarantasda bo'lsa, bir daqiqa tinmasdan o'zining Kavkazga va Polsha podsholigiga borganlarini so'zlardi. Naqadar ajoyib hodisalar, qanday uchrashuvlar! U shang'illab so'zlarkan, ko'zlarida shunday bir hayronlik alomati paydo bo'lardiki, kishi bu odam yolg'on so'zlayotir deb o'ylar edi. Uning ustiga, gapirarkan, to'g'ri Andrey Yefimichning yuziga qarab dam urar, qulog'ining tagida qahqahlab kularди. Bu hol doktorni siqar, o'ylashga va xayolini bir joyga to'plashga xalal berardi.

Temir yo'lda bo'lsa iqtisod qilib, uchinchi klassga, papiros chekmaydiganlar vagoniga tushishdi. Yo'lovchilarning yarmi toza kiyim kiygan odamlar edi. Mixail Averyanich tez orada hamma bilan tanishib oldi va skameykadan skameykaga o'tib, shang'illab, bu yaramas yo'llardan yurish kerak emas, deb so'zladi. Qay tomonga qarasang muttahamlik! Otga minib yurishga nima yetsin: kuniga yuz chaqirimdan yo'l bosasan-da, keyin o'zingni tetik va sog'lom sezasan. Bizda hosil bitmaslik, Pinskiy botqoqligini quritib yuborganlardan bo'layotir. Umuman tartibsizlik mudhish darajada.

U qizishib, shang'illab so'zlar va hech kimga gal bermas edi. Bu ora-chora qah-qah urish bilangina bo'linadigan bitmas-tuganmas bema'ni so'z, ifodali imo-ishoralar Andrey Yefimichning tinkasini quritdi.

«Qaysi birimiz jinnimiz? – deb o'ylardi u, diqqati oshib. – Yo'lovchilarni biron ish bilan bezovta qilmaslikka tirishayotgan menmi, yo o'z huzurini ko'zlovchi, bu yerdagilarning hammasidan o'zini aqlliroq va alomatroq deb o'ylaydigan, shuning uchun ham hech kimga tinchlik bermayotgan umi?»

Moskvada Mixail Averyanich pogonsiz harbiy syurtuk va yon choklariga qizil qo'yib tikilgan shim kiydi. Ko'chaga chiqqanda harbiy furajka va shinel kiyib yurar, soldatlar unga chest berib o'tishardi. Endi Andrey Yefimichning nazarida u o'zining qachonlardir bo'lgan kiborlik xulqlarining hamma yaxshi jihatlarini yo'qotib, o'ziga faqat yomon jihatlarini olib qolgan odamga o'xshab ko'rinardi. Hech keragi bo'lmagan yerda ham birovning o'ziga xizmat qilishini yaxshi ko'rardi. Gugurt ro'parasida, stolda yotipti, uni o'zi ko'rib ham turadi-yu, xizmatkorga gugurtni olib ber deb qichqiradi; uy xodimasining oldida tortinmasdan ichki kiyimda yuradi; xizmatkorlarning hammasini, farq qilmay, hatto keksalarini ham sansiraydi, jahli chiqqunday bo'lsa ularni esi past, ahmoq deb ataydi. Bu ishlar Andrey Yefimichga kiborlikday ko'rinsa ham, lekin qabihlikday tuyuldi.

Mixail Averyanich do'stini avvalo Iverskoyega olib bordi. U ikki bukilib astoydil ibodat qilar, ko'zlariga yosh olib va ibodat qilib bo'lgach chuqur nafas oladi-da:

– Ishonmayman-ku, lekin ibodat qilgandan keyin kishi tinchlanganday bo'ladi. Sajda qiling, azizim, – deydi..

Andrey Yefimich xijolat tortib sanamni o'padi. Mixail Averyanich bo'lsa lablarini cho'chchaytirib, boshini qimirlatib shivirlab ibodat qiladi, yana ko'zlariga yosh oladi. Undan keyin Kremlga ketishdi, u yerda sar-pushkani[1], sar-kolokolni[2] ko'rishdi va ularni hatto barmoqlari bilan ushlashdi. Zamoskvoreche manzarasini zavq bilan tomosha qilishdi, Spasitel ibodatxonasiga va Rumyansev muzeyiga ham kirib chiqishdi.

Tushlik ovqatni Testovning oshxonasida yeyishdi. Mixail Averyanich chakka soqollarini silaganicha menyuga uzoq vaqt qarab o'tirdi-da, restoranlarda ham o'zini uyida o'tirgandek sezishga o'rganib qolgan shinavanda singari:

- Ko'raylikchi, bizlarni nima bilan mehmon qilar ekansiz, farishtam! – dedi.

XIV

Doktor yuradi-turadi, tomosha qiladi, yeydi-ichadi-yu, Mixail Averyanich g'ashini keltirayotganini hech unutolmaydi. U o'rtog'idan ayrilib, yashirinib qolgisi, tanho o'zi dam olgisi keladi, o'rtog'i esa uni o'zidan bir qadam nari yubormaslikni va mumkin qadar ko'proq uning ko'nglini ochishni o'zining burchi deb biladi. Ko'radigan narsa qolmaganda, uning ko'nglini gap bilan ochishga urinadi. Andrey Yefimich ikki kun birga chiqdi. Uchinchi kun do'stiga kasalligini va kun bo'yi uyda qolish niyatida ekanligini aytdi. Do'sti, agar unday bo'lsa, men ham uyda qolaman, dedi. Haqiqatan dam olish kerak, bundoq yuraversak, oyoqda-oyoq qolmaydi, – dedi. Andrey Yefimich divanga yotdi, orqasini o'girdi-da, tishini-tishiga qo'yib, uning so'zlariga quloq soldi. Do'sti bo'lsa, ertami-kechmi Fransiya, albatta, Germaniyani tor-mor qiladi, Moskvada muttahamlar juda ko'p va otning ko'rinishiga qarab uning yaxshi jihatlari haqida biror fikr aytish qiyin, deb uni ishontirishga harakat qilib

---

[1] *Sar-pushka* – Moskvada, qadimgi eng katta zambarak.

[2] *Sar-kolokol* – Moskvada, qadimgi eng katta qo'ng'iroq.

astoydil gapirdi. Doktorning qulog'i bitib, dili o'ynay boshladi, lekin do'stiga chiqib keting yoki gapirmang deyishga nazokati yo'l qo'ymaydi. Uning baxtiga nomerda o'tirish Mixail Averyanichning joniga tegib, ovqatdan so'ng bir aylanib kelgani chiqib ketdi.

Yolg'iz qolganidan keyin, Andrey Yefimich yayrab dam oldi. Uyda yolg'iz o'zing ekaningni bilganing holda qimirlamay divanda yotish qanday yaxshi! Yolg'izlikdan boshqa baxtning bo'lishi mumkin emas. Tubanlashgan farishta[1], ehtimol, farishtalar bilmaydigan yolg'izlikni istab xudoga xiyonat qilgandir. Andrey Yefimich so'nggi kunlarda ko'rgan va eshitganlari haqida o'ylay desa, Mixail Averyanich xayolidan sira nari ketmas edi.

«Axir u ta'til olib men bilan birga kelganida do'stligidan, oliyhimmatligidan keldi-ku, – derdi doktor, xunob bo'lib. – Mana shu do'stona g'amxo'rligidan yomon narsa yo'q-da. Bo'lmasa o'zi rahmdil, oliyjanob, xushchaqchaq odamga o'xshaydi-ku, lekin kishini zeriktiradi, chidab bo'lmaslik darajada zeriktiradi. Shunday odamlar bo'ladiki, doim ma'noli va yaxshi so'zlarni gapirsayam, lekin befahmligini shunday sezib turadi kishi».

Bundan keyingi kunlarda ham Andrey Yefimich kasalman deb nomerdan chiqmay qo'ydi. U divan suyanchig'iga yuzini o'girib yotar, do'sti gap bilan uning ko'nglini ochishga uringanda siqilar va chiqib ketganda dam olardi. Kelgani uchun o'zidan, yana kundan kunga battar jag'i ochilib, sergap bo'lib borayotgan do'stidan koyinib, xunob bo'lardi: fikrini jiddiy va yuksak izga solishning asti ilojini topolmas edi.

«Meni bir vaqtlar Ivan Dmitrich aytgan voqelik aylantirayotir, – deb o'ylardi u, o'zining ikir-chikirlarga ahamiyat berishidan achchig'lanib. – Umuman bo'lmag'ur gaplar... Uyga borsam hammasi o'z joyiga tushib qoladi...»

Peterburgda ham ahvol shu bo'ldi: ertadan kechgacha nomerdan chiqmadi, divanda yotdi, faqat pivo ichganigina o'rnidan turardi.

Mixail Averyanich uni tezroq Varshavaga ketishga qistardi.

---

[1] Iblis.

– Azizim, men u yerga borib nima qilaman? – derdi Andrey Yefimich yolvorib. – Yolg'iz bora qoling, sizdan so'rayman! Menga ruxsat bering, uyga ketay!

– Aslo iloji yo'q! – deb qarshilik qildi Mixail Averyanich.– Varshava juda ajoyib shahar. U yerda men hayotimning baxtli besh yilini o'tkazganman!

O'z aytganini qilishlikka Andrey Yefimichning irodasi kuchsizlik qildi va bo'ynidan boylaganday Varshavaga ketdi. Bu yerda ham nomerdan chiqmadi, divanda yotdi, o'zidan, do'stidan va rus tilini tushunishni asti istamagan xizmatkorlardan koyindi. Odatda, sog'lom, tetik, xursand Mixail Averyanich bo'lsa ertadan kechgacha shaharni aylanar va eski tanishlarini axtarardi. U bir necha marta uyda tunamadi. Qayerda tunagani noma'lum, bir kechadan so'ng qip-qizil bo'lib, sochlari to'zigan, qattiq hayajonga tushgani holda ertalab qaytib keldi. O'zicha nimalarnidir so'zlab, uzoq vaqt uyning u boshidan bu boshiga yurgandan keyin to'xtadi va:

– Hammadan ham nomus kerak! – deb qo'ydi.

Yana biroz yurgach boshini ushladi va dahshatli tovush bilan:

– To'g'ri, hammadan ham nomus kerak! Birinchi gal boshimga shu shaharga kelish fikri kelgan daqiqaga la'natlar bo'lsin! Azizim, – dedi, doktorga qarab, – mendan nafratlaning, yutqazib keldim! Menga besh yuz so'm berib turing!

Andrey Yefimich besh yuz so'mni sanadi va indamasdan do'stiga berdi. U uyatidan va g'azabidan hali ham qizargan holda g'o'ldirab, qandaydir bir befoyda qasamni ichdi-da, shapkasini kiyib chiqib ketdi. Ikki soatlardan keyin qaytib kelib, o'zini kresloga tashladi va qattiq uh tortib:

– Nomus saqlandi! Ketamiz, do'stim! Bu la'nati shaharda mening bir daqiqa ham turgim kelmaydi. Muttahamlar! Avstriya josuslari! – dedi.

Do'stlar o'z shaharlariga qaytib kelishganda noyabr oyi edi va ko'chalarda qalin qor yotardi. Andrey Yefimichning o'rnini doktor Xobotov olgan edi; u Andrey Yefimichning kasalxonaga qarashli uyini bo'shatib berishini kutib hali ham eski joyida

turar edi. U xizmatchim deb yurgan xunuk juvon, kasalxona uylaridan bittasida turardi.

Shaharda kasalxona to'g'risida yangi g'iybatlar tarqalgandi. Aytardilarki, haligi xunuk juvon kasalxona noziri bilan urishib qolgan emish, nozir juvonning oldida tiz cho'kib uzr so'ragan emish.

Andrey Yefimich qaytib kelgan kuniyoq o'ziga uy izlashga to'g'ri keldi.

– Do'stim, – dedi pochta mudiri tortinibgina, – andishasizlik qilib berayotgan savolim uchun kechiring: – qancha dunyongiz bor? Andrey Yefimich indamasdan pullarini sanadi-da:

– Sakson olti so'm, – dedi.

– Men uni so'rayotganim yo'q, – dedi xijolat tortib Mixail Averyanich, doktorning so'ziga tushunolmay. – Umuman qancha deyapman?

– Men ham o'shani aytayapman-da, sizga. Sakson olti so'm... bundan boshqa hech narsam yo'q.

Mixail Averyanich doktorni halol va nomusli odam deb bilgani holda, hech bo'lmasa yigirma mingga yaqin sarmoyasi bor deb o'ylardi. Endi bo'lsa Andrey Yefimichning faqirligini, hayot kechirishiga ham yetarlik narsasi yo'qligini bilib, negadir to'satdan yig'lab yubordi va do'stini quchoqlab oldi.

XV

Andrey Yefimich meshchanka Belovaning uch derazalik choqqina uyida turar edi. Oshxonasini hisobga olinmasa, bu uy uchtagina xonadan iborat. Derazalari ko'chaga qaragan ikkita xonasida doktor turar, oshxona bilan uchinchi uyda Daryushka va uch bolasi bilan meshchankaning o'zi turardi. Goho bekaning o'ynashi, mast mujik tunagani kelardi, kechalari to'polon qilib bolalarning va Daryushkaning o'tini yorardi. U kelib va oshxonada o'tirib olib araq talab qilganda uydagilarning hammasi siqilib qolardi va doktor rahmi kelganidan yig'layotgan bolalarni o'z uyiga olib chiqar, polga yotqizib qo'yardi va bunday qilish unga ko'p huzur-halovat baxsh etardi.

U avvalgıday ertalab soat sakkızda turar, choydan keyin o'tırıb, eskı kıtob va jurnallarnı o'qır edı. Yangısını olishga endı pulı yo'q edı. Kıtoblarning eskiligidanmı yokı sharoıt o'zgarganıdanmı – o'qısh unı chuqur ta'sırlantırmaydı va charchatardı. Vaqtini bekor o'tkazmaslik uchun kitoblarga to'la katalog tuzib, ularning muqovasiga patta yopishtirar va bu aql yurgizilmaydigan, qunt talab qiladigan mayda ish o'qishdan qiziqroq tuyulardi. Bir xil serdiqqat ish qandaydir tushunib bo'lmaydigan bir tarzda uning fikrini allalaydi va hech narsa haqida o'ylamaydi, vaqt ham tez o'tadi. Hatto oshxonaga kirib Daryushka bilan kartoshka archish va qora bug'doy yormasidagi cho'p-xaslarni terish ham qiziq tuyulardi. Shanba va yakshanba kunlari u cherkovga boradi. Devor yonida turib, ko'zlarini suzib, o'qiladigan oyat kuyiga quloq solarkan, ota-onasini, oliy maktabdagi chog'larini va dinlar haqida o'ylaydi; u ko'ngli tinchib, xomush tortib ketadi va keyin cherkovdan chiqib ketayotganida ibodatning bunchalik tez tamom bo'lganiga achinadi.

U Ivan Dmitrich bilan suhbatlashgani ikki marta kasalxonaga bordi. Lekin Ivan Dmitrich har gal ham haddan tashqari tutoqqan va darg'azab edi; u o'zini tinch qo'yishlarini o'tindi, bo'lmag'ur quruq so'zning allaqachon joniga tekkanini, chekayotgan barcha azob-uqubatining evaziga bu la'nati razil odamlardan faqat bitta mukofot – yolg'ız qamashlarini iltimos qilganini aytdi. Nahotki shuni ham rad qilsalar? Har ikki gal ham Andrey Yefimich xayrlashayotib, xayrli kech desa, u g'ijinib:

– Ming la'nat! – dedi.

Andrey Yefimich endi uchinchi marta borishini ham, bormasligini ham bilmasdi. Lekin borgisi kelardi.

Ilgari Andrey Yefimich tushlik ovqatdan keyin xonadan xonaga o'tib yurardi va xayol surardi, endi bo'lsa, ovqatdan to kechki choygacha divanga orqasini o'girib yotib, hech nari ketmayotgan mayda-chuyda gaplarni o'ylaydi. Yigirma yildan ortiq qilgan xizmati uchun unga nafaqa ham, na bir yo'la yordam puli ham berishmagani alam qilardi. To'g'ri, u halol xizmat qilmadi, lekin nafaqani halol xizmat qilgan, qilmaganiga qaramay xizmatchi-

larning hammasi oladi-ku. Hozirgi zamonning bor-yo'q odilligi ham shundaki, unvon, orden, nafaqalar bilan kishining axloqi va uning qobiliyati emas, umuman vazifani mukofotlaydilar, qanday vazifa bo'lishining farqi yo'q-ku. Nega endi bu qoidadan bitta u chetda qolishi kerak? Uning hech puli yo'q. Do'kon oldidan o'tishga va uy bekasiga qarashga nomus qiladi. Pivochidan o'ttiz ikki so'm qarz. Meshchanka Belovadan ham qarz. Daryushka sekin-asta borib eski ko'ylaklarni, kitoblarni sotib keladi va doktor yaqinda juda ko'p pul oladi deb, bekani aldaydi.

Yig'ib qo'ygan ming so'mini sayohatga sarf qilgani uchun doktor o'zini koyidi. Hozir o'sha ming so'm, qanday ish berar edi! Yana odamlar uni o'z holiga qo'ymaganlaridan diqqati oshardi. Xobotov onda-sonda kelib, kasal bo'lib qolgan hamkasbini ko'rishni o'z burchi deb biladi. Unda bo'lgan hamma narsa: qo'nji uzun etigidan tortib to'liq yuzi, so'zlaridagi bema'ni, ortiq darajada kibrli ohang, «hamkasb» deyishi, Andrey Yefimichga jirkanch tuyuladi; hammadan ham ko'ngliga uradigani Andrey Yefimichni davolashni o'z vazifasi deb bilishi va haqiqatan ham davolayapman deb o'ylashi edi. Har kelganda bir shisha bromli kaliy va revendan yasalgan hab ko'tarib kelar edi.

Mixail Averyanich ham do'stini ko'rib turishni va uning ko'nglini ko'tarishni o'z burchim deb bilardi. Har gal Andrey Yefimichning oldiga yasama betakalluflik bilan kirib kelardi, qah-qah urib zo'raki kulardi, yana bugun rangingiz juda yaxshi, mana xudoga shukur, ish tuzalish tomonga o'tdi deb, Andrey Yefimichni ishontirishga urinardi, lekin bundan do'stining tuzalishidan umidi yo'qligi bilinib turardi. Hali u Varshavada olgan qarzini berolmay, uyalganidan gangigan, qattiq xijolatda edi, shuning uchun ham qattiqroq kulishga, qiziqroq qilib so'zlashga urinardi. Uning latifalari uzundan uzoqday tuyular va Andrey Yefimichga ham, uning o'ziga ham ozor berardi.

U borligida Andrey Yefimich divan suyanchig'iga qarab yotib, tishini-tishiga qo'yib tinglardi; uning ko'ngliga qatlam-qatlam bo'lib quyqa o'tirardi va do'sti har kelib ketganda haligi quyqa ko'tarilib borayotganini va bo'g'ziga kelayotganini sezardi.

Mayda-chuyda sezgilarni ko'nglidan chiqarish maqsadida u o'zini, Xobotovni, Mixail Averyanichni ertami-kechmi o'lib, tabiatda biron nishon qoldirmasligini o'ylar edi. Agar million yillardan so'ng yer kurrasi yonida biron ruh uchib o'tadi deb faraz qilinsa, u quruq tuproq va yalang'och qoyalardan o'zga hech narsa ko'rmaydi. Madaniyat ham, axloq qonunlari ham – hammasi mahv bo'lib ketadi, hatto ularning ustida qariqiz o't ham o'sib chiqmaydi. Boqqoldan uyalish, arzimagan Xobotov, Mixail Averyanichning malol keladigan do'stligi nima degan gap? Bularning hammasi bo'lmag'ur, arzimaydigan gaplar deyardi.

Lekin bu xildagi muhokamalar endi yordam bermasdi. U endigina million yildan keyingi yer kurrasini ko'z oldiga keltira boshlasa, haligi yalang'och qoyalar orasidan qo'nji uzun etik kiygan Xobotov chiqardi yoki Mixail Averyanich paydo bo'lib, qah-qahlar va xijolat ichida: «Varshavadagi qarzni, azizim, uch-to'rt kun ichida beraman, albatta, beraman...» degan shivirlash eshitilardi.

XVI

Bir kun tushlik ovqatdan keyin Mixail Averyanich keldi. Andrey Yefimich divanda yotgan edi. Xuddi o'sha topda bir shisha brom ko'tarib, Xobotov ham kelib qoldi.

Andrey Yefimovich zo'rg'a qo'zg'alib, turib o'tirdi va ikki qo'li bilan divanga tiraldi.

– Bugunchi, azizim, – deb gap boshladi Mixail Averyanich, – rangingiz kechagiga qaraganda ancha yaxshi. Azamatsiz-da! Xudo haqi, azamatsiz!

– Bo'ldi, bo'ldi-da, hamkasb, – dedi Xobotov, esnab. – Bu g'alva o'zingizning ham joningizga tekkandir.

– Yaxshi bo'lamiz ham-da! – dedi Mixail Averyanich xushnudlik bilan. – Hali yana yuz yil yashaymiz! Ha shunday!

– Yuz yil-ku, bo'lmas-u, yana yigirma yillarga boriladi, – deb tasalli berdi Xobotov, – hechqisi yo'q, hechqisi yo'q, hamkasb, g'am yemang... qo'ying, vahima qilmang.

– Hali biz o'zimizni ko'rsatamiz! – dedi qah-qah urib Mixail Averyanich va do'stining tizzasiga urib qo'ydi. – Hali biz ko'rsatamiz! Kelasi yoz, xudo xohlasa Kavkazga qarab jo'naymiz va butun Kavkazni xo'p! xo'p! xo'p! deb ot bilan aylanib chiqamiz. Kavkazdan qaytganimizdan keyin, qarabsizki, to'y qilib yubormasak deng, – deb Mixail Averyanich ko'zini qisib qo'ydi, – uylantirib qo'yamiz sizni, sevikli birodarimni... Uylantiramiz...

Andrey Yefimichning xayolida birdan haligi quyqa bo'g'iziga tiqilib kelayotganday bo'ldi; dili o'ynab ketdi.

– Bu andishasizlik! – dedi u irg'ib turib, deraza yoniga borarkan, – nahotki beandisha so'zlarni aytayotganingizni anglamaysiz-a?

U nazokat bilan muloyimgina davom qilmoqchi edi-yu, lekin beixtiyor, to'satdan mushtumlarini qattiq qisdi va qo'llarini yuqori ko'tardi.

– Qo'ying meni! – dedi boshqacha ovoz bilan qichqirib, bo'g'ilib, qizargan holda butun vujudini titroq bosib:

– Yo'qol, ko'zimdan! Ikkalang ham yo'qol, ikkalang ham! – dedi.

Mixail Averyanich bilan Xobotov o'rinlaridan turib, avvalo hayron bo'lib, so'ng qo'rquv ichida unga tikilib qolishdi.

– Ikkalang ham yo'qol! – dedi Andrey Yefimich yana qichqirib. – Befahm kishilar! Ahmoq odamlar! Do'stliging ham kerak emas, doringni ham olib ket, befahm odam! Qabih! Palid odamlar!

Xobotov bilan Mixail Averyanich shoshib qolib, bir-biriga qarashdi va orqalari bilan tislanib borib, dahlizga chiqishdi. Andrey Yefimich bromlik kaliy solingan shishani olib ularning orqasidan uloqtirib yubordi; shisha ostonaga tushib, sharaqlab sindi.

– Chiq, yo'qol! – dedi, yig'i aralash tovush bilan ularning orqasidan dahlizga chiqib!

Mehmonlar ketgach, Andrey Yefimich bezgak tutayotgandek titrab, divanga yotdi va uzoq vaqt:

Befahm kishilar! Ahmoq odamlar! – deb takrorladi.

U jahlidan tushganda avvalo yodiga: sho'rlik Mixail Averyanich xijolat tortayotgandir, ko'ngli juda ozor topgandir va umuman bu qanday yomon ish bo'ldi, degan fikr keldi. Ilgari hech qachon bunday bo'lmagan edi. Es qani-yu, odob qani? Qani har narsani anglab olishlik va faylasufcha loqaydlik?

Doktor uyalganidan va o'z qilig'idan xunob bo'lganidan tun bo'yi uxlayolmay chiqdi, ertalab soat o'nlarda pochtaxonaga borib, pochta mudiridan uzr so'radi.

– Bo'lgan ishni ko'ngildan chiqaraylik, – dedi chuqur nafas olib, ko'ngli buzilib ketgan Mixail Averyanich uning qo'lini qattiq qisarkan. – Kim o'tgan ishni eslasa ko'r bo'lsin, – Lyubavkin. – U to'satdan shunday qattiq qichqirdiki, xat tashuvchilar va pochtaxonaga kelgan odamlar cho'chib ketishdi. – Stul keltir. Sen tura tur! – dedi baqirib panjaradan buyurtma xat uzatayotgan xotinga. – Ko'rayapsanmi, qo'lim bo'sh emas-ku? O'tgan ishni esga olmaymiz, – davom qildi u muloyimlik bilan Andrey Yefimichga qarab. – Qani, marhamat qiling, azizim.

U indamasdan tizzalarini silab, bir daqiqa o'tirdi-da, keyin bunday dedi:

– Sizdan gina qilish mening xayolimga ham kelgani yo'q. Dard hazil gap emas, men tushunaman. Kecha kasalingizning tutib qolishi doktor bilan meni qo'rqitib yubordi, keyin uzoq vaqt siz to'g'ringizda so'zlashdik. Azizim, nima uchun kasalingizni jiddiy ravishda davolatgingiz kelmaydi? Shu yaxshimi? Do'stlik qilib ochig'ini aytganim uchun kechiring, – dedi shivirlab Mixail Averyanich, – siz o'zingizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan sharoitda yashaysiz: joy tor, iflos, parvarishingiz yo'q, davolanishga ham hech narsangiz yo'q... Aziz do'stim, doktor ikkovimiz jon-u dilimiz bilan sizdan iltimos qilamiz, bizlarning maslahatimizga ko'ning: kasalxonaga yoting! U yerning ovqati yaxshi, parvarish ham qilishadi, davolashadi ham. Gap shu yerda qolsin-ku, garchi Yevgeniy Fedorich ta'lim-tarbiyadan chetdagi odam bo'lsa ham, lekin ilmdan xabari bor, unga ishonish mumkin. U sizni yaxshilab qarashga va'da berdi.

Andrey Yefimich pochta boshlig'ining chin ko'ngildan qilayotgan mehribonchiligini va to'satdan uning yuzlariga oqib tushgan yoshini ko'rib, ko'ngli bo'shashib ketdi.

– Azizim, ishonmang! – dedi u sekingina qo'lini ko'ksiga qo'yib, – ularga ishonmang! Bo'lmagan gap! Mening kasalim faqat shundaki, yigirma yil mobaynida butun boshli shaharda faqat bitta aqlli odamni uchratdim, u ham bo'lsa jinni. Mening hech qanday kasalim yo'q, faqat chiqishning iloji bo'lmagan sehrli girdobga tushib qoldim. Menga baribir, nima desangiz tayyorman.

– Kasalxonaga yoting, azizim.

– Menga baribir, o'raga desangiz ham mayli.

– Har to'g'rida Yevgeniy Fedorichga quloq solishga va'da bering, azizim.

– Mayli, so'z beraman. Lekin, hurmatli do'stim, takror aytaman-ki, men sehrli girdobga tushganman. Endi hammasi, hatto do'stlarimning chin ko'ngildan qiladigan mehribonligidan tortib barcha narsa – meni halok qilishga olib boradi. Men halok bo'layotirman va shuni aytishga irodam yetadi.

– Jonim, tuzalib ketasiz.

– Bunday deyishning nima hojati bor? – dedi Andrey Yefimich asabiylashib. – Kamdan kam odam hayotining oxirida hozirgi men sezayotgan holni sezadi. Agar sizga buyragingiz yaramaydi yoki yuragingiz kengayib ketgan desalar davolana boshlaysiz, agar sizni jinni yoki jinoyatchi deyishsa, ya'ni qisqasi odamlar birdan sizga e'tibor bera boshlasa, unda bilingki, siz sehrli girdobga tushdingiz, undan chiqishning iloji yo'q. Chiqishga harakat qilsangiz battarroq adashib ketasiz. Bo'ysunib qo'ya qoling, chunki hech qanday inson qudrati sizni qutqara olmaydi, men shunday deb o'ylayman.

Bu orada panjaraning nariyog'ida odam yig'ilib qolgandi. Andrey Yefimich xalaqit bermaslik uchun turdi-da, xayrlashdi. Mixail Averyanich undan yana bir qayta va'da oldi-da, ko'cha eshikkacha kuzatib qo'ydi.

O'sha kuniyoq kechga tomon Andrey Yefimichning oldiga uzun qo'njli etik, qisqa palto kiyib, kutilmagan chog'da Xobotov kirib keldi va go'yo kecha hech gap o'tmaganday bir vaziyatda:

– Men oldingizga bir ish bilan keldim, hamkasb. Sizni taklif qilgali keldim: men bilan konsiliumga[1] borib kelmaysizmi-a? – dedi.

Xobotov meni aylantirib, biroz ko'nglimni ochmoqchidir yoki haqiqatan pul ishlab olsin deyayotgandir, degan xayolga borib Andrey Yefimich kiyindi va birga ko'chaga chiqdi. Kechagi gunohini uning ko'nglidan chiqarib, yarashib olishga qulay payt topilganiga shodlanar va uni ayab bo'lsa kerak, kechagi gap to'g'risida og'iz ochmay borayotgan Xobotovga ichidan tashakkurlar aytardi. Shunday madaniyatsiz odamdan bunchalik nazokat kutish qiyin edi.

– Bemoringiz qayerda? – deb so'radi Andrey Yefimich.

– Kasalxonamda. Ko'pdan beri sizga ko'rsatmoqchi bo'lib yurgan edim... Juda ajoyib hodisa.

Kasalxona hovlisiga kirishdi va kasalxonaning katta binolaridan o'tib, aqlidan adashganlar yotadigan binoga qarab yo'l olishdi. Buning hammasi negadir indamasdan qilindi. Haligi uyga kirganlarida Nikita odati bo'yicha irg'ib turib, qomatini rostladi.

– Kasallardan bittasi o'pkasini oldirib qo'yipti, – dedi Xobotov sekingina, Andrey Yefimich bilan palataga kirarkan. – Siz shu yerda tura turing, men hozir faqat stetoskopni olib kelaman.

Chiqib ketdi.

XVII

Qorong'i tusha boshlagan edi. Ivan Dmitrich o'rnida basharasini yostiqqa bosib yotipti; falaj odam harakatsiz o'tirib, asta yig'lab, lablarini qimirlatyapti, semiz kishi bilan sobiq xat saralovchi uxlashyapti. Jimjit.

Andrey Yefimich bo'lsa, Ivan Dmitrichning karavotiga o'tirib kutdi va Xobotovning o'rniga, qo'ltig'ida xalat, kimningdir ichki kiyimlarini, tufli ko'tarib xonaga Nikita kirib keldi.

– Marhamat, kiyining janobi oliylari, – dedi u sekingina. – Mana bu sizning o'rningiz, buyoqqa marhamat qiling, – dedi

[1] *Konsilium* – og'ir kasalni aniqlash va uni davolash yo'llarini axtarish uchun vrachlarning maslahat majlisi.

aftidan yaqinda keltirilgan bo'sh karavotni ko'rsatib. – Hechqisi yo'q, xudo xohlasa tuzalib qolasiz.

Andrey Yefimich hammasiga tushundi. Biror og'iz so'z qotmadi va Nikita ko'rsatgan karavotga o'tirdi; Nikitaning kutib turganini ko'rib, qip yalang'och bo'lib yechindi va uyalib ketdi. So'ng kasalxona kiyimini kiydi; lozim juda qisqa, ko'ylak uzun keldi. Xalatdan tuzlangan baliqning hidi kelardi.

– Xudo xohlasa, tuzalib qolasiz, – dedi Nikita yana.

U Andrey Yefimichning kiyimlarini qo'ltiqlab olib chiqdi-da, eshikni bekitib ketdi.

«Baribir... – deb o'yladi Andrey Yefimich uyalib, xalatga o'ralarkan, bu yangi kiyimda o'zini mahbuslarga o'xshatib. – Baribir... Frakmi, mundirmi, yo shu xalatmi, baribir...»

Lekin soatni olib ketdi-ku? Yon cho'ntagimdagi daftarcham-chi, papiroslarim-chi? Kiyimlarni Nikita qayoqqa olib ketdiykin? Endi ehtimol, o'lgunimcha ham shim, jiletka, etik kiyishga to'g'ri kelmas. Bu juda qiziq, daf'atan tushunib ham bo'lmaydi, Andrey Yefimich hali ham meshchanka Belovaning uyi bilan oltinchi raqamli palataning o'rtasida hech qanday farq yo'q, bu dunyodagi hamma narsa quruq g'alva va bo'lmag'ur gaplar degan fikrda edi, shunday bo'lsa ham qo'llari titradi, oyoqlari muzladi, yana hozir Ivan Dmitrich uyg'onadi va meni xalat kiygan holda ko'radi, degan fikrdan kayfi uchib ketdi. O'rnidan turdi, biroz yurdi, yana o'tirdi.

Mana uning o'tirganiga yarim soat bo'ldi, bir soat ham bo'ldi va joniga tegarlik darajada zerikdi. Nahotki shu joyda mana bu odamlar singari kunlab, haftalab, hatto yillab yashash mumkin? Mana u o'tirdi, bir aylanib kelib yana o'tirdi; borib derazadan qarash mumkin, keyin yana uyning u boshidan bu boshiga yurish mumkin, undan keyin nima? Ertadan kechgacha qaqqayib o'tirish va xayol surishmi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas.

Andrey Yefimich yotdi, lekin o'sha ondayoq turdi, yengi bilan peshonasidagi sovuq terni artdi va butun yuzidan tuzlagan baliq hidi kelayotganini sezdi. U yana turib yurdi.

– Bu qandaydir anglashilmovchilik... – dedi u, qo'llarini yozib, hayron qolib, – gaplashish kerak, bunda anglashilmovchilik bor...

Shu topda Ivan Dmitrich uyg'ondi. Turib o'tirdi, yanoqlarini mushtumlariga tiradi. Tupurdi. So'ng erinchoqlik bilan doktorga qaradi va aftidan dastlab tushunolmadi, lekin uning uyqusi o'chmagan yuzida birdan g'azab va istehzo aks etdi.

– Himm, sizni ham shu yerga tiqib qo'yishdimi, azizim! – dedi uyqudan bo'g'ilib turgan tovush bilan, bir ko'zini qisib, – juda xursandman. Avval siz odamlarning qonini ichar edingiz. Endichi, sizning qoningizni ichishadi. Juda soz!

– Bu qandaydir anglashilmovchilik... – dedi Ivan Dmitrichning so'zidan qo'rqib ketgan Andrey Yefimich va yelkalarini uchirdi, yana: – qandaydir anglashilmovchilik, – dedi.

Ivan Dmitrich yana tupurdi-da, yotdi.

– La'nati hayot! – dedi u to'ng'illab. – Hammadan ham nimasi alam qiladi deng, bu turmush – azob chekishlar badaliga mukofot bilan emas yoki operadagi kabi tantana bilan emas, o'lim bilan tamom bo'ladi-ya; kasalxona xizmatchilari kelib o'likni qo'lidan, oyog'idan olib, sudrab yerto'laga eltib tashlaydilar u... u! Ha, mayli... shunisi borki, bizlarga u dunyoda bayram bo'ladi... Men u dunyodan bu yerga arvoh bo'lib kelaman va bu gazandalarning o'tini yoraman. Men ularning sochlarini oqartirib yuboraman.

Moiseyka qaytib keldi va doktorni ko'rib, qo'lini cho'zib:

– Bir tiyin ber! – dedi.

XVIII

Andrey Yefimich deraza oldiga bordi, dalaga qaradi. Qorong'u tushib qolgandi va o'ng tomonda ufqdan to'q qizil, sovuq oy ko'tarilayotgandi. Kasalxona devoridan yiroq emas, ko'p bo'lsa uch yuz qadamcha narida tosh devor bilan aylantirilgan baland oq imorat turipti. U turma.

«Voqelik bu ekan!» deb o'yladi Andrey Yefimich va yuragini vahima bosdi.

Oy ham, turma ham, devoridagi mixlar ham, uzoqdagi suyak eritadigan korxonaning mo'risidan chiqayotgan alanga ham dahshatli ko'rindi. Orqada kimdir uh tortdi. Andrey Yefimich qayrilib qaradi, yaltiroq yulduzlar va ordenlar taqqan kishini ko'rdi, u kishi jilmayar va ayyorlik bilan ko'z qisardi. Bu ham mudhish tuyuldi.

Andrey Yefimich oyda va turmada alohida bir narsa yo'q, ruhiy salomat kishilar orden taqib yurishadi va bularning hammasi vaqt o'tishi bilan chirib, tuproqqa aylanadi deb o'zini-o'zi ishontirib ko'rdi, lekin birdan uni umidsizlik qamrab oldi, ikki qo'li bilan panjaraga yopishib, kuchining boricha silkitdi. Mustahkam panjara qo'zg'almadi.

Keyin qo'rquvdan panoh tortib Ivan Dmitrichning yoniga bordi, o'tirdi.

– Azizim, ruhim tushdi, – dedi titragan holda, sovuq terini artarkan. – Ruhim tushdi.

– Yana falsafa soting, – dedi Ivan Dmitrich mazax qilib.

– Yo rabbiy, yo rabbiy... ha, ha... Bir kun siz aytgan edingiz-a, Rossiyada falsafa yo'q, lekin hamma, hatto pastarin kishilargacha falsafa sotadi degan edingiz. Ammo pastarin kishilarning falsafa sotishining hech kimga ziyoni yo'q-ku, – dedi Andrey Yefimich go'yo yig'lamoqchi va kishining rahmini keltirmoqchi bo'layotgandek bir ohangda. – Nega endi mazax qilib kulasiz! Norozi bo'lgandan keyin pastarin kishi ham falsafa sotadi-da! Aqlli, ilmli, mag'rur va ozodlikni sevuvchi odamga, aziz zotga orqada qolgan iflos shaharchaga borib tabib bo'lishlikdan, keyin umr bo'yi banka va zuluk solish, garchishnik qo'yishdan boshqa iloj yo'q. Muttahamlik, razillik, fikriy cheklanganlik, yo rabbiy!

– Bo'lmag'ur gaplarni vaysayapsiz. Tabiblikni yoqtirmasangiz ministr bo'la qoling edi.

– Hech, hech ilojim yo'q. Zaifmiz, azizim... Men beparvo edim, tetik va sog'lom fikr yuritardim, hayot menga dag'al tomonini o'girishi bilan ruhim tushib ketdi... majolim qolmadi... zaifmiz, yaramasmiz... siz ham shundaysiz, azizim... Siz aqlli, oliyjanob odamsiz, go'zal xulq sizga sut bilan kirgan, lekin hayotga qadam qo'yar-qo'ymas horib, kasal bo'lib qolgansiz... Zaifmiz! Zaif!

Kech kirgandan beri qo'rquv va alamdan boshqa yana qandaydir sira nari ketmaydigan bir his Andrey Yefimichni ezib turgandi. Nihoyat angladi, uning pivo ichgisi va papiros chekkisi kelayotgan ekan.

– Azizim, eshikka chiqaman, – dedi u.

– Aytay, chiroq keltirishsin... Bundoq turolmayman... Toqatim yo'q...

Andrey Yefimich eshik oldiga bordi va eshikni ochdi, shu on Nikita irg'ib turib yo'lini to'sdi:

– Qayoqqa bormoqchisiz? Mumkin emas, mumkin emas! – dedi u. – Uxlash kerak!

– Ha, men bir daqiqagina hovlini aylanib kelaman! – dedi Andrey Yefimich shoshganidan.

– Mumkin emas, mumkin emas, ijozat yo'q. O'zingiz bilasiz-ku.

Nikita eshikni qattiq yopti-da, orqasi bilan suyanib oldi.

– Agar men shu yerdan chiqsam, shundan birovga bir narsa bo'ladi-mi? – dedi Andrey Yefimich yelkalarini uchirib. – Tushunolmadim! Nikita, men eshikka chiqishim kerak! – dedi u qaldiragan tovush bilan. – Ishim bor!

– Tartibsizlik qilmang, yaxshi emas! – dedi Nikita nasihat qilib.

– Bu nima degan gap-a! – dedi Ivan Dmitrich to'satdan hayqirib va sakrab turdi. – Chiqarmaslikka uning nima haqi bor? Bizlarni bu yerda qamoqda tutishga qanday haqingiz bor. Qonunda-ku, sud hukm qilmaguncha hech kim ozodlikdan mahrum qilinmaydi, deb ochiq aytilgan. Bu zo'rlik! O'zboshimchalik!

– Albatta, o'zboshimchalik! – dedi Ivan Dmitrichning gapidan jasoratlangan Andrey Yefimich. – Chiqaman dedim, chiqishim kerak! Chiqarmaslikka haqi yo'q! Chiqar, senga aytayotirman!

– Eshityapsanmi, befahm hayvon? – dedi Ivan Dmitrich, baqirib va mushtumi bilan eshikni urdi. – Och, bekor eshikni sindiraman! Muttaham!

– Och! – dedi baqirib Andrey Yefimich butun vujudini titroq bosgan holda. – Men talab qilaman!

– Vaysayver! – dedi eshik orqasidan turib Nikita, – vaysayver-chi!

– Hech bo'lmasa, bor, Yevgeniy Fedorichni aytib kel! Men chaqirayotganimni ayt... Bir daqiqaga!

– Ertaga o'zlari ham keladilar.

– Bizlarni hech qachon chiqarishmaydi! – deb davom qildi Ivan Dmitrich. – Shu yerda chiritishadi! Ey parvardigor, nahotki haqiqatan u dunyoda do'zax yo'q va bu ablahlarni kechirib qo'ya qolinadi? Qani adolat? Och, ablah, nafasim bo'g'ilib ketdi! – dedi bo'g'iq tovush bilan qichqirib va bor bo'yi bilan eshikni itardi. – Boshimni yoraman! Qonxo'rlar!

Nikita eshikni tez ochdi, ikki qo'li va tizzasi bilan Andrey Yefimichni qattiq itarib yubordi, keyin qulochkashlab mushtumi bilan yuziga tushirdi. Andrey Yefimichning xayolida kattakon sho'r to'lqin boshigacha ko'mib, karavotga sudrab borayotganday bo'ldi: darhaqiqat og'zi sho'rtang bo'lib ketdi: qon to'lgan bo'lsa kerak. U suzib chiqmoqchi bo'lgandek qo'llarini qimirlatgan edi, kimningdir karavotini ushlab oldi. Shu topda Nikita ikki marta yelkasiga urganini sezdi.

Ivan Dmitrich qattiq qichqirdi, uni ham urishgan bo'lsa kerak.

So'ng hammasi jim bo'ldi. Oyning xiragina nuri temir panjara orqali o'tib, polga to'r shaklida soya tashlab turipti. Dahshatli edi. Andrey Yefimich yotdi va damini ichiga oldi; u yana urishadi deb, o'ti yorilib kutardi. Xuddi birov o'roq olib, unga sanchib, ko'kragida, qornida bir necha marta burab olardi. Og'riqqa chidolmay yostiqni tishlab, tishini tishiga qo'ydi, boshi va oxiri yo'q fikriy tarqoqlik orasida to'satdan: hozir oy yorug'ida qora dog'ga o'xshab yotgan mana bu odamlar shu singari og'riqni necha yillar davomida har kun boshidan kechirgan degan dahshatli, og'ir fikr ravshan esiga keldi. Yigirma yildan ortiq vaqt o'tsa-yu, qanday qilib shu narsani anglamagan va anglashni ham istamagan ekan? U bilmagan edi, og'riq haqida tushunchasi ham yo'q edi, demak u aybli emas, lekin o'zining Nikita singari dag'al va o'jar vijdoni ensasidan tovonigacha sovushga majbur qildi. Sakrab turdi, tovushining

boricha qichqirmoqchi va tezroq yugurib borib Nikitani, Xobotovni, nozirni va feldsherni, so'ngra o'zini o'ldirmoqchi edi, lekin ko'kragidan biron tovush chiqmadi, oyoqlari bo'ysunmadi; bo'g'ilib, ko'kragidagi xalat va ko'ylakka chang soldi, yirtib tashladi va behush bo'lib karavotiga yiqildi.

XIX

Ertasiga ertalab boshi og'rib, qulog'i shang'illab, butun vujudi shol-shol bo'lib turdi. O'zining kechagi zaifligini eslashdan uyalmadi. Kecha u yuraksizlik qildi, hatto oydan ham qo'rqdi, biroq ilgari o'zida borligini sezmagan his va fikrlarni dadil aytaverdi. Masalan, falsafa sotuvchi pastarin kishilarning bema'niligini gapirdi. Lekin endi unga baribir edi.

U yemadi ham, ichmadi ham, churq etmay, harakatsiz yotaverdi.

«Endi menga baribir, – deb o'ylar edi u, savol berayotganlarida. – Javob bermayman... Menga baribir».

Tushlik ovqatdan keyin chorak qadoq choy, bir qadoq marmelad ko'tarib Mixail Averyanich keldi. Daryushka ham keldi va siymosida ma'nosiz g'amginlik aks etgan holda bir soat karavot yonida turdi. Doktor Xobotov ham kelib ketdi. U bir shisha bromli kaliy keltirdi va palataga biror narsa tutatib yuborishni Nikitaga buyurdi.

Kechqurun Andrey Yefimichning miyasiga qon quyilib o'ldi. Avvalo juda qattiq titradi va ko'ngli aynidi; xayolida qandaydir jirkanch bir narsa butun vujudiga, hatto barmoqlarigacha singib, me'dasidan tortib boshigacha chiqib, ko'zlari va quloqlariga to'lib qolganday bo'ldi. Ko'z o'ngi yashil tusga bo'yaldi. Andrey Yefimich qazosi yetganini angladi va Ivan Dmitrich, Mixail Averyanich yana millionlab odamlarning abadiylikka ishonishlarini esladi. Bordi-yu, abadiylik bo'lsa-chi? Lekin u abadiylikni istamas edi va bu haqda faqat bir lahzagina o'yladi. Uning yonidan kecha kitobda o'qigani g'oyat go'zal va viqorli kiyiklar podasi yugurib o'tdi; keyin bir ayol unga qo'lini cho'zib buyurtma xat uzatdi. Mixail Averyanich nimadir dedi. So'ng hammasi g'oyib bo'ldi va Andrey Yefimich abadiy uyquga toldi.

Kasalxonada xizmat qiluvchi erkaklar kelishdi, qo'lidan, oyog'idan ushlashdi va chasovnyaga[1] eltib qo'yishdi. U yerda Andrey Yefimich ko'zlari ochilgan holda stol ustida yotdi va kechasi uni oy yoritib turdi. Ertalab Sergey Sergeich keldi, mixlab qo'yilgan Iso rasmiga qarab ixlos bilan ibodat qildi va sobiq boshlig'ining ko'zlarini yumdirdi.

Bir kundan keyin Andrey Yefimichni ko'mishdi. Dafn marosimida faqat Mixail Averyanich bilan Daryushka bo'ldi.

[1] *Chasovnya* – cherkovcha.

JONGINAM

Iste'foga chiqqan kollegiya asessori Plemyannikovning qizi Olenka hovli eshigi oldidagi supachada xayol surib o'tiradi. Kun issiq, pashshalar xiralik bilan jonga tegar, kech kirishiga yaqin qolganligi ko'ngliga xush kelar edi. Kunchiqar tarafdan yomg'irdan darak berguvchi qop-qora bulut bostirib kelmoqda, har zamon yomg'ir tomchilab qo'yar edi.

Shu hovlidan bir uyni ijaraga olgan, «Tivoli» nomli rohat bog'chasining egasi va antreprenyori Kukin hovlining o'rtasida turib, osmondan ko'zini uzmasdi.

Ana xolos! – dedi u jig'ibiyroni chiqib. – Tag'in yomg'ir yog'adigan bo'ldi-ku! Kunda yomg'ir! Kunda yomg'ir, menda qasdi bormi! Uyim kuydi-ku! Xonavayron bo'ldim! Zarar ko'rmagan kun qolmadi-ku!

U hayronlikdan qo'llarini kaftiga urib qo'yib, Olenkaga qarab davom etdi:

– Ko'rgan kunimiz shu, Olga Semyonovna, yig'laging keladi. Uzzukun ishlaysan, o'lib tirilasan, kechalari uxlamay chiqasan, qandog' qilsam yaxshiroq bo'larkin, deb bosh qotirasan, oqibati nima? Bir tomondan xalq nodon, yovvoyi xalq. Men unga eng yaxshi operetkalarni, feyeriyalarni qo'yib bersam, borib turgan laparchilarni sahnaga chiqarsam-u, unga yoqmasa! Xalq bunga tushunmaydi-da! Xalqqa masxarabozlik yoqadi, u eng past, kishining ko'ngliga urgan tomoshalarni talab qiladi! Endi bu osmonni qarang! Xudoning bergan kuni yomg'ir yog'adi! O'ninchi maydan beri yog'adi, butun may tinmay yog'di, iyun yog'di, jonga tegdi-ku, axir! Odamlar boqqa kirmay qo'yishdi, kirim yo'q, ijara haqini qanday to'layman? Artistlar yollaganman, ularga qanday haq to'layman?

Ertasi kuni kechqurun osmonni yana bulut bosdi. Butun umidini yo'qotgan Kukin aqldan ozgan odamday qah-qah otib so'zlardi.

– Ha, mayli! Yog'sa yog'aversin! Menga qolsa butun bog'chani suv bosib ketsin, meni ham qo'shib olib ketsin! Bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtsiz o'ta qolay! Artistlar meni sudga berib, kesdirib yuborishsin! Sud ham gapmi, Sibirga surgun qilishsin! Dorga osib o'ldirishsin meni! Ha-ha-ha!..

Uchinchi kuni ham xuddi shunday bo'ldi.

Kukinning gaplarini Olenka jim turib, jiddiy tinglar, goho uning ko'zlariga yosh kelardi. Bora-bora Kukinning baxtsizligi Olenkaning yuragini ezdi, qiz uni yaxshi ko'rib qoldi. Kukin pakana, oriq, za'faron yuzli, sochlarini ho'l tarab yuradigan odam edi; ovozi ingichka bo'lib, gapirganda lablarini burib gapirardi, uning aftida hamma vaqt umidsizlik, norozilik aks etardi. Shularga qaramay, u Olenkada haqiqiy, chuqur sevgi uyg'otdi. Olenkaning o'zi biron kishini sevmasdan yurolmasdi. Eng oldin o'z otasini yaxshi ko'rar edi, otasi endi og'ir kasal bo'lib, qorong'i qilib qo'yilgan uyda nafasi bo'g'ilib yotardi; keyin yilda bir-ikki marta Bryanskdan kelib ketib yuradigan xolasini yaxshi ko'rib qoldi. Undan oldin esa, progimnaziyada o'qib yurgan vaqtlarida, fransuz tili o'qituvchisini sevib qolgan edi. Olenka muloyimgina, xushfe'l, ko'ngli ochiq, to'ladan kelgan, do'ndiqqina, yuvosh qiz edi. Uning anorday qip-qizil yuziga, qop-qora xol tushgan oppoq yumshoq bo'yniga, bironta yoqimli so'z eshitganida chehrasida paydo bo'ladigan jilmayishiga ko'zi tushgan erkaklar bir jilmayib: «Chakki emas...» deb qo'yardilar. Mehmonga kelgan xotinlar esa gapning o'rtasida birdan uning qo'lidan ushlab:

– Jonginam! – demasdan qo'yishmasdi.

U tug'ilib o'sgan va meros qog'ozida uning nomiga yozilgan uy shaharning chetida, Siganskaya Sloboda degan joyda, «Tivoli» bog'chasining yonida edi. Har kuni kechqurun yarim kechagacha bog'dan musiqa ovozlari va mushaklarning paqillab otilishi eshitilardi, mushaklarning paqillashini eshitib u «Kukin o'z taqdiri bilan olishmoqda, eng yovuz dushmani bo'lmish – hamma narsaga beparvo qarovchi tomoshabinlarning ko'nglini olmoqda» deb o'ylardi, yuragi orziqib ketar, uyqusi kelmas, tongotar paytida Kukin uyga qaytib kelganda o'zining yotoq bo'lmasida turib

derazani qoqar, parda orqasidan yuzi va bir yelkasini ko'rsatib, mehribonlik bilan jilmayib qarar edi...

Kukin taklif qildi, ular nikoh o'qitishib, er-xotin bo'lishdi. Kukin, Olenkaning bo'ynini va yumshoqqina to'la yelkalarini ko'rib, o'zida yo'q sevindi va:

– Jonginam! – dedi.

Kukin o'zini baxtiyor sezardi, ammo to'yda kunu tun yoqqan yomg'ir uni ancha xafa qilgan edi.

To'ydan keyin ular uchun yaxshi kunlar boshlandi. Olenka kassada o'tirib chipta sotar, bog'cha tartiblariga qarab yurar, hisob-kitob ham shuning qo'lida edi; artistlarga oylikni ham shu to'lar, uning qip-qizil anordek chehrasini va yoqimli, mayin jilmayishini goh kassa darchasida, goh sahna orqasida, goh bufetda ko'rish mumkin edi. Olenka o'zining hamma tanishlariga – dunyoda eng yaxshi va eng kerakli narsa teatr, faqat teatrda kishi rohatlanadi, bilimdon bo'loladi, – derdi.

– Ammo bunga xalq tushunmaydi! – derdi u. – Xalqqa masxarabozlik ko'rsatsangiz yoqadi! Kecha kechqurun biz «Faustning teskarisi» degan spektaklni qo'yuvdik, deyarlik hamma lojalar bo'sh qoldi. Vanichka ikkimiz bironta bemaza narsani qo'yib ko'rsatsak, odam liq to'lib ketadi. Ertaga Vanichka ikkimiz «Do'zaxga tushgan Orfey» ni qo'yamiz, kelinglar.

Teatr haqida, aktyorlar haqida Kukin nima desa Olenka ham shuni qaytarardi. Kukin kabi u ham xalqni befarq va nodonligi uchun yomon ko'radi, repetisiyalarga aralashadi, aktyorlarning harakatlarini, so'zlarini tuzatadi, musiqachilarni tergaydi, mahalliy gazetada teatrni yomonlab bironta maqola bosilib qolsa yig'laydi, keyin redaksiyaga borib izoh beradi.

Artistlar uni yaxshi ko'rishardi, unga «Vanichka ikkimiz» va «Jonginam» deb ot qo'yishgan edi. Olenka ularga rahm qilib, ozmoz pul qarz berib turar, agar ularning ba'zilari pulni qaytarmay, aldab ketishsa hech kimga bildirmay yig'lar, ammo eriga aytmasdi.

Qishda ham ularning turmushi yaxshi edi. Ular shahar teatri binosini butun qishga ijaraga olib, goh malorosslar truppasiga, goh fokuschiga, goh shu yerning teatr havaskorlariga qisqa

muddatga ijaraga berishar edi. Olenka kun sayin semirardi, vaqti xushligidan kundan kunga ochilardi, qish bo'yi ish o'ngidan kelib, daromad yomon bo'lmasa-da, Kukin «zarar ko'payib ketdi» deb noligani-noligan edi, yuzi tobora sarg'ayar va o'zi ozar edi. Kechalari yo'talib chiqardi, Olenka unga malina guli va lipa daraxtining gulini qaynatib ichirar, ko'kragiga atir surtar, o'zining yumshoq jun ro'moliga o'rab qo'yardi. Uning sochlarini silab:

– Tanimdagi jonimsan, – derdi u yurakdan.

Truppa to'plash uchun Kukin, ro'za kezida, Moskvaga ketdi. Olenka usiz butun huzur-halovatini yo'qotdi, kechalari mijja qoqmay, deraza oldida yulduzlarga qarab chiqardi. Shunday paytlarda o'zini katakda xo'rozsiz qolib, uyqusiz bezovtalanuvchi tovuqdek his etardi. Kukin Moskvada uzoq turib qoldi, yuborgan xatida hayitga yetib kelishini yozib, «Tivoli» rohat bog'chasini ijaraga olish to'g'risida harakat boshlashni buyurgan edi. Biroq chin arafa kuni kechqurun birov bochkani gumburlatib urgandek darvozani xunuk qoqa boshladi. Uyqudan zo'rg'a ko'zini ochgan kuxarka yalangoyoq suv kechib, darvozani ochgani yugurdi.

– Derazani oching tezroq! – dedi yo'g'on ovozli kishi darvoza orqasida turib.

– Sizga telegramma bor!

Olenka ilgarilar ham eridan telegramma olib turardi, biroq bu safar o'tirgan yerida qotib qoldi. U titroq qo'llari bilan telegrammani ochib o'qidi:

«Ivan Petrovich bugun to'satdan o'lib qoldi, amringizni kutamiz, xatuk shanba kuni dafn etiladi». Telegrammada shunday «xatuk» degan tushunib bo'lmaydigan so'z va «dafn» so'ziga «dafu» deb yozilgan: uni operetta truppasining rejissyori yuborgan edi.

– Sening o'rningga men o'lsam bo'lmasmidi-ya! – deb yig'i soldi Olenka. – Jonim Vanichka! Nega uchrashdim sen bilan? Nega seni sevdim? Bechora baxtsiz Olenkangni kimga tashlab ketding!

Kukinni seshanba kuni Moskvada Vagankov qabristoniga ko'mishdi, chorshanba kuni Olenka uyiga qaytib keldi, ostonadan kirishi bilanoq o'zini karavotga tashladi-da, ho'ngrab yig'lab

yubordi. Uning dod-faryodi hatto ko'chaga va qo'shni hovlilarga ham eshitilardi.

– Jonginam! – derdi qo'shnilar cho'qinishib, – jonginam Olga Semyonovna yig'layverib ado bo'ldi-ya, bechora!

Oradan uch oy o'tdi. Qora kiyingan Olenka bir kun cherkovdan uyiga qaytib kelmoqda edi. Ittifoqo uning qo'shnilaridan biri Babakayev degan savdogarga qarashli yog'och-taxta omborining gumashtasi Vasiliy Andreich Pustovalov ham cherkovdan chiqib, uyiga qaytib kelar edi. Boshiga poxol shlyapa, egniga oq jiletka kiyib, ko'kragiga tilla zanjir taqqan Pustovalov savdogardan ko'ra ko'proq pomeshchikka o'xshab ketardi. U Olenkaga achinib ulug'vorlik bilan dedi:

– Har qanday ishning o'z tartibi bo'ladi, Olga Semyonovna. Biron yaqin kishimizning kuni bitgan ekan, demak, uni tangrining o'zi olgan bo'ladi. Modomiki shunday ekan, taqdirga tan berishdan boshqa ilojimiz yo'q.

Olenkani eshik oldigacha uzatib, xayrlashdi-da, o'z yo'liga qarab ketdi. Shundan keyin uning tovushi kechgacha Olenkaning qulog'idan ketmadi, ko'zini yumsa uning qora soqoli ko'ziga ko'rindi. Pustovalov uning ko'ngliga juda yoqib qolgan edi. Olenka ham unga yoqib qolgan bo'lsa kerak, shu voqeadan ko'p o'tmay, unikiga bir keksa xotin kofe ichgani keldi. Mehmonga kelgan xotin stol yoniga o'tirishi bilanoq Pustovalovdan gap ochdi, uning yaxshi va savlatli erkakligini, har qanday qizning unga jon deb tegishini aytdi. Uch kundan keyin Pustovalovning o'zi mehmon bo'lib keldi: u ko'p emas, o'n daqiqacha o'tirdi, kam gapirdi, ammo Olenka uni yaxshi ko'rib qoldi, shu qadar yaxshi ko'rib qoldiki, hatto kechasi bilan o'rtanib, uxlamay chiqdi, ertasiga erta bilan keksa xotinga odam yubordi, ko'p o'tmay ular unashtirildi, keyin to'y bo'ldi.

To'ydan keyin Pustovalov bilan Olenka yaxshi turmush kechirishdi. Odatda, Pustovalov tushki ovqat mahaligacha omborda o'tirardi, keyin o'zining o'rniga Olenkani qo'yib, turli ishlar bilan ketardi. Olenka esa oqshomgacha omborda mol sotib, hisob-kitob ishlarini qilib o'tirardi.

– Yog'och, taxtalarning narxi yildan yilga yigirma foiz oshmoqda, – derdi Olenka xaridor va tanishlariga. – O'zingiz o'ylab ko'ring, ilgari biz shu yerdan chiqqan taxtani sotardik, endilikda Vasichka har yili Mogilev gubernasidan mol keltiradi. Narxning oshishini aytmaysizmi! – derdi u, kaftlari bilan ikki yuzini berkitib.

Unga, butun umri yog'och-taxta sotish bilan o'tganday, yog'och-taxtasiz hayot bema'ni hayotday tuyulardi, xoda, xari, sarrof, taxta, yog'och degan gaplar uning qulog'iga nozik va yoqimli musiqaday eshitilardi... Tog'-tog' yog'och, taxtalar, xoda-xarilar ortib, bir yoqlardan tashib ketayotgan arava-arava karvonlar, bir polk keladigan o'n ikki gazli, besh qarichli xodalarning omborga hujum qilib, bostirib kelishlari, xodachalar, sarroflar va taxtalarning bir-birlariga urilib, sado chiqarishlari, keyin erga qulab, yana turishib, bir-birlarining ustiga chirmashib chiqishlari kechalari uning tushiga kirib chiqardi. Olenka tushida bularni ko'rib, bexosdan qichqirib yuborardi. Pustovalov esa uni:

– Olenka, nima bo'ldi senga, jonim? O'zingni bosib ol! – deb ovuntirardi.

Eri nimani o'ylasa u ham shuni o'ylardi. Agar eri uy juda isib ketdi desa yoki ishning mazasi qochdi desa, u ham xuddi shuni deydi. Eri hech qanaqa o'yin-kulgi, ko'ngil ochishlarni yoqtirmas, hayit kunlari ham uydan chiqmas edi. Olenka ham uyda o'tirardi.

– O'yda o'tirganlaring o'tirgan, – deyishardi tanish-bilishlari. – Teatrgami, ot o'yingami borib, yozilib kelsangizchi, jonginam!

– Vasichka ikkovimizning teatrga borishga vaqtimiz bormi? – deb javob berardi u, ulug'vorlik bilan. Biz mehnatkash odammiz, bunday behuda narsalarga sarflaydigan bo'sh vaqtimiz yo'q. Teatrga borib nima ham orttirardik?

Shanba kunlari kechqurun Pustovalov Olenka bilan birgalashib tonggi ibodatga, hayit kunlari esa peshin ibodatiga borishadi, cherkovdan ham birga qaytishadi, ikkovining chehrasi ochiq, atrofga xushbo'y hid sochib kelishadi. Olenkaning shohi ko'ylagining shitirlashi quloqqa yoqadi; uyga qaytib kelib, so'lqildoq non va har xil murabbolar bilan choy ichishadi, keyin

pirog yeyishadi. Har kun tush paytida borsh va qo'y go'shtidan yoki o'rdakdan pishirilgan qovurma, ro'za kunlari esa qovurilgan baliqning hidi hovlidagilar yoki ko'chadan o'tuvchilarning dimog'ini qitiqlab, ishtahasini ochib yuborar edi. Kontorada doim samovar qaynab turadi, xaridorlar choy va teshik kulchalar bilan mehmon qilinadi. Haftada bir marta er-xotin birgalashib hammomga borib, ikkovlari qip-qizil bo'lib, uyga qaytishadi.

– Xudoga shukur, turmushimiz yomon emas, – derdi Olenka tanishlariga. – Vasichka ikkimizni yetkizgan kunga hammani yetkizsin.

– Pustovalov mol keltirish uchun Mogilev gubernasiga ketgan vaqtlarida Olenka juda zerikadi, kechalari uxlamay, yig'lab chiqadi. Hovlidagi uylardan birida turuvchi, polkda ot doktori bo'lib xizmat qiladigan Smirnin degan yosh yigit ba'zan kechqurunlari unikiga kelib turadi. Smirnin unga u yoq-bu yoqdan so'zlab beradi yoki ikkovi karta o'ynaydi, bundan Olenka ancha ovunadi. Smirninning o'z oilasi haqidagi hikoyalar uni, ayniqsa qiziqtirardi. U uylangan bo'lib, bir o'g'li ham bor edi, ammo xotini unga xiyonat qilgani uchun ajrashib ketgandi, shuning uchun xotinini juda yomon ko'rardi, o'g'liga atab har oyda qirq so'm pul yuborib turadi. Olenka bu gaplarni eshitib, uh tortib, unga achindi. Smirnin bilan xayrlashayotib:

– Xudo o'z panohida saqlasin. Kelganingiz uchun rahmat, ilohim hamisha sog'-salomat bo'ling... – derdi va uni sham bilan zinagacha kuzatib qo'yardi.

Gapirganda ham eriga taqlid qilib, ulug'vorlik bilan gapirardi, ot doktori allaqachon uyiga kirib ketgan bo'lsa-da, ketidan chaqirib:

– Xotiningiz bilan yarashib qo'yaqolsangiz ham bo'lardi, Vladimir Platonich! O'g'lingiz tufayli gunohini keching... Bola boyaqish hamma gapga tushunsa kerak, – derdi.

Pustovalov safardan qaytib kelganda Olenka unga ot doktorining barbod etilgan turmushini hikoya qilib berar, keyin ikkovlari birgalashib achinishar, bosh chayqar, otasini sog'ingan o'g'il haqida gapirishar, shundan keyin ikkovlari baxtiyor holda

o'rinlaridan turib, burchakdagi sanamga qarab, xudodan bola tilab, sajda qilardi.

Olti yilgacha Pustovalovning turmushi tinch, sevinch va totuvlikda o'tdi. Qish kunlaridan birida omborda issiq choy ichib, terlab o'tirgan Vasiliy Andreich xaridorga mol sotmoq uchun telpaksiz tashqariga chiqdi, shunda shamollab, betob bo'lib qoldi. Olenka uni eng o'tkir doktorlarga boqizgan bo'lsa ham, to'rt oy yotgandan keyin dard ustun kelib vafot etdi. Olenka yana beva qoldi.

– Kimga tashlab ketding, meni sevgilim! – deb ho'ngrab yig'ladi u, erini ko'mgandan keyin. – Men bechora sensiz qanday turay bu dunyoda? Rahmingiz kelsin, yaxshilar, men yetimning dardiga davo topinglar-ey... – derdi.

U motam tutib, qora kiydi, shlyapa va qo'lqopni butunlay kiymay qo'ydi, ko'chaga kamdan kam chiqadigan bo'ldi, chiqsa ham cherkovga yoki erining qabriga borish uchun chiqardi, bo'lak vaqtlarda tarkidunyo etgan odamday, uyda o'tirardi. Olti oy deganda motam kiyimlarini tashlab, deraza darchalarini ochadigan bo'ldi. Ba'zan ertalab u-bu keltirish uchun kuxarka bilan bozorga chiqqanini odamlar ko'rishdi, biroq endigi turmushi qanday, uy ichida nima gaplar bor, – bu haqda odamlar faqat gumon bilan gapirishar edi. Masalan, odamlar uning o'z bog'chasida ot doktori bilan birga choy ichib o'tirganidan, doktorning unga gazeta o'qib berishidan va yana pochtada bir tanish xotin bilan uchrashib, unga:

– Shahrimizda to'g'ri yo'lga qo'yilgan veterinariya nazorati yo'q, kasalning ko'pligi ham shundan. Anovi sutdan, manovi otdan, sigirdan yuqib kasal bo'pti, degan hodisalar ko'payib ketdi. Inson sihatiga qanday g'amxo'rlik qilinsa, jonivorlarni ham shuncha boqish kerak, – deb aytgan gapidan uning nima haqida o'ylashini gumon qilardilar.

U ot doktorining aytganini aytar, u nimani o'ylasa shuni o'ylar edi. Olenkaning sevgisiz yasholmasligi va yangi baxtni o'z hovlisidan topib olganligi hammaga ravshan edi. Boshqa xotin bo'lganda uni hamma qoralardi, ammo Olenka haqida hech kim yomon fikrda emas, uning hayotidagi voqealar hammaga ma'lum va ravshan edi. U ham, ot doktori ham o'zaro munosabatlarida

yuz bergan o'zgarishlar haqida hech kimga bir og'iz so'z aytmaslikka tirishar edi, biroq Olenka hech qanday sirni yuragida saqlab yurolmasdi. Agar doktorning hamkasblari mehmonga kelishsa, Olenka ularga choy quya turib yoki ovqat torta turib, qoramolga kelgan vabodan yoki shahar qushxonasidan gap boshlardi, doktor esa uyalganidan qipqizarib ketardi. Mehmonlar tarqalishib ketgach, doktor uning qo'lidan ushlardi-da, g'azablangani holda:

– Tushunmagan narsang haqida og'iz ochma deb necha marta aytdim senga! Hamkasblarim yig'ilishganda va o'z ishimiz ustida so'zlashganimizda sen zinhor aralashma! Odamni zeriktirib yuborasan, axir! – derdi.

Olenka unga taajjublanib qarar va xavotirlanib:

– Volodichka, bo'lmasa nimani gapiray? – deb so'rardi.

Va ko'ziga yosh olib, ot doktori bag'riga otilar, jahli chiqmasligini so'rab yalinardi; ikkisi ham o'zini baxtiyor his etardi.

Biroq, bu baxt ko'pga bormadi. Ot doktori o'z polki bilan birga jo'nab ketdi, uning polki boshqa yoqqa, Sibir tomonga ko'chirilgan edi. Olenka yana yolg'iz qoldi.

Endi u butunlay yolg'iz qolgan edi. Otasi allaqachon o'lib ketgan, uning kreslosi cherdakda bir oyoqsiz chang bosib yotardi. Olenka ham oriqlab ketgan, husni ham qochgan, ko'chada ko'rganlar ham unga ilgarigidek boqmas va jilmayib qaramas edi. Eng yaxshi yillar – yoshlik vaqtlari o'tib, endi uning uchun qandaydir yangi turmush, bundan bu yog'i nima bo'lishini bilish qiyin bo'lgan davr boshlangan bo'lsa kerakki, yaxshisi bu to'g'rida o'ylamaslik lozim edi. Kechqurunlari Olenka eshik oldiga chiqib, «Tivoli» rohat bog'chasida chalinayotgan musiqani, mushaklarning paqillab otilishini eshitib o'tirar, ammo bu tovushlar endi unda hech qanday tuyg'u uyg'otmasdi. U o'z hovlisiga bee'tibor tikilib o'tirar, hech narsani o'ylamas, ko'ngli hech nimani istamasdi, kechasi uyga kirib yotardi. Uyqusida yana o'zining bo'sh hovlisi tushiga kirardi. Ovqatni ham birov zo'rlab yedirayotganday yer edi.

Eng yomoni shu ediki, unda ortiq hech qanday fikr qolmagan edi. U o'z atrofida xilma-xil buyumlarni ko'rar, nimalar

bo'layotganiga aqli yetar, ammo ular haqida nima deb o'ylashni va nimalarni gapirishni bilmasdi! Hech qanday fikrga ega bo'lmaslik naqadar og'ir! Bir shishaning tikka turganini yoki yomg'ir yog'ishini yoxud aravaga tushib ketayotgan mujikni ko'rib turasan-u, biroq shishaning nimaga kerakligini, yomg'irning nimaga yog'ishini, mujikning nega aravaga tushib borishini, ularda qanday ma'no borligini o'lsang ham ayta bilmasang! Kukin va Pustovalov bor vaqtida, ot doktori borida Olenka ularning ma'nosiga yeta olardi, har narsa ustida fikr yurita olardi, endi uning o'ylarini va yuragini xuddi hovlini bosgan zim-ziyo qorong'i va bo'shliq qoplagandi. Go'yo chuqur soyga g'arq bo'lib ketayotganday uni dahshat bosardi.

Bu orada shahar har tarafga qarab kengayib ketdi. Siganskaya Sloboda endi ko'cha tusini oldi. «Tivoli» rohat bog'chasi va yog'och-taxta omborlari bo'lgan joylarga yangi imoratlar tushib, ancha-muncha boshi berk ko'chalar hosil bo'lgan edi. Muncha ham vaqt tez o'tib boradi! Olenkaning uyi eskirgan, tunika tomi zanglab ketgan, saroy ham bir yoqqa qarab yonboshlagan, hovli sahnini otquloq bilan sassiq alaf bosib ketgan edi. Olenkaning o'zi ancha qarigan, husndan ham qolgan edi. Yoz kunlari u eshik oldidagi supachaga chiqib o'tiradi. Qalbida ilgarigidek bo'shliq hukm suradi, o'zidan ham sassiq alafning hidi kelib turadi, qish kunlari esa deraza yoniga o'tirib, hovlidagi qordan ko'zini uzmaydi. Bahor kelganda yoki shamol cherkov qo'ng'iroqlarining ovozini uchirib kelib qolgan chog'larda birdan o'tmish kunlar esiga tushib, yuragi «shuv» etib ketadi. Ko'zlariga jiqqa yosh keladi, ammo bu ko'p davom etmaydi, birpasdan keyin yurakni yana bo'shliq egallaydi, bu dunyoda nima uchun yashayotganini yana bilmaydi. Briska degan qora mushugi bir ohangda miyovlab, unga erkalanadi, ammo bu ham Olenkaga ta'sir qilmaydi. Unga bu kerakmidi? Unga butun borligini, butun yuragini, aql-farosatini maftun eta oladigan, hayotiga ma'no beradigan, kishini o'yga soladigan, uning sovib borayotgan qonini qizita oladigan sevgi kerak! Etagiga chiqib olgan mushukni yerga itarib tushiradi-da, alami bilan:

– Ket, ket... jonga tegding! – deydi.

Shu yo'sinda hech bir shodliksiz, hech qanday fikrsiz kunlar, oylar, yillar o'tdi. Kuxarka Mavra nima desa shu edi.

Saraton kunlarining birida, podalar hammayoqni changitib daladan qaytib kelayotgan oqshom paytida, kimdir ko'cha eshigini qattiq qoqdi. Olenkaning o'zi borib darvozani ochdi, ochishi bilan turgan yerida qotib qoldi: kelgan kishi – sochlari oqargan, shtatskiy kiyim kiygan ot doktori Smirnin edi. Olenkaning esiga butun o'tmish keldi, o'zini tutolmay, g'iq etmay boshini uning ko'ksiga qo'ydi-da, yig'lab yubordi. Hayajonlanib ketganidan ikkovlari ham uyga kirganlarini, choyga o'tirganlarini bilmay qoldi.

– Voy jonim-ey! – dedi u, sevinchidan qaltiroq bosib.

– Vladimir Platonich! Qayerdan xudo yarlaqab qoldi?

– Shu shaharda yashab qolmoqchiman, – dedi doktor. – Iste'foga chiqdim, endi erkinlikda baxt izlab topmoqchiman, bir yerga qo'nib olishim kerak. O'g'lim ham katta bo'lib qoldi, gimnaziyaga berishim kerak. Bilasizmi, men xotinim bilan yarashib olganman.

– Qayerda ular? – deb so'radi Olenka.

– Ular musofirxonada qolishdi, men uy qidirib yuribman.

– Ana xolos! Mening uyimni olaqoling! Nima qipti bu uyga? Sizlardan bir tiyin ham olmayman! – U yana hayajonlanib, yig'lay boshladi. – Sizlar bemalol shu katta uyga joylashaberinglar, menga hovlidagi kichkina uy ham yetib ortadi. Sizni yuborgan xudodan o'rgilay!

Ertasi kuni uy tomini bo'yab, devorlarini oqlashga kirishildi, Olenka ikki qo'lini beliga qo'yib, hovlidagilarga har xil ishlarni buyurib yurar edi. Uning chehrasida ilgarigi jilmayishlar paydo bo'lgan, xuddi uzoq uyqudan uyg'onganday butun vujudiga qon yugurgan edi. Keyin oriq va xunuk, sochlari kalta qirqilgan, injiq yuzli bir xonim, semizgina, ko'k ko'z, ikki yuzida chuqurchasi bor Sasha degan bolani yetaklab kirib keldi. Ular ot doktorining xotini va o'n yashar o'g'li edi. Bola hovliga kirishi bilanoq mushukni quva ketdi, uning xushchaqchaq qo'ng'iroq kulgisi butun hovlini bosdi.

– Xola, bu sizning mushugingizmi? – deb so'radi bola. – Tuqqanda bittasini bizga bering, oyim sichqondan juda qo'rqadilar.

Olenka u bilan ancha so'zlashdi, choy ichirdi, go'yo bu bolani o'zi tug'ib o'stirgandek his qilib, ko'kragiga issiq yugurib, rohatlandi. Kechqurun Sasha ovqatxonada dars tayyorlab o'tirarkan, Olenka sevgiga to'lgan ko'zlarini undan uzmay:

– Chirog'im... Xushro'yginam... Aql-hushli bola ekansan! Oppog'im, – deb shivirladi.

– Har tarafi suv bilan o'ralgan quruq yer – orol deb ataladi, – deb o'qidi kitobdan Sasha.

– Har tarafi suv bilan o'ralgan quruq yer – orol deb ataladi, – deb takrorladi Olenka. Bu – necha yillab o'ysiz-fikrsiz kun kechirgan kishining ishonch bilan aytgan birinchi fikri edi.

Endi u mustaqil fikrga cga edi, kechki ovqat ustida Sashaning ota-onasiga gimnaziyada o'qishning naqadar og'irlashib ketgani, ammo shunday bo'lsa-da, real maktab ta'limidan ko'ra mumtoz maktab ta'limining afzalligi haqida gapirdi, chunki uning fikricha, gimnaziyada o'qigan kishiga hamma yo'l ochiq: xohla doktorlikka o'qi, xohla muhandislikka.

Sasha gimnaziyaga qatnay boshladi. Uning onasi Xarkovdagi singlisinikiga ketib, uzoq qolib ketdi. Otasi har kuni qayergadir yilqi ko'rgani ketib, ba'zan uch kunlab uyga qaytmas edi. Olenkaga Sashaning ota-onasi butunlay tashlab ketganday, bola uyda ortiqcha odamday tuyuldi, bola bechora ochdan o'ladi deb achindi. Ko'p o'tmay u, bolani katta uydan o'z uyiga olib, jajjigina bir bo'lmaga joylashtirdi.

Yarim yildan oshdiki, Sasha uning uyida turadi. Har kuni erta bilan Olenka uning oldiga kiradi, bola qo'lini chakkasiga qo'yib qattiq uxlab yotibdi, uyg'otgani ko'zi qiymaydi.

– Sashenka, – deydi u, g'amginlik bilan, – tur, qo'zim! Gimnaziyaga boradigan vaqt bo'ldi.

Sasha o'rnidan turib, kiyinadi, ibodat qiladi, keyin nonushtaga o'tiradi. Uch stakan choy bilan ikkita katta teshik kulcha va moy surtilgan yarimta fransuz bulkani yeb oladi. U hali uyqudan toza

uyg'ongani yo'q. Shuning uchun kayfi buzuqroq. Olenka uni xuddi uzoq safarga uzatayotganday unga tikilib deydi:

– Sashenka, masalni yaxshilab yodlab oldingmi? Meni tashvishga solib qo'yding-ku. Tirishib o'qi, oppoq qo'zim... Muallimlaring so'zidan chiqma...

– Qo'ysangizchi bu gaplaringizni! – deydi Sasha.

Keyin u gimnaziyaga ketadi, o'zi kichkina, boshida kattakon shapka, yelkasida kitob jildi. Olenka uning ketidan asta-sekin qadam tashlab boradi.

– Sashenka! – deb chaqiradi.

Sasha qayrilib qaraydi. Olenka uning qo'liga xurmo yoxud popuk qistiradi. Gimnaziya joylashgan ko'chaga burilgandan keyin, Sasha o'zining baland bo'yli semiz xotin kuzatib qo'yishidan uyaladi. Orqasiga qaraydi-da:

– Xola, siz endi uyga ketabering, o'zim boraman, – deydi.

Olenka to'xtab, Sasha gimnaziya eshigidan kirib ko'zdan g'oyib bo'lguncha qarab turadi. O, Olenka bu bolani naqadar sevadi! U ilgari kechirgan sevgilarining hech biri ham bunchalik chuqur bo'lmagandi. Endilikda unda onalik hissi kuchayib borayotgan paytda, uning qalbi shu qadar fidokorlikka, saxiylikka va sevinchga to'lib toshgan ediki, bunaqa hisni avval u sira sezmagan edi. Mana bu birovning bolasi uchun, uning yuzlaridagi kulgichlari, boshidagi shapkasi uchun butun jonini berishga tayyor edi. Nega bunday? Kim biladi deysiz?

Sashani gimnaziyaga uzatib, o'zi xursand, ohista, xushfe'l holda uyga qaytadi. Olti oy ichida ancha yashargan yuzidan jilmayish arimaydi. Yo'lda uchragan tanishlar uni ko'rib xursand bo'lishadi va:

– Yaxshimisiz, jonginam Olga Semyonovna! Eson-omongina yuribsizmi? – deyishadi.

– Gimnaziyada o'qish ham qiyinlashib ketdi, – deydi u, bozorda uchragan tanishlariga. – O'zingiz o'ylang, kecha birinchi sinf bolalariga butun bir masalni yodlashga buyurishipti, lotinchadan tarjima qildirishipti, hisobdan masala berishipti... Yosh bola chidarmidi bunga?

Olenka muallimlar, saboqlar, darsliklar haqida, xullas, Sasha nimani gapirgan bo'lsa, u ham shuni gapiradi.

Soat uchda ikkovlari o'tirib ovqat yeyishadi, kechqurunlari dars tayyorlashadi, qo'shilishib yig'lashadi. Sashani yotqizib bo'lib, Olenka uni uzoq cho'qintiradi, shivirlab duo o'qiydi, keyin o'rniga yotib, uzoq va noma'lum kelajak haqida, Sashaning doktor yoki muhandis bo'lib yetishib, uy-joyli bo'lishi, ot-aravaga ega bo'ladigan, uylanib bola-chaqa ko'radigan zamonlarni xayol qiladi... U ko'zlari uyquga ketarkan, hamon o'shalarni o'ylaydi, yumuq ko'zlaridan oqqan yoshlar yuzlarini yuvadi. Qora mushuk ham uning biqiniga kirib joylashgan:

– Xr...xr... xr...

Birdan ko'cha eshik qattiq urildi. Olenka uyg'onib, qo'rqqanidan nafas olmaydi, yuragi qattiq ura boshladi. Sal o'tmay eshik yana taqilladi.

«Xarkovdan telegramma kelgan bo'lsa-ya, – deb o'ylaydi u, vujudini titroq bosib, – onasi o'g'lini chaqirtirgan bo'lmasin... Oh, Xudoyim!».

Uni umidsizlik bosdi, boshini ko'tarolmadi, keyin ikki qo'li, oyoqlari bo'shashib ketdi, o'zini dunyoda eng baxtsiz banda his qildi. Biroq, yana birpasdan keyin hovlidan tanish ovozlar eshitildi, ot doktorining klubdan qaytgani ma'lum bo'ldi.

«Xudo, o'zingga shukur!» deb qo'ydi Olenka.

Yuragi asta-sekin yengillashdi, u yana tinchidi. Yana o'rniga yotib, uyquda yotgan Sashani o'ylaydi. Sasha esa qo'shni xonada qattiq uyquda yotib, goho-goho:

– Senimi, shoshmay tur! Ket! Urushma! – deb uyqusiraydi.

G'ILOF BANDASI

Kech qolgan ovchilar tunash uchun Mironosiskoye qishlog'ining bir chetidagi oqsoqol Prokofiyning saroyiga tushdilar. Ular ikki kishi bo'lib, bittasi mol doktori Ivan Ivanich, ikkinchisi esa gimnaziya muallimi Burkin edi. Ivan Ivanichning qo'shaloq va qiziqqina bir familiyasi bo'lib, o'ziga yarashmagan bu familiya Chimsha-Gimalayskiy edi. Shuning uchun ham uni butun gubernada oti va otasining nomi bilan atashardi. U shaharga yaqin bir joyda ot zavodida yashar va toza havoda nafas olmoq uchun ovga chiqqan edi. Gimnaziya muallimi Burkin bo'lsa, har yoz graf P.larnikida mehmon bo'lar va ko'pdan beri bu yerning o'z kishisi bo'lib ketgan edi.

Ular kechasi uxlamay chiqdilar. Novcha, oriq va uzun mo'ylovli chol – Ivan Ivanich tashqarida, eshik oldida, oy yorug'ida o'tirib trubka chekar, Burkin bo'lsa, ichkarida pichan ustida yotar va qorong'ida ko'rinmas edi.

Turli voqealarni gapirdilar. So'z orasida, oqsoqolning xotini Mavraning baquvvat va eslikkina xotin ekani, butun umrida o'z qishlog'idan tashqariga chiqmagani, hech qachon shahar ham, temir yo'lni ham ko'rmagani, so'nggi o'n yil ichida pech oldidan siljimasdan kechalarigina ko'chaga chiqishini ham so'zladilar.

– Buning hayron qoladigan nimasi bor! – dedi Burkin. – Bu dunyoda tabiatlari bir xil bo'lgan va qisqichbaqa yoki shilliqqurt kabi berkinib, o'z po'stlari ichiga kirib yotishni sevgan kishilar oz emas. Balki bu bir atavizm[1] hodisasidir, ya'ni odam bolalarining katta bobolari hali ijtimoiylashmagan va yakka o'zi o'z inida yashagan zamonlarga qaytishdir; balki odam bolasining xarakteridagi turli-tumanlikning bir ko'rinishi shudir – kim biladi deysiz? Men tabiatshunos emasman va bu xil masalalarga

[1] *Atavizm* – qadimgi ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'inda yo'qolib ketib, keyinchalik boshqa avlodlarda yana paydo bo'lishi.

aralashish mening ishim emas, men faqat shuni aytmoqchimanki, Mavra singari kishilarning uchrashi siyrak hodisa emas. Uzoqdan izlamaylik, mana, ikki oycha ilgari shahrimizda, grek tili muallimi Belikov degan bir o'rtog'im o'ldi. Siz uning to'g'risida eshitgan chiqarsiz, albatta. U odam shu bilan tanilgan edki, doim, hatto ob-havo yaxshi paytda ham, kalish kiyib, soyabon tutib va, albatta, issiq paxtali polto kiyib yurardi. Uning soyaboni ham g'ilofda. soati ham kulrang charm g'ilofda, qalam ochish uchun yonidan qalamtaroshini olganda, qalamtaroshning ham qinda ekanini ko'rardingiz; yuzi ham g'ilofga tushganday ko'rinardi; chunki u, hamma vaqt yoqasini baland ko'tarib yuzini yoqasi bilan berkitardi. U qora ko'zoynak taqar va fufayka kiyar, qulog'iga paxta tiqib yurar va izvoshga tushganida soyabonini ko'tarib qo'yishni buyurardi. Xullas, bu kishida o'zini bir g'ilof ichiga olish, o'zining yolg'izligini ta'minlaydigan va tashqi ta'sirlardan qo'riydigan bir g'ilof yaratish yo'lida doimiy va bo'shashmas bir harakat borligi sezilib turardi. Voqelik uning g'ashini keltirar, qo'rqitar va doim tashvishga solardi; u o'zining shu yuraksizligini, hozirgi holga bo'lgan nafratini oqlash uchun bo'lsa kerak, hamisha o'tgan zamonni va hech bir sodir bo'lmagan narsalarni maqtardi. Uning o'qitadigan qadimgi tillari ham, to'g'risini aytganda, unga hozirgi hayotdan bekinish uchun kalish va soyabon vazifasini o'tardi.

U totli bir ifoda bilan:

– O, grek tili naqadar ohangdor va chiroyli! – der va go'yo o'z so'zlarining rostligini isbot etmoq uchun, ko'zlarini suzib, barmoqlarini ko'tarib turib: – Antropos![1] – deb qo'yardi.

Belikov fikrlarini g'ilof ichiga yashirishga tirishardi. U biron narsani man qilib yozilgan farmoyishlar va gazeta maqolalarinigina ochiq anglardi. Farmoyishda maktab bolalariga kechasi soat to'qqizdan so'ng ko'chaga chiqish man etilgan bo'lsa yoki bironta maqolada jismoniy sevgi taqiqlangan bo'lsa, bu narsa unga oppa-ochiq va ravshan anglashilib turardi; man qilinganmi – bo'ldi. Ijozatda esa uning uchun doim shubhali, chala aytilgan va chuchmal bir narsa yashirinib yotardi. Shaharda teatr to'garagi

[1] *Antropos* (grek.) odam.

yoki qiroatxona, yo bo'lmasa bufet ochishga ruxsat berilsa, u boshini tebratib turib astagina:

– Bu, albatta, shundayku-ya, bu – yaxshi ish, lekin orqasidan bir falokat chiqmasin! – derdi.

Qay xilda bo'lmasin qoidalarning buzilishi, ularga rioya qilinmasligi va ulardan bo'yin tovlashlar, garchi unga aloqasi bo'lmasa ham, uni tashvishga solardi. Agar o'rtoqlaridan birontasi ibodatga kechikib qolsa yoki gimnaziya talablarining biron sho'xliklari yo bo'lmasa bemahalda biron ofitser bilan biron murabbiyaning birga yurganini eshitib qolsa, hadeb xavotirlanar, bir falokat chiqmasin tag'in deyaverardi. Ta'lim-tarbiya kengashining majlislarida esa, o'zining ortiqcha ehtiyotkorligi, badgumonligi va g'ilofli mulohazalari bilan tinkamizni quritardi. Mana, o'g'il va qizlar gimnaziyalarida yoshlar o'zlarini yaxshi tutolmaydilar, sinflarni boshlariga ko'tarib shovqin-suron qiladilar, oh, ishqilib boshliqlar qulog'iga yetmasa yaxshi edi; ishqilib bir falokat chiqmasin-da; agar ikkinchi sinfdan Petrov, to'rtinchi sinfdan Yegorov haydalsa juda yaxshi bo'lar edi, degan gaplarni aytaverardi. Nima bo'lar edi dersiz? U o'zining oh-vohlari, qayg'u-hasratlari, sassiq ko'zanga o'xshash kichkinagina rangsiz yuzidagi qora ko'zoynagi bilan hammamizni bosib turardi. Biz esa unga yon berib, Petrov va Yegorovlarning odob darsi bo'yicha baholarini pasaytirib, o'zlarini bir uyga qamab qo'yar edik; axir borib Petrovni ham, Yegorovni ham haydadik. Uning qiziq bir odati bor edi, ya'ni bizning uylarimizga ko'p qatnar edi. O'qituvchilarnikidan birinikiga kelardi-da, jimgina o'tirardi, go'yo yashirincha allanarsani poylardi. Shu holda, indamasdan bir-ikki soat o'tirib ketardi. Bu narsani uning o'zi «do'stlar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq», deb atardi. Bizning bilishimizcha, biznikiga kelib ketish, uning uchun ancha og'ir edi, lekin bu narsani o'zining o'rtoqlik vazifasi, deb hisoblar edi. Biz, o'qituvchilar undan qo'rqar edik; hatto direktorning o'zi ham qo'rqardi. Bizning o'qituvchilarimiz – fikr egasi, or-nomusli, Turgenev va Shchedrin kabi yozuvchilarning asarlarini o'qib tarbiyalangan kishilar bo'lsa-da, unga tob berolmadilar. Boshidan soyaboni

va oyog'idan kalishi tushmaydigan shu odam gimnaziyamizni o'n besh yil mobaynida o'z qo'lida mahkam tutib keldi. Yolg'iz gimnaziyanigina emas, butun bir shaharni! Bizning xonimlarimiz, uning sezib qolishidan qo'rqib, shanba oqshomlari oilaviy tomoshalar qilmas, hatto ruhoniylar ham uning oldida bemalol ovqatlanishdan va karta o'ynashdan tortinardilar. Belikov singari odamlar ta'siri ostida so'nggi o'n-o'n besh yil ichida bizning shahrimizda har narsadan cho'chiydigan bo'lib qolishdi. Dadilroq gapirishdan, xat berib, xat olishdan, oshnachilik qilishdan, kitob o'qishdan, kambag'allarga xayr-ehson qilishdan, odamlarga savod o'rgatishdan qo'rqib qolishdi...

Ivan Ivanich allanima demoqchi bo'lib, yo'taldi, tamakisini chekib turib, oyga qaradi-da, keyin dona-dona qilib gapirdi:

– Fikr egalari bo'lgan or-nomusli, Shchedrinni, Turgenev va Bokllarni[1] o'qigan kishilar ham shunga bo'yin egib, chidaptilar-ku... shunaqa bo'ladi-da...

Burkin davom etdi:

– Belikov men turgan binoda bir qavatda yashar, eshigi eshigim to'g'risida edi. Biz tez-tez ko'rishib turardik, men uning turmushini bilardim. Uyda ham o'sha avholda edi: o'sha chopon, o'sha darparda, o'sha ilgaklar, o'sha turli-tuman taqiqlar, cheklishlar va «oh, bir falokat chiqib qolmasin tag'in!» – degan vahimalar. Yovg'on ovqat zararli, yog'li ovqat esa bo'lmaydi, chunki Belikov ovqat to'g'risida din amriga bo'yin egmaydi, deydilar. Shuning uchun u sariyog'da qovurilgan baliq yer ediki, bu din amriga ham to'g'ri, qashshoq ovqati ham emas. Odamlar badgumon bo'lmasinlar deb xotin kishidan xizmatchi saqlamas edi. Balki bir zamonlar bir ofitserning xizmatida bo'lib, naridan beri qozon qaynatishni o'rgangan Afanasiy nomli oltmish yashar, piyanista va telbaroq bir cholni oshpaz qilib olgan edi. Bu Afanasiy har vaqt, ikki qo'lini qo'ltig'iga tiqib, deraza oldida turar va doim qattiq oh tortib:

– Shu zamonda ularning urug'i tozayam ko'paygan-da, derdi.

---

[1] *Bokl* – (1821–1862) – ingliz yozuvchisi, 60 – 70-yillarda mashhur bo'lgan «Angliya madaniyati tarixi» kitobi muallifi.

Belikovning yotoqxonasi, kichkinagina yashikka o'xshagan bo'lib, karavotiga parda tutilgan edi. U boshini burkab uxlardi; holbuki havo juda issiq, dim, yopiq eshikni shamol taqillatar, pechkadan gurullagan ovoz chiqar, oshxona tomondan vahimali sadolar kelib turardi.

Uni ko'rpaga burkanib yotgan joyda ham vahima bosardi. U bir falokat chiqmasa yaxshi edi - Afanasiy meni so'yib qo'ymasin, o'g'rilar urib ketmasin deb vahima qilar va tun bo'yi qo'rqinchli tushlar ko'rib chiqardi. Ertalab gimnaziyaga birga kelayotganimizda rangi o'chgan, qovog'i soliq bo'lardi; shu qadar obod va odam ko'p gimnaziya unga qo'rqinchli tuyulgani, butun borlig'ini seskantirgani, butun vujudi bilan yolg'izlikni sevgan bu kishiga men bilan, bir toifa kishi bilan birga borish ham malol kelgani yaqqol sezilib turardi. U o'zining shu badqovoqligiga ma'no berishga urinib:

– Bizning sinflarda shovqin-suron katta, bu sira yarashmaydigan hol, – derdi.

Mana shu grek tili muallimi, shu g'ilof bandasi, men sizga aytsam, bir kun sal bo'lmasa uylanay devdi.

Ivan Ivanich tezgina saroy tomonga qarab oldi-da:

– Hazildir! – dedi.

– Yo'q, ishoning bu g'alati gap-u, lekin uylanishiga sal qolgani aniq. Bizga xaxollardan Mixail Savich Kovalenko degan bir odamni tarix va geografiya muallimi qilib tayinlagan edilar. U Varenka degan opasi bilan birga kelgan edi. U o'zi yosh, novcha, qorachadan kelgan bir kishi bo'lib, qo'llari yo'g'on, gapirganda ham yo'g'on ovoz bilan gapirishi yuzidan ham bilinib turar, haqiqatan ham uning ovozi xumdan chiqqanday «gum-gum» qilib chiqardi. Opasi esa, ko'p ham yosh emas, o'ttizlarga borib qolgan, u ham novcha, qaddi-qomati kelishgan, qora qoshli, qizil yuzli, qisqasi shakardakkina bo'lib, sho'x, o'ynoqi, hamma vaqt malorus ashulalarini aytib, qah-qah urib kulib yurar edi. Sal narsaga ham ovozini boricha xaxolab kular edi. Kovalenkolar bilan bizlar birinchi marta direktornikida, tug'ilgan kuni sharafiga berilgan ziyofatda tuzukroq tanishganimiz xotirimda. Hatto zi-

yofatlarga ham vazifasi yuzasidan boruvchi, qovog'i soliq. g'oyat ko'ngilsiz o'qituvchilar orasida, birdaniga to'lqinlar mavjida yangi Afrodita[1] paydo bo'ldi. Ikki qo'lini beliga qo'yib, xaxolab kulib, ashula aytdi, o'ynadi... U «Shamol esadi» degan malorus ashulasini juda berilib aytdi, so'ngra romanslar kuyladi, undan keyin yana qo'shiqlar aytib berdi, qisqasi bizning hammamizni, hatto Belikovni ham o'ziga maftun qildi.

Belikov uning oldiga borib o'tirdi-da, shirin bir kulish bilan:

– Malorus tili mayinligi va yoqimli eshitilishi bilan qadim grek tilini eslatadi, – dedi.

Bu so'z qizga yoqib tushdi, shundan so'ng u ko'nglidan chiqarib va ishonadigan qilib, Belikovga Gadyach uyezdida o'z qo'rg'oni borligini, u qo'rg'onda onasi yashashini va u yerda meva-cheva, qovun-tarvuzlar va oshqovoqlar behisob ko'pligini so'zlab berdi. Xaxollar oshqovoqni qovoq, qovoqni esa shinka deb aytishlarini, pomidor va baqlajon solib «nihoyatda shirin, nihoyat darajada mazali» sho'rvalar pishirishlaridan ham gapirdi.

Biz indamasdan quloq solib o'tiraverdik. So'ngra birdaniga hammamizning miyamizga bir fikr keldi.

Direktorning xotini mening qulog'imga sekingina:

– Ikkovining boshini qo'shib qo'ysak yaxshi bo'lar edi, – dedi.

Shu vaqtda hammamiz negadir Belikovning xotinsiz ekanini esladik va hozirgacha buni payqamasdan, uning hayotidagi shu muhim holatni butunlay nazarimizdan chetda qoldirib kelganimiz o'zimizga ham g'alati tuyuldi. Umuman bu odam xotin kishiga qanday qaraydi, bu odam shu muhim va zarur masalani o'zi uchun qanday hal qiladi? Ilgari biz bu masalaga hech bir qiziqmas, har qanday ob-havoda oyog'idan kalishini yechmaydigan, parda tutib uxlaydigan bu odamning seva olish mumkinligini biz xayolimizga ham keltirmagan edik.

Direktorning xotini haligi fikrni izoh qildi:

– Bu odam allaqachonlar qirqdan oshgan, xotin bo'lsa o't-tizda, mening fikrimcha xotin yo'q demas.

---

[1] *Afrodita* – grek afsonalaridagi muhabbat tangrisi, bu afsonalarda Afrodita dengiz ko'piklaridan bino bo'lgan deyiladi.

Bizning viloyatda odamlar zerikkanlaridan nimalar qilmaydilar, qanday keraksiz va bo'lmag'ur ishlar bilan shug'ullanmaydilar! Buning sababi shuki, kerakli ish butunlay qilinmaydi. Bo'lmasa xotin olib umr kechirishini tasavvur qilmoq mumkin bo'lmagan ana shu Belikovni uylantirishimizning nima keragi bor edi? Direktor xotini, inspektor xotin va boshqa butun gimnaziya xonimlari, xuddi, birdan hayot ma'nosini bilgandek jonlanib, hatto chehralari ham ochilib ketdi. Direktor xotini teatrda bir lojani sotib oldi, bir vaqt qarasak uning lojasida qo'lida g'alati bir yelpig'ich, yuzi guldek ochilib, kulib-yayrab Varenka, uning yonida esa, uydan ombir bilan sug'urib keltirilganday, kichkinagina, bujmaygan Belikov o'tirardi. Bir kun men ziyofat bermoqchi bo'ldim, xonimlarning hammasi Belikov bilan Varenkaning chaqirishimni talab qildilar. Xullas, ish yurishib ketdi. Ma'lum bo'ldiki, Varenka ham erga tegishga rozi ekan. Uning ukasinikida turishi uncha ham quvonchli emas, kuni bilan urishib, koyishar ekanlar. Mana bir ko'rinish: ko'chadan uzun bo'yli va yo'g'on gavdali, bahaybat Kovalenko o'tib boradi, ustida gullik ko'ylak, shapkasining ostidan chiqib turgan sochlari peshonasiga tushib turadi; bir qo'lida bir dasta kitob, yana bir qo'lida yo'g'on serbutoq tayoq. Ketida opasi boradi, uning qo'lida ham bir dasta kitob.

Opasi ovozini baland qo'yib, ukasi bilan gap talashadi:

– Sen, Mixaylik, buni o'qigan emassan. Men senga aytaman, ont ichib aytamanki, bu kitobni qo'lingga ham olgan emassan.

Kovalenko tayog'ini yerga urib, chuldirab:

– Men deymanki, o'qiganman! – dedi.

– Yo Xudoyim-e! Yo Xudoyim-e! Nega jahling chiqadi, Minchik! Biz sen bilan muhim masala ustida gaplashayotirmiz-ku.

– Men senga deymanki, o'qiganman, o'qiganman! – dedi Kovalenko yana ham battar chuldirab.

Uyda esa begona odam kelguday bo'lsa, darrov urish boshlanadi. Bu xil turmush jonga tegib, ko'ngli ro'zg'or tusab qolgan shekilli, buning ustiga yosh masalasini ham e'tiborga olish kerak, endi er tanlaydigan vaqt o'tgan, hozir kimga bo'lsa ham, hatto grek

tili muallimiga ham tegmay iloj yo'q. Zotan ko'p qizlarimiz uchun shu topda kimga tegishning ahamiyati yo'q, er bo'lsa bas. Harqalay, Varenka bizning Belikovga ochiq mayl ko'rsata boshladi.

Belikov-chi? U Kovalenkonikiga ham biznikiga qatnagani singari qatnab turardi. Unikida ham indamasdan o'tirardi. U indamay o'tirar, Varenka bo'lsa, unga «Shamol esadi» ni aytib berar, yo bo'lmasa, o'zining qora ko'zlari bilan Belikovga o'ychan qarar yoki birdaniga:

– Xa-xa-xa, – deb kulardi.

Muhabbat ishlarida, ayniqsa uylanishda, ishontirishning roli katta. Hamma o'rtoqlar va barcha xonimlar – hammamiz bir bo'lib, Belikovga uning uylanmog'i lozimligini, uning hayotida uylanmoqdan boshqa biron muhim narsa qolmaganini aytib, ishontirishga kirishdik, hammamiz birdan uni tabrikladik, eng jiddiy qiyofa bilan unga har turli bema'ni gaplarni aytdik, chunonchi, uylanish juda muhim degan gaplarni qildik; buning ustiga Varenka ham chakki emas, kishining havasi keladigan suluv qiz edi; ulug' martabali statskiy sovetnikning qizi bo'lib, o'z hovli-joyi bor edi, hammadan muhimi Belikovga mehribonlik bilan va chin ko'ngildan qaragan birdan-bir xotin edi. Mana shu sabablar tufayli uning boshi aylandi va u, endi darhaqiqat uylanmasam bo'lmas ekan, degan xulosaga keldi.

– Mana endi uning kalish bilan soyabonini tashlatish mumkin bo'ladi, – deb qo'ydi Ivan Ivanich.

– Ko'ringki, shunday qilish mumkin bo'lmadi. U Varenkaning suratini o'z stoli ustiga qo'yib tez-tez menikiga kelib Varenkadan, oila hayotidan hamda uylanishning muhimligidan gapirar edi; tez-tez Kovalenkonikiga ham qatnab turardi, lekin bu bilan uning turish-turmushi hech bir o'zgarmadi. Aksincha uylanishga jazm qilish unga yomon ta'sir qilib, ozib-to'zib ketdi va o'z g'ilofiga yana battarroq kirib olgandek bo'ldi.

Bir kuni u g'ayritabiiy bir kulish bilan:

– Varvara Savvishna menga yoqadi, har bir kishiga uylanmoq kerakligini bilaman, lekin... bu ishlar birdaniga bo'lib qoldi. O'ylab ko'rish kerak-da, – deb qoldi.

– Nimasini o'ylaysiz? – dedim unga. – Uylaning, vassalom.

– Yo'q, uylanish hazil emas, bo'yningga tushadigan vazifalarni, javobgarliklarni ilgari taroziga solib xo'p o'lchab ko'rmoq kerakki... orqasidan bir balosi chiqmasin. Bu narsa meni shu qadar tashvishga soladiki, kechalari uxlamay chiqaman. Gapning rostini aytsam, men qo'rqaman ham: ukasi bilan ikkovining fikr-u xayollari boshqacharoq, ularning fikr yurgizishlari, bilsangiz biroz g'alati va xarakterlari ham juda o'tkir. Uylanib qo'yib, biror hodisaga ilashib qolasan kishi.

Shunday qilib u, uylanish harakatida bo'lmadi, direktor xotinini va hamma xonimlarimizni xijolat qilib, to'yni keyinga suraverdi; hadeb bo'yniga tushadigan vazifa va javobgarliklarni taroziga solardi, ikkinchi tomondan esa, har kun deyarlik Varenka bilan birga sayr qilishardi. Ehtimol, bu narsani o'z mavqeyiga munosib deb o'ylagandir. So'ngra, ba'zan menikiga kelib, oila hayoti to'g'risida gaplashib o'tirardi. Ehtimol, bora-bora, u to'y harakatiga tushar – bizning oramizda bekorchilik va zerikishdan bo'lib turadigan minglab keraksiz va noma'qul uylanishlardan bittasi ro'y berar edi, lekin bu orada katta bir janjal – Kolossalischer Scandal chiqib qoldi! Shuni aytish kerakki, Varenkaning akasi Kovalenko birinchi tanishgan kundan boshlab Belikovni yomon ko'rib qolgan va uni ko'rsa jahli chiqardi.

U bir kuni yelkasini qisib, bizga shunday dedi:

– Tushunolmayman, sira tushunolmayman, bu chaqimchi va bu xunuk basharani siz qanday hazm qilolasiz. E, afandilar, siz bu yerda qanday yashay olasizlar! Muhitingiz – nafasni bo'g'uvchi va sassiq bir muhit. Siz ham pedagoglar-u, muallimlarmisiz? Siz – amal bandalarisiz, sizning maktabingiz bilim manbayi emas, molfurushlar do'koni. Mirshablarning budkasi kabi har tarafdan sassiq hid chiqadi. Yo'q, birodarlar, sizning yoningizda ko'p turolmayman, yaqinda o'z qo'rg'onimga qaytib borib, qisqichbaqa ovlab, xoxol bolalarini o'qitib yuraman. Ketaman men, siz bu yerda o'sha munofiq maxluqingiz bilan yotavering!

U goh yo'g'on, goh ingichka tovush bilan ichagi uzilgudek bo'lib kular va taajjub bilan:

– Nima qilib o'tiradi menikida? Unga nima kerak? Baqrayib o'tiraberadi, – derdi.

U hatto Belikovga «tekinxo'r o'rgamchak» degan nom qo'yib olgan edi. Albatta, biz opasi Varenkaning shu «o'rgamchak»ka tegmak istagini sezdirmaslikka tirishar edik. Bir kun direktorimizning xotini unga opasini shunday bama'ni va hamma hurmat qiladigan Belikov singari odamga berish ma'qul bo'lar degan mazmunda shama qilgan ekan, u qovog'ini solib:

– Bu mening ishim emas. opam xohlasa, zaharli ilonga tegsin, birovlarning ishlariga aralashishni yomon ko'raman, – debdi.

Endi bu yog'ini eshiting, bir hazilkash odam hajviy rasm solipti, oyog'ida kalish, shimining pochasi qaytarilgan, boshida soyabon – Belikov kelmoqda; Varenkani qo'ltiqlab olgan; rasm tagida «oshiq antropos» degan yozuv bor. Bu ko'rinish juda ustalik bilan solingan. Rassom, bu rasm ustida bir necha kun ishlagan bo'lsa kerakki, o'g'il va qizlar gimnaziyalarining hamma muallimlariga, seminariya muallimlariga, ma'murlarga, hammaga ana shu rasmdan bir nusxadan tegdi. Belikovning o'ziga ham tegdi. Bu rasm unga juda qattiq ta'sir qildi.

Birinchi may – yakshanba kuni edi, biz gimnaziya muallimlari bilan o'quvchilar, gimnaziya oldida to'planishib, hammamiz shahardan tashqariga, o'rmonga piyoda bormoqchi bo'ldik. Shunda Belikov ikkovimiz uydan birgalashib chiqdik, u ko'karib ketgan, qovog'idan qor yog'ilar edi.

– Qanday yomon, yovuz odamlar bor dunyoda! – deb nolidi u va shu zahoti lablari pirpirab ketdi.

Unga hatto rahmim keldi. Ketayotsak, yonimizdan birdaniga velosiped mingan Kovalenko o'tib qoldi. Uning ketidan velosiped mingan Varenka borardi, u qizargan, entikkan, lekin quvnoq, xushchaqchaq edi.

– Biz sizdan oldinroq borib turamiz! Shunday yaxshi, shunday soz havoki, asti qo'yavering! – deb qichqirdi Varenka.

Shunday deb ikkalasi ham ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bizning Belikov basharasi ko'kdan oqqa aylandi va o'zi qotib qoldi. To'xtab menga qaradi.

– Menga qarang, bu nima gap o'zi? – deb so'radi u mendan. – Ehtimol ko'zimga shundoq ko'rinayotgandir? Yo'qsa, gimnaziya muallimlariga va ayol kishiga velosiped minib yurish yarashadimi?

– Yarashmasligi ham bormi, – dedim. – Qo'yavering, minib rohat qilsinlar.

Mening beparvo gapirganimga hayron bo'lib:

– Nechuk bunday bo'lsin? – deb qichqirdi. – Bu nima deganingiz?

U shu qadar esankirib qolgan ediki, o'rmonga borishdan voz kechib, uyga qaytib ketdi.

Ertasi, kuni bo'yi tajanglik bilan qo'llarini ishqab va seskanib yurdi, uning aftidan mazasi ketganligi bilinib turardi. Umrida – hayotida birinchi marta o'sha kuni darsni ham tashlab ketdi. Tushlik ham qilmadi. Kech kirgach, yoz havosidan iliq havo bo'lishiga qaramasdan issiqqina kiyinib Kovalenkolarnikiga qarab ketdi. Varenka uyda yo'q edi, akasi bilan uchrashib qoldi.

– Marhamat, o'tiring! – dedi Kovalenko, sovuq bir ovoz bilan va qovog'ini soldi, yuzlaridan endigina uyqudan turgani ko'rinardi. Kunduzgi tushlikdan so'ng uxlab, endigina turgan bo'lsa kerakki, kayfi joyida emas edi.

Belikov indamasdan o'n daqiqacha o'tirdi va shundan so'ng gap boshladi:

– Men sizning yoningizga yuragimni biroz bo'shatay deb keldim. Men juda yomon, juda qattiq musibat tortayotirman. Allaqanday bir hazilkash odam, meni hamda bizning ikkovimizga juda yaqin bo'lgan bir muhtaram xonimni kulgi qilib surat chizipti. Bu ishda mening hech bir aybim yo'qligiga sizni ishontirmoqni o'z burchim deb bilaman. Bu xilda hazilning ro'y berishi uchun mening tomonimdan hech qanday sabab sodir bo'lgan emas, aksincha, men o'zimni hamma vaqt odobli bir odamdek tutaman.

Kovalenko qovog'ini solib, indamasdan o'tirdi. Belikov yana biroz jim qolgach, ohista va qayg'u ovoz bilan so'zida davom etdi:

– Men sizga yana ba'zi bir so'zlarni aytmoqchi edim. Men ko'pdan beri xizmat qilaman, siz bo'lsangiz xizmatni yaqindagina

boshlagansiz, shuning uchun, o'zingizdan katta o'rtog'ingiz sifatida sizni ogohlantirib qo'yishni o'z burchim deb bildim. Chunonchi siz velosiped minib yurar ekansiz, holbuki, bu yoshlarning tarbiyachisi bo'lgan bir kishi uchun butunlay kelishmaydigan qiliq.

– Nega axir! – deb so'radi Kovalenko yo'g'on ovoz bilan.

– Aytib o'tirishga hojati ham bormi, Mixail Savvich, o'zi ravshan emasmi?! Muallim velosiped minib yurgandan keyin, o'quvchi nimalarni qilmaydi? O'quvchilar odamning boshiga chiqib yuradigan bo'ladilar! Modomiki, rasmiy farmoyish bilan ruxsat etilmagan ekan, yaramaydi. Kecha mening jon-ponim chiqib ketdi. Opangiz velosiped minib ketayotganini ko'rib, ko'zlarim tinib ketdi, ayol kishining yoki qiz bolaning velosiped minishi juda ham xunuk!

– Siz nima demoqchisiz?

– Men faqat sizni ogohlantirib qo'ymoqchiman, Mixail Savvich. Siz yoshsiz, sizning istiqbolingiz hali oldinda, sizga juda ham ehtiyot bo'lmoq kerak, holbuki, siz shu darajada beparvosizki, asti qo'yavering! Siz gulli ko'ylaklar kiyib, ko'cha-ko'yda hamma vaqt allaqanday kitoblar ko'tarib yurasiz, endi mana – velosiped minishni ham chiqardingiz. Opangiz bilan velosipedda sayr qilib yurganingizni direktor bilib qolsa, nozirning qulog'iga ham yetadi... Bundan yaxshi ish chiqadimi?

– Opam bilan velosipedda sayr qilib yurishimning hech kimga dahli yo'q! – dedi Kovalenko va qizarib ketdi. – Mening uy ishimga va oila masalalarimizga aralashadigan odamni men moxovga oshna qilib qo'yaman.

Belikovning rangi o'chib, o'rnidan turdi.

– Siz men bilan shu yo'sinda gaplashadigan bo'lsangiz, men suhbatni davom ettirolmayman! – dedi u. – Sizdan o'tinamanki, mening huzurimda boshliqlar xususida bu xil so'zlarni hech gapirmang. Siz hukumat ma'murlariga hurmat bilan qaramog'ingiz lozim.

Kovalenko Belikovga jahl bilan qarab turib:

– Hukumat ma'murlari to'g'risida nima yomon gap gapirdim? – deb so'radi. – O'tinaman, meni tinch qo'ying. Men vijdonli bir

odamman va sizdek janob bilan gaplashishni xohlamayman. Men chaqimchilarni yomon ko'raman.

Belikov tajang bo'lib gangidi va yuzlarida dahshat alomatlari bo'lgani holda, shoshilib kiyina boshladi. U, bu xil dag'al gaplarni umrida birinchi eshitishi edi.

Dahlizdan zinaning ayvonchasiga chiqarkan:

– Nima desangiz deyavering, – dedi u, – sizga shunigina aytib qo'ymog'im kerak: ehtimol bizning suhbatimizni bironta odam eshitgandir, buning natijasida bizning so'zlarimizga boshqa xil ma'no bermasliklari uchun hamda biroi balo chiqib qolmasligi uchun men suhbatimizning mazmunini... eng muhim nuqtalarini direktor janoblariga ma'lum qilmog'im lozim. Bu mening vazifam.

– Ma'lum qilaman? Bor, ma'lumotingni beraver!

Kovalenko uning yoqasidan ushlab pastga itarib yubordi, u kalishlarini tapirlatib zinadan quyiga yumalab ketdi. Zina baland va tik edi, lekin u, salomat tushib oldi; o'rnidan turib, ko'zoynaging butunligini bilmoqchi bo'lib, burnini ushlab ko'rdi. U zinadan pastga yumalab tushayotgan paytda ikki xonim bilan birga Varenka kirib keldi. Ular pastda turib tomosha qilardilar. Belikov uchun hammadan yomoni ham shu edi. Bo'yni ostida qolishi, ikki oyog'idan ajralishi – bu xilda masxara bo'lishdan yaxshiroq edi. Endi bu gap butun shaharga tarqaladi, direktorning, nozirning qulog'iga borib yetadi. Oh, bir balo chiqmasin-da! Yangi hajviy rasmlar yasaladi va butun ish oqibatida xizmatdan iste'fo berib chiqishga buyurishadi...

U o'rnidan turgan ediki, Varenka tanidi va uning odam kuladigan yuziga, g'ijimlangan paltosiga va kalishlariga qarab, ishning aslidan bexabar, qoqilib yiqilgandir, deb o'ylab, o'zini to'xtatolmasdan, butun binoni boshiga ko'tarib kula boshladi:

– Xa, xa, xa!

Shu qahqaha bilan hamma ish tamom bo'ldi; uylanish ham, Belikovning bu dunyoda yashashi ham. Varenkaning nima deganini u eshitolmadi va hech narsani ko'rmay qoldi. Uyiga qaytganidan so'ng, eng avval stol ustidagi portretni olib qo'ydi, so'ngra yotog'iga kirib yotganicha o'rnidan qaytib turmadi.

Uch kundan so'ng mening oldimga Afanasiy kelib, xo'-jayinimning ahvoli og'ir, doktor chaqirtirsammikan, deb so'-radi. Men Belikovni ko'rgali bordim. U parda orqasida ko'rpaga o'ranib yotardi; bir narsa so'rasang yo – «ha» yo «yo'q» deb javob berardi, boshqa hech narsa demasdi. U yotadi, uning yonida xafa, qovog'i solingan Afanasiy yuradi va og'ir-og'ir uh tortadi; og'zidan esa xuddi xumdan chiqqanday buruqsab araq hidi keladi.

Bir oydan so'ng Belikov o'ldi. Uni hammamiz, ya'ni ikki gimnaziya bilan seminariya birgalashib ko'mdik. Endi tobutda yotarkan, yuz ifodasi yumshoq, yoqimli va hatto bir daraja quv-noq bo'lib, go'yo axir kelib hech qachon ichidan chiqmaydigan g'ilofga tushgani uchun sevingandek edi. Chinakam ham u maq-sadiga yetgan edi! Xuddi uni hurmatlaganday – ko'mish kuni havo aynib, yomg'ir yoqqan va hammamiz kalish kiyib, soyabon ushlab chiqqan edik. Ko'mish marosimida Varenka ham ishtirok qildi va o'lik go'rga tushirilar ekan, qattiq yig'ladi. Shunda men payqadimki, xoxol ayollari yo qahqaha otib kular, yo qattiq yig'lar ekanlar, o'rta bir kayfiyat ularda bo'lmas ekan.

Iqror bo'lmog'im kerakki, Belikov singari odamlarni ko'-mish ko'p zavqli bir ishdir. Go'ristondan qaytayotganimizda chehralarimiz ochiq emas va betakalluf edi, haligi zavq, ya'ni bolalik vaqtimizda, kattalar bir joyga ketib, uyda yolg'iz o'zimiz qolgach, bog'chaga chiqib bir necha soat erkin-erkin chopish-gan vaqtimizdagi kabi hislarni hech kim izhor qilishni istamas edi. Oh, erkinlik, erkinlik! U nasib bo'lishi to'g'risidagi zaif bir umid, hatto bir shama ham qalbga madad beradi. Shunday emasmi!

Biz go'ristondan kayfimiz chog' bo'lib qaytdik. Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, turmush yana o'z iziga tushib oldi: yana o'sha farmoyish bilan man qilinmagan, lekin tamoman ruxsat ham berilmagan ma'nisiz hayot boshlandi: hammasi aslicha qoldi. Chindan ham Belikovni ko'mdik, lekin unga o'xshagan g'ilof bandalari yana qancha bor, yana qancha bo'lajak!

– Gap shunda-da! – dedi Ivan Ivanich va trubkasini tortdi.

– Bunaqalardan yana qanchasi paydo bo'ladi! – deb ta'kidladi Burkin.

Gimnaziya muallimi tashqariga chiqdi. Bu past bo'yli, semiz, boshida bir tuki ham yo'q, uzun qora soqoli beliga yetayozgan odam edi, u bilan birga ikkita it ham chiqdi.

U osmonga qarab turib:

– Oyni aying, oyni! – dedi.

Yarim kecha bo'lib qolgan edi. O'ng tomonda butun qishloq ko'rinar, uning uzun ko'chasi besh chaqirimlarga cho'zilib ketgan, hammayoqda jimlik, chuqur uyquga tolgan: na bir harakat sezilar, na bir tovush eshitilar, hatto tabiatda bu qadar jimlik bo'lishiga odamning ishongisi kelmas edi. Oydin kechada, sodda uyleri, g'aramlari, uyquga tolgan majnuntollari bilan qishloqning keng ko'chasini ko'rganda, kishining ko'ngli ham taskin topadi, odamning ko'ngli tun pardasida mehnatdan, tashvishdan va qayg'u-hasratlardan bekinib olgach, o'zining shu jimligida juda yuvosh, mungli va go'zal bo'ladi; yulduzlar ham unga mehribonlik bilan qaraganday, yer yuzida ortiq yovuzlik degan narsa qolmasdan, hamma soadatga erishganday tuyuladi. Qishloqning chap tomoni dala ufqlargacha cho'zilgan, bu oydin dalada ham na bir harakat ko'rinadi va na bir sado eshitiladi.

– Gap shunda-da! – deb takror qildi Ivan Ivanich. – Biz shaharda – dim havoda va tiqilinchda yashashimiz, keraksiz qog'ozlar yozib, karta o'ynashlarimiz – bular ham bir g'ilof emasmi! Butun umrimizni dangasa va takasaltang odamlar, esi past va o'yindan boshqani bilmaydigan ayollar o'rtasida o'tkazishimiz, bo'lar-bo'lmas afsonalar gapirib, eshitishimiz, bu ham bir g'ilof emasmi? Agar xohlasangiz yana bitta juda ibratli voqeani aytib beraman.

– Yo'q, endi uxlash kerak, – dedi Burkin. – Ertaga qolsin!

Ikkalasi ham saroyga kirib, pichan ustida yotdi. Ikkovi ham o'ranib yotib, endi ko'zlari uyquga ketgan ham ediki, birdaniga oyoq tovushi keldi... Saroy yonida allakim yurar edi! Biroz yuradi-da, to'xtaydi, biroz o'tgach, yana yura boshlaydi... Itlar huradi.

– Bu yurgan Mavra, – dedi Burkin.

Oyoq tovushi tindi.

Ivan Ivanich narigi yonboshiga aylanib yotib:

– Yolg'on gapirganlarni eshitib va ko'rib turish, – deb g'uldiradi, – shu yolg'onga chidaganing uchun seni ahmoq deganlarini eshitish, ozor va haqoratlarga bardosh qilish, nomusli va erkin odamlar tomonida bo'lganingni ochiq aytishga botinolmasliging, o'zing ham yolg'on gapirib, yolg'ondan kulib turishing, butun bu hollarning bir burda non, issiqqina bir joy, bir chaqaga arzimaydigan allaqanday bir amal uchun bo'lishi, chidab bo'lmaydigan hol; yo'q, bundan so'ng bu xilda yashash mumkin emas!

– Siz endi, Ivan Ivanich, boshqa maqomga tushdingiz, – dedi muallim. – Qo'ying endi, uxlaylik.

O'n daqiqadan so'ng Burkin qattiq uyquga ketdi. Ivan Ivanich bo'lsa hadeb u yonboshdan bu yonboshga ag'anab, uh tortardi. So'ngra o'rnidan turib yana tashqariga chiqdi va eshik oldiga o'tirib, tamaki chekdi.

SARLAVHASIZ

V asrda ham hozirgidek har kuni ertalab quyosh chiqar va kechqurun uxlagani yotar edi. Ertalab quyoshning dastlabki nurlari shudring bilan o'pishganda yer jonlanar, havo quvonch, shodlik va umid tovushlariga to'lar, kechqurun esa shu yer tek qolar va shafqatsiz qorong'ulikka cho'mardi.

Kun-kunga, tun-tunga o'xshaydi. Har zamon ko'kda qora bulutlar paydo bo'lib, jahl bilan momaqaldiroq qaldirardi yoki yulduz uchardi, yo bo'lmasa, rangi o'chgan monax zohidlarning oldiga yugurib kelib, monastirga yaqin bir yerda yo'lbars ko'rganini aytardi, vassalom, so'ngra yana kun-kunga, tun-tunga o'xshardi.

Monaxlar ishlar va ibodat qilar, ularning boshliqlari bo'lgan chol organ chalar, lotincha she'rlar hamda notalar yozardi. Bu ajoyib chol favqulodda qobiliyat egasi edi. U organni shunday ustalik bilan chalar edi, hatto umrining oxirida musiqiy zavqi bir tarziroq bo'lib qolgan eng qari monaxlar ham uning hujrasidan organ tovushi kelganda o'zlarini yig'idan to'xtatolmasdilar. U hatto eng oddiy narsalar to'g'risida, masalan, daraxt, yirtqich hayvonlar yoki dengiz haqida so'zlaganda ham kishi yo kular, yo ko'ziga yosh olar, xuddi uning qalbida organ torlariday torlar sado berayotganday tuyulardi. Uning achchig'i kelsa yoki juda quvonib ketsa, yo bo'lmasa biron dahshatli, zo'r narsa to'g'risida gapirsa, ehtirosli ilhomga tolar, chaqnab turgan ko'zlari yoshlanar, yuzi qizarar, tovushi momaqaldiroqday guldurar edi. Monaxlar, uning so'ziga quloq berar ekanlar, uning ilhomi o'z qalblarini band qilayotganini sezar edilar. Mana shunday soz va ajoyib lahzalarda uning hukmronligi cheksiz bo'lar, agar u zohidlariga daryoga o'zlarini tashlashni buyursa, hammasi xursandlik bilan bu amrni ijro etgani shoshilardi.

Uning musiqasi, tovushi, xudo, yer va osmonni madh etgan she'rlari monaxlarga doimiy xursandlik manbayi edi. Umrguzaronlik bir xilda bo'lavergandan keyin, ba'zan daraxt, gullar,

bahor, kuz ularning me'dasiga tegar, dengizning shovullashi toliqtirar, qushlarning sayrashi yoqmas, ammo cholning talanti ularga nondek har kuni kerak edi.

O'n yil o'tdi, hamon kun-kunga, tun-tunga o'xshardi. Monastir atrofida yovvoyi qush va yirtqich hayvonlardan bo'lak jon egasi ko'rinmas edi. Odam turadigan eng yaqin yer monastirga yuz chaqirim kelar va yuz chaqirim yo'l nuqul cho'ldan borardi. Bu cho'ldan o'tishga faqat hayotga tahqir ko'zi bilan qarovchi, hayotni tark etib, monastirga kirishni qabrga kirish, deb biluvchi kishilargina jur'at qila olardi.

Shuning uchun bir kuni kechasi birov monastirning eshigini taqillatganda monaxlar juda hayron qolishdi. Eshikni taqillatgan kishi shaharlik bir odam bo'lib, hayotni sevguvchi oddiy bir osiy ummat ekan. Bu odam monaxlar boshlig'i duosini olish va ibodat qilish o'rniga avval vino bilan ovqat talab qildi. Nima bo'lib cho'lga chiqib qolganligini so'ralganda u, uzundan uzoq so'zlab, ovga chiqqani, ko'proq ichib qo'yib adashganini aytdi. Monastirga kirib, qiyomatning g'amini yegin, degan taklifga, kulib: «Men sizlarga o'rtoq emasman», deb javob berdi.

Yeb, ichib to'yganidan so'ng, xizmatini qilib turgan monaxlarga bir-bir qaradi-da, bosh chayqab ta'na bilan dedi:

– Bekor o'tirasizlar, monaxlar. Yeyish-ichishdan boshqani bilmaysizlar. Qiyomatni g'amini shu xilda yeydimi kishi? O'ylab ko'ringlar: sizlar bu yerda tinchgina yeb-ichib saodat xayolida o'tirgan chog'larda, yaqin kishilarning halok bo'lib, jonlari do'zaxga ketmoqda! Bir qaranglar-chi, shaharda nimalar bo'lmoqda. Biri ochdan o'lmoqda, boshqasi o'z oltinini qayerga ko'mishini bilmasdan buzuqlikka g'arq bo'lmoqda va asalga botgan pashshaday halok bo'lmoqda. Kishilarning qalbida na imon bor, na haqiqat. Bularni qutqarish kimning ishi, axir? Va'z-nasihatni kim qiladi? Ertadan kechgacha mast bo'lib yuradigan odam, men qilaymi? Nahot Xudo, ezgu ruh, sevguvchi qalb va imonni sizlarga to'rt devor orasida o'tirish uchun bergan bo'lsa?

Shaharlikning mastlik bilan aytgan so'zlari qattiq va odob doirasidan tashqari edi, ammo nima balo bo'ldiki, cholga ta'sir

qildi. Chol hamma monaxlar bilan bir-bir ko'z urishtirib, rangi oqardi va dedi:

– Birodarlar, bu to'g'ri aytadi! Chindan ham bechoralar o'zlarining nodonliklari va tadbirsizliklari orqasida gunohkor va dinsiz halok bo'ladilar, biz esa joyimizdan qimirlamaymiz, go'yo buning bizga dahli yo'q. Shaharga borib, o'z payg'ambarlarini unutgan ummatlarning esiga Iso alayhisalomni solsam bo'lmaydimi?

Shaharlikning so'zlari cholni qiziqtirdi: ertasiga u asosini qo'liga oldi, zohidlar bilan xayrlashdi va shaharga qarab ketdi. Monaxlar uning musiqasidan, so'zlaridan va she'rlaridan mahrum bo'ldilar.

Bir, ikki oyni ular cholni sog'inib o'tkazdilar, chol kelmadi. Oqibat uchinchi oyning oxirida hammaga ma'lum bo'lgan aso tovushi eshitildi. Monaxlar yugurishib uning istiqboliga chiqdilar va unga benihoyat ko'p savollar berdilar, ammo chol, ularni ko'rib sevinish o'rniga kuyinib yig'ladi va bir og'iz ham so'z aytmadi. Monaxlar uning juda qariganini va ozganini payqadilar; uning yuzidan charchaganlik va chuqur qayg'u aks etar edi, yig'laganida esa tahqirlangan kishiga o'xshar edi.

Monaxlar ham yig'ladilar va undan nimaga yig'layotganini, nima uchun xafa ekanini so'radilar. Biroq, u bir og'iz ham so'z aytmadi va hujrasiga kirib, eshikni beklab oldi. U yetti kun uyidan chiqmadi, tuz totmadi. Organ chalmadi, nuqul yig'ladi. Monaxlar eshigini taqillatsalar, chiqib biz bilan dardlash, deb iltimos qilsalar ham, churq etmadi.

Oxir tashqariga chiqdi va monaxlarni to'plab, yoshli ko'z, chuqur qayg'u va g'azab bilan so'nggi uch oy ichida boshidan kechirganlarini aytib berdi.

U monastirdan shahargacha bosgan yo'lini tasvirlab berganda ko'zlarida tabassum, tovushida osoyishtalik aks etar edi. Aytishicha, yo'lida unga qushlar sayrab bergan, uning uchun ariqlar shildirab oqqan, qalbini shirin, yosh umidlar hayajonga keltirgan: u yo'lda borar ekan, o'zini jangga ketayotgan va g'alaba qozonishiga amin bo'lgan soldatday sezgan, she'rlar va na'tlar aytib shaharga yetganini bilmay qolgan.

Biroq shahar va u yerdagi odamlar to'g'risida gapira boshlaganida tutaqib ketdi, ko'zlari chaqnadi. U shaharga kirib ko'rganlarini umrida ko'rgan emas, hatto shunday bo'lishini tasavvur qilishga ham jur'at etgan emas.

Shayton naqadar qudratli, yovuzlik qanchalik go'zal ekanini, kishilarning na daraja yuraksiz va g'arib ekanliklarini, u umrida birinchi daf'a keksaygan chog'ida ko'rdi va angladi. Baxtsiz tasodif bo'lib, birinchi qadam bosgani uy buzuqlik makoni bo'lib chiqdi. Ellik chamasi puldor kishilar ovqat yer va vinoni ko'p ichar edi. Vino ichib mast bo'lgan odamlar kuylaydilar va xudojo'y kishi aytgani botinolmaydigan yaramas so'zlarni hech ibosiz aytadilar. Cheksiz erkin, tetik, baxtiyor bu odamlar na xudodan qo'rqadilar, na shaytondan va na o'limdan, nimani xohlasalar shuni aytadilar, shuni qiladilar, ko'ngillari qayerni tilasa, o'sha yerga boradilar. Vino esa haqiqday sof, haddan tashqari shirin va xushbo'y bo'lsa kerak, chunki ichgan kishi rohatlanib kuladi va yana ichgusi keladi. Kishi kulganda vino ham kulganday bo'ladi, ichilganda quvonch sochib, uchqun oladi, go'yo o'z shirinligida qanday shaytoniy latofat berkitib turganini o'zi biladi.

Chol g'azabdan borgan sayin tutaqib, yig'lab, ko'rganlarini hikoya qilib beraverdi. Bazm qurib o'tirganlar orasida, – dedi, – stolning ustida yarimi yalang'och bir buzuq xotin turar edi. Tabiatda bundan ko'ra go'zal va jozibali narsani topish qiyin. Yosh, uzun sochli, do'ndiq, qorako'z, durdoq labli hayosiz va sharmanda, bu palid sadafday tishlarini ko'rsatib iljayib, xuddi «Ko'rdilaringmi, men qanday sharmanda va chiroylik» demoqchiday edi. Shohi kimxoblar burma-burma bo'lib, uning yelkasini qoplagan, ammo go'zallik kiyim ostiga berkinishni istamas, bahori sabza qo'pib turgan yerni yorib chiqqanday, tashqariga chiqqani intilar edi. Sharmanda xotin vino ichar, ashula aytar va kim xohlasa o'shanga o'zini taqdim etar edi.

Undan so'ng chol titrab-qaqshab ot o'yini bo'ladigan maydon, ho'kiz urishtirish, teatrlar, loydan yalang'och xotinning suratini yasaydigan rassomlar korxonasi to'g'risida so'zlab ketdi. U ilhom bilan, chiroyli va tiniq tovush bilan, xuddi ko'zga

ko'rinmaydigan bir torni chertayotganday so'zlar, monaxlar esa uning atrofini qurshab, diqqat va ishtiyoq bilan so'ziga quloq solar va xursandlikdan entikar edilar.... Shaytonning barcha jozibasi, yovuzlikning go'zalligi va jirkanch xotin badanining maftun qiluvchi latofatini tasvir qilib bo'lganidan so'ng chol shaytonni la'natladi. Burilib hujrasiga kirib ketdi...

Ertasiga ertalab hujrasidan chiqib qarasa monastirda bitta ham monax qolmapti. Hammasi shaharga ketib qolipti.

O'G'IL BOLALAR

Hovli tomondan allakimning:

– Volodya keldi! – deb qichqirgan tovushi eshitildi.

– Volodya keldilar! – deb chaqirdi Natalya oshxonaga yugurib kirib. – E, Xudoyim!

Hademay keladi, deb Volodyalarini to'rt ko'zlab kutib o'tirgan Korolyovlar oilasidagilarning hammasi derazaga otilib, qaray boshladi. Eshik oldiga keng chana kelib to'xtagan, unga qo'shilgan uchta oq otdan bug' ko'tarilar edi. Chanada hech kim yo'q, chunki Volodya dahlizga kirib, sovuqda qizarib ketgan barmoqlari bilan boshidagi qalpog'ining ipini yechmoqda edi. Uning gimnaziyadan berilgan paltosi, furajkasi, kalishlarini va sochlarini qirov bosib, butun vujudidan esa yoqimli sovuq hidi kelar edi. Onasi bilan xolasi uni quchoqlab o'pa boshladilar. Natalya esa oyog'iga engashib, kigiz etigini yechtira boshladi. Singillari chinqirib yubordilar, buning ustiga eshiklar taq-tuq yopilib ochilmoqda edi. Volodyaning otasi esa faqat jelitga kiygan, qo'liga qaychi ushlagan holda dahlizga yugurib chiqib, qichqira boshladi.

– Biz seni kecha keladi, deb kutgan edik! Yaxshi keldingmi. Tinchlikmi? E, Xudoyim, axir otasi bilan so'rashgani qo'yinglar! Nima, men uning otasi emasmanmi?

– Vov! Vov! – deb Milord degan katta qora it chiqdi va dumi bilan devor va stol, kursilarni ura boshladi.

Qiy-chuv va shodlik shovqinlari ikki daqiqagacha davom etdi. Shodlik biroz bosilgandan keyin, Korolyovlar dahlizda Volodyadan boshqa yana bir kichkina odamning turganini ko'rdilar. U ro'molga o'ralgan va qirov bosgan qalpog'i bilan bir burchakda, katta tulki po'stin soyasida turar edi.

– Volodiya bu kim? – deb so'radi onasi sekingina.

– Aytganday! – deb qoldi Volodya, – bu... tanishinglar, mening o'rtog'im Chechevitsin, ikkinchi klass shogirdi... Men uni biznikiga mehmonga olib keldim.

– Juda yaxshi, marhamat qiling! – dedi otasi xursand bo'lib. – Kechirasiz, men syurtuk kiymagan edim. Uyda bo'lganim uchun... Natalya, bu kishining paltolarini ol! Bu itni haydasalaring-chi! Nima balo bu!

Sal o'tgandan keyin Volodya va uning do'sti Chechevitsin, kutib olishdagi shovqin-surondan biroz garang bo'lib, sovuqdan qizarganlari holda choy ichgani stol yoniga o'tirdilar. Qishki quyoshning nurlari derazadagi qor va muzdan o'tib, samovarni yaltiratar va suv to'katurgan idish ichiga tushar edi. Uy ichi issiq, bolalarning sovuq yegan badanlarida issiq bilan sovuq olishib, bir-birini yengmoqchi bo'lar edi.

– Mana yaqinda rojdestvo bayrami ham bo'ldi, – deb gap boshladi otasi va g'isht rangidagi tamakidan papiros o'rab oldi. – Lekin yaqindagina yoz emasdimi va onang seni yig'lab uzatib qolmabmidi? Endi bo'lsa, sen qaytib kelib turibsan... Vaqt tez o'tadi, birodar! Hash-pash deguningcha qarib qolasan... Chebisov janoblari, yeb o'tiring axir, uyalmang! Biz takallufni bilmaymiz.

Volodyaning uch nafar singlisi – Katya, Sonya va Masha (ularning eng kattasi o'n yoshda edi) stol yonida o'tirib, mehmondan ko'zlarini olmas edilar. Chechevitsin Volodya bilan teng va bo'yi barovar bo'lsa ham unga o'xshagan – semiz va oq emas, balki bug'doyrang, oriq va yuziga sepkil toshgan bola edi. Sochlari paxmoq, ko'zlari tor, lablari qalin bo'lib, o'zi ancha xunukkina va agar ustida gimnazist kiyim bo'lmasa, uni oshpaz xotinning bolasi deb o'ylasa ham bo'lar edi. U qovog'ini solib, hech indamay o'tirdi va bir marta ham kulmadi. Qiz bolalar unga qarab o'zlaricha uni juda aqlli va olim kishi bo'lsa kerak, deb o'ylab qo'ydilar. U qandaydir bir narsa ustida o'ylab, o'z fikrlariga shunchalik berilgan edikı, birov bir narsa so'raganida cho'chib tushib, boshini silkitib savolni yana takrorlashni iltimos qilar edi.

Qiz bolalar shuni ham sezdilarki, doimo o'ynab-kulib yuradigan Volodya ham bu safar kamgap bo'lib qolgan. U sira kulmaydi va hatto uyga kelganiga xursand bo'lmaganday ko'rinadi. Choy ichilar ekan singillariga faqat bir martagina qarab qo'ydi-da, qandaydir g'alati gaplarni aytdi.

Qo'li bilan samovarni ko'rsatib:

– Kaliforniyada choy o'rniga jin degan ichimlik ichadilar, – dedi.

U ham qandaydir o'yga cho'mgan va do'sti Chechevitsin bilan so'zlagan so'zlariga qaraganda bu ikki bolaning fikri bir ekani aniq ko'rinar edi.

Choyni ichib bo'lib, bular hammasi bolalar bo'lmasiga ketdilar. Volodyaning otasi bilan bolalar stol yoniga o'tirib, ikki o'g'il bolaning kelishi bilan to'xtatilgan ishga tutindilar. Ular turli rangdagi qog'ozlardan archani bezatish uchun gul va popuklar qilar edilar. Bu juda qiziq va ko'ngilli ish edi. Yana bir dona gul tayyor bo'lishi bilan qizlar chinqirar edilar va hatto, go'yo gul osmondan tushganday baqirar edilar. Volodyaning otasi ham xursand bo'lar va ba'zida qaychining o'tmasligiga jahl qilib, uni yerga tashlar edi. Onasi esa bolalar bo'lmasiga kirib, tashvishlanib:

– Qaychimni kim oldi? Yana qaychimni sen oldingmi, Ivan Nikolaich? – der edi.

Bunga javoban Ivan Nikolaich yig'lamsiragan ovoz bilan:

– E, Xudo, qaychingga ham tegib bo'lmas ekan-da! – deb xafalanib bir daqiqadan keyin yana xursand bo'lar edi.

Volodya o'tgan safarlari archani bezatishda ishtirok etar yoki hovliga chiqib otboqar bilan podachining qordan tog' qilayotganini tomosha qilar edi, bu safar Chechevitsin bilan rangdor qog'ozlarga aylanib ham qaramaydi va hatto otxonani ham biror marta bo'lsin borib ko'rmadi. Ular deraza oldiga borib nimadir gaplashadilar, darrov ikkalasi jo'g'rofiya atlasini ochib, tekshira boshladilar.

– Avval Permga... – dedi sekingina Chechevitsin... – Undan Tyumenga... so'ngra Tomsk... so'ng .. so'ng... Kamchatkaga... Bu yerda samoyedlar qayiqda Beringov bo'g'ozidan olib chiqadilar... Mana senga Amerika... Bunda mo'ynali hayvonlar ko'p.

– Kaliforniya-chi? – deb so'radi Volodya.

Kaliforniya pastroqda... Amerikaga yetsak bo'lgani, Kaliforniya uzoq emas. Ovqatimizni esa ov va bosmachilik qilib topamiz.

Chechevitsin kuni bo'yi o'zini qizlardan chetga tortib, ularga xo'mrayib qarab yurdi. Kechqurungi choydan keyin u besh

daqiqa qizlar bilan yolg'iz o'zi qoldi. Indamay o'tirib bo'lmadi. Shuning uchun u bir yo'talib, so'ngra qo'lini qo'liga ishqalab Katyaga qaradi-da:

– Siz Mayn-Ridning kitobini o'qiganmisiz? – deb so'radi.

– Yo'q, o'qiganim yo'q... Siz konkida yurishni bilasizmi?

Chechevitsin o'zining o'ylariga cho'mib, bunga javob bermadi va faqat lunjini shishirib, go'yo juda issiqlab ketganday nafasini chiqardi. U yana Katyaga qarab:

– Bizon degan hayvonlar Pampas cho'llaridan yugurib ketayotganida yer titraydi. Shu vaqtda mustanglar qo'rqib, kishnay boshlaydilar, – dedi.

Chechevitsin g'amgin tabassum bilan ilova qildi:

– Shuningdek, hindilar ham poyezdlarga hujum qiladilar. Lekin hammadan yomoni chivinlar bilan oq chumolilar.

– Bular nima o'zi?

– Chumoliga o'xshagan, lekin qanoti bor. Juda yomon chaqadi. Mening kimligimni bilasizmi?

– Chechevitsin janobari.

– Yo'q. Men Montigomo Qarchig'ay Tirnog'iman, yengilmaslar yo'lboshchisiman.

Masha avval unga, so'ngra derazaga qaradi. Tashqarida qorong'i tushmoqda edi. O'ylanibroq:

– Bizda kecha ovqatga chechevitsa pishirgan edilar, – dedi.

Chechevitsinning hech bir tushunib bo'lmayturgan gaplari, uning Volodya bilan doimo pichirlashgani, Volodyaning hech o'ynamay, o'yga cho'mib yurgani g'alati va sirli bir hol edi. Shuning uchun Katya va Sonya degan ikki kattaroq qiz o'g'il bolalarning nima qilganlarini kuzata boshladilar. Kechqurun ikkala o'g'il bola uxlagani yotganida, qizlar bildirmasdan eshik yoniga kelib, ularning gaplarini tinglab turdilar. Ularning gaplari esankiratarli gaplar edi. O'g'il bolalar tilla topmoq uchun qayergadir Amerikaga qochmoqchi ekanlar, ular yo'l uchun hamma narsani: to'pponcha, ikkita pichoq, qoq non, olov yoqish uchun durbin shinasi, kompas va to'rt so'm pul tayyorlab ham qo'ygan ekanlar. Qizlar bildilarki, o'g'il bolalarga necha ming

chaqirim piyoda yurishga, yo'lda yo'lbarslar va yovvoyilar bilan jang qilishga to'g'ri kelarkan, so'ngra tilla va fil suyagi topar ekanlar, dushmanlarni o'ldirar, dengiz bosmachilari bo'lar ekanlar. Jin ichimligi ichar va eng oxirida chiroyli xotin olib, dalalarda dehqonchilik qilar ekanlar. Volodya bilan Chechevitsin shular to'g'risida katta havas bilan gapirishib bir-birlarining so'zlarini bo'lar edilar. Shu gap davomida Chechevitsin o'zini «Montigomo Qarchig'ay Tirnog'i» deb, Volodyani «Oq yuzli birodar» deb ataydi.

– Sen onamizga aytib qo'yma, – dedi Katya Sonyaga uxlagani ketayotganda, – Volodya bizga Amerikadan tilla bilan fil suyagi olib keladi. Sen aytib qo'ysang ularni yuborishmaydi.

Hayit arafasidan bir kun ilgari Chechevitsin kun bo'yi Osiyo xaritasini qarab, nimalarnidir yozdi, Volodya esa go'yo ari chaqqanday shishib, bir bo'lmadan ikkinchi bo'lmaga o'tib yurib, hech narsa yemadi. Hatto bir marta bolalar bo'lmasida burchakka ilingan but oldida to'xtab:

– E, Xudo, men gunohkorni kechirgin! E, Xudo, mening bechora baxtsiz onamni saqlagin! – dedi-da, cho'qindi.

Kechqurun u yig'ladi. Uxlagani ketishdan oldin ota-onasi va singillarini quchoqladi. Katya bilan Sonya gapning nimada ekanligini bilar edilar. Lekin kichkina Masha hech narsani tushunmay, Chechevitsinga qarab chuqur nafas olib:

– Enaga, ro'za kelganida hammamiz noxot bilan chechevitsa yeyishimiz kerak dedilar, – dedi.

Arafa kuni saharda Katya bilan Sonya o'rinlaridan sekingina turib, o'g'il bolalarning qanday qilib Amerikaga qochmoqchi bo'lganlarini tomosha qilg'ali eshik yoniga keldilar.

– Sen bormaydigan bo'ldingmi? – deb so'radi jahl bilan Chechevitsin, – Aytgin, bormaysanmi?

– E, Xudo! – deb yig'ladi Volodya, – men qanday qilib borayin. Oyimni ayayman.

– Oq yuzli birodarim, yurgin, men sendan iltimos qilaman! Sen avval boraman deding, o'zing meni qiziqtirding, endi gap jo'nashga kelganida qo'rqib qolding.

– Men... Men qo'rqqanim yo'q, men... men faqat oyimni ayayman.

– Borasanmi, yo'qmi?

– Men boraman. Lekin... lekin bir oz to'xta. Men bir oz uyda turmoqchiman.

– Unday bo'lsa o'zim ketaman! – dedi Chechevitsin. – Sensiz ham o'lmayman. Sen yana yo'lbars ovlamoqchi, jang qilmoqchi eding. Unday ekan, mening o'qlarimni ber!

Volodya shunday o'ksib yig'lab yubordiki, uning singillari ham chidamay yig'lay boshladilar. So'ng atrof jimjit bo'lib qoldi.

– Shunday qilib, bormaysanmi? – deb yana bir marta so'radi Chechevitsin.

– Bo... boraman.

– Bo'lmasa kiyimlaringni kiygin!

Shundan keyin Chechevitsin Volodyani ko'ndirish uchun Amerikani maqtadi, yo'lbarsday qilib arilladi, paroxod bo'lib ko'rsatdi, so'kindi. Volodya hamma fil suyagi va yo'lbars terilarini berishga va'da qildi.

Bu oriq, bug'doyrang, sochlari paxmoq va betlariga sepkil toshgan o'g'il bola qizlarning ko'ziga haddan tashqari ajoyib ko'rindi. U qahramon, qat'iy qo'rqmas kishi edi. Arillashi shunday ediki, eshik orqasida turib, uni haqiqatan yo'lbars deb o'ylasa bo'lar edi.

Qizlar o'z bo'lmalariga qaytib kelib kiyinayotganlarida Katya ko'zlariga yosh to'lgan holda:

– Men juda qo'rqayapman! – dedi.

Ovqat vaqtigacha, ya'ni soat ikkigacha hammayoq jimjit edi, lekin ovqat vaqtida o'g'il bolalarning uyda yo'qligini sezib qoldilar. Yotoqxona, otxona, prikazchi turaturgan uyni axtardilar, topolmadilar. Qishloqdan izladilar – undan ham topolmadilar. Choy ichilganda ham o'g'il bolalar yo'q edi. Kechqurungi ovqat vaqtida esa Volodyaning onasi bezovta bo'lib, yig'lay boshladi. Kechasi yana qishloqni kezib izladilar, fonar ko'tarib daryo bo'yiga bordilar.

Uyda juda katta to'polon bo'ldi.

Ertasiga qishloq nazoratchisi keldi, oshxonada qandaydir qog'oz yozildi. Volodyaning onasi yig'ladi.

Mana eshik oldiga kelib, chana to'xtadi, unga qo'shilgan uchta oq otdan quyuq bug' ko'tarilar edi. Kimdir hovlida:

– Volodya keldi! – deb qichqirdi.

– Volodya keldilar! – deb chinqirdi Natalya oshxonaga yugurib kirib.

Milord yo'g'on tovush bilan «vov! vov!» deb hura boshladi. Bolalarni shaharda mehmonxonada tutib olibdilar (ular miltiqdori izlab yurgan ekanlar). Volodya dahlizga kirishi bilan yig'lab, onasining bo'yniga osildi. Qizlar qo'rqib, titrab, nima bo'lishini kutar edilar, ular o'z otalarining Volodya bilan Chechevitsinni o'z kabinetiga olib kirib uzoq gapirishib o'tirganini eshitdilar, onalari ham gapirib, yig'lar edi.

– Bunday qilib bo'ladimi, axir? – deb nasihat qila boshladi Volodyaning otasi. – Xudo saqlasin, bu to'g'rida gimnaziyada bilib qolishsa sizlarni undan haydaydilar. Sizga uyat, Chechevitsin janoblari! Yaxshi emas! Hamma ishni boshlagan siz. Umid qilamanki, ota-onalaringiz sizga buning uchun jazo berarlar. Bunday qilish mumkinmi axir? Qayerda uxladingiz?

– Vokzalda! – dedi Chechevitsin mahkam turib.

So'ng Volodya yotib qoldi va uning boshiga, sirkada ho'llangan sochiqni bosdilar. Qayergadir telegramma yubordilar va ertasiga bir xotin (Chechevitsinning onasi) kelib o'g'lini olib ketdi.

Ketayotganda Chechevitsinning qiyofasi mag'rur va jiddiy edi. Qizlar bilan xayrlashayotganida ularga indamadi. Faqat Katyaning daftarini olib, esdalik uchun:

«Montigomo Qarchig'ay Tirnog'i» deb yozdi.

KASHTANKA

I

Yaramas xulq

Tozi bilan xonaki itdan bo'lgan tulkitumshuq, malla bir it yo'lakda u yoqdan bu yoqqa yugurar va toqatsizlanib atrofga alanglar edi. U har zamon-har zamonda to'xtar va ingillar, goh bir oyog'ini, goh ikkinchisini ko'tarar, qanday adashib qolganini bilishga urinardi.

Shu kunni u qanday o'tkazganini, bu yot yo'lkaga kelib qolganini yaxshi eslardi.

Kun shunday boshlandi: egasi duradgor Luka Aleksandrich shapkasini kiydi, yog'ochdan yasalgan allaqanday narsani qizil ro'molga o'rab, qo'ltig'iga qistirdi-da:

– Kashtanka, yur! – dedi.

Kashtanka o'z nomini eshitib, yotgan yeridan – duradgorlik stoli tagidagi payraxa orasidan chiqdi-da, huzur qilib kerishib olgach, egasi ketidan yugurdi. Luka Aleksandrichga buyurtma bergan kishilar haddan tashqari uzoqda turishar edi. Shu sababli ulardan har qaysisining oldiga borish uchun bir necha marta mayxonaga kirib ho'llanib chiqishga majbur bo'lar edi. Kashtanka o'zining yo'lda tantiqlik qilib kelayotganligini bilar edi. Ko'chaga olib chiqilgani uchun suyunib sakrar, konkaning[1] otlariga qarab hurar, begona hovlilarga kirib chiqar va itlarni quvlar edi. U ko'zdan yo'qolganda duradgor to'xtaydi va chaqirib olib koyidi. Bir safar, hatto tulki qulog'i singari qulog'idan ushlab, siltab:

– O'lat tekkur!.. – deb ham qo'ydi.

---

[1]*Konka* – elektrik quvvati bilan yuraturgan tramvaylar chiqmasdan burun, ot qo'shiladigan tramvay, dilijon.

Luka Aleksandrich buyurtmachilarning oldiga borib, qaytishida singlisining uyida mehmon bo'ldi. So'ngra, bir muqovasoz oshnasinikiga, undan mayxonaga, u yerdan chiqib qudachasining uyiga bordi va hokazo. Qisqasi, Kashtanka undan adashib bu yot yo'lkaga kelganda kun kech bo'lgan edi.

Kashtanka egasini topish umidida u yoqdan bu yoqqa yugurar, qorong'i tushib borar edi. Ko'chaning har ikki tomonida ham chirog'lar yoqildi. Uylarning derazasidan shu'la tushdi. Shiddat bilan yog'ayotgan laylak qor katta tosh yo'lni, otlarning ustini, izvoshlarning telpagini oqartirdi va qorong'i tushgan sayin narsalar oqaribroq ko'rina boshladi.

Tamom qorong'i tushgandan keyin Kashtanka umidsizlikka va vahimaga tushdi. U qandaydir bir qopqaning yoniga qisilib, achchiq-achchiq ingray boshladi. Kuni bo'yi Luka Aleksandrich bilan qilgan sayohati uni charchatgan; oyoq va quloqlari sovuqdan zirqiraydi, buning ustiga och edi. Kuni bo'yi faqat ikki martagina og'ziga ovqat tegdi: muqovasoznikida ozgina xom atala ichdi, mayxonalardan birida esa stulning yonidan jindak qazining po'stini topib oldi, xolos. Agar u odam bo'lsa, ehtimol:

– «Yo'q, bunday yashash mumkin emas!» degan bo'lar edi.

II

Sirli bir tanishish

Ammo u hech narsa haqida o'ylamas, yolg'iz ingrar edi. Yumshoq, momiqday qor ust-boshini butunlay qoplaganda va bemadorlikdan mudraganida, birdan eshik shiqirladi, g'ich etib ochilib, biqiniga tegdi. U irg'ib o'rnidan turdi. Eshikdan birov chiqdi. Kashtanka g'inshib, oyog'i ostida o'ymalashgani uchun bu odam unga e'tibor qilishga majbur bo'ldi. Engashib so'radi:

– Ko'ppak, sen qayerdan kelding? Mayib qilmadimmi? Ey, bechora-bechora! Xayr, xafa bo'lma... Bilmabman.

Kashtanka kipriklariga ilinib qolgan qor uchqunlari orasidan bu notanish kishiga qaradi. Qarshisida pakana, yo'g'on, soqoli qirilgan, ko'pchigan yuzli, silindr, po'stin kiygan bir kishi turar edi. U Kashtankaning ustidagi qorni qoqayotib, tag'in:

– Nega ingraysan? Egang qani? Adashibsan shekilli? Ey, bechora ko'ppak! Nima qilamiz endi-a? – dedi.

Bu odamning tovushidagi shafqat ohangini sezib, Kashtanka uning qo'lini yaladi va yana ham qattiroq g'inshidi.

– Obbo, sen-ey... Juda antiqasan-ku! – dedi u kishi, – xuddi tulkining o'zi san-a! Xayr, nima qilay bo'lmasa, yur! Biron ishga yarab qolarsan... Bah-bah!

U chuq-chuqlab itni o'ziga qaratdi-da, qo'lini ko'tardi. Bu faqat «yur!» degangagina ishora edi. Kashtanka ergashdi. Orada yarim soat o'tmay Kashtanka katta, yorug' uyning polida boshini yonboshiga qilib o'tirar va qarshisida, stol yonida ovqatlanib o'tirgan bu notanish kimsaga yuvoshlik va maroq bilan qarar edi. U Kashtankaga ham avval non va pishloqning ko'k po'stlog'ini, so'ngra bir parcha go'sht, yarimta somsa, tovuq suyagi berdi. Kashtanka bularning hammasini shuncha tez yamladiki, mazasini ham bilmadi. Ovqatni qancha ko'p yesa, shuncha ochqar edi.

– Egalaring yaxshi qaramas ekan-da, – dedi u kishi Kashtankaning ovqatni ochko'zlik bilan, chaynamay yutishini ko'rib. – Oriqlig'ingni qara-ya. Eting borib suyagingga yopishibdi.

Kashtanka ovqatni ko'p yedi, ammo to'ymadi... Ovqatdan keyin uyning o'rtasida yotdi, oyoqlarini uzatib rohat qildi va dumini likillatdi. Yangi egasi kresloda kerilib o'tirib sigara chekar ekan, Kashtanka dumini likillatib, o'ylardi: bu yermi, yo ilgarigi egasini uyi yaxshi edimi?.. Bu odamning uyida jihoz ko'p emas va borlari ham xunuk: kreslolari, divan, lampa va gilamlaridan boshqa hech narsasi yo'q. Duradgorning uyi esa narsalar bilan liq to'la edi. Uning stoli, do'koni, randasi, iskanasi, chilqarchali to'rqavog'i, ityalog'i bor edi. Bu odamning uyidan hech narsani hidi kelmaydi. Duradgorning uyidan esa hamma vaqt yelim, lak va payraxaning hidi kelar edi. Ammo bu odam bir tomondan juda yaxshi, ovqatni ko'p beradi va Kashtanka stol oldida mung'ayib qarab turganda sira urmaydi, yer tepinib po'pisa qilmaydi va asti: «Yo'qol, turqing qursin!» deb qichqirmaydi. Insof yuzasidan bunga tan berish kerak.

Yangi xo'jayin sigarani chekib bo'lganidan keyin tashqariga chiqdi-da, dam o'tmay kichkina ko'rpacha olib kirdi.

– Hay, ko'ppak, bu yoqqa kel!.. – dedi ko'rpachani burchakka, divan yoniga solayotib. – Yot, uxla!

Kashtanka uyquga ketdi. Xayolida itlar yugurib yurar edi. Bularning ichida serjun, ko'ziga oq tushgan, tumshug'i junli keksa bir it ham bor. Buni Kashtanka bugun ko'chada ko'rgan edi. Duradgorning o'g'li Fedyushka, qo'lida iskana bilan, uning ketidan chopadi. So'ngra bir varakayiga uning o'zi junga o'raldi: it qiyofasiga kirdi-da, quvonib hurdi va Kashtankaning yoniga kelib qoldi. Kashtanka ikkovi beg'araz bir-birini iskashdi va ko'chaga yugurib chiqib ketishdi...

III

Ko'ngilga juda xush keladigan bir tanishish

Kashtanka uyg'onganida tong yorishgan, ko'chadan kunduzi g'ala-g'ovur eshitilar edi. Uyda hech kim yo'q. Kashtanka kerishdi, esnadi va qovog'ini solib, u yoq-bu yoqqa yurdi. U hamma burchakdagi va uydagi jihozlarni bir-bir iskadi, dahlizga chiqdi, hech bir qiziq narsa topolmadi. Dahliz eshigidan boshqa yana bir eshik bor edi. Kashtanka o'ylab turib, ikki oyog'i bilan shu eshikni tirmaladi va ochib narigi uyga kirdi. Krovatda qalin ko'rpaga burkanib birov yotar edi. Bu – kechagi odam ekanini bildi.

– Rrrr, – dedi Kashtanka, ammo kechagi ovqat esiga tushib, dumini likillatdi va hidlay boshladi.

Kashtanka bu odamning kiyim va etigini hidladi. Bulardan dimog'iga ot hidi keldi. Bu uyning yana bir eshigi bo'lib, u ham berk edi. Kashtanka qorni bilan yotib, eshikni oyog'i bilan timdalab ochdi. Eshik ochilishi bilan burniga g'alati, shubhali bir hid keldi. Ko'ngilsiz bir uchrashish ro'y berishini oldin sezib, irilladi va u yoq bu yoqqa qaradi-da, kirdi. Devorlariga yopishtirilgan qog'ozlari qasmoq bog'lab ketgan kichkina bir uycha. Kashtanka vahimaga tushib, orqaga chekindi. Qarshisida hech kutilmagan qo'rqinchli bir kulrang g'oz turar edi. U kurk tovuqday boshini pastlab, qanotlarini yozdi va Kashtanka tomon yurdi. Undan nari-

roqda kichkina ko'rpacha ustida oq mushuk yotar edi. Kashtankani ko'rib u ham o'rnidan turdi, belini kamalak qilib, dumini ko'tardi, yungini hurpaytirib pixilladi. Kashtanka qattiq qo'rqdi, ammo sipohgarchilikni boy bermay, hurdi va mushukka hujum qildi... Mushuk belini yana ham egdi, qattiqroq pixilladi-da, qo'li bilan Kashtankaning boshiga urdi. Kashtanka chekindi, cho'nqayib o'tirdi va mushuk tomon tumshug'ini cho'zib hura boshladi. Shunda, ketidan g'oz kelib, orqasini cho'qidi. Kashtanka bir irg'ib tushdi va g'ozga hujum qildi.

– Bu nima gap? – dedi kimdir va jahl bilan haligi odam kirib keldi. Uning ustida oq avra to'n, og'zida sigara bor edi. – Bu nima degan gap? Bor joyingga!

U mushukning yoniga keldi va kamalak qilib turgan beliga urib, dedi:

– Fedor Timofeich, bu nima degan gap? Janjal qo'zg'adilaringmi? Obbo, betovfiq-ey! Yot!

G'ozga qarab baqirdi:

– Ivan Ivanich, joyingga bor!

Mushuk boshini quyi solib, ko'rpachasining ustiga borib yotdi-da, ko'zlarini yumdi. Tumshug'i va murtlarining hozirgi turishiga qaraganda, qiziqqonlik qilib, janjalga aralashganidan o'zi ham noroziday ko'rinar edi. Kashtanka koyidi, tishlarini irjaytirdi. G'oz esa bo'ynini cho'zib, nima to'g'ridadir qizg'in va tez gapirdi. Ammo uning shoshib, qizg'inlik bilan nima deganini tushunib bo'lmas edi.

– Xo'p, xo'p! – dedi egasi esnab. – Murosa qilib turish kerak. – Kashtankani siladi. – Sen, malla, qo'rqma... Bu xaloyiq senga ozor bermaydigan, yaxshilardan. Shoshma, sening oting nima bo'ladi endi? Ismsiz yurib bo'lmaydi-ku, uka.

U o'ylab turib dedi:

– Menga qara... Sening oting – Tyotka!.. Uqdingmi? Tyotka!

U «Tyotka» so'zini bir necha marta takrorlab chiqib ketdi.

Kashtanka o'tirib, atrofga zehn sola boshladi. Mushuk ko'rpacha ustida tek o'tirar va o'zini uyquga solar edi. G'oz bo'ynini cho'zgan, yer tepinadi, tez-tez va qizg'in ravishda

nima haqidadir gapiradi, allanarsalar deydi. Bu juda aqlli g'oz ekan shekilli. Har safar uzundan uzoq gapirgandan keyin, o'zi hayratda qolib, orqaga chekinar va o'z so'zidan o'zi xursandday ko'rinar edi... Kashtanka uning so'ziga quloq solar, «xirr» deb javob berar va burchaklarni hidlar edi. Burchaklardan birida kichkina bir chara turar, unda no'xat va non uvitib qo'yilgan edi. Kashtanka no'xatni yeb ko'rdi – bemaza, nonni yeb ko'rdi – yaxshi, yeya boshladi. Begona it o'z ovqatini yeyayotgani uchun g'oz koyimadi. Aksincha yana ham qizg'inroq gapira boshladi va o'zining ishonchini ko'rsatish uchun charaning oldiga kelib, no'xatdan bir necha donasini yedi.

IV

Ram ichida ajoyibot

Bir ozdan keyin haligi kishi ram va «P» harfiga o'xshagan g'alati bir narsa olib kirdi. Yog'ochdan qo'pol qilib yasalgan bu «P» ning yuqorisiga qo'ng'iroq osilgan va to'pponcha bog'langan edi. Qo'ng'iroqning tili va to'pponchaning tepkisiga ip bog'lagan. U kishi «P» ni uyning o'rtasiga qo'ydi. Uzoq ivirsib nimanidir yechdi, nimanidir bog'ladi. So'ngra g'ozga qarab dedi:

– Qani, Ivan Ivanich, marhamat!

G'oz uning oldiga kelib, kutgan vaziyatda.

– Qani, – dedi u kishi, – boshidan boshlaymiz. Avval salom ber! Tezroq!

Ivan Ivanich bo'ynini cho'zdi, har yonga qarab ta'zim qildi.

– Ha, balli... Endi o'l!

G'oz oyog'ini osmonga ko'tarib chalqancha yotdi. U kishi yana shunga o'xshagan bir necha, u qadar ahamiyati bo'lmagan fokuslarni qilib, birdan boshini ushladi va yuzidan vahima aks ettirib qichqirdi:

– Dod! Yong'in, o't ketdi!

Ivan Ivanich «P» ni oldiga chopib keldi va ipni tortib qo'ng'iroqni chaldi.

U kishi mamnun bo'ldi. G'ozning bo'ynini silab dedi:

– Barakalla, Ivan Ivanich! Endi o'zingni zargar xayol qil; tilla, brilliant sotasan. Faraz qil: magazinga kelsang o'g'ri yuribdi. Shunda nima qilar eding?

G'oz ikkinchi ipni tishlab tortishi bilan gumbillab to'pponcha otildi. Kashtankaga qo'ng'iroqning jiringlashi juda yoqqan edi, gumbillagan tovush chiqqandan keyin, shuncha sevindiki, «P» ning atrofida yugurdi va hurdi.

– Tyotka, bor joyingga! – dedi u kishi. – Tek o'tir!

Ivan Ivanichning ishi to'pponcha otish bilan tamom bo'lmadi. U kishi butun bir soat xipchinni ship-ship yetkizib, Ivan Ivanichni o'z atrofida aylantirdi. G'oz g'ovdan sakrab o'tishi va dumi uzra o'tirib, oyoqlarini ko'tarishi, ham qimirlatishi kerak edi. Kashtanka Ivan Ivanichdan ko'zini olmay xursand bo'lganidan g'inshidi va hurib, uning ketidan yugurdi.

Ta'lim u kishi peshona terini artib ketishi bilan tugadi. Fedor Timofeich boshini burib «puf» deb, ko'rpachaga yotdi-da, ko'zlari yumdi. Ivan Ivanich charaning oldiga bordi.

Ko'p yangi taassurotlar natijasida Kashtanka kunning o'tganini bilmay qoldi. Kechqurun u ko'rpachasi bilan devorlariga yopishtirilgan qog'ozlari qasmoq bog'lab ketgan uychaga kiritildi. Fedor Timofeich va g'oz bilan hamxona bo'ldi.

V

Talant! Talant!

Bir oy o'tdi.

Har kuni kechqurun yaxshi ovqat berilishiga va «Tyotka!» deb chaqirilishiga Kashtanka o'rgandi. Shuningdek, u yangi xo'jayinga va o'zining ulfatlariga ko'nikib qoldi.

Tirikchilik silliq, ravon ketar edi.

Bugun kunlar bir xilda boshlanadi. Odatda, hammadan burun Ivan Ivanich uyg'onadi va uyg'onishi bilan Tyotkaning yoki mushukning oldiga boradi-da, nima to'g'ridadir qizg'in va astoydil gapiradi, ammo uning nima deganiga tushunib bo'lmaydi. Kashtanka u bilan birinchi tanishgan kunlari «U juda

aqlli, shuning uchun ko'p gapiradi» deb o'ylagan edi, ammo oz vaqt o'tishi bilan Kashtanka ham uni izzat qilmaydigan bo'ldi. U Kashtankaning oldiga kelib, uzundan uzoq gapirar ekan, Kashtanka dumini likillatmas, uxlagani qo'ymay, bezor qilgan ezma kishiga qilinganday muomilada bo'lar va hech qanday mulohazaga bormasdan, «xirr» deb javob berar edi.

Fedor Timofeich bo'lsa, boshqacha zot. U uyg'onib tovush chiqarmaydi, qimirlamaydi va hatto ko'zini ham ochmaydi. O'ziga qolsa uyg'onmas edi. Chunki u hayotni yetarli darajada sevmaydi. Bu, aftidan ko'rinib turadi. U hech narsaga qiziqmaydi, borliqqa bo'shang va beparvo munosabatda bo'ladi. Hammaga tahqir ko'zi bilan qaraydi va hatto lazzatli ovqatni yeb bo'lganidan so'ng ham jirkanib «puf-puf» der edi.

Ta'lim va ovqat yeb o'tgan kunlar yaxshi, ammo kechqurunlar zerikish bilan o'tadi. Odatda, kechqurun u odam allaqayoqqa yo'qoladi. G'oz bilan mushukni ham olib ketadi. Tyotka o'zi yolg'iz qolib, ko'rpachada yotadi va diqqat bo'ladi. Diqqatlikning qayoqdan kelganini bilmaydi. Uyni bosgan qorong'ilikday diqqatlik uni sekin-sekin o'z changaliga oladi. Shunday bo'ladiki Kashtankaning hurish, ovqat yeyish, uyda nari-beri yugurish va hatto qarashga ham hushi kelmay qo'yadi. So'ngra itmi, odammi ekani aniq bo'lmagan ikki narsa xayolidan o'tadi. Bu istarasi issiq, mehribon, ammo nima ekanini bilib bo'lmaydi. Xayolidan shular kechganda, Kashtanka dumini likillatadi va bularni qayerdadir ko'rganday va sevganday bo'ladi... Uyquga ketar ekan, har safar ulardan yelim, payraxa, lak hidi kelganday bo'ladi.

Kashtanka bu yangicha turmushga juda ko'nikib oriq, qovirg'alari chiqqan xonaki itdan to'q va sho'x itga aylanganda bir kuni ta'lim berish oldidan yangi egasi uni silab dedi:

– Endi ishni boshlasak ham bo'ladi, Tyotka. Fursat yetdi. Haybarakallachilik qilishing bo'ldi endi! Men seni artist qilaman... Artist bo'lging keladimi?

U Kashtankaga turli hunarlar o'rgata boshladi. Birinchi darsda Kashtanka keyingi oyoqlari uzra tikka turishni va yurishni o'rgandi. Bu o'ziga juda ma'qul keldi. Ikkinchi darsda keyingi

oyoqlari bilan sakrashi va muallimi baland ushlab turgan qandni oyog'i bilan olishi kerak edi. Keyingi darslarda o'yinga tushish, muallimning atrofida aylanish, musiqaga jo'r bo'lib ulish, qo'ng'iroq chalish, to'pponcha otishni o'rgandi. Bir oydan so'ng esa, Fedor Timofeich o'rgatgan mashqlarni ishtiyoq bilan qiladigan bo'ldi. U katta qiziqish bilan ta'lim olar va muvaffaqiyatlaridan mamnun edi. Tilini chiqarib, muallimi atrofida aylanish, g'ovdan sakrab o'tish, keksa Fedor Timofeichni minib yurishdan ko'p rohatlanar edi. Har qanday hunar ko'rsatganidan keyin quvonib huradi, muallimi esa hayron qolar va sevinar, qo'llarini bir-biriga ishqab:

– Talant! Talant! Hech shubhasiz talant! O'yiningni, albatta manzur qilasan! – der edi.

Tyotka «talant» so'ziga shunday o'rgandiki, egasi har safar «talant» deganda, bu so'z o'z ismiday eshitilar va yon-veriga qarar edi.

VI

Muvaffaqiyatsiz chiqish

Bir kun kechqurun u odam, devoriga yopishtirilgan qog'ozlar qasmoq bog'lab ketgan uyga kirdi-da, qo'llarini bir-biriga ishqab:

– Xo'sh... – dedi.

U yana nimadir demoqchi edi, lekin aytmasdan chiqib ketdi. Dars vaqtlarida uning basharasiga tushunib qolgan Tyotka besaranjom, tashvishli va xafa ekanini payqadi. Birozdan keyin u qaytib kirdi-da, dedi:

– Men bugun Tyotka bilan Fedor Timofeichni olib ketaman. Ivan Ivanich kasal. Sen, Tyotka, uning o'rnida bo'lasan. Kim biladi, nima bo'ladi! Tayyorgarlik yo'q, mashq qilinmagan, repetitsiya ko'p bo'lmadi. Sharmanda bo'lamiz, kulgiga qolamiz!

U yana chiqib ketdi-da, bir daqiqadan keyin po'stin va stilindr kiyib kirdi. Mushukning oldiga bordi: uning oldingi oyoqlaridan ushlab ko'tardi-da, po'stiniga o'radi. Ammo Fedor Timofeich hech qimirlamadi, hatto ko'zini ham ochmadi.

Yotadimi, yo uni egasi oldingi oyoqlaridan ushlab ko'taradimi; ko'rpa ustida yotadimi, yo po'stin ichida orom oladimi – uning uchun bari birday ko'rinar edi.

– Tyotka, yur! – dedi egasi.

Tyotka hech narsa anglamay dumini likillatdi-da, uning ketidan ergashdi. Bir ozdan so'ng u, chanada egasining oyog'i ostida o'tirar, egasi esa sovuq va hayajondan eti uchib:

– Sharmanda bo'lamiz! Kulgiga qolamiz! – deb g'uldirar edi.

Chana, ag'darib qo'yilgan katta shokasaga o'xshagan ajoyib bir bino oldida to'xtadi. Binoning oldingi uchta oynakorlik eshiklari ustida o'n ikkita yorug' chirog' yonib turardi. Eshiklar jaranglab ochildi, nari-beri yurib turgan odamlarni go'yo ho'playdi. Odam ko'p. Bu eshiklar oldiga tez-tez otlar kelib to'xtaydi, ammo it ko'rinmas edi.

U odam Tyotkani qo'liga olib, qo'yniga soldi, Fedor Timofeich ham qo'ynida edi. Uning qo'yni qorong'i, nafasni qaytaradigan, ammo issiq edi, ikkita xira va zangor uchquncha milt etdi. Bu – Tyotkaning sovuq va qattiq oyog'i tegib, notinch bo'lgan mushukning ko'zlari edi. Tyotka uning qulog'ini yaladi va qulayroq o'rnashib o'tirish uchun tipirchilandi, mushukni oyoqosti qildi va bilmasdan po'stinning ostidan boshini chiqardi, ammo shu ondayoq jahl bilan to'ng'illab, boshini ichkariga tortdi. U g'ira-shira yorug' bo'lgan va g'aroyibot bilan to'la katta bir uyni ko'rganday bo'ldi. Uning ikki tomonini egallagan g'ov va panjaralar orqasidan otga o'xshagan, uzun quloqli, yana bir burun o'rniga dum o'sgan va og'zidan ikkita uzun-uzun suyak chiqib turgan shoxdor qo'rqinchli maxluqlar qarab turardi.

Mushuk Tyotkaning oyog'i ostidan xirillagan tovush bilan «miyov» dedi. Shu onda u odam, qo'ynini ochib «xo'p!» dedi va Fedor Timofeich, Tyotka ikkovi yerga sakrab tushdi. Ikkovi, devori sariq taxtadan yasalgan uychaga olib kirildi. Bu uychada uncha ham katta bo'lmagan bir stol, uning ustida oyna. Burchaklarda kiyim-kechak osilib turadi, boshqa hech narsa yo'q. Fedor Timofeich Tyotka oyog'i ostida poymol bo'lgan mo'yini yalab, o'rindiq ostiga kirdi-da yotdi. Egasi hamon qo'llarini bir-biriga ishqab, hovliqar edi. Yechindi...

U yotar mahalida uyida yechinganday yechindi, ya'ni ichki ko'ylak, lozimidan boshqa hamma kiyimini yechdi. O'rindiqqa o'tirdi va oynaga qarab basharasini ajoyib qiyofaga sola boshladi. Avval boshiga farqi ochilgan parik kiydi. Parikning tepasida ikkita shoxga o'xshagan kokili bor edi. So'ngra yuziga oq bir narsa surkab, uning ustidan qosh qo'ydi, mo'ylov qildi. Ikki yuziga qizil surtdi. Bu bilan kifoyalanmadi. Yuz va bo'ynini bo'yab, so'ngra yasana boshladi. Allaqanday kiyimlar kiydi. Bunday kiyimni Tyotka na uyda va na ko'chada ko'rgan emas edi. Parda va mebellarga ishlatiladigan parcha gulli oddiy chitdan tikilgan, tugmasi qo'ltig'ining tagidan solinadigan, haddan tashqari keng bir ishtonni tasavvur qilingiz. Ishtonning bir pochasi mallarang, ikkinchisi oqish-sariq chitdan tikilgan. U bu ishton ichida yo'q bo'lib ketib, ustidan chit kungura yoqali kamzul kiydi. Bu kamzulning yelkasida oltin yulduz bor. So'ngra ikki xil paypoq va zangor kavush kiydi.

Tyotkaning ko'ziga hammayoq chipor bo'lib ko'rindi va taraddudda qoldi. Oq yuzli, qanotga o'xshagan bu odamdan o'z egasining hidi kelar, uning tovushi ham tanish – o'z egasining tovushi, ammo Tyotkani shubhaga soladigan, g'azablantiradigan shunday daqiqalar ham bo'lar ediki, u chipor odamdan qochishga va hurishga tayyor bo'lar edi. Yangi joy, yangi hid, egasining boshqa qiyofaga kirishi uni vahimaga solardi. U hozir, burni o'rnida dum o'sgan maxluqqa o'xshagan biron dahshatli narsa bilan to'qnash kelishini kutar edi. Tag'in qayerdandir, devorning orasidan yoqimsiz bir cholg'u ovozi eshitilardi. Har zamon, nima ekanini bilib bo'lmaydigan o'kirish tovushi ham kelardi. Faqat bir narsa unga tasalli beradi, bu – Fedor Timofeichning beg'amligi edi. U o'rindiq ostida yotib, pinagini buzmas, hatto o'rindiq qimirlaganda ham ko'zini ochmas edi.

Frak va oq jelitka kiygan bir kishi eshikdan boshini suqib:

– Hozir Arabella xonim, undan keyin siz chiqasiz, – dedi.

Tyotkaning egasi indamadi. Stol ostidan kichkina bir chemodan oldi-da, ostiga qo'yib, kutib o'tirdi. Qo'li va lablaridan

uning hovliqayotgani, vahm bosganini bilsa bo'lar edi. Titroqli nafas olishini Tyotka eshitdi.

– Jorj afandi, marhamat qiling! – dedi kimdir eshik orqasidan.

U o'rnidan turdi. O'rindiq ostidan mushukni olib, chemodanga soldi.

– Kel, Tyotka! – dedi u sekin.

Tyotka hech narsaning fahmiga bormay, uning oldiga keldi. U Tyotkaning boshidan o'pdi-da, Fedor Timofeichning yoniga qo'ydi. – Chemodanning qopqog'ini yopdi. Uning ichi qopqorong'i – zimistonga aylandi...

Tyotka mushukni bosdi. Chemodanni timdaladi. Qattiq qo'rqqanidan, ovozi ham chiqmas edi. Chemodan qo'zg'alar va qimirlar edi.

– Mana, men ham keldim! – dedi qichqirib xo'jayin.

Tyotka bu qichqiriqdan so'ng, chemodanning nimagadir do'q etib tekkanini sezdi. Nimaningdir bo'kirgan tovushi eshitildi. Nimadir urildi. Bu – haligi burni o'rnida dum o'sgan badbashara maxluq bo'lsa kerak. U shunday qattiq bo'kirdiki, chemodanning qulfi shiriqlab ketdi. Bu bo'kirishga qarshi xo'jayin qattiq chiyillagan tovush chiqarib kuldi. U hech qachon bunday tovush bilan kulmagan edi.

– Ha! – deb qichqirdi u, bo'kirgan tovushni bosishga tirishib, – muhtaram xaloyiq! Men hozir poyezddan tushdim. Katta inim o'lib, undan menga meros qoldi! Bu chemodanning ichida og'ir bir narsa bor. Tilla bo'lsa kerak deb o'ylayman... Ha, ha! Million so'm tilla bo'lsa-ya! Hozir ochib ko'ramiz.

Chemodanning qulfi shirq etib ochildi. Yorug' shu'la Tyotkaning ko'zini qamashtirdi. U chemodandan sakrab chiqdi. Gulduragan tovushdan qulog'i qomatga kelib, egasi atrofida sakrab, hurib aylana boshladi.

– Ha! Fedor Timofeich tog'a. Qimmatli Tyotka! Mehribon qarindoshlar!

U qumga qorni bilan yotdi-da, mushuk bilan Tyotkani quchog'iga oldi. Tyotka uning quchog'ida turib, taqdiri olib kelgan bu olamga sekin ko'z tashladi. U hayronlik va quvonchdan bir lahza tek qoldi-da, so'ngra uning quchog'idan chiqib, bir joyda

pirillab aylana boshladi. Bu yangi olam juda katta va yorug‘ chiroqlar bilan to‘la edi. Qayerga qaramang, yerdan shiftgacha odamlarning yuzi ko‘rindi. Boshqa narsa yo‘q.

– Tyotka, marhamat qiling, o‘tiring! – dedi egasi. Tyotka buning ma’nosiga tushunib, stulga sakrab chiqdi va o‘tirdi. Egasiga qaradi. Egasining ko‘zlari odatdagicha jiddiy, suyukli ko‘rinar, ammo basharasi, ayniqsa, og‘zi va yuzlari tabassumdan qiyshaygan edi.

U kuladi, sakraydi. Yelkalarini uchiradi va minglab odam bo‘lgan yerdan xursand ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Tyotka uning xushvaqtligiga ishondi va shunda birdan o‘ziga minglab kishi qarab turganini payqadi-da, tulkining tumshug‘iga o‘xshagan tumshug‘ini yuqoriga ko‘tarib, shodlik bilan ulidi.

– Tyotka, siz o‘tiring, – dedi egasi, – biz tog‘am bilan ikkovimiz o‘yinga tushamiz.

Fedor Timofeich, egam qachon turli nomaqulchiliklar qilishga majbur qilar ekan deb, beparvolik bilan atrofga ko‘z tashlab, tek turar edi. U pala-partish o‘yinga tushdi. Qovog‘i soliq. Harakati, dumi va miyiqlaridan uning xaloyiqqa, yorug‘ shu’laga, egasiga va o‘ziga ham tahqir ko‘zi bilan qaraganligi ko‘rinib turar edi... Keragicha o‘yinga tushdi, so‘ngra esnab o‘tirdi.

– Qani, Tyotka, – dedi egasi, – avval ikkalamiz qo‘shiq aytamiz, keyin o‘yinga tushamiz. Xo‘pmi?

U cho‘ntagidan surnay olib chaldi. Tyotka cholg‘u tovushiga chidolmay betoqatlik bilan stul ustida tipirchilay boshladi va ulidi. Har yoqdan gulduros va chapak tovushi eshitildi. Egasi qulliq qildi. Hamma jim bo‘lgandan keyin yana surnayni chaldi... Surnay avjiga chiqqanda, yuqori qavatda, xaloyiq ichidan kimningdir «ey!» degan qattiq tovushi eshitildi.

– Dada! – deb qichqirdi bir yosh bola. – Bu Kashtanka-ku!

– Ha, Kashtankaning o‘zi! – deb tasdiqladi yo‘g‘on, g‘uldiragan mast tovush, – Kashtanka! Xudo ursin, bu – Kashtanka, voy qurg‘ir-ey...

Galleriyadagilardan kimdir hushtak chaldi. Bir katta odam va bir yosh bola baravariga qichqirdi:

– Kashtanka! Kashtanka!

Tyotka bir irg'ib tushdi-da, tovush kelgan yoqqa qaradi: Biri – soqol-mo'ylovli, mast bashara, ikkinchisi – semiz, qizil yuzli – ikki kishi ko'zga chalindi. Bularga qarab, ilgari yorug' shu'la qamashtirganday itning ko'zi qamashdi... U esladi, stuldan o'zini tashladi va qumda pitilladi-da, o'rnidan turib quvonchdan vangillaganicha o'sha tomonga, haligi kishilar yoniga yugurdi. Guldiragan tovush eshitildi. Hushtak tovushi va bolaning «Kashtanka! Kashtanka!» – deb qichqirishi quloqni qomatga keltirar edi.

Tyotka g'ovdan sakrab o'tdi. So'ngra kimningdir yelkasini bosib o'tib, yuqori qavatga sakrash uchun lojaga chiqdi. Baland yerdan sakrab o'tishi kerak edi. Tyotka sakradi, ammo yetolmadi.

Qaytib tushdi, so'ngra qo'ldan qo'lga o'tdi. Kimningdir qo'lini, kimningdir yuzini yaladi va borgan sayin yuqoriga chiqib borar edi. Oqibat galleriyaga yetdi.

Yarim soatdan so'ng Kashtanka ko'cha to'la odamlar ketidan ergashib borardi. Bu odamlardan yelim va lak hidi kelar edi. Luka Aleksandrich gandiraklar va o'zini zovurga tushib ketishdan mumkin qadar ehtiyot qilib borar edi.

– Obbo Kashtanka-ey! – der edi u hayron qolib. – Duradgorning romsozdan qanday farqi bo'lsa, sening ham odamdan shuncha farqing bor.

Uning yonida otasining to'nini kiygan Fedyushka borar edi. Kashtanka ikkovining orqasiga qaradi va nazarida ularning ketidan borayotganday bo'ldi. Umrida ulardan bir daqiqa ajralmaganday sevinar edi.

U devorlarga yopishtirilgan qog'ozlari qasmoq bog'lab ketgan uychani, g'ozni, Fedor Timofeichni, lazzatli ovqatlarni, ta'limni, sirkni xayolidan kechirdi, ammo ularning hammasi endi unga uzoqdan uzoq yomon tushday ko'rinar edi...

VAKIL YOKI DEZDEMONOVNING 25 SO'M YO'QOTGANI HAQIDA QISSA

L.I. Palminga bag'ishlanadi

– Tsss. Yuringlar, qorovulxonaga kiraylik, bu yer noqulay... Eshitib qolishi mumkin...

Qorovulxonaga kirishdi. Shveysar Makarni, gaplarini eshitib, chaqimchilik qilmasin deb, g'aznaxonaga jo'natdilar. U g'aznaxonaga bormasdan, zina tagiga berkinib oldi: u isyon chiqishini aniq bilar edi... Oldin gapni Kashalotov boshladi, uning ketidan Dezdemonov, undan keyin Zrachkov gapirdi... Tomirdagi qonlar qizishib ketdi! Qip-qizargan yuzlar tirishdi, ko'kraklariga ura boshladilar...

– Biz daqqiyunus zamonlarida emas, XIX asrning ikkinchi yarmida yashaymiz! - deb gap boshladi Kashalotov. – Qorni yo'g'onlarga ilgari yo'l qo'yilgan bo'lsa, endi qo'yilmaydi. Oxir, jonimizga tegdi-ku bu! U zamonlar o'tib ketgan! Va hokazolar...

Dezdemonov ham taxminan shunday gaplarni gapirdi. Zrachkov hatto beodoblik bilan so'kinib ham oldi... Chug'ur-chug'ur boshlanib ketdi. Ammo ichlaridan aqli raso bir kishi ham chiqib qoldi. Aqli raso kishi yuzini g'amginlikka soldi-da, burun qoqaverib ho'l bo'lib ketgan ro'molchasi bilan betini artib, dedi:

– Bu gaplarning nima keragi bor-a? Eh... Xo'p deyalikki, gapirilgan hamma gaplar rost, ammo nima keragi bor? Birovga otgan tosh o'zlaringga kelib tegishi ham mumkin: o'zlaring mahkamaga boshliq bo'lganlaringda sizlarga ham qarshi isyon chiqishi mumkin. Rost aytaman! Faqat o'z boshlaringga yetasizlar, xolos.

Biroq, aqli rasoning gapiga hech kim quloq solmadi. Uni gapirib bo'lishiga ham qo'ymay, eshik yoniga surib qo'ydilar. U aqli rasolik bilan hech narsaga erisholmasligini ko'rib, aqli pastlik qila boshladi va o'zi ham qizishib, kirishib ketdi.

– Biz ham uning singari odam ekanligimizni ko'rsatib qo'yish vaqti yetdi endi! – dedi Dezdemonov. – Yana takror aytamanki, biz malay yoki avomlardan emasmiz! Biz gladiator emasmiz! Biz o'zimizni tahqir qilishga yo'l qo'ymaymiz! Bizni sensirasa, salomimizga alik olmasa, huzuriga kirib biron gap aytib tursak yuzini teskari o'girsa, so'kinsa... Bu nima degan gap? Hozirgi zamonda oliyjanob odamlar u yoqda tursin, hatto malaylarni ham sensirash mumkin emas! Kirib, o'ziga xuddi shunday deb aytish kerak!

– Qaysi bir kuni bo'lsa menga qarab: «Nega tumshug'ing bunday bo'yalib qolipti, bor Makarning oldiga. tumshug'ingni supurgi bilan tozalab qo'ysin!» deydi. Shu ham hazil bo'ptimi! Yana bir kuni bo'lsa...

– Bir kuni men xotinim bilan ketayotgan edim, u uchrab qoldi!.. – deb uning gapini bo'ldi Zrachkov. – «Ha, do'rdoqlab, doim qizlar bilan yurganing-yurgan, tag'in kuppa-kunduz kuniya!» deydi. Bu mening xotinim bo'ladi, janobi oliylari, – dedim. Kechirim ham so'ramadi, faqat labini cho'pillatib ketaverdi, deng! Shu tahqirlanishdan keyin xotinim boyqish uch kungacha yig'layverib xum bo'ldi. U qiz emas, aksincha... O'zlaring bilasizlar-ku...

– Xullasi kalon, janoblar bunga ortiq chidab bo'lmaydi! Yo u tursin, yo biz, birga ishlolmaymiz. Yo u ketsin, yo biz ketaylik! Obro'ni to'kib yurgandan ko'ra ishsiz yurganimiz yaxshiroq! Hozir XIX asr bo'ladi! Har kimning o'ziga yarasha izzat-nafsi bor! Garchi men o'zim kichik bir odam bo'lsam ham, biron subyekt emasman, hatto ko'nglimda o'z uslubim bor! Bunga yo'l qo'ymayman! To'g'ri, shunday deb aytish kerak betiga! Oramizdan biron kimsa kirsin-da, bunday bo'lishi yaramaydi, desin! Hammamizning tilimizdan gapirsin! Qani kim kiradi? Shunday deb, to'ppa-to'g'ri betiga qarab aytaberish kerak! Qo'rqmangiz, hech narsa bo'lmaydi! Kim kiradi? Tfu... qurib ketkur... rosa bo'g'ilib qolibman...

Vakil saylashga kirishdilar. Uzoq mojarolar va sen kirdan keyin aqlli, notiq va eng jasoratli deb Dezdemonovni saylashdi. O'zi kutubxonaga a'zo, ma'lumoti baland, oyimqizlar bilan ta-

nish, demak, shundan ma'lumki, aqlli odam, gapini topib gapira oladi. Dadilligi to'g'risida gapirib o'tirishning hojati yo'q... Hammaga ma'lumki, bir kun mahalla nazoratchisi uni «Hoy malay!» deb chaqirgani uchun undan afv so'rashni talab qilgan; mahalla nazoratchisi bu da'voni eshitib, qovog'ini solmasdanoq, Dezdemonovning jasorati butun olamga yoyilib ketgan edi...

– Kiraver, Senya! Qo'rqma! Shunday deb atayver! Mana, kerak bo'lsa, degin! Sen aytgan odamlar biz emas, janobi oliylari, degin! Bo'ldi, yetar! Kerak bo'lsa, boshqa malaylarni topib ol, biz unaqangilardan emas, janobi oliylari, biz o'zimiz ham oliftalikni bilamiz, degin. Bunday qiliqlaring yaramaydi, deb ayt. Xuddi shunday deyaver... Kir oldiga! Senya... Do'stim... Oldin sochlaringni tarab ol... To'g'ri shunday deb aytaver betiga.

– Jahlim tez-da, janoblar... Yana ortiqcha gap aytib qo'ysam... Zrachkov, sen o'zing kirsang yaxshiroq bo'lar edi!

– Yo'q, Senya, o'zing kiraver... Zrachkoving faqat qo'y og'zidan cho'p oladi, o'shandayam mast bo'lsa... U ahmoq odam o'zi, sen bo'lsang, har holda... Kiraver, azizim, kiraver...

Dezdemonov sochlarini taradi, jelitkasining u yoq-bu yog'ini tortib qo'ydi, qo'li bilan og'zini berkitib, bir yo'talib oldi-da, kabinetga kirdi. Hamma nafas olmay kuta boshladi. Dezdemonov kabinetga kirib, eshik oldida to'xtadi va titroq qo'li bilan lablarini siladi, gapni nimadan boshlashini bilmasdan sarosimalanib qoldi. O'ziga tanish qop-qora xolli tepakalga ko'zi tushgan edi, yuragi shuv etib, eti jimirlashib ketdi... Orqasidan chumoli o'rmalab ketayotganday bo'ldi... Buning zarari yo'q, albatta; o'rganmaganlikdan, har kim ham shunaqa bo'ladi, faqat yurak dov bersa bo'lgani... Tetik bo'l!

– E-e-e... Xo'sh, nima deb kelding?

Dezdemonov oldinga bir qadam tashladi, tilini qimirlatgan edi, biroq hech tovush chiqmadi: tili tanglayiga yopishib qolgan edi. Shu bilan birga vakil, ichining ham allaqanday bo'lib ketganini sezdi... Uning mardligi yuragidan chiqib, qorniga o'tdi, u yerda g'uldirab, sonlari orqali tovoniga o'tib ketdi-da, etik tagiga kirdi... Afsuski, etigi yirtiq edi!

– E-e-e... Nima ishing bor edi? Eshityapsanmi o'zing?

– Him... Men o'zim... O'zim, shunday. Men, janobi oliylari, qulog'imga kiruvdiki!..

Dezdemonov tilini to'xtatib olmoqchi bo'lgan edi, biroq itoat qilmay, davom etdi:

– Men, janobi rafiqangiz tashkil etgan lotoreyaga soyabon arava ham chiqarmish deb eshituvdim... Bitta chipta bo'lsa... Janobi oliylari... Him... Janobi oliylari...

– Chipta deysanmi? Xo'p bo'ladi... Atigi beshta chipta qoldi... Beshalasini ham olasanmi?

– Yo'... yo'... yo'q, janobi oliylari... Bittagina bo'lsa bas...

– Beshalasini ham olasanmi deb so'rayotibman!

– Juda yaxshi, mayli, janobi oliylari!

– Bittasi olti so'mdan... Sen besh so'mdan bera qol... Mana, qo'lingni qo'y... Ilohim, toleing kelib yutgin...

– He-he-he... Rahmat, janobi oliylari... Him... Juda xursand qildingiz...

– Jo'na endi!

Bir daqiqadan keyin Dezdemonov qorovulxona o'rtasida qisqichbaqaday qip-qizarib turar va yig'laguday bo'lib, o'rtoqlaridan 25 so'm qarz so'rar edi.

– 25 so'm pulimni berib chiqdim, og'aynilar, o'zi meniki emas edi! Ijara haqini to'lab kel deb qaynanam bergan edi... Berib turinglar, og'aynilar! O'tinaman sizlardan!

– Nega yig'laysan endi? Soyabon aravada yurasan maza qilib!

– Soyabon aravada... Soyabon arava-ya! Soyabon arava bilan odamlarni qo'rqitib yuramanmi endi? Men ruhoniy emasman! Moboda yutib olganimda ham, qayerga qo'yaman uni?

Ancha vaqtgacha gaplashib turdilar; ular gaplashishar ekan, Makar (uning xat-savodi bor) hamma gapni birma-bir yozib olmoqda edi, yozib bo'lgandan keyin... u yog'i ma'lum. Aytaman desang juda uzun, janoblar! Har holda, bu qissadan kelib chiqadigan hissa shuki, isyon qilmaslik kerak.

GRISHA

Grisha, bundan ikki yil-u sakkiz oy ilgari dunyoga kelgan do'ndiqqina bola, enagasi bilan bulvarni sayr qilib yuradi. Egnida paxtalik to'n, bo'ynida sharf, boshida cho'qqisiga kattakon paxmoq tugma tikilgan qalpoq, oyog'ida esa issiq kalish. U isib ketganidan nafasi siqilib, terlab pishadi, buning ustiga aprelning sho'x quyoshi ko'zlarini qamashtiradi.

Uning qo'pol, cho'chibroq bitta-bitta qadam tashlab boruvchi gavdasida hayrat alomati zohir edi.

Shu mahalgacha Grisha faqat to'rt burchakli dunyoni bilar edi; bir burchakda o'zining karavoti, ikkinchi burchakda – enagasining sandig'i, uchinchi burchakda – kursi bo'lib, to'rtinchisida shamchiroq yonib turardi. Karavot tagiga engashib qarasa, bir qo'li sindirilgan qo'g'irchoq bilan do'mbirani ko'rardi, enagasi sandig'ining orqasidagi narsalarning sanog'i yo'q: g'altaklar, qog'oz parchalari, qopqog'i yo'q qutichalar, siniq masxaraboz qo'g'irchoq va boshqalar yotadi. Bu olamda Grisha bilan enagadan boshqa, ko'pincha onasi va mushugi ham bo'lib turadi. Onasi qo'g'irchoqqa o'xshaydi, mushuk esa dadasining po'stiniga o'xshaydi, ammo po'stinning ko'zi bilan dumi yo'q. Go'daklar bo'lmasi deb atalgan dunyoning eshigidan kattakon bo'shliqqa chiqiladi, u yerda ovqat yeyiladi, choy ichiladi. Bu yerda Grishaning baland stuli turadi, devorda esa soat osig'lik bo'ladi, bu soatning kapgirchasini silkitish va jom chalishdan boshqa ishi yo'q. Ovqatxonadan qizil kreslolar tizilib turgan bo'lmaga o'tish mumkin. Yerga solingan gilamning o'rtasida kattakon dog' bor, bu dog' uchun hamon Grishaga barmoq o'qtalishadi. Undan keyin yana bir bo'lma bor, u yerga hech kim kiritilmaydi. U yerda faqat dadasi turadi, u nihoyat darajada sirli shaxs ko'rinadi. Enaga bilan onasi ma'lum: ular Grishani kiyintirishadi, unga ovqat yegizishadi, karavotga yotqizib uxlatishadi, ammo dadasining

nimaga kerak ekanligi – noma'lum! Yana bir sirli shaxs bor bu dunyoda: u – Grishaga do'mbira olib bergan xolasi. U goh paydo bo'ladi, goh g'oyib bo'ladi. Qayoqqa g'oyib bo'lar ekan u? Grisha, ko'pincha, karavot tagini qaraydi, sandiqning orqasini, divanning tagini qidiradi – yo'q...

Bu yangi, ko'zni qamashtiruvchi quyoshli dunyoda esa dadalar, onalar, xolalar shu qadar ko'pki, qaysi birining oldiga chopib borishingni bilmaysan. Ammo hammadan qizig'i va g'alatisi – otlar. Grisha yurib borayotgan otlarning oyoqlariga tikiladi, ammo hech narsa tushunolmaydi. O'zini ajablantirgan narsani tushuntirib berish uchun enagasiga qaraydi, ammo enaga indamaydi.

Birdan unga dahshatli gursillash tovushi eshitiladi... Qo'ltiqlariga hammom supurgilari qistirgan, yuzlari qip-qizil bir to'da soldat bulvardan to'g'ri uning ustiga bostirib kelmoqda edi. Grishani dahshat bosib, badani jimirlashib ketadi. Qo'rqinchli emasmi, deb enagasiga qaraydi. Enagasi yig'lamaydi ham, joyida turadi, – demak, xavf yo'q. Grisha soldatlarni ko'zi bilan kuzatadi va o'zi ham ularning qadamiga moslab qadam tashlayladi.

Ikkita uzun tumshuq katta mushuk tilini osiltirib, dumlarini xoda qilib, bulvardan chopishib o'tdi. Grisha men ham chopsam bo'lar ekan deb, mushuklar ketidan yuguradi.

– To'xta! – deb qichqiradi enaga uning yelkasidan siqib ushlab. – Qayoqqa chopasan? Kim aytdi senga sho'xlik qilsin deb!

Bir joyda qandaydir enaga tog'orada apelsin olib o'tirardi. Grisha uning yonidan o'tib boraturib, indamasdan bir apelsin oladi.

– Nega bunday qilasan? – deb qichqiradi enaga va Grishaning qo'liga bir urib, apelsinni tortib oladi. – Tentak!

Endi Grisha, oyog'i tagida shamchiroqday yaltirab yotgan siniq shishani olgusi keladi, ammo yana qo'limga uradi deb qo'rqadi.

Grisha xuddi qulog'ining ustida bir kimsaning:

– Salom! – degan yo'g'on ovozini eshitadi va tugmalari yaltiroq novcha kishini ko'radi.

U kishining enagaga qo'l berishidan va to'xtab gapirishidan Grisha nihoyatda xursand bo'ldi. Quyoshning nuri, izvoshlarning taraqa-turug'i, otlarning chopishi, yaltiroq tugmalar, – bularning barisi shu qadar yangi va hech qo'rqinchli emas ediki, Grisha xaxolab kuladi.

– Yur! Yur! – deb qichqiradi u, yaltiroq tugmali kishining etagidan tortib.

– Qayoqqa yuramiz? – deb so'raydi kishi.

– Yur! – deb undadi Grisha.

Uning onamni ham, dadamni ham, mushukni ham birga olib kelsak yomon bo'lmasdi degusi keldi, biroq tilidan butunlay boshqa narsalar chiqadi.

Birpasdan keyin enaga bulvardan burilib, Grishani qor bosib yotgan katta qo'raga yetaklab kiradi. Yaltiroq tugmali kishi ham ular bilan birga. Qor uyumlarini va ko'lmaklarni aylanib o'tishadi, keyin iflos va qorong'u pillapoyadan chiqib, uyga kirishadi. Uyni tutun bosgan, piyozdog' hidi keladi, qandaydir bir xotin pechka yonida turib kotlet pishirmoqda. Kuxarka bilan enaga o'pishib ko'rishadi, birga kelgan kishi bilan skameykaga o'tirib sekin-sekin gaplashishdi. Burkab o'ralgan Grisha isib ketib, nafasi bo'g'iladi.

«Bu nimadan ekan?» deb o'ylaydi va atrofga ko'z tashlaydi.

Tepada is bosgan qora shipni, yerda kattakon otashkurakni, o'chog'i katta pechkani ko'radi...

– A-ya! – deb qichqirdi u cho'zib.

– Ha, bo'ldi! Bo'ldi! – dedi enaga. – Birpas tursang hech narsa bo'lmas!

Kuxarka stolga bir shisha, ikki ryumka va somsa keltirib qo'yadi. Ikkala xotin va yaltiroq tugmali kishi ryumkalarni urishtirib, bir necha marta ichishdi. Haligi kishi bo'lsa goh enagani, goh kuxarkani quchoqlaydi. Keyin uchchovlashib sekin qo'shiq aytishadi.

Grisha somsaga qo'lini cho'zadi, unga bitta somsa berishadi. U somsani chaynab, enaganing ichishiga qarab turadi... Uning ham ichgisi keladi.

– Menga ham ber! Enaga, ber! – dedi.

Kuxarka o'z ryumkasidan unga bir qultum ichkizadi. Grishaning ko'zlari olayib ketadi, yo'taladi, qo'llarini silkitadi, kuxarka bo'lsa unga qarab, kuladi.

Uyga qaytishgandan keyin Grisha qayerlarga borganini, nimalarni ko'rganini onasiga, devorlarga, karavotiga gapirib beradi. Butun gapni u so'z bilan emas, ko'pincha qo'llari va yuzi bilan aytadi. Quyoshning yaltiraganini, otlarning chopishini, bahaybat pechkani, kuxarkaning ichishini ko'rsatadi...

Kechqurun u hech uxlayolmadi. Supurgi ko'targan soldatlar, katta mushuklar, otlar, siniq shisha, apelsin solingan tog'ora, yaltiroq tugmalar bir yerga yig'ilib, uning boshini aylantiradi, u yoqdan bu yoqqa ag'anaydi, vijirlaydi va nihoyat, hayajonlanishni ko'tarolmay, yig'lab yuboradi.

– Bolamning issig'i bor, – deydi onasi, uning peshonasini ushlab ko'rib. – Nimadan issiq chiqdi ekan-a?

– Pechka! – deb yig'laydi Grisha. – Ket bu yerdan, pechka!

– Bo'kib qolgandir... – deb taxmin qiladi onasi.

Yaqinda o'zi ko'rgan yangi olam taassurotlari bilan to'libtoshgan Grisha onasi qo'lidan bir qoshiq kastorka ichadi.

SAN'AT ASARI

Onasining yolg'ız o'g'li Sasha Smirnov «Birja vedomostlari» gazetasining 223-soniga o'ralgan bir narsani qo'ltig'iga qistirib, yuzi so'lg'in bir holda doktor Koshelkovning kabinetiga kirdi.

– E-e, keling yaxshi yigit! – deb kutib oldi doktor. – Xo'sh, sog'ligingiz qalay? Qanday xushxabarlar keltirdingiz?

Sashaning ko'zlari pirpiradi, o'ng qo'lini chap ko'kragiga bosib, hayajonlangan holda dedi:

– Oyim sizga salom deb yubordilar va sizga minnatdorlik bildiradilar, Ivan Nikolayevich... men oyimning yolg'iz o'g'liman, siz meni o'limdan saqlab qoldingiz... Qattiq kasaldan qutqazdingiz... Ikkimiz sizning bu yaxshiligingizni hech unutmaymiz...

– Qo'ying bunday gaplarni, yigit! – dedi doktor, bu so'zlardan erib ketib. – Men qilgan ishni hamma qiloladi.

– Men oyimning yolg'iz o'g'liman... O'zimiz kambag'al odammiz, xizmatingizga yarasha haq to'lashga ojizmiz... Juda uyatda qoldik, doktor... Shuning uchun oyim va uning yolg'iz o'g'li men, ikkimiz bizning sizga minnatdorligimiz alomati bo'lmish mana bu narsani qabul qilishingizni o'tinamiz... O'zi juda qimmatbaho narsa, qadimgi bronzadan ishlangan... Kamdan kam uchraydigan san'at asari.

– Hech keragi yo'q! – dedi doktor, aftini burishtirib.

– Yo'q demang endi, – dedi Sasha, qog'ozni ochaturib. – Olmasangiz meni ham, oyimni ham xafa qilasiz... Juda asl narsa o'zi... Qadimgi bronzadan ishlangan... Marhum dadamdan qolgan, biz buni qimmatli yodgorlik deb saqlab kelardik... Dadam qadimgi bronzadan qilingan narsalarni olib ishqibozlarga sotardi. Hozir oyim ham, men ham shu ish bilan mashg'ulmiz...

Sasha qog'ozni ochdi-da, keltirgan narsasini tantanali suratda stolga qo'ydi. Bu narsa qadimgi bronzadan nafis ishlangan pastak

qandil edi. Qandil bir guruh odamlarni tasvir etardi: quyidagi supachaga Momahavo kiyimlarini kiygan ikki xotinning figurasi o'rnatilgan, ularning turish-turmushi shunday ediki, uni yozib tasvirlash uchun jasoratim ham yetmaydi, ehtirosim ham. Figuralar tannozlik bilan jilmayishar, shamdonni ko'tarib turish vazifasi bo'lmasa, supachadan sakrab tushib, uy ichini tasavvur etib bo'lmaydigan darajada ostin-ustin qiladiganday ko'rinar edilar.

Doktor sovg'aga birpas qarab turdi-da, qulog'ining orqasini qashladi, keyin bir yo'talib, burnini qoqdi.

– Aytganingiz rost, asl narsa ekan, – dedi u, po'ng'irlab. – Ammo, nima desam ekan... Hech kimga ko'rsatib bo'lmaydigan narsa ekanda... ayib...

– Ya'ni nega endi?

– O'taketgan ustasi ham bundan battarini o'ylab topolmas. Bu narsani stolga qo'yish – butun uyni xarom qilish demakdir.

– San'atga nega bunday ko'z bilan qaraysiz, doktor, – deb xafa bo'ldi Sasha. – Axir, bu san'at asari, o'zingiz bir qarang! Bundagi nafislik va go'zallikdan kishining yuragi shodlikka, ko'zi yoshga to'ladi! Bunday go'zallikni ko'rgan kishi butun dunyoni unutib yuboradi... Bir qarang, qanday malohat, qanday nafosat, orzu bor bunda!

– Buni o'zim ham ko'rib turibman, azizim, – dedi doktor, Sashaning so'zini bo'lib. – Ammo, men oilali, bola-chaqali odamman, uyimga turli-tuman xonimlar kelib turadi...

– Albatta, agar nodon xalq nazari bilan qaralsa bu yuksak san'at asari boshqacha bo'lib ko'rinadi... – dedi Sasha. – Ammo siz, doktor, oddiy xalqdan baland turmog'ingiz kerak. Bu narsani qabul qilmasangiz meni ham, oyimni ham qattiq xafa qilasiz. Men oyimning yolg'iz o'g'liman... Siz meni bir o'limdan qutqardingiz... Biz sizga eng qimmatbaho buyumimizni taqdim etayotibmiz... Faqat shunga mos keladigan boshqa narsangiz yo'qligi meni achintiradi...

– Rahmat, rahmat, azizim, ko'p minnatdorman... Oyingizga salom ayting. Ammo, yana bir o'ylab ko'rsangiz bo'lardi, har holda bola-chaqalar bor, xotin-xalajlar kelib turadi... Ha mayli, qolsa qola-qolsin! Baribir, sizga tushuntirish qiyin.

– Tushuntirib o'tirishning hojati yo'q, – dedi xursand bo'lib ketgan Sasha. – Qandilni mana bu yerga vazaning yoniga qo'ying! Attang, jufti yo'q-da... Eh, attang! Xo'b, xayr endi, doktor!

Sasha chiqib ketgandan keyin doktor ancha vaqtgacha qandilga qarab o'tirdi, qulog'ini orqasini qashib, uzoq o'yladi.

«O'zi yomon narsa emas, bunisi to'g'ri, – deb o'yladi u. – Uloqtirib tashlash uvol... Bu yerda qoldirib ham bo'lmaydi... Abbo! Toza mushkul ishga yo'liqdimmi! Kimga hadya qilsam ekan?»

Uzoq o'ydan keyin Uxov degan o'zining qalin o'rtog'i esiga tushdi. O'rtog'i advokat bo'lib, doktorning janjalli ishlarini boshqarar edi.

– Juda soz-da, – dedi doktor, o'ziga o'zi. – Oshnalik vajidan mendan sira pul olmaydi. Biron narsani hadya qilsam – juda xursand bo'ladi. Mana shuni olib borib beraqolaman! O'zi ham bo'ydoq va yengiltak odam...

Ishni keyinga qo'ymay, doktor darhol kiyindi-da, qandilni ko'tarib Uxovnikiga ketdi. Advokat uyida ekan.

– Yaxshimisan, og'ayni! – dedi doktor, advokatga. – Menga qilgan xizmatlaring uchun tashakkur bildirgani keldim... Pul bersam olmaysan, juda bo'lmasa mana buni ol... Mana, buni ol... Mana, ko'rdingmi, og'ayni... Juda ajoyib narsa!

Ajoyib narsani ko'rishi bilan, advokat o'zida yo'q sevinib ketdi.

– Ana xolos! – dedi u, qah-qah urib kulib. – Voy qurib ketgur-ey! Shunaqa narsalarni ham o'ylab topishadi-ya! Haqiqatan ham ajoyib narsa ekan. Qayerdan topding buni?

Advokat, ichidagi butun sevinchini izhor qilib bo'lgach, uyning eshigiga qo'rqa-pisa ko'z tashladi-da:

– Yo'q, birodar, buning olib ket bu yerdan, men olmayman... – dedi.

– Nega olmaysan? – dedi doktor, qo'rqib ketib.

– Olmayman-da... Uyimga onam kelib turadi, mijozlar keladi... xizmatchi xotinlar oldida ham uyat...

– Bu gaplaringni qo'y, og'ayni... Sovg'adan ham qaytib bo'ladimi! – deb turib oldi doktor. – Olmasang cho'chqalik qilgan bo'lasan. O'zi juda nafis narsa... Qanday nafosat!.. Qanday malohat, orzu bor bunda... Bo'ldi, gap tamom! Xafa bo'laman, olmasang!

– Ba'zi joylari yopiq yoxud barg bilan berkitilgan bo'lsa ham mayli edi...

Doktor avvalgidan battar qattiq turib oldi. Sovg'ani boplab o'tkazganidan xursand bo'lib, Uxovnikidan chiqib, uyiga ketdi...

Doktor ketganidan keyin advokat qandilni yaxshilab qarab chiqdi, u yer bu yerini ushlab ko'rdi, keyin xuddi doktor singari «buni nima qilaman?» deb uzoq bosh qotirdi.

«O'zi yomon narsa emas ekan, – deb o'ylardi u. – Tashlasang uvol bo'ladi, bu yerda qoldirish ham uyat. Yaxshisi, biron kishiga taqdim etish qo'yishda... Ha, ha, topdim! Bu qandilni bugun kechqurun qiziqchi artist Shashkinga taqdim etaman... u ablah bunaqa narsalarga o'ch. Aytmoqchi, bugun uning benifisi-ya...»

Aytilgan gap – otilgan o'q. Juda puxta o'ralgan qandilni Uxov kechqurun qiziqchi artist Shashkinga taqdim etdi. Yarim kechagacha Shashkinning pardozxonasi sovg'ani ko'rish uchun kelgan erkak artistlar bilan liq to'la edi, pardozxonadan hadeb ot kishnaganday kulgi eshitilardi. Biron artistka eshik oldiga kelib: «Kirsam maylimi?» deb so'rasa, qiziqchi artistkaning darhol:

– Yo'q, yo'q, xonim, men kiyingan emasman! – degan tovushi eshitilardi.

Tomoshadan keyin artist kiftini qoqib:

– Bu yaramas narsani endi nima qilaman? Axir, birovning uyida ijaraga tursam, uyimga artistkalar kelib turadi... Bu fotorasm emaski, darrov stol ichiga yashirib qo'ysang... – derdi.

– Oborib soting, qo'ying, – deb maslahat berdi, artistni yechintirayotgan sahna sartaroshi. – Bir joyda shunaqangi qadimgi bronzalarni olib sotuvchi bir kampir bor. Borib Smirnovani so'raysiz... Hamma taniydi.

Qiziqchi artist sartaroshning maslahatiga kirdi... Shu voqeadan ikki kun keyin doktor Koshelkov o'z kabinetida barmog'ini peshonasiga tirab, me'da kislotalari to'g'risida o'ylab o'tirardi. Birdan eshik ochilib, kabinetga Sasha Smirno yugurib kirib keldi.

Uning og'zi qulog'iga yetgan, yuzida shodlik aks etar, yurish-turishida baxtiyorlik ko'rinib turar edi... Qo'lida gazetaga o'ralgan bir narsa ko'targan edi.

– Doktor! – deb gap boshladi Sasha, nafasi bo'g'ilib. – Shu topda dunyoda mendek xursand odam bo'lmasa kerak! Baxtingizga qandilingizning juftini topishga muvaffaq bo'ldik!.. Oyim ham juda xursandlar... Men oyimning yolg'iz o'g'liman... Siz meni bir o'limdan olib qoldingiz...

Minnatdorligidan titroq bosgan Sasha doktorning oldiga qandilni keltirib qo'ydi. Doktor bir nima demoqchi bo'lib, og'zini ochgan edi, hech narsa deya olmadi: tili tanglayiga yopishib qolgan edi...

MUSHTIPAR

Kistunovning kechasi qattiq bod kasali tutib, asablari qo'zg'ab, nari borib, beri kelgan bo'lsa ham ertalab ishga bordi-da, arizachilar va bank mijozlarini o'z vaqtida qabul qila boshladi. U charchagan va azob chekkan kishiday ko'rinar, xuddi jon berayotgan bemorday, zo'rg'a nafas olib gapirardi.

– Xo'sh, xizmat? – dedi u, ustiga daqqiyunusdan qolgan libos kiygan, orqasidan xuddi go'ng qo'ng'izga o'xshagan ayolga qarab.

– Mening arzimga quloq soling, janobi oliylari, – deb gap boshladi arz qilib kelgan xotin, chakagi chakagiga tegmay. – Erim kollejskiy asessor Shchukin besh oy betob bo'lib yotib qoldi. Men sizga aytsam, erim shu besh oy kasal bo'lib, shifolanib yotganida, hech qanday vajsiz uni ishdan bekor qilib qo'yishipti. Oyligini olgani borsam, oyligidan 26 so'm-u 36 tiyinini ushlab qolishipti. «Nima vajdan endi» deb so'radim, «Eringiz o'zaro yordam kassasidan qarz olgan edi, boshqa amaldorlar unga kafil bo'lishgan» deyishadi. Bu qandog' bo'ldi? Mendan ijozat olmasdan turib sirayam pul olmasdi. Bunday bo'lishi mumkin emas, janobi oliylari! Nega bunday qilishadi endi? Men bir bechora ayol bo'lsam, faqat ijrachilarimdan tushadigan pul bilan kun ko'rsam... O'zim bir mushtipar ayolman, yo'qlaydiganim yo'q... Hamma meni xo'rlaydi, hech kimdan yaxshi gap eshitmayman...

Arz qilib kelgan xotin kipriklarini pir-pir uchirdi-da, cho'ntagidan dastro'mol chiqarib, ko'ziga tutdi.

Kistunov uning arizasini olib, o'qiy boshladi.

– Kechirasiz, gapingizga tushunolmay qoldim, – dedi Kistunov kiftini uchirib. – Siz bu yerga adashib kelib qolgansiz, nazarimda, xonim. Arizangizning bizga sira dahli yo'q. Eringiz xizmat qilgan mahkamaga borib arz qilishingiz kerak.

– Yo'g'-ey, baraka topkur! – dedi Shchukina. – Besh joyga borib arz qildim, arizamni hech kim qo'liga ham olib ko'rmadi.

Kuyovim Boris Matveich sizni aytmasa, nima qilarimni ham bilmay qolgan edim. «Siz Kistunov degan janobga murojaat qiling, uning qo'li baland, aytganingizni qilib beradi» dedi. Yordamingizni ayamang, janobi oliylari!

– Shchukina xonim, bizning qo'limizdan hech narsa kelmaydi... Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring, mening bilishimcha, eringiz harbiy-tibbiyot mahkamasida xizmat qilgan, bizning mahkamamiz mutlaqo xususiy idora, tijorat idorasi, bu yer bank deb ataladi! Shunga ham tushunmaysizmi!

Kistunov «hayronman» deganday yana yelkasini qisdi-da, harbiycha kiyingan va lunjini bog'lagan kishiga o'girildi.

– Janobi oliylari, – dedi yana Shchukina, mungli bir tovush bilan, – erimning kasal yotganligiga spravkam ham bor. Mana, o'zingiz bir qarang.

– Juda yaxshi, gapingizga men ishonaman, – dedi Kistunov, ranjigan holda. – Ammo yana takror aytamanki, buning bizga hech dahli yo'q. Ajabo, nahotki qayerga arz qilishni eringizning o'zi bilmasa?

– U noshud, hech narsani bilmaydi, janobi oliylari! «Bu sening ishing emas! Aralashma!»dan boshqa hech narsani bilmaydi... Mening ishim bo'lmasa, kimning ishi bo'lardi? Axir, barisi mening ustimga chiqib olishgan! Mening ustimga!

Kistunov yana Shchukinaga o'girilib, harbiy-tibbiyot mahkamasi bilan xususiy bank o'rtasidagi tafovutni tushuntirishga kirishdi. Xotin uning gapini diqqat bilan tinglab, tushundim deganday boshini egadi-da, keyin:

– Durust, durust. Tushundim, inim, tushundim, – dedi. – Undog' bo'lsa, janobi oliylari, odamlaringizga buyuring, juda bo'lmasa 15 so'mini berishsin! Qolganini keyin olsam ham mayli.

– Uhh, – dedi Kistunov, shipga qarab. – Farosat bormi o'zi? Bunday arz bilan bizga murojaat etish eringizdan ajralish to'g'risida, dorixonaga yoki shisha zavodiga arz qilish bilan baravar, tushundingizmi endi? Eringizning pulidan ushlab qolishgan ekan, bizga nima?

– Janobi oliylari, o'la-o'lgunimcha sizni duo qilib yuray, – dedi Shchukin, ko'z yoshi qilib, – men mushtiparga rahmingiz

kelsin! Men bir mushtipar ayolman, himoyachim yo'q... Qiynalganimdan o'lib bo'ldim... Ijarachilar bilan sudlashsam, erimning tashvishini tortsam, uy-ro'zg'orga qarasam, buning ustiga kuyovim ham beamal bo'lsa... Nomiga yeyman, ichaman, aslini surishtirsangiz, zo'rg'a yuraman... Tuni bilan uxlamay chiqdim.

Kistunovning yuragi gupillab ura boshladi. Aftini burishtirib, qo'lini chap ko'kragiga qo'yib, Shchukinaga yana gap tushuntira boshlagan edi, biroq ovozi bo'g'ildi...

– Yo'q, kechirasiz bo'ldi, siz bilan so'zlashishga toqatim qolmadi, – dedi u, qo'lini siltab, – sizga gap tushuntiraman deb boshim aylanib ketdi. Bizni ham ishdan qoldiryapsiz, o'zingiz ham bekor vaqt sarflab o'tiribsiz. Uhh!.. Aleksey Nikolaich, – dedi, xizmatchilardan biriga, – Shchukina xonimga siz gap tushuntiring!

Kistunov qabulxonada o'tirganlarning arzini eshitib bo'lgach, o'zining kabinetiga kirib ketdi-da, o'n-o'n beshta qog'ozga qo'l qo'ydi, Aleksey Nikolaich hamon Shchukina bilan ovora edi. Kistunov o'zining kabinetida o'tirib, Aleksey Nikolaichning g'udillagan va bosinqi tovushini va Shchukinaning yig'i aralash chiyillagan ovozini eshitib o'tirardi.

– Men bir ojiz mushtipar, kasalvan ayolman, – derdi Shchukina. – Aftimdan baquvvat ko'rinsam ham, surushtirib qaraganda bitta ham sog' tomirim yo'q... Ishtaham ham qochgan, zo'rg'a yuraman... Bugun ertalab kofeni ham zo'rg'a ichdim. Mazasini ham bilmadim.

Aleksey Nikolaich bo'lsa hamma mahkamalar o'rtasidagi farqni, qaysi arizalarning qaysi idoraga borish kerakligini hamon tushuntirib yotardi. Axir charchagandan keyin uning o'rnini buxgalter bosdi.

– Shunaqa ham badhazm xotin bo'ladimi! – derdi Kistunov, jig'ibiyroni chiqqanidan barmoqlarini qirsillatib va grafindan dam-badam suv ichardi. – Juda ham ahmoq, befarosat xotin ekan-ku. Meni qiynadi, endi ularning ustiga chiqib miyalarini qoqib yeydi, bu! Uh... yuragim tars yorilib ketay deyapti-ya.

Yarim soatdan keyin qo'ng'iroqni bosdi. Kabinetga Aleksey Nikolaich kirdi.

– Xo'sh, nima bo'ldi u xotinning ishi? – deb so'radi Kistunov horg'in bir holda.

– Gapga tushuntiramiz deb o'lib bo'ldik, Petr Aleksandrovich! Qiynalib ketdik! Biz bog'dan kelsak u tog'dan keladi...

– Ovozini yana bir eshitsam o'laman... Tobim qochdi... Jonim bo'g'zimga keldi...

– Qorovulni chaqirib, ko'chaga haydab chiqartiramiz qo'yamiz.

– Yo'q, yo'q, aslo! – dedi Kistunov, qo'rqib ketib. – U dod-faryod ko'tarishi mumkin, bu uyda xonadonlar ko'p, tag'in ustimizdan gap-so'z bo'lib yurmasin... O'zingiz, yaxshilab tushuntiring, azizim.

Birozdan keyin yana Aleksey Nikolaichning g'o'ng'ir-g'o'ng'ir tovushi eshitildi. Chorak soatcha vaqt o'tdi, uning o'rnini buxgalterning jaranglagan ovozi bosdi.

– Juda qabih xotin ekan! – deb g'azabi qaynab Kistunov, asabiylashib ketganidan yelkalari dag'-dag' qaltirardi. – Eshakdan ham battar befahm ekan... Yana bod qo'zg'adi...

– ...Boshim lo'qillab og'riyapti...

Narigi uyda Aleksey Nikolaich juda kuchdan tolib, barmog'i bilan stolni urdi, keyin peshonasini urib ko'rsatdi.

– Xullas, bosh deb qovoqni ko'tarib yurgan ekansiz, – dedi axiri, toqati toq bo'lib.

– Ha, nima deyapsan o'zing! – deb xafa bo'ldi kampir. – Bu gaplarni xotiningga borib ayt! Amaldor bo'lmay ket! Qo'lingga erk berma.

Aleksey Nikolaich, darg'azab holda uni bo'g'ib o'ldirguday bo'lib qaradi-da, bo'g'iq tovush bilan sekin:

– Yo'qol hozir bu yerdan, – dedi.

– Nima deyapsan? – deb birdan chinqirib yubordi Shchukina. – Nima haqingiz bor? Men bir mushtipar ojiz ayol bo'lsam, men bunga sira chidab turolmayman! Erim kollejskiy asessor bo'ladi! Voy, sening amalingga! Advokat Dmitriy Karlichning oldiga borib bir arz qilsam, nom-u nishoning qolmaydi! Uchta ijarachini qamattirdim, bunday betamiz gaplaringga oyog'imga yiqilib uzr so'raysan hali. Men senlarning generalingga borib ustingdan arz qilaman! Janobi oliylari! Hoy janobi oliylari!

– Yo'qol deyman hozir bu yerdan, ablah! – deb o'shqirdi Aleksey Nikolaich.

Kistunov eshikni ochib, mahkamaga qaradi.

Tag'in nima gap? – deb so'radi, yig'lagudek bo'lib. Qisqich-baqaday qizarib ketgan Shchukina uyning o'rtasida turib olib, ko'zlarini javdiratar, qo'llarini paxsa qilar edi. Bank xodimlari ham qip-qizarib atrofida tizilib turishar va juda holdan toyib, bir-birlariga qarardilar.

– Janobi oliylari! – deb tashlandi Shchukina, Kistunovga. – Mana bu... mana bu odam... (xotin Aleksey Nikolaichni ko'rsatib) barmog'i bilan peshonasini, keyin stolni qoqib ko'rsatdi. Siz unga mening arzimni tinglashga buyursangiz, u meni masxara qiladi! Men bir mushtipar ojiz ayol... erim kollejskiy asessor... o'zim mayorning qizi bo'lsam!

– Xo'p, xonim, arizangizni o'zim ko'rib chiqaman... – dedi Kistunov zo'rg'a. – Chorasini ko'raman... Endi keting!.. Keyin kelarsiz!..

– Pulni qachon olishim mumkin, janobi oliylari? Menga bugun pul juda zarur!

Kistunov dag'-dag' titragan qo'li bilan peshonasini siladi-da, uh tortib, yana tushuntirishga kirishdi:

– Xonim, men sizga hammasini aytib tushuntirdim-ku, axir! Bu yerni bank deydilar, xususiy tijorat idorasi... Yana nima deysiz, endi? Siz bizni ishdan qoldirayotipsiz, tushunasizmi?

Shchukina gapni tinglab bo'lib, uh tortdi.

– Mayli, mayli... – dedi u, – faqat, janobi oliylari, o'zingiz rahm qiling, o'lgunimcha duo qilay, meni himoya qiling, otam bo'ling. Agar doktor spravkasi kamlik qilsa, uchastkadan ham spravka keltirib beraman... Ayting, pulni berishsin!

Kistunovning ko'zlari jimirlab ketdi. U o'pkasidagi butun nafasini puf deb chiqardi-da, holdan toyib, stulga o'tirib qoldi.

– Necha pul deysiz? – deb so'radi, holsiz tovush bilan.

– 24 so'm-u 36 tiyin.

Kistunov cho'ntagidan hamyonini chiqarib, 25 so'mlik pulni oldi-da. Shchukinaga berdi.

– Mana, buni oling-da... Keting!

Shchukina pulni dastro'moliga tugib, qo'yniga soldi-da, yuzi hatto satanglarning yuziday tirjayib, so'radi:

– Janobi oliylari, erimni yana ishga joylashtirib qo'yish qandog' bo'ldi?

– Hozir ketmasam bo'lmaydi... Kasalman... – dedi Kistunov, zo'rg'a. – Hozir yuragim qinidan chiqib ketadi...

Kistunov uyiga jo'nab ketishi bilan Aleksey Nikolaich Nikitani dorixonadan dori keltirishga yubordi. Amaldorlarning hammalari 20 tomchidan dori ichib, ishga kirishdilar. Shchukina esa yana ikki soatcha yo'lakda darvozabon bilan so'zlashib Kistunovni kutib o'tirdi.

U ertasi kuni ham keldi.

LATTA

Yaqinda men bolalarimning murabbiyasi Yuliya Vasilyevnaga haqini berish uchun kabinetimga chaqirdim.

– O'tiring, Yuliya Vasilyevna! – dedim. – Sizga pul kerak bo'lsa ham, soddadilligingizdan o'zingiz so'ragani uyalasiz... qani, o'zaro hisoblashib chiqaylik-chi. Biz sizning maoshingizni har oyga o'ttiz so'mdan gaplashgan edik...

– Qirq so'mdan...

– Yo'q, o'ttiz so'mdan... Menda yozilgan... Men murabbiyalarga hamma vaqt o'ttiz so'mdan to'lab kelaman. Xo'-o'sh, siz bizda ikki oy turdingiz...

– Ikki oy-u, besh kun...

– Menda yozilgan. Rosa ikki oy... Demak, sizga oltmish so'm tegadi... Siz Kolya bilan yakshanba kunlari mashg'ulot o'tkazganingiz yo'q, o'sha kunlari dam oldingiz, shuning uchun to'qqiz yakshanbani chiqarib tashlaymiz... Uch kun bayram...

Yuliya Vasilyevna birdaniga qizarindi, ko'ylak burmasini g'ijimladi-yu, lekin hech nima demadi!..

– Uch bayram kuni... Demak, o'n ikki so'm... Kolya kasal bo'lib qolib, to'rt marta dars bo'lmadi, o'sha kunlari siz mashg'ulotni faqat Varya bilangina o'tkazdingiz... Uch kun tishingiz og'ridi, xotinim peshindan keyin uyga qaytishingizga ijozat berdi... O'n ikki so'm va yetti so'm, demak, yana o'n to'qqiz so'mni chiqarib tashlaymiz... Qoladi qirq bir so'm. To'g'rimi?

Yuliya Vasilyevnaning chap ko'zi qizarib, yoshga to'ldi. Iyagi titradi, asabiylashib yo'taldi; burnini qoqdi, lekin g'ing demadi.

– Yangi yil oldidan bir tarelka bilan chashkani sindirdingiz. Buni ikki so'm deylik, idishga familiya yozilgan edi, qimmatroq bo'lsa ham, mayli, roziman! Bizning haqimiz kimlarda ketmagan deysiz! So'ngra sizning beparvoligingiz natijasida

Kolya daraxtga chiqib, kamzulini yirtib tushdi, bu ham o'n so'm... yana sizning yaxshi qaramaganligingiz natijasida uy xizmatchisi Varyaning botinkasi o'g'irlangan. Axir, siz maosh olasiz, shularning ustidan nazorat qilib turishingiz kerak. Demak, yana besh so'm... O'ninchi yanvarda mendan o'n so'm qarz oldingiz...

– Men olganim yo'q, – dedi Yuliya Vasilyevna, sekingina.

– Menda hammasi yozilgan.

– Xayr, mayli... yaxshi.

– Qirq bir so'mdan yigirma yetti so'mni chiqarib tashlasak o'n to'rt so'm qoladi...

Murabbiyaning ikki ko'zi yoshga jiq to'ldi... Uzun, chiroyli burni terlab ketdi. Bechora qiz!

– Men faqat bir martagina oluvdim, – dedi u, qaltiroq tovush bilan. – Bekachingizdan faqat bir marta uch so'm olganman, xolos... Shundan boshqa pul olganim yo'q...

– Hali shundaymi? Men buni yozib qo'ymagan ekanman! O'n to'rt so'mdan uch so'min chiqarsak – o'n bir so'm qoladi... Oling pulingizni jonim! Mana, uch... uch... uch... bir, tag'in bir so'm... oling!

Men unga o'n bir so'mni berdim... Pulni titroq qo'llari bilan olib, cho'ntagiga soldi.

– Mersi![1] – dedi pichirlab.

Men o'rnimdan sakrab turib ketib, uy ichida yura boshladim. Juda jahlim chiqib ketgan edi.

– Nega menga mersi deysiz? – dedim.

– Pulingiz uchun...

– Axir, pulingizni o'g'irlab o'tiribman-ku, men sizni taladim-ku! Pulingizni o'g'irladim! Nega tag'in menga mersi deysiz?

– Boshqa joylarda menga shuni ham bermas edi...

– Berishmas edi? Ajab emas! Men sizga hazillashdim, sizga unutilmas saboq berdim. Men sizning sakson so'm pulingizni beraman, ana, konvertga solib tayyorlab qo'yganman. Odam ham shunday latta bo'ladimi? Nega haqingizni talab qilmaysiz?

---

[1] Mersi – rahmat.

Nega tek turasiz? Bu zamonda odam o'tkir tishli bo'lishi kerak! Odam shunday bo'shang bo'ladimi?

U bo'shashib kuldi. Uning yuzidan: «Bo'lishi mumkin!» degan ma'noni o'qidim.

Unutilmas saboq uchun undan kechirim so'radim-da, qo'liga sakson so'mini berdim. U qo'rqa-pisa chiqib ketdi... Uning ketidan qarab turib: bu dunyoda kuchli bo'lish oson ekan! – deb o'yladim.

KISHI BILMAS KO'Z YOSHLARI

Simyog'ochday uzun va oriq podpolkovnik Rebrotesov avgustning qorong'i kechalaridan birida ulfatlari bilan takyadan chiqib kelaturib:

– Muhtaram afandilar, – dedi, – endi ovqat yesak chakki bo'lmasdi. Masalan, Saratov va shunga o'xshash tuzukroq shaharlarning takyalarida har vaqt ovqatlanishing mumkin. Bu sassiq Chervyanskiydachi, arog'-u pashsha tushgan choydan boshqa hech balo yo'q. Ichganingdan keyin gazagi bo'lmagani yomon!

Izg'irindan nimdoshgina paltosiga o'ralayotgan, diniy maktab inspektori – Ivan Ivanovich Dvoyetochiyev ham:

Shuni ayting, – dedi, – biron narsa yeb olsak joyida bo'lardi. Hozir soat ikki, hamma choyxonalar yopilib qolgan. Tuzlangan baliqmi... tuzlangan qo'ziqorinmi... yoki shunga o'xshagan, chunonchi...

Inspektor barmoqlari bilan bir narsaning shaklini ko'rsatib imo-ishora qildi. Aftidan, juda shirin ovqatni aytdi, shekilli, hamma yutindi. Ulfatlar to'xtab, o'ylab qolishdi. O'ylay-o'ylay, yeydirgan bir narsani vujudga keltirolmaganlaridan keyin, turli shirin ovqatlarni xotirdan kechirdilar:

– Kecha men Golopesovnikida yaxshi pishirilgan kurka go'shti yedim, – deb chuqur nafas oldi ispravnik yordamchisi Prujina-Prujinskiy. – Aytmoqchi, afandilar, hech biringiz Varshavada bo'lganmisiz? Ular shunday qilishadi: mayda baliqni olib tiriklayin sutga solib qo'ydilar... Balig'i qurg'uni, bir kun sutda suzib yurgandan keyin, ertasiga qizib turgan qozonga solib, qaymoqqa qovirishadi. Ana uni yeb ko'rsang. Uka, hech qanday qazi-qartani orzu qilmay qolasan! Xudo haqi... Ajoyib narsa bo'ladi, qiyomat! Ayniqsa, bir-ikki ryumka araq ichib yuborsang bormi, tomog'ingdan qanday o'tganini bilmaysan... Bay-bay, uning hidini aytmaysizmi!..

– Agar tuzlangan bodiringdan qo'shib yesang... – deb qo'shib qo'ydi. Rebrotesov – Biz Polshada askarlikda yurganimizda bir yeyishda chuchvaraning ikki yuztasini urib olardik... Laganni to'ldirib, uning ustiga murch, kashnichlarni sepsang bormi... Nimasini aytasiz!

1856-yilda Troiskiy lavrasiga ziyoratga borganda ichgan baliq sho'rvasi yodiga tushdi-da, Rebrotesov to'xtab o'ylanib ketdi. Bu shirin xayol uni shunday elitdiki, beixtiyor tamshanib yutinarkan, hatto kalishiga loy to'lganini ham sezmay qoldi.

– Yo'q, bu bilan ish bitmaydi! Toqatim qolmadi! Uyga borib, bir ilojini qilmasam bo'lmaydiganga o'xshab qoldi, – dedi. – Hay, afandilar, biznikiga boraqolaylik! Xudo haqi! Bir ryumkadan araq ichamiz. Bodringmi, qazimi... ishqilib, nasib qilganini yeb, choypoy icharmiz... A, nima deysiz? Ovqat yeyishib, o'tgan-ketgandan gaplashib o'tiramiz. Xotinim bo'lsa uxlab yotgandir, biz uni uyg'otib ham o'tirmaymiz... Sekin kirib ketamiz... Qani yuringlar!

Ulfatlar bu taklifni qanday xursandlik bilan qabul qilishganini tasvirlashga o'rin yo'q. Shuni aytish kerakki, Rebrotesovning uyiga borishga hech qachon bu kechadagi kabi talabgorlar ko'p bo'lgan emas.

Rebrotesov mehmonlarni qorong'i dahlizga olib kirarkan, xizmatkoriga:

– Bir kun mendan tarsaki yeysan-da! – dedi. – Sen ablahga ming marta aytdimki, dahlizda yotadigan bo'lsang tamakini xushbo'y qog'ozga o'rab chek, deb! Bor, ahmoq! Samovarga olov tashla! Irinaga ham ayt, u haligi... yerto'ladagi bodring va turpdan keltirsin... Tuzlangan baliqdan ham tozala... Ko'k piyozdan to'g'ra, ukrop-kashnichlardan mo'lroq sep... Kartoshka va qizilchani pishirib, to'g'ra... Keyin hammasini qo'shib, ustiga yog' bilan sirkadan quy... Gorchitsa bilan qalampir ham sol... Tushundingmi?

Rebrotesov, barmoqlari bilan haligi narsalarni aralashtirishni ko'rsatib, aytib bitirolmagan narsasini imo-ishora bilan tushuntirib ketdi. Mehmonlar, kalishlarini yechib, qorong'i uyga kirishdi. Mezbon gugurt chaqib, uyni oltingugurt hidiga to'ldirdi va Neva manzaralari, Venetsiya ko'rinishlari, adib Lajechnikov

surati va ko'zlarida hayronlik alomati zohir bo'lgan qandaydir bir generalning rasmi bilan bezalgan devorlarni yoritdi. U stolni kengaytirarkan:

– Hozir, – dedi, – shu yerda o'tira qolamiz... Bugun Mashamning biroz tobi yo'q, xotinlar kasali bo'lsa kerak... Aybga qo'shmaysizlar... Doktor Gusin yovg'on ovqatdan deydi... Ehtimol shundaydir! Men bo'lsam «Jonim, gap ovqatda emas! Shariatda ham og'iz tekkandan ko'ra og'zingdan yomon so'z chiqqani gunoh deydilar. Yovg'on ovqat ichsang ham tajangliging avvalgidan kamaygani yo'q... Undan ko'ra o'zingni ko'p koyitma, sal gapga tutoqib, hadeb qaqshayberma» deydi.

Denshik kirdi va bo'ynini cho'zib, xo'jayinining qulog'iga shivirlagan edi, Rebrotesovning qoshlari chimirilib ketdi.

– Him, xo'p... Xo'sh... Mayli, hechqisi yo'q... O'zim hozir... Masha xizmatkorlardan yerto'la va javonlarni qulflab olgan edi. Kalitni olib chiqay...

Rebrotesov oyoq uchida yurib xotini yotgan uyga kirdi, xotini uyquda edi. U asta krovat yoniga borib:

– Masham! Tur Mashaginam! Bir daqiqaga ko'zingni ochgin!

– Kim? Senmi? Nima deysan?

Men, Mashaginam, nima demoqchiydim... Haligi, kalitlarni bergin farishtam, keyin bemalol uxlayber... Mehmonlarni o'zim jo'nataman... Bittadan bodring beraman, xolos. Xudo haqi, boshqa narsaga tegmayman... Dvoyetochiyev, Prujina-Prujinskiy yana bir-ikkitalar... Hammasi ham tuzuk odamlar... Obro'li... Prujinskiy to'rtinchi daraja Vladimir ordeni olgan... U seni shunday hurmat qiladiki...

– Qaysi go'rdan ichib kela qolding?

– Darrov jahling chiqadi-ya... Alomatsan-da... Bittadan bodring beraman, xolos... Shu bilan ketishadi... Hamma ishni o'zim qilaman, seni bezovta qilmaymiz... Yot, qo'zim... Ahvoling qalay? Doktor Gusin keldimi? Qo'lingdan bir o'pib qo'yay... Kelganlarning hammasi ham seni shunday izzat qilishadiki... Dvoyetochiyevni bilasan-ku, ruhoniy odam... Prujina bo'lsa g'aznachi, hammalari ham seni shunday maqtashadiki,

«Mariya Petrovna xotin emas, farishta, uyezdimizning yorug' yulduzi, desak bo'ladi», deyishadi.

– Yot! Ko'p aljirama! Takyaga borib qayerdagi shallaqilar bilan o'lguncha ichadi-da, kechasi kelib yana hammani kovlashtirib yuradi! Bola-chaqang bor, uyal!

– Shukur, bola-chaqam bor... Lekin ko'p koyima, qo'zichog'im... Diqqat bo'laberma... Seni qancha yaxshi ko'raman, qanday qadrlayman! Xudo xohlasa, bolalarimni ham o'z joyiga joylashtiraman... Mana Mityani bo'lsa gimnaziyaga kirgazib qo'yaman... Axir kelgan odamni ket deb bo'lmaydi... Uyat emasmi... Siznikiga mehmon bo'lamiz deb orqamdan kirishdi-da, ovqat-povqatingiz bormi deyishyapti... Dvoyetochiyev, Prujina-Prujinskiy... shunday yaxshi odamlar... Seni ham juda hurmat qilishadi. Bittadan bodring bilan bir ryumkadan araq bo'lsa bas... Shu bilan ketishadi... Men o'zim kuzataman.

– Bu qanday gap-a! Esingni yedingmi? Qanaqa mehmon u? Bu sayoqlar kechasi birovni bezovta qilgani uyalishsa-chi! Yarim kechada ham mehmonga boradimi kishi? Yo mening uyim ularga karvonsaroymi? Kalit beradigan ahmoq yo'q! Borib uxlashsin-da, mehmonga kunduz kelishsin!

– Him... shunday demaysanmi... Boyadan buyoqqa senga yalinib ham o'tirmasdim... Bundan chiqdiki, sen shariat buyurgancha eringning umr yo'ldoshi va og'irini yengil qiladirgan xotin emas, zaharlik ilon ekansan-da... Ilonsan....

– Iye, hali so'kishga tushdingmi!

Xotin boshini ko'tardi. Rebrotesov yuzini ushlab davom etdi:

– Qulliq!.. Bir vaqtlar bir jurnalda odamlar oldida farishta bo'lgan xotin – uyda eri bilan shaytoni lain, deb o'qigan edim. O'sha juda to'g'ri ekan. Iblisdan qayering kam...

– Mana!

– Ur! Bitta-yu bitta eringni ur!.. Jahlingdan tush, sendan tiz cho'kib so'rayapman... Yalinyapman... Qo'zichog'im kechir... Kalitni ber! Farishtam! Shuncha ham rahmsizsan-a... Beraqol endi. Odamlarning oldida sharmanda qilmagin! Noinsof! Nega muncha qiynaysan? Oyog'ingga bosh urib so'rayapman!

Er-xotin o'rtasidagi bu mojaro uzoqqa cho'zildi... Rebrotesov urishib boqdi, tiz cho'kib ko'rdi, ikki marta ko'z yoshi ham qildi. Tez-tez yuzini silashga ham to'g'ri keldi... Xullas, xotin jahl bilan o'rnidan turdi-da:

– Qutilmaydiganga o'xshayman, ko'ylagimni olib ber, johil! – dedi.

Rebrotesov avaylab, ezmasdan xotinining ko'ylagini olib berib, o'zi sochlarini tuzatgancha mehmonlar oldiga chiqib ketdi. Mehmonlar general rasmi qarshisida, uning hayron bo'lib turgan ko'zlariga boqishib, kim buyuk – generalmi yoki Lajechnikov, degan masalani yechishmoqda edilar. Dvoyetochiyev adibning nomi abadiy qolishdan bahs etib, Lajechnikovni yoqladi. Prujinskiy bo'lsa:

– Yozuvchining yaxshiligida so'z yo'q... Odamni ham kuldiradi, ham yig'latadi, lekin uni urushga yuborsang bitta rotani ham eplay olmaydi. Generalga butun boshliq korpusni topshirsang ham hech gap emas...

– Masha hozir... – deb uyga kirgan mezbon ularning so'zini bo'ldi, – hozir chiqadi...

– Sizni juda ovora qilib qo'ydik shekillik... Fedor Akimich, iye, yuzingizga nima qildi? Yo pirim, ko'zingizning tagi ham ko'karipti-yu! Darrov qayerdan undira qoldingiz?

– Yuzimmi? Nima qilipti? – mezbon xijolat tortdi. – Ha, aytganday! Hali sekin borib Mashani cho'chitaman desam, qorong'ida karavotga urib oldim. Xoxo... xoxo... Ana, Masha ham chiqdilar... Masha, jonim, paxmoqligingni ko'r, xuddi Luiza Mishelning o'zginasi-ya!

Xursand, sochlari to'zg'igan, uyquli ko'zlari bilan kulib mehmonlar oldiga kirib kelgan Mariya Petrovna:

– Mana bu juda yaxshi, xush kelibsizlar! – deb so'z boshladi – kunduz kelmaganlaringizdan keyin, erim bechora kechasi bo'lsa ham zo'rlab olib kelganga o'xshaydi. Uyqu ichida tovushlaringiz qulog'imga kirdi... Bular kim ekan, deb hayron bo'ldim... Fedya yotaber desa ham ko'nglim bo'lmadi...

Mariya Petrovna oshxonaga borib kelgandan keyin darhol ovqatlar keltirildi...

Bir soatdan keyin harbiy ishlar boshlig'ining uyidan ulfatlari bilan chiqib kelayotgan Prujina-Prujinskiy o'ksinib, chuqur nafas oldi va:

– Xotinning bo'lgani yaxshi-da! Istagan vaqtingda yeysan, istagan vaqtingda ichasan... Sen to'g'ringda g'amxo'rlik qiladirgan odam bo'lganga nima yetsin?.. Fortepiano chalib beradi... Rebrotesov baxtlik-a? – dedi.

Dvoyetochiyev xayol surib borarkan, og'ir-og'ir nafas olar edi. Uyiga kelgandan keyin u shunchalik qattiq oh tortdiki, xotini uyg'onib ketdi.

– Sekinroq yursangchi ayiq! Hammaning uyqusini buzasan! O'lguday ichib keladi-da, tag'in shovqin soladi, turqing qursin! – dedi xotini.

– Urishishdan boshqani bilmaysanda-a! Rebrotesovning turmushini ko'rsang edi! Voy, qanday shirin hayot kechirishadi! Er-u xotinga qarab kishining havasi keladi. Men ham xotinim bor deb yurıbman-da, sen yalmog'izni olib, nariroq yot!

Inspektor ko'rpani boshiga tortib, o'z taqdiridan koyiganicha uyquga ketdi.

QAYNANA – ADVOKAT

Bu ish bir kun ertalab Mishel Puzirevning Liza Mamuninaga uylanganiga rosa bir oy bo'lgach ro'y berdi. Mishel ertalabki qahvani ichib, ishiga ketmoqchi bo'lib, shapkasini qidirib ko'z yugurtirayotgan chog'da, uning kabinetiga qaynanasi kirib keldi.

– Sizning besh daqiqagina vaqtingizni olaman, Mishel, – dedi qaynana. - Qovog'ingizni solmang, do'stim... Bilaman, kuyovlar qaynanalar bilan gaplashishni yomon ko'rishadi. Lekin, biz bir-birimizni anglaymiz, shekilli, Mishel. Biz qaynana-yu kuyov emas, aqlli odamlarmiz... Gapimiz – gapimizga to'g'ri keladi... Shunday-ku, a?

Qaynana va kuyov divanga o'tirishdi.

– Xizmatingizga tayyorman, ona!

– Siz aqlli odamsiz, Mishel, juda aqllisiz; men ham... befahm emasman... Bir-birimizni yaxshi tushunarmiz deb o'ylayman... Men ko'pdan beri siz bilan so'zlashmoqchi bo'lib yurgan edim, o'g'lim. Xudo haqqi, rostini ayting, qizimni nima qilmoqchisiz?

Kuyov baqrayib qoldi.

– Men, bilasizmi, roziman... Mayli! Nega rozi bo'lmas ekanman. Ilm yaxshi narsa, adabiyotdan xabarsiz qolish yaramaydi... She'riyat-da! Uni tushunaman! Xotin kishi o'qigan bo'lishi yaxshi... mening o'zim ham shunday tarbiya ko'rganman, bilaman... Lekin farishtam, bunchalik haddan oshirishning nima hojati bor?

– Masalan? Men uncha tushunolmay turibman...

– Men, sizning Lizamga qilayotgan muomalangizni tushunmayman! Siz unga uylandingiz; lekin u sizning xotiningizmi, umr yo'ldoshingizmi? U – sizning qurboningiz! Ilm, hali kitoblar, turli nazariyalar... Bular hammasi juda yaxshi narsalar, lekin do'stim, siz shuni ham yodingizdan chiqarmangki, u mening qizim bo'ladi! Men bunday ishga yo'l qo'ymayman! U mening jonim-tanim axir! Siz uni o'ldirayapsiz! Qarang, to'y bo'lganiga bir oy bo'lmasdan ozib, cho'pday bo'lib qoldi-ya! Ertadan kech-

gacha kitobga tikiladi, bema'ni jurnallarni o'qiydi! Qandaydir qog'ozlarni ko'chirib yozadi! Axir shu xotinlarning ishimi? Siz uni hech qayoqqa olib bormaysiz, mundoq o'ynab-kulsin demaysiz-a! Odamga qo'shilmaydi, raqslarga bormaydi! Shunday ham bo'ladimi! Hali biron marta balga borgani yo'q-a, biron marta!

– Biron marta bormagan bo'lsa, o'zi xohlamagan. Uning o'zi bilan so'zlashib ko'ring-chi... Ballaringiz, raqslaringiz haqidagi fikrni bilasiz-qo'yasiz. Yo'q, onajon! Sizlarning takasaltanligingizni u xushlamaydi! Agar u ertadan kechgacha kitobga tikilsa yoki ish ustida o'tirsa ishoning, buning uchun hech kim uning mulohazasiga halal berayotgani yo'q... Men uni shuning uchun ham yaxshi ko'raman-da... Shuning uchun hurmat bilan qulluq qilaman va iltimos qilaman, minba'd bizning oramizga tushmang. Agar biror narsa aytish kerak bo'lsa, Lizaning o'zi ham aytadi...

– Shundaymi? Siz hali uning ko'ngilchanglik qilayotganini, dami ichida ekanini bilmas ekansiz-da? Muhabbat uning tilini ham bog'lab qo'ygan! Men bo'lmasam, siz unga bo'yinturuq kiygazardingiz, afandim! Ha! Siz rahmsiz, zolimsiz! Marhamat qilib, hozirdan boshlab bu xulqingizni o'zgartiring!

– Hech o'zgartirmayman!

– Shundaymi? Keragi ham yo'q! Ixtiyoringiz! Liza aytmasa siz bilan so'zlashib ham o'tirmasdim! O'shanga ichim achiydi! O'sha, sen gapirib ko'r, deb yalinganidan keluvdim!

– Yo'q, endi bunisi yolg'on!.. Bo'lmagan gap... Bo'yningizga olib qo'yaqoling...

– Yolg'on? Unday bo'lsa, mana ko'r-chi toshbag'ir!

Qaynana sakrab turdi, eshikning bandini yulqib tortdi. Eshik ochilib ketdi va Mishel o'zining Lizasini ko'rdi. U ostonada qo'llarini ushlab, piq-piq yig'lab turgandi. Uning chiroyli chehrasini ko'z yoshlari tutib ketgandi. Mishel irg'ib turib, uning yoniga bordi-da:

– Eshitdingmi? Qani tushuntir bo'lmasa, onang qizini kim ekanini bilib qo'ysin! – dedi.

– Onam... Onam... to'g'ri aytadilar, – dedi Liza o'pkasini tutolmay. – Men bu turmushga toqat qilolmayman... Siqilib ketdim...

– Hmm... Hali shundaqami? Qiziq... Xo'sh nega bu to'g'rida men bilan o'zing gaplashmading?

– O'zim... O'zimmi... Achchig'ing keladi deb...

– Axir o'zing doimo bekorchilikka qarshi muhokama yuritar eding-ku! Seni mulohazang uchungina yaxshi ko'raman: atrofimdagi odamlarning hayotidan bezorman degan eding-ku? Men ham sening shuning uchun yaxshi ko'rgan edim-da! To'ygacha sen be'mani, ovoragarchilik bilan kechiriladigan hayotdan nafratlanarding, yomon ko'rarding-ku! Nega birdaniga bunday o'zgarib qolding?

– U vaqtlarda, aytsam meni olmaysan, deb qo'rqqan edim... Jonim Mishel! Bugun Mariya Petrovnanikiga balga boraylik. – Liza o'zini erining quchog'iga tashladi.

– Mana ko'rdingizmi! Endi ishongandirsiz! – deb qaynana kerilganicha kabinetdan chiqib ketdi...

– Eh, ahmoq! – dedi, Mishel ingrab.

– Kim ahmoq? – dedi Liza.

– Yanglishgan odam!

AYB KIMDA?

Amakim Petr Demyanich – qoq baliqqa o'xshagan qotma, badjahl kollejskiy sovetnik. Bir kun o'zi lotin tilidan dars beradirgan gimnaziyaga borishga tayyorlanarkan, naxu kitobining muqovasini sichqon kemirgan joyini ko'rib qoldi.

– Menga qarang, Praskovya, – dedi oshxonaga kirib oqsoch xotinga – nega buncha uyda sichqon ko'payib ketipti? Kecha silindrimni kemirib ketipti, bugun naxu kitobini rasvo qilipti... Bu ahvolda kiyim boshni ham qo'ymas!

– Nima qil deysiz? Men ko'paytiryapmanmi! – deb javob berdi Praskovya.

– Biron iloj qilish kerak axir! Mushuk asraysanmi...

– Mushuk bor, lekin mushuk bo'lmay o'ladimi! – deb Praskovya burchakni ko'rsatdi. Burchakda supurgining yonida ozg'in, oppoq mushukbola kulcha bo'lib yotib mudramoqda edi.

– Nega undoq deysan?

– Hali yosh, esi kirgani yo'q. Ikki oylik ham bo'lgani yo'q-da.

– Hmm... bo'lmasa, o'rgatish kerak! Bekor yotgandan ko'ra o'rgansin.

Petr Demyanich tashvishli holda, bir xo'rsinib olgach, oshxonadan chiqdi. Mushukbola boshini zo'rg'a ko'tarib uning orqasidan qaradi-da, yana ko'zini yumdi.

Mushukbola uxlamasdan o'ylamoqda edi. Nima haqida? Haqiqiy hayotni bilmagani, hech qanday taassurotga ega bo'lmagani uchun faqat shuursiz sezgi bilan o'ylay olar va hayotni ota-bobosi bo'lmish yo'lbarsdan qon orqali o'tgan (Darvinga murojaat) fahm bilangina tasavvur etadi. Uning fikri mudragani vaqtidagi shirin xayol singari o'zining mushuklik xayolida Arabiston sahrolariga o'xshash joylarda xuddi Praskovyaga, pechga, supurgiga o'xshash soyalar yugurishib yuradi. Shular orasida birdan bir tarelka sut ko'rinadi va uning yonida darrov

kichkinagina oyoqlar paydo bo'lib harakatga keladi, qochmoqchi bo'ladi. Mushukbola bir sakrab o'zining qonxo'rligidan lazzatlangan holda unga tirnoqlarini botiradi... Tarelka ko'zdan g'oyib bo'lganda, Praskovyaning qo'lidan tushib ketgan bir parcha go'sht ko'rinadi. Go'sht qo'rqqanidan chiyillab chetga qocha boshlaydi. Lekin mushukbola irg'ib unga chang soladi... Xullas yosh xayolparastning ko'ziga ko'ringan hamma narsa – sakrash, chang solish va tishlash bilan boshlanadi. Kishining ko'nglini, ayniqsa mushukning ko'nglini bilib bo'lmaydi, lekin shu yozilgan so'zlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini, shundan bilsa bo'ladi: xayol surib yotgan mushukbola birdan o'rnidan sakrab turib yonib turgan ko'zlari bilan Praskovyaga qaraydi va yunglarini hurpaytirib bir sakrab uning bariga chang soladi. U o'zining qonxo'r avlodiga munosib podval va omborlardagi sichqonlarning kushandasi bo'lib yaratilgandir. Agar tarbiyasi... xayr, voqeani oldindan aytib qo'ymaylik.

Petr Demyanich gimnaziyadan qaytib kela turib boqqoldan o'n tiyinga bitta qopqon oldi. Tushlik ovqat vaqtida bir parcha katletni qopqon ilmog'iga ildi-da, maktab bolalarining Praskovya mayda-chuydaga ishlatib yurgan daftarlari uyilib yotgan divan tagiga qo'ydi. Xuddi soat oltida lotin tili muallimi shogirdlarining daftarlarini ko'rib o'tirar ekan divan tagidan «taq!» etgan tovush chiqdi. Bu tovush shunday qattiq chiqdiki, amakim seskanib, qo'lidan qalam tushib ketdi. Darhol borib qopqonni oldi. Kichkinagina top-toza sichqon simlarni hidlar, qo'rqqanidan qaltirardi.

– Hmm! – dedi Petr Demyanich sichqonning baxtsizligiga shodlangan holda, go'yo yomon baho qo'yadiganday unga qarab – qo'lga tushdingmi, razil! To'xtab tur, men senga naxu yeyishni ko'rsatib qo'yaman!

Sichqonga xo'p qaragandan keyin qopqonni yerga qo'yib:

– Praskovya, sichqon tushipti! Qani, mushukni bu yoqqa olib kel-chi! – deb qichqirdi.

– Hozir, – deb javob berdi Praskovya va hayal o'tmay hali yo'lbars avlodini ko'tarib kirdi.

– Juda soz! – dedi Petr Demyanich, qo'llarini bir-biriga ishqab – hozir unga o'rgatamiz... Qopqonni ro'parasiga qo'y... Ha, balli... qo'y, hidlasin, ko'rsin... Ha, balli...

Mushuk hayron bo'lib amakiga, kreslolarga qaradi va tushunolmagan holda qopqonni hidlab ko'rdi; so'ng chirog'ning yorug' nuridan va o'ziga tikilib turganlardan cho'chidi shekillik bir sakrab eshikka tomon otildi.

– To'xta! – deb qichqirdi amakim, uning dumidan ushlab, to'xta la'nati! Sichqondan qo'rqdingmi, ahmoq! Qara, bu sichqon bo'ladi! Ko'rgin! Xo'sh? Qara deyapman senga!

Petr Demyanich mushukni bo'ynidan ushlab tumshug'ini qopqonga ishqadi.

– Qara, o'laksa! Praskovya, ol o'zing, ushlab tur... Teshikchani to'g'risiga qo'yib tur... Men sichqonni chiqarishim bilan qo'yib yubor... Eshitdingmi? Chiqish bilanoq qo'yib yubor! Qani...

Amakim yuzida sirli bir qiyofa bilan asta qopqon eshigini ochdi... Sichqon qo'rqibgina chiqdi, hid oldi, so'ngra o'qday divan tagiga otildi... Qo'yib yuborilgan mushuk ham dumini xoda qilib stol tagiga kirib ketdi.

– Ketdi, ketdi – dedi Petr Demyanich jahl bilan qichqirib, – qani o'zi, ablah? Stol tagidami? Shoshmay tur...

Amakim mushukni stol tagidan tortib oldi-da, siltab yuqori ko'tardi... – Kasofat! – dedi mushukni quloqlaridan cho'zg'ilab – Mana! Mana! Yana og'zingni ochib qarab qolasanmi? Mal'un...

Ertasiga amakim yana:

– Praskovya, sichqon tushipti! Mushukni olib kel... deb qichqirdi.

Mushuk kechagi haqoratlardan keyin pech tagiga kirib ketganicha kun bo'yi chiqmadi. Praskovya uni pech tagidan tortib olib bo'yin yelkasi aralash changallagancha kabinetga ko'tarib kirdi; qopqon ro'parasiga qo'yganda mushuk zir-zir titrab, shikoyatomuz miyovladi.

– Qani, o'z holiga qo'y-chi, biroz o'zini o'nglab olsin! – deb buyurdi Petr Demyanich. – Ko'rsin, hidlab boqsin... – Qaragin, o'rgan! To'xta, la'nati! – deb qichqirdi u, mushuk qopqonni

ko'rgach orqasiga tislanganini ko'rib. – Kaltak yeysan! Cho'z qulog'idan! Ha, barakalla... Qani, endi ro'paraga qo'y... Amakim qopqon eshigini asta ko'tardi... Sichqon yugurgilab, mushukbolaning tumshug'i tagidan o'tib ketarkan, Praskovyaning qo'liga urilib, so'ng javon tagiga kirib ketdi. Mushuk bo'lsa o'zini ozod ko'rib bir irg'ib divan tagiga tiqilib oldi.

– Bu sichqonni ham qochirdi! – deb qichqirdi Petr Demyanich. – Shu ham mushukmi? Yaramas iflos! Urish kerak! Qopqonni ko'rsatib turib urish kerak!

Uchinchi sichqon tutilganda qopqonni va uning ichidagi maxluqni ko'rish bilanoq mushukbolaning butun vujudiga larza kirdi va Praskovyaning qo'lini tirnab oldi... To'rtinchi sichqon qochgandan keyin amakimning fe'li nihoyatda aynib ketdi va mushukbolaning bir tepib:

– Yo'qot bu iflosni! Shu bugunning o'zidayoq yo'qot! Biron yerga olib borib tashla! Hech baloning uddasidan chiqmaydi! – dedi.

Oriq va nimjon mushukbola bir yildan keyin es-hushi joyida bo'lgan katta mushuk bo'lib yetishdi. U bir kun tom oshib seviklisi bilan uchrashgani borarkan ko'zlagan joyga yetib qolganda bir sharpa eshitdi, undan keyin quduq yonidagi mollar suv ichadirgan silov yonidan otxonaga qarab yugurib ketayotgan sichqonni ko'rdi... Mening qahramonim qo'rqqanidan yunglarini hurpaytirib, belini egib pig'illadi va butun vujudini titroq bosgan holda qochib qoldi.

Hayhot! Ba'zan men ham o'sha qochib borayotgan mushukka o'xshab kulgili bir holatda qolaman. O'z vaqtida men ham xuddi o'sha mushuk boladay, amakimdan lotin tilini o'rganish baxtiga muyassar bo'lgan edim. Endi agar menga qadim zamonning mumtoz asarlarini o'rganishga to'g'ri kelsa jon-dilim bilan yopishish o'rniga, xayolimga lotin tilining qonun-qoidalari, amakimning qora sariq basharasi kelib, rangim o'chadi, tepa sochim tik turadi-da, mushukka o'xshab qochib qolaman.

ORDEN

G'arbiy progimnaziyaning o'qituvchisi, kollejskiy registrator Lev Pustyakov do'sti poruchik Ledensovning yonidagi xonada istiqomat qilardi. Yangi yil kuni ertalab u xuddi shu Ledensovnikiga qadam ranjida qildi.

– Bilasanmi Grisha, – dedi u poruchikka odatdagicha yangi yil bilan tabriklaganidan keyin. – Agar bir noiloj holga tushib qolmaganimda seni sira bezovta qilmoqchi emasdim. Bir kunga Stanislavingni berib tursang. Bugun savdogar Spichkinnikiga ziyofatga bormoqchiman. U ablahni o'zing bilasan, ordenni juda yaxshi ko'radi; agar bo'ynida yoki ko'kragida biron narsa osilib turmagan odamni ablah deyishdan ham toymaydi... Uning ustiga ikkita qizi bor... Taniysan-ku, Nastya bilan Zinani... Tushundingmi, aziz do'stim... Seni do'stim deb aytayapman... Beraqol, bir yaxshilik qil!

Pustyakov bu so'zlarni qizarinib, tutila-tutila aytarkan, xavotirlanib, eshikka qarab-qarab qo'yardi. Poruchik oldin jerkib tashlasa ham, keyin ko'ndi.

Kunduz soat ikkida Pustyakov izvoshga tushib Spichkinnikiga ketarkan, po'stinining yoqasini sal ochib, ko'kragiga tikilib borardi, begona Stanislavning zarhali yaltirar, emali tovlanar edi.

Pustyakov sovuqdan uvishib o'ylab borar edi:

«Kishini naqadar olijanob ko'rsatadi! Ko'p bo'lsa besh so'mlikkina narsa-yu, kishini shunchalik sersavlat qiladi-ya».

Spichkinning hovlisiga yetgandan keyin, po'stinini butun ko'kragi ko'rinarli qilib ochib, izvoshchiga shoshilmasdan pul to'lay boshladi. Nazarida izvoshchi uning tugmalari, pogonlari va Stanislavni ko'rib og'zi ochilib qolganday bo'ldi. Pustyakov mag'rurona yo'talib olib uyga kirdi. Dahlizda po'stinini yecha turib zalga qaradi. Ichkaridagi uzun stol atrofida o'tirgan o'n besh chog'li kishi ovqatlanmoqda edi. Odamlarning g'ovur-g'uvuri, idish tovoqlarning taqir-tuqiri eshitilib turardi.

– Kim u? – degan ovozi eshitildi mezbonning. – Iya, Lev Nikolaich-ku! Qani marhamat, keling. Biroz kechikdingiz, hechqisi yo'q. Endi o'tirgan edik.

Pustyakov ko'kragini kerib, boshini yuqoriga ko'rtargancha qo'llarini bir-biriga ishqab zalga kirdi. Biroq kayfi uchib ketdi. Zinaning yonida o'zi bilan birga ishlaydigan fransuz tili o'qituvchisi Tramblyan o'tirar edi. Fransuz ordenni ko'rib qolsa qancha gap-so'z, sharmandalik... Butun obro' bir pul bo'ladi... Birdan uning boshiga ordenni uzib tashlash yoki qaytib chiqib ketish fikri keldi. Lekin orden puxta chatib qo'yilgan, chiqib ketishning ham endi iloji yo'q edi. Darrov o'ng qo'li bilan ordenni bekitdi, biroz qaddini bukib, o'ng'aysizlanibroq hammaga ta'zim qildi va hech kimga qo'l berib ko'rishmay bo'shashganicha xuddi o'sha fransuz ro'parasidagi bo'sh stulga o'tirdi.

«Kayfi bo'lsa kerak» deb o'yladi Spichkin uning izza bo'lgan yuzini ko'rib.

Pustyakovning oldiga bir kosa sho'rva keltirib qo'yishdi, u chap qo'li bilan qoshiqni oldi-yu, lekin shunday kazo-kazolar oldida chap qo'llab ovqat yeb bo'lmasligini eslab, ovqat yeganini, qorni to'qligini vaj qildi:

– Qornim to'q... Rahmat... deb g'udurladi, u. – Amakim protoierey Yeleyev ayttirib yuborgan ekanlar... Shu, qo'ymasdan ovqat yedirib yubordilar...

Hidi gurkirab turgan sho'rva, ishtahani juda qitiqlaydigan, bug' chiqarib turgan dimlama baliq Pustyakovning yuragini ezib yubordi. U chap qo'li bilan ordenini bekitib o'ng qo'lini bo'shatmoqchi bo'lgan edi, bo'lmadi.

«Sezib qolishadi... Chap qo'lim ko'kragimga ko'ndalang tursa ashula aytmoqchi bo'layotganga o'xshab qolaman. E xudo, ziyofat tezroq tugay qolsa-chi! Biron oshxonaga borib ovqat yerdim!»

Uchinchi ovqat tugagach, u fransuzga ko'z qirini tashladi. Tramblyan ham negadir qizargan, Pustyakovga tikilganicha hech narsa yemasdan o'tiripti. Ko'z-ko'zga tushganda ikkovlari ham yana qattiqroq xijolat tortib, oldilaridagi bo'sh tarelkaga qarashardi.

«Sezdi ablah! Basharasidan ko'rib turibman sezganligini. Bu past, yana o'lguday mayda gap. Ertagayoq borib direktorga chaqadi!» deb o'yladi Pustyakov.

Mehmonlar va mezbonlar to'rtinchi ovqatni yeb, nasib qilgan beshinchi ovqatni ham yeyishdi...

Qirg'iy burnining keng kataklarini tuk bosgan, ko'zlari qisiqdan kelgan novcha bir janob o'rnidan turdi. U sochlarini silab turib xitob qildi:

X-x-xo'sh... chunonchi... shu... shu yerda hozir bo'lgan xonimlarning gul-gul ochilishlari uchun ko'taraylik! Mehmonlar o'rinlaridan duv turib qadahlarini qo'llariga olishdi. Butun xonalar bo'ylab qattiq «ura» sadosi jaranglab eshitildi. Xonimlar iljayishib, qadahlarini urishtirmoq uchun uzatishdi. Pustyakov ham o'rnidan turib ryumkasini chap qo'li bilan oldi.

Erkaklardan biri unga murojaat qilib qadahda ichkilik uzatdi:

– Lev Nikolaich, sizga xizmat bo'lsa ham, shuni Nastasya Lvovnaga uzatib yuboring. Bir iloj qilib o'sha kishiga ichiring! – dedi u.

Pustyakovga ko'p malol kelgan bo'lsa ham majburan o'ng qo'lini ishga soldi. Nihoyat, tasmasi g'ijimlangan Stanislav chiroqda yaltirab ketdi. O'qituvchining rangi o'chib, boshini egdi va yer tagidan sekingina fransuzga qaradi: u hayron bo'lib Pustyakovga tikilganicha qoldi. So'ngra lablarida tabassum paydo bo'lib, yuzidagi xijolat va xomushlik asta tarqala boshladi...

Shu payt uy egasi fransuzga shisha uzatib:

– Yuliy Avgustovich! Shuni o'sha yoqqa uzatib yuboring, – deb iltimos qilib qoldi.

Tramblyan istar-istamas zo'rg'a o'ng qo'lini shishaga uzatgan edi... oh qanday baxt! Pustyakov uning ko'kragidagi ordenni ko'rdi. Yana Stanislavgina emas, butun boshliq Anna ekan. Demak fransuz ham muttahamlik qilgan ekan! Pustyakov xursandligidan kulib yuborib stulga bemalol yalpayib o'tirib oldi... Endi ordenni yashirishning nima hojati bor! Ikkalovi ham bir xil gunoh qilipti. Endi kim borib chaqadi, kim sharmanda qiladi... Spichkin muallim ko'kragidagi ordenni ko'rib:

– Ehe, – deb qo'ydi.

– Qarang, Yuliy Avgustovich! – dedi Pustyakov – juda qiziq ish-a! Bayramdan oldin bizdan ko'rsatilganlar juda kam bo'ldi deyman! Bo'lmasa qancha odam bor edi, faqat siz-u manga tegipti-da, hayron qoldirgan ish-a!

Tramblyan suyunib ketdi va bosh irg'itib 3-daraja Anna osilib turgan qaytarma yoqaning chap tomonini oldinroqqa chiqardi.

Dasturxon yig'ilgandan keyin Pustyakov uyma-uy yurib qizlarga ordenini ko'rsatdi. Qorni och bo'lsa ham kayfi chog' edi.

U orden haqida Spichkin bilan so'zlashib turgan Tramblyanga rashki kelib «Voy attang, shunaqaligini bilganimda-chi, naq Vladimirni taqib kelmasmidim, esizgina, esimga kelmapti-da» deb o'zini koyirdi.

Faqat ana shu fikr uni qiynamoqda edi. Boshqa tomonlardan bo'lsa u o'zini mutlaqo baxtiyor deb sezardi.

OY TUTILISHI
(Provinsiya hayotidan)

№ 1032 *Sirkulyar*

Ushbu sentyabr oyining 22-kuni soat 10 da oy tutilish sodir bo'ladi. Bu yanglig' tabiat hodisalari ayb ish emas, balki ibratdir. Shu xususdakim, hatto sayyoralar ham aksari tabiat qonunlariga itoat qiladilar va binobarin rag'batlantirmoqlik vajhidan sizga, siz janoblariga taklif qilamankim, shu kecha o'z uchastkangizga qarashli ko'chalarning chirog'larini yoqib qo'ymoqlik xususida amr-farmon qilingki, tunggi qorong'ulik arboblarga hamda fuqaroga ushbu hodisani kuzatmoqlikka monelik qilmasin va shuningdek, sizdan so'raymanki, muhtaram zot, qat'iy suratda nazorat qilingki, bu xususda ko'chalarda yig'inlar, xursandchilik hayqiriqlari sodir bo'lmasin va hokazo. Ushbu tabiat hodisasini muxolif tarzda bayon qilguvchi kishilar xususida, agar shunday kimsalar bo'lsa (men fuqarolarning sog'lom aql egalari ekanliklarini bilganim uchun bunday odamlar bo'lishiga ishonmayman), ular to'g'risida menga ma'lumot bergaysiz...

Gnilodushin
Asli to'g'ri: sekretar Tryasunov.

Siz janobi oliylarining 1032-raqamli aloqalariga shu tariqa javob qilamanki, mening uchastkamdagi ko'chalarning chirog'i yo'q edi, binobarin oy tutilishi havo tim-qorong'i bo'lgani holda sodir bo'lgan esa-da, bunga qaramasdan ko'p kishilarga yetarlik darajada aniq ko'rindi.

Umum tinchligini va osoyishtaligini buzishlik hamda, shuningdek, muxolif bayonlar va norozilik iboralari bo'lmadi, magarkim, xonaki muallim, dyakonning o'g'li Amfiloxiy Ba-

belmandebskiyni mustasno qilsak, qaysiki, bir fuqaroning oy tutilmog'ining sababi nima degan savoliga uzundan uzoq shunday bayonotlar berdikim, bu bayonot sog'lom aql tushunchasini buzmoqlikka ochiqdan ochiq moyil edi. Uning bayonotining ma'nisini fahmlamadim, zeroki mazkur ilm nuqtayi nazaridan izohlab o'z so'zida ko'p ajnabiy kalimalar iste'mol qildi.

Ukusi – *Kalanchevskiy*

Siz janobi oliylarining 1032-raqamlik aloqalariga javoban ma'lum qilamanki, menga ishonib topshirilgan uchastkada oy tutilmadi, ammo osmonda oy nurining xira bo'lishidan iborat bir tabiat hodisasi ko'rildikim, shu oy tutilishimi yo boshqa narsami ekanini aniq aytolmayman. Ko'p qidirish va tekshirishlardan keyin mening uchastkamda uchta ko'cha chirog'i borligi ma'lum bo'ldi, qaysikim, shishasini va ich tomonlarini pokiza qilinib yuvilib yoqilganda bu choralar tegishli darajada foyda bermadi, sababiki, yuqorida aytilgan hodisa, ya'ni oy nurining xiralanishi chiroqlarning shishalari siniq bo'lganligi sababli shamol o'chirgan paytda, demakkim, chiroqlar siz janoblari zikr qilgan qorong'ilikni yoritolmagan paytda voqe bo'ldi. Yig'inlar bo'lgani yo'q, chunki Zemskaya upravaning mirzasi Ivan Avelevdan boshqa hamma fuqarolar uxlagan, qaysiki mazkur Ivan Avelev devor ustida o'tirib, hovuchini durbin qilib, qorong'ilikka qarab kulib, unday deb tushunsa ham bo'ladigan, bunday deb tushunsa ham bo'ladigan so'zlarni aytdi, ya'ni «Menga desa oy mutlaq bo'lmasin edi... Tfu!» – dedi. Bu so'zlarining aqlsizlik ekani mening tarafimdan aytilganda, u beodoblik bilan: «Sen nega oyning tarafini olasan? Hayit kuni uni ham qutlagani borganmisan?» dedi. Shu bilan birga avom xalqining haqorati mazmunidagi axloqsiz iboralar aytdikim, siz janoblariga ma'lum qilaman.

Glotalov

Asliga to'g'ri deb – Talog'i yo'q odam

ESKI QO'RA

(Qo'rasi bor odamning o'z og'zidan)

Eski qo'rani buzib o'rniga yangisini solish kerak edi. Men me'morni bosh qo'ra ichida uydan uyga boshlab yurib, ish ustidagi gaplar orasida, har xil baland-past gaplardan ham gapirib berdim. Yirtilgan devor qog'ozlari, chang qoplagan tarelkalar, qurum bosgan pechka – bularning hammasi yaqin orada kechmish bir hayotning izlari bo'lib xotiralarni qo'zg'atardilar. Mana bu zinadan, chunonchi, bir to'da mast odamlar bir o'likni olib tushayotib qoqilib ketganlar va tobut bilan birga quyiga yumalangan edilar; tiriklar alam o'tarlik darajada zadalanganlar, o'lik bo'lsa, hech narsa bo'lmaganday, sipohlikni qo'ldan bermagan va yerdan ko'tarib olib yana tobutga solayotgan vaqtlarida unamaganday qilib bosh tebratkan edi. Mana, qatorasida uch eshik: mana munisida lorsillagan uch juvon yashardi: uchalasining ham «mehmon-izmoni» ko'p bo'lganligidan hammadan yaxshi yasanar va uy ijarasini ham vaqtida to'lardilar. Yo'lakning oxiridagi eshik – kirxonaniki, unda kunduzlari kir yuvilar, kechalari esa pivo ichilib to'polon bazmlar bo'lardi. Mana bu uch xonalik kvartiraga kelsak, uning hamma yog'ini bakteriya va batsil kabi kasallik qurtlari boskan. Yaramaydi bu joy. Bu yerda ko'p odamlar bemahal o'lib ketishdi, men sizni ishontirib ayta olamanki, bu kvartiraga bir zamon bir bechoraning qarg'ishi tekkan, shu uchun uning ichida yashagan odam allaqanday noma'lum bir maxluq bilan hamma vaqt birga yashaydi. Men, ayniqsa bir oilani sira esimdan chiqara olmayman. O'zingiz tasavvur qilingiz; boshqalardan hech bir ortiqligi yo'q oddiy bir odam; onasi, xotini, to'rtta bolasi bor. Uning familiyasi Putoxin bo'lib o'zi notariusnikida oyiga o'ttiz besh so'm olib mirzalik qilardi. O'zi ichkilik ichmayturgan dindor va jiddiy odam edi. Uy ijarasini to'lagali mening yonimga kirganida, hamma vaqt «tuzuk-quruq kiyinib kelolmadim», deb uzr aytardi;

«uy ijarasi besh kun kechikib ketdi», deb ham uzr aytar, pulni olganligim xususida tilxat yozib bersam oq ko'ngil bilan kulib turib, «muning nima keragi bor, yomon ko'raman men tilxat degan narsani!» derdi. O'zi bechorahol bo'lsa ham ozodagina yashardi. O'rtadagi bir xonada to'rtta bola bilan birga ularning katta onalari yotardi; ovqatlari ham shunda pishar, shunda yotib uxlar, shunda mehmon kuzatar va hatto shunda o'yin-kulgi qilardilar. Mana bu xonada Putoxinning o'zi yashardi; uning bir yozuv stoli bo'lib, ba'zi bir xil xususiy buyurtmalarni: rollar, ma'ruzalar va hokazolar ko'chirishni shunda o'tirib bajarardi. Mana bu – o'ng qo'ldagi xonaga qo'shnini o'tqizgan; qo'shnisi Yegorich degan bir slesar bo'lib o'zi tuzukkina, lekin ichkilikka mubtalo bir odam edi; u hamma vaqt issiqdan qiynalar, shu uchun doim ustida bitta kaltacha, yalangoyoq yurardi. Bu odam qulf, to'pponcha, yosh bola tepki aravalarini tuzatar, arzon baho devor soatlarini tuzatishdan ham qochmas, tangamiri olib bolalarga siyg'ang'ich qilib berardi. lekin bu ishni jini sevmas, u o'zini musiqiy asboblari tuzatuvchi usta deb bilardi. Uning stoli ustida, tashlandiq po'lat va temir parchalar orasida, qopqog'i ko'chgan garmon yoki bukulgan egri karnaylar ko'rinardi. O'tirgan uyi uchun Putoxinga ikki yarim so'm berar, hamma vaqt uyida – o'z dastgohi boshida o'tirar, uydan chiqsa, faqat, tunika lappaklarni pechkada qizitmoq uchungina chiqardi.

Men, ba'zi-ba'zida kech fasllari shu kvartiraga kirib qarardim, shunda, har kirganimda mana bunday bir ko'rinishga duch kelardim. Putoxin o'z stulida o'tirib allanarsalarni ko'chirib yozmoqda: uning onasi bilan horg'in chehrali po'rdoq xotin, chiroq issig'ida chok tikib o'tirardilar; Yegorich egovni chiyqirtmoqda. Hali o'chib yetmagan issiq pechka esa harorat va dam purkamoqda; og'ir havodan shchi (karam sho'rva), yo'rgak, Yegorich hidi kelmoqda. Qancha yo'qsul va tiqin bo'lsa ham, har holda, bu kvartiraga pechka oldiga yoyilgan yosh bola ishtonchalari, Yegorichning temir lappakchalaridan jimlik, yumshoqliq, mamnunlik shamollari kelardi... Eshik ketida, shundakkina yo'lakchada sochlari chiroyli qilib taralgan, quvnoq bolalar yugurishib o'ynay-

lar, ularning chuqur e'tiqodlaricha, bu yorug' dunyoning hamma ishlari juda joyida va shu bo'yicha benihoya cho'zilib ketaveradi, buning uchun yolg'iz erta bilan – uyqudan turganda va kechqurun uyquga yotganda yodlangan duolarni o'qish kerak, xolos.

Endi siz o'zingiz shu uyning o'rtasida, pechkadan ikki qadamgina berida, bir tobut turganini va uning ichida Putoxinning xotini yotganini tasavvur qilingiz! Albatta, xotini bir umr o'lmay turgan erkak yo'q dunyoda, lekin bu o'lim – boshqacha bir o'lim bo'ldi. Janoza vaqtida men erning jiddiy yuzlari va zabtlik ko'zlarini ko'rgach:

«Yo, qudratingdan!» deb o'yladim.

Menga shunday tuyuldikim, uning o'zi, bolalari, katta onasi, Yegorich – bularning o'shalar bilan birga kvartirada yashab turgan noma'lum maxluqning qora daftariga allaqachon tirkalib qolganlar. Men o'zim xurofotchi odamman, bu balki, mening hovli-joy egasi bo'lib qirq yildan beri ijaraga qo'shnilar bilan dodmamila qilganimdan kelgandir. Har qalay mening e'tiqodim shuki, har qanday o'yinda ham boshqa omadingiz kelmadimi, undan keyin to qoqlang'uningizcha yutquza berasiz; agarda taqdir sizni va oilangizni shu yorug' dunyodan yo'q qilishga bel bog'lagan bo'lsa, doim sizning poyingizga tushib ketingizdan quvlaydi va boshingizga kelgan birinchi falokat, rasmi, tugalmas falokatlar zanjirining boshi bo'ladi... O'z tabiatlari jihatidan falokatlar ham toshga o'xshaydilar. Baland qirg'oqdagi toshlarning bittasi o'rnidan ko'chib pastga yumalaganidan keyin, boshqalari birin-ketin to'za beradilar. Xullasi kalom, Putoxinnikida janozani o'qib chiqqandan keyin, unga va uning oilasiga bu beomon changaldan qutulish yo'q ekaniga ishonib qoldim...

Darhaqiqat, oradan bir hafta o'tar-o'tmas, notarius Putoxinni xizmatdan bo'shatib, uning o'rniga allaqanday yosh qizni o'tqizib qo'ydi. Nima bo'ldi deysiz? Putoxin joydan quruq qolg'oniga uncha xafa bo'lmadi, yo'q! Uning g'azabini keltirgan narsa o'z o'rniga erkak kishini emas, yosh bir qizni keltirib o'tqizganlari bo'ldi. Nega yosh qizni o'tqizadilar? Bu narsa unga shu qadar qattiq tekkanki, uyiga qaytib kelganidan keyin, u bolalarini tutib

olib urgan, o'z onasini so'kkan va o'lgudek ichib mast bo'lgan. Jo'rachilik hurmatiga Yegorich ham u bilan ichishgan.

Bir kuni Putoxin uy ijara to'lagali mening yonimga kirib turar edi, bu safar, muddatidan o'n sakkiz kun o'tib ketgan bo'lsa ham uzr aytmadi, pulning tekkanligi xususida yozib bergan tilxatimni ola turib ham indamadi. Ikkinchi oyning ijarasini esa onasi olib kirib berdi; uning ham faqat yarmini berib qolgan yarmini bir haftadan keyinga va'da qildi. Uchinchi oy uchun bir pul ham ola olganim yo'q, darvozabon ham menga kelib 23-kvartirada o'tirganlarning «bema'ni» yurishlaridan gina qiladigan bo'ldi. Bu narsalar, albatta, yaxshilik alomati emasdi.

Siz mana bunday bir ko'rinishni tasavvur qilingiz, Peterburgning qovog'i soliq ertalaridan biri shu xira oynaklarga tikilgan. Pechka oldida kampir bolalarga choy ichirib turadi. Nevaralaridan faqat bittasi – eng ulkanigina stakan bilan ichadi, qolganlari choyni to'ppa-to'g'ri talinkachada ichadi. Pechka oldida Yegorich qanqayib o'tirib, tunika lappakchalarni o'tga tovlaydi. Kechagi piyanistalik ta'siri hali ham ketmagan: boshi og'irlashib ko'zi tinadi; ovozi bo'g'ilib chiqadi, o'zi titrab-qaltiraydi va yo'taladi.

– Juda yomon yo'ldan urdi meni bu la'nati! – deb g'uduranadi u. – O'zi ichgani yetmagan, boshqalarni ham yomon yo'lga boshlaydi

Putoxin o'z xonasida qachonlardan beri ko'rpa-to'shak kabi narsalardan qoqlanib qolgan karavoti ustida o'tiradi; tashvishning zo'rligidan barmoqlarini sochlari orasiga kiritib, ma'nisiz ko'zlarini yerdan ola olmaydi. Ust-boshi yirtilgan, sochlari to'zgan, o'zi natob...

Kampir Vasyani shoshiltiradi:

– Ich tezroq, ich deyman, maktabingdan qolasan yo'qsa. Mening ham pol yuvgani ketaturgan vaqtim bo'lib qoldi... – dedi.

Butun shu uyda o'zini tetik tutgan bitta shu kampir, xolos. U, eski zamonlarni yodiga solib iflos, qora ishlar bilan shug'ullana boshladi. Juma kunlari qarz kassasining polini yuvadi. Shanba kunlar boylarnikiga borib kir yuvadi, yakshanba kunlari bo'lsa, ertadan kechgacha ko'chama-ko'cha yurib xayr-u saxovatli

oyimlarni qidiradi. Ishqilib har kun bir ish bor. Kir ham yuvadi, pol ham tozalaydi, doyalikka ham qatnaydi, sovchilik ham qiladi, gadoylikni ham qo'ymaydi. Ori rost, g'am-u hasratning ko'pligidan u ham bir-ikki stakan ichadi. Lekin har qancha mast bo'lganida ham o'z ishini bilib qiladi. Bizning rus elida munaqa pishiq kampirlar ko'p, o'shalar tufaylidan yurtda munchalar baraka bor!

Choyini ichib bo'lib, Vasya, kitob-daftarlarini xaltaga soladida, pechkaning orqasiga o'tadi; u yerda kampirning kiyimlari bilan bir qatorda uning paltosi bo'lmog'i kerak. Biror minutdan keyin u qaytib chiqib:

– Mening paltom qayerda? – deb so'raydi.

Kampir bilan boshqa bolalar – hammasi bir bo'lib paltoni izlagali kirishadilar, anchagacha izlaydirlar, lekin palto, suvga singan kesakday, bedarak bo'lib ketgan. Qayerda qoldi? Kampir bilan Vasya vahimaga tushganlar, ranglari o'chgan. Yegorich ham hayron. Faqat Putoxin damini chiqarmasdan tek o'tiradi. Bir narsa salgina joyida bo'lmasa dunyoni buzaturg'on narsa, bu safar hech narsa bilmagan va hech narsa eshitmagan bo'lib o'tiradi. Munda bir gap bor.

– O'sha sotib ichgan! – dedi Yegorich.

Putoxin indamaydi, demak rost. Vasyaning joni chiqadi. Uning marhum onasining movut ko'ylagidan buzilib tikilgan, juda yaxshi kolenkor astarlik, shunday yaxshi paltosi araqqa ketgan! Demak, palto bilan birga, yon cho'ntagidagi ko'k qarandash qalam, oltin harflar bilan fransuzcha qilinib «Nota bene» («Sog'inib esla!») so'zlari yozilgan qaydlar daftarchasi ham araqqa ketgan! Daftarcha orasida yana bitta rezinkalik qalam, undan boshqa yana tag'in allaqancha suratlik yelim qog'ozlar bor edi.

Vasyaning xo'p yig'lagisi kelib edi-ku, lekin yig'lab bo'lmaydi. Shu tobda boshi og'rib turgan otasi yig'i tovushini eshitsa, shovqin solib, yer depsinib boradi, balki tutib olib uradi, shu xumorlik vaqtida ursa ham hazilakam urmaydi, lekin. Kampir Vasyaga bo'lushadi, unda ota, kampirni ham ayab o'tirmasdan kaltaklay beradi; bu hangoma, oxirda kelib Yegorichning mush-

lashishga aralashmog'i, Putoxinga yopishmog'i va ikkalasining gursillab yerga ag'darilmog'lari bilan tamom bo'ladi. Ikkalasi yerda surilishib, tipirchinishib yurib, mastlar, hayvonlar singari vahshat bilan pishnashadilar, kampir bo'lsa yig'laydi, bolalar chiyillashadi, qo'ni-qo'shni besaranjom bo'lib darvozabonga odam yuboradilar. Yo'q yig'lamagani yaxshi.

Ovozini chiqarib yig'lolmasdan va jahlini yuzaga chiqarolmasdan, Vasya, sigirday mug'raydi, barmoqlarini egib sindirgunday bo'ladi va yer tepinadi yoki o'z yengini mahkam tishlab olib, tish o'tmasrak narsaga yopishgan itday, zo'r berib u yoq-bu yoqqa jirkiydi. Ko'zlari qinidan chiqqan, yuzi jahlining kuchidan qiyshayib ketkan unga qarab turib, o'z boshiga ro'molini birdaniga tortib olib, damini chiqarmasdan, ikki ko'zini bir nuqtaga tikkani holda, qo'l va oyoqlarini jinnilardek o'ynata boshlaydi. Ana shunday vaqtda, men o'ylaymanki, bola bilan kampirning miyasida «biz tugadik endi, bizga tiriklik yo'q!» degan ravshan bir xayoldan boshqa narsa aylanmaydi...

Putoxin yig'ilarni eshitmaydi, lekin u o'z uyida o'tirib hamma narsani ko'rib turadi. Oradan yarim soat o'tkach, Vasya kampirning qalin ro'moliga o'ralib maktabiga jo'nagandan keyin, ota, yuzi – ta'rif va tavsif qilib bo'lmaydigan bir holda, ko'chaga chiqib o'g'lining ketiga tushadi. O'g'lini chaqirgisi, yupatgisi, marhum onasining arvohini shafe' keltirib turib undan kechirim so'ragisi keladi, lekin ko'kragidan so'z o'rniga yolg'iz xo'rsinishli yig'i chiqadi. Kun erta, hali ham sovuq havo. Shahar maktabiga yetkanidan keyin, Vasya, o'z o'rtoqlaridan «Kampirga o'xshaysan» degan ermakni eshitmaslik uchun, ustidan qalin ro'molni olib ustidagi yalang qavat, yengil kiyimi bilan maktabka kiradi. Putoxin bo'lsa, uyiga qaytgach, yana ho'ngirak otib yig'laydi, allaqanday bir-biriga yopishmagan so'zlarni aytib g'uduranadi, ham onaga, ham Yegorichga, ham uning ish do'koniga quyuq-quyuq ta'zimlar qiladi. So'ngra, biroz o'ziga kelganidan keyin, yugurganicha mening yonimga keladi va nafasi bo'g'ziga tiqilgani holda, xudo hurmatiga yalinib mendan birorta ishga joylab qo'ymog'imni so'raydi. Men va'da berib ishontiraman, albatta.

– Endi ko'zim ochildi, xayriyat?! – deydi u. – Esim kiradigan vaqt ham bo'ldi. Xo'b aynidim, bas endi!

Sevinadi, menga qulliqlar qiladi, men bo'lsam, shu qo'raga ega bo'lganimdan beri, shuncha zamonning ichida, bu hurmatlik qo'shnilarni juda yaxshi tanib olganligimdan, uning yuziga qarab turib, to'ppa-to'g'ri o'z betiga:

– Kech qolding, jigarim! Sen o'lgan kishisan, – degim keladi.

Menikidan chiqib, Putoxin, to'ppa-to'g'ri shahar maktabiga chopadi. U yerda, u yoq-bu yoqqa borib yurib o'g'lining maktabdan chiqishini kutadi.

Nihoyat, Vasya chiqqanidan keyin, sevinib:

– Menga qara, Vasya! – dedi u. – Menga hozir xizmat topib beradigan bo'ladir. Sen shoshma, men senga juda yaxshi piston olib beraman... Men seni gimnaziya maktabiga berdiraman, tushundingmi? Gimnaziya maktabiga!.. Men seni katta odam qilaman! Ichkilikni mundan nari og'zimga olmayman. Azbaroyi xudo, og'zimga olmayman.

U porloq kelajagiga juda puxta ishonadi. Lekin yana kech kiradi. Kampir, ikkita bir miriligini ko'tarib, horigan-charchagan va ezilgan holda uyga keladi-da, bolalarning kiyimlarini yuvgali o'tiradi. Vasya o'tirib hisob masalasini hal qiladi. Yegorich ishlamaydi. U Putoxinning «sharofatida» ichkilikka yomon o'rganib qoldi, shu tobda ichkilikning qattiq xumori tutayotir. Uylar issiq, dim. Kampir kir yuvib turgan tunika tog'aradan buruqsab-buruqsab bug' chiqadi.

– Bir borib kelsakmi? – deb, tundlik bilan so'raydi Yegorich.

Mening ijarachi qo'shnim indamaydi. Shuncha ko'ngil qaroligidan keyin u aslo chidab bo'lmaydigan darajada siqiladi. Xumor bilan, xafalik bilan zo'r berib olishadi .. Albatta, xafalik zo'r keladi. Undan narisi ma'lum...

Qorong'i tushkandan keyin Yegorich bilan Putoxin chiqib ketishdi; erta bilan Vasya kampirning qalin ro'molini ham topolmay qoladi.

Mana shunday gaplar o'tkan bu kvartirada. Qalin ro'molni sotib ichkach, Putoxin, shu bo'yicha uyga qaytib kelmadi. Qa-

yerlarda yo'q bo'lganini bilmayman. U bedarak yo'q bo'lganidan keyin kampir ham ichkilikka berildi, so'ngra og'rib yotib qoldi. Uni xastaxonaga olib keldilar, yosh bolalarni allaqaysi qarindoshlari olib ketdi, Vasya bo'lsa mana shu kirxonaga ishga kirdi. Kunduz kunlari dazmol qizitib berib, kechalari pivo ketidan chopardi. Kirxonadan haydab chiqargan edilar, allaqanday bir yosh juvonning xizmatiga kirib, allaqanday xizmatlar ketidan, kechalari chopadigan bo'ldi. Uning o'zini ham «dallol bola» qo'ydilar. Undan keyin nima bo'ldi ekan, xabarim yo'q.

Mana bu xonada esa o'n yil bo'lib bir qashshoq, gadoy cholg'uchi yashadi. O'lganidan keyin ko'rpasining qavatidan yigirma ming so'm pul topib oldilar.

BO'YINGA OSILGAN ANNA

I

Nikoh o'qilgandan keyin yengiltakkina bir osh-suv ham bo'lmadi; kuyov-qayliq bir qadahchadan «shampan» ichishib, kiyimlarini almashtirdilar-da, vokzalga jo'nadilar. O'yin-kulgili to'y bazmi va ziyofati, cholg'ular va raqslar o'rniga ikki yuz chaqirim yerdagi mozorda tunab kelish! Ko'p odamlar buni ma'qul ko'rardilar; ularning aytishlaricha: Modest Alekseich muhimgina daraja (rutba)ga ega va ko'p ham yosh emas bir odam bo'lganligidan, unga to's-to'palang to'y ham yarashmasidi; undan keyin, ellik ikki yashar bir to'ra endigina o'n sakkizga kirgan bir qizga uylanib turganda, cholg'u eshitishning o'zi ham odamga malol keladi. Yana, odamlarning aytishlaricha: Modest Alekseich taqvodor bir odam bo'lganligidan, nikoh ustida ham birinchi mavqeni din va axloqga berilganligini o'zining yosh qaylig'iga anglatish maqsadi bilan bu mozor ziyoratini ataylab qo'zg'otgan edi.

Kuyov-qayliqni uzatmoqda edilar. Xizmatdoshlari va qavm-qarindoshlaridan iborat bir to'da, qo'llarida qadahlari bilan, urra qichqirmoq uchun poyezdning jo'nashini kutib turardilar; shular o'rtasida kelinning otasi Petr Leontich ham, boshida «silendr», ustida muallimlar «frag»i, o'zi o'lgudak mast va rangi oppoq oqargan, qo'lidagi qadahi bilan hadeb derazaga tomon intilar:

– Anyuta! Anya, Anka, bir og'izgina gapiray, – deb yolvorardi.

– Anya derazadan turib unga tomon egildi, u esa, kechagi ichkan araqlarining sassig'i bilan qizining dimog'larini yorib, qulog'iga havur pufladi – chunki nima degani anglashilmasidi, – hamda yuz-ko'krak va qo'llariga barmoqlarini tegizib cho'qintirdi; bu vaqtda uning nafaslari qaltirar va ko'zlarida yoshlari yiltillardi. Anyaning ukalari bo'lgan gimnaziya talabalari – Petya va Andryushalar otalarining orqasida turib uning fragidan tortar va qizarib-bo'zarib:

– Otajon, bas... Otajon, bo'ldi... – deb pichirlardilar.

Poyezd yurgach, Anya otasining tentiraklana-tentiraklana va arag'ini chayqaltira-chayqaltira, vagon bilan birga biroz yugurib borganini va shunda uning yuzlari naqadar ayanch, pok va xijil bo'lganini ko'rdi.

– Ur-ra! – deb qichqirardi ota.

Kuyov-qayliq yolg'iz qolishdi. Modest Alekseich «kupe» ning u yoq-bu yog'iga qaradi, narsalarini tokchalariga joyladi va kulimsirab turib, yosh qaylig'ining qarshisiga o'tirdi. Bu o'rta bo'yli, anchagina semiz, shishma, qorni qappaygan, ayrisoqol va mo'ylovsiz bir odam bo'lib, uning qirmia, dumaloq, keskin chiziqli jag'i odamning tovoniga o'xshardi. Uning yuzidagi eng qiziq alomati mo'ylovining yo'qligi edikim, uning endigina qirdirilgan yalang joyi asta-sekin semiz, dumba singari kilkillab turgan yonoqlariga ulashib ketardi. U o'zini ulug'sifat tutar, yurish-turishlari shoshilish emas, salmog'ida, qiliqlari yumshoq edi.

– Shu tobda bir voqeani esimga tushurmakdan o'zimni man qilolmayman, – dedi u, kulimsirab turib. – Mundan besh yil burun Kosorotovga ikkinchi darajali muqaddas Anna nishoni tekkach, tashakkur arz qilgali general hazratlarining yonlariga kirgan ekan, u kishi iltifot qilib debdirlarki: «Demak, siz uch Annaga ega bo'ldingiz: bittasi ko'kragingizda, ikkitasi bo'yningizda». Bu yerda shuni aytib o'tish lozimki, o'sha vaqtlarda Kosorotovning uyiga uning Anna degan urushqoq va tentakchalish xotini endigina qaytib kelgan edi. Umid qilamanki, bir kun kelib menga ham Anna nishonining ikkinchi darajasi tekkanda, mening haqimda ham o'sha so'zlarni aytmak uchungina general hazratlari hech bir bahona topolmayajaklar.

So'ngra uning jindakkina ko'zlari kulimsiradi. Kelinchak ham kulimsiradi, lekin bu odamning har bir minutda munga yaqinlashib kelib o'zining do'rdoq va ho'l lablari bilan uni o'pmagi mumkin ekanini, bu narsaga qarshi kelmakka endi o'zining haqi bo'lmaganini o'ylab kelinchak besaranjom bo'lardi. Shishma vujudlik erining yumshoq qimirlashlari uni qo'rqitar, unga ham qo'rqinch va ham og'ir kelardi. Er o'rnidan turdi, shoshmas-

dangina bo'ynidagi nishonini oldi, ustidagi fragi bilan jiletini yechib kechalik yaktagini kiydi.

Annaning yoniga kelib o'tirarkan:

– Mana xolos, – dedi.

Kelinchak shu tobda esladikim, nikoh marosimi juda og'ir o'tdi, pop ham, mehmonlar ham ishqilib ibodatxonada hozir bo'lganlarning hammasi: shunday go'zal, sevimli qiz nima uchun bu qari, xunuk odamga tegar ekan-a, nima uchun, deganday qilib munga mungli-mungli tikilganday bo'ldilar. Ishlarning munchalik yaxshi bitkanini o'ylab bugun erta bilangina ichiga sig'may sevingan narsa, nikoh vaqtiga kelib, so'ngra mana bu vagonda o'zini gunohkor, aldangan va kulgi bo'lganday seza boshladi. Mana, boy odamga erga tegdi, shunday bo'lsa ham qo'lida puli bo'lmadi, nikoh ko'ylagi nasiyaga tiktirildi, hozir ham otasi bilan ukalari muni kuzatishka chiqqan vaqtlarida, bu, ularning yana bir pulsiz bo'lganlarini o'zlarining ko'rinishlaridan payqadi. Bechoralar bugun kechqurun issig'-missig' qilisharmikan? Ertaga-chi? Hamda unga negadir shunday tuyulardikim, otasi bilan ukalari hozir uyda bu bo'lmagani uchun och turalar va onalari o'lgan kunning erta kechasini qanday siqilish bilan o'tkazgan bo'lsalar, hozir ham o'shandak siqindi kechirmakdalar.

«Ah, naqadar baxtsizman men, deb o'ylar u. – Nega men bu qadar baxtsiz bo'ldim ekan?»

Xotin bilan o'ynashishdan xabarsiz ulug'sifat odamlarda bo'lato'rgan kelishmas muomala bilan, Modest Alekseich, kelinchakning beliga qo'l uzatib yelkasini qoqdi, kelin bo'lsa bu vaqtda pulni, o'z onasini va uning o'lgan vaqtlarini o'ylardi. Gimnaziyada husnixat va imlo muallimi bo'lgan otasi – Petr Leontich, kelinning onasi o'lgandan keyin ichkilikka mubtalo bo'lib qolib, shu orqada oila yo'qchilik torta boshladi; bolalarning oyoqlarida na etik bor, na kalish, otani sud mahkamasiga chaqirtirdilar, «sudya pristav» kelib ro'zg'or jihozlarini xatlab ketdi... Qanday sharmandalik! Anya esrik otasiga qarashka, ukalarining yirtiqlarini yamashka, bozor-o'charni qilishka majbur bo'ldi; odamlar uning chiroyini, juvonlig' va go'zal qilig'larini maqtagan vaqtda, uning

o'ziga, butun dunyo uning arzimas shapkasini va siyoh bilan buyolgan botinkalaridagi yirtiqlarni ko'rayotkanday tuyulardi. Kechalari esa to'xtamas ko'z yoshlari hamda «yaqinda shu ichkilikka berilgani tufaylidan otani gimnaziyadan ham haydaydilar, u munga chidolmasdan onamga o'xshash, o'lib qoladi», degan o'jar tashvishlar. Mana, bir vaqt tanish-bilish xotinlar shoshilib-pishilib Anya uchun yaxshi kuyov axtara boshladilar. Ko'p o'tmay mana shu Modest Alekseichni toptilarkim, bu odam – yosh ham emas, chiroylik ham emasdi, lekin puli ko'p edi. Uning bankada yuz ming so'm puli bor, muning ustiga ota-bobolaridan qolgan ko'p yer-suvlari bo'lib ularni ijaraga qo'yardi. O'zi taqvodor, general hazratlarining oldilarida obro'si baland; odamlarning Anyaga tushuntirishlariga qaraganda, gimnaziya direktoriga va hatto mutavallisiga Petr Leontivichni bekor qilinmasin deb bir parcha qog'oz olib berish unga hech gap emas...

Kelinchakning o'ylari hali shu ikir-chikirlar ustida edikim, birdaniga, odam ovozlari bilan birga derazadan urib kirgan musiqa tovushi eshitildi. Bu – poyezdning yarim stansiyada to'xtashi edi. Platformaning u yog'ida – odamlar orasida garmon bilan birga arzon va chiyillagich bir skripka chalinmoqda, oy nurlariga g'arq bo'lgan «dacha»lar ketidan askariy orkestr ovozi kelmoqda edi: dacha aholisi raqs kechasi o'tkazayotkan bo'lsa kerak. Platformada dacha odamlari bilan birga yaxshi havoda yayrab ketmak uchun kelgan shahar odamlari sayr qilishardi. Butun shu dachali yerlarning egasi bo'lgan Artinov degan boy ham shu sayrchilar orasida edi; u – novcha bo'yli, bo'la va qoraturuq kelgan bir odam bo'lib, turqi armaniga o'xshagan, ko'zlari bo'rtib chiqib turgan va o'zi antiqa kiyim kiygan edi. Ya'ni: kalta ko'ylagining yoqa tugmalari yechilgan, oyog'ida ofitser nusxa shporli etik, yelkasiga, etaklari yerda sudralib yuradigan qora bir yog'murliq chakmon tashlangan... Uning ketiga, uzun tumshuqlarini quyi solib, ikkita olg'ir ov iti erchigan edi.

Anyaning ko'zlarida hali ham ko'z yoshlari yiltirab, lekin u endi na ona, na pul va to'yni eska olmasdan, oshna gimnazist va ofitserlarning qo'llarini qisar, quvnab-quvnab kular va:

– Omonmisiz! Kayfingiz nechik? – deb tez-tez ular bilan so'rashardi.

U vagondan pastga tushdi va, nihoyat darajada go'zal ko'ylagi va shlapasi bilan hammaning ko'ziga darrov qoqiladigan bo'lib, oydinda to'xtadi.

– Nimaga bu yerda to'xtab qoldik? – deb so'radi u.

– Bu yer to'qnash keladigan joy, pochta poyezdini kutib turibmiz, – deb javob qildilar.

Artinovning o'ziga tikilganini bilgach, u noz qilib ko'zini suzdi va ovozini baland chiqarib fransuzcha gapira boshladi; uning o'z ovozi o'ziga juda chiroylik eshitilganligidan, uning ustiga musiqa ovozi ham kelib va oyning aksi ham hovuzga tushib turganligidan, uning ustiga dong'i chiqqan don-juon (xotinparast) va sho'x mashrab Artinov unga tamakor va qiziquvchi bir ko'z bilan tikilganidan, uning ustiga u yerda hammani kayfi chog' bo'lganligidan kelinchak birdaniga o'zida bir xursandlik sezdi, so'ngra poyezd jo'nab, o'sha yerdagi tanish ofitserlar qo'llarini peshonalariga olib borib unga askariy salom bergan edilar, u «polka» kuyiga ashula boshlab yubordi; uning ashulasiga jo'r qilib allaqaylarda, daraxtlar orqasida askariy orkestir ham o'sha kuyni vangillamoqda edi; shunday qilib u, shu yarim stansiyadan; hech narsaga qaramasdan, albatta, bir kun baxtli va mas'ud bo'lishiga ishongani holda o'z kupesiga qaytib kirdi.

Kuyov-qayliq mozorda ikki kun tunagach, shaharga qaytib keldilar. Ular posholiq kvartirada yashardilar. Modest Alekseich xizmatiga ketganda, Anya yo royal chalar, yo bo'lmasa zerikib siqilganidan yig'lab yoxud yumshoq kursiga yonboshlab roman o'qir va moda jurnallarini ko'rardi. Ovqat vaqtida Modest Alekseich taomni ko'p yeyar; siyosat, mansablarga yangi tayin qilinganlar, boshqa mansablarga jildirilganlar va in'omlar to'g'risida gapirar; mehnat qilish kerakligi, oila hayotining bir zavq-safodan iborat bo'lmasdan, balki bir vazifa ekanini, so'mning tiyindan hosil bo'lganini hamda o'zining hammadan balandga din bilan axloqni qo'yganligini so'zlardi. Va qo'lidagi pichog'ini xuddi qilich singari ushlab turib:

– Har bir odamning o'ziga yarasha vazifasi bo'lmog'i lozim! – derdi.

Anya uning gaplarini eshitib qo'rqar, ovqatini yeyolmas, shu uchun aksari dasturxondan och holda turib ketardi. Ovqatdan so'ng eri uxlagali yotib xurragini qo'yar, Anya bo'lsa otalarinikiga ketardi. Otasi bilan ukalari unga allanechik qiziq bir qarash bilan qarashar, go'yo bu kirib kelmasdan burunroq pul-mol deb o'zi sevmagan, sovuq va dam bir odamga tekkani uchun uni so'kib o'tirganday ko'rinishardi, uning shildiram ko'ylaklari, bilaguzukleri va umuman butun xonoyimlarcha ko'rinishi ularga malol kelar va haqoratday bo'lib tushardi; bir vaqtda ular xijolat tortishar va bu bilan nima to'g'rida gapirishmakni ham bilmasdilar; lekin har holda yana uni sevmakda davom etalar va usiz ovqat qilishga ko'nikolmas edilar. Anya ham ular bilan birga o'tirib karam sho'rva ichar, shirbirinch va ham sham hidli qo'y yog'ida qovurilgan kartoshka yer edi. Petr Leontich qaltiroq qo'llari bilan shisha idishdagi araqni stakanga quygach, katta ishtiyoq bilan, lekin jirkinib turib, tezgina ichib yuborar, undan keyin yana bir stakan, uning orqasidan yana bir... Petya bilan Andryusha, yirik-yirik ko'zli arvoq va rangi zahil bolalar, stakanni olib qo'yib o'zlari ham gangiganlari holda:

– Qo'ying otajon... Bas endi, otajon... – deb javrardilar...

Anya ham bezovta bo'lib otasiga «Endi mundan nari ichmang» deb yalinar, otasi esa birdaniga qizib ketib ovqat stolini mushtlar:

– Mening ustimdan kuzatmakka hech bir kimsaga yo'l qo'ymayman! – deb qichqirardi. – Hoy bolalar! Hoy qiz! Hammangni ko'chaga haydab chiqaraman!

Lekin ovozida bir zaiflik va yuvoshlik asari bo'lganligidan hech kim uning po'pisasidan qo'rqmasdi. Ovqatdan so'ng uning yasanmoq odati bor edi: rangi oppoq, jag'lari ustarada kesilgani holda, u ingichka bo'ynini cho'zib, yarim soat qadar oyna qarshisida o'zini tuzatar; dam sochini tarar, dam o'zining qora mo'ylovlarini burar, ustiga atir sochar, chiroylik yoqalar bog'lar, so'ngra biyalay (qo'lqop)lari bilan «silindr» shapkasini

kiyib xususiy darslarga ketardi. Agar dam olish kuni bo'lsa uydan chiqmasdan har xil ranglar bilan yozuv yozar yoki vishshillab va irrillab ovoz chiqara turgan fisgarmonyani chalardi; bu asbobdan u tekis, ohangdor unlar chiqarishga urinar, o'zi ham qo'shilib jo'r bo'lar, yo bo'lmasa bolalarni koyib ularga:

– Juvonimarglar! Bo'yning uzulgurlar! Asbobni buzib qo'yib-siz! – deb baqirardi.

Kechqurunlari Anyaning eri o'zi turgan hovlida yashovchi o'z xizmatdoshlari bilan karta o'ynagani o'tirardi. Karta o'yini vaqtida to'ralarning – xunuk, bemaza yasangan, xizmatchi xotinlar singari qo'pol muomalali xotinlari ham to'planishar, shunda o'sha xotinlarning o'zlariga o'xshagan xunuk va be-maza g'iybatlarning bozori qizirdi. Modest Alekseichning Anya bilan birlikda teatrga borgan vaqtlari ham bo'ladi. Tanaffus chog'larida u o'z xotinini bir qarich ham o'zidan ajratmas, o'zi qo'ltiqlagani holda yo'laklar va foelarni aylantirardi. Birov bilan salom-alik qilishsa, darhol Anyaning qulog'iga; «Statskiy sovetnik» darajasidagilardan... «General hazratlari qabul qilib turadi»... Yoki: «Davlati katta... o'z qo'rasi bor» deb pichirlardi. Bufet yonidan o'tarkan Anyaning bir shirin narsa yegisi keldi; u shokolat bilan olma somsani yaxshi ko'rardi, lekin o'zida pul yo'q edi, eridan so'ragali uyaldi. Eri bitta nashvatini olib qo'lida siqib ko'rdi, so'ngra botinolmasdan:

– Necha pul? – deb so'radi.

– Yigirma besh tiyin, – dedilar.

Joyida, degach nashvatini yana joyiga qo'ydi; lekin hech narsa olmasdan bufetni tashlab ketish biroz o'ng'aysiz bo'lganligidan bir shisha «selter» suvi olib hammasini yolg'iz o'zi ichib edi, ko'zlaridan yoshlari chiqib ketdi va shunda Anya uni chindan ham yomon ko'rib ketgan edi.

Yo bo'lmasa, Modest Alekseich, birdaniga qip-qizarib ketib Anyaga:

– Mana bu kampirga salom ber! – derdi.

Anya:

– Men tanish bo'lmasam u bilan? – deb e'tiroz qilsa u:

– Baribir Davlat palatasi boshlig'ining xotini bo'ladi. Salom ber deyman men senga! – g'uduranib beradi. – Boshing uzilib tushmas!

Anya salom berar, darhaqiqat uning boshi joyida qolsa ham, lekin o'zi juda qiynalardi. Eri nima desa shuni qilar, so'ngra shunga munchalar aldandim men tentak! – deb o'zidan xafa bo'lardi. U bunga puli uchun tekkan emasmidi? Holbuki hozir uning yonida erga tegmasdan burungi qadar ham pul yo'q. Ilgari otasi o'n tiyin, yigirma tiyin bo'lsa ham berib turardi, endi – bir chaqa ham yo'q. O'g'irlab yo so'rab olishga botinolmasdi, chunki eridan qo'rqar, uning yonida qaltirab turardi. Anyaga shunday tuyulardikim, uning bu odamdan qo'rqishi burundan bor. Hu... Bolalik vaqtlarida xuddi qora bulutga yoki o'txonaga o'xshab odamning ustiga yurib keladigan eng haybatlik va qo'rqinch narsa, uning nazarida, hamma vaqt – gimnaziya direktori bo'lardi; oilada doim gapiriladigan va negadir hamma undan qo'rqadigan yana bir narsa general hazratlari edi: ulardan boshqa yana o'sha xil qo'rqinch narsalarning maydaraklaridan yana o'nlarchasi mavjud, ular orasida, mo'ylovlari qirilgan, zabtlik va omonsiz gimnaziya muallimlari bor, endi mana, nihoyat, taqvodor Modest Alekseich kelib qo'shildi, bu odamning hatto basharasi ham direktorga o'xshab ketadi. Anyaning xayolida bu narsalar hammasi birga qo'shilib kattakon va qo'rqinch bir ayiq suvratida, uning otasi singari zaif, ezilgan odamlarning ustiga soldirib kelishardi; qiz bechora bir narsa deb qarshi gapirgali botinolmas, qo'pol va dag'al muomalalar, sevgan va jonini olaturgan quchoqlashlar bilan uni «bulg'agan» vaqtlarida o'zini zavq olganday qilib ko'rsatadi.

Faqat birgina martaba Anyaning otasi uning eridan ellik so'm pul so'rab keldi, bu pul – to'lanmasa hech bir bo'lmayturgan bir qarzga berilmoqchi ekan, lekin qanday azoblar bilan olindi u pul!

Modest Alekseich o'ylab turgandan keyin:

– Yaxshi, bersam berayin sizga, – dedi: – lekin hozirdan tanbih qilib qo'yayinkim, to shu ichishingizni tashlamas ekansiz, sizga – mundan buyon hech qanday yordam bo'lmaydi mening tarafimdan. Davlat xizmatida bo'lingan bir kimsaga bu xil zaiflik

aybdir. Men sizga umum o'rtasida ma'lum va mashhur bo'lgan bir kayfiyatni bayon qilmasdan o'tolmayman, u ham, chunonchi shundan iboratkim, bu ibtilo chandon-chandon loyiq va qobil kishilarni nobud qildi, vaholanki, basharti u kishilar shu balodan imtino qilgan bo'lsalar, ehtimol, mazkurlar vaqti kelganda mansablarga sohib bo'lg'usi edilar...

Shundan keyin: «Kamina bandalari duoyi jonlarini»... «Soyayi davlatlarida»... «Ushbuning barobarida arz qilumankim»... degandak sertakalluf jumlalar chizilib ketdi, bechora Petr Leontich bo'lsa tahqir ostida ezilib, shu tobda o'zida biroz ichib kayf qilmoq uchun juda zo'r ishtiyoq sezardi.

Aksari yirtiq etik va juldur shimlar kiyib opalarinikiga mehmon bo'lib kelaturgan bolalar ham, shu xilda va'z-nasihat eshitmakka majbur edilar.

Modest Alekseich ularga ham:

– Har bir kimsaning o'ziga yarasha vazifasi bo'lmog'i lozim! – derdi.

Lekin pul bermasdi. Shu bilan birga, «Bu narsalar qora kunda asqotadi» deb, Anyaga uzuklar, bilaguzuklar va mayda tumorchalar olib berardi. «Hamma narsa joydamikan?» degan fikr bilan, tezda-tezda xotinning sandig'ini ochib, taftish ham qilardi.

II

Bu orada qish keldi. Mavlud (rojdestvo) oyidan ancha burun mahalliy gazetada – dekabr oyining 29-kuni dvoryanlar klubida o'yin kechasi «barpo qilinmog'i» xususida e'lon bosilib chiqdi. Odatda, bu xil o'yin kechalari qish faslida serob bo'lardi. Modest Alekseich, har kecha karta o'ynab bo'lganidan keyin, o'zi bezovta, mushavvash nazarlarila qur-qur Anyaga qarab qo'yib, to'ralarning xotinlari bilan pichirlashar, so'ngra allanarsalarni o'ylanib, anchagacha u burchak bilan bu burchak orasida yurinardi. Nihoyat, bir kun kech tunda u Anyaning yoniga kelib:

– Sen o'zinga o'yin kechasi uchun bir ko'ylak tiktirishing kerak. Uqdingmi? Ammo lekin Mariya Grigorevna, Nataliya Kuzmichnalar bilan kengashmasdan ish qilmagil dedi.

Va qo'liga yuz so'm pul berdi. Anya pulni oldi; lekin o'yin kechasi uchun ko'ylak buyurarkan hech kimdan maslahat so'ragani yo'q, faqat o'z otasi bilangina gaplashdi va o'z onasining, agar eson bo'lganda, o'yin kechasiga qanday kiyinib borishini esiga tushurmakka tirishdi. Uning marhuma onasi o'zi hamma vaqt so'ngi moda bilan kiyinar, Anya uchun ham ko'p harakat qilar, uni, xuddi bir qo'g'irchoq kabi yasantirardi; unga fransuz tilini va «mazurka» kuyiga o'ynashni juda yaxshi ta'lim bergan edi (chunki u o'zi erga tegmasdan burun besh yilcha murabbiya bo'lib xizmat etgan edi). Anya ham, onasiga o'xshagan, eski ko'ylakni buzib yangi qilish, qo'lqoplarini benzinda yuvish, bir xil qimmatbaho ziynat asboblarini alyatga olish, shu bilan birga, yana onasiga o'xshab, ko'z suzish, fransuz tiliga o'xshatmoq uchun «r» harfini halqumdan chiqarib gapirish, chiroylik jilvalar qilish, kerak joyda juda xursand bo'lib ko'rinish, mungli va sirli qarashlarni yaxshi bilardi. Qora soch bilan qora ko'z, tejog'lik hamda doim pardoz va tuzanishdan qolmaslik unga otasidan o'tgan udum edi.

O'yin kechasiga jo'nashga yarim soat qolganda, Modest Alekseich, Anyaga qarab turib bo'yniga nishonini osmoq uchun kelinning uyiga kirgan edi, u yerda, o'z xotinining chiroyini hamda yangi, harir liboslarning porloqligini ko'rib og'zi ochilib qoldi; so'ngra, «o'zida yo'q» bo'lib turib, ayrisaqollarini silay-silay:

– Kuydirma jonsan, lekin, xotin! Baloyijonsan! – dedi. So'ngra birdaniga tantanalik bir ovozga ko'chib davom etdi: – Anyuta, seni men baxtli qilgan edim, endi bugun meni sen baxtli qilmog'ing mumkin. O'tinaman sendan, general hazratlarining rafiqalarini ziyorat qil. Xudo haqqi; Anyuta, u kishi tufaylik xudaychilik mansabi tegib qolsa ham ajab emas!

O'yin kechasiga jo'nadilar. Mana: dvoryanlar klubi, uning doim bir odam muntazir turadigan katta eshigi. Dahliz: kiyim iladigan qaiqlar, qalin pistonlar, yugurishib yurgan xizmatchilar, yarim ochiq ko'krakli ko'ylak («dekolte») kiygan va shamollashdan qo'rqib yuzlarini yelpigich bilan to'skan xonimlar; chiroq gazlaridan va sallotlardan chiqqan boy. Anya, erining

qo'ltig'ida, zinadan yuqori chiqarkan, musiqa ovozini eshitib, juda ko'p chirog'lar orasida porlamoqda bo'lgan vujudini kattakon tosh oynada ko'rgach, ajib bir sevinch va hamda bir kun oydin kechada yarım stansiyada kelib kechkan saodat sharpasini his etdi. U shu tobda mag'rur, o'z-o'ziga ishongan, umrida birinchi martaba o'zini qiz deb emas xonim deb sezgani holda, yurushlari va harakatlarida istar-istamas marhum onasiga taqlid qilib borardi. Umrida birinchi marta o'zini boy, erkin deb sezardi. Hatto shu er bilan birga bo'lishi ham uni xijolat qilmasdi, nega desangiz, klub bo'sag'asini hatlar-hatlamas, u savqi tabiiy quvvati bilan angladikim, bu qari erining birga bo'lishi shuni hech bir paslatmaydi, balki, aksincha, unga erkaklarni qiziqtiradigan shirin bir sirlilik beradi. Katta zalda musiqa ovozi vangillab, o'yin esa allaqachon boshlangan edi. Sovuq posholiq kvartiradan qutilib bu yerga yorug'lik, turli-tumanlik, cholg'u shovqin-to'palang ta'siriga tushkach, Anya keng zalni bir qo'r ko'zdan o'tkazdi-da, «oh, qanday yaxshi!» deb o'yladi va darhol – ko'pchilik orasidagi oshnalariga; ilgarilari o'yin kechalarida va sayillarda uchratkan odamlariga; butun shu ofitser, muallim, advokat, to'ra, mulkdor, general hazrat va Artinovlarga; kambag'allar foydasiga ul-bul sotmoq uchun xayrot bozorchasidagi ko'shklar va shiponlarga kirib o'z mavqelarini egallagan, juda yasangan, «dekolte» ga zo'r bergan chiroylik va xunuk... yuqori jamiyat xonimlariga ko'zi tushdi. Gimnaziyada o'qigan vaqtlarida Starokiyev ko'chasida tanishgani va shu tobda familiyasining unutkani bir odam – yelkasida epolitlari bor haybatlik bir ofitser birdaniga allaqaydan kelib chiqib muni o'yinga da'vat qildi, bu ham erini tashlab u bilan birga maydonga otildi va shundayoq Anyaga – o'zi qattiq bo'ronda yelkanlik qayiqchada suzib ketayotkanday, eri bo'lsa qirg'oqlarda qolib ketkanday tuyuldi... U qo'ldan qo'lga o'tib, musiqadan va g'avur-g'uvurdan mast bo'lib, rus tiliga fransuz tilini aralashtirib, «r» harfini halqumdan chiqarib, kulib, na erini, na boshqa birov va na boshqa bir narsani esiga olmay, «valis» ni, «polka»ni, «kadril»ni – hammasini hirs qo'yib, berilib o'ynadi.

Uning erlar qoshida muvaffaqiyat qozongani aniq edi, zotan, boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi, u talvasadan bo'g'ilganday bo'lar, titrab-qaltirab qo'lidagi yelpig'ichni mijig'lar va yomon chanqardi. Otasi Petr Leontich eski, taxlari buzulgan va benzin hidli fragi bilan kelib kichkinagina talinkachada qizil morojniy uzatdi.

So'ngra katta zavq bilan qiziga qaragach:

– Bugun juda ham ochilibsan, – dedi: – shoshilibroq er qilganing uchun hech qachon bugungiday afsus yeganim yo'q edi... Nega munday qilding? Sen bu ishni bizni deb qilding, bilaman, lekin... – shu yerda qaltiroq qo'llari bilan yonidan bir o'rov pul olib dedi: – bugun darslarimning haqini oldim, eringga qarzimni qaytarayin.

Qizi, talinkachani otasining qo'liga tutqizdi-da, qo'ltig'idan olgan bir odam bilan birga, o'yinga kirib ketdi va otasining «parket» ustidan siyg'anib borib bir xonimni qo'ltig'iga olganini va u bilan o'yin maydoniga tushkanini o'z jo'rasining yelkasi ustidan, zo'rg'a-zo'rg'a ko'ra oldi.

– Ichmasa, qanday sevimli odam! – deb o'yladi u shu tobda.

Mazurkani yana o'sha haybatlik ofitser bilan o'ynadi; ofitser, xuddi askar choponi kiygan qo'tos kabi, viqorli va og'ir bosiq yurar, ko'kragi va yelkasi bilangina o'ynar, zo'rg'a-zo'rg'a oyoq depsar, sira o'ynagisi kelmas, lekin Anyaning yonginasida qanot qoqib talpinar, go'zalligi va ochiq bo'yinlari bilan uning qitig'ini keltirardi. Anyaning ko'zlari jangarlik bilan yonar, harakatlari uning hirsi g'alaba qilganini ko'rsatardi; ofitser borgan sari loqaydlashar va qo'llarini Anyaga tomon, xuddi bir podsho kabi, iltifot bilan uzatardi.

Ko'pchilik orasida bularga:

– Ofarin, ofarin!.. derdilar.

Bora-bora haybatlik ofitser ham chidayolmadi: unga jon kirdi, unda bir hayajon boshlandi, endi Anyaning fusuniga uchib, o'yinga astoydil kirishdi va bo'z yigitlarday yengil harakat eta boshladi; Anya bo'lsa faqat yelkasi bilangina o'ynar, firibgar qarashlar bilan boqar, go'yo jo'rasini qul bilib, o'zini malika

hisoblardi va shu tobda unga shunday tuyulardikim, go'yo hammaning ko'zi bularda, hammaning havasi kelgan, hamma kuyadi. Haybatlik ofitser munga endi qulliq qilib turgan ediki, birdaniga xalqning orasi ochilib, erkaklar qo'llarini tashlaganlari holda allaqanday g'alati bir vaziyatda to'xtaldilar... Muning sababi, general hazratlari, ikki yulduzlik frak kiygani holda, Anyaga tomon kelayotgan edi. Shubhasiz, general hazratlari Anyaning yoniga borardilar, nega desangiz, ko'zlarini to'ppa-to'g'ri unga tikib, qand shimigan odamday kulardilar, shu bilan birga, chiroylikkina xotinlarni ko'rgan vaqtlaridagi odatlarini qilib, lablarini kavshardilar.

– Juda xursandman, juda xursandman... – deb gap boshladi u. – Shunday xazinani bizdan berkitib yotkani uchun eringizni qamoqqa buyuradigan bo'ldim endi men. – U Anyaga qo'l berib turib davom etdi: – men sizga rafiqamning iltimosini eshittirgali keldim: siz bizga yordam qilishingiz kerak... Shunday... sizga husningiz uchun mukofot tayin qilmoq kerak... Amerikadagi singari... shunday... Amerikalilar singari... mening rafiqam sizga muntazir.

Shunday qilib, u Anyani shipongga olib keldi. U yerda, yuzining paski yarmi haddan ziyoda katta bo'lganligidan, og'ziga katta bir tosh solib olganday ko'rinadigan qari bir xonim o'tirgan edi.

U kishi dimog'lari bilan ping'illab, kuyga o'xshashroq qilib:

– Bizga yordam etsangiz! – dedi. – Hamma chiroylik xotinlar xayrot bozorida ishlashayotirlar, faqat siz o'zingizgina negadir qochib yuribsiz. Nega bizga yordam qilay demaysiz?

Shundan keyin u xonim ketib, uning o'rniga – piyolachalari qator chizilgan kumush samovarning yoniga Anya o'tib o'tirdi. O'sha ondan boshlab savdo-sotiq ham avj oldi. Bir piyola choy uchun Anya kam deganda bir so'm olardi, haligi haybatlik ofitserga esa uch piyola ichirdi. Yozda Anya ko'rgan g'alati kiyimda emas – el qatori «frak» kiyib qavargan ko'zli va bo'g'ma kasalli Artinov keldi. Ko'zlarini Anyadan uzmasdan bir qadah shampanni shimirgach yuz so'm chiqarib berdi, keyin bir piyola

choy ichib yana yuz so'mlikni uzatdi – shularning hammasini u bo'g'ma kasal ta'siri bilan indamasdan qilardi... O'z tabassumlari va qarashlaridan bu odamlarga katta bir zavq va na'shadan o'zga narsa yetmaganiga xo'p ishongan Anya, yog'lama til bilan o'tkan-ketkanlarni chaqirib ularning pullarini olardi. O'zining faqat shu g'avur-g'uvurli, porloq, kulib turuvchi hamda cholg'usi, o'yin va xushtorlari bor hayot uchungina yaratilganini u endi anglar, ustiga bosib kelib bo'g'moqchi bo'lgan va shu bilan muni qo'rqitib kelgan eski qo'rquv, endi shu tobda unga hazilakam bir narsa bo'lib ko'rinardi; u endi hech kimdan qo'rqmas, faqat onasining bo'lmaganiga va o'zi bilan birga bu kunlarni ko'rib sevinmaganiga afsus etardi.

Rangi o'chkan, lekin hali o'zini tetik ushlagan Petr Leontich qizining yoniga kelib bir qadah konyak so'radi. Otasining yarashmagan bir so'z aytib yuborishidan qo'rqib, Anya qip-qizarib ketdi (shunday kambag'al, shunday sodda otasi borligi uchun hali ham xijolat tortardi), lekin otasi, konyakni ichdi, yonidagi bir to'da pul orasidan bitta o'n so'mlikni olib tashlagach, hech narsa demasdan, sipolik bilan u yerdan yiroqlashdi. Biroz o'tkach, Anya, otasining, o'z jo'ra xonimi bilan grandrond degan o'yinda – yonidagilar bilan qo'l ushlashib – aylanishkanini ko'rdi, lekin bu safar u o'zining jo'ra xonimini qattiq xijolatga solib, u yoq-bu yoqqa tentiraklanar va allanarsalar deb shovqin solardi. Shunda Anya – mundan uch yilcha burun otasining bir o'yin kechasida shunaqa tentiraklanib shovqin solganlarini esladikim, natijada uni o'z uyiga mirshablar olib borib qo'yganlar, ertasi kuni esa gimnaziya direktori muallimlikdan haydamoqchi bo'lgan edi. Bu esdalikning shu tobda kelishi qiziq!

Ko'shk va shiponlardagi samovarlar o'chib, horib-charchagan xayrotchi xonimlar tushkan pulni og'zida tosh bor keksa xonimga o'tkazgach, Artinov Anyani qo'ltig'lab, xayrot bozorida ishtirok qilganlar uchun dasturxon yozilgan zalga olib o'tdi. Dasturxonga ko'p emas, faqat yigirma qadar odam o'tirgan, lekin shovqin katta edi. General hazratlari qadah ko'tarib munday dedilar: «Bu nozi ne'matlar bilan to'la dastarxon ustida bugungi bozorning barpo

qilinmog'iga sabab bo'lgan bechorahol dasturxonlarning rivoji uchun qadah ko'tarmak bejo bo'lmasa kerak». Brigada generali turib: «qarshisida to'plar ham ojiz qolaturgan bir kuch»ning (ya'ni xotin-qizlarning) sharafiga qadah taklif qilgach, hamma erkaklar, chuqishtirmoq uchun, qadahlarni xonimlar tomonga uzatdilar. Xursandlik, kayf-safo juda joyida edi!

Anyani uyiga uzatkan vaqtlarida tong otkan va oqsoch xotinlar bozor qilishga chiqqan edilar. U juda xursand, xursandligidan mast-behush, yangi ta'sirlarga g'arq bo'lgan, horib-tolgan bir holda uyiga kelib, naridan beri ust-boshini yechdi-da, yotog'iga o'zini tashlab darhol uyquga ketdi...

Kunduz soat ikkiga yaqinlashkanda oqsoch xotin kirib uni uyg'otdi va Artinov janoblarining ziyorat uchun kelganlarini arz qildi. Anya tezgina kiyimlarini kiyib mehmonxonaga chiqdi. Artinovdan keyin, ko'p o'tmay, xayrot bozoriga ishtirok etgani uchun qulluq qilgali general hazratlarining o'zlari keldi. General, tillari bilan asal tatib va lablarini kovshab turib Anyaga qaradi va uning qo'lini o'pdi, so'ngra mundan so'ng ham kelib turishga ruxsat so'ragach, qaytib ketdi. Anya esa hayron bo'lib, xuddi afsunlanganday, hayotidagi o'zgarishning, u ajib o'zgarishning muncha tez bo'lganiga ishonolmay – mehmonxonaning o'rtasida turib qoldi; xuddi shu vaqtda eshikdan eri – Modest Alekseich kirib keldi... Endi u odam uning oldida – Anya o'zi ko'rib yurgan va kuchli odamlar bilan katta odamlar oldida qiladigan odatini qilib – mulozimat, xushmuomalalik, qullar va xizmatkorlar ta'zimi bilan to'xtagan edi; Anya, bu ishi uchun o'ziga hech narsa yetmasligiga ishongani holda, xursandlik, achchiq va nafrat bilan, har bir so'zni dona-dona chiqarib turib dedi:

– Chiqing bu yerdan, hayvon!

Shundan keyin Anyaning hech bir bo'sh kuni bo'lgani yo'q, negaki, u bugun shahar tashqarisida bo'ladigan tafarrujga, ertaga – ot yo arava sayohatlariga, indinga – teatr-u o'yinga ishtirok qilardi. Har kun tongga yaqin uyga kelar, eri bilan bir yotoqda yotmasdan joyini yerga solib mehmonxonada yotar, so'ngra guldastalar ostida qanday uxlaganini ta'sirlik qilib hammaga aytib

berardi. Unga ko'p pul kerak bo'lardi, lekin endi bu to'g'rida eridan sira qo'rqmasdan uning pullarini o'z puliday ishlatardi; pul kerak bo'lsa eridan so'rab yoki talab qilib o'tirmas, faqat schyot yuborar, yo bo'lmasa, «ushbuni topshirguvchiga 200 so'm berilsin» yoki: «to'xtovsiz 100 so'm to'lansin» deb bir parcha qog'oz yozardi.

Pasxa bayramida Modest Alekseichka ikkinchi darajalik Anna[1] nishoni tegdi. Shu to'g'rida qulliq qilgali generalning yoniga borganida, general, o'qib turgan gazetini bir chekkaga olib qo'yib kursiga mahkamroq o'rnashdi.

So'ngra, o'zining qizil tironoqli oq qo'llariga qarab turib:

– Demak, endi sizning Annangiz uchta bo'ldi: biri – ko'kragingizda, ikkisi – bo'yningizda, – dedi.

Modest Alekseich qattiqroq kulib yubormayin deb ehtiyot yuzasidan ikki barmog'ini lablariga qo'yib turib:

– Endi kichkinagina bir «Vladimircha»[2] dunyoga kelmaganini kutishga to'g'ri keladi. U holda o'z tarbiyalariga olmoqlari ni so'rashga jur'at qila olaman.

U bu so'zlari bilan IV darajalik Vladimir nishonini qasd qilgan edi va shu ondayoq – bu qadar hikmatlik va o'tkir kinoya topkanini qanaqa qilib hammaga aytib berajagi to'g'risida o'ylab ketdi, so'ngra yana shunday hikmatlik biror narsa topib aytmoqchi bo'lgan edi, general hazratlari yana gazeta o'qishga tushdilar va «bas» deganday qilib boshlarini tebratdilar.

Anya bo'lsa hamma vaqt uch otli izvoshlarda kezar, Artinov bilan ovga chiqar, bir pardalik pyesalarda o'ynar, kechki ovqatni boshqa joylarda qilar, o'zlarinikiga juda kam kelardi. Ovqatni ular o'zlari qilardilar. Petr Leontich ichkilikka burungidan ko'proq berilgan, pul degan narsa yo'q va fisgarmoniya allaqachonlar qarzga sotilib ketkan edi. Bolalari yolg'iz o'zini ko'cha-ko'yga chiqarmaylar, yiqilib netmasin deb hammalari kuzatib

---

[1] *«Anna»* – 1) ko'krakka taqiladigan va bo'yinga osiladigan bir nishonning nomi. 2) Xotin kishining nomi.

[2] *«Vladimir»* – to'rtinchi darajalik va egasiga dvoryanin maqomini beradigan nishon va erkak kishining nomi. Bu yerda ham «Vladimir nishoni olsam», ham «Vladimir degan o'g'il ko'rsam» demoqchi.

yurardilar; bir kun Starokiyev ko'chasida izvosh chopishlari vaqtida ular Anyaga duch keldilar: Anya, ikki ot qo'shilgan, lekin chekkadagi ot yolg'iz chopib borish uchungina – bo'sh qilinib bog'langan va kucher kursisida Artinovning o'zi o'tirgan izvoshda edi. Petr Leontich boshidan «silindr» shapkasini oldi, so'ngra ularga allanima deb qichqirmoqchi bo'lgan edi, Petya bilan Andryusha darhol uni qo'ltiqga olib:

– Qo'ying otajon... Bas, otajon... – deb javrashdi.

AZA OCHISH

Tepa To'g'on qishlog'idagi Bibi Maryam ibodatxonasida peshin ibodati hozirgina tugab, qavmlar jonlangancha tashqariga yopirilib chiqishmoqda. Ularning ichida baqqol Andrey Andreichgina joyidan jilmaydi. O'zini yakkash oqil chog'lab yuruvchi bu kishi mehrobning o'ng yog'idagi kliros[1] panjarasiga suyanib olgan. Bir paytlari husnbuzardan g'udurish tortib, andomini yo'qotgan raftori qirtishlanib, unga tuyg'u-kechinmalarning qarama-qarshi nuqsi urib qolgan: bir qarasang, bu boqish taqdirning taqozosiga tan bermasdan iloj yo'qligini anglatsa, yana bir qarasang, uning yonginasidan o'tib ketayotgan uzun movut chakmonli erkaklar hamda ola-bula ro'molli ayollarga nisbatan u o'zini bag'oyat takabbur va gustoxona tutayotganligini bildirardi.

Yakshanba kuni bo'lgani uchun u yasanib olgan: egnida sariq suyak tugmali movut palto, ko'ylagining barini ko'k shimidan chiqarib, oyoqlariga esa andishali va taqvodor kishilargina kiyib yuradigan beso'naqay kattakon kalishni ilgan edi.

U qo'rg'oshinday og'ir qovoqlari ostidagi ko'zlarini erinchoqlik bilan sanamlarga qaratgan: sanamlarda azaldan unga tanish avliyo-yu anbiyolarning ziyobaxsh siymolari tasvirlangan; bundan tashqari, u, lunjini shishirgancha shamlarni puflab o'chirayotgan qorovul Matveyni, mehrobning poyida to'shog'liq uringan gilamni hamda shu tobda mehrobdan chiqa solib ibodatxona oqsoqoliga tilyog'lamalik qilayotgan kashish Lopuxovni ham nazaridan qochirmayotgandi... Bularni ko'raverib Andrey Andreichning ko'zlari pishib ketgan – hammasini besh qo'lday biladi... Darvoqe, shu tobda cherkovning shimol tomondagi eshigi oldida hazrat Grigoriy ridosini ham yechmasdan payvasta qoshlarini chimirgancha turardi.

---

[1] *Kliros* – nasorolar cherkovida xor a'zolari turadigan joy.

«Qoshlarini kimga chimirayotganiykan, tan-joning omon bo'lgir otaginam? – ajablandi baqqol. – Depsinganini-chi! Bu nimasi ekan? Kimni chaqirayotgan bo'lsa?

Andrey Andreich ibodat qiluvchilardan butunlay bo'shagan cherkovning ichkarisiga ko'z yugurtirdi. Eshikning oldidagi o'n chog'li kishi ham mehrobga ters qarab turishardi.

– Chaqirganda kela qolsang bo'lmaydimi? Serrayib turganing nimasi? – Hazrat Grigoriyning jahli chiqayotgandi. – Senga aytyapman!

Baqqol hazrat Grigoriyning jahldan qizargan yuz-ko'zlariga hadiksirab boqqancha, bu qosh chimirish va imo-ishoralar uning o'ziga ham doxil bo'lishi mumkinligini fahmladi. U titrab-qaqshab klirosdan nari ketarkan, beso'naqay kalishini shapillatib, talmovsiragancha mehrob sari yurdi.

– Xudovandi karim rahmat qilgur bandayi ojiza Mariyaning ruhini yodlab sham yoqqan senmiding? – baqqolning ter bosgan yuzlariga vajohatli tikilgancha so'radi otaxon.

– Shunday, otaxon.

– Bundan chiqdi, manavini ham sen yozibsan-da? A?

Hazrat Grigoriy zarda bilan bir enlik qog'ozni uning ko'zlariga pesh qiladi. Unga egri-bugri qilib yirik-yirik harflar bilan: «Yo'ldan adashgan ojiza bandang Mariyaning gunohidan o'tgaysan», deb yozilgandi.

– Shunday... Kamina yoz...di, – dedi chaynalib baqqol.

– Qanday hadding sig'di? – gapni ichakday cho'zib, sekin gapirdi hazrat. Uning xirillagan ovozida ham nafrat, ham sarosima zohir edi.

Baqqol hech narsaga tushunmay, unga angrayib qarab turardi. Uning butun vujudini vahima bosgan: shu paytgacha hazrat tepa to'g'onlik ziyolilarga bunday dag'al muomala qilmagandi-da. Ular bir-biriga indamay tikilib qolishgandi. Baqqolning betlariga tepgan ajablanish shunchalik kuchli ediki, uning semizlikdan yog' bosgan yuzlari xuddi achigan xamir singari har yoqqa yoyilib borardi.

– Qanday jur'at etding? – dedi otaxon yana.

– Kim... Kim... ni? – merovlanganicha savolga savol bilan javob qiladi Andrey Andreich.

– Tushunmadingmi deyman? – hazrat Grigoriy hayron bo'lib ovozini pastlatdi va qo'l siltagancha ortiga tisarildi. – Yelkangda nimani ko'tarib yuribsan, – kallanimi yo qovoqnimi? Sen yozgan behayo so'zni hatto ko'cha-ko'yda aytgani ham uyalasan kishi. Nimaga ko'zlaringni go'laytirasan? Bu so'z nimani anglatishini nahotki bilmasang?

– E-ha-a, siz hali o'sha shallaqini aytyapsizmi? – qizargan ko'zlarini pirpiratib bobillay ketdi baqqol. – Axir Xudovandi karim o'zining lutfi karami ila o'sha, kim edi... haligi shallaqining gunohlaridan o'tgan... rahmat qilgan...

Baqqol o'zini oqlashga urinib yana biron vaj keltirmoqchi bo'ldi, lekin fikri chuvalib, paltosining yengi bilan lab-dahanini artib qo'ya qoldi.

– Sening tushunchang butunlay boshqacha-ku, – Hazrat Grigoriy yana qo'l siltadi. – Ori rost, parvardigor uning gunohidan o'tgan, fahmlayapsanmi? Mag'firat etgan, sen bo'lsang kishi aytishga andisha qiladigan so'zlar bilan tahqirlayapsan. Axir kimni haqorat qilyapsan? Vafot etgan jigargo'shangni-ya! Bunday ma'siyatni nainki muqaddas kitoblarda, balki dunyoviy bitiklarda ham uchratmaysan. Yana aytaman, Andrey, oqilligingni hadeb pesh qilaverma. Ha, bo'tam, bu yerda zukkoliging ketmaydi. Modomiki, Ulug' Zot oldida hammamiz sinovda ekanmizmi, demak, mo'min-qobil bo'lib yurgil, duch kelgan joyga tumshug'ingni suqaverma. Uqdingmi?

– Axir u, ma'zur tutgaysiz, aktyorkalik qilgan, – pisanda qildi Andrey Andreich.

– Aktyorka deysanmi? Kim bo'lmasin, qazosi yetgandan keyin marhumning barcha nomayi a'mollaridan faromush bo'lmoq vojibdur. Kirdikorlarini yozish-ku, inchunin?

– Rost aytasiz... – ma'qullaydi baqqol.

– O'zi sening boplab ta'ziringni berish kerak. – Mehrobning ichkarisidan kashishning do'rillagan ovozi eshitiladi. Uning nafratomuz qarashi izza tortgan baqqolni naq teshib yuboray

dedi. – Rahmatli qizing mashhur artist edi. Uning vafoti haqida hatto gazetalarda yozishdi-ya. O'rgildim sendaqa faylasufdan.

– Aslida ham shundayku-ya... – g'o'ldıragancha dedi baqqol. – Ehtimol, nojo'ya aytib yuborgandirman, biroq, qıblagohım, kamina bu bilan marhuma qizini zinhor ayblamoqchi emas, shunchaki sizlarga kimning ruhi yodlanayotganligi ravshan bo'lishi uchun yozgandı, xolos. Zero, haqqıga ibodat qilinayotgan bandaning nasl-nasabi ma'lum bo'lishi kerak-ku. Shunday emasmi?

– Yaxshi emas, Andrey. Xudoyi taolo, balki bu safar gunohingdan o'tar, ammo-lekin bu yog'iga o'ylab ish tut. Avvalambor, hadeb zukkolik qilaverma, boshqalarga qarab mulohaza yurit. Qani, endi o'n topqir ta'zım bajo keltır-da, keyin ketaver.

– Xo'p bo'ladi, – dedi baqqol, hazratning va'z-nasihatlari tugaganidan xursand bo'lib va raftoriga viqor va sipolik bag'ıshlab. – O'n topqır ta'zim dedingizmi? Bajonidil! Endi, otaginam, sizga bir iltimosim bor... Nima bo'lganda ham, kamina rahmatlining padarı buzrukvorı. Shu... desangız, qizımga... aza ochsam deyman. Ma'zur tutgaysız, shunga sizdan...

– Bu ıshing ko'p ma'qul, – dedi hazrat Grigoriy ruhoniylik libosini yecharkan. – Yaxshi o'ylabsan. Bo'pti, endi ketaver. Biz hozir chiqamiz.

Andrey Andreich andomiga jiddiy azadorlik ifodasini solib, qizargancha mehrobdan uzoqlashdi va ibodatxonaning o'rtasiga borib to'xtadi. Qorovul uning oldidagi stolga qandaydir taom keltirib qo'ygach, marosim boshlanadi.

Cherkov sukunat og'ushida. Ladan[1] tutatiladigan idishning jarangi hamda xirgoyinamo tilovat eshitiladi... Baqqolning yonida qorovul Matvey va akashakqo'l bolasini yetaklab olgan doya xotin Makarevna ham bor. Garchand kashishning tilovati bo'g'iq, yoqimsiz bo'lsa-da, Andrey Andreichning qalbini borgan sayin kibr-u havo tark etib, teran mahzunlik egallay boshlaydi. Shunda u o'zining Mashutkasini eslab ketadi... Hamon yodida, qizi u tepa to'g'onlik to'ralarga malaylik qilib yurgan kezlari tug'ilgandi.

[1] Ladan – dinıy marosımlarda tutiladıgan bazı o'simliklarning xushbo'y mumi.

Yugur-yugur bilan bo'lib qizaloq bo'yga tortganini ham sezmay qoldi. Ko'z ochib-yumguncha oq mallasoch qizcha ko'zlari tangaday-tangaday xushandom xilqatga aylandi. Boyvachcha to'ralar Mashutkani o'z farzandi qatori ko'rib, qog'ozga o'ralgan qandday ardoqlab parvarish qilishdi. Ular bekorchilikdan qizchaga o'qish, yozish va raqs tushishni o'rgatishdi. Otasi esa fursat topib, Mashutkani vaqt-vaqti bilan ibodat qilishga, ilohiy kitoblardan saboq chiqarishga da'vat etardi. Badqovoq va takabbur baqqolning saboqlarini qiz jon qulog'i bilan tinglar edi...

Uddaburon Andrey Andreich jamg'argan pullariga qishlog'idan baqqollik do'koni ochib olgach, Mashutka to'ralarga qo'shilib, Moskvaga jo'nab ketdi.

Vafotidan uch yil oldin Mashutka otasini ko'rgani keldi. Baqqol qizini arang tanidi. Husni tavoshshih va kiyinishda bop oyimtillalardan qolishmas edi. Gapirganda ham nutqida kitobiy kalomlardan ishlatar, tamaki chekib, choshgohgacha uxlar edi.

Andrey Andreich qizidan kasb-korini so'raganda, u otasiga tik qarab: «Men artistman!» dedi. Qizining hozirjavobligi sobiq malayga o'taketgan surbetlik bo'lib tuyuldi. Mashutka o'zining aktrisalik faoliyati va bu sohada erishgan yutuqlaridan maqtanganda, u otasining avzoyi buzilganini ko'rib indamay qo'ya qoldi. Shundan keyin ota-bola bir-biri bilan gaplashmay qo'yishdi. Shu zaylda ikki hafta o'tib ketdi. Jo'nab ketadigan kuni Mashutka otasini sohil bo'yiga sayrga taklif qildi. Kuppa-kunduz kuni or-nomusli qishloqdoshlarining ko'z o'ngida artist qizi bilan sayrga chiqish qanchalik hamoqat tuyulmasin, Andrey Andreich baribir rozi bo'ldi.

– Qanday xushmanzara, so'lim joylar-a! – Mashutka atrofga boqib to'ymas edi. – Tabiatning betakror go'zalligini-chi. Ona yurtimning husn-u tarovatidan nigohimni uzolmayman.

U o'zini tutolmay yig'lab yubordi.

«Bu yerlarning turgan-bitgani dahmaza... – qizining dilida jo'sh urayotgan zavq-shavqni idrok eta olmagan Andrey Andreich tabiatning jamoliga angrayib boqqanicha o'yga toldi. – Bu joylardan yorug'lik kutish – itdan chorig'lik kutishday gap».

Mashutka nuqul yig'lar, yig'lash barobarida paymonasi to'lib borayotganini ko'ngli sezganday, o'pkalarini to'ldirib, chuqur-chuqur nafas olardi...

Xuddi ilon chaqqan odamday, Andrey Andreich o'rnidan sapchib tushdi va shuuriga o'tirib qolgan badbin kayfiyatdan qutulmoqchiday tez-tez cho'qina boshladi...

– Yo Parvardigoro, – ming'irlagancha yukindi u, – zalolatga botgan ojiza bandang Mariyani o'z rahmatingga olgin-da, uni bilib-bilmay qilgan ma'siyatlarini mag'firat qil...

Cholning og'zidan yana o'zi anglamagan holda noporom so'z chiqib ketdi, qaysiki bu so'z uning ong-shuuriga shunchalik mahkam yopishib ketgandiki, uni na hazrat Grigoriyning pand-nasihatlari bilan, na mix bilan sug'urib tashlash mumkin edi. Shu lahzalarda doya xotin Makarevna chuqur uh tortib, damini ichidan chiqarmay nimalarnidir pichirlar, uning akashakqo'l Mitkasi bo'lsa xayollar og'ushida parvoz etardi.

Kashish qo'lini yonog'iga bosib, «...dard-u sitam, g'am-g'ussa va oh-ofatlarni o'zing aritgaysan...» deb tilovat qilishda davom etardi.

Isiriqdondan ko'kimtir tutun sizib chiqib, cherkovning hayot asaridan mosuvo befayz gumbazlari aro tepadan qiyalab tushayotgan serbar ziyosida cho'milardi. Go'yo shu ziyoga eshilib rahmatli aktrisaning jonsarak ruhi ham uchib yurganga o'xshardi. Murg'ak go'dakning qo'ng'iroq sochlari yanglig' ladan tutuni havoda aylanib-aylanib uchar va sho'rlik Mashutkaning nola-yu fig'onlariga limmo-lim ruhidan o'zini olib qochayotgandek, ibodatxonaning baland derazalari sari o'rlab bormoqda edi.

MUNDARIJA

Nashriyotdan 4
Niqob. Abdulla Qahhor tarjimasi 7
Yovuz niyatli kishi. Abdulla Qahhor tarjimasi 13
Lozim choralar. Abdulla Qahhor tarjimasi 19
Semiz va oriq. Abdulla Qahhor tarjimasi 24
Xameleon. Abdulla Qahhor tarjimasi 27
Unter Prishibeyev. Abdulla Qahhor tarjimasi 31
Chiqdi. Abdulla Qahhor tarjimasi 36
Chinovnikning o'limi. Abdulla Qahhor tarjimasi 38
Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Odil Rahimiy tarjimasi 41
Hasrat. Zumrad tarjimasi 46
Nodonlik. Zumrad tarjimasi 52
Ikki muxbir. Odil Rahimiy tarjimasi 57
Mujiklar. Nabi Alimuxamedov tarjimasi 61
Soylikda. Nabi Alimuxamedov tarjimasi 96
Vanka. Odil Rahimiy tarjimasi 142
Uyqu istagi. Zumrad tarjimasi 147
Tegirmonda. Odil Rahimiy tarjimasi 153
Yovuz niyatli kishilar. Odil Rahimiy tarjimasi 160
Oqsoqol. Odil Rahimiy tarjimasi 165
Qishloq luqmonlari. Zumrad tarjimasi 171
Pochta mudiri bilan suhbatim. Odil Rahimiy tarjimasi 178
Oltinchi palata. Zumrad tarjimasi 182
Jonginam. Odil Rahimiy tarjimasi 244
G'ilof bandasi. I. Razzoqov tarjimasi 258
Sarlavhasiz. Abdulla Qahhor tarjimasi 274
O'g'il bolalar. Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi 279
Kashtanka. Abdulla Qahhor tarjimasi 286

Vakil yoki Dezdemonovning 25 so'm yo'qotgani haqida qissa
Odil Rahimiy tarjimasi 300
Grisha. Abdulla Qahhor tarjimasi 304
San'at asari. Odil Rahimiy tarjimasi 308
Mushtipar. Odil Rahimiy tarjimasi 313
Latta. Odil Rahimiy tarjimasi 319
Kishi bilmas ko'z yoshlari. Zumrad tarjimasi 322
Qaynona – advokat. Zumrad tarjimasi 329
Ayb kimda. Zumrad tarjimasi 331
Orden. Zumrad tarjimasi 335
Oy tutilishi. Abdulla Qahhor tarjimasi 339
Eski qo'ra. Cho'lpon tarjimasi 341
Bo'yinga osilgan Anna. Cho'lpon tarjimasi 349
Aza ochish. Ilhom Hafizov tarjimasi 366

KOINOTGA SAYOHAT

Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$
Hajmi: 96 b.
Muqovasi: yumshoq.

«Buyuk portlash» natijasida olam yaraldi. Koinot paydo bo'ldi. Yer, Quyosh, Sayyoralar... xullas, hayot boshlandi.

Qo'lingizdagi ushbu kitobda tabiat hodisalarining nima ekanligi, tarixi, qanday yuzaga kelishiga doir savollarga ilmiy asoslangan holda javob berilgan. Bolajonlarning olam haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Oyda qanday odam yashaydi, Yer, Oy, Quyosh qanday paydo bo'lgan, Yer harakatlanadimi yoki bir joyda turadimi? Shuningdek, tog'lar, g'orlar qanday paydo bo'lganligi haqida bir necha o'nlab qiziqarli ma'lumotlarni ushbu kitobdan bilib olishingiz mumkin. Kitob turli rangli illustratsiyalar bilan bezatilgan.

O'SIMLIKLAR OLAMIGA SAYOHAT

Bichimi: 84x108 $^{1}/_{16}$
Hajmi: 96 b.
Muqovasi: yumshoq.

O'txo'r hayvonlarning borligi barchamizga ma'lum va ular hech bir kitobxonda hayrat uyg'otmasligi kundek ravshan. Ammo o'simliklarning jonzotlar bilan oziqlanishiga nima deysiz. Ushbu kitob yosh kitobxonlarni o'simliklar olamining g'aroyibotlari sari sayohatga chorlaydi. Bunda

siz madaniy o'simliklar, suvda yashovchi floralar va dunyoning ko'z ko'rib quloq eshitmagan antiqa o'simliklari bilan tanishib borasiz. Kitob turli rangli illustratsiyalar bilan bezatilgan.

DUNYO BO'YLAB SAYOHAT

Bichimi: 84x108 1/16
Hajmi: 96 b.
Muqovasi: yumshoq.

Bilimga chanqoq bolajonlar! «Mening birinchi ensiklopediyam» turkumidan tayyorlangan «Dunyo bo'ylab sayohat» nomli kitobni Sizga taqdim qilamiz.

Siz bu bilimlar saltanatida dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan davlatlar, shaharlar, ularning qaysi qit'ada joylashganligi, maydoni, aholi soni, davlat tili, unda yashovchi turli millatlar va elatlar, ularning madaniyati, urf-odatlari, xushmanzara joylari bilan yaqindan tanishasiz. «Dunyo bo'ylab sayohat» kitobida har bir davlatning qiyofasi, tarixiy va dunyoga mashhur joylari rangli rasmlar bilan ko'rsatilgan.

Mazkur kitob orqali Siz o'zingizni qiziqtirgan barcha savollaringizga javob topasiz.

«Dunyo bo'ylab sayohat» aynan Siz kutgan kitob! Ular sizni Siz qiziqqan olamlarga yetaklashiga ishonamiz.

Adabiy-badiiy

A. P. Chexov

XAMELEON

Hikoyalar

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent – 2018

Muharrir	*Dildora Arzikulova*
Badiiy muharrir	*Bahodir Ibrohimov*
Texnik muharrir	*Umida Yaxshiboyeva*
Kichik muharrir	*Zilola Mahkamova*
Musahhih	*Umida Abdullayeva*
Sahifalovchi	*Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 160. 14.08.2009-y.

07.11. 2018 da bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 84x108 1/32. Ofset qog'ozi.
«Times» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 19,74. Nashriyot-hisob tabog'i 20,0.
Adadi 5000. Shartnoma № 62–18.
Buyurtma raqami № 284–18

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti,
100011, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., 100206, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.

11,000c

ANTON CHEXOV

Xameleon

HIKOYALAR

14+

«O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI»
DAVLAT ILMIY NASHRIYOTI

Toshkent, 100011,
Navoiy ko'chasi, 30-uy,
tel.: 71 244 09 36,
fax: 71 244 34 38.

ume.dinash@umail.uz
fb.com/ume.dinash
ume.dinash
t.me/Ensiklopediya_DIN

ISBN 978-9943-07-655-6